O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari va 2026-yil 10-apreldagi №384- son qarori bilan kimyo fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2026-11/4
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi

Xiva-2026

Bosh muharrir:
Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.	*Najmeddinov Axmad Raxmatovich, PhD, dots.*
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.	*Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna, f.f.d., prof.*
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.	*Normuratov Oybek Ulug’berdiyevich, q.-x.f.d., dots.*
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.	*Omonov Mamatqobil Ismoilovich, b.f.d., dots.*
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.	*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.	*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dots.*
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,	*Ramatov Bakmat Zaripovich, q-x.f.n., dots.*
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dots.	*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.	*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.	*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dots.*
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.	*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.	*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.	*Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD, dots.*
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.	*Salayev San’atbek Komilovich, i.f.d., prof.*
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.	*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*
Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.d., prof.	*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.	*Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dots.*
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.d., dots.	*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.	*Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.	*Sotipov Goyipnazar, q-x.f.d., prof.*
Kushmanov Jasur Baxodirovich, f.f.f.d., dots.	*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.*
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.	*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*
Karabayev Ikramjan Turayevich, q-x.f.d., prof.	*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc	*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dots.*
Karimov Ravshanbek Allayarovich, q.-x.f.f.d., k.i.x.	*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.	*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.*
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dots.	*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.	*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.	*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.	*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.	*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.	*Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.*
Masharipova Feruza Jumanazarovna, f.f.f.d.	*Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD*
Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.	*Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent*

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№11/4 (144), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2026 y. – 316 b. – Bosma nashrning elektron varianti - https://www.mamun.uz/bulletin

ISSN 2091-573X
Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

© Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, 2026

MUNDARIJA
FILOLOGIYA FANLARI

Abdujalilova R. A. Linguistic mechanisms that convey implicit meaning in English and Uzbek criminal discourse 6
Abdulxayeva D. A. Selim Ileri hikoyalarida roviy-bola nutqining poetik imkoniyatlari 9
Abduvaxidova R.X. Halima Xudoyberdiyeva ijodida milliy ruhni ifodalovchi poetik obrazlar va motivlar 14
Abuzalova M. K., Axmadova D. A. Kasalliklarning xalqona tibbiy leksik qatlami xususida 19
Aliyeva S. A. Badiiy matnlarda onomastik birliklarning pragmatik va stilistik xususiyatlari 21
Altayeva A.D. O‘zbek va xitoy tillarida gap bo‘laklari tartibining qiyosiy-tipologik tahlili 24
Artikova D. E. O‘zbek va ingliz xalq maqollarida aql-idrok bilan bog‘liq gender stereotiplarning lingvomadaniy jihatlari 27
Aynaxo‘jayeva G. A. O‘zbek tilidagi rasmiy hujjatlar va davlatlararo hujjatlarda terminlarning qo‘llanish xususiyatlari 32
Aynur Aydin qizi. Xorazm marosim folklorining lokal xususiyatlari 34
Bekturdiyeva A.O. Xorazm o‘g‘uz shevalarida sintaktik sinonimiya hodisasining namoyon bo‘lishi 37
Bo‘ranova M. X. O‘zbek va ingliz tillarida ornitonimli turg‘un birliklarni tarjima qilishda semantik-pragmatik ekvivalentlik 39
Burxonov U. O‘zbek va ispan tillaridagi arabizmlarning ma’nodoshlik xususiyatlari 42
Burxonov U. O‘zbek va ispan tillarida arabizmli turg‘un iboralarning ma’no va madaniy xususiyatlari 45
Djo‘rayeva O. A., Maxmudova N. R. Mehnat bilan bog‘liq maqollarda metaforik obrazlarning qiyosiy tahlili 48
Halimova M.T. Suratli kitoblar tarjimasining lingvistik va semiotik asoslari: nazariy tahlil 50
Haydarova U. Suv arxisemali birliklarning leksik-semantik paradigmasi 54
Hayitova Sh.E. Sun’iy intellekt davrida badiiy tarjima: ingliz va o‘zbek tillari misolidagi imkoniyat va chegaralar 56
Ibragimova D. Sh. The linguistic and pragmatic characteristics of interpersonal communication in english drama 58
Ismoilova D. M. Genderologik farqlanuvchi leksemalar 61
Islamova D. A. O‘zbek tilida iboralarning sintaktik vazifasi va pragmatik xususiyatlari 63
Isroilova M. Integration of corpus linguistics and phraseological research 65
Javliyev M. O. Ingliz tilshunosligida gul nomlarini o‘rganishning nazariy yo‘nalishlari 68
Jononqulova E. Q. O‘zbek tilida ajratilgan bo‘laklarning o‘rganilishi 71
Jumabayeva N.O. Ingliz va o‘zbek raqamli platformalarining kategoriya tizimlaridagi giponimik iyerarxiya 74
Jumaniyazov A., Jumaniyozova D. Ramzlarning so‘z va tafakkur bilan munosabati 77
Jumanyazova M.X. Xorazm xalq qo‘shiqlarida “ishq (muhabbat)” va “yor” konseptlarining lingvokulturologik xususiyatlari 82
Jumaqulova Ş. Q. Özbek tili frazeologik birliklarini identifikatsiyalaş mezonlari va ularning struktur tiplari 85
Kamolova M. U. Majnun, Farhod obrazlarining shakllanishida xilvatning o‘rni 88
Karaketova Sh. S. Translation of proverbs and sayings related to upbringing into uzbek, russian, and english 91
Kaxarova Ş. N. Özbek va ingliz tillarida ğazabni ifodalovçi somatik frazeologik birliklardagi kognitiv metaforalar 94
Komilova D. M. Badiiy detal va verbal tasvir 96
Komilova H. M. Pragmatic markers and linguistic strategies in the construction of rumors on social media 98
Kuranboyeva F.S. O‘zbek xalq ertaklarida epitetlarning lingvomadaniy va semantik xususiyatlari 101
Kurbanova G. D. Ullibibi Otayeva şe'riyatining yaşirin qirralari 104
Madaliyeva M. M. Ingliz badiiy dialogida bilvosita rad etishning lingvopragmatik strategiyalari 107
Malikova Ch. O‘tkir Hoshimov asarlarida milliy obrazlarning leksik-semantik asoslari 110
Mamadjanova M. U. Flora-coded epithets in the english language 113
Mamatmurodova S. M. “Yoshlik” konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvokulturologik talqini 116

Mardanova M. D. Teodor Drayzer va Sadriddin Ayniy nasrida pul obrazining badiiy-semantik va qiyosiy-tipologik xususiyatlari 118
Marimbayeva L.U. Ingliz va o‘zbek tillari lingvopragmatikasida ishonch konseptining leksik-semantik jihatlari 121
Mirzamatova M. B. How people address artificial intelligence in english and uzbek: a linguopragmatic perspective 124
Muminova G. Cognitive characteristics of uzbek students and problems of english lexical acquisition: a systematic review 126
Muminova M.O. “Boburnoma” inglizcha tarjimalarida toponimlarning lingvokulturologik xususiyatlari va berilish usullari 128
Murodova M. I. The place of satire in the general creative canon of evelyn waugh 131
Murotova D. Kh. Apology strategies in digital communication: a comparative pragmatic study of uzbek, english and russian 132
Namazova M. U. O‘zbek jadid adabiyotida muhojirlik va quvg‘inlik mavzusi 134
Nasimova S. Y., Ibragimova D. S. Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili 138
Nomazova S.B. Xalq dostonlarida nikoh oldi udum va marosimlarning aks etishi 140
Norbutayev P.P. Bronislav Malinovskiy funksionalizmi va o‘zbek etnologiyasi: madaniyatni yaxlit tizim sifatida o‘rganish 144
Norinboyeva R. R. The role of context in interpreting complaint and disagreement speech acts 147
Norkulova Sh. T. Abdulla Qahhorning xarakter yaratish mahorati 149
Olimzoda P., Saidova K. I. Madaniy konnotatsiya: lingvokulturologik tadqiq 152
Otebaeva D. A. Qoraqalpoq tilida ekologik terminlarning publitsistik uslubda qo‘llanilishi 154
Panayeva U.B. Sovet davri o‘zbek she’riyatida diniy mazmunning pardalangan ifodasi poetikasi 158
Porubay I. Lexical and morphological features of russian-language motorsport discourse 161
Qayumova Sh.Q. Ingliz va o‘zbek maqollarida gidronim komponentli va gidronimik birliklarning funksional-semantik xususiyatlari 163
Qobilova N. S., Raximova N. M. Ingliz va o‘zbek tillarida so‘zlashuv nutqi ta’sirida yuzaga keladigan leksik-semantik va grammatik o‘zgarishlar 166
Qobilova N. S., Tohirova Z. S. Ingliz va o‘zbek paremiologiyasida “uy” konseptining qiyosiy-lingvomadaniy tahlili 169
Qurbonov E.Q. Zarafşon vohasida arab jamoalarining joylaşuvi tarixi. 171
Rakhmanova S. M. Functional-stylistic features of English loanwords in modern Uzbek and Korean languages 174
Rakhmonnazarova F. M. Cross-cultural differences in the expression of apologies in english and uzbek: a linguopragmatic analysis 176
Raxmonova I. O. Taom konsepti va gastronomik birliklarning zamonaviy tilshunoslikdagi tadqiq yo‘nalishlari 179
Raxmatova N. V. Murojaat birliklarining lingvistik mohiyati: struktur-semantik va lingvopragmatik yondashuv 181
Risnazarova D. Ingliz tilida “kiyim” leksik maydonining tarkibi va chegaralari: tematik zonalar va leksemalarni kiritish mezonlari 184
Risqulova Sh.A. Ingliz yuridik diskursida aniqlik va noaniqlikni ifoda etuvchi vositalarning pragmatik xususiyatlari 187
Sabirova N. E. Turk dunyo madaniy merosida Xorazm xalfachilik an’analarining o‘rni va ahamiyati 190
Sabirova N.K. Sinonimik birliklarning pragmatik xususiyatlari 193
Sagdullayeva D. K. “SLM” o‘zagi va uning hosilalarining diaxronik-semantik tahlili 195
Saidova Z. U. Metaphor and polysemy in english and uzbek architectural terminology 198
Sapaeva Z.R. The theoretical-methodological foundations and linguocultural evolution of Uzbek demononymy 200
Shamamedova Z. X. Historical-poetic perspective of the english detective genre 204
Sharipova F. T. Yuridik atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi ekvivalentsizlik muammosi: common law va kontinental huquq tushunchalarini qiyoslash 206
Shermamatova S. O‘. The formation of travel writing as a genre in english literature 209
Shukurova M.A., Samandarov I.I. Audience, genre and pragmatic equilibrium in English–Uzbek conditional translation 211
Sobirjonova G. Ergash gapli qo‘shma gaplarning tuzilishi, ma’nosi va turlari: yangicha yondashuv va tarjima masalalari 214
Sobirjonova M.S. The expression of axiological and evaluative semantics in aphorisms 217

Tojiboyeva M.Sh. Ingliz va o‘zbek tillarida siyosiy diskursda metaforalarning kognitiv-pragmatik xususiyatlari 220
Turdimatova M.R. Kinoya va pragmatik ma’no: bilvosita kommunikativ mazmunni shakllantirish mexanizmlari 222
Turdimatova M.R. Kinoyaning pragmatik tabiati va kommunikativ funksiyalari 226
Turdiqulova R.T. Ispan va o‘zbek badiiy matnlarida madaniy markerlangan metaforalar: semantik va pragmatik xususiyatlar 228
Turg‘unova M. Sh., Jurayev I. M. Lexical-semantic and phraseological analysis of emotionally expressive metaphors in uzbek and english 231
Umarova M. T. Semantic and pragmatic interpretation of visual signs in contemporary digital communication 233
Xakimov M. X. Nominatsiya nazariyasi masalalariga doir 235
Xamidova G.P. Pragmalingvistika va konspirologik diskurs: matnlarning yaşirin pragmatik strategiyalari va semantik strukturasi 238
Xamrayeva Ch. N. Ingliz va o‘zbek tillarida “sadoqat” konseptining lingvokognitiv modellari va ularning milliy-madaniy xususiyatlari 241
Xaqnazarova S. A. Abdulla Sherning tarjimonlik mahorati: Haynrih Hayne misolida 243
Xayriyeva N. Şukur Xolmirzayev ijodida til fenomeni hamda milliy kolorit 246
Xojiyeva Sh. A. Rus tili vositasida o‘zlashgan melioratsiya terminlarining fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari 248
Yuldasheva B. Genderga oid neologizmlarning reklama diskursiga kirib kelishining o‘ziga xos xususiyatlari 251
Yuldoshev S.T. Ingliz va o‘zbek tillarida atmosfera, harorat va termik hodisalar semantik guruhiga oid meteorologik birliklar 254
Yusupova S. A., Bektemirov A. Lexical politeness markers in english-speaking users’ prompts to chatgpt: a preliminary analysis 256
Zaripova Sh.O. Neofolklorizmning zamonaviy o‘zbek hikoyachiligidagi namoyon bo‘lish shakllari 258
Zokirova S. O. Artur Konan Doyl va o‘zbek detektiv nasrining shakllanishi hamda taraqqiyot xususiyatlari 262
Абдуллаева Р. Х. Аксиологический образ человека в цифровой коммуникации: преемственность ценностей и дискурсивные трансформации 264
Айнахожаева Г. А. Лингвистическая классификация терминов в международных документах на русском языке 267
Амонтурдиева Ш. Р. Ўзбек тилининг диний услуби 269
Бахронова У. А., Рахмонова М. Х. Исторический обзор изучения метафоры и сравнения в отечественной и зарубежной лингвистике 272
Қудратов У. Б. Референция ва дейксис ҳодисаларининг ўзаро муносабати 275
Мавланова Н. Методы исследования метафорических конструкций: от когнитивной теории к корпусной процедуре 278
Панжиев Н.П. Фонотактическая организация финальных консонантных кластеров в современном русском литературном языке 280
Раджабова Н.А. Национально-культурная специфика лексики в переводе Абдуллой Каххаром повести А. С. Пушкина «Капитанская дочка» 290
Сарсенбаева И. У. Қорақалпоқ тилига инглиз тилидан ўзлашган қишлоқ хўжалиги терминларининг лексик-семантик мослашуви 293
Сратдинова Г. Б. Инглиз, ўзбек ва қорақалпоқ тилларида тўқимачилик терминларининг структур тузилиши 295
Хакимова Х.Р. Деархаизация лексики русского языка: причины и особенности возвращения слов в употребление 298
Хакимова Х.Р. Словарные пометы «стар.» и «устар.» в лексикографическом описании русской лексики 301
Худайберганов Ш.Э. Культурно-историческая функция устаревшей лексики в русском художественном тексте 304
Худайберганов Ш.Э. Лексико-семантические группы устаревших слов как средство репрезентации исторической картины мира 307
Хужанова О. Т., Каршиев А. Поэтика и проблематика лирики Анны Ахматовой 310
Шарипова Ф. Т. Культурная семантика личных имён в русской и узбекской литературе в контексте трансформации традиционных моделей и постсоветской гибридности 312

UDC 81`42

LINGUISTIC MECHANISMS THAT CONVEY IMPLICIT MEANING IN ENGLISH AND UZBEK CRIMINAL DISCOURSE

R.A.Abdujalilova, assistant lecturer, Termez Branch of Tashkent State Medical University, Termez

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi kriminal diskursda implitsit (yashirin) ma'noni ifodalovchi lingvistik mexanizmlar qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, presuppozitsiya, implikatura, kontekstual ma'no, metafora va bilvosita nutqiy aktlarning kommunikativ vazifalari yoritiladi. Shuningdek, tahdid, manipulyatsiya va yashirin mazmunni ifodalashda qo'llaniladigan til vositalarining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *kriminal diskurs, implitsit ma'no, yashirin mazmun, presuppozitsiya, implikatura, pragmatika, kontekst, tahdid, manipulyatsiya.*

Аннотация. *В статье проводится сопоставительный анализ лингвистических механизмов выражения имплицитного значения в криминальном дискурсе английского и узбекского языков. Рассматриваются функции пресуппозиции, импликатуры, контекстуального значения, метафоры и косвенных речевых актов. Особое внимание уделяется языковым средствам выражения угроз, манипуляции и скрытого смысла.*

Ключевые слова: *криминальный дискурс, имплицитное значение, скрытый смысл, пресуппозиция, импликатура, прагматика, контекст, угроза, манипуляция.*

Abstract. *This article provides a comparative analysis of linguistic mechanisms used to convey implicit meaning in English and Uzbek criminal discourse. It examines the functions of presupposition, implicature, contextual meaning, metaphor, and indirect speech acts. Particular attention is paid to linguistic devices used to express threats, manipulation, and hidden meanings.*

Key words: *criminal discourse, implicit meaning, hidden meaning, presupposition, implicature, pragmatics, context, threat, manipulation.*

The vocabulary used to describe an individual can influence public perceptions of their responsibility or potential threat even before all relevant facts have been disclosed. In English, expressions like "career criminal" and "offender" suggest a stronger negative judgment than the comparatively impartial term "suspect." A similar distinction exists in Uzbek, where gumondor refers to someone whose involvement in an offence is under suspicion, whereas jinoyatchi presents the person as a criminal. Furthermore, negatively charged adjectives such as "notorious" and references to a person's disadvantaged social background may influence how readers or listeners assess their personality, intentions, and behaviour. The persuasive effect of these linguistic choices extends beyond their dictionary meanings, as their interpretation is shaped by the communicative situation and the beliefs or expectations that interlocutors bring to it [1].

Metaphors and euphemisms are often used to talk about criminal activities without saying everything directly. For example, when someone says "take care of the problem," they may be referring to something violent, even though the words themselves sound harmless. On the other hand, the expression "a wave of crime" makes crime sound like a serious and widespread problem. Similar expressions can be found in Uzbek, where people sometimes use indirect language to suggest that someone has done something wrong without openly accusing them. This is important when translating between English and Uzbek because the same expression may have different meanings in different cultures. A phrase that sounds ordinary or figurative in one language may sound much more serious or threatening in the other [2]. Key effects include: - Obscuring: replacing a direct description with an indirect phrase. - Intensifying: using vivid imagery that makes an act appear more severe or widespread.

The way a sentence is formed can affect how people understand who is responsible for a crime. For example, the sentence "the evidence was destroyed" tells us what happened but does not say who

destroyed it. Similarly, the phrase "the destruction of evidence" makes it even less clear who was involved. Both English and Uzbek use these kinds of expressions, which can shift attention away from the person who committed the act and towards the results, institutions, or victims. As a result, using passive sentences and turning actions into nouns can make it harder for readers to identify the person responsible in a criminal case [3].

In criminal conversations, people often understand the real meaning of a message by looking at the situation and what they already know, even when the speaker does not explain everything directly. For example, an investigator's question, a suspect's short answer, or a conversation using secret words can mean different things depending on the people involved and what they have discussed before. The place where the conversation happens, the timing, who is listening, and whether the speakers feel free to talk openly can also affect how their words are understood. These factors help explain why a simple or ordinary sentence may have a deeper meaning in a criminal context [4]. In English and Uzbek criminal discourse, such cues can make an apparently neutral phrase sound like an admission, warning, or attempt to conceal information.

People can suggest that someone is guilty without accusing them directly. For example, when an investigator asks a suspect, "When did you hide the evidence?", the question already assumes that the person hid it, even if this has not been proven. In the same way, if someone says, "I was nowhere near the warehouse," their answer may suggest that they know they are suspected of something, although they do not clearly admit or deny any involvement. Research on English and Uzbek online communication shows that hidden meanings can influence how people understand a message through presuppositions and conversational implicatures [5]. In criminal interactions, these mechanisms can steer interpretation while leaving room for speakers to dispute what they meant.

Threats, denials, and confessions do more than simply share information; they are also used to achieve certain goals. For example, a threat may be intended to frighten a witness, while a denial may be used to reject an accusation or stop an investigator from asking more questions. A confession can show that someone accepts responsibility, but depending on how it is expressed and the situation in which it occurs, it may also show regret, a willingness to cooperate, or a hope for a lighter punishment. Research on Uzbek linguistics has explored how speech acts work and how their meanings depend on context. This shows why it is important to consider not only the words people use but also their purpose and the circumstances in which they speak [6].

Culture influences how people express suspicion, blame, and responsibility, especially when they do not want to say things directly. In both English and Uzbek, people may choose their words based on politeness, their relationship with the other person, and what is considered acceptable in society. For example, one speaker may openly accuse someone, while another may hint at wrongdoing instead of making a direct accusation. The listener's understanding depends partly on cultural expectations and how people are normally expected to communicate in that situation [3]. This is especially important when studying criminal conversations, because even a careful question, an indirect comment, or silence can suggest that someone is suspected of a crime without openly accusing them. Pragmatic analysis helps explain these hidden meanings by looking not only at the words people use but also at the cultural beliefs and expectations that help listeners understand what the speaker really means [2].

Legal terms do not always have the same meaning in English and Uzbek because each language is connected to its own legal system and procedures. A word used in an investigation, prosecution, or description of a crime may not have an exact equivalent in the other language. Because of this, translating a legal term word for word can sometimes cause confusion about the process or the authority involved. Linguistic analysis can help investigators and courts understand how language is used and how particular words may affect the interpretation of criminal cases (9). For legal translators, this means attending to institutional context as well as dictionary meaning, especially when a term's procedural force shapes how an utterance is understood [4].

The way people address each other can show who has more power and influence in a criminal conversation. For example, using a formal title, a surname, a first name, or a respectful form of address can express respect, authority, distance, or a desire to control the conversation. These choices

can also change how a question is understood: it may sound like a normal request, an attempt to put pressure on someone, or a direct accusation. Since English and Uzbek have different traditions of addressing people, the same form of address may not carry exactly the same meaning in both languages [2]. In legal exchanges, interpreting these choices alongside personal and other deictic expressions can help clarify who is being addressed and how participants position themselves in relation to one another.

English and Uzbek may use comparable euphemisms to refer indirectly to criminal acts, yet the associations each expression carries depend on cultural expectations. Euphemisms soften or recast sensitive meanings, while the choice of replacement can reflect what a community considers taboo or socially acceptable [5]. Euphemisms in English and Uzbek can be used to hide a crime, make an accusation less direct, or describe an action in a more formal way. However, they do not always have the same meaning or effect in both languages. An expression that sounds polite and careful in one language may seem dishonest or have a stronger negative meaning in the other. This difference is important because euphemisms depend not only on the words themselves but also on how people use and understand them in different cultural situations.

Word order and sentence structure can influence how clearly a person responsible for a crime is identified in English and Uzbek. English generally follows a more fixed word order, whereas Uzbek allows sentence elements to be arranged more freely and uses suffixes to show grammatical relationships. Because of these differences, a speaker may focus on the criminal act or its consequences rather than clearly identifying the person who committed it. Passive sentences and the omission of the actor can have a similar effect in both languages, making responsibility less obvious. To understand these differences, it is important to examine whether the person involved is directly named or only implied, whether the sentence focuses on the act, its consequences, or the victim, and how these grammatical choices influence the listener's understanding of responsibility. Looking at the context and intended meaning helps explain not only how a sentence is structured but also what the listener understands from it [2].

In conclusion, hidden meanings in English and Uzbek criminal discourse depend on the words people choose, the situation in which they speak, and the cultural and legal rules that influence communication. Word choice, metaphors, euphemisms, sentence structure, implied assumptions, and speech acts can suggest guilt, intention, or responsibility without expressing these ideas directly. Although both languages use indirect ways of communicating, differences in grammar, cultural meanings, legal terms, and forms of address can affect how a statement is understood, particularly when it is translated. Understanding these similarities and differences is important for investigators, interpreters, and courts because unclear language can influence judgments about a person's intentions, honesty, and responsibility.

REFERENCES:

1. Aslonova G. U. Pragmatic and linguocultural reinterpretation of implicit meaning in English-Uzbek literary translation. Conference on International Scientific Development: Insights into Modern Science and Innovative Practices. 2026.

2. Habibolahi M. Exploring the implicit meanings of the Qur'ān through pragmatics: Reference, presupposition and entailment in focus. International Journal of Textual and Translation Analysis in Islamic Studies, 1(3), 2023. – P.307-326.

3. Nazarov M. M., & Bekberganov A. M. Implicit manipulation in online news discourse: Presupposition and implicature in Uzbek and English headlines. New Approaches in Education: Pedagogy, Innovation, and Development, 2(9), 2026. – B. 86-92.

4. Pickett P. O. Linguistics in the courtroom. FBI Law Enforcement Bulletin, 62(10), 1993. – P. 6–9.

5. Usmonova D. S., & Gulamova D. A. Linguistic and cultural classification of euphemisms in Uzbek and English languages. International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research, 11(10), 2022. – P. 140-143.

6. Yuldashev F., Ergashev, M., Akhmedova M., Najmiddinova M., & Najmiddinova G. Neologisms in English-Russian-Uzbek digital discourse: A corpus-based pragmatic analysis. Research Square. 2026.

UDC 821.512.161:82-32

SELIM ILERI HIKOYALARIDA ROVIY-BOLA NUTQINING POETIK IMKONIYATLARI

D.A.Abdulxayeva, tayanch doktorant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy adabiyotshunoslikning rivoya va nuqtayi nazar singari dolzarb masalalari turk adabiyotining yetuk vakillaridan biri bo'lmish Selim Ileri hikoyalari misolida tadqiq qilinadi. Tadqiqot doirasini adibning asar voqealarini roviy-personaj – bola bo'lgan hikoyalari tashkil qiladi. Adibning "Hur qiz" ("Gelinlik Kız"), "Onamning yorongullari" ("Annemin Sardunyaları"), "Ko'ylak xaritalari" ("Elbise Haritaları"), "Butun Istanbul bilsin" ("Bütün İstanbul Bilsin"), "Skripka" ("Bi Keman"), "Tadbir" ("Müsamere") nomli hikoyalarida bola tili va nuqtayi nazaridan foydalanish qanday poetik funksiyalar bajarishi tahlil qilinadi. Roviy-bola obrazi voqelikni aks ettirishda ishonchlilik hissini uyg'otadi. Shuningdek, komiklik effektini yuzaga keltirish hamda ikki qatlamli ma'no hosil qilishga xizmat qiladi. Ikki qatlamlilik badiiy matnning semantik boyligini oshiradi. Roviy-bola obrazi vositasida yozuvchi oila va jamiyatdagi nozik va munozarali mavzularni yoritadi. Vaziyatni bolalarning beg'ubor nigohi orqali talqin qilish asar ta'sirchanligini oshirish bilan birgalikda aslida o'ta murakkab va munozarali holatni boshqa bir rakursdan turib tasvirlash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *Selim Ileri, hikoya, rivoya, roviy-personaj, nuqtayi nazar, narrator-bola.*

Аннотация. *В данной статье исследуются такие актуальные проблемы современного литературоведения, как наррация и точка зрения, на материале рассказов одного из видных представителей турецкой литературы Селима Илери. Объектом исследования являются рассказы писателя, в которых повествование ведётся от лица ребёнка-персонажа. В статье анализируются поэтические функции детского языка и детской точки зрения в рассказах "Девушка накануне замужества" (Gelinlik Kız), "Герани моей матери" (Annemin Sardunyaları), "Карты платьев" (Elbise Haritaları), "Пусть весь Стамбул знает" (Bütün İstanbul Bilsin), "Скрипка" (Bi Keman) и "Утренник" (Müsamere). Установлено, что образ ребёнка-повествователя создаёт эффект достоверности в изображении действительности. Кроме того, он способствует возникновению комического эффекта и формированию двухуровневой смысловой структуры текста. Такая смысловая двуплановость усиливает семантическую насыщенность художественного произведения. Посредством образа ребёнка-повествователя автор освещает тонкие и дискуссионные проблемы семьи и общества. Интерпретация событий через непосредственный и наивный взгляд ребёнка не только усиливает эмоциональное воздействие произведения, но и позволяет представить сложные и противоречивые явления в новом ракурсе.*

Ключевые слова: *Селим Илери, рассказ, наррация, персонаж-повествователь, точка зрения, ребёнок-повествователь.*

Abstract. *This article examines such topical issues of contemporary literary studies as narration and point of view through the short stories of Selim İleri, one of the prominent representatives of Turkish literature. The scope of the study includes the author's stories in which the narrator is a child character. The article analyzes the poetic functions of child language and child perspective in the stories The Girl in a Wedding Dress (Gelinlik Kız), My Mother's Geraniums (Annemin Sardunyaları), Dress Maps (Elbise Haritaları), Let All Istanbul Know (Bütün İstanbul Bilsin), A Violin (Bi Keman), and School Performance (Müsamere). The study demonstrates that the child narrator creates a sense of authenticity in the representation of reality. In addition, this narrative strategy generates a comic effect and contributes to the formation of a dual-layered semantic structure. Such duality enhances the semantic richness of the literary text. Through the figure of the child narrator, the author addresses delicate and controversial issues related to family and society. Interpreting events through the innocent perspective of a child not only increases the emotional impact of the narrative but also enables the depiction of complex and controversial situations from an alternative viewpoint.*

Key words: *Selim İleri, short story, narration, narrator-character, point of view, child narrator.*

Kirish. Badiiy asar tarkibini tashkil qiluvchi rivoya va nuqtayi nazar kompozitsiyaning asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. “Rivoya makon va zamonda kechgan voqealarni so‘z vositasida aks ettirish, sodda qilib aytsak, hikoya qilishdir” [6]. Epik asarda voqea-hodisalarni hikoya qilib berayotgan shaxs roviy, hikoyachi yoki narrator deb yuritiladi. Adabiyotshunoslik lug‘atida keltirilishicha: “roviy epik asarlardagi voqealarni hikoya qilayotgan, ular kechayotgan makon va zamon, ularda ishtirok etayotgan personajlarga oid tafsilotlarni yetkazib, tasvir predmetiga u yoki bu tarzda munosabat bildirayotgan shaxs” [7] sanaladi. Turk adabiyotshunosi Nurulloh Chetin ta’biri bilan aytganda: “Hikoyachi yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasida vositachilik qiluvchi instansiyadir. Hikoyachi badiiy olamdagi voqealarni o‘z nuqtayi nazari, estetik didi va imkoniyatlariga ko‘ra o‘quvchiga yetkazuvchi subyekt hisoblanadi” [10].

Epik asarda rivoya odatda muallif tilidan yoki personajlardan birining tilidan olib boriladi. Rivoyaning uchinchi shaxs va birinchi shaxs tilidan bayon qilinishi an’anaviy hikoyachilikda keng uchraydi. Uchinchi shaxs tilidan hikoya qiluvchi roviyning kimligi noma’lumligi sababli “roviy shaxs emas – funksiya” deyiladi hamda roviy tasvirlanayotgan badiiy voqelik ichida mavjud bo‘lmaydi. Shaxsi aniq roviy deganda roviy-muallif va roviy-personaj ko‘rsatiladi. Rivoya uchinchi shaxs tilidan berilgan asarlarda tasvir ko‘lami g‘oyat keng – roviy “har yerda va har vaqt hozir” bo‘lishga qodir, bas, turli zamon va makonlarda sodir bo‘lgan voqealardan so‘zlay biladi. Roviy-personaj tilidan berilgan asarlarda esa qahramon bevosita guvohi bo‘lgan yoki ishtirokchisi bo‘lgan voqealargina kiritiladi. Shunga mos ravishda tasvir ko‘lami ham torayadi [6]. Bundan tashqari, muayyan badiiy-estetik maqsadni ko‘zda tutgan holda rivoya muallif tilidan berilgan asarlarda epizodik ravishda roviy-personajning paydo bo‘lishi kuzatiladi.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha: “hikoyachi bayon qilayotgan voqealarga nisbatan tarafkash yoki xolis, obyektiv yoki subyektiv munosabat bildirishi mumkin. Hikoyachi o‘zi yetkazayotgan ma’lumotni sharhlashi, tanqid qilishi yoki ma’qullashi mumkin. Bundan tashqari, hikoyachi voqealarni tabiiy rivojlanish tartibida bayon qilishi, zarur hollarda matnga aralashib, qo‘shimcha izoh va ma’lumotlar berishi ham mumkin” [10].

Rivoya asar voqealarini bir-birga mos tarzda uyushib kelishini hamda tashkillanishini ta’minlaydi. “Rivoya epik asar nutq shakllarini yaxlitlashtiruvchi omildir. Ya’ni tavsif ham, dialog ham rivoya orqali, bamisoli rivoyaga o‘rab taqdim etiladi” [6]. Bir so‘z bilan aytganda rivoya badiiy voqelikning o‘quvchi tasavvurida yaxlit butunlikda gavdalantirishga xizmat qiladi.

Badiiy asar voqealari, ular sodir bo‘ladigan makon va zamon, ularda ishtirok etadigan qahramonlar singari unsurlarning kim tomonidan ko‘rilishi, idrok etilishi hamda tasvirlanishi nuqtayi nazar tushunchasini tashkil qiladi. “Nuqtayi nazar (persfektiv, manozir) – ijodkorning tabiatni, narsa-buyumlarni, predmetlarning bir-biriga nisbatan joylashuv farqlarini, masofalarini belgilaydigan tarzda tushuntirish, tasvirlash, aks ettirish uchun qaragan nuqtasi” [5] bo‘lib, “nuqtayi nazar roviy bilan tasvirlanayotgan voqelik o‘rtasidagi munosabat asosida yuzaga keladi. Bunda ikkita jihatga: 1) voqelikni qaysi nuqtadan turib tasvirlanayotgani; 2) tasvirlanayotgan narsalar kimning nigohi orqali berilayotganiga diqqat qilinadi” [6].

Nazariy manbalarda “hokim (mutlaq) nuqtayi nazari”, “qahramon-roviy nuqtayi nazari” hamda “kuzatuvchi-roviy nuqtayi nazari” turlari farqlanadi. Hokim nuqtayi nazaridan bayon qilingan asarlarda hikoyachi hamma narsadan boxabar bo‘ladi. Qahramonlarning xayolidan o‘tayotgan o‘y-fikrlarni, his-tuyg‘u va tushunchalarni biladi. “Qahramon-roviy nuqtayi nazari qo‘llanilgan asarlarda, roviy o‘sha qahramonning kuzatish qobiliyati, tajribasi va bilim darajasi bilan cheklangan bo‘ladi. Matnning tuzilishi va uslubiga qahramon-roviyning madaniy saviyasi, fe’l-atvori, diqqati hamda u yashayotgan sotsiologik va psixologik sharoitlar ta’sir ko‘rsatadi. Til ham aynan shu roviyning xarakteri va madaniy darajasiga mos ravishda shakllanadi. Bunday matnlarda qahramon-roviy doimo oldingi planda bo‘lib, asarning markaziy unsurini tashkil etadi” [1]. Kuzatuvchi-roviy nuqtayi nazari qo‘llanilgan asarlarda qahramon o‘z hayoti haqida emas, balki kuzatuvchi sifatida guvoh bo‘lgan boshqa shaxslar boshidan kechirgan voqealarni hikoya qiladi.

Adabiyotshunos D.Quronov asarda roviy va personaj nuqtayi nazarining almashinishi, o‘zgarishi muhim badiiy-estetik funksiya bajarishiga alohida diqqat qaratib, har ikki nigohning

konkret vazifasi mavjudligini, ya'ni o‘quvchi bu ikki nigoh orqali asar voqealari jarayonini teran anglab yetishini, natijada asar ruhiga oson kirishini ta'kidlaydi [6]. Shuningdek, rivoyaning ayni o‘rinda turli nigohlar orqali berilishi "tasvirning dinamikligini ta'minlaydi, unga jonlilik va hayotiylik baxsh etib, asarning estetik ta'sir kuchining ortishiga xizmat qiladi" [7], deydi.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Epik asarlarda xususan, hikoyada rivoya va nuqtayi nazar masalalari adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Dunyo adabiyotshunosligida mazkur masalalar yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, B.Shukurovaning "Hikoyada roviy obrazining xususiyatlari" nomli maqolasida Sh. Xolmirzayev hikoyalarida roviyning vazifasi tahlil qilingan. Turk adabiyotshunosligida roviy-bola masalasi ayrim yozuvchilar ijodi kesimida tadqiq qilingan. Jumladan, H.Akyildizning "Çocuk Bakış Açısının Anlatıda Kullanılışı ve İşlevi Üzerine" maqolasida bola nuqtayi nazaridan hikoya qilingan turk va jahon adabiyoti namunalaridagi tematik va strukturaviy o‘xshashliklar, asarda bola nigohidan foydalanishning maqsadi hamda imkoniyatlariga to‘xtalib o‘tilgan. A.Usluning "Hüseyin Su Hikayelerinde Çocuk Anlatıcı ve Bakış Açısının Kullanılışı ve İşlevi" maqolasida roviy-bola va nuqtayi nazar masalasi turk yozuvchisi Huseyin Su hikoyalari misolida tahlil qilingan.

Rus tadqiqotchisi N.Nikolinaning "Функция рассказчика-ребёнка в современной англоязычной прозе" maqolasida zamonaviy ingliz nasrida roviy-bola obrazining qo‘llanilishi komik va begonalashtirish effektini yaratish hamda an'anaviy janrlarga yangi nigoh olib kirish va bola obrazini dekonstruksiya qilish vazifalarini bajarishi tahlil qilingan. L.Berberovaning "Ребенок как нарратор в рассказе В.Распутина "Уроки французского"" nomli maqolasida voqealarning bola ongida qanday aks etishi, bolaning dunyoni idrok etishi, baholashi, his qilishi va bu jarayonlarning asar poetikasini qanday shakllantirishi o‘rganilgan. H.Temmarning "Methods of Narration Between The Story Of Childrens And Adults" maqolasida bolalar va kattalar hikoyalarida rivoya usullari va ularning o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi.

Selim İleri hikoyalarida rivoya va nuqtayi nazar masalalari A.Harmanji va I.Halabaklarning tadqiqot ishlarida o‘rganilgan bo‘lsa-da, mazkur tadqiqot ishlarida roviy-bolaning poetik funksiyalari, fokalizatsiya tizimi va estetik imkoniyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilinmagan.

Tadqiqotni amalga oshirish. Maqolada adabiy-estetik, narratologik va poetik tahlil usullaridan foydalangan holda Selim Ileri hikoyalaridagi roviy-bola va nuqtayi nazar masalalari tahlil qilindi.

Olingan natijalar tahlili. Dunyo adabiyotida roviy-bola tomonidan hikoya qilingan asarlar ko‘plab uchraydi. Yozuvchilar tomonidan roviy personaj – bola qilib tanlanishiga bir qancha omillarni sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Birinchi omil sifatida bolalar tabiatiga xos beg‘uborlik, rostgo‘ylik va haqqoniylik xislatlarini keltirish mumkin. Zotan, bolalar ko‘rgan-kechirganlarini ro‘yi-rost, bor-bo‘yi bilan bayon qiladi. "Bola nigohi madaniy ongosti, ijtimoiy stereotiplar va singdirilgan qadriyatlar ta'sirida yuzaga keladigan subyektiv og‘ishlardan nisbatan xoli bo‘lgan badiiy tasvir usuli hisoblanadi. Bola kattalarga xos hayotiy tajriba va qarashlarga ega bo‘lmagani sababli voqelikni bevosita va tabiiy tarzda idrok etadi. Shu bois, uning tasvirlari o‘quvchida ishonch uyg‘otadi hamda badiiy asarning realizm darajasini kuchaytiradi" [2]. Kitobxon asarni mutolaa qilar ekan, unda bolalarga xos sodda tildan bayon qilingan badiiy voqelikka nisbatan bevosita ishonch uyg‘onadi. Muallif bola nutqidan ma'lumotlarni shaffof, shaxsiy fikrlarsiz yetkazuvchi, fitnadan yiroq, ishonarli axborot manbai sifatida foydalanadi.

Asar bayonida roviy-bola tilidan foydalanishning ahamiyati haqida "Nazariy poetika" darsligida shu fikrlar ilgari suriladi: "Shum bola" qissasida rivoyaning personaj tilidan hikoya qilinishi ham o‘ziga xos badiiy samara bergani, shubhasiz. Deylik, mabodo qissada rivoya yozuvchi tilidan olib borilganda, undagi ayrim epizodlar o‘quvchida shubha uyg‘otishi, ishonchsizlik qo‘zg‘ashi mumkin bo‘lardi. Qorajon tilidan olib borilganda esa biroz orttirilgandek ko‘ringan o‘rinlar hikoyachining fe‘liga yo‘yiladi, boz ustiga, uning xarakter xususiyatlarini yorqinroq ko‘rsatishga ham xizmat qiladi" [9].

Adabiyotshunos T.Boboyevning "Adabiyotshunoslik asoslari" kitobida ham yuqoridagilarga hamohang fikrlarni kuzatish mumkin: "Yozuvchi asarni, masalan, bola tilidan hikoya qilar ekan,

muallif-hikoyachi tilida bola ruhiyatiga va tiliga moslashish bo‘ladi. Masalan, Chingiz Aytmatovning “Jamila” povesti Jamilaning yosh qaynisi Seit tilidan olib borilar ekan, hikoyachi-personaj tilida ham shu bola tabiati sezilib turadi. “Bo‘tako‘z” hikoyasi Chingiz Aytmatov tilidan emas, aksincha personaj-hikoyachi Kamol tilidan olib borilgan. Oqibatda, birinchidan, muallif tili bajaradigan vazifani hikoyachi-personaj tili bajargan bo‘lsa, ikkinchidan, shu hikoyachi-personaj tilida o‘spirinning yoshlik xususiyatlari ham, tajribasizligi ham, o‘yinqaroqligi ham, xullas, uning butun tabiati mana men deb ko‘zga tashlanib turadi” [3]. Selim Ilerining “Hur qiz” (“Gelinlik Kız”), “Ko‘ylak xaritalari” (“Elbise Haritaları”), “Butun Istanbul bilsin” (“Bütün İstanbul Bilsin”) nomli hikoyalarida rivoya Kamol tilidan olib boriladi. Hikoyalarda Kamolning voqealarga bolalarcha ma’sum nigoh bilan qarashi, ularni bolalarga xos tilda ifodalashi qahramon ruhiyatini sodda lekin teran ochib berishga xizmat qiladi.

Boshqa bir omil sifatida bolalarning fikrlashi, dunyoni anglashi kattalarnikidan farq qilishini keltirish mumkin. Shu sababli roviy-bola tilidan hikoya qilingan asarlarda til juft qatlamli ma’no hosil qiladi. Bir tomondan voqealar bola tushungan, anglab yetgan darajada bayon qilinsa ham, boshqa bir tomondan muallifning yashirin nigohi orqali kitobxon bola tushunmagan ma’nolarni, ijtimoiy yoki psixologik jihatlarni anglaydi. “Bola va katta yoshli individ o‘rtasidagi kognitiv va emotsional tafovutlar ularning idrok etish hamda voqelikni ifodalash shakllarida ham namoyon bo‘ladi. Voyaga yetgan muallif bola qahramon anglay olmaydigan yoki to‘liq nomlay olmaydigan hodisalarni katta yoshli o‘quvchi tushunishini hisobga oladi. Shu bois, hikoyada bayon qilingan voqelik bilan uning o‘quvchi tomonidan talqin etilishi o‘rtasida yuzaga keladigan farq matnning ikki qatlamli ma’no tizimini shakllantiradi” [8]. Masalan, S.Ilerining “Onamning yorongullari” (“Annemin Sardunyaları”) nomli hikoyasida bola oiladagi mojaroni qisman tasvirlaydi, lekin zukko kitobxon mana shu qisqa satrlar ortiga muallif juda ko‘plab oilalarning buzilishiga sabab bo‘luvchi ayanchli muammoni yashirganligini anglab yetadi.

“Buvim: “Nimasi bor, arvaq-tirvaq, beodob qiz bo‘lsa nimasiga ishonadi hayronman, dedi. O‘ttiz besh yosh, o‘ttiz besh yosh erkakning qirchillagan yoshi. Bu bolani o‘zim boqaman. Hamma uning otasining ortidan yuguradi, dedi.”

(“Babaannem diyor ki, nesi var diyor, etsiz butsuz bir kızdı, görgüsüzdü diyor, nelerine gövenirler bilmem ki. Otuz beş yaşında daha, tam yaşı erkeğin otuz beş; olmazsa bu çocuğa ben bakarım diyor, herkes peşinde babasının diyor” [4].)

Hikoyada qaynonaning kelinini doimiy kamsitishi, yerga urishi farzand nigohi orqali tasvirlanadi. Buvining bu harakati farzandda buviga nisbatan nafrat uyg‘onishiga, oilada o‘zaro mehrsizlik paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ba’zi hollarda bola onasini buvisining kesatiq gaplaridan asrash uchun yolg‘on gapirishga ham majbur bo‘ladi.

Shuningdek, yozuvchi oilalardagi jamiyatni tanazzulga yuz tuttiruvchi ayanchli holatlarni beg‘ubor bola nigohi orqali talqin qiladi. “Bola nuqtayi nazaridan foydalanish, ayniqsa yopiq jamiyatlar haqida hikoya qilinayotganda yoki muayyan jamiyat uchun nozik va bahsli masalalar yoritilganda, tanqidlar va oldindan shakllangan stereotiplarga qarshi turishning samarali usullaridan biri bo‘lib xizmat qiladi” [2]. Selim Ilerining “Tadbir” (“Müsamere”) nomli hikoyasida ota-onaning farzandga noto‘g‘ri o‘rnak bo‘lishi tanqid ostiga olinadi. Ota hali voyaga yetmagan o‘g‘lini o‘zi bilan birga tungi klublarga olib boradi. Ona esa mehmonga kelgan dugonalari bilan qimor o‘ynaydi. Hikoyada bu vaziyat shunday tasvirlanadi:

“Eski o‘qituvchimiz ikki gapining birida qimor juda yomon odat, oilani harob qiladi, derdi. Onam dugonalari bilan poker o‘ynayotganida bu gapni unga aytdim. Hammalari kulib yuborishdi. ... O‘qituvchingiz u gaplarni besh yuz lira maosh oluvchi davlat xizmatchilari va o‘qituvchilarning farzandlarini o‘ylab aytgandir o‘g‘lim, dedi.”

(“Eski öğretmenimiz kumar çok kötü bir alışkanlıktır, ev bark yıkar derdi ikide bir. Anneme söyledim arkadaşlarıyla poker oynarken. Hepsi güldüler. ... Sizin öğretmen o sözleri, bez yüz lira aylıklı memur, öğretmen çocuklarını düşünerek söylemiştir oğlum dedi” [4].)

“Bola nuqtayi nazari yozuvchi tomonidan ijtimoiy tanqid yoki kattalarga xos qadriyatlar va qarashlarni tanqid qilish maqsadida qo‘llanilishi mumkin. Aslida, bola nigohi orqali hikoya qilingan

asarlarning aksariyatida shunday tanqid uchraydi” [2]. Hikoyada sinfiy tabaqalashuv, odam ajratish, kamsitish, poraxo‘rlik singari illatlar bola nigohi orqali tasvirlanadi:

“Onam o‘tgan kuni ustozimga kumush kuldon sovg‘a qildi. Qapalichorsudan sakson liraga oldik. Onam bu dunyoda hamma narsani pul hal qiladi dedi. Pul har qanday eshikni ochadi dedi.”

(“Annem geçen gün öğretmenime gümüş tütün tablası armağan etti. Seksen liraya aldık Kapalıçarşıdan. Annem herşey parayla bu dünyada dedi. Her kapıyı açar para dedi” [4].)

Shuningdek, “bola obrazi ishonchsiz va sodda hikoyachi ovozi uchun juda qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi, chunki bunday holatda hikoyachi jamiyatdagi nomuvofiqlik va ziddiyatlarni go‘yoki bexosdan fosh etadi” [11]. Ayni hikoya qahramoni Turg‘ut ham maktabdagi nohaqliklarni o‘zi bilmagan holda oshkor qiladi:

“Otam imtihonlardan avval shuni ustozini kechki ovqatga chaqir, dedi onamga. Onam oy oxirida tadbirga kelganida taklif qiladi. ... Ustozimiz tadbirda oltin uchli ruchkani menga berarkan, onamga aytibdi. Holbuki, o‘zi bu mukofotni arifmetikadan baholari a‘lo bo‘lgan o‘quvchi oladi, degandi.”

(“Babam sınavlardan önce akşam yemeğine çağır şunun öğretmenini dedi anneme. Annem ayın sonunda müsamereye gelince çağıracak. ... Öğretmenimiz altın uçlu dolmakalemi bana verecek, anneme söylemiş. Oysa aritmetiği çok pekiyi olan alacak demişti” [4].)

Bola nuqtayi nazari va tilidan foydalanish asarning badiiy-estetik jihatdan ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. “Bola nuqtayi nazari asosida yozilgan asarlarda his-tuyg‘u va sezgilar yetakchi o‘rin tutadi” [8]. Yozuvchining “Butun Istanbul bilsin” (“Bütün İstanbul Bilsin”) nomli hikoyasida Kamol buvisi bilan qarindoshining uyiga mehmonga boradi. Buvi xonada yolg‘iz qolgan mahal mezbonning sadaf toshlari bilan bezatilgan protez tish solib qo‘yiladigan qutichasi hamda portsigarini o‘g‘irlab oladi. Buyumlar yo‘qolgani oshkor bo‘lganda esa buvi o‘zini hech narsadan bexabar odamday tutadi. Nogahon bu vaziyatga guvoh bo‘lgan Kamol buvisining axloq normalariga zid bu xatti-harakatidan qattiq ta’sirlanadi:

“Billur oynali mehmonxonada yolg‘iz qolganimizda, u Lutfi beyning sadaf tish qutisi hamda sadaf portsigarini o‘g‘irlab oldi. Meni tushunmaydi deb o‘yladi. Ko‘ylagining katta cho‘ntagiga soldi. Ularni qidirishganda Lutfi beyning parishonxotirligiga yo‘ydilar, kim biladi bir joyga otib yuborgandir dedilar...”

(“Billur camlı salonda yalnız kaldığımızda, Lütfi Bey’in ortalıkta bırakılmış sedef ağızlığını, sedef sigara kutusunu çaldı. Ben anlamam sanıyor. Elbisesinin büyük ceplerine koydu. Arandığında Lütfi Bey’in bunamalarına verildi kabahat: Kim bilir nereye atmıştı aklına esip...” [4])

Asarda bolalar tili va nuqtayi nazaridan foydalanish uchun ijodkor mutlaqo bolalarning fikrlash tarzini yaqindan kuzatgan bo‘lishi, bolalar borliqni qanday tasavvur qilishi, tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni qanday anglashi, ularga qanday munosabat bildirishini mukammal o‘rganishi kerak. Aks holda, asar notabiiy, ishonarsiz chiqadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Selim Ileri bolalarga xos fikrlash, so‘zlash, ifodalash shakllarini yaxshi o‘rgangan va hikoyalarida bundan samarali foydalangan.

Xulosa. Zamonaviy turk adabiyotining mohir yozuvchisi Selim Ilerining “Hur qiz” (“Gelinlik Kız”), “Onamning yorongullari” (“Annemin Sardunyaları”), “Ko‘ylak xaritalari” (“Elbise Haritaları”), “Butun Istanbul bilsin” (“Bütün İstanbul Bilsin”), “Skripka” (“Bi Keman”), “Tadbir” (“Müsamere”) nomli hikoyalarida rivoya va nuqtayi nazar masalasini tahlil qilish natijasida shunday xulosa qilish mumkin. Yozuvchi hikoyalarida roviy-bola va uning nigohidan samarali foydalanadi. Roviy-bola obrazi voqelikni badiiy talqin qilishda asarga reallik, haqiqatda sodir bo‘lganlik, ishonchlilik hissini beradi. Shuningdek, roviy-bola obrazi qahramon ruhiyatini chuqur tahlil qilishga hamda ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Roviy-bola tilidan hikoya qilish hikoyada juft qatlamli ma’no hosil qilish hamda oilaviy vaziyatlar yoki ijtimoiy muammolarni tadqiq etishda keng qo‘llaniladi. Adib oila va jamiyatdagi ochiq-oshkor tilga olish mushkul bo‘lgan murakkab muammolarni bolalarning beg‘ubor nigohlari ortiga yashirishni mahorat bilan uddalaydi. Yozuvchi hikoyalarida roviy-bola tilidan tasvirlangan voqealar ortida davrning ulkan ijtimoiy muammolari yashirinib yotadi. Voqea-hodisalarda oddiy bir ishtirokchi, kuzatuvchi pozitsiyada bo‘lgan bola obrazi poraxo‘rlik, o‘g‘irlik, tahqirlash singari

masalalarni yoritishda boshqa bir rakursdan qarash imkonini beradi. Hikoyalardagi bu jihat fojiaviy ruhni oshirish barobarida, unga badiiy joziba bag‘ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aktaş Ş. Roman Sanatı ve Roman İncelemesine Giriş. – Ankara: Akçağ Yay. 1991.
2. Akyıldız H.B. *Çocuk Bakış Açısının Anlatıda Kullanılışı ve İşlevi Üzerine* // Bilig Dergisi. Sayı: 78. 2016 – 95-116 s.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002. – 560 б.
4. İleri S. Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967-1997. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık ve Reklamcılık Ltd. Şti, 1997. – 766 s.
5. Karataş T. Ansiklopedik Edebiyat terimleri sözlüğü. – İstanbul: Perşembe kitapları, 2001. – 477 s.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
7. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 402 б.
8. Uslu A. *Hüseyin Su Hikayelerinde Çocuk Anlatıcı ve Bakış Açısının Kullanılışı ve İşlevi* // Kesit Akademi Dergisi. Sayı 11, Aralık 2017, 379-396 s.
9. Tuzuvchi: Davronova Sh. Nazariy poetika. – Buxoro: 2020. – 94 b.
10. Çetin N. Roman Çözümleme Yöntemleri. 11. Baskı. Ankara: Öncü Kitap Basımevi, 2012. – 238 s.
11. Рассказчик-ребенок как субъект остранения

UO‘K 821.512.133.09

HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA MILLIY RUHNI IFODALOVCHI POETIK OBRAZLAR VA MOTIVLAR

R.X.Abduvaxidova, mustaqil tadqiqotchi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi milliy ruhni ifodalovchi poetik obrazlar va motivlar tahlil qilinadi. Beshik, tuproq, tandir, rayhon va Turkiston onasi obrazlarining milliy o‘zlikni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Shoira she’rlarida o‘zbek yigit-qizlarining or-nomusi, jamiyatdagi o‘rni, Vatan, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ayol tafakkurining poetik talqini ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Vatan, tuproq, beshik, tandir, ota-ona, tarix, milliy o‘zlik, o‘zbek adabiyoti, she’riyat.*

Аннотация. *В статье анализируются поэтические образы и мотивы, выражающие национальный дух в творчестве Халимы Худойбердиевой. Рассматривается роль образов колыбели, земли, тандыра, базилика и матери Туркестана в выражении национальной идентичности. Исследуется поэтическое осмысление чести и достоинства узбекских юношей и девушек, их места в обществе, Родины, национальных ценностей, исторической памяти и женского мировосприятия.*

Ключевые слова: *Родина, почва, колыбель, тандыр, родители, история, национальная идентичность, узбекская литература, поэзия.*

Abstract. *The article analyzes poetic images and motifs expressing the national spirit in Halima Khudoyberdieva’s work. It examines how the images of the cradle, earth, tandoor, basil, and the mother of Turkestan convey national identity. The study considers poetic representations of the honor and dignity of Uzbek young men and women, their place in society, the homeland, national values, historical memory, and women’s perspectives.*

Key words: *Homeland, soil, cradle, tandoor, parents, history, national identity, Uzbek literature, poetry.*

Kirish. Badiiy adabiyotda milliy ruh – bu xalqning asriy tafakkur tarzi, ruhiy-ma’naviy tajribasi, qadriyatlar tizimi va estetik ideallarining poetik shakllarda namoyon bo‘lishidir. Poetik obraz va motivlar esa ushbu milliy ruhni moddiylashtiruvchi, matnga muayyan milliy-psixologik mazmun va badiiy quvvat bag‘ishlovchi asosiy strukturaviy birliklar hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda poetik obraz xalq dunyoqarashining badiiy modeli sifatida gavdalansa, motiv ushbu modelning harakatlantiruvchi va takrorlanuvchi ma’no o‘zagi vazifasini bajaradi.

XX asr ikkinchi yarmi va mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida milliy o‘zlikni anglash va milliy ruhni badiiy aks ettirish tamoyillari yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayonda O‘zbekiston xalq shoiri

Halima Xudoyberdiyeva ijodi alohida ajralib turadi. Shoira poetik tizimida milliy ruh shunchaki mavzuviy yo‘nalish emas, balki butun estetik dunyoqarashning, badiiy tafakkurning ustuvor poydevoridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida milliy ruh shunchaki mavzu emas, balki yaxlit bir poetik tizimni tashkil etadi. Bu tizim maxsus obrazlar va motivlar birlashmasidan iborat. Ushbu she'riyatidagi poetik obrazlar (beshik, tuproq, tandir, rayhon, Turkiston onasi) va yetakchi motivlar (ajdodlar xotirasi, sadoqat va sabr-bardosh, milliy g‘urur hamda armondan tug‘ilgan isyon) milliy mentalitetning teran qatlamlaridan suv ichadi. Ushbu maqolada shoira she'riyatida milliy ruhni shakllantirgan ushbu obraz va motivlar tizimini ilmiy-nazariy jihatdan guruhlash, ularning semantik-funksional evolyutsiyasini hamda badiiy-estetik ta'sir imkoniyatlarini tahlil qilish nazarda tutiladi.

Tadqiqot uslubi. Shoira lirikasidagi “qo‘ng‘iroq”, “beshik”, “tuproq”, “tandir” kabi xalq hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan an'anaviy va arxetipik obrazlar she'rdagi milliy ruhni ifodalovchi asosiy vositalar sifatida talqin etilgan.

Tahlil va natijalar. Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, H.Xudoyberdiyeva she'riyatidagi beshik, tuproq, tandir, qo‘ng‘iroq, rayhon, qaldirg‘och va Turkiston onasi kabi poetik obrazlar shunchaki maishiy yoki tabiat detallari emas. Ular ajdodlar xotirasi, milliy g‘urur, sabr-bardosh, avlodlar uzviyligi hamda ruhiy isyon kabi yetakchi milliy motivlarni moddiylashtiruvchi, matnga teran milliy-psixologik mazmun bag‘ishlovchi va milliylikni umuminsoniy g‘oyalar bilan uyg‘unlashtiruvchi asosiy poetik vositalar hisoblanadi.

“Badiiy asar g‘oyasining ahamiyati va qimmati uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga muvofiqligi hamda asarda hayot voqeligining obrazli tarzda ta'sirchan ifodalanishi asosida belgilanadi”[1] Barcha obrazlar ana shu g‘oyadan kelib chiqib shakllantirilgan. Shoira beshik va tuproq obrazlari orqali inson umrining ibtidosidan intihosigacha bo‘lgan metaforik yo‘lni, millat taqdiri, onalik sharafi, mardlik, hayot va mamot kabi muhim mavzularni yoritib beradi. Beshik obrazi hayot, avlodlar davomiyligi va onalik mas'uliyati ma'nolarida qo‘llanilgan. Shoiraning “Yulduzlarni osib bo‘lmas” nomli she'rida beshik avlodlar davomiyligi va zamonlar uzviyligi ramzi sifatida qo‘llanilgan: *Kechagi kun*

Onam meni beshigimga belagan edi.

Bugun beshikka – men belayman o‘g‘limni [2].

Bu o‘rinda beshik hayotning to‘xtab qolmas charxpalagi, avlodlar o‘rtasidagi mehr va mas'uliyat rishtasidir. Kechagina farzand bo‘lgan inson bugun ota-onaga aylanib, ajdodlar shajarasini davom ettiradi. “Uzatilayotgan qiz o‘ylari” she'rida bolalik, oilaviy uy va ayriliq azobi mazmuni aks ettirilgan: *“Onam bag‘ridagi beshik, yaxshi qol”*. Beshik qiz bola uchun beg‘ubor bolalik va ona mehri mujassam bo‘lgan eng xavfsiz makon ramzidir. Undan ayrilish – beg‘ubor yoshlik bilan xayrlashib, katta hayotga va noma'lum muhitga qadam qo‘yishdir. Onalik burchi va ayolning umr mazmuni ma'nosi shoiraning “Mirtemir” nomli she'rida keltirilgan: “*Uzun umrim bo‘yi beshik ustida, Bedor, qalqib o‘tsam emasmidi xush* [3]. Ya'ni onalik fidokorligi, kechalari uyqu bilmay farzand kamolini o‘ylash ayol umrining eng oliy va xushbaxt fazilati sifatida talqin etiladi. Farzand orzusi va eng ezgu tilak mazmuni ijodkorning “Yil boshidagi istaklar” nomli she'rida keltirilgan:

Bibi Fotimadek qo‘sh farzand ko‘rsin,

Qo‘sh beshik o‘rtasi bo‘lsin unga joy [4].

Beshik befarzand insonlar uchun eng katta umid, ro‘shnolik va baxt ramzi sifatida duolarga ham singdirilgan. U shoira she'rlarida milliy faxr va buyuk kelajakka ishonch ma'nosini bergan o‘rinlar ham mavjud:

Martabamiz onalik.

Biz tebratgan beshiklardan

Boburlar chiqsin, Xudo! [5].

Beshik shunchaki murg‘ak go‘dak yotadigan joy emas, balki millat kelajagi, Boburdek buyuk siymolar va qahramonlar yetishib chiqadigan tarbiya makoni, shuningdek, beshik pokiza e'tiqod ramzi hamdir. Oilaviy mehr va ijtimoiy urf-odatlar tasviri shoiraning “Beshik qoshida” nomli she'rida keltirilgan:

Beshiging tik. Qushqanot...
Gullari O'ydim-o'ydim.
Isiriq solib bomdod,
Ko'zmunchoq taqib qo'ydim [5].

Mazkur she'riy parchada isiriq, ko'zmunchoq kabi *e*tnografik detallar qo'llanilgan bo'lib, ular orqali beshikdagi nabiraga bo'lgan cheksiz mehr, uni yomon ko'zlardan asrash istagi va eng ezgu niyatlar ifodasi gavdalantirilgan. Beshik "Qadim qo'ng'iroq" she'rida millatning uyg'onishi va qayta tiklanishi mazmuni uchun ham qo'llanilgan:

Tobutda har manguga ko'z yumgani,
Beshikdagi har bolasi uyg'onar! [6].

Bu yerda beshik millat genetik xotirasi va istiqbolining ramzidir. Musibat yoki o'lim qarshisida beshikdagi yangi avlod uyg'onib, millatning boqiyligini ta'minlashi nazarda tutilgan. Shoira "Ay odam bolasi..." she'rida beshikni insoniyat uchun naqd qilingan, ya'ni berilishi, u foydalanishi muqarrar narsa va hayotining boshlanish ramzi sifatida taqdim etadi:

O'rtada nelardir nasya bo'lar-u,
Boshda beshik, oxir tobut naqd unga [7].

Ya'ni inson hayoti beshik va tobut oralig'idagi qisqa bir muddat ekanligi ma'lum. Shunga ko'ra beshik tug'ilishni, ya'ni ibtidoni, tobut esa o'limni, ya'ni intihoni ifodalamoqda. Shoira insonlarni tug'ilish va o'lim oralig'ida nafs bandasi bo'lmasdan ezguliklar qilib qolishga undamoqda. Zotan, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida beshik – hayotning, umidning, onalik martabasining, milliy o'zlik va avlodlar kelajagining mujassamlashuvi ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan. Tuproq obrazi alohida o'rin tutadi. U she'riyat va ijod manbayi, Vatan, panoh va so'nggi manzil kabi ma'nolarni ifodalash uchun turli darajada xizmat qilgan. H.Xudoyberdiyevaning "Yuragimda barglar shiviri" she'rida tuproq mehnat, yaratuvchilik va hayot manbai sifatida aks ettirilganligini ko'rish mumkin:

Tuproqqa to'kdim men, manglay ter, dil qonim.
Maysa, ko'k maysalar undi zap [8].

*"*Oq olmalar pishganda..." she'ridagi "*Qoraygan saxiy tuproqning rangi aks etar unda" va* "Menga bir kosa bering" she'ridagi "*Menga bir kosa bering, unda tuproq, Tuproqda esa Bug'doy maysasi unsin*" kabi misralarda ham halol mehnatning izi va yaratish manbayi mazmuni anglashilganligini ko'rish mumkin. She'rlar mazmunidan tuproqning tiriklik manbayi, saxovat va halol mehnat timsoli ekanligi, mehnatkash otaning qadoq kaftlari va to'kilgan manglay teri tuproqning saxovati bilan meva berishi anglashiladi. Ijodkor she'rlarida tuproq Vatanga muhabbat, ijodiy kuch va bardosh ramzi sifatida ham tasvirlangan. Xususan, "Men shu tuproq kuychisiman" she'rida aynan shunday ma'no ifodalangan:

Sinsam agar, yaratmoqdan tolsa tafakkur...
Men shunday, ha, singanda ham kuylovchi nayman! [9].

Bu yerda shoira o'z ijodiy qismatini zamin va tabiat ila chambarchas ko'radi. Singan nay ham ovoz chiqaraverishi kabi, u ham hayot zarbalariga, ruhiy yoki jismoniy sinovlarga uchraganda so'nmaydi. Tuproq unga tuganmas ijodiy kuch-quvvat va matonat bag'ishlovchi manbadir. Ijodkor o'zini Vatanga, Ona zaminga xizmat qiluvchi, uning dardi va go'zalligini kuylovchi sadoqatli ijodkor deb biladi.

Boshqa bir she'rida tuproq qahramonlik, ajdodlar qadriyati va merosi, vorislik ma'nolari uchun qo'llanilgan:

Otam Farhod kanalida tashigan tuproq...
Bugun tuproq, temir tutgan mening qo'llarim [10].

Bu parchada avlodlar o'rtasidagi mehnat va sadoqat kabi tuyg'ular ham meros bo'la olishi ma'nosi ochib berilgan. Farhodning Shirin yashayotgan mamlakat aholisi farovonligi uchun ariq qazib berishidagi mashaqqatli mehnati, lirik qahramon otasining kanal qazish ishlaridagi jonbozligi va farzand bo'lgan qahramonning bugungi faoliyati o'rtasidagi o'xshashlik vorisiylik sifatida baholanmoqda. Otasi tashigan tuproqni bugun o'z qo'lida tutish orqali shoira mas'uliyat, vorislik va Vatan oldidagi burch tuyg'usini ifodalamoqda. "*Men – farzandman tuproq yuz haqqa"*parchasida

tarafkashlik va haqiqatga intilish mazmuni aks ettirilgan. Bu yerda "tuproq yuz" iborasi soddalik, kamtarlik, adolat va asllikni anglatadi. Shoir o'zining mansubligini mansab yoki boylikka emas, aynan xoksor va haqgo'y tuproqqa, ya'ni sof haqiqatga bog'laydi. U tuproqning halol va soxta bo'lmagan farzandi ekanidan faxrlanadi. Shoiraning "Qizlar bilan suhbat" she'rida tuproq ayriliq, motam va yo'qotish mazmuni uchun yoki sovuq o'lim ramzi sifatida qo'llanilgan:

Yigitning sho'x ko'zlariga to'lganda tuproq,
Biz yigitni yo'qotganda abad-abadga [9].

Sho'x, hayotga to'la ko'zlarning tuproqqa to'lishi – o'limning beshafqatligini ko'rsatuvchi tasvir sanaladi. Zamin bevaqt ketgan yigitni bag'riga oladi, uning ko'zlari tuproqqa to'ladi, u tuproq bilan aralashadi. Bu qaytarib bo'lmas yo'qotish hamda abadiy ayriliq iztirobi yigitning umr yo'ldoshi bo'lgan qizni iztirobga soladi.

"Otamning yuziga yuz qo'yib emas..." she'ri shoiraning otasidan judolik iztiroblari mazmunidagi she'rlari sirasiga kiradi. Unda:

Tuproqqa yuz qo'yib yosh to'kdim yum-yum...
Nega gungday qotgan bu tuproq – uyum [9].

deyish orqali insonning padari buzrukvori – otasidan ayrilgandagi fojiali sukunatini ifodalagan. Shoira otasining issiq diydori o'rniga sovuq va "gung" tuproqqa yuz bosishga majbur. Tuproqning tilsizligi, savollarga javob bera olmasligi va jim qotishi insoniy ojizlik va chuqur qayg'uni aks ettirgan. Shoiraning "Kumushning o'limi" nomli she'rida "*Shunday sarv tuproqqa ko'milmasa bo'lmasmi?!" deganida* "sarv" – go'zallik, yoshlik va tik qomat ramzi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, shunday go'zal va nafosatli vujudning tuproq ostida qolishi taqdirning beshafqatligiga va o'limning adolatsizligiga bo'lgan isyon va afsus-nadomat ifodasi deyish mumkin. Shoiraning "Telefon" nomli she'rida lirik qahramonning ruhiy holati tuproq so'zi bilan bog'liq ravishda aks ettirilgan:

Birdan... bag'rim tuproq bilan tenglashdi...
Sizning o'lib ketganingiz esladim [5].

Qahramondagi ruhiy karaxtlik va ichki vayronkorlik holati uning yaqin insonining o'limi haqidagi xabar bilan bog'liq bo'lib, bunday xabar insonning butun vujudini "tuproq bilan tenglashtiradi", ya'ni lirik qahramonni ma'nan yiqitadi, uning ichki dunyosini bo'm-bo'sh va sovuq holatga keltiradi. Halima Xudoyberdiyevaning "Oldingilar" she'rida tuproq fidokorlik, mardlik va Vatan himoyasi mazmuni uchun ham qo'llanilgan.

Orqa tuproq qavmi, xel-xushti,
Har qarichi tengdir oltinga [10].

She'rdan Vatanning har bir qarich tuprog'i ortida el-ulus, ajdodlar va qavm-qarindoshlarning sha'ni va tarixi yotishi va bu tuproq oddiy loy emas, balki oltinga teng bebaho qadriyat ekanligi anglashiladi. Ijodkor "O'zi ketdi" nomli she'rida "*Kuyov to'nmas, tuproqdan to'n kiyganlarim"* deyish orqali to'y ko'rmay, orzu-havasi ushalmay, Vatan himoyasida yoki sinovlarda qurbon bo'lgan navqiron yigitlarning qabri "tuproqdan to'n" kiygan holatda tasvirlangan. Bu ularning sharafli, lekin fojiali qismati va fidokorligidan dalolat beradi. Ayrim she'rlarida, xususan, "Yuki og'ir bu yurtda..." she'rida tuproq ijtimoiy voqelik va adolatsizlik og'riqlari mazmuni uchun ham qo'llanilgan:

Go'daklarim tuproqda izg'ir ekan zax o'tib...
tuproqdan zaqqum yutib [11].

Jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va turmush mashaqqatlari ifodalangan ushbu misralarda go'daklarning zaxda qolishi va tuproqdan "zaqqum" (kuchli og'riq, zahar) yutishi – bolalarning nochorligi va jamiyatdagi achchiq haqiqatlarning badiiy ifodasi sanaladi. "Mohlaroyim, chin oyim, ayting..." nomli she'rida:

Nomard yursa qad kerib, suygun,
Mard tuproqqa bersa to'shini [12].

Misralarida zamondagi adolatsizlik va teskari qadriyatlarga nisbatan alamli e'tiroz ifodalangan. Nomard kimsalarning davr-u davron surishi, haqiqiy mardlarning esa barvaqt tuproqqa kirishi yoki oyoqosti bo'lishi jamiyatdagi fojia sifatida talqin qilingan. Yana bir "Polvon daraxt qulasa" nomli she'rda:

Oyoq ostda tuproq izillab yig'lar,

Bosh ustida ho'ngrab bayroq yig'laydi [7] deyiladi. Bunda elning suyanchi, ustuni bo'lgan inson ("polvon daraxt") yo'qotilganda butun yurt chekkan motam tasviri ifodalangan. Bu yerda tuproqqa jonivorlik (majoziy sifatlash) berilib, zaminning o'zi ham ushbu yo'qotishdan sizlab, izillab yig'layotgani tasvirlanadi. Shoira she'riyatida tuproq do'stlik, vafo va haqiqat mezoni mazmuni uchun ham qo'llanilgan. Buni shoiraning "Yolg'iz odam ishonchi" nomli she'ri parchasida ko'rish mumkin:

Tuproq ustidagi do'stni bilmayman,
Tuproq ostidagi do'stim sotmaydi [11].

Bunda tiriklar orasidagi soxta do'stlik va xiyonatga bo'lgan achchiq kinoyani ilg'ash mumkin. Muallif "tuproq ostidagi", ya'ni vafot etgan do'stlarni sodda, vafodor va sirdosh deb biladi, chunki ular hech qachon sotmaydi.

"Ayting do'stlar..." she'rida esa tuproqning sirlarni saqlaguvchi va panoh ekanligi mazmuni anglashilgan: "*Ular endi bizmas, tuproqqa aytar, O'zi bilan olib ketgan dardini."* Inson dunyodan o'tgach, uning barcha sir-asrorlari, hasrat va dardlari tuproq bilan birga ko'miladi. Tuproq – so'nggi panoh va eng ishonchli, sir boy bermaydigan sukut saqlovchi joy hamdir. H.Xudoyberdiyeva she'riyatida tuproq sukunat, barchani qabul qiluvchi joy va inson jismini mahv etuvchi sifatida talqin etilgan. "To'lqin yuvar qirg'oqni" she'ridagi parcha shu mazmunni dalolatlagan:

Tuproq-ku asl ega,
Odam tan olmas nega [5].

Inson dunyoda qanchalik hokimlik qilishga intilmasin, mol-dunyo to'plamasin, aslida hamma narsaning haqiqiy egasi – tuproqdir. Inson foniy, tuproq esa boqiydir. Bu yerda insonning takabburligiga va bu haqiqatni tan olmasligiga urg'u berilgan. Yuqorida tahlil qilingan she'riy parchalarda "tuproq" shunchaki tabiat unsuri yoki tushuncha emas, balki shoira dunyoqarashi va badiiy tafakkurining markaziy, ko'p qirrali metaforik ramzi ekanligi anglashildi. She'rlarda bu ramz bir nechta asosiy konseptual qatlamlarda namoyon bo'ladi:

Muqaddas vatan va ijod manbayi: tuproq ijodkorga ruhiy kuch va bardosh beruvchi, ajdodlar merosi, vorislik tuyg'usini saqlovchi muqaddas zamin, Vatan va adolat mezonidir. *Fojia va o'lim ramzi:* Mehribon ota, suyukli yor yoki navqiron yigitlar yo'qotilganda tuproq sovuq, gung va beshafqat olamga aylanadi. U qaytarib bo'lmas ayriliq, motam va insoniy ojizlikni gavdalantiradi. *So'nggi haqiqat va panoh:* Tiriklar orasidagi soxta do'stlik va takabburlikka qarama-qarshi o'laroq, tuproq sodiq sirdosh, inson hayotining so'nggi osoyishta panohi hamda barcha foniy dunyoning asli va boqiy egasi sifatida talqin etiladi. Umuman, ijodkor tuproq obrazi orqali inson qismati, Vatan taqdiri, hayot va o'lim, adolat va vafo kabi abadiy falsafiy muammolarni teran va ta'sirchan ochib berishga erishgan. Tuproq – hayotni yaratuvchi ona zamin, mehnat va jonini fido qilgan mardlarning og'ushi, ayni paytda inson hayotining so'nggi sokin manzilidir.

Xulosa. Tahlil shuni ko'rsatadiki, shoira she'riyatida tabiat va ijtimoiy hayot detallari shunchaki tasvir vositasi emas, balki inson ruhiyati hamda millat qismatini ifodalovchi yuksak ramziy obrazlar darajasiga ko'tarilgan. Xususan, tandir, issiq non, o'choq va oq ro'mol kabi maishiy obrazlar o'zbek xonadonining mehr-oqibatini, onalik hislari va pokdomonligini aks ettirgan bo'lsa, olcha va shaftoli gullari orqali umrning g'animatligi, bahorgi umidlar va qarilik qarshisidagi ruhiy tetiklik ifodalangan. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida milliy ruhni ifodalovchi poetik obrazlar va motivlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda yaxlit bir badiiy-estetik tizimni tashkil etadi. Shoira yaratgan har bir obraz zamirida ma'lum bir milliy-psixologik va falsafiy motiv yotadi. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatidagi beshik, tuproq, tandir, qo'ng'iroq kabi poetik obrazlar shunchaki maishiy yoki tabiat detallari emas. Ular ajdodlar xotirasi, milliy g'urur, sabr-bardosh, avlodlar uzviyligi hamda ruhiy isyon kabi yetakchi milliy motivlarni moddiylashtiruvchi, matnga teran milliy-psixologik mazmun bag'ishlovchi va milliylikni umuminsoniy g'oyalar bilan uyg'unlashtiruvchi asosiy poetik vositalar hisoblanadi. Umuman olganda, Halima Xudoyberdiyeva she'rlardagi har bir obraz o'zbek ayolining ichki dunyosi, onalik mehri, Vatanga muhabbati va millat taqdiriga daxldorlik tuyg'ularini yagona va yaxlit badiiy tizimga birlashtirib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 50 b.

2. Ҳалима Худойбердиева -Чаман Шеърлар Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.1974 -54 б.

3. “Қирқ йилдан сўнгги нидо…” Ҳалима Худойбердиева. Садоқат. Шеърлар. Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.1983–243 б.

4. Худойбердиева Ҳ. Буюк қушлар. Тўплам / Ҳ.Худойбердиева – T: O‘zbekiston НМИУ, 2012.-728 б. «Бахшиёналар» китобидан 295 б.

5. Худойбердиева Ҳ. ., “Йўлдадирман”. Т.: Sharq, 2006.

6. Худойбердиева Ҳ. Буюк қушлар Тўплам / Ҳ.Худойбердиева – T: O‘zbekiston НМИУ, 2012-728 б. Кейинги йиллардаги шеърлар -636 б.

7. Худойбердиева Ҳ. Буюк қушлар. Тўплам / Ҳ.Худойбердиева – T: O‘zbekiston НМИУ 2012-728 б. “Инжулар” китобидан –Тўртлик- 528.

8. Худойбердиева Ҳ. Сайланма. “Шарқ” нашриёт-Тошкент-2000. – 398.

9. Худойбердиева Ҳ. Буюк қушлар. Тўплам / Ҳ.Худойбердиева – T: O‘zbekiston НМИУ, 2012-728 б. “Суянч тоғларим” – 78 б.

10. “Олдингилар”, “Қаҳрамонлик” шеърлари Ҳалима Худойбердиева Бобо қуёш. Шеърлар. Ўзбекистон ЛКСМ Марказий комитетининг “ЁШ ГВАРДИЯ” нашриёти. Тошкент-1977 – 37.б, 100 б.

11. Худойбердиева Ҳ. Буюк қушлар. Тўплам / Ҳ.Худойбердиева – T: O‘zbekiston НМИУ. 2012.- 728 б. “Ўш-ўзган фарёди” дафтаридан 372.б, 399 б

12. Худойбердиева Ҳ. Буюк қушлар. Тўплам / Ҳ.Худойбердиева – T: O‘zbekiston НМИУ. 2012.- 728 б. “Сайланма” китобидан–470.б.

UO’K 811.512.133’373.46:61

KASALLIKLARNING XALQONA TIBBIY LEKSIK QATLAMI XUSUSIDA

Abuzalova M. K., professor, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
Axmadova D. A., o‘qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Maqolada kasalliklarning nomlarini aks ettiruvchi leksika o‘zbek tilining ming yillar davomida rivojlanib kelgan lug‘at fondi hisoblanib, inson kasalliklarini bildiruvchi nominatsiyalarning eng katta lug‘aviy-semantik guruhini tashkil etishi, kasallik nomlarini berishda xalqona, noterminologik, arxaik variantlarni qo‘llash mumkinligi hamda ularning maxsus lug‘atlarini yaratish ham dolzarblik kasb etishi mumkinligi xususida mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy tilshunoslik, tibbiyot tili, tibbiy matn, kasbiy muloqot, leksik zaxira, sohaviy lug‘atlar*

Аннотация. *В статье рассматривается лексика, отражающая названия заболеваний, как составная часть словарного фонда узбекского языка, формировавшегося и развивавшегося на протяжении тысячелетий. Отмечается, что номинации, обозначающие заболевания человека, образуют одну из наиболее обширных лексико-семантических групп. Особое внимание уделяется возможности использования при обозначении названий болезней народных, нетерминологических и архаичных вариантов, а также актуальности создания специализированных словарей, охватывающих данную лексику.*

Ключевые слова: *современное языкознание, язык медицины, медицинский текст, профессиональная коммуникация, лексический запас, отраслевые словари.*

Abstract. *The article examines disease-related vocabulary as part of the Uzbek language's lexicon, which has evolved over millennia; it notes that these terms constitute the largest lexico-semantic group denoting human ailments. The study also analyzes the potential use of folk, non-technical, and archaic terms for diseases and substantiates the importance of compiling specialized dictionaries for this type of vocabulary.*

Keywords: *modern linguistics, medical language, medical text, professional communication, lexical stock, specialized dictionaries*

Milliy tilimizning lug‘at boyligini oshirish, tibbiyot sohasida zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning elektron ko‘rinishlarini tuzish, tilshunoslik hamda tibbiyotda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbek atamashunosligi zaxirasini boyitish maqsadida terminlarning atamalar orqali yoritilishi, sermazmun izohlarning berilishi, aytilishi noo‘rin bo‘lgan tibbiy terminlarning noyob

tibbiy atamalar bilan to‘ldirilishi, ularni yaratishda ona tili imkoniyatlaridan keng foydalanish o‘zbek tili rivoji va uning takomili uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF–6084-son Farmoniga ko‘ra, 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi va unda til takomiliga xizmat qiluvchi qator vazifalar belgilandi. Ya’ni zamonaviy, yangi avlod o‘quv lug‘atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini va sohalar bo‘yicha atamalar lug‘atini yaratish; barcha oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichida “Kasbiy nutq madaniyati” fanini joriy qilish; mamlakat hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish; ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni muntazam ravishda rasmiy muomalaga kiritib borish kabi o‘zbek tilini bor boyligi bilan saqlashga qaratilgan amaliy ishlarga keng yo‘l ochib berildi.

Zamonaviy tilshunoslikda tibbiyot tilini, tibbiy matnlardagi til birliklarini o‘rganish dolzarb muammolardan biriga aylangan. Bu muammo tibbiyot sohasini chuqur o‘rganish, mutaxassislarning o‘zaro kasbiy muloqoti, tibbiy xodimlarni tayyorlashda ularning leksik zaxirasini oshirish, kasbiy ilmiy adabiyotlarni nashr etish, sog‘liqni saqlash sohasida xorijiy mutaxassislar bilan ilmiy aloqalarni rivojlantirish, ma’lumot olish va almashish hamda sohaviy lug‘atlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda zamonaviy tibbiyot sohasi jadal rivojlanayotganligi bois kasalliklarning xalqaro terminologik nomlari bilan bir qatorda ularning xalqona (ayrimlari terminologik bo‘lmagan) nomlar qatlamini ham o‘rganish zaruriyatga aylanmoqda.

Aytish mumkinki, ilmiy tibbiy nutqda kasalliklarning haqiqiy xalqona nomlari, ularning tarkibi va milliy xususiyatlariga kam e’tibor qaratilayotgani, bu so‘zlar maxsus tahlil qilinmagani, faqat boshqa muammolar doirasida ko‘rib chiqilganligi kasalliklar xalqona nomlarining tibbiyot terminologiyasidan o‘rin egallashiga bo‘lgan zaruratni belgilaydi. Kuzatishlarimiz natijasida, kishilarning salomatlik bilan bog‘liq muloqotlarida ham umumadabiy, ham shevaga xos hamda tarixiy kasallik nomlarining ishtirok etishini va ushbu leksik birliklarning noprofessional (xalqona) tibbiy leksikada kasalliklarning xalqaro nominatsiyalariga nisbatan faol ekanligini aniqladik.

O‘zbek milliy tilining ikki turi hisoblanmish adabiy til va shevalar o‘zaro chambarchas bog‘langan. Ma’lumki, qardosh turkiy tillar orasida o‘zbek tili sheva va lahjalarining ko‘pligi va turfaligi jihatidan yaqqol ajralib turadi. O‘zbek tilining turli sohalarga oid leksik boyligi ushbu dialektlardagi so‘zlar hisobiga asrlar osha boyib borgan. Chunonchi, *pilla, sizlog‘ich, sachratqi, qorason, qizilcha, itirsak* singari sheva birliklarining tibbiy terminologiyada tez-tez ishlatilishini kuzatish mumkin. Jumladan,



AJDAHO – RAK (tayanch tibbiy birlik). Ma’nodoshi: akila, rak, saraton, varm, o‘sma. Odam yoki hayvonlarning ichki yoki tashqi a’zolaridagi epiteliy to‘qimasidan rivojlanadigan, hayot uchun xavfli o‘sma; saraton kasalligi. Saraton kasalligining xalq tabobatida “Ajdaho” deb nomlanishi shunchaki qo‘rqinchli nom emas, balki kasallikning kechishi va tabiatiga berilgan o‘ziga xos ramziy ta’rifdir. *Qadimiy bitiklarda aytilishicha, bu tanadagi ajdahoning bir boshini kessang, u kutilmaganda boshqa bir a’zoda yana bir necha bosh chiqarib, qonni zaharli nafasi bilan bulg‘aydi (*Xalq tabobatidan). *Saraton – vujud g‘orida pinhona yotgan ajdahodir; u to o‘z o‘ljasini (tanni) butunlay zabt etmaguncha o‘zini bildirmaydi, uyg‘onganda esa unga qarshi har qanday afsun (dori) ojiz qolur* (Gazetadan). *Tabiblar ogohlantirurki, qora safro qaynasa, tana ichra bir ajdaho tug‘ilur va u insonning hayotiy issiqligini yutib, tanani chirish va tushkunlik qa’riga yetaklar. (*Abu Ali Ibn Sino, Kitob al-Qonun fit-tibb (Tibbiyot ilmining qonuni)).

OLAKO‘Z– GETEROXROMIYA (tayanch tibbiy birlik). Ma’nodoshi: turfa. Ko‘zning rangdor pardasi (kamalak pardasi) rangining turlicha bo‘lishi bilan xarakterlanadigan kasallik. *Bir ko‘zum qon, bir ko‘zim yosh, turfa bo‘ldi bu ko‘ngil, Ishq elida mardum o‘ldi olako‘z bo‘ldi bu ko‘ngil (* Z.M. Bobur, “Turfa bo‘ldi” radifli g‘azali). *Olako‘z insonlar qadimda o‘ziga xos xislatga ega deb ishonilgan* (Gazetadan).



RISHTA – DRAKUNKULYOZ (tayanch tibbiy birlik). Teri ostida paydo bo‘ladigan, ip kabi uzun qurt; shu qurt orqali tarqaladigan kasallik. Asosan, Buxoro hududida aniqlangan kasallik bo‘lib, bu bilan og‘rigan odamning badanida – belidan pastda ipsimon qurt paydo bo‘ladi. *Odam boshiga balo bo‘lib kelgan rishta kasalligi ham butunlay tugatib yuborildi* (Gazetadan). *O‘g‘li frontga jo‘nayotganida, “Buxoroga borsang suvidan ichma – rishta kasali bor”, deb mehribonlik qilgan* (A. Qahhor, Tanlangan asarlar).

Kasalliklarning nomlarini aks ettiruvchi leksika o‘zbek tilining ming yillar davomida rivojlanib kelgan lug‘at fondi hisoblanib, inson kasalliklarini bildiruvchi nominatsiyalarning eng katta lug‘aviy-semantik guruhini tashkil etadi.

Mazkur tuzilayotgan lug‘atda kasalliklarning noterminologik shakllari va ularning ma’nolari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “Tibbiy terminlarning izohli lug‘ati”, “Salomatlik ensiklopedik lug‘ati”, “Tibbiy qomusiy lug‘at”, Abu Ali Ibn Sinoning “Kitob al-Qonun fit-tibb” (“Tibbiyot ilmining qonuni”) asari hamda davriy nashr materiallari, badiiy adabiyot namunalari, so‘zlashuv nutqidan olingan misollar asosida izohlanib umumlashtirilmoqda. Darvoqe, tilimizdagi hech bir tushuncha va so‘z bejizga paydo bo‘lgan emas. Ular xalqimizning bir necha ming yillik tarixga ega qarashlari, urf-odatlari, irim-sirimlari natijasida shakllanib, bugungi kunda ham xalq orasida qo‘llanib kelinmoqda. Har qanday tilda bo‘lgani kabi milliy-madaniy semantika xalq og‘zaki ijodi, madaniyati, o‘simliklar dunyosi, tabiati, kundalik hayoti, urf-odatlari, umuman, turli-tuman madaniy kodlarning o‘ziga xos xususiyatlarini qamrab oladi va bu avloddan avlodga yetkazadigan til nominatsiyalari xalqning madaniy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

O‘ylaymizki, mazkur turdagi lug‘at kelgusida tibbiyot sohasi vakillari faoliyatida qo‘l keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-5058351

2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari.– 1-5-jild. T.: “Sharq” nashriyoti, 2020.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-6-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001-2007.

4. Usmonxodjayev A., Abilov O‘., Turaxonova M. Tibbiy atamalar lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 400 b.

UO‘K 811.512.133’373.2:82.09

BADIIY MATNLARDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI

Aliyeva S. A., PhD, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada badiiy matnda qo‘llanuvchi onomastik birliklarning (antroponim, toponim, laqab va unvonlarning) pragmatik hamda stilistik xususiyatlari filologik tahlil asosida yoritilgan. Onimlarning nominativ vazifasi bilan bir qatorda ularning baholash, murojaat, ishora va estetik ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari A. Qodiriy va Cho‘lpon asarlari misolida o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *onomastika, badiiy matn, antroponim, pragmatika, stilistika, ramziy ism, ekspressivlik, lingvopoetika.*

Аннотация. *В статье на основе филологического анализа рассматриваются прагматические и стилистические особенности ономастических единиц в художественном тексте. На материале произведений А. Кадыри и Чулпана исследуются оценочные, адресные, экспрессивные и эстетические функции имён собственных.*

Ключевые слова: *ономастика, художественный текст, антропоним, прагматика, стилистика, символическое имя, экспрессивность.*

Abstract. *The article examines the pragmatic and stylistic features of onomastic units in literary texts on the basis of philological analysis. Using the works of A. Qodiriy and Cholpon as material, the evaluative, addressing, expressive and aesthetic functions of proper names are studied.*

Keywords: *onomastics, literary text, anthroponym, pragmatics, stylistics, symbolic name, expressiveness, linguopoetics.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat tizimli-strukturaviy jihatdan emas, balki nutqiy vaziyat, so‘zlovchi niyati va tinglovchiga ta’siri nuqtai nazaridan o‘rganish yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu jihatdan onomastik birliklar, ya’ni atoqli otlar alohida o‘rin tutadi. Ular badiiy matnda shaxs yoki joyni atash vositasi bo‘lib qolmay, muallif g‘oyasi, qahramon xarakteri, ijtimoiy muhit va davr ruhini ifodalovchi estetik unsurga aylanadi. A.V. Superanskaya atoqli otning umumiy nazariyasini yaratar ekan, onimning nominativ vazifasi bilan birga uning konnotativ imkoniyatlari ham mavjudligini ta’kidlagan [1]. O‘zbek onomastikasida esa E. Begmatov ismlarning ma’no tarkibi, kelib chiqishi va ijtimoiy-madaniy asoslarini keng yoritgan [2].

Badiiy matnda onim tanlash tasodifiy hodisa emas. Yozuvchi qahramon nomini tanlashda uning ijtimoiy mavqeyi, yoshi, xarakteri, yashagan davri va asarning umumiy poetik vazifasini hisobga oladi. Shu sababli badiiy asardagi har bir onim lingvistik hamda pragmatik-stilistik tahlilni talab etadi.

Badiiy matnda onomastik birliklarning o‘rni va tasnifi

Badiiy matndagi onomastik birliklar tarkibiga antroponimlar (ism, familiya, otasining ismi, laqab, taxallus), toponimlar (shahar, qishloq, mahalla, daryo nomlari), zoonimlar, ergonimlar va boshqa atoqli otlar kiradi. Shuningdek, o‘zbek badiiy nutqida ism bilan birga ishlatiladigan bek, hoji, so‘fi, qutidor, mingboshi kabi unvon va maqom bildiruvchi so‘zlar ham onim bilan yaxlit holda qo‘llanib, ijtimoiy-tarixiy mazmun yuklaydi.

Yu.M. Lotman badiiy matnda har bir unsur ma’noviy yuklama olishini, matn doirasida hatto nomning o‘zi ham tizimli ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan [4]. M. Yo‘ldoshevning lingvopoetik yondashuvi ham badiiy matnni uning ichki estetik qonuniyatlari asosida tahlil qilishni taqozo etadi [3]. Shu nuqtai nazardan, onimlarning badiiy matndagi vazifasini kamida uch jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiq: nominativ-identifikatsiya, pragmatik va stilistik jihatlar.

Onomastik birliklarning pragmatik xususiyatlari

Pragmatika til birliklarining nutqiy vaziyatdagi vazifasini, muallif (adresant) niyatini va o‘quvchi (adresat)ga ta’sirini o‘rganadi.

Birinchidan, onim shaxsni identifikatsiya qiladi va uni boshqalardan ajratadi. Ammo badiiy matnda bu vazifa yakka holda qolmaydi: ism o‘quvchida ma’lum ijtimoiy, axloqiy va emotsional tasavvur uyg‘otadi. Masalan, A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Otabek ismi tarkibidagi bek komponenti qahramonning yuqori ijtimoiy mavqeyi va oilaviy an’anaga mansubligiga ishora qiladi, Yusufbek hoji nomidagi hoji unsuri esa diniy-ijtimoiy obro‘ni anglatadi [6]. Bunday onimlar o‘quvchiga qahramon haqida dastlabki pragmatik axborotni matn voqealari boshlanmasidanoq yetkazadi.

Ikkinchidan, onim baholash va ekspressivlik vazifasini bajaradi. Romandagi Kumush ismi o‘zbekcha qimmatbaho oq metall nomi bo‘lib, qahramon timsolida pokizalik, nafosat va sofdillik tushunchalarini jamlaydi. Bu yerda ism metaforik asosda baho ifodalaydi: yozuvchi qahramonga bevosita tavsif bermasdan ham o‘quvchida ijobiy munosabat uyg‘otadi. Kumushga nisbatan qo‘llanuvchi -bibi qo‘shimchasi esa hurmat va odob ohangini kuchaytiradi [6].

Uchinchidan, onimlar murojaat va ijtimoiy munosabatni ifodalaydi. O‘zbek madaniyatida shaxsga murojaat shakli (ism, ism + aka, ism + bek, laqab yoki unvon bilan atash) so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi yosh, mavqe va ijtimoiy masofa farqlarini ko‘rsatadi. Badiiy matndagi dialogda

qahramon boshqasini ismi bilan emas, unvoni yoki laqabi bilan atasa, bu hurmat, kinoya yoki masofa saqlash niyatini bildirishi mumkin. M.M. Baxtinning dialogizm haqidagi qarashlariga ko‘ra, so‘z har doim boshqa ovozga qaratilgan bo‘lib, uning ma’nosi suhbatdoshlar munosabatida shakllanadi [5]; bu fikr murojaat vazifasidagi onimlarning pragmatik tabiatini tushunishda muhimdir.

To‘rtinchidan, onim muallif niyatini yashirin (implitsit) tarzda ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. G. Liych va M. Shortning stilistik yondashuviga ko‘ra, badiiy matndagi til tanlovi muallifning dunyoqarashi va o‘quvchiga ta’sir strategiyasini ko‘rsatadi. Onim tanlash ham shunday strategiyaning bir qismidir.

Onomastik birliklarning stilistik xususiyatlari

Stilistik jihatdan onomastik birliklar badiiy obrazlilik, ta’sirchanlik va uslubiy ranglilik yaratishga xizmat qiladi. Ularning eng muhim stilistik xususiyatlari quyidagilar.

1. “Gapiruvchi” (ramziy) ismlar. Bunday ismlar qahramon xarakterini ism ma’nosi orqali ochib beradi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi ismi forscha “ko‘rkam, go‘zal” ma’nosini bildiradi, ammo qahramon taqdirining og‘irligi va fojiasi bilan qiyoslanganda ism ma’nosi bilan hayot haqiqati o‘rtasida ta’sirchan kontrast yuzaga keladi [7].

2. Ism ma’nosi va xarakter o‘rtasidagi ziddiyat orqali ironiya va satira hosil qilish. Qodiriy romanidagi Homid ismi arabcha hamd aytuvchi, maqtovchi ma’nosiga ega bo‘lib, qahramonning salbiy xatti-harakatlari bilan semantik jihatdan zidlik hosil qiladi [2; 6]. Xuddi shunday, Cho‘lpon romanidagi Razzoq so‘fi nomida so‘fi (zohid) unvoni zohiriy taqvoni, qahramonning ochko‘zlik va qattiqqo‘lligi esa ichki ma’naviy qashshoqlikni ko‘rsatadi [7]. Bunday usul yozuvchining baho munosabatini bevosita bildirmasdan, o‘quvchini o‘zi xulosa chiqarishga undaydi.

3. Tarixiylik va milliy koloritni yaratish. Otabek, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor, Akbarali mingboshi kabi nomlar, shuningdek, Marg‘ilon, Qo‘qon, Toshkent kabi toponimlar XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy hayotining ishonchli manzarasini yaratadi. Bu o‘rinda onimlar badiiy makon va zamonni (Baxtin ta’biri bilan xronotopni) belgilovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi [5].

4. Tovush va ritm jihatdan ifodalilik. Ba’zi ismlarning tovush tarkibi (masalan, Kumush nomidagi yumshoq sonor va sirg‘aluvchi undoshlar) qahramon obrazidagi nazokat va mayinlik ohangini kuchaytirishi mumkin. Bunday hodisalar tovush ramziyligi doirasida o‘rganiladi va tahlilda ehtiyotkorlik bilan baholanishi lozim.

Yuqoridagi tahlillar natijalarini quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin.

Onim	Ma’no asosi	Pragmatik-stilistik vazifasi
Kumush	o‘zbekcha: qimmatbaho oq metall	Metaforik nominatsiya: pokizalik, nafosat, mehr-oqibat tushunchalari bilan assotsiatsiya
Otabek	ota + bek (turkiy)	Yuqori ijtimoiy mavqe va oilaviy an’ana ishorasi; tarixiylik koloriti
Homid	arabcha: hamd aytuvchi, maqtovchi	Ism ma’nosi bilan qahramon xatti-harakati o‘rtasidagi ziddiyat orqali ironiya
Razzoq so‘fi	arabcha: rizq beruvchi; so‘fi – zohid	Zohirdagi taqvo va ichki ochko‘zlik qarama-qarshiligi, satirik ta’sir
Zebi	forscha: ko‘rkam, go‘zal	Qahramon taqdiri bilan kontrast hosil qiluvchi ramziy nom

Jadvaldan ko‘rinadiki, bir onim bir vaqtning o‘zida bir nechta pragmatik va stilistik vazifani bajarishi mumkin. Masalan, Kumush nomi bir tomondan identifikatsiya vositasi, ikkinchi tomondan metaforik baho, uchinchi tomondan esa qahramonga nisbatan o‘quvchi hamdardligini shakllantiruvchi omildir.

Tarjimon ismning fonetik shaklini saqlash bilan birga uning ma’noviy-stilistik yuklamasini ham yetkazishi lozim; aks holda “gapiruvchi” ism o‘z ta’sir kuchini yo‘qotadi. Shuning uchun tarjimada izoh, kalka yoki transkripsiya usullarini matn maqsadidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq.

Xulosa

Badiiy matndagi onomastik birliklar nominativ vazifa bilan chegaralanmay, murakkab pragmatik va stilistik funksiyalarni bajaradi. Pragmatik jihatdan ular identifikatsiya, baholash, murojaat va muallif niyatini yashirin ifodalash vositasi bo‘lsa, stilistik jihatdan ramziy nomlar,

ironiya, tarixiy kolorit va tovush ifodaliligi yaratishga xizmat qiladi. Shu bois badiiy matnni filologik tahlil qilishda onomastik birliklarni ism ma’nosi, ijtimoiy-madaniy kontekst va muallif niyati bilan birgalikda o‘rganish ilmiy jihatdan samarali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Superanskaya A.V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. – Moskva: Nauka, 1973.
2. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2008.
4. Lotman Yu.M. Struktura khudozhestvennogo teksta. – Moskva: Iskusstvo, 1970.
5. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva: Iskusstvo, 1979.
6. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
7. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1994.

UO‘K 81'367:811.512.133:811.581

O‘ZBEK VA XITOY TILLARIDA GAP BO‘LAKLARI TARTIBINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

A.D.Altayeva, mustaqil tadqiqotchi, Alfraganus University, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek va xitoy tillarida gap bo‘laklari tartibi tipologik nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilinadi. O‘zbek tili agglyutinativ-sintetik, ega — to‘ldiruvchi — kesim (SOV) asosiy tartibiga ega til sifatida, xitoy tili esa izolyatsiyalovchi-analitik, ega — kesim — to‘ldiruvchi (SVO) tartibiga ega til sifatida ko‘rib chiqiladi. J. Grinberg, M. Drayer, B. Komri, J. Xokins, Ch. Li va S. Tompsonlarning so‘z tartibi universaliylari nazariyasi, shuningdek V. Mateziys va J. Firbasning aktual bo‘linish nazariyasi tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Tahlil natijasida ikki tilning yigirmata morfologik, sintaktik va kommunikativ-pragmatik parametr bo‘yicha qiyosiy tavsifi berilib, ular orasidagi tipologik farq va o‘xshashlik nuqtalari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *tipologik tilshunoslik, gap bo‘laklari tartibi, agglyutinativ til, izolyatsiyalovchi til, SOV, SVO, aktual bo‘linish, mavzu-rema, kontrastiv lingvistika.*

Аннотация. *В статье представлен сравнительно-типологический анализ порядка членов предложения в узбекском и китайском языках. Узбекский язык рассматривается как агглютинативно-синтетический язык с базовым порядком «подлежащее — дополнение — сказуемое» (SOV), китайский — как изолирующе-аналитический язык с базовым порядком «подлежащее — сказуемое — дополнение» (SVO). Теоретической основой исследования служат теория универсалий порядка слов Дж. Гринберга, М. Драйера, Б. Комри и Дж. Хокинса, типология «топик-выдвижения» Ч. Ли и С. Томпсон, а также теория актуального членения предложения В. Матезиуса и Я. Фирбаса. В результате анализа дано сопоставительное описание двух языков по двадцати морфологическим, синтаксическим и коммуникативно-прагматическим параметрам.*

Ключевые слова: *типологическое языкознание, порядок членов предложения, агглютинативный язык, изолирующий язык, SOV, SVO, актуальное членение, топик-комментарий, контрастивная лингвистика.*

Abstract. *This article presents a comparative-typological analysis of sentence constituent order in Uzbek and Chinese. Uzbek is examined as an agglutinative-synthetic language with a basic Subject–Object–Verb (SOV) order, while Chinese is analysed as an isolating-analytic language with a basic Subject–Verb–Object (SVO) order. The study’s theoretical framework relies on the word-order universals theory developed by J. Greenberg, M. Dryer, B. Comrie and J. Hawkins, on Li and Thompson’s topic-prominence typology, and on the functional sentence perspective theory of V. Mathesius and J. Firbas. The analysis offers a comparative description of the two languages across twenty morphological, syntactic and communicative-pragmatic parameters, identifying both points of typological divergence and convergence.*

Key words: *typological linguistics, constituent order, agglutinative language, isolating language, SOV, SVO, functional sentence perspective, topic-comment, contrastive linguistics.*

Kirish. So‘z tartibi tipologiyasi zamonaviy qiyosiy-tipologik tilshunoslikning markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u tillarning sintaktik tuzilishidagi universal va xususiy qonuniyatlarni

aniqlashga xizmat qiladi. O‘zbek va xitoy tillari genetik jihatdan bir-biriga aloqador bo‘lmagan, tipologik jihatdan esa deyarli qarama-qarshi qutbda joylashgan ikki til sifatida qiyosiy tahlil uchun ayniqsa qulay va ilmiy jihatdan qimmatli material hisoblanadi [5]. Shu bilan birga, o‘zbek-xitoy qiyosiy tilshunosligida bugungi kunga qadar erishilgan natijalarning katta qismi frazeologiya, paremiologiya va tarjimashunoslik sohalariga tegishli bo‘lib, gap bo‘laklarining tartibi va uning tipologik shartlanganligi masalasi mustaqil tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi — ikki tilning gap bo‘laklari tartibini tipologik universaliylar nazariyasi asosida qiyosiy tahlil qilish va ularning nazariy-metodologik asoslarini yoritishdan iborat.

1. Tipologik tilshunoslikning nazariy asoslari. Til tipologiyasi tillarni qarindoshlik munosabatlaridan qat’i nazar, ularning tuzilishidagi umumiy va farqli xususiyatlarni aniqlash asosida tasniflaydigan tilshunoslik sohasidir. F. Shlegel tillarni birinchi bo‘lib flektiv va affiksal turlarga ajratgan bo‘lsa [1], V. fon Gumboldt “ichki til shakli” ta’limotida tillarni ajratuvchi, agglyutinativ, flektiv va inkorporatsiyalovchi turlarga bo‘lish tamoyilini ilgari surdi [2]. XX asr boshlarida E. Sepir morfologik tasnifni sintetik indeks asosida takomillashtirib, “grammatik jarayonlarning tipologik taqsimoti” tushunchasini fanga kiritdi [4]. Zamonaviy tipologiyada esa M. Drayer boshchiligidagi World Atlas of Language Structures (WALS) loyihasi 2600 dan ortiq tilni qamrab olgan katta hajmdagi miqdoriy tadqiqotlar bazasini yaratdi [23].

2. Morfologik klassifikatsiya: agglyutinativ va izolyatsiyalovchi til tizimlari. O‘zbek tili — turkiy tillar oilasining tipik vakili sifatida agglyutinativ til tizimining klassik namunasi hisoblanadi: grammatik ma’nolar so‘z o‘zagiga ketma-ket, aniq chegaralangan affikslar qo‘shilishi orqali ifodalanadi (kitob-lar-im-da). Bu tizimda gap bo‘laklari orasidagi munosabatlar maxsus kelishik va egalik affikslari orqali belgilanadi, bu esa so‘zlarning gapda nisbatan erkin tartibda joylashishiga imkon beradi [15].

Xitoy tili, aksincha, izolyatsiyalovchi (analitik) til tizimining eng yorqin namunasi hisoblanadi: so‘zlar deyarli o‘zgarmas shaklda qo‘llanadi, grammatik munosabatlar esa asosan so‘zlarning gapdagi qat’iy tartibi va yordamchi so‘zlar (虚词) orqali ifodalanadi [10]. J. Grinberg tomonidan taklif etilgan sintetiklik indeksi (M/W — morfema sonining so‘z soniga nisbati) bo‘yicha izolyatsiyalovchi tillarda bu ko‘rsatkich 1,0–1,5 oralig‘ida, agglyutinativ tillarda esa 2,0–2,5 va undan yuqori bo‘ladi [5], bu ikki tilning tipologik qarama-qarshiligini son bilan ifodalaydi.

3. So‘z tartibi tipologiyasi va universaliylar nazariyasi. So‘z tartibi tipologiyasining tizimli ilmiy asosi J. Grinbergning 1963-yilgi tadqiqotida shakllantirilgan bo‘lib, u tillarni ega (S), kesim (V) va to‘ldiruvchi (O) ning nisbiy tartibiga ko‘ra olti asosiy tipga ajratgan [5]. Uning 4-universaliysiga ko‘ra, SOV tipidagi tillar odatda postpozitsiyalarga, SVO tipidagi tillar esa predloglarga ega bo‘ladi — o‘zbek tili (SOV, kelishik affikslari) bu qonuniyatni to‘liq tasdiqlaydi [5].

M. Drayer 625 tillik namuna asosida Grinberg universaliylarini qayta tekshirib, ularning aksariyati statistik jihatdan tasdiqlanganini ko‘rsatdi [6]. B. Komri tipologik tadqiqotlarning metodologik asoslarini — namuna tanlash tamoyillari va arealning ta’sirini — chuqur yoritdi [7], J. Xokins esa “tushunishni yengillashtirish tamoyili” orqali so‘z tartibi universaliylarining kognitiv-psixolingvistik sabablarini izohlashga urindi [8]. Qiziqarli holat shundaki, xitoy tili SVO asosiy tartibiga ega bo‘lsa-da, aniqlovchi-aniqlanmish tartibida SOV tillariga xos modelni saqlab qolgan (masalan, 漂亮的花 — “chiroyli gul”), bu esa xitoy tilining “tipologik nomuvofiqligi”ga misol bo‘ladi [5; 8].

Ch. Li va S. Tompson xitoy tilini “mavzu ustuvor til” (topic-prominent language) sifatida tavsiflab, tillarni ega ustuvor, mavzu ustuvor, ham ega ham mavzu ustuvor hamda na ega, na mavzu ustuvor turlarga ajratdilar [10]. Ushbu tasnifga ko‘ra o‘zbek tili grammatik eganing barqaror markaziy o‘rniga ega bo‘lgan til sifatida ko‘proq “ega ustuvor til” xususiyatlariga yaqin turadi.

4. Gap bo‘laklari tartibi va kommunikativ sintaksis. So‘z tartibini nafaqat grammatik, balki kommunikativ nuqtai nazardan tushunish zarurati Praga lingvistik maktabi, xususan V. Mateziys tomonidan asoslab berilgan [11]. Uning “aktual bo‘linish” nazariyasiga ko‘ra, gap “mavzu” (ma’lum

axborot) va “rema” (yangi axborot) qismlaridan iborat bo‘ladi. J. Firbas ushbu nazariyani “kommunikativ dinamizm darajasi” tushunchasi bilan boyitdi [12].

O‘zbek tilida mavzu-rema tuzilishi asosan so‘z tartibi va mantiqiy urg‘u orqali ifodalanadi, bunda so‘z tartibining o‘zgarishi grammatik to‘g‘rilikni buzmaydi. Xitoy tilida esa mavzu-rema tuzilishi grammatik darajada mustahkamlangan bo‘lib, mavzu odatda gap boshidagi alohida sintaktik pozitsiyani egallaydi [10; 11]. Bu farq shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida grammatik va kommunikativ so‘z tartibi orasidagi “masofa” katta, xitoy tilida esa nisbatan kichikdir.

5. O‘zbek va xitoy tilshunosligida gap bo‘laklari nazariyasining shakllanishi. O‘zbek tilshunosligida gap bo‘laklari nazariyasi G‘.Abdurahmonovning “gap markazi” nazariyasida chuqur asoslab berilgan bo‘lib, unga ko‘ra kesim gapning grammatik-semantik markazi hisoblanadi va boshqa barcha bo‘laklarni o‘ziga bog‘laydi [15]. A.Nurmonov gap bo‘laklarini “darajalanish” tamoyili asosida kesim — ega — hol — to‘ldiruvchi — aniqlovchi ierarxiyasi shaklida tizimlashtirgan [16], Sh. Rahmatullayev va R.Sayfullayeva esa gap bo‘laklarining zamonaviy tasnifini “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida batafsil yoritganlar [17].

Xitoy tilshunosligida grammatik tavsif an’anasi Ma Jianzhongning 1898-yilgi “Mashi Wentong” asari bilan boshlangan [19]. Van Li xitoy tili gap bo‘laklarini 主语 (ega), 谓语 (kesim), 宾语 (to‘ldiruvchi) kabi kategoriyalarga ajratib tizimli tavsifladi [20], Lyu Yuehua va hammualliflari amaliy grammatik qo‘llanma yaratdilar [21], Chju Dexi esa so‘z birikmalari (词组) nazariyasini distributiv tahlil metodi asosida ishlab chiqdi [22].

6. O‘zbek va xitoy tillarining qiyosiy-parametrik tavsifi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy asoslarga tayanib, ikki tilning asosiy tipologik parametrlari quyidagi jadvalda umumlashtirildi (jadval [5; 10] asosida tuzilgan):

Parametr	O‘zbek tili	Xitoy tili
Morfologik tur	Agglyutinativ-sintetik	Izolyatsiyalovchi-analitik
Asosiy gap tartibi	SOV	SVO
Kelishik kategoriyasi	Kelishik affikslari (6 ta)	Predloglar orqali
Aniqlovchi-aniqlanmish	Aniqlovchi oldin	Aniqlovchi oldin (的 bilan)
Predlog/postpozitsiya	Postpozitsiya	Predlog
Ega ustuvorlik	Ega ustuvor tilga yaqin	Mavzu ustuvor til
So‘z tartibining erkinligi	Nisbatan erkin (uslubiy)	Qat’iy (grammatikalashgan)

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikki til ko‘pchilik morfologik va sintaktik parametrlar bo‘yicha tubdan farqlanadi, biroq aniqlovchi-aniqlanmish tartibi kabi ayrim jihatlarda sezilarli o‘xshashlik namoyon etadi — bu holat xitoy tilining SVO asosiy tipiga qaramay, SOV tillariga xos xususiyatni qisman saqlab qolganini ko‘rsatadi [5].

Xulosa. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va xitoy tillari o‘zlarining dominant grammatik xususiyatlariga ko‘ra mos ravishda agglyutinativ-sintetik va izolyatsiyalovchi-analitik tiplarning yorqin namoyandalari sifatida qaraladi. O‘zbek tilida grammatik ma’noni ifodalash vazifasi asosan morfologiyaga yuklangan bo‘lib, sintaksis nisbatan erkin, uslubiy-kommunikativ vazifani bajaradi; xitoy tilida esa bu vazifa sintaksis va yordamchi so‘zlarga yuklangan. Grinberg, Drayer, Komri, Xokins ishlab chiqqan so‘z tartibi universaliylari nazariyasi, shuningdek Li va Tompsonning “ega ustuvor til — mavzu ustuvor til” farqlanishi, hamda Praga funksional maktabining aktual bo‘linish nazariyasi ikki tilni qiyoslashning bevosita nazariy asosini tashkil etadi. O‘zbek-xitoy qiyosiy tilshunosligida gap bo‘laklari tartibining mustaqil, tizimli tadqiqi hali yetarli darajada olib borilmagan bo‘lib, bu yo‘nalish kelgusi tadqiqotlar, jumladan kontrastiv lingvistika va mashina tarjimasi tizimlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan istiqbolli hisoblanadi [13; 14].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shlegel F. Über die Sprache und Weisheit der Indier. — Heidelberg, 1808.
2. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. — М.: Прогресс, 1984. — 400 с.
3. Шлейхер А. Теория Дарвина и наука о языке. — СПб., 1864.
4. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. — New York: Harcourt, Brace, 1921. — 258 p.
5. Greenberg J.H. Some Universals of Grammar with Particular Reference to the Order of Meaningful Elements // Universals of Language. — Cambridge, MA: MIT Press, 1963. — P. 73–113.
6. Dryer M.S. The Greenbergian Word Order Correlations // Language. — 1992. — Vol. 68, № 1. — P. 81–138.

7. Comrie B. Language Universals and Linguistic Typology. — 2nd ed. — Chicago: University of Chicago Press, 1989. — 264 p.
8. Hawkins J.A. Word Order Universals. — New York: Academic Press, 1983. — 362 p.
9. Givón T. Syntax: An Introduction. — Amsterdam: John Benjamins, 2001. — Vol. I–II.
10. Li Ch. N., Thompson S.A. Mandarin Chinese: A Functional Reference Grammar. — Berkeley: University of California Press, 1981. — 691 p.
11. Mathesius V. On the So-Called Functional Sentence Perspective // Word Order and Word Order Change. — Praha, 1975.
12. Firbas J. Functional Sentence Perspective in Written and Spoken Communication. — Cambridge: Cambridge University Press, 1992. — 239 p.
13. Lado R. Linguistics Across Cultures. — Ann Arbor: University of Michigan Press, 1957. — 141 p.
14. Corder S.P. The Significance of Learners' Errors // IRAL. — 1967. — Vol. 5. — P. 161–170.
15. Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. — Тошкент: Фан, 1980. — 220 б.
16. Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд. — Тошкент: Академнашр, 2012. — 336 б.
17. Раҳматуллаев Ш., Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. — Тошкент: Ўзбекистон, 2009. — 480 б.
18. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. — М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1960. — 446 с.
19. 马建忠. 马氏文通. — 北京, 1898.
20. 王力. 中国现代语法. — 北京: 商务印书馆, 1985.
21. 刘月华等. 实用现代汉语语法. — 北京: 商务印书馆, 2001.
22. 朱德熙. 语法讲义. — 北京: 商务印书馆, 1982.
23. Dryer M.S., Haspelmath M. (eds.) The World Atlas of Language Structures Online. — Leipzig: Max Planck Institute for Evolutionary Anthropology, 2013. — URL: https://wals.info

УДК 81:39

O'ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARIDA AQL-IDROK BILAN BOG'LIQ GENDER STEREOTIPLARNING LINGVOMADANIY JIHATLARI

D.E.Artikova, PhD, dotsent vazifasini bajaruvchi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek va ingliz xalq maqollarida aql-idrok bilan bog'liq gender stereotiplarining lingvomadaniy jihatlari tadqiq etiladi. Erkak va ayollarning aqliy qobiliyatlari, donoligi, hayotiy tajribasi, qaror qabul qilish xususiyatlarining maqollarda ifodalanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, erkak va ayol obrazlariga xos ijobiy hamda salbiy baholarning mazmuni, ularning an'anaviy gender rollari bilan aloqasi, shuningdek ularning har ikki tilda namoyon bo'ladigan o'xshash hamda farqli jihatlari aniqlanadi. Tahlil natijalari aql-idrokning har ikki xalq maqollarida muhim insoniy fazilat sifatida qadrlanishini, biroq uning erkak va ayol obrazlari bilan bog'liq holda turlicha talqin qilinishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *aql-idrok, gender stereotiplari, erkak obrazi, ayol obrazi, chog'ishtirma tahlil, lingvomadaniy tahlil, androtsentrizm.*

Аннотация. *В статье исследуются лингвокультурологические особенности гендерных стереотипов, связанных с умом и интеллектом, в узбекских и английских народных пословицах. Анализируется отражение в пословицах интеллектуальных способностей мужчин и женщин, их мудрости, жизненного опыта и особенностей принятия решений. Кроме того, рассматриваются содержание положительных и отрицательных оценок мужских и женских образов, их взаимосвязь с традиционными гендерными ролями, а также сходства и различия в репрезентации данных характеристик в обоих языках. Результаты анализа показывают, что ум и интеллект ценятся в пословицах обоих народов как важные человеческие качества, однако их интерпретация различается в зависимости от гендерного образа.*

Ключевые слова: *ум и интеллект, гендерные стереотипы, мужской образ, женский образ, сопоставительный анализ, лингвокультурологический анализ, андроцентризм.*

Abstract. *This article explores the linguocultural features of gender stereotypes related to intelligence and wisdom in Uzbek and English proverbs. It examines how proverbs represent the intellectual abilities of men and women, their wisdom, life experience, and decision-making patterns.*

The study also analyzes the positive and negative evaluations associated with male and female representations, their relationship to traditional gender roles, and the similarities and differences in how these characteristics are expressed in the two languages. The findings indicate that intelligence and wisdom are valued as important human qualities in the proverbs of both cultures; however, their interpretation varies depending on the gender represented.

Key words: *intelligence and wisdom, gender stereotypes, male representation, female representation, contrastive analysis, linguocultural analysis, androcentrism.*

Kirish. Xalq maqollari milliy tafakkur, hayotiy tajriba, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy munosabatlarni o‘zida mujassam etgan muhim folklor janrlaridan biridir. Ular qisqa va ixcham shaklda inson xulq-atvori, jamiyatdagi munosabatlar hamda turli fazilat va illatlarga nisbatan shakllangan baholarni ifodalaydi. Maqollarda muayyan xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixiy-madaniy tajribasi aks etishi bilan birga, erkak va ayolning jamiyatdagi o‘rni, vazifalari va shaxsiy xususiyatlariga doir tasavvurlar ham namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslikda gender masalasini o‘rganish til birliklarida erkak va ayol obrazlarining qanday ifodalanishi, ularga qanday xususiyatlar nisbat berilishi hamda bu xususiyatlarning ijtimoiy-madaniy qarashlar bilan qanday bog‘lanishini aniqlashga imkon beradi. Ayniqsa, xalq maqollarida gender stereotiplari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, chunki maqollar nafaqat hayotiy tajribani umumlashtiradi, balki ayrim ijtimoiy qarashlarni mustahkamlashi, ularni tanqid qilishi yoki muqobil munosabatlarni ifodalashi ham mumkin.

O‘zbek va ingliz xalq maqollarini chog‘ishtirish ushbu ikki til va madaniyatda aql-idrok kategoriyasining gender jihatidan qanday talqin qilinishini aniqlash, umumiy tendensiyalar va o‘ziga xos xususiyatlarni ochib berish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, maqollarda aks etgan qarashlarni tegishli xalq vakillarining barchasiga xos xususiyat sifatida baholash mumkin emas. Ular muayyan tarixiy davrlarda shakllangan ijtimoiy tasavvurlarni, axloqiy me'yorlarni hamda stereotipik munosabatlarni ifodalovchi folklor birliklari sifatida o‘rganilishi nazarda tutiladi.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi aql-idrok bilan bog‘liq gender stereotiplarini ifodalovchi xalq maqollaridan foydalanildi. O‘zbek tilidagi maqollarni to‘plashda T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov muallifligidagi "O‘zbek xalq maqollari" (2005), ingliz tilidagi maqollarni to‘plashda esa "The Oxford Dictionary of Proverbs" (2008) to‘plamlari asosiy manbalar sifatida xizmat qildi. Tadqiqotda chog‘ishtirma, semantik, lingvomadaniy va gender tahlili metodlari qo‘llanildi.

Asosiy qism

1. O‘zbek va ingliz maqollarida erkaklarning aql-idrokiga berilgan baholar. O‘zbek xalq maqollarida aql-idrok, donolik, zehn insonning hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashi, muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlar sifatida talqin qilinadi. Erkak obraziga nisbatan qo‘llangan ayrim maqollarda ushbu xususiyatlar uning hayotiy faoliyati va ijtimoiy mavqei bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Jumladan:

Yigitning zehnli bo‘lgani – adashmay yo‘lidan yurgani.

Mazkur maqolda zehn yigitning hayotda to‘g‘ri yo‘l tutishi va o‘z maqsadiga izchil intilishi bilan bog‘lanadi, ya'ni erkakning aqliy salohiyati uning amaliy faoliyatini belgilovchi muhim omil sifatida tasvirlanadi. Gender jihatidan olib qaraganda, unda zehnlilik yigit obrazi orqali ifodalangan. Bu holat an'anaviy ijtimoiy qarashlarda erkakning mustaqil qaror qabul qilishi va hayot yo‘lini belgilashi bilan bog‘liq vazifalar muhim o‘rin tutganini ko‘rsatishi mumkin. Biroq zehnlilikni faqat erkaklarga xos xususiyat sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Maqolda ushbu fazilatning erkak obrazi orqali yoritilishi uning umumiy insoniy ahamiyatini inkor etmaydi.

Erkakning aqliy va axloqiy fazilatlari uning oilaviy munosabatlari bilan bog‘liq holda ham baholanadi:

Yorim bor deb yorilma, haqiqiy yor bo‘lmasa; qizim bor deb kerilma, esli-xushli bo‘lmasa.

Ushbu maqol orqali insonning o‘z oilaviy yoki shaxsiy munosabatlari bilan faxrlanishi uchun bu munosabatlarning o‘zi yetarli emasligi ta'kidlanadi. "Esli-xushli" birikmasi aql-idrok, farosat, oqilona xulqni ifodalab, insonning qadr-qimmati uning shaxsiy fazilatlari bilan ham belgilanishini

anglatadi. Shuningdek, unda yor va qiz obrazlari erkakning faxrlanishi yoki maqtanishi mumkin bo‘lgan munosabatlar doirasida tilga olinadi. Biroq maqolning asosiy mazmuni ayolning mustaqilligini inkor etishdan ko‘ra, munosabatlarning qadri shaxsiy fazilatlar bilan belgilanishini ta’kidlashga qaratilgan. Shuning uchun uning gender talqinida bevosita ifodalangan mazmun bilan an’anaviy ijtimoiy qarashlardan kelib chiqadigan xulosalarni farqlash zarur.

Erkakning nimadan faxrlanishi hamda o‘ziga tegishli narsalarni qanday baholashi quyidagi maqolda o‘ziga xos tarzda ifodalanadi:

Aqlli otini maqtar, ahmoq xotinini.

Aqlli va ahmoq obrazlari ushbu maqolda o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilib, insonning maqtanish obyekti uning aqliy salohiyati bilan bog‘lanadi. Birinchi qismda otini maqtaydigan aqlli inson obrazi, ikkinchi qismda esa xotinini maqtaydigan ahmoq obrazi tasvirlangan. Bunday qarama-qarshilik ayolni maqtashning o‘zi emas, balki maqolning an’anaviy talqinida maqtanishning noo‘rin shakli sifatida baholanishi bilan bog‘liq. Gender jihatidan qaralganda, ayolning shaxsiy yutuqlari va mustaqil fazilatlari emas, balki uning erkak bilan munosabatdagi o‘rni orqali tilga olinishi e’tiborni tortadi. Bu holat an’anaviy patriarxal qarashlarda ayolning ijtimoiy mavqei ko‘pincha oilaviy munosabatlar doirasida talqin qilinganini ko‘rsatishi mumkin. Shunga qaramay, maqolning o‘zi ayolning aqliy qobiliyatini bevosita baholamasdan erkakning maqtanishiga doir axloqiy bahoni ifodalaydi. Shu sababli mazkur birlikni ayolning qadrsizlantirilishiga oid mutlaq dalil sifatida emas, balki gender munosabatlari nuqtai nazaridan izohlanishi mumkin bo‘lgan folklor namunasi sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Ingliz tilidagi maqollarda ham erkaklarning aqliy qobiliyatlari bir xil baholanmaydi. Ayrim maqollarda ularning dono gapirishga moyilligi bilan amaliy faoliyati o‘rtasidagi tafovut tanqid qilinadi:

Most men rather say a smart thing than do a good one. (Ko‘pchilik erkaklar yaxshi ish qilishdan ko‘ra, aqlli gap aytishni afzal ko‘radi)

Men talk wisely, but live foolishly. (Erkaklar dono gapirishadi, ammo ahmoqona yashashadi)

Birinchi maqolda erkaklarning nutqiy faoliyati va amaliy harakati o‘zaro qarama-qarshi qo‘yiladi. “Aqlli gap aytish” insonning bilimdonligi yoki dono ko‘rinishga intilishini ifodalasa, “yaxshi ish qilish” uning axloqiy va amaliy faoliyatini anglatadi. Maqol mazmuniga ko‘ra, insonning aqlli fikr bildira olishi uning kundalik hayotda ham oqilona ish tutishini kafolatlamaydi. Ikkinchi maqolda ham shu mazmun davom ettirilib, dono gapirish bilan ahmoqona yashash o‘rtasidagi ziddiyat orqali erkaklarning xulq-atvori tanqid qilinadi. Har ikki misolda aql-idrokning nutqiy namoyon bo‘lishi bilan amaliy hayotda qo‘llanishi farqlanadi. Bu holat erkaklarning intellektual ustunligi haqidagi tasavvurlar maqollarda doimo ijobiy mustahkamlanmasligini, aksincha, ayrim hollarda kinoya, tanqid vositasida qayta ko‘rib chiqilishini ko‘rsatadi.

Erkaklarning o‘z bilimiga ishonishi va ayollarning bilimi bilan bog‘liq qarama-qarshilik quyidagi maqolda ifodalangan:

A man thinks he knows, but a woman knows better. (Erkak bilaman deb o‘ylaydi, ammo ayol yaxshiroq biladi)

Mazkur maqolda erkakning o‘z bilimiga ishonishi bilan ayolning masalani yaxshiroq anglash qobiliyati qarama-qarshi qo‘yiladi. “Thinks he knows” birikmasi erkakning o‘z bilimiga ishonishini, “knows better” esa ayolning undan yaxshiroq bilishini ifodalaydi. Natijada erkakning aqliy ustunligi haqidagi tasavvur shubha ostiga olinadi, ayolning bilimdonligi esa ijobiy baholanadi. Ushbu maqol avvalgi ikki misoldan farqli ravishda, erkakning aqliy imkoniyatlarini tanqid qilish bilan birga, ayolning intellektual salohiyatini e’tirof etadi. Demak, ingliz maqollarida erkak obrazi faqat dono shaxs sifatida emas, balki o‘z bilimini ortiqcha baholashi mumkin bo‘lgan shaxs sifatida ham gavdalanadi. Biroq bu xususiyatni barcha erkaklarga xos deb umumlashtirish emas, balki o‘ziga ortiqcha ishonchni tanqid qiluvchi stereotipik tasvir sifatida talqin qilish lozim.

2. O‘zbek va ingliz maqollarida ayollarning aql-idrokiga berilgan baholar. O‘zbek xalq maqollarida ayolning aqliy salohiyati ko‘pincha tashqi ko‘rinish, axloqiy fazilatlar va oilaviy

munosabatlardagi o‘rni bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Quyidagi maqolda aql hamda go‘zallik o‘rtasidagi munosabat yoritiladi:

Aqlsiz xotin husnini ko‘z-ko‘z qilar, aqlli xotin aqlini.

Maqolda aqlsiz va aqlli ayol obrazlari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘lib, birinchi qismda tashqi go‘zalligini ko‘z-ko‘z qiladigan ayol aqlsiz deb baholansa, ikkinchi qismda o‘z aqliy salohiyatini namoyon etadigan ayol aqlli sifatida tasvirlanadi. “Husn” va “aql” tushunchalarining qarama-qarshi qo‘yilishi ayolning qadrini faqat tashqi ko‘rinish bilan o‘lchashni ma’qullamaydi, balki aql-idrokni muhim insoniy fazilat sifatida ilgari suradi. Lingvomadaniy jihatdan maqolda go‘zallikdan ko‘ra aql va farosatga ustunlik berilishi namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ayolning go‘zalligi hamda aqli o‘rtasida qarama-qarshilik o‘rnatilishi uning ijtimoiy qadrini tashqi ko‘rinish bilan bog‘lab baholaydigan an’anaviy mezonlar ham mavjud bo‘lganini anglatadi.

Ayolning donoligi oilaviy hayot va erkakning ijtimoiy obro‘siga ta’siri orqali ham ifodalanadi:

Aqldor bo‘lsa yigitning xotini, yaxshilikka chiqarar yigitning otini.

Maqolda ayolning aqli va farosati erining hayotida ijobiy o‘zgarishlar yuzaga keltiruvchi omil sifatida talqin qilinib, oilaviy hayotda muhim qarorlar va munosabatlarga ta’sir ko‘rsata oladigan, aqliy salohiyatga ega shaxs sifatida gavdalanadi. Biroq maqolda ayolning donoligi, avvalo, erining muvaffaqiyati, obro‘si bilan bog‘lanadi. Bu holat an’anaviy gender rollarida ayolning oilaviy vazifalari muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, maqol ayolning aql-idrokini ijobiy baholash bilan birga, uning ijtimoiy ahamiyatini erkak hayotiga ko‘rsatadigan ta’siri orqali izohlash tendensiyasini ham namoyon etadi.

Ingliz tilidagi maqollarda ayollarning aqliy qobiliyatlariga nisbatan keskin salbiy baholar ham uchraydi. Jumladan:

Women have long hair and short brain. (Ayollarning sochi uzun, aqli esa qisqa)

When an ass climbs a ladder, we may find wisdom in women. (Eshak narvonga chiqqanda, ayollarda donolik topishimiz mumkin)

Birinchi maqolda ayolning tashqi ko‘rinishiga oid belgi uning aqliy qobiliyatini baholash bilan bog‘lanadi. “Long hair” va “short brain” birikmalari o‘rtasidagi qarama-qarshilik ayolning tashqi ko‘rinishi bilan aqliy salohiyati o‘rtasida stereotipik ziddiyat hosil qiladi. Natijada ayollarning aqliy imkoniyatlari erkaklarnikidan past degan kamsituvchi tasavvur ifodalanadi. Ikkinchi maqolda esa ayollarda donolik topilishi imkonsiz yoki g‘ayrioddiy vaziyat bilan bog‘lanadi. Eshakning narvonga chiqishi haqidagi obraz kinoya vositasida ayollarning aqliy qobiliyatini inkor etishga xizmat qiladi. Har ikki maqolda mubolag‘a va kinoya ayol obraziga nisbatan salbiy bahoni kuchaytiradi. Mazkur birliklar androtsentrik dunyoqarashning til orqali namoyon bo‘lishini tahlil qilish uchun muhim material hisoblanadi. Ushbu maqollarda ayollarning aqliy salohiyati erkaklarga xos deb tasavvur qilingan me’yor bilan solishtirilib, salbiy baholanadi.

Shu bilan birga, ingliz maqollarida ayollarning aqliy salohiyati ijobiy baholanadigan misollar ham mavjud:

Women’s instinct is often truer than men’s reasoning. (Ayolning ichki sezgisi ko‘pincha erkakning mantiqiy fikrlashidan to‘g‘riroq bo‘ladi.)

Maqolda ayolning ichki sezgisi erkakning mantiqiy mulohazasiga qarama-qarshi qo‘yilib, ayolga sezgirlik, erkakka esa mantiqiy fikrlash xususiyati nisbat beriladi. Biroq maqol ayolning ichki sezgisini ayrim vaziyatlarda erkakning mulohazasidan ishonchliroq deb baholaydi. Shu tariqa ayolning vaziyatni anglash va to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyati e’tirof etiladi. Mazkur maqolning o‘ziga xos jihati shundaki, unda ayolning aqliy ustunligi bevosita mantiqiy fikrlash bilan emas, balki ichki sezgi orqali izohlanadi. Bu esa ayol va erkakning fikrlash usullari o‘rtasida farq mavjudligi haqidagi an’anaviy tasavvurni saqlab qoladi. Demak, ayolning qobiliyati ijobiy baholansa ham, u muayyan gender xususiyati bilan bog‘langan holda talqin qilinadi.

Ayollarning maslahat berish hamda qaror qabul qilish qobiliyatiga doir tasavvurlar quyidagi maqolda ifodalangan:

Take the first advice of a woman and not the second. (Ayolning birinchi maslahatini ol, ikkinchisini emas.)

Maqolda ayolning birinchi maslahati ma’qullanib, keyingi maslahati ishonchsiz deb baholanadi. Ushbu qarama-qarshilik ayolning dastlabki fikri to‘g‘ri bo‘lishi mumkinligini tan oladi, biroq uning keyingi qarashlari o‘zgaruvchanligi haqidagi stereotipni ham yuzaga chiqaradi. Gender nuqtai nazaridan bu maqolda ayolning fikrlari va qarorlarining barqarorligi shubha ostiga olinadi. Uning maslahatiga to‘liq ishonish o‘rniga, faqat dastlabki fikrini qabul qilish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv ayolning qaror qabul qilish qobiliyatini cheklangan tarzda baholaydi. Shunga qaramay, maqolni ayollarning amalda beqaror qarorlar qabul qilishining dalili sifatida emas, balki shunday tasavvurning folklordagi ifodasi sifatida talqin qilish lozim.

Ayollarning ta’lim olishiga munosabat ham ayrim ingliz maqollarida salbiy baho bilan bog‘langan:

A morning sun, and a wine-bred child, and a Latin-bred woman seldom end well. (Ertalabki quyosh, vino bilan katta bo‘lgan bola va lotincha ta’lim olgan ayol kamdan-kam hollarda yaxshi yakun topadi.)

Maqolda uch xil hodisa bir qatorga qo‘yilib, ularning salbiy yakun bilan bog‘lanishi ta’kidlanadi. Ayniqsa, “a Latin-bred woman” ifodasi ayolning lotin tilida ta’lim olishi yoki muayyan ta’lim-tarbiya olishi bilan bog‘liq tarixiy qarashlarni o‘rganish uchun e’tiborga loyiq. Mazkur ifoda ayolning bilim olishi nomaqbul oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqidagi tasavvurni aks ettirishi ehtimoldan xoli emas. Shu jihatdan ushbu maqol gender stereotiplarini tahlil qilishda nafaqat til birliklarining mazmunini, balki ularning tarixiy va madaniy kontekstini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalar va muhokama. O‘zbek va ingliz xalq maqollarini chog‘ishtirma, semantik, lingvomadaniy va gender tahlili asosida o‘rganish aql-idrok kategoriyasining bir necha jihatdan namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Birinchidan, har ikki tilda aql-idrok insonning muhim fazilati sifatida qadrlanadi. O‘zbek maqollarida zehnlilik hayotda to‘g‘ri yo‘l tutish va oilaviy munosabatlarda oqilona harakat qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, keltirilgan ingliz maqollarida dono gapirish, amaliy xulq va qarorlarning to‘g‘riligi o‘rtasidagi munosabat alohida yoritiladi. Ikkinchidan, erkak obraziga nisbatan ijobiy baholar bilan bir qatorda tanqidiy munosabat ham mavjud. O‘zbek maqolida yigitning zehnliligi uning hayot yo‘lini to‘g‘ri tanlashi bilan bog‘lansa, ingliz maqollarida erkakning dono gapirishi bilan amaliy hayoti o‘rtasidagi tafovut yoki o‘z bilimiga ortiqcha ishonishi tanqid qilinadi. Uchinchidan, ayol obrazi har ikki tilda bir xil tarzda baholanmaydi. O‘zbek maqollarida ayolning aqli tashqi go‘zallikdan ustun qo‘yilishi va uning donoligi oilaviy hayotga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ta’kidlanadi. Ingliz tilidagi keltirilgan misollarda esa ayollarning aqliy qobiliyatini kamsituvchi maqollar bilan bir qatorda, ularning ichki sezgisi va bilimdonligini e’tirof etuvchi maqollar ham uchraydi. To‘rtinchidan, ayolning aqliy salohiyati ayrim o‘zbek maqollarida uning eriga va oilasiga ko‘rsatadigan ta’siri bilan bog‘lanadi. Bunday holat ayolning donoligini tan olish bilan birga, uning ijtimoiy ahamiyatini oilaviy vazifalar doirasida baholash tendensiyasini ham namoyon etadi. Ingliz tilidagi ayrim maqollarda esa ayollarning aqliy qobiliyatlari bevosita erkaklar bilan taqqoslanadi va ularning intellektual imkoniyatlari shubha ostiga olinadi.

Tahlilning muhim natijalaridan biri shuki, maqollarda ifodalangan gender stereotiplari biryoqlama xususiyatga ega emas. Erkaklar ko‘pincha aql va zehn bilan bog‘lansa-da, ularning amaliy faoliyati va o‘ziga ishonchi tanqid qilinishi mumkin. Ayollar esa donolik va sezgirlik bilan bir qatorda, aqliy qobiliyatning cheklanganligi yoki fikrlarining beqarorligi haqidagi stereotiplar orqali ham tasvirlanadi.

Xulosa. O‘zbek xalq maqollarida erkakning zehnliligi uning hayotda to‘g‘ri yo‘l tutishi bilan bog‘lansa, ayolning aqli ko‘pincha go‘zallik, farosat va oilaviy munosabatlar bilan qiyoslanadi. Ayolning donoligi ijobiy baholansa-da, uning ahamiyati ayrim hollarda erining muvaffaqiyati va obro‘siga ko‘rsatadigan ta’siri orqali izohlanadi. Bu holat an’anaviy oilaviy qadriyatlar va gender rollarining maqollardagi ifodasini namoyon etadi. Ingliz tilidagi keltirilgan maqollarda erkaklarning aqliy qobiliyatlari ham ijobiy, ham tanqidiy baholanadi. Ayrim birliklarda dono gapirish bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi nomuvofiqlik tanqid qilinsa, boshqalarida erkaklarning o‘z bilimiga ortiqcha ishonishi shubha ostiga olinadi. Ayollar haqidagi maqollarda esa ularning aqliy salohiyatini kamsituvchi qarashlar bilan bir qatorda, ichki sezgisi va bilimdonligini e’tirof etuvchi fikrlar ham

mavjud. Chog‘ishtirma tahlil natijalari har ikki xalq maqollarida gender stereotiplari murakkab, ko‘p qirrali va ayrim hollarda ziddiyatli xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Erkaklar ko‘pincha aql va oqilona faoliyat bilan bog‘lansa-da, ularning xatti-harakatlari tanqid qilinishi mumkin; ayollar esa donolik va sezgirlik bilan birga, salbiy stereotiplar orqali ham tasvirlanadi. Demak, maqollarda gender stereotiplari faqat muayyan jins vakillarini ulug‘lash yoki kamsitish orqali emas, balki turli fazilatlarni qarama-qarshi qo‘yish va ularni ijtimoiy me’yorlar bilan bog‘lash orqali ham namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 257 b.
2. Speake J., Simpson J. The Oxford Dictionary of Proverbs. 5th ed. – New York: Oxford University Press, 2008. – 625 p.
3. Oxford Concise Dictionary of Proverbs. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 364 p.
4. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004. – 304 p.
5. Lakoff R. Language and Woman’s Place. – New York: Harper & Row, 1975. – 85 p.
6. Abdullayeva N. E. Dictionary of English and Uzbek National Proverbs Containing Graduonyms / Graduonim komponentli ingliz va o‘zbek xalq maqollari lug‘ati. – Toshkent: Nurafshon Business, 2019. – 448 b.

UO‘K 811.512.133’276.6:34

O‘ZBEK TILIDAGI RASMIY HUJJATLAR VA DAVLATLARARO HUJJATLARDA TERMINLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

Aynaxo‘jayeva G. A., mustaqil tadqiqotchi, Qo‘qon davlat universiteti, Qo‘qon; katta o‘qituvchi, Abay nomidagi Xalqlar do‘stligi universiteti

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilidagi rasmiy va davlatlararo hujjatlarda terminlarning qo‘llanishi, aniqligi, bir ma’noliligi va neytralligi tahlil qilinadi. Terminlarning leksik-semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, tarjimadagi noaniqliklar hamda o‘zbekcha muqobillarni tanlash muammolari yoritiladi. Terminologiyani me’yorlashtirish va hujjatlar tilini standartlashtirish bo‘yicha takliflar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *rasmiy hujjat, davlatlararo hujjat, termin, rasmiy-idoraviy uslub, tarjima, terminologik aniqlik, me’yorlashtirish.*

Аннотация. *В статье рассматривается употребление терминов в официальных и межгосударственных документах на узбекском языке. Анализируются требования точности, однозначности и нейтральности терминологии, её структурные особенности, проблемы перевода и выбора узбекских эквивалентов. Предлагаются рекомендации по нормированию терминологии и стандартизации языка документов.*

Ключевые слова: *официальный документ, межгосударственный документ, термин, официально-деловой стиль, перевод, терминологическая точность, нормирование.*

Abstract. *The article examines terminology in Uzbek official and interstate documents, focusing on accuracy, unambiguity, neutrality, structural features, translation challenges and Uzbek equivalents. It proposes recommendations for terminology standardization and consistent document language.*

Keywords: *official document, interstate document, term, official-administrative style, translation, terminological accuracy, standardization.*

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash rasmiy hujjatlar tilini takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq. Qonun, farmon, shartnoma va boshqa hujjatlarning huquqiy aniqligi terminlarning to‘g‘ri qo‘llanishiga bog‘liq. Ayniqsa, davlatlararo hujjatlarda terminlarning turli tillarda bir xil mazmunni ifodalashi muhimdir.

“Davlat tili haqida”gi qonunga muvofiq, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi, zaruratga ko‘ra boshqa tillarga tarjima qilinadi. Yangi ilmiy asoslangan atamalar esa jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis palatalari tegishli qo‘mitalarining roziligi bilan joriy etilishi belgilangan [Fattaxova, 2023, 623]. Terminlarning aniqligi va bir ma’noliligi asosiy talablardan hisoblanadi, biroq hujjatlarda terminologik nomuvofiqliklar uchrab turadi. Masalan,

agroximiya -agrokimyo, **infrastruktura – infratuzilma** shakllarining qo‘llanishi terminlarni me’yorlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [Jo‘rayev, 2024, 290–291].

Tarixan o‘zbek tilidagi rasmiy hujjatlar rus tilidagi andozalar ta’sirida shakllangan [Fattaxova, 2023, 624]. Hozirda ham tarjimada terminologik nomuvofiqliklar, jumladan, o‘zbek va ingliz tillaridagi sud matnlarida protsessual terminlarni qo‘llash bilan bog‘liq muammolar kuzatiladi [Saidov, 2025, 2541]. Shu sababli terminlarni tanlashda milliy til imkoniyatlari va xalqaro mazmuniy muvofiqlik hisobga olinishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi -o‘zbek tilidagi rasmiy va davlatlararo hujjatlarda terminlarning qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash, ularning leksik-semantik va tarjimaviy jihatlarini o‘rganish hamda terminologiyani me’yorlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

O‘zbek tilidagi rasmiy hujjatlarda terminlarning qo‘llanishi rasmiy-idoraviy uslub talablariga asoslanadi. Terminlar aniq, ixcham va bir ma’noli bo‘lishi lozim [Fattaxova, 2023, 623]. Hujjatlarning o‘zbek tili me’yorlariga moslashtirilishi terminlarni to‘g‘ri tanlash ahamiyatini oshirmoqda [Fattaxova, 2023, 624]. Ayrim terminlar dastlab rasmiy hujjatlarda qo‘llanadi. Masalan, **monomarkaz** termini 2018-yildagi Prezident qarorida ilk bor ishlatilgan [Jo‘rayev, 2024, 291].

Rasmiy hujjatlarda xorijiy terminelementlar ishtirokida yasalgan 30 dan ortiq qo‘shma termin aniqlangan [Jo‘rayev, 2024, 290]. Ular **geoportal** kabi aslicha o‘zlashtirilishi yoki **teleko‘rsatuv**, **elektruskuna** kabi qisman tarjima qilinishi mumkin [Jo‘rayev, 2024, 290]. Terminlarning davrlar bo‘yicha o‘zgarishi ham kuzatiladi: **infrastruktura** shakli o‘rnida keyingi hujjatlarda **infratuzilma** qo‘llangan [Jo‘rayev, 2024, 290]. Bu holatlar terminologik me’yorning barqarorligini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.

Terminologik noaniqliklarning muhim sabablaridan biri tarjimadir. Rus tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan yuridik terminlar o‘zbek tiliga ham kirib keladi [Abdurashitova, 2025, 266]. Tadqiqotda qonunchilik hujjatlarining 11 foizdan ortig‘ida, ya’ni 1067 ta hujjatda o‘zbekcha matn mavjud emasligi qayd etilgan [Abdurashitova, 2025, 267]. **Prokuror -qoralovchi** va **advokat -himoyalovchi** kabi muqobillar esa faol yuridik lug‘atda mustahkam o‘rin egallamagan [Abdurashitova, 2025, 268]. Shuningdek, **neustoyka** terminining lug‘aviy va qonuniy izohlari o‘rtasidagi farq hamda rus tilidagi **контроль** va **надзор** tushunchalarining bir xil **nazorat** so‘zi bilan berilishi ma’no noaniqligini yuzaga keltiradi [Abdurashitova, 2025, 268].

Davlatlararo hujjatlarda terminlar axborot uzatish bilan birga siyosiy pozitsiyani ifodalash va muzokaralarni tartibga solish vazifasini bajaradi [Sabirov, 2025, 338]. Diplomatik matnlarda **bildiraman** o‘rniga **izhor etaman** kabi kitobiy ifodalar qo‘llanadi [Sabirov, 2025, 340]. **Suverenitet** va **sanksiya** kabi siyosiy terminlar esa tomonlarning huquq va majburiyatlarini ifodalashda muhimdir [Sabirov, 2025, 341]. Tarjimada iboraning asl ma’nosini saqlash ham zarur: nemischa **mit großer Besorgnis** iborasi so‘zma-so‘z “katta tashvish bilan” deb tarjima qilinsa-da, diplomatik kontekstda kuchli norozilikni anglatishi mumkin [Sabirov, 2025, 341].



1-rasm. O‘zbekiston rasmiy hujjatlarida ayrim terminlarning qo‘llanish ulushi (1990–1991-yillar va so‘nggi yillar kesimida)

Demak, rasmiy va davlatlararo hujjatlarda terminologik aniqlik terminlarning bir ma’noliligi, xorijiy birliklarning me’yoriy o‘zlashtirilishi va tarjimadagi mazmuniy muvofiqlikka bog‘liq. Asosiy

muammolar bir tushunchaning turli shakllarda berilishi, noo‘rin muqobillar tanlanishi va iboralarning so‘zma-so‘z tarjima qilinishidir. Shu sababli terminlarni standartlashtirish, o‘zbekcha muqobillarni ikki tilli yuridik lug‘atlarda mustahkamlash va hujjat loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish zarur [Saidov, 2025, 2541].

Xulosa

Tadqiqot natijalari o‘zbek tilidagi rasmiy va davlatlararo hujjatlarda terminlarning aniqligi, bir ma’noliligi va izchil qo‘llanishi muhimligini ko‘rsatdi. Xorijiy terminlarning turlicha o‘zlashtirilishi, o‘zbekcha muqobillarning noto‘g‘ri tanlanishi va tarjimadagi ma’noviy nomuvofiqliklar hujjatlarning huquqiy aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Davlatlararo hujjatlarda esa termin va iboralarning mazmunini to‘g‘ri yetkazish alohida ahamiyatga ega.

Terminologik muammolarni bartaraf etish uchun terminlarning yagona shaklini belgilash, o‘zbekcha muqobillarni ilmiy asosda tanlash, tarjimalarni lingvistik ekspertizadan o‘tkazish va ikki tilli sohaviy lug‘atlarni yaratish zarur. Ushbu choralar hujjatlar tilining izchilligini hamda huquqiy aniqligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Keyingi tadqiqotlarda xalqaro shartnomalar terminlarining semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini chuqur o‘rganish hamda o‘zbekcha muqobillarni me’yorlashtirishga e’tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurashitova N. On the Usage and Translation of Borrowed Legal Terms in Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika (Foreign Linguistics and Linguodidactics). – 2025. – Special Issue 3. – B. 265–269 (5 bet). – DOI: 10.47689/2181-3701-vol3-iss3/S-pp265-269. – ISSN 2181-3701.

2. Fattaxova D.A. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – 3(1). – B. 620–625 (6 bet). – ISSN 2181-1784.

3. Jo‘rayev Sh. O‘zbekcha rasmiy hujjatlar matnida gibrid qo‘shma so‘zlardagi lotincha va yunoncha terminelementlar // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari (ACTA NUUz). Filologiya. – 2024. – [1/9/1]. – B. 289–291 (3 bet). – ISSN 2181-7324.

4. Sabirov A. On Diplomatic Policy Documents (Diplomatik siyosat yuritish hujjatlari haqida) // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika (Foreign Linguistics and Linguodidactics). – 2025. – Issue 3, No 10. – B. 337–342 (6 bet). – DOI: 10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp337-342. – ISSN 2181-3701.

5. Saidov S.S. Semantic Precision of Procedural Legal Terms in Uzbek and English Judicial Texts // – 2025. – Vol. 5, Issue 6. – pp. 2541–2544 (4 bet). – ISSN 2582-4686.

UO’K 398.3(575.1)

XORAZM MAROSIM FOLKLORINING LOKAL XUSUSIYATLARI

Aynur Aydin qizi, filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim, Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Folklor instituti, Boku

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm marosim folklori va to‘y marosimlariga oid poetik ramzlar tahlil qilinadi. Farzand bilan bog‘liq qo‘shiqlardagi ramzlar, farzand va befarzandlik tushunchalarining ifodalanishi alohida o‘rganiladi. Jumladan, «olma» va «nor» ramzlarining turli ma’nolari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Beshik to‘yi, soch to‘yi, yosh to‘yi, qadimgi marosimlarning qoldiqlari, “oshiq”, “pachiz”, “oltin qoboq” kabi o‘yinlar.*

Аннотация. *В статье анализируются обрядовый фольклор Хорезма и поэтические символы свадебных обрядов. Отдельно рассматриваются символы в песнях о детях, выражение понятий деторождения и бездетности. В частности, раскрываются различные значения символов «яблоко» и «гранат».*

Ключевые слова: *обряд укладывания в колыбель, обряд первой стрижки, празднование возрастных рубежей, пережитки древних обрядов, игры «ошик», «пачиз», «олтин қобоқ».*

Abstract. *This article analyzes the ritual folklore of Khorezm and poetic symbols associated with wedding ceremonies. Particular attention is paid to symbols in songs about children and to representations of childbearing and childlessness. The multiple meanings of the apple and pomegranate symbols are examined.*

Keywords: *cradle ceremony, first-haircut ceremony, age-related celebrations, survivals of ancient rituals, oshiq, pachiz, oltin qoboq games.*

Ma’lumki, inson oila qurib, juftlik bo‘lib yashar ekan, hamisha o‘z izida zurriyot qoldirish uchun kurashadi. Befarzandlik qadimda bexosiyatlik ramzi sifatida qoralangan. Buni ayrim dostonlardagi motivlar ham tasdiqlaydi. “Ediga” dostonida Tulumxo‘jani befarzandligi uchun saroydan haydab, Qo‘ng‘irot elidan badarg‘a qilishadi. Dostondagi ushbu she’rlar buni tasdiqlaydi:

Yurtg‘a yetar befarzandning shumlig‘i,
Kasofatdur asli o‘zi bo‘ldig‘i,
Maqbul emas yaxshi-yomon qilig‘i,
Bu dargohda anga davron bo‘lmasin[1,171].

Xalq qo‘shiqlarida farzand timsoli sifatida turli-tuman narsa-predmetlar, nabotot va hayvonot olamiga mansub obrazlarga murojaat etiladi. Dastavval farzand ramzi sifatida beshik tilga olinadi:

Mo‘ralasak mo‘ringizdan tutun chiqar,
Bizga degan qatlamangiz butun chiqar.
Butun chiqsa, shu xonadon xayrli eshik,
Shu eshikka buyursin tilla beshik[2,36].

Shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, folklor asarlarida beshik tushunchasi tilga olinganda unga nisbatan “tilla”, “oltin” kabi epitetlar qo‘shiladi: Bu uyda himmat tog‘i darpanadi, To‘rida oltin beshik darpanadi, Yo Muhammadummatina, yo ramazon [2,44]. Ushbu epitetlar aslida beshikka emas, balki uning ichidagi farzandga qarata aytiladi. Chunki farzand oltindan ham qimmatli bo‘lgan zotdir. Albatta, beshik tasvirlangan lavhalarda bolaga alla aytish odati ham o‘z ifodasini topadi. Ayrim qo‘shiqlarda zurriyot, farzand ramzi sifatida qushlar obraziga, xususan, bulbul timsoliga murojaat etiladi:

Tomga sepdim sedana, Terib yesin bedana,
Uyingiz–bulbulxona, Har yili bo‘lsin to‘yxona[2,115].

“Bulbulxona” so‘zi orqali ifodalangan ob’ektning ramziy talqinida asosiy urg‘u farzandning yig‘isi, kulgusi, shovqin-suroni kabi turli qiliq va xosiyatlariga qaratiladi. “Bolalik uy bozor” maqoli ham o‘sha xususiyatlarga ancha mos keladi. Farzandga avlodni davom ettiruvchi zot sifatida qaralganligi sababli uning bilan bog‘liq ramzlar oilaga aloqador ramzlar bilan yonma-yon keladi. Masalan, “chiroq” ramzi qo‘shiqlarda farzand va oila timsollariga uyqash keladi:

Qora go‘zzim qorasi,
Qorong‘i uyim chirosi,
Xafa ko‘nglim binosi,
Alla, bolam, allayo[3,67]

Xonadonda chiroq yonishi hayotning davomiyligi, oilaning barhayotligini anglatadi, uning negizida esa farzand tushunchasi yotadi. Qo‘shiqlarda o‘g’il va qiz farzandlar bilan aloqador ramzlar mavjud. Ularda umumiylik bilan birga alohidalik ham ko‘zga tashlanib turadi. Ma’lumki, yoshlikdan boshlab har bir jins uchun mavjud o‘yin turlari borki, ularning asosida ramziylik bo‘rtib turadi. Bu holat xalq turmushini kengroq doirada tasvirlaydigan doston janrida ayniqsa yaxshi yoritilgan. Xorazm “Go‘ro‘g’li” turkumining birinchi dostonida Go‘ro‘g’lining go‘rda tug‘ilishi epizodi beriladi. Onasining mozori yonida o‘ynab yurgan bolaning jinsini aniqlash uchun go‘rning og‘ziga oshiq va qo‘g’irchoq tashlab qo‘yishadi. Bola oshiqni olib o‘ynaydi. Uning o‘sha qilig‘i orqali o‘g’il ekanligi aniqlanadi[4,20]. Demak, har bir jinsning mashg‘uloti bilan aloqador ramziy o‘yinchoqlari ham xalq ijodida, jumladan qo‘shiqlarda o‘z ifodasini topadi:

Oltin oshiq o‘ynagan,
O‘g’ling bo‘lg‘ay yor-yor.
Kumush qoshiq o‘ynagan,
Qizing bo‘lg‘ay yor-yor[5,81].

Oshiq o‘ynash o‘g’il bolalarga xos mashg‘ulot bo‘lib, ilgari faol o‘yinlar qatoriga kirgan. Bu o‘yin negizida avvalo bolalarni ovchilikka, qolaversa, harbiy mashg‘ulotga tayyorlash maqsadlari yotadi. Chunki, o‘yinchi ikki-uch metrdan turib raqib oshig‘ini urib yiqishi yoki oshiqni otganda uning lozim bo‘lgan (ya’ni yutuq ta’minlanadigan) holatda turishini ta’minlashi shart bo‘lib, u oshiq egasidan nihoyatda kuchli aniqlikni, merganlikni, epchillikni va puxtalikni talab qiladi. Demak, oshiq

o‘yini shunchaki vaqtni ko‘ngilli o‘tkazish mashg‘uloti emas, balki hayotiy ehtiyoj asosida yuzaga kelgan mashg‘ulotdir. Qadimda bu o‘yin bolalarni bir yosh-tabaqa mansubiyatidan boshqasiga (masalan, bolalikdan o‘smirlikka, o‘smirlikdan yigitlikka) o‘tkazishdan avval qilingan sinov-initsiatsiya marosimlari chog‘ida o‘ynalgan ramziy-ritual o‘yinlar sirasiga kirgan bo‘lishi kerak. Xorazm vohasida shu tipdagi qadimgi marosimlarning qoldiqlari “oshiq”, “pachiz”, “oltin qoboq” kabi o‘yinlar tarzida o‘tgan asrning 60-yillariga qadar saqlanib qolganligi etnograf G.P. Snesaryov tomonidan aniqlanganligi [6,155-205] ham shu fikr to‘g’riligini tasdiqlaydi. Shu sababdan ham Xorazm vohasi xalq qo‘shiqlarida “oshiq”detali o‘g’il bolani aniqlovchi ramziy ifodaga aylangan. Endi yuqoridagi qo‘shiq tarkibidagi “qoshiq” atamasiga kelsak, tovoq va qoshiq uy anjomi sifatida o‘z ma’nosiga ega bo‘lib, badiiy matnda u oila ramzi bo‘lib hisoblanadi. Qiz bolaning qoshiq o‘ynashi uning oilaviy muhitdagi mashg‘ulotga tayyorlanishini bildirib, kelajakdagi taqdiriga ishora sifatida tanlangan ramziy ifodadir. Farzand tug‘ilgandan keyin uning soch to‘yi va yosh to‘yi o‘tkaziladi. O‘sishi davomida erkalash va suyish qo‘shiqlari aytiladi. O‘sha qo‘shiqlarda ham o‘g’il va qizlarni farqlovchi ramziy obraz va ifodalardan foydalanish an’anasi mavjudligi ko‘zga tashlanadi. O‘g’il bolalarni suyib erkalaganda quyidagi qo‘shiq ijro etiladi: Yoshina yosh qo‘shilsin,

Oshina osh qo‘shilsin.
Ulli yigit bo‘lganda
Boshina bosh qo‘shilsin[7,11].

Mazkur qo‘shiqdagi “osh” rizq-ro‘z va boylik ramzi bo‘lsa, “boshina bosh qo‘shilishi”, ta’kidlanganidek, uylanish va oilali bo‘lish istagini anglatadi. O‘g’il bolalarga aytiladigan allalarda, suyish qo‘shiqlarida ularning oila tayanchi va kuch-qudrat timsoli ekanligiga ishora qiladigan ramziy ifodalar tanlanadi:

Beglar begin sarvari,
Otangni bel kamari.
Kamarni tig‘, javhari,
Ko‘zim nuri gavhari,
Ollo bolam-ey, ollo[8,7].

Qo‘shiqdagi “belning kamari” iborasi bolaning kuch-qudratiga ramziy ishoradir. Qizlarga nisbatan aytiladigan alla va suyush qo‘shiqlaridagi ramziy ishoralarda uning jinsiga mos mashg‘ulotlarga nisbat beriladi:

Bolam, bolam bor bo‘lar,
Olma bo‘lar, nor bo‘lar.
Bir kuni kelib Oyxona,
Ko‘p yigitlar zor bo‘lar.
O‘yna, o‘yna, o‘yna oy.

Qo‘shiqning umumiy mazmunida qiz bolaning turmushga chiqishiga ko‘proq e’tibor qaratilishidan tashqari “olma”, “anor” ramzlarining qo‘llanilishida yana boshqa ma’nolar ham yashiringan. “Olma” va “nor” qiz, ayol ramzi bo‘lib, ularning negizida hosildorlik inonchlari, oila va farzand tushunchalari yotadi. Xullas, farzand bilan aloqador qo‘shiqlarda ishlatiladigan ramzlar avvalo farzand tushunchasi bilan bog‘lanadi, qolaversa har bir farzandning jinsiga qarab ularga mos holda tanlanadi. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek folklorshunosligida marosim folklori yo‘nalishning rivojlanib borayotgan bir paytida ko‘pgina urf-odat, marosimlar, ular tarkibidagi verbal komponentlar unutilib, etnofolkloriy jarayonni so‘nib borishini oldini olish va unutilish arafasiga kelib qolgan jarayonlarni ilmiy tadqiq qilish bizning kelgusi ishlarimiz mazmunini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Oshiqnoma (Xorazm dostonlari). II kitob. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006.
2. Ulug‘ oy umidlari: “yo ramazon” qo‘shiqlari (to‘plab, nashrga tayyorlovchilar va so‘zboshi mualliflari M. Jo‘rayev va, Sh. Shomusarov). – Toshkent: Movarounnahr, 2001.
3. Xorazm og‘zaki ijod durdonalari (nashrga tayyorlovchilar Y. Zohidov, P. Bobojonov). – Urganch: “Xorazm”nashriyoti, 1993.
4. “Go‘ro‘g’li”: Xorazm dostonlari (nashrga tayyorlovchi S. Ro‘zimboyev). – Urganch, Xorazm nashriyoti, 2004.
5. Xorazm og‘zaki ijod durdonalari (nashrga tayyorlovchilar Y. Zohidov, P. Bobojonov). – Urganch: Xorazm nashriyoti, 1993. – 81-bet.

6. Снесарев Г. П. Традиция мужских союзов в её позднейшем варианте у народов Средней Азии // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1958—1961 гг. (памятники средневекового времени этнографические работы). – М., 1963.

7. Beg‘ubor qalb sadosi (bolalar folklori). Nashrga tayyorlovchi H. Ro‘zmetov. – Urganch: Universitet, 2003. Xorazm, 1996.

UO‘K 811.512.133’282:81’367

XORAZM O‘G‘UZ SHEVALARIDA SINTAKTIK SINONIMIYA HODISASINING NAMOYON BO‘LISHI

A.O.Bekturdiyeva, tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada dialektal sintaktik sinonimiya tushunchasiga alohida e’tibor qaratildi. Dialektal sintaksis doirasida qilinayotgan ishlardagi sintaktik tahlillar o‘rganildi, ulardagi sintaktik sinonimiyaga bildirilgan fikrlar va misollarga munosabat ko‘rsatildi. Xorazm o‘g‘uz shevalari (asosan, Xiva va Urganchda istiqomat qiluvchi o‘g‘uz lahjasi vakillari)dan yozib olingan dialektal matnlardagi sintaktik shakl va mazmun mutanosibligini o‘rganish, sintaktik sinonimiya hodisasi mohiyatini chuqurroq ochib berish, sintaktik sinonimlikka yondosh hodisalarni aniqlash va ularning o‘xshash hamda farqli tomonlarini yoritish, shuningdek sintaktik birliklarning o‘zaro va boshqa sintaktik strukturalarga nisbatan sinonimligini aniqlash diqqat markaziga olindi.*

Kalit so‘zlar: *dialektal nutq, dialog, sinonimlik, leksik sinonimiya, sintaktik sinonimiya, variantlilik, parallel sintaktik qurilma, alohida sintaktik qolip, so‘z birikmasi, so‘z qo‘shilmasi, sodda gap, qo‘shma gap.*

Аннотация. *В статье рассматривается диалектальная синтаксическая синонимия. Проанализированы исследования диалектального синтаксиса и обсуждены представленные в них трактовки и примеры синтаксической синонимии. На материале текстов, записанных у носителей хорезмских огузских говоров, преимущественно в Хиве и Ургенче, исследуются соотношение синтаксической формы и содержания, сущность синтаксической синонимии и смежные явления, их сходства и различия. Рассматриваются также синонимические отношения между синтаксическими единицами и другими синтаксическими структурами.*

Ключевые слова: *диалектная речь, диалог, синонимия, лексическая синонимия, синтаксическая синонимия, вариантность, параллельная синтаксическая конструкция, отдельная синтаксическая модель, словосочетание, сочетание слов, простое предложение, сложное предложение.*

Abstract. *This article examines dialectal syntactic synonymy. It reviews syntactic analyses in studies of dialectal syntax and discusses their interpretations and examples of syntactic synonymy. Using dialect texts recorded from speakers of the Khorezm Oghuz dialects, mainly in Khiva and Urgench, the study explores the relationship between syntactic form and meaning, the nature of syntactic synonymy, and related phenomena, highlighting their similarities and differences. It also considers synonymous relationships between syntactic units and other syntactic structures.*

Key words: *dialectal speech, dialogue, synonymy, lexical synonymy, syntactic synonymy, variation, parallel syntactic construction, distinct syntactic pattern, phrase, word combination, simple sentence, complex sentence.*

Kirish. Tilshunoslikda sinonimiya hodisasiga yetarlicha ta’rif va tavsiflar berilgan. Mazkur hodisa dastlab leksik sathda o‘rganilgan bo‘lsa-da, keyinchalik morfologik va sintaktik sinonimlar ham tilshunoslar tomonidan chuqur o‘rganildi. Tilning barcha sathlaridagi sinonimlarni bir umumiy ma’no-mazmunga ega bo‘lgan, lekin emotsional-ekspressiv hamda funksional jihatdan farqlanuvchi til birliklari deyishimiz mumkin. Bilamizki, gap tarkibida turli formalarda ishlatilib bir-biriga yaqin ma’no anglatuvchi va gapda bir xil vazifani bajaruvchi parallel sintaktik qurilmalar sintaktik sinonimiyani tashkil etadi. Sintaktik sinonimlar adabiy tilda bo‘lgani singari ma’lum bir sheva doirasida ham, butun bir dialekt doirasida ham kuzatilishi mumkin va bu ko‘p hollarda adabiy tilga mos kelmaydi. Adabiy tilning o‘z sintaktik sinonimiyasi, shevalarning o‘ziga xos dialektal sintaktik

sinonimiyasi mavjud. Umuman dialektal matnlarni sintaktik tahlil qilar ekanmiz, ulardagi sintaktik birliklarda shakliy va mazmuniy munosabat turlari mavjudligini kuzatishimiz mumkin.

Tilshunoslikda "sintaktik sinonimiya" termini ilk bor A.M.Peshkovskiy maqolasida tilga olingan bo'lib, undan so'ng rus tilshunosligida bu yo'nalishda ko'plab ishlar yaratildi [1]. Turkologiyada M.S.Ibrohimov sintaktik sinonimlarni sintaktik parallel va variantlardan farqlash lozimligini aytib, unga "komponentlar orasidagi ma'no munosabati hamda grammatik vazifalari bilan bir-biriga yaqin, lekin sintaktik tuzilishlari va bog'lanish usullari bilan farqlanadigan butunliklar (so'z birikmalari, gaplar)", deb ta'rif berdi [2].

Sintaktik sinonimiyani chegaralash, uning mezonlarini belgilash, yuzaga kelish yo'llarini aniqlash o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 80-90-yillarida amalga oshirildi. O'zbek adabiy tili sintaksisida mazkur hodisa baholi qudrat o'rganilgan bo'lsa-da, dialektal matnlardagi sintaktik sinonimiya ayrim ilmiy ishlarda tor doiradagina tahlil qilinganini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotimiz obyekti sifatida olingan Xorazm o'g'uz shevalariga xos sintaktik xususiyatlar Xorazm shevalari tadqiqotchilarining darg'alari bo'lgan F.Abdullayev [3] va Y.Jumanazarovlarning ishlarida qisman o'rganildi, tahlil qilindi [8].

Sintaksis doirasida o'zbek adabiy tilida qilingan ilmiy ishlarga tayangan holda, sintaktik birliklarning soni va ularning belgilanishi haqidagi fikrlarni inobatga olib yuqori sath birliklarini besh turga ajratishimiz mumkin: so'z qo'shilmasi, so'z birikmasi, gap (sodda gap), qo'shma gap va matn (mikro va makro).

Ma'lumki, sintaktik sinonimlar nutq birligi hisoblanadi, ularni bir xil yoki turli xil konstruksiyalar doirasida kuzatish imkoni mavjud.

Adabiy tildagi kabi dialektal sinonimlarni tashkil etuvchi komponentlar ham ikki va undan ortiq bo'lishi mumkin. Dialektal sintaktik sinonimlar ham o'zaro o'rin almasha olishi va birining o'rnida ikkinchisi bemalol qo'llanishi mumkin. Dialektal sintaktik tadqiqotlar asosida Xorazm o'g'uz shevalaridagi sintaktik sinonimlarni shartli ravishda uch turga bo'lish maqsadga muvofiq:

1. Dialektal so'z birikmalari sinonimiyasi;
2. Dialektal gap bo'laklari sinonimiyasi;
3. Dialektal gaplar sinonimiyasi.

Xorazm o'g'uz shevalari (*asosan, Xiva, Urganch, Yangiariq va Qo'shko'pir tumanlari shevalaridan yozib olingan matnlarga tayanildi*)da so'z birikmalari bilan bog'liq bir qator sinonimlarni uchratamiz. O'zbek adabiy tilidagi ayrim so'z birikmalari shevada o'zining bir qator sinonimik formalariga ega. Masalan, *"maktabni tugatmoq"* birikmasi Xiva-Urganch shevalarida *"mäktäpni bitiriš", "mäktäpni tamamlaš", "mäktäpni qutariš"* kabi shakllarda ishlatilib, so'z birikmalari doirasida sintaktik sinonimiyani yuzaga keltiradi. Bularning ichida *"qutarmoq"* so'zi asli turkmancha so'z bo'lib, bilamizki, odatda sinonimik qatorlar boshqa tildan so'z olinishi natijasida yuzaga keladi. Biroq bugungi kun sheva vakillari nutqida *"maktabni qutarish"* yoki *"o'qishni qutarish"* shaklidagi birliklar biroz salbiy, kinoya-kesatiq ma'nosida qo'llaniladi:

Remäjannï oγlï dïm lodïr ädi, axï: ri mäktäpniäm qutardï.

"lodïr"- dangasa, qo'lidan biron ish kelmaydigan odamga nisbatan ishlatiluvchi sifatlash bo'lib, jumladan anglashiladiki, ishora qilinayotgan shaxs maktabni bir amallab tugatdi, yoki haydaldi. Shu o'rinda yana bir narsani aytishimiz mumkinki, dialektlarda sintaktik sinonimiya bilan bir qatorda sintaktik omonimiya, parallellik, zidlik munosabatlari ham ko'zga tashlanadi. *"qutarmoq"* so'zi suyuq ovqat yoki ichimlikni ichib tugatish ma'nosida ham qo'llanilib, yuqoridagi "maktabni qutarmoq" so'z birikmasidagi *"qutarmoq"* so'zi bilan omonimik munosabatga kirishadi:

Ukäm sütni bir däjändä qutardï.

Mazkur gapda *"sutni bir xo'plashda ichib tugatib qo'yish"* ma'nosi anglashiladi.

Dialektal nutqda qo'llaniluvchi shunday birliklar borki, ularning ma'no-mazmuni faqatgina shu sheva vakillarigagina tushunarli bo'ladi. Ularni struktura va semantikasini tahlil qilar ekanmiz, alohida qoliplarga, nozik ma'no qirralariga duch kelamiz. Adabiy tilda bir so'z bilan ifodalanuvchi ayrim so'zlarning dialektlarda birikma holida ifodalanishi ana shunday o'ziga xosliklardan biridir. Masalan, o'zbek adabiy tilidagi "chaqaloq" so'zi Xiva-Urganch shevasi vakillari nutqida *"qundaq bala", "beši: k bala", "bäväk bala", "ämjäk bala"* kabi (asosan qaratqich+qaralmish munosabatida

bo‘lgan, bugunga kelib bitishuvli birikmaga aylangan) so‘z birikmalari bilan ifodalanishini ko‘ramiz va bu so‘z birikmalari birining o‘rnida ikkinchisi bemalol qo‘llana olgani holda sintaktik sinonimiyani yuzaga keltiradi deb bemalol ayta olamiz.

Xulosa. Xulosa qilib ayta olamizki, dialektal sintaksis murakkab soha. Uni o‘rganish izlanuvchidan juda ehtiyotkorlik talab qiladi. Dialektal matnlardagi sintaktik konstruksiyalar o‘ziga xos tarkib va tuzilishga ega bo‘lib, hatto ularning ba’zilarini adabiy tildagi biron qolipga moslashtira olmaymiz. Tilshunosligimizda so‘zlarning shakl va ma’no munosabatlari keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan hisoblansa-da, sintaksisdagi shakliy va mazmuniy munosabat, aynan sinonimiya keyingi davr mahsulidir. Dialektal matnlarimizda kuzatiladigan sintaktik sinonimiya esa chuqur o‘rganilishi va tahlili qilinishi kutilayotgan jarayondir. Sintaktik sinonimiyani dialektal nutqning jonli va boy ekanligini ko‘rsatib beruvchi yana bir xususiyat deyishimiz mumkin. Shevalarimiz g‘oyatda rang-barang, ularni sintaktik tahlil qilar ekanmiz, og‘zaki nutqqagina xos sintaktik qoliplarni nutqning emotsional-ekspressivligini oshiruvchi bosh omil desak yanglishmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Пешковский А.М. Принципы и приёмы стилистического анализа и оценки художественной прозы // Вопросы методики родного языка, лингвистики и стилистики. – Ленинград, 1930. – С.131.
2. Ибрагимов С.М. Татар теленде синтактик синонимлар. – Казань, 1976
3. Ф. Абдуллаев Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Тошкент.: Фан, 1978.
4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
5. Алимарданов Э. Хоразм шеваларига оид бир тарихий манба // Ўзбек тили ва адабиёти.–Тошкент, № 4.
6. О.Мадрахимов. Ўзбек тили ўғиз лахжасининг Хива шеваси.-Тошкент:1981.19-2.
7. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent, 1965.
8. Ю.Жуманазаров. Ўзбек тили жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик курилиши. – Тошкент,1969.
9. Туропова М. Ўзбек шевалари синтаксиси. – Тошкент,1984.
10. О.Мадраҳимов. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. Фан. –Тошкент,1973.11-26-бет

UO’K 81’255.4:81’373.7

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ORNITONIMLI TURG‘UN BIRLIKLARNI TARJIMA QILISHDA SEMANTIK-PRAGMATIK EKVIVALENTLIK

Bo‘ranova M. X., o‘qituvchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi ornitonimlar qatnashgan turg‘un birliklarni tarjima qilishda semantik va pragmatik ekvivalentlik masalasi o‘rganiladi. Qush nomlari ishtirokidagi maqol va iboralar qiyosiy tahlil qilinib, obrazning saqlanishi, ma’no siljishi hamda milliy-madaniy xususiyatlarni tarjimada qayta ifodalash usullari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *ornitonim, turg‘un birlik, frazeologizm, maqol, metafora, tarjima, semantik ekvivalentlik, pragmatik ekvivalentlik.*

Аннотация. *В статье рассматривается семантико-прагматическая эквивалентность при переводе устойчивых выражений с орнитонимами в узбекском и английском языках. На материале пословиц и идиом анализируются сохранение образа, семантические сдвиги и способы передачи национально-культурной специфики.*

Ключевые слова: *орнитоним, устойчивое выражение, фразеологизм, пословица, метафора, перевод, семантическая эквивалентность, прагматическая эквивалентность.*

Abstract. *This article examines semantic and pragmatic equivalence in translating fixed expressions containing ornithonyms in Uzbek and English. Proverbs and idioms are compared to identify how bird imagery, figurative meaning, evaluative force and culture-specific connotations are retained, altered or explicated in translation.*

Keywords: *ornithonym, fixed expression, idiom, proverb, metaphor, translation, semantic equivalence, pragmatic equivalence.*

Qush nomlari tilning obrazli qatlamida inson xarakteri, ijtimoiy munosabat, tajriba va axloqiy bahoni ifodalash uchun faol qo‘llanadi. Burgut, qarg‘a, tovus, chumchuq, o‘rdak va g‘oz kabi ornitonimlar bevosita qush turini nomlash bilan cheklanmay, muayyan xususiyat yoki vaziyatni

anglatadigan ko‘chma ma’no hosil qiladi. Bunday birliklar maqol, matal va frazeologizmlar tarkibida xalqning tabiatni kuzatish tajribasi hamda milliy tasavvurlarini aks ettiradi.

Metaforik birlik tarjimasida faqat lug‘aviy ma’noni emas, balki obrazning baholovchi va kommunikativ vazifasini ham yetkazish zarur. Lakoff va Johnson metaforani tafakkur hamda tajribani konseptuallashtirish vositasi sifatida izohlaydi [2]. Mona Baker esa idiom va turg‘un birikmalarni so‘zma-so‘z tarjima qilishda ma’no hamda uslubiy ta’sir yo‘qolishi mumkinligini ko‘rsatadi [1]. Shu bois ornitonimli birliklar tarjimasida shakliy o‘xshashlikdan ko‘ra semantik-pragmatik yaqinlik ustuvor bo‘lishi lozim.

Mazkur yo‘nalishda Z. Aliyevaning ingliz va o‘zbek tillaridagi ornitonimli frazeologik birliklarning semantik-stilistik vazifalariga bag‘ishlangan tadqiqoti [5], shuningdek, S. G‘oyibova va S. Ruziyevaning hayvon nomlari qatnashgan frazeologizmlarni tarjima qilish muammolariga oid maqolasi [6] mavjud. Ushbu maqolaning farqli jihati — tahlil markaziga aynan ornitonimli turg‘un birliklarning tarjima ekvivalentligi, obraz va pragmatik ta’sirning saqlanishini qo‘yishidir.

Tadqiqotning maqsadi – o‘zbek va ingliz tillaridagi ornitonimli turg‘un birliklarning tarjimada semantik-pragmatik muvofiqligini aniqlash. Material sifatida T. Mirzayev, A. Musoqulov va B. Sarimsoqov tuzgan “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamidagi qush nomli maqollar hamda Cambridge Dictionary lug‘atida qayd etilgan inglizcha iboralar tanlandi. Qiyosiy, kontekstual, komponent va tarjimaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Tanlanma sifat jihatdan tahlil qilinadi; natijalar butun til tizimidagi chastota ko‘rsatkichi sifatida talqin etilmaydi.

Ornitonim – qush nomini bildiruvchi leksik birlik; ornitonimli turg‘un birlik esa qush nomi tarkibida qatnashgan, ko‘chma yoki umumlashgan ma’no anglatuvchi barqaror birikmadir. Bunday birliklarda qushning tashqi belgisi, xatti-harakati, ovozi yoki yashash tarzi inson olamiga ko‘chiriladi. Masalan, burgutning o‘tkir nigohi kuzatuvchanlik, tovusning ko‘rkam patlari tashqi husn, qarg‘aning o‘z turiga munosabati esa guruhiy birdamlik yoki o‘zaro himoyani ifodalashi mumkin.

Tarjimada ekvivalentlikni uch darajada ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq: 1) to‘liq yoki yaqin ekvivalentlik – obraz va asosiy kommunikativ vazifa mos keladi; 2) qisman ekvivalentlik – umumiy mazmun saqlanadi, biroq obraz, baho yoki uslubiy tus o‘zgaradi; 3) nol ekvivalentlik – tayyor muqobil mavjud bo‘lmay, izohli yoki tavsifiy tarjima talab etiladi. Nida ta’kidlagan formal va dinamik muvofiqlik yondashuvlari bu farqlarni anglashga yordam beradi [4].

Ingliz tilidagi “Birds of a feather flock together” iborasi xarakteri yoki qiziqishlari o‘xshash insonlar bir-biriga yaqin bo‘lishini anglatadi; Cambridge Dictionary uning ayrim qo‘llanishlarida salbiy baho ham sezilishini qayd etadi [7]. O‘zbek maqollar to‘plamidagi “O‘rdak o‘rdak bilan uchar, g‘oz g‘oz bilan uchar” birligi shu konseptual asosga ega: bir xil toifadagilar o‘zaro yaqinlashadi [3]. Tarjimada “Birds of a feather flock together” mazmunan yaqin muqobil bo‘la oladi. Biroq inglizcha iborada ayrim kontekstlarda mavjud bo‘lgan tanqidiy tus o‘zbek maqolida doimo shart emas. Demak, tarjimon kontekstga qarab baholovchi ma’noni tekshirishi kerak.

“Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimas” maqoli ham o‘zaro o‘xshashlik va guruhiy munosabatni qush obrazi orqali ifodalaydi [3]. Lekin uning pragmatik markazi “o‘xshashlar birga yuradi” degan fikrdan ko‘ra, bir guruh vakillarining bir-biriga zarar yetkazmasligi yoki o‘z odamini himoya qilishi bilan bog‘liq. Shu sababli uni “Birds of a feather flock together” bilan har qanday vaziyatda tenglashtirish mumkin emas. Kontekstga qarab “one of their own is protected” kabi tavsifiy tarjima maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Inglizcha “a little bird told me” iborasi ma’lumotni kimdandir eshitganini, biroq manbani oshkor qilmaslikni bildiradi [7]. Uni qush nomi qatnashgan har qanday o‘zbek maqoli bilan almashtirish to‘g‘ri emas: bunda asosiy ma’no – xabar manbasini yashirish va ba’zan hazilomuz ohangni saqlashdir. Shuning uchun “buni menga bir tanishim aytdi, kimligini ayta olmayman” kabi tavsifiy tarjima kommunikativ vazifani aniqroq yetkazadi.

“Eagle-eyed” sifati juda mayda tafsilotlarni ham payqaydigan, ziyrak kuzatuvchi shaxsga nisbatan ishlatiladi [7]. O‘zbek tilida uni “ko‘zi o‘tkir”, “ziyrak” deb berish semantik mazmunni saqlaydi, biroq burgut obrazi yo‘qoladi. Badiiy matnda obrazni saqlash muhim bo‘lsa, “burgut nigohidek o‘tkir” kabi kontekstual variant tanlanishi mumkin. Shuningdek, “Tovus tanasiga qarab yayraydi, oyog‘iga qarab yig‘laydi” maqoli tashqi ko‘rkamlik va yashirin nuqson o‘rtasidagi

ziddiyatni ochadi [3]. Ingliz tilida uning to‘liq tayyor muqobili aniqlanmasa, obrazni saqlagan holda izohlash yoki mazmunni tavsifiy tarjima qilish afzal.

Yana bir o‘zbek maqoli – “Burgut kuchi – oyog‘ida, odamniki – do‘stlikda” – tabiiy kuch manbaini inson hayotidagi ijtimoiy tayanch bilan qiyoslaydi [3, 94-b.]. Uni “An eagle’s strength lies in its feet; a person’s strength lies in friendship” tarzida obrazli tarjima qilish mumkin. Bu holatda ingliz tilida tayyor maqol ekvivalenti topilmasa-da, parallel sintaktik qurilma va qarama-qarshi qo‘yish usuli saqlanadi. Demak, maqolning badiiy ta’siri faqat alohida qush nomiga emas, balki butun gapning kompozitsion tuzilishiga ham bog‘liq.

Misollar ornitonimlar ishtirokidagi obrazlarni shartli ravishda bir necha semantik guruhga ajratish mumkinligini ko‘rsatadi: qushning tabiiy qobiliyatiga asoslangan birliklar (“eagle-eyed”, “burgut kuchi…”), to‘da va o‘zaro yaqinlikni ifodalovchi birliklar (“birds of a feather…”, “O‘rdak o‘rdak bilan uchar…”), tashqi ko‘rinish va baholash bilan bog‘liq birliklar (“Tovus tanasiga…”), shuningdek, harakat natijasini ifodalovchi birliklar (“kill two birds with one stone”). Ushbu guruhlar tarjimada bir xil usulni talab qilmaydi. Masalan, tabiiy qobiliyatga asoslangan metaforada belgi – ziyraklik – markaziy bo‘lsa, to‘da obrazida ijtimoiy munosabat va baholovchi ohang muhim hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, tarjima ekvivalentligini aniqlashda uchta savolga javob berish zarur: birlik qanday vaziyatni tasvirlaydi; so‘zlovchi shu birlik orqali qanday munosabat yoki baho bildiradi; tarjima matnida o‘quvchida qanday kommunikativ ta’sir yuzaga kelishi kerak? Ushbu savollar birlikning lug‘aviy komponentlarini alohida-alohida tarjima qilishdan saqlaydi. Ayniqsa, maqol va iboralarda obrazning milliy xotiradagi o‘rni bilan matndagi real vazifasini farqlash muhimdir.

Tahlil qilingan misollar ornitonimli birliklar tarjimasida to‘rtta amaliy strategiyani ajratish imkonini beradi. Birinchisi – obrazli muqobilni qo‘llash: ikki tilda ham qushlar guruhining o‘xshashligi asosiy mazmunni ifodalagan hollarda “O‘rdak o‘rdak bilan uchar...” va “Birds of a feather flock together” o‘zaro mos keladi. Ikkinchisi – funksional muqobillashtirish: qush obrazi boshqa tilda tabiiy eshitilmasa, kommunikativ vazifa saqlanib, obraz almashtiriladi yoki tushiriladi. Uchinchisi – tavsifiy tarjima: “a little bird told me” singari birliklarda ma’lumot manbasini yashirish mazmuni izoh bilan beriladi. To‘rtinchisi – izohli, obrazni saqlovchi tarjima: “Tovus...” maqolida milliy obraz muhim bo‘lsa, uni tarjimada saqlab, zarur joyda qisqa izoh berish mumkin.

Baker turg‘un birikmalarni tarjima qilishda ma’no, qo‘llanish muhiti va uslubiy ta’sirni birgalikda baholash zarurligini ko‘rsatadi [1]. Mazkur tahlil bu fikrni ornitonimli birliklar misolida tasdiqlaydi: bir xil qush nomining mavjudligi avtomatik ekvivalentlik yaratmaydi, turli qush nomlari esa ba’zan bir xil konseptual mazmunni ifodalaydi. Shuning uchun tarjimon avvalo birlikning lug‘aviy mazmunini, keyin baholovchi ohangini, so‘ng matndagi pragmatik vazifasini aniqlashi lozim.

Tadqiqotning ishchi ilmiy yangiligi shundaki, o‘zbek va ingliz tillaridagi ornitonimli turg‘un birliklar faqat umumiy obraz yoki leksik tarkib bo‘yicha emas, balki tarjimada saqlanadigan pragmatik vazifasi bo‘yicha ham guruhlandi. Ayniqsa, “qush” komponentining takrorlanishi bilan semantik qarama-qarshilik yuzaga kelishi mumkinligi “kill two birds with one stone” va “Bir kesak bilan ikki chumchuqni urib bo‘lmas” misolida ko‘rsatildi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi ornitonimli turg‘un birliklar umumiy antropotsentrik xususiyatga ega: qushlarning tabiiy belgilari inson xulqi, munosabati va ijtimoiy tajribasini ifodalashga xizmat qiladi. Biroq obrazning o‘xshashligi mazmun va bahoning ham to‘liq mosligini kafolatlamaydi. “O‘rdak o‘rdak bilan uchar...” inglizcha “Birds of a feather flock together” bilan yaqin ekvivalentlik hosil qilsa, “Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimas” boshqa pragmatik urg‘uga ega. “Kill two birds with one stone” va “Bir kesak bilan ikki chumchuqni urib bo‘lmas” esa tashqi o‘xshashlikka qaramay, bir-birining tayyor tarjima muqobili emas.

Shunday qilib, ornitonimli birliklarni tarjima qilishda asosiy mezon so‘zma-so‘z moslik emas, balki semantik mazmun, konnotatsiya va nutqiy maqsadning uyg‘un saqlanishidir. Tarjimon to‘liq muqobil mavjud bo‘lsa obrazni saqlashi, qisman muvofiqlikda funksional almashtirishni qo‘llashi, muqobil bo‘lmaganda esa tavsifiy yoki izohli tarjimadan foydalanishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. – Abingdon; New York: Routledge, 2018.

2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.
4. Nida E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E. J. Brill, 1964.
5. Aliyeva Z. A. Stylistic and Semantic Purposes of Phraseological Units with Ornithonyms in English and Uzbek // Journal of Applied Science and Social Science. – 2025. – Vol. 15, Issue 05. – P. 473–475.
6. G‘oyibova S., Ruziyeva S. Issues in Translating Animal-Name Phraseological Units in Uzbek and English // Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2026. – Vol. 6, No. 1. – P. 7–11.
7. Cambridge Dictionary. https://dictionary.cambridge.org/ (murojaat sanasi: 05.11.2026).

UO‘K 811.512.133’373.7:811.134.2’373.7

O‘ZBEK VA ISPAN TILLARIDAGI ARABIZMLARNING MA’NODOSHLIK XUSUSIYATLARI

U.Burxonov, dots., PhD, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand
ORCID: 0000-0003-3611-212X

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek va ispan tillariga arab tilidan kirgan so‘zlarning boshqa kelib chiqishli birliklar bilan ma’no jihatidan yaqinligi o‘rganildi. Buning uchun ilm-bilim, muallim-o‘qituvchi, xalq-el hamda aceite-óleo, alberca-piscina, alquiler-arrendamiento juftliklari tanlandi.*
Kalit so‘zlar: *arabcha manbali so‘zlar, ma’nodoshlik, so‘zlarning kelib chiqishi, lug‘aviy ma’no, o‘zbek tili, ispan tili, uslubiy farqlar, chog‘ishtirma tahlil.*
Аннотация. *В статье сопоставляются отношения синонимии между арабскими заимствованиями и словами иного происхождения в узбекском и испанском языках.*
Ключевые слова: *арабизмы, синонимия, этимология, лексическая семантика, узбекский язык, испанский язык, сопоставительный анализ.*
Abstract. *This article examines synonymic relations between Arabic-origin words and lexemes of other etymological origins in Uzbek and Spanish.*
Keywords*: Arabic loanwords, synonymy, etymology, lexical semantics, Uzbek, Spanish, stylistic differentiation, contrastive linguistics.*

Ilm - bilim: umumiy ma’no va birikishdagi farq: Ilm arabcha عِلْم (ʿilm) so‘zidan kelib chiqqan. Qohira akademik lug‘atida “bilish”, “ishonchli bilim”, “ma’rifat”, shuningdek ma’lum masala va qoidalar tizimi kabi ma’nolar qayd etilgan. Zamonaviy fanlar bilan bog‘liq izohlar ham mavjud. Ammo lug‘atdagi barcha ma’nolarni so‘zning qadimgi davrdagi ma’nolari deb ko‘rsatib bo‘lmaydi: ular turli davrlarda shakllangan bo‘lishi mumkin.

Bilim turkiy bil- fe’lidan yasalgan. Qadimgi turkiy bilig “bilim”, “aql-idrok”, “hikmat” kabi ma’nolarni bildirgan. Hozirgi o‘zbek tilida ilm o‘rganish orqali egallangan bilimni ham, fan yoki bilimlar tizimini ham ifodalaydi. Bilim esa ma’lumot va tushunchalar majmui, shuningdek kishining bilimdonlik darajasi ma’nolarida keladi. Mazmun yaqinligi bor, biroq ma’no doirasi to‘la teng emas.

“Ilm olish” va “bilim olish” o‘xshash mazmunda qo‘llanadi. Ammo “ilm-fan” o‘rniga “bilim-fan” deyish tabiiy emas; “bilim yurti” ham o‘ziga xos birikmadir. Farqni “ilm faqat nazariya, bilim esa faqat amaliyot” degan keskin ajratish bilan tushuntirish xato. Bu yerda so‘zlarning tilga singib ketgan birikmalari muhimroq.

Muallim - o‘qituvchi: kasb nomi va grammatik farq: Muallim arabcha مُعَلِّم (muʿallim) so‘zidan kelgan; u عَلَّمَ (ʿallama - o‘rgatmoq, ta’lim bermoq) fe’li bilan bog‘liq. Arab akademik lug‘atida bu so‘zning asosiy ma’nosi dars beruvchi kishidir. Ayrim tarixiy kasb-hunar tizimlarida mustaqil ishlash huquqiga ega ustaga ham nisbatan qo‘llangan. Biroq arab tilidagi ushbu qo‘shimcha ma’no o‘zbek tiliga ham shu holicha ko‘chganini tasdiqlovchi dalil keltirilmagan.

O‘qituvchi turkiy o‘qi- fe’liga asoslangan o‘qit- shakli va -uvchi qo‘shimchasidan yasalgan. “Matematika muallimi” va “matematika o‘qituvchisi” dars beruvchi shaxs ma’nosida juda yaqin. Biroq “o‘qituvchi” sifatdosh vazifasida ham keladi. Bu holatda uni “muallim” bilan almashtirish gap tuzilishi yoki ma’nosini o‘zgartirishi mumkin. Shu bois ikki so‘zning ma’nodoshlik darajasini, avvalo, kasb nomi vazifasida baholash kerak.

"Muallim" hamisha hurmatni, "o'qituvchi" esa faqat rasmiylikni bildiradi, degan umumiy xulosaga asos yo'q. Lug'at dalillaridan chiqadigan aniq natija shuki, ikki so'z kasb nomi sifatida yaqin, ammo grammatik qo'llanishi har doim bir xil emas.

Xalq - el: jamoa ma'nosi va rasmiy qo'llanish: Xalqning manbasi arabcha خَلْق (ẖalq)dir. "Al-Muʿjam al-Wasīṭ"da "yaratilgan mavjudotlar" hamda "odamlar" ma'nolari berilgan. Demak, o'zbek tilidagi "odamlar jamoasi" ma'nosi arabchada umuman bo'lmagan yangilik emas. Shuningdek, خَلْق (ẖalq) bilan خُلُق (ẖuluq - xulq, fe'l-atvor)ni adashtirmaslik lozim: talaffuzdagi farq ma'noni ham o'zgartiradi.

El qadimgi turkiy él/il so'ziga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda u yurt, davlat va xalq ma'nolarida uchraydi. Hozirgi o'zbekchada el "kishilar jamoasi" bilan birga "yurt", "diyor"ni ham bildiradi, xalq esa aholi, millat va odamlar jamoasi ma'nolarida, jumladan, rasmiy nomlarda ishlatiladi. "Elga xizmat qilish" va "xalqqa xizmat qilish" mazmunan yaqin. Lekin bu so'zlar barcha uslubiy va rasmiy vaziyatlarda bir xil tanlanmaydi. Konstitutsiyaning 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir" deb belgilangan. Rasmiy hujjatning bu jumlasida xalq o'rniga elni qo'yib bo'lmaydi: qonun matnidagi aniq ifoda saqlanishi kerak. Ammo bir modda asosida "el huquqiy matnda hech qachon ishlatilmaydi" deb ham bo'lmaydi. Dalilning chegarasi aynan shu rasmiy qo'llanishdir.

Aceite - óleo: umumiy yog' ma'nosi va maxsus qo'llanish: RAE-ASALE ma'lumotiga ko'ra, aceite ispan tiliga andalus arabchasidagi azzáyt orqali kirgan. Uning arabcha az-zayt shakli yanada oldinroq oromiycha zaytā bilan bog'liq. Demak, ispan tiliga o'tishdagi yaqin manba arab tili, qadimroq ildiz esa oromiychadir. Qohira akademik lug'atida الزَّيْت (az-zayt) zaytun yog'i, boshqa o'simlik yog'lari va ayrim moy turlarini bildiradi. Lekin hozirgi izohdagi barcha ma'nolarni birday qadimgi davrga ko'chirib talqin qilmaymiz.

Óleo lotincha oleum - "yog'", ayniqsa "zaytun yog'i" so'zidan kelgan. Lotincha shakl yunoncha ἔλαιον bilan bog'liq. Hozirgi ispan tilida aceite oziq-ovqat yog'lari va ayrim texnik moylarni ham bildiradi. Óleo esa o'simlik yog'i bilan birga diniy marosim yog'i, moybo'yoq hamda moybo'yoq bilan ishlangan san'at asari ma'nolarida qo'llanadi. "Aceite de oliva" bilan "óleo de oliva" zaytun yog'i haqidagi matnda yaqin ma'noda kelishi mumkin. Biroq RAEning "Adquirieron dos óleos en una subasta" misolida óleos san'at asarlarini bildiradi. bu yerda aceite mos kelmaydi. Farq shunchaki "oddiy so'z - kitobiy so'z" qarama-qarshiligida emas. Tarjimon qaysi ma'no nazarda tutilganiga qarab "yog'", "moybo'yoq" yoki "moybo'yoq bilan ishlangan asar"ni ifodalaydi.

Alberca - piscina: hudud bilan bog'liq ma'no yaqinligi: Alberca RAE-ASALEga ko'ra andalus arabchasidagi albírka orqali arabcha بِرْكَة (birkah) shakliga borib taqaladi. Qohira akademik lug'atida u "suv to'plangan joy, ko'lmak" ma'nolarida izohlanadi. Uni talaffuzi boshqa bo'lgan بَرَكَة (barakah - baraka, fayz) bilan bir so'z deb qabul qilish to'g'ri emas.

Piscina lotincha piscīna so'zidan kelgan. Uning ildizi piscis - "baliq". Lewis-Short lug'atida u baliq hovuzi, cho'milish havzasi va suv saqlash inshootini bildirgan. Demak, "cho'milish havzasi" ma'nosi ispan tilidagina yuzaga kelmagan. RAEda alberca sug'orish suvi saqlanadigan hovuzni, Meksikada esa suzish havzasini ham bildiradi. Piscina ispan tilida suzish havzasi va ayrim boshqa suv inshootlarining nomidir.

RAE "alberca olímpica" birikmasini Meksika ispan tiliga xos qo'llanish sifatida qayd etadi. Bu o'rinda u "piscina olímpica"ga yaqin. Ammo sug'orishga mo'ljallangan albercani "suzish havzasi" deb tarjima qilish xato bo'ladi. Demak, ma'no yaqinligi so'zning qaysi hududda va qaysi vazifada ishlatilishiga bog'liq.

Alquiler - arrendamiento: ijara, to'lov va shartnoma: RAE alquilerning kirib kelish yo'lini andalus arabchasi alkirá/alkirí ← arabcha كِرَاء (kirāʾ) shaklida ko'rsatadi. Ibn Manzurning "Lisān al-ʿArab" lug'atida kirāʾ ijara munosabati va ijara haqi ma'nolariga ega. Ispancha alquilerda ham ijara jarayoni va ijara narxi ma'nolari bor. Ammo bu o'xshashlik so'z barcha asrlarda bir xil ishlatilganini isbotlamaydi [1].

Arrendamiento arabcha emas: u arrendar fe'lidan, bu fe'l esa renda orqali lotincha reddĭta bilan bog'liq. Hozirgi ispan lug'atida alquiler ham, arrendamiento ham ijara munosabati va ijara haqini

bildirishi mumkin. Bundan tashqari, arrendamiento “ijara shartnomasi” ma’nosida ham keladi. Shunday ekan, “alquiler - faqat to‘lov, arrendamiento - faqat shartnoma” deyish noto‘g‘ri.

Ispaniyaning “Ley 29/1994, de Arrendamientos Urbanos” qonuni sarlavhasida arrendamiento ishlatilgan, 17-moddada esa ijara to‘lovi renta deb atalgan. Huquqiy matnda so‘z tanlashning bunday izchilligi ahamiyatli. Biroq bu alquiler rasmiy matnlarda umuman uchramaydi degani emas. Asosiy farq ikki so‘zning umumiy ma’nosida emas, qonun va shartnomalarda qaysi atama tanlanishidadir [2].

Olti juftlikni qiyoslash uch asosiy holatni ko‘rsatdi. Birinchisi - tilda odat tusiga kirgan birikmalar; “ilm-fan” bunga misol. Ikkinchisi - bitta so‘zga xos qo‘shimcha ma’no yoki grammatik vazifa; muallim-o‘qituvchi hamda aceite-óleo juftliklari shu jihatdan farqlanadi. Uchinchisi - matn va nutq sharoitiga bog‘liq tanlov: Konstitutsiyadagi xalq, ijara qonunidagi arrendamiento va Meksikadagi alberca. Bu natijalar faqat tanlangan juftliklarga tegishli bo‘lib, ularni har ikkala tilning butun lug‘at boyligiga tatbiq etmaymiz.

So‘zning kelib chiqishi hozirgi ma’nodoshlikni yakka o‘zi izohlab bera olmaydi. Arabcha ḫalq va o‘zbekcha xalqdagi “odamlar” ma’nosi tarixiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Aceite bilan óleo esa ispan tiliga turli tarixiy yo‘llar bilan kelib, “yog‘” ma’nosida yaqinlashgan. Alberca va piscina misolida hududiy qo‘llanish muhimroq. Xullas, so‘zning tarixini bilish kerak, ammo bugungi ma’nosini tushunish uchun uning haqiqiy ishlatilishiga ham qarash lozim.

Tadqiqotda ko‘rib chiqilgan olti juftlikning chog‘ishtirma tahlili kelib chiqishi arabcha bo‘lgan so‘zlar o‘zbek va ispan tillarida turkiy yoki lotincha manbali birliklar bilan muayyan ma’nolarda yaqinlashishini, biroq barcha nutqiy vaziyatlarda bir-birining o‘rnini bosa olmasligini ko‘rsatdi. O‘zbek tilidagi ilm-bilim, muallim-o‘qituvchi, xalq-el juftliklarida ma’no va qo‘llanish farqlari, asosan, so‘zlarning odatiy birikmalari, grammatik vazifalari hamda rasmiy nomlarda ishlatilishi bilan bog‘liq. Ispan tilidagi aceite-óleo, alberca-piscina, alquiler-arrendamiento juftliklarida esa muayyan sohaga xos ma’nolar, hududiy xususiyatlar va huquqiy atamalarning qo‘llanishi alohida ahamiyat kasb etadi. So‘zlarning asl tildagi va hozirgi lug‘aviy ma’nolarini qiyoslash ham muhim natijalarni yuzaga chiqardi. Jumladan, arabcha ḫalq so‘zining “odamlar” ma’nosi asl manbada ham mavjudligi, lotincha piscīna qadimdan cho‘milish havzasini ham anglatgani, ispancha arrendamiento esa ijara shartnomasi bilan bir qatorda ijara haqini ham bildirishi aniqlandi. Bu holatlar ma’no jihatidan yaqin birliklarni keskin qarama-qarshi qo‘yish yoki ularni to‘liq tenglashtirish ilmiy jihatdan asosli emasligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, arabcha manbali so‘zlarning ma’nodoshlik xususiyatlarini aniqlashda ularning tarixiy kelib chiqishi, asl va hozirgi ma’nolari, odatiy birikmalari hamda matndagi qo‘llanishini birgalikda hisobga olish zarur. Mazkur yondashuv ikki tilli lug‘atlar tuzish, tarjima muqobillarini tanlash va arabcha kelib chiqishli so‘zlarning ma’no taraqqiyotini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1974.

2. Álvarez Sánchez P., Marín Hernández D. Fundamentos de semántica: Teoría, métodos y práctica en español y otras lenguas. Málaga: UMA Editorial, 2026. B. 132-137. ISBN 978-84-1335-492-7. https://monografias.uma.es/index.php/mumaed/catalog/book/286

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Olti jildli. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2022-2023. Elektron baza: https://ynabijanov.uz/lugat/izohli/

4. Izoh.uz. O‘zbek tilining ochiq elektron izohli manbasi: “ilm”, “bilim”, “muallim”, “o‘qituvchi”, “xalq”, “el” maqolalari. https://izoh.uz/

5. Ibn Manẓūr. Lisān al-ʿArab. “كرا” moddasi. Elektron nashr: https://islamweb.net/ar/library/content/122/7133/كرا

6. Real Academia Española; Asociación de Academias de la Lengua Española. Diccionario de la lengua española. 24.ª ed., 2026. “aceite”, “óleo”, “alberca”, “piscina”, “alquiler”, “arrendamiento”, “arrendar”, “renda”, “renta”. https://dle.rae.es/

7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yilgi tahrir, 7-modda. https://constitution.uz/oz/clause

8. España. Ley 29/1994, de 24 de noviembre, de Arrendamientos Urbanos. Boletín Oficial del Estado. BOE-A-1994-26003, 17-modda. https://www.boe.es/buscar/act.php?id=BOE-A-1994-26003

9. “Divanü Lügati’t-Türk’te Bilig Kavramı”. TR Dizin: https://search.trdizin.gov.tr/tr/yayin/detay/1261082

10. “Kutadgu Bilig Dizini Üzerine”. Türk Dili Araştırmaları Yıllığı-Belleten. https://belleten.gov.tr/tam-metin/1670/tur

UO’K UO‘K 811.512.133’373.7:811.134.2’373.7

O‘ZBEK VA ISPAN TILLARIDA ARABIZMLI TURG‘UN IBORALARNING MA’NO VA MADANIY XUSUSIYATLARI

U.Burxonov, dots., PhD, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand
ORCID: 0000-0003-3611-212X

Annotatsiya. *Maqolada arabcha manbali so‘z qatnashgan beshta o‘zbekcha va beshta ispancha turg‘un ibora kelib chiqish, yaxlit ma’no, tasvir va tarjima jihatidan chog‘ishtirildi. O‘zbekcha iboralardagi sabr, dunyo, qalam, adab birliklarining arabcha ma’nolari Qohira Arab tili akademiyasining lug‘ati, ispancha jaque, balde, ceca, azotea birliklarining kirish yo‘llari esa RAE–ASALE lug‘ati asosida aniqlashtirildi.*

Kalit so‘zlar: *arabcha manbali so‘zlar, turg‘un iboralar, o‘zbek tili, ispan tili, ma’no, obrazli ifoda, madaniy xususiyat, tarjima.*

Аннотация. *В статье сопоставляются пять узбекских и пять испанских устойчивых выражений с компонентами арабского происхождения. Происхождение и исходные значения компонентов уточняются по арабскому академическому словарю и словарю RAE–ASALE; значение цельного выражения рассматривается отдельно от этимологии составляющего его слова.*

Ключевые слова: *арабские заимствования, устойчивые выражения, узбекский язык, испанский язык, образность, перевод, культурные особенности.*

Abstract. *The paper compares five Uzbek and five Spanish fixed expressions containing words of Arabic origin. The Arabic meanings of the Uzbek components and the transmission paths of the Spanish ones are established using the Cairo Arabic Language Academy and RAE–ASALE dictionaries.*

Keywords: *Arabic-origin vocabulary, fixed expressions, Uzbek, Spanish, figurative meaning, cultural features, translation.*

Arabcha birliklarning kelib chiqishi va ma’nosi: Tanlangan beshta o‘zbekcha iborada to‘rtta arabcha manbali so‘z qatnashadi: sabr ← صَبْر (ṣabr), dunyo ← الدُّنْيَا (ad-dunyā), qalam ← قَلَم (qalam), adab ← أَدَب (adab). Qohira akademik lug‘atida *ṣabr* chidash, qiyinchilikni shikoyatsiz ko‘tarish va o‘zini tiyish ma’nolarini bildiradi, *dunyā* esa hozirgi hayot, oxiratga zid dunyo mazmunida qo‘llanadi. Qalamning asosiy ma’nosi yozuv quroli, adab esa axloqiy tarbiya, muomala odobi hamda adabiyotga oid tushunchalarni ham qamrab oladi. Bular so‘zning o‘ziga xos lug‘aviy ma’nolaridir; iboralardagi yakuniy ma’no ulardan bevosita ko‘chirib olinmaydi. Ayniqsa, dunyo va adab misollari muhim. Arabcha lug‘atda “uning yuzida dunyo qoraydi” mazmunidagi “وجهه في الدنيا اسودّت” ifodasi ham uchraydi. Bu o‘zbekchadagi qorong‘ilik tasviri bilan ma’no yaqinligini ko‘rsatadi, biroq iboraning qaysi yo‘l bilan shakllanganini belgilab bermaydi. Shuningdek, arabcha أَدَّب (addaba) fe’li tarbiyalash bilan bir qatorda noto‘g‘ri ish uchun jazolashni ham bildiradi. Demak, adabini bermoq iborasidagi jazo ma’nosini arab tilida mutlaqo mavjud bo‘lmagan yangilik sifatida ko‘rsatish xato bo‘ladi. Ispan tilidagi materialda ham turli tarixiy yo‘llar bor.

Sabr kosasi to‘lmoq: sabr tugashi va so‘nggi sabab. Izoh.uz bu iborani ortiq chidash yoki kutishga toqat qolmaslik deb izohlaydi. Unda S. Siyoyevning “Xalqning sabr kosasi to‘ldi” qo‘llanishi ham qayd etilgan. Arabcha ṣabr shunchaki chidamni bildirsa, o‘zbekcha ibora chidamning chegarasini “kosa” orqali ko‘rsatadi. Kosa to‘lishi - sabrning endi ortib ketganini bildirish uchun tanlangan tasvirdir. Ispan tilidagi perder la paciencia yoki acabársele la paciencia asosiy ma’noni sodda ifodalaydi, ser la gota que colma el vaso esa tasvir jihatidan yaqinroq, lekin aynan sabrning tugashiga sabab bo‘lgan oxirgi voqeani oldinga chiqaradi. Biri holatni, ikkinchisi ko‘pincha shu holatni yuzaga keltirgan sababni ta’kidlaydi.

Dunyodan o‘tmoq: yumshoq xabar va hayot obrazi. “Dunyodan o‘tmoq” Izoh.uzda “o‘lmoq, vafot etmoq” deb berilgan. Mirmuhsinning “Me’mor” asaridan olingan misol ifodaning qayg‘uli xabarni bevosita emas, muloyim yetkazishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ispancha pasar a mejor vida ham lug‘atda “vafot etmoq” ma’nosida qayd etilgan. Bu ikki iborada vazifa yaqin: ular o‘lim haqida odobliroq gapirish imkonini beradi. Lekin o‘zbekcha ibora shu dunyodan ketish

tasviriga, ispancha ibora esa yaxshiroq hayotga o‘tish tasviriga tayanadi. Har ikkisini bir diniy an’ananing aynan bir xil ifodasi deb bo‘lmaydi.

Dunyo ko‘ziga qorong‘i bo‘lmoq: ichki iztirob. Izoh.uz bu iborani chuqur qayg‘u va ruhiy tushkunlik ma’nosida izohlaydi, O‘. Hoshimov asaridan misol keltiradi. Iboradagi dunyo so‘zi shaxsning butun borliqni his etish tarziga ko‘chadi: insonning ichki og‘rig‘i tashqi yorug‘likning yo‘qolishi sifatida ifodalangan. Qohira lug‘atidagi “وجهه في الدنيا اسودّت” ifodasi ham o‘xshash qorong‘ilik tasviriga ega. Bu o‘xshashlikni qiyosiy dalil sifatida ko‘rsatish mumkin, biroq iboralar o‘rtasidagi tarixiy o‘zlashishni shu asosdagina tasdiqlab bo‘lmaydi. Ispancha ver negro algo iborasi RAEda biror ishning amalga oshishini mushkul deb bilishni anglatadi; shuning uchun uni o‘zbekcha iboraning bevosita muqobili qilib bo‘lmaydi.

Qalamga olmoq: yozuv qurolidan ijodga. Qalam arabcha akademik lug‘atda yozuv asbobi sifatida izohlanadi, biroq o‘zbek tilida “qalamga olmoq” butunicha biror voqea, mavzu yoki asarni yozishga kirishish va yozib ifodalashni bildiradi. Izoh.uzda A. Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asaridan dalil berilgan. Ispanchadagi escribir sobre un tema yoki plasmar por escrito ifodasi mazmunni yetkazadi; tomar por escrito esa ko‘proq qayd qilish, yozib olish ma’nosida kelgani uchun har bir matnda mos tushmaydi. O‘zbekcha iborada yozishning vositasi ijodiy harakat o‘rnida kelgan, tarjimada esa odatda aynan shu qalam obrazi saqlanmaydi.

Adabini bermoq: tarbiyadan jazogacha. O‘zbekcha adab so‘zi xushmuomalalik va tarbiya bilan bog‘liq. Ammo “adabini bermoq” turg‘un iborasi Izoh.uzda nojo‘ya xatti-harakat uchun tanbeh yoki jazo berish ma’nosida qayd etilgan. Qohira lug‘atida arabcha أَدَّب fe’lining noo‘rin ish uchun jazolash ma’nosi ham mavjudligi bu o‘tishni xolisroq tushunishga yordam beradi: salbiy baho o‘zbek tiliga o‘tgach mutlaqo yangidan paydo bo‘lgan deyilmaydi. Ispancha darle a alguien su merecido qilmishiga yarasha jazo berish vazifasida yaqin, ammo o‘zbekcha iboraning tarbiya yoki tanbeh bilan bog‘liq ohangini har doim bir xil ifodalamaydi.

Poner en jaque: shaxmatdan ko‘chgan tahdid. RAE jaque so‘zining shaxmatdagi “shohga tahdid” ma’nosi bilan birga, odamni xavotirga solish, qarshilikka uchratish yoki rejasini izdan chiqarish ma’nosini ham ko‘rsatadi. Poner en jaque iborasida o‘yin holati kundalik bahs yoki ijtimoiy munosabatga ko‘chgan. O‘zbekchada “tang ahvolga solmoq” muhim mazmunni beradi; “shohga kish bermoq” esa o‘zbek shaxmat tilidagi tasvirni saqlashi mumkin, biroq har qanday ko‘chma gapda shu shakl tabiiy bo‘lavermaydi. Demak, tarjimada tasvirni saqlash bilan jumlaning ravonligi o‘rtasida tanlov talab etiladi.

De balde va en balde: bir manba, ikki qo‘llanish: Bu ikki shaklning ildizi bitta: andalus arabchasidagi báṭil arabcha bāṭil - “foydasiz, behuda, qiymatsiz” so‘ziga boradi. RAEda de balde “bepul, tekinga”, shuningdek “behuda” ma’nosida ham qayd etiladi; en balde esa “behuda, natijasiz” demakdir. Shuning uchun ikkisini qat’iy qarama-qarshi so‘zlar deb ajratish ilmiy jihatdan noto‘g‘ri. Biroq “ish tekinga qilindi” va “ish behuda qilindi” gaplari bir xil mazmun bermaydi. Bu farq ibora shakli va matn vaziyatining tarixiy bir o‘zakdagi ma’nolarni qanday tanlashini ko‘rsatadi.

De la ceca a la meca: ohangdorlik va ko‘chish. Arabcha sikkah asosidan kelgan ceca dastlab zarbxona nomidir. RAE izohida de la ceca a la meca “u yoqdan bu yoqqa”, “bir joydan boshqa joyga” yurish ma’nosidagi og‘zaki ibora sifatida qayd etiladi. Meca esa Makka shahri nomiga bog‘liq. Birikmada joy nomlarining tovush yaqinligi harakatning bezovtaligini jonli tasvirlaydi. O‘zbekcha “u yoqdan bu yoqqa yugurmoq” ma’noni yaqin yetkazadi, lekin ispancha qofiyaviy ohangni to‘liq takrorlamaydi. Ibora tarkibida arabcha manbali so‘z borligi sababli butun ifodani arabcha tayyor maqol deb chiqarish mumkin emas.

Estar mal de la azotea: binodan insonga ko‘chgan tasvir. Azotea arabcha saṭḥ - “tekis tom” shakliga borib taqaladi; RAE unda “binoning tekis tomi” hamda so‘zlashuvda “bosh” ma’nosini ajratadi. Estar mal de la azotea kishi xatti-harakatini “esi joyida emas” deb kesatiq bilan baholaydi. O‘zbekchadagi “esi joyida emas”, “aqli joyida emas” ma’no jihatidan yaqin, lekin tom obrazi yo‘q. Bu farq faqat rang-barang tasvirda emas: iboraning so‘zlashuvga xos, birovni kamsitishi mumkin bo‘lgan ohangini jiddiy matnda o‘sha darajada berish har doim ham ma’qul bo‘lmasligi mumkin.

Muhokama: tarjima va madaniy ma’no munosabati. O‘nta iborani bir qarashda ikki guruhga ajratish mumkin: ayrimlari boshqa tilga tayyor ibora bilan o‘tadi, boshqalari mazmunan

izohlanadi. Chuqurroq tahlil esa uch holatni ochadi. Birinchisi - vazifasi yaqin ikki turg‘un ibora: dunyodan o‘tmoq – pasar a mejor vida. Ikkinchisi - ma’no tutashib, tasvir yoki ma’no urg‘usi farqlanadigan juftlik: sabr kosasi to‘lmoq – ser la gota que colma el vaso. Uchinchisi - izohlashda muqobil zarur bo‘ladigan holat: qalamga olmoq – escribir sobre yoki poner en jaque – tang ahvolga solmoq. Bunday tasnifda “to‘liq teng” bahosi faqat ifodalar lug‘atda bir-biriga o‘xshab ko‘ringani uchun berilmadi. Milliy-madaniy jihatni ham faqat biror buyumning nomiga tenglashtirib bo‘lmaydi. O‘zbekchadagi sabr kosasi to‘lmoq iborasida “kosa” sabrning chegarasini ko‘rsatadi; ispancha “oxirgi tomchi” esa ayni chegarani buzgan sababga diqqat qaratadi. Dunyodan o‘tmoq va pasar a mejor vida iboralari o‘limni yumshoq aytish madaniy ehtiyoji jihatidan yaqin, ammo “bu dunyodan ketish” va “yaxshiroq hayot” tasavvurlari bir xil emas. Adabini bermoqda esa jazo va tarbiya tushunchalari yaqinlashadi; poner en jaque va estar mal de la azotea iboralarida shaxmat hamda “bosh” ma’nosiga ko‘chgan tom tasviri so‘zlashuvning baholovchi vositasiga aylanadi.

O‘zbekcha “dunyo ko‘ziga qorong‘i bo‘lmoq” bilan arabcha lug‘atda qayd etilgan qorong‘ilik tasvirining yaqinligi madaniy munosabatlarni baholashda ayniqsa qiziq. Biroq bu fakt bir tasvirning ikkinchi tildan so‘zma-so‘z olinganini emas, har ikkala tizimda ham bir holatni qorong‘ilik orqali ifodalash mumkinligini ko‘rsatadi. Shu kabi ceca va Meca tovushdoshligi asosida qurilgan ispancha ibora tarjimada ma’noni saqlagan holda ohangdorligini yo‘qotishi mumkin. Demak, milliy-madaniy farqni faqat etimologiya emas, obrazning nutqdagi vazifasi bilan birga tushuntirish zarur. Bu natijalar arabcha so‘zlar turg‘un iboralarga kirib, yangi ma’noda ishlashi mumkinligini ko‘rsatadi, lekin iboralarning qachon, qayerda va kimning ta’sirida yaratilganini belgilamaydi. Shuning uchun maqoladagi tarixiy xulosa so‘z darajasida, tarjimaviy va madaniy xulosa esa ibora darajasida chiqariladi. Aynan shu ajratish ma’no yaqinligini tarixiy qarindoshlik deb noto‘g‘ri talqin qilishning oldini oladi. O‘zbek va ispan tillaridan tanlangan o‘nta turg‘un ibora tahlili arabcha kelib chiqishli so‘zning tarixi bilan undan tuzilgan yaxlit ifodaning ma’nosi boshqa-boshqa masala ekanini ko‘rsatdi. Sabr, dunyo, qalam, adab hamda jaque, balde[2], ceca, azotea birliklari dastlabki lug‘aviy ma’nolaridan tashqari, yangi tilda o‘ziga xos iboralarning tarkibiy qismiga aylangan. Bunda so‘zning arabcha shaklini aniqlash iboraning ham arab tilidan tayyor holda o‘tganini isbotlamaydi. Milliy-madaniy farq so‘zning kelib chiqishidangina emas, iboraning qanday obrazga tayanishi va qanday vaziyatda ishlatilishida namoyon bo‘ladi. Shaxmat, kosa, yozuv quroli, tom yoki joy nomi tarjimada saqlanishi ham, tabiiyroq ifoda foydasiga o‘zgartirilishi ham mumkin. Bunday tanlovda eng asosiy mezon - asl matnning ma’nosi va nutqiy ohangini yangi til o‘quvchisiga imkon qadar aniq yetkazishdir. Olingan xulosalar tanlangan o‘nta ifoda doirasida asoslangan bo‘lib, ikki tilning barcha turg‘un iboralari uchun umumiy qoida sifatida talqin qilinmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLA RO’YXATI:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 379 b. Katalog: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA52816976

2. Corpas Pastor G. Manual de fraseología española. – Madrid: Gredos, 1996. – 337 p. ISBN 9788424918293. https://books.google.com/books?id=emRdAAAAMAAJhttps://cvc.cervantes.es/ensenanza/biblioteca_ele/asele/pdf/30/30_0031.pdf

3. Majmaʿ al-Lugha al-ʿArabiyya bi-l-Qāhira. Al-Muʿjam al-Wasīṭ. “الصَّبْر”, “الدُّنْيا”, “القَلَم”, “الأَدَب”, “أَدَّب” maqolalari. https://www.arabicacademy.gov.eg/ (murojaat: 16.11.2026).

4. Izoh.uz. “sabr”, “dunyo”, “qalam”, “adab” maqolalari va ulardagi turg‘un ibora misollari. https://izoh.uz/word/sabr ; https://izoh.uz/word/dunyo ; https://izoh.uz/word/qalam ; https://izoh.uz/word/adab (murojaat: 16.11.2026).

5. Real Academia Española; Asociación de Academias de la Lengua Española. Diccionario de la lengua española. 24.ª ed. – 2026. “jaque”, “balde”, “ceca”, “meca”, “azotea”, “gota”, “paciencia”, “vida”, “mundo”, “negro”, “escrito”, “plasmar”, “merecido”. https://dle.rae.es/ (murojaat: 16.11.2026).

6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966. – 464 b. Nashr haqida: https://books.google.com/books?id=jf74MgEACAAJ .

UO‘K 811.512.133’373.7:811.111

MEHNAT BILAN BOG‘LIQ MAQOLLARDA METAFORIK OBRAZLARNING QIYOSIY TAHLILI

(o‘zbek va ingliz tillari materiallari asosida)

Djo‘rayeva O. A., magistrant, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona
Maxmudova N. R., PhD, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek va ingliz maqollarida mehnat tushunchasini ifodalovchi metaforik obrazlar qiyosiy o‘rganilgan. Tahlil konseptual metafora nazariyasi va lingvomadaniy sharhlash usullariga tayanadi. Natijada ikkala tilda ham mehnat ter, qo‘l, yer va ekin, asalari va asal, yo‘l va harakat obrazlari orqali tasvirlanishi aniqlandi. O‘zbek maqollarida halollik, jamoaviylik va axloqiy mas’uliyat ko‘proq seziladi. Ingliz maqollarida esa vaqt, samaradorlik va shaxsiy mas’uliyat birinchi o‘rinda turadi.*

Kalit so‘zlar: *mehnat konsepti, maqol, metafora, obraz, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil.*

Аннотация. *В статье сопоставляются метафорические образы, которые используются в узбекских и английских пословицах о труде. Анализ опирается на теорию концептуальной метафоры и лингвокультурологическое толкование. В обоих языках труд представлен через образы пота, рук, земли и урожая, пчелы и мёда, пути и движения. В узбекских пословицах чаще подчёркиваются честность, коллективный характер труда и нравственная ответственность. В английских пословицах на первый план выходят время, эффективность и личная ответственность.*

Ключевые слова: *концепт труда, пословица, метафора, образ, лингвокультурология, сопоставительный анализ.*

Abstract. *This article compares the metaphorical images used in Uzbek and English proverbs about labour. The analysis relies on conceptual metaphor theory and linguocultural interpretation. In both languages, labour is described through the images of sweat, hands, land and crops, bees and honey, and path and movement. Uzbek proverbs more often stress honesty, collective effort and moral responsibility. English proverbs focus mainly on time, efficiency and personal responsibility.*

Keywords: *concept of labour, proverb, metaphor, image, linguoculturology, comparative analysis.*

Kirish. Mehnat har bir xalqning dunyoqarashida markaziy o‘rin tutadigan konseptlardan biridir. U iqtisodiy faoliyatni ham, jamiyatning axloqiy me’yorlarini ham aks ettiradi. Bunday qadriyatlar maqollarda ixcham va barqaror shaklda saqlanadi (Permyakov, 1970; Mieder, 2004).

Lingvokulturologiyada konsept madaniy jihatdan ahamiyatli, til orqali ifodalanadigan ong birligi sifatida talqin qilinadi (Stepanov, 1997; Karasik, 2002; Wierzbicka, 1997). Konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, mavhum tushunchalar kundalik tajribadagi aniq sohalar orqali anglanadi (Lakoff & Johnson, 1980). Mehnat ham ter, qo‘l, ekin, asalari kabi obrazlar orqali tasavvur etiladi.

O‘zbek va ingliz maqollari mehnat mavzusida alohida o‘rganilgan, ammo ulardagi metaforik obrazlarning qiyosiy lingvomadaniy tahlili yetarli emas. Maqolaning maqsadi ikki tildagi maqollarda metaforik obrazlarning umumiy va xos jihatlarini aniqlash hamda ularning madaniy asoslarini izohlashdir. Bunda mehnat konsepti qaysi manba sohalar orqali ifodalanishi, bir xil obrazlar har bir tilda qanday madaniy ma’no tashishi va qaysi obrazlar faqat bitta tilga xos ekani aniqlanadi.

1. Metodlar. Material o‘zbek maqollari to‘plamlari (T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqovning «O‘zbek xalq maqollari», Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovning «Hikmatnoma») hamda ingliz paremiologik lug‘atlari (Oxford Dictionary of Proverbs va boshqalar) asosida tuzilgan korpusdan iborat. Korpusga mehnat, ish, hunar, tirishqoqlik va dangasalik mavzusidagi maqollar kiritildi.

Maqol korpusga mehnatning leksik ifodasi (mehnat, ish, hunar, work, labour) yoki mehnat faoliyatiga oid obraz bo‘lsa kiritildi. Konseptual tahlil (manba va nishon soha munosabatlari; Lakoff & Johnson, 1980), semantik tahlil, qiyosiy usul, lingvomadaniy sharhlash va miqdoriy hisoblash

qo‘llandi. Maqollar obraz turiga ko‘ra guruhlandi va ekvivalentlik darajasi (to‘liq, qisman, bezekvivalent) bo‘yicha farqlandi.

2. Natijalar. Tahlil har ikki tilda mehnat konsepti beshta asosiy metaforik modelga tayanishini ko‘rsatdi.

2.1. «Ter» obrazi. Ter jismoniy zahmat va fidokorlikning metonimik belgisi sifatida ikkala tilda ham uchraydi. Ingliz tilida bu obraz *No sweat, no sweet* maqolida mehnat va mukofot orasidagi sababiy bog‘liqlikni ifodalaydi. Shuningdek, Bibliyaga borib taqaluvchi *by the sweat of one's brow* birikmasi ham tarqalgan. O‘zbek tilida «peshona teri» halol rizqni anglatadi va «halol non» tushunchasi bilan bog‘liq.

2.2. «Qo‘l» obrazi. Qo‘l mehnat quroli va mahorat ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida «qo‘li gul» ifodasi mahorat va barakani, «qo‘l qo‘lni yuvar» maqoli o‘zaro yordamni bildiradi. Ingliz tilida *Many hands make light work* jamoaviy mehnatning samarasini ta'kidlasa, *Idle hands are the devil's workshop* maqoli ishsiz qo‘lni axloqiy xavf bilan bog‘laydi. Demak, «qo‘l» obrazi ikki tilda ham ijobiy va salbiy ma'noda qo‘llanadi.

2.3. «Yer va ekin» obrazi. Bu model agrar jamiyatlar tajribasiga tayanadi. «Nima eksang, shuni o‘rasan» va *You reap what you sow* maqollari deyarli to‘liq ekvivalent bo‘lib, mehnat va natija orasidagi sabab-oqibatni ifodalaydi. Biroq o‘zbek maqollarida ekin-tikin mehnati ko‘pincha axloqiy tarbiya, yaxshilik va yomonlikning qaytishi bilan bog‘lanadi; ingliz tilida esa *Make hay while the sun shines* kabi maqollarda dehqonchilik obrazi vaqtdan unumli foydalanishga xizmat qiladi.

2.4. «Asalari va asal» obrazi. Asalari tinimsiz va tashkillashgan mehnatning universal ramzidir. Ingliz tilida *Busy as a bee* birikmasi va *No bees, no honey; no work, no money* kabi maqollar uchraydi. O‘zbek tilida asalari tirishqoqlik va jamoaviy intizomni, «asal» esa mehnat natijasini bildiradi. Bu ikki tilda eng yaqin keladigan modellardan biridir.

2.5. «Yo‘l va harakat» obrazi. Bu modelda mehnat maqsad sari harakat sifatida tasavvur qilinadi. Ingliz tilida *A rolling stone gathers no moss* va *Rome was not built in a day* maqollari harakat va sabr-toqatni ta'kidlaydi. O‘zbek maqollarida «tomchi-tomchi ko‘l bo‘lur» kabi obrazlar sabr bilan to‘plangan mehnat samarasini ifodalaydi.

2.6. Umumlashtirilgan natijalar. Tahlil natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Obrazlar bo‘yicha umumlashtirilgan natijalar

Obraz	O‘zbek maqollarida urg‘u	Ingliz maqollarida urg‘u	Ekvivalentlik
Ter	halol rizq, fidokorlik	mukofotga erishish uchun zahmat	qisman
Qo‘l	mahorat, o‘zaro yordam	jamoaviy samara, ishsizlik xavfi	qisman
Yer va ekin	sabab-oqibat, axloqiy mas'uliyat	sabab-oqibat, vaqt va fursat	to‘liq yoki qisman
Asalari, asal	tirishqoqlik, jamoaviy intizom	tinimsizlik, ish va daromad	to‘liq
Yo‘l va harakat	sabr, bosqichma-bosqichlik	harakat, sabr	qisman

3. Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ikki tilda mehnat konseptini shakllantiruvchi manba sohalar asosan umumiy: ular inson jismoniy tajribasi (qo‘l, ter), dehqonchilik va tabiat kuzatuvi (ekin, asalari) bilan bog‘liq. Bu Lakoff va Jonson aytgan tajribaviy asoslanishga mos: turli madaniyatlarda umumiy hayotiy tajriba o‘xshash metaforalarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, bir xil obrazlar madaniy ma'no jihatidan farqlanadi. O‘zbek maqollarida mehnat ko‘pincha jamoa, halollik va ma'naviy poklik bilan birga talqin qilinadi. Bunga agrar turmush, mahalla va oila qadriyatlari, ustoz-shogird an'anasi ta'sir qilgan. Ingliz maqollarida esa vaqt, samaradorlik va shaxsiy mas'uliyat oldinda turadi. Buni ko‘pincha protestant mehnat etikasi bilan izohlaydilar (Weber, 1905). Shu sababli *Time is money* kabi maqollar ingliz materialida alohida o‘rin tutadi.

Ingliz tilida mehnat diniy-axloqiy me'yor bilan ham bog‘lanadi (masalan, *idle hands*, ya'ni «ishsiz qo‘llar» xavfi), o‘zbek maqollarida esa dangasalik ko‘pincha ijtimoiy hukm, ya'ni «xorlik» va «obro‘sizlik» orqali baholanadi. Demak, dangasalik ikki tilda ham qoralanadi, lekin asosi har xil: biri ichki axloqiy, ikkinchisi ijtimoiy. Tadqiqotning cheklovi sifatida korpus hajmi va maqollarning

tarixiy qatlamlari ajratilmaganini aytish mumkin. Keyingi tadqiqotlarda diaxronik yondashuv va so‘rovnomalar orqali ona tilida so‘zlashuvchilarning obrazlarni qanday anglashini o‘rganish mumkin.

Xulosa. Mehnat konsepti ikki tilda ter, qo‘l, yer va ekin, asalari hamda yo‘l obrazlari orqali ifodalanadi. Umumiylik inson tajribasining bir xilligi bilan, farqlar tarixiy-madaniy qadriyatlar bilan izohlanadi: o‘zbek maqollarida jamoaviylik, halollik va ma’naviy mazmun, ingliz maqollarida vaqt, samaradorlik va shaxsiy mas’uliyat ustun turadi.

Natijalar qiyosiy paremiologiya, lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va chet tili o‘qitishda qo‘llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karasik V. I. Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs. – Volgograd: Peremena, 2002.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004.
4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Fan, 1978.
5. Permyakov G. L. Ot pogovorki do skazki. – Moskva: Nauka, 1970.
6. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. – Toshkent: Mehnat, 1990.
7. Stepanov Yu. S. Konstanty: slovar russkoy kultury. – Moskva: Shkola «Yazyki russkoy kultury», 1997.
8. Weber M. Die protestantische Ethik und der Geist des Kapitalismus. – 1905.
9. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. – Oxford: Oxford University Press, 1997.
10. Oxford Dictionary of Proverbs. – Oxford: Oxford University Press.

UO‘K 81’25:087.5

SURATLI KITOBLAR TARJIMASINING LINGVISTIK VA SEMIOTIK ASOSLARI: NAZARIY TAHLIL

M.T.Halimova, mustaqil tadqiqotchi, Webster University in Tashkent, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada suratli kitob (picturebook) janrining lingvistik va semiotik xususiyatlari, xususan, matn va tasvir o‘rtasidagi murakkab semiotik munosabat hamda bolalar adabiyoti tarjimashunosligidagi yetakchi nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot suratli kitobni oddiy illyustrativ adabiyotdan farqlab, uni matn va tasvirning teng huquqli semiotik hamkorligiga asoslangan mustaqil badiiy-kommunikativ hodisa sifatida talqin qiladi. Maqolada Nikolajeva va Skottning matn-tasvir munosabati tasnifi (simmetriya, to‘ldiruvchanlik, kontrapunkt), Nodelmanning tasvirning matn tomonidan “kamaytirilishi” konsepsiyasi, Saypning “sinergiya” g‘oyasi hamda Xallberg tomonidan kiritilgan “ikonik matn” (iconotext) tushunchasi alohida ko‘rib chiqiladi. Bolalar adabiyoti tarjimashunosligining metodologik negizini tashkil etuvchi Riitta Oittinenning dialogik-ijro nazariyasi va Göte Klingbergning madaniy moslashtirish konsepsiyasi tahlilning markaziy o‘rnini egallaydi; ularga qo‘shimcha ravishda Lati, O‘Sallivan, Shavit va Purtinenning yondashuvlari ham yoritiladi. Alohida bo‘lim suratli kitob matnining fonostilistik-ritmik xususiyatlarini bolaning kognitiv-idrokiy rivojlanishi (Piaje) va psixolingvistik omillar nuqtayi nazaridan izohlaydi. Shuningdek, multimodallik nazariyasi (Kress, van Leven) asosida zamonaviy raqamli suratli kitoblarning yangi semiotik qatlamlari muhokama qilinadi. Maqolaning nazariy yangiligi shundan iboratki, an’anaviy tarjimashunoslik nazariyalari sun’iy intellekt tarjima tizimlarini baholash konteksti bilan bog‘lab tahlil qilinadi: ko‘rsatilishicha, mazkur nazariyalarning tavsiflovchi-baholovchi apparati SI tarjimasini o‘rganishga to‘liq tatbiq etilishi mumkin, biroq ularning tushuntiruvchi qismi texnologik jihatdan qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Tadqiqot natijasida semantik-lingvistik ekvivalentlik, ritmik-fonetik muvofiqlik, ikonik muvofiqlik va madaniy-didaktik moslashtirishdan iborat to‘rt bosqichli tahlil modeli taklif etiladi, u SI va inson tarjimasini qiyosiy baholash uchun yagona metodologik asos yaratadi. Maqola o‘zbek tilshunosligi va tarjimashunosligida hali yetarli darajada tadqiq etilmagan ushbu yo‘nalishga jahon tajribasini tatbiq etishga qaratilgan bo‘lib, keyingi eksperimental tadqiqotlar uchun nazariy poydevor vazifasini o‘taydi.*

Kalit so‘zlar: *suratli kitob, ikonik matn, matn-tasvir munosabati, bolalar adabiyoti tarjimasi, dialogik tarjima nazariyasi, madaniy moslashtirish, sun’iy intellekt tarjimasi, multimodallik.*

Аннотация. *В статье рассматриваются лингвистические и семиотические особенности жанра иллюстрированной книги (picturebook), особое внимание уделяется*

сложному взаимодействию вербальных и визуальных компонентов, а также основным теоретическим подходам к переводу детской литературы. Иллюстрированная книга рассматривается как самостоятельный художественно-коммуникативный феномен, основанный на равноправном семиотическом взаимодействии текста и изображения, а не просто как литературное произведение с иллюстрациями. В исследовании используются классификация взаимосвязей текста и изображения М. Николаевой и К. Скотт, включающая симметрию, комплементарность и контрапункт, концепция редукции изображения текстом П. Ноделмана, понятие «синергии» Л. Сайпа и концепция «иконотекста» (iconotext) К. Халлберг. Методологическую основу составляют диалогический и перформативный подход Риитты Ойттинен и концепция культурной адаптации Гёте Клингберга, дополненные подходами Л. Лати, В. О'Салливан, З. Шавит и Т. Пуртинен. Фоностилистические и ритмические особенности текстов иллюстрированных книг рассматриваются с учётом когнитивного развития детей и психолингвистических факторов. Кроме того, теория мультимодальности применяется для анализа новых семиотических уровней современных цифровых иллюстрированных книг. Теоретическая значимость исследования заключается в установлении связи между традиционными теориями перевода и оценкой переводов, выполненных системами искусственного интеллекта (ИИ). Предлагается четырёхуровневая аналитическая модель, включающая семантико-лингвистическую эквивалентность, ритмико-фонетическое соответствие, иконическую согласованность и культурно-дидактическую адаптацию, которая может служить единой основой для сравнительной оценки человеческого и ИИ-перевода.

Ключевые слова: *иллюстрированная книга, иконотекст, взаимосвязь текста и изображения, перевод детской литературы, диалогическая теория перевода, культурная адаптация, перевод с использованием искусственного интеллекта, мультимодальность.*

Abstract. *This article examines the linguistic and semiotic characteristics of the picturebook genre, focusing on the complex relationship between verbal and visual elements and on major theoretical approaches to the translation of children's literature. The study conceptualizes the picturebook as an independent artistic and communicative phenomenon based on the equal semiotic interaction of text and image rather than as merely illustrated literature. It draws on Nikolajeva and Scott's classification of text–image relationships, including symmetry, complementarity, and counterpoint, as well as Nodelman's concept of image diminution, Sipe's notion of synergy, and Hallberg's concept of the iconotext. The methodological framework incorporates Riitta Oittinen's dialogic and performative approach and Göte Klingberg's concept of cultural adaptation, supplemented by the perspectives of Lathey, O'Sullivan, Shavit, and Purtinen. The phonostylistic and rhythmic features of picturebook texts are also considered in relation to children's cognitive development and psycholinguistic factors. Furthermore, multimodality theory is employed to examine emerging semiotic layers in contemporary digital picturebooks. The article's theoretical contribution lies in connecting traditional translation theories with the evaluation of artificial intelligence (AI)-generated translations. A four-level analytical model—comprising semantic-linguistic equivalence, rhythmic-phonetic correspondence, iconic coherence, and cultural-didactic adaptation—is proposed as a unified framework for the comparative assessment of human and AI translations.*

Key words: *picturebook, iconotext, text–image relationship, children's literature translation, dialogic translation theory, cultural adaptation, artificial intelligence translation, multimodality.*

Kirish. Suratli kitob (inglizcha — picturebook) bolalar adabiyotining alohida, o'ziga xos badiiy-kommunikativ turi bo'lib, unda badiiy asarning g'oyaviy-estetik mazmuni ikki mustaqil, ammo bir-biri bilan uzviy bog'liq semiotik tizim — verbal matn va vizual tasvir — vositasida yuzaga chiqadi. Oddiy illyustrativ adabiyotdan farqli o'laroq, suratli kitobda tasvir matnni shunchaki bezash yoki izohlash vositasi emas, balki mustaqil ma'no yaratuvchi komponent hisoblanadi [8]. Shu bois zamonaviy bolalar adabiyotshunosligida suratli kitob alohida janr sifatida emas, balki o'ziga xos semiotik butunlik sifatida talqin qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi shunda ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunosligi va tarjimashunosligida suratli kitoblarning lingvistik-uslubiy xususiyatlarini alohida tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish, ayniqsa ularni sun’iy intellekt tarjima tizimlari kontekstida tahlil qilish masalasi hali kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Maqolaning maqsadi — suratli kitob janrining lingvistik-semiotik tabiatini yorituvchi yetakchi xalqaro nazariyalarni tizimlashtirish va ularni bolalar adabiyoti tarjimasi, jumladan SI tarjimasi sifatini baholash uchun yagona metodologik asos sifatida taqdim etishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. *Suratli kitob janrining tarixiy-nazariy shakllanishi*

Suratli kitob janrining ilmiy tushuncha sifatida shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Dastlabki bosqichda suratli kitob oddiy “rasmlangan matn” sifatida qaralib, tasvir ikkinchi darajali unsur hisoblangan, biroq XX asrning 70–80-yillaridan boshlab tadqiqotchilar suratli kitobni mustaqil semiotik tizim sifatida talqin qila boshladilar. Amerikalik olima B.Beyder suratli kitobni matn, tasvir va dizaynning o‘zaro ta’sirida yuzaga keladigan san’at turi sifatida ta’riflab, uning bir vaqtning o‘zida tijorat mahsuloti, ijtimoiy-madaniy hujjat va grafik san’at ekanligini ko‘rsatgan [8]. U.Mebius o‘zining “suratli kitob grammatikasi” konsepsiyasida sahifa kompozitsiyasi, ranglar, chegaralar va sahifa burilishi kabi vizual vositalarning har biri o‘ziga xos “grammatik” funksiya bajarishini asoslab bergan [9]. Bunday yondashuv suratli kitobni tarjima qilishda nafaqat so‘zlarni, balki vizual joylashuv va kompozitsion ritmni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Matn va tasvir o‘rtasidagi semiotik munosabat. Suratli kitobning semiotik tabiati matn va tasvir o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tizimida namoyon bo‘ladi. M.Nikolajeva va C.Skott matn-tasvir bog‘liqligining uch asosiy turini — simmetriya, to‘ldiruvchanlik va kontrapunkt (ziddiyat) — ajratib ko‘rsatgan bo‘lib, bu tasnif hozirgi kunga qadar suratli kitoblarni semiotik tahlil qilishning eng keng qo‘llaniladigan modeli bo‘lib qolmoqda [3]. P.Nodelman esa tasvirning tabiatan ko‘p ma’noli (polisemantik) ekanligini, matn esa aynan shu ko‘p ma’nolilikni “kamaytirib”, tasvirni ma’lum yo‘nalishda talqin qilishga undashini ta’kidlaydi [4]. L.Sayp bu munosabatni “sinergiya” tushunchasi orqali izohlab, umumiy badiiy ma’no na sof matnga, na sof tasvirga tenglashmasligini, balki ular orasidagi “bo‘shliqda” tug‘ilishini ko‘rsatgan [5]. J.Shvarts esa matn-tasvir munosabatini “kongruentlik” va “kontrastlik” o‘lchamlari asosida tavsiflagan [6].

Ushbu semiotik bog‘liqlikni ifodalash uchun shved adabiyotshunosi K.Xallberg “ikonik matn” (iconotext) tushunchasini muomalaga kiritgan, uni keyinchalik Nikolajeva va Skott yanada rivojlantirishgan [7; 3]. Ikonik matn nazariyasiga ko‘ra, suratli kitobda so‘z va rasm yagona, bo‘linmas badiiy butunlik sifatida idrok etiladi. Bu yondashuv J.Jenettning “paratekst” konsepsiyasi [10] hamda B.Kümmerling-Meibauerning peritekst elementlari (muqova, forzats) bo‘yicha tadqiqotlari [11] bilan ham uyg‘unlashadi. Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan bu shuni anglatadiki, agar tarjima natijasida matn tasvirga zid mazmun kasb etsa, “ikonik uzilish” yuzaga keladi — bu esa matnga asoslangan AI tarjima tizimlari uchun jiddiy muammo tug‘diradi, chunki bunday tizimlar odatda tasvirni “ko‘rmaydi”.

Riitta Oittinenning dialogik-tarjima nazariyasi. Bolalar adabiyoti tarjimashunosligining shakllanishida fin tarjimashunosi R.Oittinenning qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, bolalar uchun tarjima passiv matn almashtirish emas, balki tarjimon, muallif, rassom va o‘quvchi o‘rtasidagi dialogik jarayon hisoblanadi [1]. Oittinen tarjimonni matnning yashirin “o‘qish ovozi”ni hisobga olishga va tasvirni mustaqil “tarjima qilinishi kerak bo‘lgan matn” sifatida ko‘rishga chaqiradi. Uning nazariyasi M.Baxtinning dialogik falsafasi ta’sirida shakllangan bo‘lib, tarjimonni hech qachon “ko‘rinmas vositachi” bo‘la olmasligini, balki o‘zining “bola obrazi”ga tayanib matnni qayta talqin qilishini ko‘rsatadi [1]. Oittinenning “tasvirni o‘qish” tushunchasi tarjimondan professional o‘quvchi sifatida ranglar, kompozitsiya va harakatlarni tahlil qilishni talab etadi.

Göte Klingbergning madaniy moslashtirish konsepsiyasi. Shved tarjimashunosi G.Klingbergning nazariy merosi bolalar adabiyoti tarjimasida madaniy moslashtirish muammosiga qaratilgan. U “manba matnga yo‘naltirilganlik” va “maqsad auditoriyaga yo‘naltirilganlik” strategiyalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib, izohlash, generalizatsiya, muqobil topish, qiymat o‘zgartirish va tushirib qoldirish kabi aniq moslashtirish usullarini tasniflagan [2]. Klingberg bolalar adabiyoti tarjimonini nafaqat tilshunos, balki bolalar psixologiyasidan xabardor mutaxassis sifatida

ham ko‘radi, bu esa milliy tarbiya me’yorlarini hisobga olish zarur bo‘lgan o‘zbek konteksti uchun alohida ahamiyatga ega.

Boshqa muhim nazariy yondashuvlar. G.Lati tarjimonning an’anaviy “ko‘rinmaslik” tasavvurini tanqid qilib, uning ijodiy, “hammuallif” maqomini asoslab bergan [12]. E.O‘Sallivan bolalar adabiyoti tarjimasini “ambivalent auditoriya” tushunchasi orqali izohlab, bola va kattalar talablarining ko‘pincha ziddiyatli bo‘lishini ko‘rsatgan [13]. Z.Shavit bolalar adabiyoti tarjimasini polisistema nazariyasi doirasida tahlil qilib, uning “periferik” mavqeini asoslagan [14], T.Purtinen esa “o‘qilishi osonlik” va “tabiiylik” mezonlarini korpus-lingvistik usullar yordamida empirik tekshirgan [15].

Kognitiv-psixologik va multimodal jihatlar. Suratli kitob janri Jan Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra bolaning konkret-obrazli idrok etish davriga mos ravishda shakllangan [16]: mavhum tushunchalar konkret vizual obrazlar orqali beriladi. K.Chukovskiy o‘zining “kichkintoylar uchun katta adabiyot” tamoyilida bolalar adabiyoti tiliga nisbatan yuksak badiiy talablar qo‘yilishi zarurligini asoslagan [18]. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan interaktiv elektron suratli kitoblar keng tarqalmoqda; G.Kress va T. van Levening ijtimoiy semiotika nazariyasiga asoslangan “multimodallik” tushunchasi bunday matnlarni til, tasvir, tovush va harakat modalliklarining uyg‘unlashuvi sifatida tahlil qilish imkonini beradi [17].

Sun’iy intellekt tarjima tizimlari kontekstida nazariy tatbiq. Yuqoridagi nazariyalar dastlab inson tarjimoni faoliyatini tavsiflash uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ularning tavsiflovchi-baholovchi apparati AI tarjima tizimlarini tahlil qilishga ham muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkin. Masalan, Oittinen mezonlari — ovozli ijro uchun ritmik muvofiqlik, tasvirga hissiy mos kelish — AI natijasini baholashda ham qo‘llanilishi mumkin, chunki oxir-oqibat bola aynan shu natijani idrok etadi [1]. Xuddi shunday, Klingbergning moslashtirish strategiyalari tasnifi AI chiqishlarida qaysi strategiya qo‘llanilganini aniqlash uchun “tavsiflovchi” vosita bo‘lib xizmat qiladi [2]. Biroq bu nazariyalarning tushuntiruvchi qismi — nima uchun aynan shunday qaror qabul qilinganini izohlovchi qismi — AI tizimlari uchun texnologik jihatdan qayta ko‘rib chiqilishi zarur, chunki AI “xatti-harakati” ongli niyat emas, balki o‘qitish ma’lumotlari va algoritmik parametrlar bilan belgilanadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, suratli kitob janrining lingvistik-semiotik tabiati fonostilistik-ritmik, sintaktik-leksik, semiotik-ikonik, kognitiv-psixologik va madaniy-didaktik qatlamlarning o‘zaro chambarchas bog‘liqligidan iborat yaxlit tizimni tashkil etadi. R.Oittinen [1] va G.Klingberg [2] singari olimlarning fundamental ishlari, shuningdek Nikolajeva va Skott [3], Nodelman [4], Sayp [5], Xallberg [7] kabi tadqiqotchilarning semiotik-strukturaviy yondashuvlari ushbu tizimni tushunish uchun zaruriy ilmiy-metodologik asos yaratadi. Tahlil natijasida semantik-lingvistik ekvivalentlik, ritmik-fonetik muvofiqlik, ikonik muvofiqlik va madaniy-didaktik moslashtirishdan iborat to‘rt bosqichli baholash modeli taklif etildi. Ushbu model nafaqat inson tarjimoni, balki sun’iy intellekt tarjima tizimlari tomonidan yaratilgan tarjimalarni ham baholash imkonini beradi, bu esa ikki turdagi tarjimani qiyosiy tahlil qilish uchun yagona metodologik asosni ta’minlaydi. Xalqaro tarjimashunoslikda to‘plangan boy nazariy meros o‘zbek tilshunosligi kontekstida, xususan, sun’iy intellekt tarjima texnologiyalari nuqtayi nazaridan hali tizimli tarzda o‘zlashtirilmagan bo‘lib, mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan. Keyingi tadqiqotlarda ushbu nazariy model o‘zbek tilidagi amaliy suratli kitob korpusi asosida eksperimental tarzda sinovdan o‘tkazilishi ko‘zda tutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Oittinen R. Translating for Children. — New York: Garland Publishing, 2000.

2. Klingberg G. Children’s Fiction in the Hands of the Translators. — Lund: CWK Gleerup, 1986.

3. Nikolajeva M., Scott C. How Picturebooks Work. — New York: Routledge, 2001.

4. Nodelman P. Words About Pictures: The Narrative Art of Children’s Picture Books. — Athens: University of Georgia Press, 1988.

5. Sipe L. R. How Picture Books Work: A Semiotically Framed Theory of Text-Picture Relationships // Children’s Literature in Education. — 1998. — Vol. 29, No. 2. — P. 97–108.

6. Schwarcz J. H. Ways of the Illustrator: Visual Communication in Children’s Literature. — Chicago: American Library Association, 1982.

7. Hallberg K. Litteraturvetenskapen och bilderboksforskningen // Tidskrift för litteraturvetenskap. — 1982. — No. 3–4. — P. 163–168.
8. Bader B. American Picturebooks from Noah's Ark to the Beast Within. — New York: Macmillan, 1976.
9. Moebius W. Introduction to Picturebook Codes // Word & Image. — 1986. — Vol. 2, No. 2. — P. 141–158.
10. Genette G. Paratexts: Thresholds of Interpretation. — Cambridge: Cambridge University Press, 1997.
11. Kümmerling-Meibauer B. Emergent Literacy and Early Childhood Education: Picturebooks and the Question of Complexity. — New York: Routledge, 2015.
12. Lathey G. The Role of Translators in Children's Literature: Invisible Storytellers. — New York: Routledge, 2010.
13. O'Sullivan E. Comparative Children's Literature. — London: Routledge, 2005.
14. Shavit Z. Poetics of Children's Literature. — Athens: University of Georgia Press, 1986.
15. Puurtinen T. Linguistic Acceptability in Translated Children's Literature. — Joensuu: University of Joensuu, 1995.
16. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. — New York: International Universities Press, 1952.
17. Kress G., van Leeuwen T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. — London: Routledge, 1996.
18. Chukovskiy K. I. Ot dvux do pyati (Ikkidan beshgacha). — Moskva: Detgiz, 1933.

UO'K 811.512.133'373

SUV ARXISEMALI BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK PARADIGMASI

Haydarova U., PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek, ingliz va yapon tillaridagi suv arxisemali birliklarning leksik-semantik paradigmasi uch tomonlama chog'ishtirma va komponentli tahlil asosida o'rganilgan. Unda suv leksemasining struktura-semantik ko'rinishlari, suv havzalari hamda ob-havo hodisalarini ifodalovchi birliklarning umumiy va differensial semalari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *suv arxisemasi, leksik-semantik paradigma, chog'ishtirma tilshunoslik, komponent tahlil, semantik xususiyatlar, o'zbek tili, ingliz tili, yapon tili.*

Аннотация. *В данной статье на основе трехстороннего сопоставительного и компонентного анализа исследуется лексико-семантическая парадигма единиц с архисемой «вода» в узбекском, английском и японском языках. В ней раскрываются структурно-семантические особенности лексемы «вода», а также общие и дифференциальные семы единиц, обозначающих водоемы и атмосферные явления.*

Ключевые слова: *архисема воды, лексико-семантическая парадигма, сопоставительное языкознание, компонентный анализ, семантические особенности, узбекский язык, английский язык, японский язык.*

Abstract. *This article examines the lexical-semantic paradigm of water-archisemic units in Uzbek, English, and Japanese based on a three-way comparative and componential analysis. It reveals the structural-semantic features of the water lexeme, as well as the common and differential semes of units representing water bodies and weather phenomena.*

Keywords: *water archiseme, lexical-semantic paradigm, contrastive linguistics, componential analysis, semantic features, Uzbek language, English language, Japanese language.*

Kirish. Bugungi zamonaviy tilshunoslikda lisoniy birliklarni tizimli va paradigmatik tahlil etish yetakchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. "Paradigma" tushunchasi fan falsafasida "masalani hamda uning yechimini ifodalovchi ilmiy yutuqlar" ma'nosida, tilshunoslikda esa qiymat jihatdan bir xil bo'lgan til birliklarining o'zaro assotsiativ munosabatini va ularning umumiy belgilari asosida guruhlanishini ifodalash uchun keng tatbiq etildi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi o'zbek, ingliz va yapon tillaridagi suv va unga daxldor bo'lgan konseptual/arxisemali birliklarning leksik-semantik va struktura-semantik paradigmalarini ilk bor uch tomonlama chog'ishtirma va komponentli tahlil doirasida ochib berilganligidir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – o'zbek, ingliz va yapon tillarida suv arxisemali birliklarning sodda, qo'shma va ko'chma ma'nodagi lisoniy ko'rinishlarini, shuningdek, suv havzalari, yog'in-sochin va boshqa suyuqliklar paradigmalaridagi semantik umumiylik va farqlarni aniqlash hamda ilmiy va amaliy xulosalar berishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Leksik-semantik paradigma tushunchasi va lisoniy birliklarning paradigmatik munosabatlari F. de Sossyur va uning izdoshlari tomonidan chuqur o‘rganilgan. “Oksford adabiy terminlarining qisqacha lug‘ati” hamda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (O‘TIL) kabi manbalarda paradigma bir xil grammatik va ma’noviy funksiyaga ega, lisoniy struktura doirasida almashtirilishi mumkin bo‘lgan birliklar tizimi sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek tilshunosligida F. Qosimova leksik paradigma tushunchasiga “muayyan ma’no asosida birikkan lug‘aviy birliklar guruhi” deb ta’rif beradi. Suv va unga oid birliklarning tarixiy-etimologik hamda leksikografik xususiyatlari Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otut turk”, “Pahlavi-English Dictionary” (PDP), “Dictionary of Turkic Languages” (DC) kabi manbalarda hamda zamonaviy ingliz (OED) va yapon (NKJ) izohli lug‘atlarida keng aks etgan. Biroq, ushbu birliklarning o‘zbek, ingliz va yapon tillari kesimida parallel ravishda kompleks chog‘ishtirma va paradigmatik tahlili yetarlicha yoritilmagan bo‘lib, mazkur bo‘shliqni to‘ldirish ushbu tadqiqot zaruratini belgilaydi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotning ma’lumotlar manbasi sifatida o‘zbek tilining izohli lug‘ati (O‘TIL), ingliz tilining Oksford etimologik va izohli lug‘atlari (OED), yapon tilining "Nihon Kokugo Daijiten" (NKJ) lug‘ati va ilmiy-adabiy matnlardan olingan misollar xizmat qildi.

Tadqiqotda chog‘ishtirma-qiyosiy tahlil, komponent tahlil (semantik destruksiya) va metaforik-semantik guruhlash metodlaridan foydalanildi. Berilgan birliklarning o‘z, ko‘chma, figurativ hamda frazeologik ma’nolari ajratilib, ularning semantik tarkibi arxisema, integral va differensial semalarga ajratilgan holda qiyoslandi.

Natijalar. Tahlillar natijasida suv arxisemali birliklar bir nechta aniq leksik-semantik paradigmaga ajratilishi aniqlandi.

4.1 Suv leksemasi va uning struktur-semantik ko‘rinishi

Etimologik va leksik tahlil: O‘zbek tilida suv (qadimgi turkiyda sub, suw), ingliz tilida water (qadimgi inglizcha wæter, proto-hind-yevropa *wódr̥), yapon tilida 水 (mizu) birliklari kimyoviy birikma (H2O) hamda hayotiy zarur suyuqlik semasini umumiy tarzda ifodalaydi.

Strukturaviy imkoniyatlar: Qo‘shma so‘z yasash unumdorligi bo‘yicha yapon tili (150 dan ortiq qo‘shma so‘z: 水圧 - suv bosimi, 水運 - suv transporti va b.) va ingliz tili (52 ta qo‘shma so‘z: waterway, waterspout, watertight va b.) yuqori ko‘rsatkichni ko‘rsatdi. O‘zbek tilida esa suvilon, suvchechak kabi qo‘shma so‘zlar mavjud.

Jadval 1. Suv so‘zining strukturasi va semalari

Xususiyatlari	Suv	Water	水(mizu)
Sodda	+	+	+
Qo‘shma	+	+	+
Maza-ta’m	+		
Obi hayot	+		
Poklovchi		+	
Qalb va ruh ta’minotchisi			+
G‘ayrat suvi		+	+
Oshqozon, tizza suvi	+		+
Water break (suv tanaffusi)			+

1.2 Suv havzalari paradigmasi (dengiz, okean, buloq, daryo)

Suv havzalarini ifodalovchi birliklar tarkibida daryo / river / 川 (kawa) chog‘ishtirilganda:

• Umumiy sema: “Katta oquvchi suv havzasi”.

• Integral sema: O‘zbek va ingliz tillarida “ko‘p / ko‘p miqdor” semasi.

• Differensial sema: Ingliz tilida “sayohat qiluvchi”, yapon va o‘zbek tilida “hayot oqimi”, “xayol daryosi” kabi ko‘chma semalar mavjud.

4.3 Yomg‘ir, qor, shabnam va muz kabi suv bilan bog‘liq birliklar paradigmasi

Ob-havo hodisasi semasi: Yomg‘ir/rain/雨, qor/snow/雪, muz/ice/氷, shabnam/dew/露 birliklari barcha tillarda fizik holat va ob-havo hodisasini ifodalaydi.

Rang va belgi semasi: Qor va muz barcha tillarda "oppoqlik", "shaffoflik", "sovuqlik" (masalan, o‘zbekcha muzyurak, yaponcha 氷心 — muzdek toza qalb) belgilarini ko‘chma ma’nolarda namoyon etadi.

Ko‘zyosh va may paradigmasi: Ko‘zyosh hissiyot va qayg‘u mahsuli sifatida uchala tilda ham emotsional-ekspressiv semalarga boy. May/vino esa har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatidan kelib chiqib, o‘ziga xos spirtli ichimlik va lisoniy obrazlilik semalarini tashkil etadi.

Xulosa. Ob-havo va tabiiy suv havzalari (daryo, ko‘l, okean)ning birlamchi, denotativ ma’nolari uchala tilda bir xil fizik va geografik tushunchalarni aks ettirgani holda, ularning ko‘chma (konnotativ), iboralar va idiomalar tarkibidagi ma’nolari sezilarli darajada farqlanadi. Masalan, o‘zbek tilida suvning "shira, sharbat, maza" semalari rivojlangan bo‘lsa, ingliz tilida suv ko‘proq "diniy poklanish", "ruhiy ta’minot" (spiritual refreshment) hamda xavf-xatar (come hell or high water) obrazlari bilan bog‘lanadi. Yapon tilida esa sport va milliy urf-odatlar doirasida "suv tanaffusi", "tizzada suv to‘planishi" va "quvvat suvi" (力水) kabi spetsifik semantik xususiyatlar ustuvorlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Madvaliyev, A. (Tahr.). (2006-2008). O‘zbek tilining izohli lug‘ati (1-5-jildlar). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

2. Qosimova, F. (2020). O‘zbek tilida leksik-semantik paradigmalar va ularning tahlili. Fan va texnologiya. Oxford University Press. (2023). Oxford English Dictionary (OED Online). Oxford University Press. Shogakukan. (2002). Nihon Kokugo Daijiten (NKJ, 2nd ed.). Shogakukan.

UO‘K 81’255.4:004.8

SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA BADIIY TARJIMA: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDAGI IMKONIYAT VA CHEGARALAR

Sh.E.Hayitova, o‘qituvchi, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqola sun’iy intellekt davrida badiiy tarjimaning ingliz va o‘zbek tillari kesimidagi imkoniyatlari hamda chegaralarini tizimli tahlil qiladi. Tadqiqot maqsadi mashina tarjimasi va yirik til modellari vositasida yaratilgan tarjimalarda badiiylik, uslub, milliy kolorit va pragmatik ekvivalentlikning qanday o‘zgarishini aniqlashdan iborat. Metodologiya sifatida qiyosiy stilistika, korpusga asoslangan tahlil, tarjima xatolari tipologiyasi va ekspert baholash usuli qo‘llanildi; material sifatida zamonaviy ingliz nasri hamda uning o‘zbekcha tarjimalaridan tuzilgan kichik korpus hamda sun’iy intellekt orqali olingan muqobil variantlar tanlandi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima; sun’iy intellekt; yirik til modellari; ingliz-o‘zbek tarjima; uslubiy ekvivalentlik; metafora; realiyalar.*

Аннотация. *В статье системно анализируются возможности и пределы художественного перевода в эпоху искусственного интеллекта на материале английского и узбекского языков. Цель исследования состоит в выявлении того, как машинный перевод и большие языковые модели изменяют художественность, стиль, национальный колорит и прагматическую эквивалентность переводного текста. В качестве методологии применены сравнительная стилистика, корпусно-ориентированный анализ, типология переводческих ошибок и экспертная оценка; материалом послужил малый корпус современной английской прозы и ее узбекских переводов, а также альтернативные версии, полученные с использованием искусственного интеллекта.*

Ключевые слова: *художественный перевод; искусственный интеллект; большие языковые модели; англо-узбекский перевод; стилистическая эквивалентность; метафора; реалии.*

Abstract. *This article provides a systematic analysis of the opportunities and limitations of literary translation in the age of artificial intelligence, using English and Uzbek as a language pair. The study aims to determine how machine translation and large language models affect literariness, style, national coloring, and pragmatic equivalence in translated texts. The methodology combines comparative stylistics, corpus-based analysis, translation error typology, and expert assessment; the*

dataset includes a small corpus of contemporary English prose with published Uzbek translations, alongside AI-generated alternative versions.

Key words: *literary translation; artificial intelligence; large language models; English-Uzbek translation; stylistic equivalence; metaphor; realia.*

Sun'iy intellekt davrida badiiy tarjima deganda adabiy matnni bir tildan ikkinchisiga ko'chirish jarayonida neyron mashina tarjimasi va yirik til modellari kabi algoritmik vositalar faol ishtirok etadigan, natijada tarjimonning ijodiy qarorlar tizimi qayta taqsimlanadigan amaliyot tushuniladi. Ushbu hodisaning mexanizmi shundan iboratki, model ehtimollik asosida keyingi birlikni bashorat qilib, sintaksis va leksik moslikni tez hosil qiladi, biroq badiiy matnning polifonik semantikasi, ovoz va ritm kabi qatlamlarini ko'pincha soddalashtirishga moyil bo'ladi.

Tadqiqot materiali sifatida zamonaviy ingliz nasridan tanlangan qisqa proza parchalari hamda ularning nashr etilgan o'zbekcha tarjimalari, shuningdek, ayni parchalarning sun'iy intellekt asosidagi generativ tarjima variantlari jalb qilindi. Material tanlash mexanizmi badiiy registrlar xilma-xilligini qamrab olishga qaratildi: dialog, ichki monolog, tasviriy parcha va madaniy realiyalarga boy segmentlar alohida ajratildi, chunki AI xatolari ko'pincha aynan shu zonalarda to'planadi. Metodologiya qiyosiy stilistika va tarjima xatolari tipologiyasini korpusga asoslangan ko'rsatkichlar bilan integratsiyalashga tayanadi. Bu integratsiyaning mexanizmi shuki, avval inson tarjimasi va AI tarjimasi parallel o'qiladi, so'ng farqlar "leksik tanlov", "sintaktik qurilish", "metafora va obraz", "realiya va madaniy signal", "ovoz va fokalizatsiya" kabi bloklarga ajratiladi, keyin esa har blok bo'yicha ball tizimi qo'llanadi. Baholashda 1 dan 5 gacha bo'lgan Likert shkalasi va "kritik xato" belgilari ishlatildi [1].

Natijalar sun'iy intellekt asosidagi tarjimalar ingliz-o'zbek juftligida birinchi navbatda leksik silliqlik va grammatik to'g'rilik bo'yicha kuchli ekanini ko'rsatdi. Kuzatuv jadvalidagi umumiy ballarda "grammatika va moslik" bo'yicha AI o'rtacha 4,4 ball, inson tarjimasi 4,6 ball ko'rsatdi, farq kichik bo'lsa-da, AIning barqarorligi yuqori ekani sezildi.

Metafora va obraz transferi bo'yicha natijalar nisbatan notekis bo'lib, AI tarjimalarida semantik saqlash ko'pincha mavjud, ammo poetik ta'sir va konnotativ rang-baranglik pasayishi aniqlangan. Hisob-kitoblarga ko'ra, metafora holatlarining taxminan 60 foizida AI "saqlangan yoki qisman saqlangan" toifasiga tushgan, 25 foizida "neytrallashtirilgan", 15 foizida esa "noto'g'ri talqin" kuzatilgan [2].

1-jadval.

Tarjima xatolari va ularning AI hamda inson tarjimasidagi ulushi

Xato turi	Izoh	Inson (%)	AI (%)	O'zgarish (%)
Metafora noto'g'ri uzatish	Metafora mazmunining yo'qolishi	12	25	+13
Uslubiy nomuvofiqlik	Muallif uslubiningg tekislanishi	10	30	+20
Realiyalarning noto'g'ri kodlanishi	Madaniy elementlarning soddalashtirilishi	8	22	+14
Sintaktik to'ldirishlar	Dialoglarda sun'iy uzunlik kiritilishi	5	18	+13
Pragmatik aniqlik yetishmasligi	Gap ohangining yo'qolishi	7	20	+13

Realiyalar tarjimasida nomlarni tanish oson bo'lsa-da, realiya o'quvchi uchun qanday semantik signal berishini aniqlash kontekstual bilishni talab qiladi. Masalan, ingliz matnidagi "pub" realiyasi kontekstga qarab "pab", "mayxona" yoki "bar" bo'lishi mumkin; AI ko'pincha yagona standartni tanlaydi. Realiyalar bo'yicha "strategiya mosligi" indikatorida AI o'rtacha 3,2 ball, inson tarjimasi 4,1 ball ko'rsatdi.

Ingliz tilidagi o'ta qisqa, ellipsisli dialoglarni o'zbekchaga o'girishda AI ko'pincha sintaktik "to'ldirish" kiritib, qahramonning xarakterini belgilovchi sukut va uzilish effektini kamaytiradi. AI variantlarida gap uzunligining o'rtacha 10–15 foizga ortishi qayd etildi [3].

2-jadval

AI tarjimasida gap uzunligi o'zgarishi dinamikasi (2019–2024)

Ko'rsatkich / Yil	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
AI tarjimasi gap uzunligi o'sishi (%)	5%	7%	9%	12%	14%	15%
Inson tahriri bilan gap uzunligi o'sishi (%)	2%	3%	4%	6%	7%	8%
Farq (Tafovut)	+3%	+4%	+5%	+6%	+7%	+7%

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt badiiy tarjimada “tashqi shakl”ning me’yoriyligini tez va barqaror ta’minlay oladi, biroq “muallif ovozi” va “madaniy semantika” kabi chuqur qatlamlarda sistematik tekislanish xavfi mavjud. O‘zbek tilida hurmat, bilvositalik va affektiv bo‘yoq ko‘pincha morfosintaktik vositalar bilan beriladi. AI ko‘pincha aynan shu qayta qurishni soddalashtiradi. Qiyosiy jihatdan, AI ko‘pincha domestikatsiyaga yaqin, chunki u o‘quvchiga “silliq” matn beradi, lekin muallifning begonalashtiruvchi (foreignization) strategiyasini pasaytiradi.

Amaliy ahamiyat nuqtai nazaridan, gibrid tarjimonlik modeli eng maqbul yechim sifatida ko‘rinadi, ya’ni AI dastlabki qo‘pol variantni beradi, inson tarjimon esa ovoz, metafora, realiya va pragmatik qatlamlarni ongli ravishda qayta quradi.

Gibrid ish oqimi tuzilmasi:

1-bosqich: AI yordamida dastlabki variant → Grammatik jihatdan to‘g‘ri va leksik ravon asosni tezkor shakllantirish.

2-bosqich: Inson tomonidan badiiy tahrir → a) grammatik-terminologik nazorat; b) poetik tahrir (ritm, registr, metafora va realiyalarni qayta tiklash).

Dastlabki variantni AI berganda, inson resursi ko‘proq “ijodiy tahrir”ga sarflanadi, bu esa ayniqsa ko‘p jildli loyihalarda umumiy muddatni keskin qisqartiradi [4].

Tadqiqot ingliz va o‘zbek tillari misolida sun’iy intellekt asosidagi badiiy tarjima imkoniyatlari va mezonlarini belgiladi. Natijalar AI tarjimalari grammatik ravonlikda barqaror yutuq berishini, biroq muallif ovozi, registr sadoqati, metafora ta’siri va realiyalarda sistematik tekislanish xavfi mavjudligini ko‘rsatdi. Gibrid tarjimonlik modeli AIning tezkor variant yaratish quvvatini inson tarjimonning poetik va madaniy mediatsiya kompetensiyasi bilan birlashtirish orqali samaradorlik va sifat o‘rtasida muvozanat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nida E. A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden: E. J. Brill, 1964. – 331 p.

2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 2nd ed. – London: Routledge, 2011. – 332 p.

3. Kenny D. Lexis and Creativity in Translation: A Corpus-based Study. Manchester: St. Jerome Publishing, 2001. 242 p.

4. Koehn P. Neural Machine Translation. –Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 351 p.

5. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 256 b.

6. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – Москва: Высшая школа, 1990. – 253 с.

7. Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. 2nd ed. – London: Routledge, 2008. – 336 p.

UDC 811.111’42:82-2

THE LINGUISTIC AND PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF INTERPERSONAL COMMUNICATION IN ENGLISH DRAMA

Ibragimova D. Sh., PhD in Pedagogical Sciences, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz dramasida shaxslararo muloqotning lingvistik va pragmatik xususiyatlari yoritilgan. Nutq akti nazariyasi, Grays hamkorlik prinsipi, muloyimlik va nomuloyimlik nazariyalari asosida drama dialogining tuzilishi, murojaat shakllari, implikatura hamda yuz (face) bilan bog‘liq strategiyalar tahlil qilingan. O‘. Shekspir, O. Uayld va G. Pinter asarlaridan olingan misollar asosida drama muloqotining ikki qatlamli tabiati va uning o‘quvchi hamda tomoshabinga ta’siri ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ingliz dramasi, shaxslararo muloqot, nutq akti, implikatura, muloyimlik, drama dialogi, pragmatika.*

Аннотация. *В статье рассматриваются лингвистические и прагматические особенности межличностной коммуникации в английской драме. На основе теории речевых актов, принципа кооперации Грайса, теорий вежливости и невежливости анализируются структура драматического диалога, формы обращения, импликатуры и стратегии сохранения лица. На примерах произведений У. Шекспира, О. Уайльда и Г. Пинтера показан двойной характер драматической коммуникации.*

Ключевые слова: *английская драма, межличностная коммуникация, речевой акт, импликатура, вежливость, драматический диалог, прагматика.*

Abstract. *This article examines the linguistic and pragmatic characteristics of interpersonal communication in English drama. Drawing on speech act theory, Grice's cooperative principle and politeness and impoliteness theories, it analyses the structure of dramatic dialogue, address terms, implicature and face-related strategies. Examples from the plays of W. Shakespeare, O. Wilde and H. Pinter illustrate the double-layered nature of dramatic communication and its effect on readers and audiences.*

Keywords: *English drama, interpersonal communication, speech act, implicature, politeness, dramatic dialogue, pragmatics.*

Introduction

Drama is a literary genre that exists almost entirely through direct speech. Unlike prose, where a narrator mediates between the characters and the reader, a play presents characters who communicate with one another in a seemingly spontaneous manner. Interpersonal communication in drama is not a simple imitation of everyday conversation: it is a carefully designed artistic discourse in which every utterance performs several functions at once, revealing the speaker's character, shaping relationships between the characters and guiding the audience's interpretation [5].

The aim of this article is to identify the main linguistic and pragmatic characteristics of interpersonal communication in English drama and to demonstrate them through the analysis of selected passages from Shakespeare's Hamlet, Wilde's The Importance of Being Earnest and Pinter's The Birthday Party. The study relies on descriptive, discourse-analytical and pragmatic methods.

Theoretical background

The pragmatic study of drama builds on several well-established theories. J.L. Austin showed that utterances do not merely describe the world but perform actions, and he distinguished the locutionary, illocutionary and perlocutionary levels of a speech act [1]. J.R. Searle systematised this approach and classified illocutionary acts into assertives, directives, commissives, expressives and declarations [2]. In a play, such acts are the basic units through which characters influence one another: a command, a promise or an accusation changes the situation on stage.

H.P. Grice's cooperative principle and its maxims of quantity, quality, relation and manner explain how speakers communicate more than they literally say [3, pp. 45–46]. When a character openly violates or flouts a maxim, the listener is invited to infer an implicature. This mechanism is especially productive in drama, where irony, evasion and hidden hostility are conveyed indirectly. P. Brown and S. Levinson interpret politeness as a set of strategies for protecting the interlocutors' positive and negative face, and they describe how face-threatening acts may be performed on record, off record or with redressive action [4]. J. Culpeper complements this view by describing impoliteness as the deliberate use of language to attack face and cause offence [6].

Linguistic characteristics of dramatic dialogue

At the linguistic level, interpersonal communication in English drama is distinguished by several features. First, dialogue is organised in turns, and the distribution, length and sequence of turns reflect the power relations between the participants. A character who interrupts, finishes the other's sentences or asks the majority of questions usually dominates the interaction. Second, dramatic speech makes extensive use of ellipsis, repetition, short exclamatory structures and syntactic parallelism, which imitate spoken language while remaining aesthetically patterned. Third, deictic expressions (I, you, here, now) and address terms (my lord, Mr. Worthing, sir) anchor the speech in a concrete situation and signal the social distance between the speakers.

A good illustration is the use of address terms in Hamlet. In the nunnery scene (Act 3, Scene 1) Ophelia consistently addresses the prince as "my lord," maintaining the deference required by their court hierarchy, while Hamlet's shifts between tenderness, sarcasm and the repeated directive "get thee to a nunnery" reveal his unstable emotional state.

Pragmatic characteristics of dramatic communication

Pragmatically, the most important feature of drama dialogue is its implicit character. Characters rarely state their intentions directly; instead, they rely on indirect speech acts and implicature. In the same scene, Hamlet first admits "I did love you once" and then asserts "I loved you not." These

contradictory statements flout the maxim of quality, and the audience is forced to infer that Hamlet is either testing Ophelia, protecting himself or acting out the madness he has chosen to display. The pragmatic meaning therefore lies not in the literal propositions but in the relationship between them.

Oscar Wilde's comedy offers a different example. When Jack Worthing reveals that he was found in a handbag, Lady Bracknell reacts with the single word "A handbag?" The elliptical form, the repetition of the noun and the questioning intonation turn the utterance into an expressive speech act of shock and disapproval. Formally she asks for information; in fact, she threatens Jack's positive face by declaring his origin socially unacceptable. In Harold Pinter's plays the pragmatic force of communication is concentrated in what is left unsaid. In The Birthday Party, Goldberg and McCann subject Stanley to a rapid sequence of questions which allow no time to answer. This is a clear case of what Culpeper describes as an impoliteness strategy aimed at attacking face and establishing dominance [6].

The results of the analysis are summarised in the following table.

Example	Linguistic feature	Pragmatic function
"A handbag?" (Lady Bracknell)	Elliptical one-word repeated question, marked intonation	Expressive act of disbelief; face-threatening act against the addressee
"…looks like carelessness" (Lady Bracknell)	Antithesis, ironic understatement	Off-record criticism under a polite surface
"my lord" / "I loved you not" (Hamlet–Ophelia)	Honorific address term; direct negation	Asymmetry of status; deliberate flouting of the maxim of Quality
Interrogation scene (Pinter)	Rapid-fire questions, interruptions	Dominance, conversational control, impoliteness
Pauses and silences (Pinter)	Absence of speech, fragmented syntax	Implicature of threat, tension and evasion

As the table shows, a single utterance in drama usually operates on several levels simultaneously: a syntactic form, a speech act and an implicature work together to characterise the speaker, regulate the relationship between the characters and affect the audience.

Politeness, power and context in dramatic interaction

Interpersonal relationships in drama are constantly negotiated through face-work. According to Brown and Levinson, the weightiness of a face-threatening act depends on the social distance between the participants, the relative power of the speaker and the hearer, and the degree of imposition [4]. These three variables are clearly visible in dramatic dialogue. In Hamlet, the prince can afford to address Ophelia bluntly because he is her social superior, while Ophelia must protect both her own face and his by using polite, mitigated responses.

Finally, the pragmatic analysis of drama has clear educational value. Working with plays helps students to notice how politeness, power and intention are encoded in language, to distinguish literal from implied meaning and to develop pragmatic competence in English. For this reason, dramatic texts can serve as authentic and engaging material in philological and language education.

Conclusion

The analysis shows that interpersonal communication in English drama is a complex artistic discourse in which linguistic form and pragmatic meaning are closely interrelated. Linguistically, it is characterised by turn organisation, ellipsis, repetition, deixis and carefully chosen address terms. Pragmatically, it relies on indirect speech acts, flouting of conversational maxims, politeness and impoliteness strategies, and the double structure of communication addressed to both characters and audience.

REFERENCES:

1. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.

2. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

3. Grice H.P. Logic and Conversation // Cole P., Morgan J. (eds.) Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – pp. 41–58.

4. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

5. Short M. Exploring the Language of Poems, Plays and Prose. – London: Longman, 1996.

6. Culpeper J. Impoliteness: Using Language to Cause Offence. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.

UO‘K 811.512.133’373:305

GENDEROLOGIK FARQLANUVCHI LEKSEMALAR

Ismoilova D. M., PhD, Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi, Farg‘ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gender lingvistikasi masalalari leksik sath birliklari asosida tahlil qilingan. Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi yuzasidan fikrlar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Gender, genderlekt, genderxabar kodlanishi, korpusfakt, mentifakt, naturfakt, artefakt.*

Аннотация. *В статье анализируются вопросы гендерной лингвистики на примере единиц лексического уровня. Высказываются мнения о номинативной дифференциации гендерных лексем.*

Ключевые слова: *Гендер, гендерлект, кодирование гендерного сообщения, корпусфакт, ментифакт, натурфакт, артефакт*

Abstract. *This article analyzes the issues of gender linguistics based on lexical level units. Opinions are expressed on the nominative differentiation of gender lexemes.*

Keywords: *Gender, genderlect, gender message encoding, corpusfact, mentifact, naturfact, artifact*

Kirish. Tilshunoslikning yangi sohalaridan biri hisoblangan lingvogenderologiya masalalariga bag‘ishlangan izlanishlarning aksariyatini tilning leksik sathiga oid tadqiqotlar tashkil qiladi. Shuning uchun ham mazkur ishda biz ham tilning leksik sathiga oid birliklarning genderologik xususiyatlari haqida o‘z mulohazalarimizni berishni lozim topdik, mazkur ishda boshqa tadqiqotlardan farqli tarzda gender masalalariga oid lug‘aviy birliklar nomlanishi masalalariga e’tibor qaratiladi. Ayni paytda genderoleksemalar ham borliqdagi narsa va hodisalarni nomlovchi birliklar sifatida erkak va ayollarga xos tushunchalarni farqlashda ishtirok etadi, turli jinsga mansub tushunchalarning nomi sifatida ularni differensiatsiyalash ham nazarda tutilgan muammo mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Tilning boshqa sathlariga nisbatan leksik sath birliklari yuzasidan tadqiqot olib borish birmuncha osondek tuyuladi. Biroq bu sathda ham genderoleksemalar tizimiga oid lug‘aviy birliklar bilan ishlash rejalashtirilgan tadqiqot mohiyatidan kelib chiqadi, bunda gender muammolari tadqiqiga nominativ nuqtayi nazardan yondashuv ishning mohiyatini aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, “gender erkak va ayollar madaniyatiga oid akkumulatsiyalangan tasavvurlardan iborat konvensional ideologik konstrukt sifatida tushuniladi” [1] va uning mohiyati tilning leksik birliklarida ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham har qanday ifoda shaklining mazmuni tilning leksik sistemasi bilan bog‘lanadi. Erkak va ayollar nutqiga xos tushunchalar nominatsiyasi ifoda shakli uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va shu madaniyatni ifodalovchi nomlar sifatida tahlilga tortiladi. Nimani nomlashidan qat’iy nazar nominativ birliklar o‘sha tilga mansub xalq yoki til egasi madaniyatini ifodalaydi, belgi sifatida esa genderoleksemalar ham u yoki bu ma’no orqali turlicha axborotlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu tildagi leksemalarda bo‘lgani singari frazeologizmlar, paremalar va hatto hikmatli so‘z va aforizmlarda ham ko‘zga tashlanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan leksema va boshqa ifoda vositalarining har biri nominativ xususiyatga ega bo‘lib, ular leksik, frazeologik va kontekstual nomlanishlar sifatida izohlanadi. Leksik va frazeologik xarakterdagi nomlar narsa va hodisani ma’lum bir xususiyatlar asosida atash uchun xizmat qilsa, matn yoki kontekstual nomlanishlar funksiyasini bajaruvchi birliklar ham shunday vazifa asosida ma’lum bir jarayon va voqeani nomlashga xizmat qiladi. Ularning mohiyati so‘z, ibora nominatsiyasiga oid ilmiy tushunchalar bilan mukammallashadi. Avvalo, genderoleksemalar terminiga izoh berish zarur. Muayyan til egasi yoki muayyan tilga mansub jamoa ongida so‘zlar va iboralar emik birlik sifatida mavjud bo‘ladi. Lisoniy sistemaga mansub genderoleksemalar ham inson xotirasida mavjud bo‘lib, ular ma’lum tamoyillar asosida ijtimoiy jinsning teng qiymatli korrelyativ qatorini tashkil qiladi. Lug‘aviy birliklar ham til hodisalari bo‘lganligi uchun ular kishilar xotirasida muntazam ravishda tilning nofaol qatlami sifatida mavjud bo‘ladi. Kommunikantlar lisoniy tizimga

oid nofaol genderoleksema ("leksogenderemalar") [2] lar fondidan muloqot jarayonida foydalanadilar. Natijada nofaol genderoleksema til sathidan nutq sathiga o'tadi hamda faol genderlekt so'zga aylanadi. Mazkur genderlekt termini sohaga oid maxsus lug'atlarda quyidagicha ta'riflanadi: "Genderlekt-xotin-qizlar yoki erkaklar nutqiga xos leksik, emotsional-ekspressiv, grammatik xususiyatlar..." [3] tushunchasini ifodalaydi. Bunday tipdagi genderoleksemalarga bevosita ayol va erkak jinsi tushunchalarini anglatuvchi so'zlar mansub bo'lib, ularning har biri yoshga, dinga, kasb va faoliyat turiga nisbatan genderoleksik paradigmani tashkil qiladi. Bunday genderoleksik paradigmalar dastlab tilshunoslikning onomastik tizimiga mansub birliklar sifatida o'rganiladi. Ular nominativ funksiya qoidalari asosida ma'lum sinflarga guruhlanadi. Buni lingvistik termin bilan ayol yoki erkak tushunchalarini ifodalovchi so'zlar guruhiga nisbatan genderolingvistik "mikromaydon" [4] deb aytish mumkin. Sohaga yo'naltirilgan ilmiy adabiyotlarda "Gender markirlangan nominatsiyaning leksik-semantik tizimi guruhiga sotsiofaktlar, korpusfaktlar, mentifaktlar nomlari kiritiladi, ular bevosita nomlanish guruhi hisoblanib, o'zida gender xabarlar kodlanish tipiga oid nomlanishni ifodalashga xizmat qiladi. Bu guruh tarkibi naturfakt va artefaktlar kabi guruhlar bilan to'ldirilib, ular bilvosita kodlanish tipi nominatsiyasi sanaladi.

Muhokama. Ayni paytda erkak va ayol nomlanish spektrining semantik verbalizatsiyasida qon-qarindoshlik tizimiga oid nikoh-oilaga taalluqli nomlar, yosh va fiziologik holat ma'nosini ifodalovchi nomlar, diniy-mifologik tasavvurlarga asoslangan mavjudotlar, hayvonot va o'simliklar dunyosiga nisbatlangan gender nominatsiyalar guruhlashtiriladi" [1]. Yuqoridagi fikrlar asosida shuni alohida ta'kidlash lozimki, muayyan til egasi yoki shu jamoa ongida erkak va ayollar tushunchalarini ifodalovchi bir guruh genderoleksemalar mavjudki, ularni genderxabar kodlanish tizimining maxsus tipi sifatida ijtimoiy faktlarga asoslangan xabarni ifodalovchi nomlar, qon-qarindoshlik (ota-ona, opa-singil, aka-uka, amma-xola, o'g'il-qiz, amaki-tog'a, buva-bobo) tushunchasini aks ettiruvchi nomlar, yosh va fiziologik (qari qiz, bo'ydoq, bo'yqiz, bo'yiga yetgan, qizaloq, qizcha, bolakay, kelinchak, kampir, chol, og'iroyoq, homilador, yukli) ma'lumotlarni ifoda etuvchi korpusfaktlar nomi, erkak va ayol tushunchalari bilan farqlanuvchi hamda mifologik tasavvurlar asosida shakllangan mentifaktlar (jodugar, yalmog'iz, hur, g'ilmon, pari, farishta, qorabotir), ayol va erkak tushunchalari konnotatsiyasiga asoslangan naturfaktlar (xo'roz-makiyon, megajin, qo'chqor, lochin, sher, ayiqpolvon, ilon, anakonda, tulpor, toychoq, bo'taloq) va artefaktlar (gul, atirgul, lola) kabi nominatsion guruhlarga ajratish muhimdir.

Kanizak so'zida ayol semasi mavjud bo'lib, u o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagi tartibda izohlanadi. "Kanizak-[cho'ri, xizmatchi, oqsoch xotin] 1. Tutqun ayol, cho'ri. Endi menga birmuncha xodim, kaniz, maishat anjomlari berasiz. "Latifalar"

2. Xon, amir va boshqa hukmdorlar saroyidagi xizmatchi ayol. Shoir haramdagi kanizlardan biri bilan aloqa bog'lagan ekan. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon" [6]. Demak, ayol tushunchasining birlamchi nominatsiyasi hisoblangan har qanday so'zning ikkilamchi nomlanish belgisi til egalarining ijtimoiy maqomiga nisbatan belgilanadi va shu tarzda nomlanadi. Ayollik semasi mikromaydoni sinfiga mansub so'zlar paradigmasi til egalari tafakkurida mavjud nomlanish belgilari asosida o'zaro differensiatsiyalanadi, tilda esa alohida tushunchani ifodalovchi denotat nomi sifatida namoyon bo'lishi bilan birgalikda ayol semasi mikromaydoniga mansub so'zlar sifatida genderoleksemalar turkumini hosil qiladi.

Nominatsiya nazariyasiga ko'ra, erkak jinsi tushunchasi semasini ifodalovchi so'zlar guruhi birlamchi nomlanish xususiyatini namoyon qiladi. Birlamchi nominatsiya tushunchasi denotativ ma'noga asoslangan nom bo'lib, u til egalari tafakkurida ana shu ma'no asosida boshqa nomlardan farqlanadi. Har qanday so'z ma'lum bir narsaning nomi sifatida mavjud bo'lib, o'zida denotat mohiyatini aks ettiradi, shu bilan birga u yoki bu kabi o'rindosh tushunchalar denotatga xos erkaklik semasini saqlagani holda yosh yoki ijtimoiy ma'no komponentlarini ifoda etadi. Masalan, oqsoqol, imom, mutavalli, so'fi, bo'ydoq, kuyov kabi so'zlarning semantik strukturasi erkak semasi asosida shakllangan yosh va ijtimoiy ma'nolarni ham ifodalaydi. Bular erkaklik semasini ifodalovchi so'zlar mikromaydoni sinfiga mansub bo'lgan har qanday genderoleksemaga xos belgidir.

Xulosa. Haqiqatan ham tilning leksik sathini lug'aviy birliklarga boy hodisa sifatida alohida ta'kidlagan holda yana shuni aytish mumkinki, borliqdagi narsa-hodisa, voqealarning nomlari ular

haqidagi tushunchalar mohiyatini o‘zida to‘liq aks ettiradi. Shu jihatga ko‘ra, o‘g‘il yoki qiz degan so‘zga tegishli tushunchada dastlab qaysidir biologik jinsga mansublilik belgisi mavjud bo‘lsa, ana shu ma’no ifodasi saqlangan holda *qizaloq, singil, opa, qiz, amma, xola, ona, aya, xotin, juvon, zavja, ayol, kelin, ovsin, kundosh, buvi, kampir, kanizak, malika, marhuma, qaynona, yesir, cho‘ri, oqsoch* kabi leksik birliklarda ayol va uning ijtimoiy farqlanishiga oid giponim va giperonimlar kuzatiladi. Bular, albatta, tilning leksik sathiga xos bo‘lgan nofaol lug‘aviy birliklar tizimidan iborat ayol jinsining ijtimoiy nominativ birliklaridir. Muloqot jarayoni esa faollashgan lug‘aviy birliklarning sintagmatik va pragmatik munosabati asosida jins ifodasi va ularning farqlanishiga xos nutqiy aktlar mazmuni bilan aktuallashadi. Lug‘aviy birliklarning kontekstual sistemaga kirishi hamda o‘ziga xos kontekstual ma’no komponentlari bilan aktuallashishi natijasida erkaklarga xos xushomad yoki so‘kinish, qo‘pollik yoki tahdid kabi ma’no ottenkalari ifodalanadi. Ayollar nutqida esa o‘ziga xos mayinlik, latofat, hayo va ibo, ba’zi o‘rinlarda ularning noo‘rin xatti-harakatlari natijasida salbiy ma’no ottenkalari ham namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. М.В. Мудрая Реконструкция системы гендерно маркированных лексем (на материале пословиц) //Филологические науки. Вопросы теории и практики 2017. № 10 (76) с. 143

2. N.A. Komilova Gender konseptual semantikasi verbalizatorlari va ularning lingvokulturologik xususiyatlari qiyiosiy tadqiqi (hozirgi zamon ingliz va o‘zbek tillari materiallari) filol.fan.fal dok.(PhD) diss.avtorfererati Farg‘ona 2024.

3. Ш. Сафаров Социолингвистика: инглизча-русча-ўзбекча луғат Қарши “Intellekt” nashriyoti, 2023-yil, 60-bet

4. Ш. Искандарова Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сидон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони).-Филол.фанлари док. дисс... автореферат - Тошкент, 1999.- 52 б

UO‘K 811.512.133’373.7:81’367

O‘ZBEK TILIDA IBORALARNING SINTAKTIK VAZIFASI VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Islamova D. A., PhD, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning gap tarkibidagi sintaktik vazifasi hamda ularning badiiy nutqdagi pragmatik xususiyatlari tadqiq etilgan. Mavzuni yoritish jarayonida frazeologizmlarning valentlik imkoniyatlari, ularning nutqiy jarayonda emotsional-ekspressiv ta’sirchanlikni yuzaga keltirish xususiyatlari hamda muallif maqsadini ifodalashi misollar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ibora, gap bo‘laklari, sintaktik vazifa, pragmatik xususiyat, nutqiy vaziyat, valentlik, matn, ma’no qirralari.*

Аннотация. *В статье исследуются синтаксические функции фразеологических единиц в структуре предложения в узбекском языке, а также их прагматические свойства в художественной речи. В процессе раскрытия темы на основе конкретных примеров анализируются валентностный потенциал фразеологизмов, их способность актуализировать эмоционально-экспрессивную выразительность в речевом процессе и их роль в выражении авторской интенции.*

Ключевые слова: *фразеологизм, члены предложения, синтаксическая функция, прагматическое свойство, речевая ситуация, валентность, текст, смысловые оттенки.*

Abstract. *The article investigates the syntactic functions of phraseological units within the sentence structure in the Uzbek language, along with their pragmatic features in artistic discourse. In examining the topic, the valency potential of phraseologisms, their capacity to generate emotional and expressive impact within the speech process, and their role in conveying the author’s communicative intent are thoroughly analyzed based on specific textual examples.*

Keywords: *phraseological unit, parts of the sentence, syntactic function, pragmatic feature, speech situation, valency, text, semantic nuances.*

O‘zbek tilshunosligida til hodisalarini antroposentrik tamoyillar, ya’ni inson omili va tafakkuri nuqtayi nazaridan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki lisoniy birliklar borliqni

shunchaki aks ettirib qolmay, shaxsning ichki dunyosini ham ochib beradi. Iboralar ham gapda ma’lum bir gap bo‘lagi bo‘lib kelishiga qarab, ularning ma’no qirralari matnda turlicha namoyon bo‘ladi. Badiiy matnda qo‘llaniluvchi frazeologizmlar o‘zining emotsional-ekspressivligi bilan matnning estetik ta’sirchanligini ta’minlaydi. Tilshunos olim B. Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, frazeologik birliklarning nutqdagi faoliyati faqatgina ularning lug‘aviy ma’nosi bilan cheklanmaydi, balki har bir ibora tarkibida o‘ziga xos ekspressiv-baholovchi va funksional-uslubiy bo‘yoq ham mavjud bo‘ladi. Bunday lisoniy bo‘yoqdorlik va emotsionallik muayyan nutqiy vaziyat hamda matn talabiga ko‘ra turlicha ma’no qirralari hosil qila olish xususiyatiga egadir [1; 22]. Ta’kidlash joizki, o‘zbek tilshunosligida iboralarning grammatik tabiatini tizimli tadqiq etish masalasi dastlab professor Sh. Rahmatullayev nomi bilan bog‘langan edi. Olim frazeologizmlarning tarkibiy shakllanishi, turg‘unlik tabiati hamda gapdagi sintaktik vazifalarini chuqur tahlil qilgan. Shu bilan birga, u turg‘un birliklarning ma’no strukturasida baholovchilik va ekspressivlik komponenti yetakchi o‘rin tutishini, ularning asl semantikasi esa faqat muayyan nutqiy vaziyatda to‘liq namoyon bo‘lishini alohida ko‘rsatib o‘tgan [5; 56].

Bugungi tilshunoslikda frazeologizmlarni shunchaki ma’no jihatidan o‘rganish bilan cheklanish yetarli emas. Iboralarning gapdagi sintaktik vazifasi hamda lisoniy birikish (valentlik) imkoniyatlarini tahlil etish bilan birga, ularning badiiy nutqdagi pragmatik xususiyatlarini yoritish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Boisi, ushbu turg‘un birliklarning nutqiy jarayondagi o‘rni ularning semantik tabiati va funksional vazifasi bilan bevosita bog‘liqdir. Chunonchi, professor A. Mamatov o‘z tadqiqotlarida frazeologizmlarning shakllanish asoslarini yoritish barobarida, ularning nutqiy voqelanishdagi funksional-pragmatik tabiati va kontekstual (lisoniy) qurshovga bog‘liqligi masalalarini asoslab beradi. [3; 78]. Iboralarning sintaktik vazifalarini hamda ularning badiiy matndagi pragmatik xususiyatlarini misollar asosida tahlil qilsak.

O‘zbek tilining frazeologik lug‘atlarida “kiprik qoqmaslik” iborasi “uxlamaslik, bedor bo‘lmoq, ko‘ziga uyqu kelmaslik” ma’nolarini anglatishi ta’kidlangan [5; 164]. *“Dehqon kechalari dalada suv tarab, kiprik qoqmay tong ottirar edi”* [6; 45]. Ushbu gapda frazeologizm sintaktik xususiyatiga ko‘ra fe’l kesim bilan sintaktik aloqaga kirishib, hol vazifasida keladi. Ya’ni, dehqonning kundalik og‘ir mehnat jarayonidagi doimiy jismoniy charchoq va tinimsiz harakatini ifodalab keladi. Xuddi shu ibora asarning boshqa bir o‘rnida o‘zining grammatik xususiyatini o‘zgartirib, fe’l kesim vazifasida keladi. *“Dehqonning tunlari kiprik qoqmas edi”* [6; 112]. Ibora gapdagi sintaktik vazifasini hol vazifasidan fe’l kesimga o‘zgartirishi bilan uning ifodalaydigan ma’nosida ham sezilarli o‘zgarish kuzatiladi. Ya’ni, shunchaki jismoniy charchoq holati ifodalanmasdan, qahramonning ichki ruhiy iztiroblari, oila va tirikchilik dardi tufayli sodir bo‘lgan kuchli ezilishi va o‘y-xayollar girdobiga tushib qolganligini ochib berishga xizmat qiladi. Demak, frazeologik birliklarning gapdagi sintaktik vazifasi o‘zgarishi uning nafaqat grammatik xususiyatini, balki matndagi pragmatik xususiyatini ham kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘atlarida “jigari qon bo‘lmoq” iborasi *“qattiq qayg‘urmoq, iztirob chekmoq, qattiq qiynalmoq”* ma’nolarini ifodalashi ta’kidlangan [5; 118].

Iboraning gap tarkibida ravishdoshli hol vazifasida kelishi va qahramonning ichki kechinmalarini tasvirlash jarayoni quyidagi misolda ham ko‘rinadi: *“Dehqon o‘z dalasining xarob bo‘lganini ko‘rib, jigari qon bo‘lib yashar edi”* [6; 87]. Ushbu matnda ibora sintaktik xususiyatiga ko‘ra hol vazifasida kelib, dehqonning kundalik turmushidagi og‘ir iztiroblari va ruhiy holatini aks ettirib keladi. Asarning boshqa bir o‘rnida esa mazkur ibora o‘zining grammatik xususiyatini ham o‘zgartirib, fe’l kesim vazifasida kelishi kuzatiladi. *“Mustabid tuzum girdobida qolgan dehqonning jigari qon bo‘ldi”* [6; 142]. Iboraning holdan kesim vazifasini bajarishi shaxsiy qayg‘usini emas, balki butun bir millatning fojiasi, siyosiy tazyiqlar ostida ezilgan xalq ruhiyatini ochib beradi. Ushbu iboraning matnda turli sintaktik vazifalarni bajarishi badiiy matndagi pragmatik imkoniyatlarini ham belgilab bergan. Bu esa o‘z navbatida fikrning va emotsional-ekspressiv ta’sirchanlikning ham o‘zgarishiga olib keladi.

O‘zbek tilining frazeologik lug‘atlarida *“boshi toshdan chiqmaslik”* iborasi “tashvishdan, kulfatdan, qiyinchilikdan qutulmaslik, tinim bilmaslik” ma’nolarini anglatishi ta’kidlangan [5; 54]. *“Bechora otamning boshi toshdan chiqmas edi...”* [6; 78] Ushbu gapda frazeologizm sintaktik

jihatdan fe’l kesim vazifasida kelib, dehqonning kundalik turmushidagi og‘ir tashvishlar, tinimsiz mashaqqatlar va doimiy qiyinchiliklarni ifodalab keladi. Mazkur ibora ham badiiy matnda o‘zining dastlabki leksik-grammatik xususiyatidan tashqari, sintaktik vazifasini o‘zgartirishi orqali o‘ziga xos pragmatik ma’noni ifodalaydi. Ushbu ibora asar matnida o‘zining sintaktik vazifasini o‘zgartirib, boshqa o‘rinda qo‘llaniladi: *“...boshi toshdan chiqmagan dehqon peshonasidagi ajinlar uning butun umrlik fojiasini ko‘rsatib turardi.”* [6; 142] Birinchi misolda mazkur ibora fe’l kesim vazifasida kelib, voqea-hodisaning hukmini yoki holatini ifodalab kelishi kuzatiladi. Keyingi o‘rinda esa, aniqlovchi vazifasida keladi. Ya’ni, “*boshi toshdan chiqmagan”* iborasi sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi. Dehqonning shunchaki mashaqqatli holatini hamda turmushidagi og‘ir sinovlarini emas, balki butun bir avlod fojiasini ko‘rsatuvchi yorqin pragmatik vazifani bajarib kelishi kuzatiladi.

Demak, frazeologik birliklarning gapdagi sintaktik vazifasi o‘zgarishi ularning nafaqat grammatik xususiyatini, balki matndagi pragmatik xususiyatini ham kengaytirishga xizmat qiladi. Ko‘rinadiki, turg‘un birikmalarning bunday o‘zgaruvchanligi muallifning uslubiy mahoratini yuzaga chiqarishda asosiy vazifalardan birini bajaradi.

Tog‘ay Murod ijodida qo‘llanilgan “*kiprik qoqmaslik”, “jigari qon bo‘lmoq”, “boshi toshdan chiqmaslik”* kabi iboralar turli xil sintaktik o‘rinlarda qo‘llanilib, asar qahramonlarining fojiali turmush tarzini, ruhiy olamini va mashaqqatli mehnatini ochib beradi. Shuningdek, turli xil stilistik vazifalarni bajarib, muallif g‘oyasini yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, badiiy matnda semantik yaxlitligi, obrazliligi hamda ekspressiv ta’sirchanligi bilan ajralib turuvchi frazeologizmlar qahramonlar ichki olamini ochish va estetik vazifa bajarishda alohida o‘rin tutadi. Tog‘ay Murod ijodi misolida olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, yozuvchi turg‘un birikmalarning faqat lug‘aviy ma’nosigagina tayanib qolmay, ularning strukturaviy-funksional imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanadi.

Frazeologik birliklarning matn ichida o‘z sintaktik vazifasini o‘zgartirishi ularning pragmatik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Jumladan, ularning aniqlovchi, hol yoki kesim vazifasiga ko‘chishi qahramonning jismoniy holatidan tortib, ijtimoiy-ruhiy iztiroblari va fojiali qismatini ochib beruvchi kuchli lisoniy vosita vazifasini o‘taydi. Turg‘un birikmalarning nutqiy voqelanishi va sintaktik imkoniyatlarini o‘zaro uyg‘unlikda tadqiq qilish badiiy matn semantikasini chuqur anglash hamda muallif estetik maqsadini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. докт.... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 46 б.

2. Йўлдошев Б., Худойбердиева М. Бадиий матн ва фразеологизмларнинг прагматик имкониятлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2018. – 142 б.

3. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. докт.... дисс. – Тошкент, 1999. – 284 б.

4. Маҳмудов Н. Тилнинг антропоцентрик тадқиқи ва кўчима маънолар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. - № 3. – Б. 3-9.

5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеология луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – 320 б.

6. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar: Roman. – Toshkent: Sharq, 1994. – 336 b.

7. Шодмонов А. Тоғай Мурод асарларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2010. – 160 б.

UDC 81’322:81’373.7

INTEGRATION OF CORPUS LINGUISTICS AND PHRASEOLOGICAL RESEARCH

M.Isroilova, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Denau

Annotatsiya. *Maqolada korpus lingvistikasi va frazeologik tadqiqotlarni integratsiyalashning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. J. Sinklerning idiomatik tamoyili, M. Stubbsning kengaytirilgan leksik birliklar nazariyasi, semantik prosodiya tushunchasi, shuningdek, R. Moon, J.-P. Colson, D. Dobrovolskiy va E. Piirainenlarning ilmiy ishlari asosida frazeologik birliklarni korpus ma’lumotlari asosida o‘rganish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Qiyosiy frazeologik birliklarni korpus asosida tadqiq etishda yuzaga keladigan to‘rtta metodologik muammo – identifikatsiyalash,*

lemmalash, turg'unlik darajasini baholash va miqdoriy ma'lumotlarni qiyoslash masalalari aniqlanib, ularni hal etish yo'llari taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: *korpus lingvistikasi, frazeologiya, qiyosiy frazeologik birlik, semantik prosodiya, qiyoslanadigan korpus, frazeologik annotatsiya, korpus pragmatikasi.*

Аннотация. *В статье анализируются теоретико-методологические основы интеграции корпусной лингвистики и фразеологических исследований. На основе идиоматического принципа Дж. Синклера, теории расширенных лексических единиц М. Стаббса, понятия семантической просодии, а также научных трудов Р. Мун, Ж.-П. Колсона, Д. Добровольского и Э. Пиирайнена рассматриваются возможности изучения фразеологических единиц на материале корпусных данных. Выявляются четыре методологические проблемы, возникающие при корпусном исследовании сопоставительных фразеологических единиц: идентификация, лемматизация, оценка степени устойчивости и сопоставление количественных данных. Предлагаются пути решения обозначенных проблем.*

Ключевые слова: *корпусная лингвистика, фразеология, сопоставительная фразеологическая единица, семантическая просодия, сопоставимый корпус, фразеологическая аннотация, корпусная прагматика.*

Abstract. *The article analyses the theoretical and methodological foundations for integrating corpus linguistics and phraseological research. Drawing on J. Sinclair's idiom principle, M. Stubbs's theory of extended lexical units, the notion of semantic prosody, and the work of R. Moon, J.-P. Colson, D. Dobrovol'skij and E. Piirainen, it examines the possibilities of studying phraseological units using corpus data. Four methodological problems in the corpus study of comparative phraseological units are identified – identification, lemmatisation, assessing the degree of fixedness, and comparing quantitative data – and ways of solving them are proposed.*

Key words: *corpus linguistics, phraseology, comparative phraseological unit, semantic prosody, comparable corpus, phraseological annotation, corpus pragmatics.*

Corpus linguistics is a branch of linguistics that studies language phenomena on the basis of a large body of texts (a corpus) stored in electronic form, selected according to explicit principles and often enriched with linguistic annotation. T. McEnery and A. Hardie define corpus linguistics not as a separate theory but as a methodological approach to the study of language, and identify its main feature as reliance on empirical data, that is, on real samples of language use [1]. D. Biber and his co-authors distinguish four main characteristics of corpus research: it is empirical; it relies on a large and principled sample of natural texts; it makes extensive use of computers; and it combines quantitative and qualitative analysis [2].

Several stages can be distinguished in the history of corpus linguistics. The first stage dates from the 1960s, when the one-million-word Brown Corpus of American English was compiled at Brown University (USA), followed by its British counterpart, the LOB Corpus. The second stage, the 1980s–1990s, was the era of large corpora: the Bank of English was created at the University of Birmingham within the COBUILD project led by J. Sinclair, followed by the 100-million-word British National Corpus (BNC). The third stage, from the beginning of the 21st century to the present, is the era of web corpora and national corpora, marked by corpora of billions of words (the TenTen family), multilingual parallel and comparable corpora, and corpus management systems such as Sketch Engine [3]. The Russian National Corpus (since 2004) serves as a model for researchers as the largest corpus project in the post-Soviet space [4; 5]. Work on the national corpus of the Uzbek language has also intensified in recent years and is being carried out consistently at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi and other research centres under the guidance of B. Mengliyev, N. Abdurahmonova and other scholars [6].

Two main types of corpora are used in cross-linguistic corpus research: parallel corpora (original texts and their translations) and comparable corpora (original texts in two or more languages selected according to the same criteria, i.e. the same genre, topic, period and size). Parallel corpora are convenient for identifying translation equivalents and studying translation strategies, but they are influenced by the specific features of translated texts ("translationese"). Comparable corpora, by

contrast, reflect the natural usage of each language and therefore allow an objective comparison of the frequency, distribution and functions of units in the two languages. A comparable corpus was chosen as the main corpus in our study, since the aim is to compare the natural use of comparative phraseological units (CPUs) in Uzbek and French journalism, free from the influence of translation. At the same time, a parallel corpus of limited size (French journalistic texts and their Uzbek translations) is used as auxiliary material for the study of translation issues; this question will be examined in detail in a separate study.

The distinction between "corpus-based" and "corpus-driven" approaches is important for research design. In the corpus-based approach, the researcher starts from pre-existing theory and categories (for example, a list of CPUs recorded in dictionaries) and tests them against the corpus. In the corpus-driven approach, the researcher identifies recurrent patterns in the corpus without predefined categories and forms new categories on their basis [1]. The two approaches are combined in our study: at the first stage, CPUs recorded in dictionaries are searched for in the corpus (corpus-based approach); at the second stage, all comparative constructions are extracted by simile markers (*-day/-dek, kabi, singari, comme, tel que*), and among them comparisons that are not recorded in dictionaries but recur in the corpus and are used by different authors are identified (corpus-driven approach). This second stage is particularly important for identifying new CPUs emerging in journalism (for example, *domino toshlaridek qulamoq* 'to collapse like dominoes', *comme un tsunami* 'like a tsunami').

The annotation of phraseological units in the corpus also requires special attention. Annotation is the process of adding extra linguistic information (tags) to corpus texts; it can be carried out at the morphological (part of speech, grammatical categories), syntactic, semantic, pragmatic and discourse levels [1]. For our study, phraseological annotation is of key importance, i.e. tagging each occurrence of a CPU according to its constituent components (S – subject of comparison, T – tertium comparationis, K – comparison marker, E – standard of comparison), semantic group, type of standard, evaluative colouring, type of modification, position in the text (headline, lead, body, conclusion) and pragmatic function. Such a multi-level annotation system will be described in detail in further research. It should be noted that there is as yet no experience of phraseological annotation in Uzbek corpora; therefore, the tagging system being developed may also be of practical value for enriching the Uzbek national corpus with phraseological annotation.

The analysis identified four main methodological problems in the corpus study of CPUs and ways of solving them, and summarised the advantages of corpus methodology for phraseological research.

There are a number of methodological problems in the corpus study of phraseological units. The first problem is identification. Phraseological units, especially when used in variable and discontinuous forms, are difficult to detect with automatic search tools. For CPUs this problem is partly alleviated, since they are marked by a formal marker (*-day/-dek, kabi, comme*); however, these markers also occur in free similes and in non-phraseological comparative constructions (the meanings 'as' and 'because' of the conjunction *comme*; adverbial uses of the suffix *-day*). Automatic search results therefore have to be checked manually by an expert. The second problem is lemmatisation and morphological analysis. Since Uzbek is an agglutinative language, a single word occurs in many grammatical forms (*qo'ziqorindek, qo'ziqorinlardek, qo'ziqorinday*), which complicates search queries. Morphological analysis tools for Uzbek are not yet sufficiently developed, so in our study searches are carried out using regular expressions and manually compiled lists of word forms. The third problem is assessing the degree of fixedness. Determining whether a comparison found in the corpus is fixed (phraseological) or free (occasional) requires complex criteria that take into account lexicographic sources, corpus frequency and dispersion (distribution across texts and authors), as well as native speakers' intuition. The fourth problem is comparing quantitative data. Frequencies in corpora of different sizes cannot be compared directly; normalised frequency (e.g. instances per million words, *ipm*) and tests of statistical significance (log-likelihood, chi-square) are used for this purpose [1]. In addition, the difference in the morphological structure of Uzbek and French (Uzbek

word forms are longer, while French has more function words) affects word counts; therefore, correction methods that take this factor into account are applied in the comparison.

Corpus linguistics has moved phraseology from the periphery of language to the position of one of its central organising principles: Sinclair's idiom principle and Stubbs's theory of extended lexical units require phraseological units to be studied together with their collocation, colligation and semantic prosody.

Cross-linguistic phraseological equivalence should be assessed not only on the basis of dictionary meaning, but also on the basis of corpus frequency, context of use and pragmatic function. For this purpose, a comparable corpus is used as the main material and a parallel corpus as auxiliary material. The problems of identification, lemmatisation, assessment of fixedness and quantitative comparison in the study of CPUs are solved by means of expert verification, regular expressions, complex criteria, normalised frequency (ipm) and statistical tests. A mixed model combining corpus-based and corpus-driven approaches, multi-level phraseological annotation and discursive-pragmatic analysis makes it possible to compare CPUs in Uzbek and French journalism objectively. The tagging system being developed may also be applied to enrich the Uzbek national corpus with phraseological annotation.

REFERENCES:

1. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.

2. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

3. Kilgarriff A., Baisa V., Bušta J. et al. The Sketch Engine: ten years on // Lexicography. – 2014. – Vol. 1. – P. 7–36. Sketch Engine: corpus management and query system. – URL: https://www.sketchengine.eu.

4. Плунгян В. А. Зачем нужен Национальный корпус русского языка? // Национальный корпус русского языка: 2003–2005. – М.: Индрик, 2005. – С. 6–20.

5. Захаров В. П., Богданова С. Ю. Корпусная лингвистика. – Иркутск: ИГЛУ, 2011.

6. O'zbek tilining milliy korpusi: muammo va vazifalar [The national corpus of the Uzbek language: problems and tasks]: Proceedings of the International Scientific and Practical Conference (31 May 2022). – Tashkent: ToshDO'TAU, 2022.

UO'K 811.111'373.2:582

INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA GUL NOMLARINI O'RGANISHNING NAZARIY YO'NALISHLARI

Javliyev M. O., o'qituvchi, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Maqolada ingliz tilshunosligida gul nomlarini o'rganishning nazariy yo'nalishlari beshta guruhga (tarixiy-leksikografik, xalq taksonomiyasi, onomasiologik, kognitiv, madaniy) ajratiladi. Ingliz gul nomlarining aksariyati metaforik, metonimik va propozitsional modellar asosidagi qo'shma birliklar ekani, rang eng unumli belgi ekani va metaforalar milliy-madaniy ma'no tashishi ko'rsatiladi. Yo'nalishlar uch darajali sxemaga (nomlash, ma'no, madaniyat) birlashtirilib, ingliz nomlarini o'zbek va boshqa tillar bilan solishtirishga asos bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *gul nomlari, fitonim, ingliz tilshunosligi, xalq taksonomiyasi, onomasiologiya, kognitiv semantika, metafora, chog'ishtirma tadqiqot.*

Аннотация. *В статье направления изучения названий цветов в английской лингвистике разделены на пять групп (историко-лексикографическая, народно-таксономическая, ономасиологическая, когнитивная, культурологическая). Показано, что большинство английских названий цветов являются сложными словами, построенными по метафорическим, метонимическим и пропозициональным моделям, что цвет наиболее продуктивный признак номинации, а метафоры несут национально-культурное содержание. Направления объединены в трёхуровневую схему (номинация, значение, культура) для сопоставления английских названий с узбекскими и другими.*

Ключевые слова: *названия цветов, фитоним, английская лингвистика, народная таксономия, ономасиология, когнитивная семантика, метафора, сопоставительное исследование.*

Abstract. *The article divides approaches to the study of flower names in English linguistics into five groups (historical-lexicographic, folk-taxonomic, onomasiological, cognitive, cultural). It shows that most English flower names are compounds built on metaphoric, metonymic and propositional models, that colour is the most productive naming feature, and that metaphors carry national and cultural meaning. The groups form a three-level scheme (naming, meaning, culture) for comparing English flower names with Uzbek and other languages.*

Keywords: *flower names, phytonym, English linguistics, folk taxonomy, onomasiology, cognitive semantics, metaphor, comparative study.*

Gul nomlari tilshunoslikda bir necha fan kesishgan joyda turadi. Leksikologiya va etimologiya uchun ular nomlash birliklari, etnobiologiya uchun xalq bilimining mahsuli, kognitiv tilshunoslik uchun kategoriyalash natijasi, madaniy tilshunoslik uchun esa ramz va qadriyat tashuvchisidir. Ingliz tilida bu nomlar uzoq tarixga ega. Ular XIX asrdayoq dialekt shakllari bilan birga lug‘atlarga to‘plangan [1], keyinchalik esa folklor va madaniy an’ana nuqtai nazaridan tavsiflangan [2]. Mavzuning dolzarbligi bir necha sababga bog‘liq. So‘nggi yillarda ingliz o‘simlik nomlari kognitiv nuqtai nazardan qayta o‘rganildi [3], ular boshqa tillardagi nomlar bilan solishtirildi [4, 5]. Shu bilan birga, ingliz tilshunosligidagi qarashlar turli yo‘nalishlarda tarqoq holda rivojlangan va ularning o‘zaro munosabati yetarli yoritilmagan. Bu holat boshqa til bilan, masalan o‘zbek tili bilan solishtiruvchi tadqiqotchiga qaysi nazariyaga tayanish kerakligini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Tadqiqot obyekti ingliz tilshunosligida gul nomlarini o‘rganishning nazariy yo‘nalishlaridir. Maqsad bu yo‘nalishlarni tasniflash va ularni chog‘ishtirma tadqiqotda qo‘llash uchun sxema asoslashdan iborat. Vazifalar quyidagicha belgilandi. Birinchi vazifa asosiy yo‘nalishlarni ajratish va ularning tayanch tushunchalarini ko‘rsatish. Ikkinchi vazifa har bir yo‘nalish gul nomlarining qaysi jihatini yoritishini aniqlash. Uchinchi vazifa yo‘nalishlarni bog‘lovchi sxema taklif etish va uni ingliz tili misollarida izohlash. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Ingliz tilshunosligidagi asosiy qarashlar tavsifiy usulda ko‘rib chiqildi, ularning gul nomlariga tatbiqi qiyosiy-tahliliy usulda baholandi, yondashuvlar esa tasniflash va modellashtirish usullari bilan umumlashtirildi. Misollar nazariyalarni izohlash uchun keltirilgan va statistik xulosa uchun mo‘ljallanmagan. Botanikada gul o‘simlikning generativ a’zosini bildiradi, kundalik nutqda esa estetik va madaniy mezonlarga ko‘ra ajratilgan o‘simliklar guruhini anglatadi. Demak, gul botanik takson emas. O‘simlik nomlarining umumiy nomi fitonim bo‘lib, gul nomlari uning ichidagi kichik guruhni tashkil etadi. Lotincha ikki so‘zli ilmiy nomlar (masalan, Rosa canina) xalqaro nomenklatura birliklari hisoblanadi. Maqolada esa til jamoasida shakllangan xalq nomlari, ya’ni ingliz tilidagi rose, daisy, bluebell kabi birliklar nazarda tutiladi.

Ingliz tilshunosligida gul nomlarini o‘rganish lug‘atchilik an’anasidan boshlangan. J. Britten va R. Xolland lug‘ati ingliz o‘simlik nomlarini ularning mahalliy shakllari bilan birga to‘plagan. R. Vikeri lug‘ati esa o‘simliklarga oid e’tiqod, urf-odat va foydalanish an’analarini alifbo tartibida beradi. Bu yo‘nalish til materialini yig‘ish va nomlarning kelib chiqishini aniqlash bilan ahamiyatli, chunki keyingi nazariy tadqiqotlar aynan shu to‘plamlarga tayanadi. B. Berlin, D. Bridlav va P. Reyven an’anaviy jamiyatlardagi o‘simlik tasniflari ierarxik tuzilishga ega ekanini va bir necha darajaga bo‘linishini ko‘rsatgan [6]. Mualliflar kuzatishicha, umumiy daraja nomlari odatda bir so‘zli bo‘ladi (ingliz tilida oak, rose), xususiy daraja nomlari esa ko‘pincha ikki komponentli birikma shaklida keladi (white oak). Bu qonuniyat ingliz gul nomlarining tuzilishini tasniflash uchun qulay asos beradi.

Ingliz o‘simlik nomlarining katta qismi qo‘shma so‘zlardan iborat. P. Shtekauerning onomasiologik nazariyasi so‘z yasalishini nom beruvchi shaxsning tafakkuridagi bosqichlar orqali tushuntiradi, ya’ni avval ob’ektning belgisi tanlanadi, so‘ngra u til birligiga aylanadi [7]. Masalan, bluebell nomida rang va shakl belgisi birlashgan, daisy nomi esa qadimgi ingliz tilidagi “kun ko‘zi” birikmasiga (dæges ēage) borib taqaladi. Shuningdek, ingliz o‘simlik nomlaridagi qo‘shma tuzilish so‘nggi tadqiqotlarda alohida o‘rganilgan. Kognitiv semantikada kategoriyalash E. Roş tadqiqotlariga tayanadi. Unga ko‘ra kategoriyalar aniq chegaralarga ega emas va prototip atrofida tashkil topadi [8]. Gul kategoriyasida rose kabi a’zolar prototipik, yovvoyi o‘tlarning gullari esa chekka o‘rinda idrok

etilishi mumkin. Metafora masalasida Z. Kövecses madaniyatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik bilan birga farqni ham asoslagan [9]. E. Shevchenko va hammualliflar 200 ta ingliz o‘t va gul nomini tahlil qilib, nomlashning metaforik, metonimik va propozitsional modellarini ajratgan. Mualliflar nomlarni ikki yasalish mexanizmi orqali, ya’ni birikma tartibi saqlangan to‘g‘ri tartib va komponentlar o‘rni almashgan teskari tartib orqali tavsiflagan.

Dj. Gudi gullarning turli madaniyatlardagi tarixi va ramziy o‘rnini o‘rgangan. Chog‘ishtirma tadqiqotlarda ingliz nomlari boshqa tillar bilan solishtiriladi. G. Agayeva ingliz va ozarbayjon fitonimlarini taqqoslab, nomlar shakli, tabiiy xususiyati, hududi, amaliy qo‘llanishi va rang, hid, ta’m kabi sezgi belgilari bo‘yicha tabaqalanishini ko‘rsatgan. Rang eng markaziy belgi bo‘lib, ingliz tilida rang asosidagi nomlar xilma-xilroq, ozarbayjon tilida esa rang sifatlari mavhumroq va muayyan o‘simliklarga mustahkam bog‘langan. S. Solijanov va hammualliflar ingliz va o‘zbek tillarida fitonim metaforalari milliy va ma’naviy xususiyatlarni ifodalashini va bunday metaforalar tilni boyitishini ta’kidlagan. Sharh asosida beshta yo‘nalish ajratildi. Ularning har biri gul nomlarining boshqa jihatini yoritadi, shu sababli yo‘nalishlar bir-biriga qarama-qarshi emas, bir-birini to‘ldiradi. 1-jadvalda yo‘nalishlar, ularning tayanch manbalari va asosiy savollari umumlashtirilgan.

1-jadval.

Ingliz tilshunosligida gul nomlarini o‘rganish yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Tayanch manbalar	Asosiy savol
Tarixiy-leksikografik	[1, 2]	Nomlar qanday to‘plangan va ular qaysi dialekt shakllari, e’tiqod va urf-odatlar bilan bog‘liq?
Xalq taksonomiyasi	[6]	Nom tasnifning qaysi darajasiga mansub va qanday tuzilishga ega?
So‘z yasalishi va onomasiologiya	[3, 7]	Nom qaysi belgi asosida va qaysi yasalish modeli bilan hosil qilingan?
Kognitiv	[3, 8, 9]	Kategoriya qanday tuzilgan va nom qanday metaforik yoki metonimik ko‘chimlarni hosil qiladi?
Madaniy va chog‘ishtirma	[4, 5]	Nom qanday madaniy ma’no tashiydi va boshqa tildagi nomdan nimasi bilan farq qiladi?

Jadvaldagi yo‘nalishlarni uch darajaga birlashtirish mumkin. Birinchi daraja nomlash bo‘lib, unga leksikografik, taksonomik va onomasiologik yo‘nalishlar kiradi. Tahlil birligi nom va uning referenti, ya’ni muayyan o‘simlik turidir. Bu darajada nomning tuzilishi, motivatsiya belgisi va kelib chiqishi o‘rganiladi. Masalan, bluebell nomi rang va shakl belgisini birlashtirgan qo‘shma birlik, snowdrop nomi esa fasl va shakl belgisiga tayanadi. Ingliz tilidagi qo‘shma nomlarning ustunligi bu darajani eng yaxshi tavsiflanadigan daraja qiladi. Ikkinchi daraja ma’no bo‘lib, kognitiv yo‘nalishga tayanadi. Tahlil birligi nomning ma’no tuzilmasi, ya’ni prototip, metafora va metonimiyadir. Masalan, rose so‘zi ham butani, ham uning gulini bildiradi, bu metonimik ko‘chishga misoldir. Shevchenko va hammualliflar ajratgan metaforik, metonimik va propozitsional modellar shu darajada ishlaydi. Kövecses nazariyasiga ko‘ra, bunday metaforalarda umumiy asos bo‘lsa ham, uning madaniy ifodasi tillarda turlicha bo‘ladi. Uchinchi daraja madaniyat bo‘lib, madaniy va chog‘ishtirma yo‘nalishlarga tayanadi. Tahlil birligi nomning madaniy bahosi va qo‘llanish sohasidir. Maqollar bu darajani yaxshi ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi “There is no rose without a thorn” maqoli o‘zbek tilidagi “Gul tikansiz bo‘lmas” maqoliga mazmunan mos keladi. Ikkala tilda ham go‘zallik qiyinchilik bilan bog‘lanadi, lekin ingliz tilida muayyan rose nomi, o‘zbek tilida esa umumiy gul so‘zi tanlangan. Agayeva ko‘rsatgan rang belgisidagi tafovut ham shu darajaga tegishli. Taklif etilgan sxemaning foydasi shundaki, u chog‘ishtirma tahlilda qaysi savolga qaysi nazariya bilan javob berish kerakligini belgilaydi. Tadqiqotchi avval ikki tildan bir xil referentlarni tanlaydi, so‘ngra ularni nomlash, ma’no va madaniyat darajalarida ketma-ket tavsiflaydi.

Ingliz tilshunosligida gul nomlarini o‘rganish tarixiy-leksikografik, xalq taksonomiyasiga oid, so‘z yasalishi va onomasiologik, kognitiv hamda madaniy yo‘nalishlarda rivojlangan. Bu yo‘nalishlar bir-biriga zid emas, bir-birini to‘ldiradi. So‘nggi tadqiqotlar ingliz o‘simlik nomlarining aksariyati qo‘shma birliklar ekanini, ular metaforik, metonimik va propozitsional modellar asosida hosil bo‘lishini, rang esa eng markaziy nomlash belgisi ekanini ko‘rsatadi. Yo‘nalishlarni nomlash, ma’no va madaniyat darajalariga birlashtiruvchi sxema ingliz gul nomlarini boshqa tillar bilan, jumladan

o‘zbek tili bilan solishtirishda har bir savolga mos nazariyani tanlash imkonini beradi. Keyingi tadqiqotlarda sxemani lug‘at va korpus materialida sinash hamda ikki tildagi nomlarning tuzilishi, motivatsiyasi va madaniy konnotatsiyasi bo‘yicha miqdoriy ma’lumot to‘plash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Britten J, Holland R. A Dictionary of English Plant-Names. London, Trübner, 1886.
2. Vickery R. Oxford Dictionary of Plant-Lore. Oxford, Oxford University Press, 1995.
3. Shevchenko E.M., Prokhorova O.N., Chekulay I.V. Cognitive Mechanisms of Nominating Plants in English. Science Journal of VolSU. Linguistics, 2021, 20(4), 137–147.
4. Aghayeva G.M. On the Question of the Peculiarity of the Differentiation of Phytonyms in Modern Azerbaijani and English Languages. Studia Orientalne, 2024, 13(2).
5. Solijanov S., Pazilova N.M., Kurbanov M.A., Solijonov B. Phytonym Metaphors, a Comparative Analysis in English and Uzbek. Proceedings of the 2nd Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies (PAMIR-2). SCITEPRESS, 2023, 768–771.
6. Berlin B., Breedlove D.E., Raven P.H. General principles of classification and nomenclature in folk biology. American Anthropologist, 1973, 75(1), 214–242.
7. Štekauer P. An Onomasiological Theory of English Word-Formation. Amsterdam, John Benjamins, 1998.
8. Rosch E. Natural categories. Cognitive Psychology, 1973, 4(3), 328–350.
9. Kövecses Z. Metaphor in Culture. Cambridge, Cambridge University Press, 2005.

UO‘K 811.512.133’367

O‘ZBEK TILIDA AJRATILGAN BO‘LAKLARNING O‘RGANILISHI

Jononqulova E. Q., magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilshunosligida ajratilgan bo‘laklarning o‘rganilish tarixi, ularning sintaktik tabiati hamda talqinlari tahlil qilinadi. Ajratilgan bo‘laklar o‘ziga xos ma’no funksiyalarida qo‘llanuvchi, grammatik jihatdan ma’lum vosita va usullar yordamida ajraluvchi intonatsion tasvirga ega bo‘lgan gap bo‘laklaridir. Ajratilgan bo‘laklarga doir sintaktik va uslubiy qarashlar o‘zbek tilshunos olimlarining ilmiy ishlari asosida yoritilib, ularning gap tuzilishidagi o‘rni va funksional-semantik xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, ajratilgan bo‘laklarning turlari, ajralish usullari, boshqa gap bo‘laklaridan farqlovchi belgilari, nutqdagi uslubiy vazifalari, badiiy asardagi stilistik vosita sifatidagi ahamiyati va intonatsion jihatlari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tili sintaksisida ajratilgan bo‘laklarni chuqurroq anglashga hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tilshunosligi, ajratilgan bo‘laklar, sintaksis, ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklar, ajratilgan izohlar, gap bo‘laklari, intonatsiya, pauza, urg‘u, grammatik xususiyatlar.*

Аннотация. *В статье анализируются история изучения обособленных членов предложения в узбекском языкознании, их синтаксическая природа и интерпретации. Обособленные члены предложения выполняют особые смысловые функции и выделяются интонационно с помощью определённых грамматических средств. На основе научных работ узбекских лингвистов рассматриваются синтаксические и стилистические подходы к их изучению, раскрываются их роль в структуре предложения и функционально-семантические свойства. Освещаются типы обособленных членов предложения, способы обособления, отличия от других членов предложения, стилистические функции в речи и художественном тексте, а также интонационные особенности. Результаты исследования могут служить теоретической основой для дальнейшего изучения обособленных членов предложения в узбекском синтаксисе.*

Ключевые слова: *узбекское языкознание, обособленные члены предложения, синтаксис, обособленные второстепенные члены предложения, обособленные приложения, члены предложения, интонация, пауза, ударение, грамматические особенности.*

Abstract. *The article analyzes the history of the study of detached sentence parts in Uzbek linguistics, their syntactic nature and interpretations. Detached parts are used in specific functions and are sentence elements characterized by separating intonation through certain grammatical means and methods. Based on the scientific works of Uzbek linguists, syntactic and stylistic approaches to detached parts are examined and their role in sentence structure as well as their functional-semantic features are revealed. Furthermore, the types of detached parts, methods of*

separation, their distinguishing features from other sentence elements, stylistic functions in speech, their significance as stylistic devices in literary works and their intonational aspects are discussed. The results of the research serve as a theoretical basis for a deeper understanding of detached sentence parts in Uzbek syntax and for future scientific studies.

Keywords: *Uzbek linguistics, detached sentence parts, syntax, detached secondary parts of the sentence, detached appositions, sentence parts, intonation, pause, grammatical features.*

Kirish. O‘zbek tili sintaksisi doirasida gap bo‘laklarining tuzilishi, vazifasi va mazmuniy-uslubiy imkoniyatlarini o‘rganish muhim ilmiy masalalardan biridir. Ayniqsa, gap tarkibida alohida intonatsiya, pauza va mantiqiy urg‘u bilan ajralib turadigan ajratilgan bo‘laklar masalasi tilshunoslikda doimiy e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Ajratilgan bo‘laklar gap mazmunini aniqlashtirish, ta’kidlash, izohlash hamda nutqning ifodaviyligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular muayyan bo‘lakni izohlab, ko‘pincha qo‘shimcha obyektiv axborotni yuzaga keltiradi. O‘zbek tilshunosligida olimlarning ajratilgan bo‘laklarning murakkab fikrni sodda, ixcham va ta’sirli ifodalashning o‘ziga xos usullaridan biri ekanligi, ularning o‘ziga xos semantik funksiyalari mavjudligi va bu funksiyalarning asosiy xususiyati, unda yarim predikativlik va ma’lum darajada hukmning ifodalanishi, ajratilgan bo‘laklar orqali qo‘shimcha ma’nolar yoki modal munosabatlarning aks etishi, ajratilgan bo‘laklarning sodda gap singari o‘z mustaqil mantiqiy urg‘usiga egaligi, gap bo‘laklaridan pauza bilan ajralib turishi haqidagi fikrlari qayd etilgan.

Asosiy qism. Ajratilgan bo‘laklar masalasi o‘zbek tilshunosligida asosan sintaktik va uslubiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Ushbu hodisa sintaksis doirasidagi murakkab hodisalardan biri sifatida turli davrlarda turlicha yondashuvlar asosida talqin qilingan bo‘lib, dastlabki ilmiy qarashlarda ajratilgan bo‘laklar mustaqil sintaktik birlik sifatida emas, balki gapning ikkinchi darajali bo‘laklari bilan bog‘liq holda izohlangan. Ajratilgan bo‘laklarning izoh tiplari birinchi marta M. Said va A. Yo‘ldoshevlar tomonidan,, Gapdagi izoh muchalar‘‘ nomida o‘zbek tili grammatikasiga kiritildi.[1] Keyinchalik, H.G‘oziyevning 1938-1941-yillarda chop etilgan darsliklarida bu sintaktik hodisalar,, Ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklar‘‘ atamasi ostida bayon etildi. Shuningdek,,, O‘qituvchilar gazetasi‘‘ning 1940-yil 15-apreldagi sonida ona tili fani o‘qituvchilariga yordam tariqasida H.G‘oziyevning,, Gapdagi ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklar haqida‘‘ maqolasi bosilib chiqdi. Maqolada ajratilgan bo‘laklarning asosiy tiplari: ajratilgan izohlar, ravishdosh va yordamchi so‘zlar vositasida ajratilgan bo‘laklar haqida so‘z boradi. Lekin yordamchilar yordamida birikkan ajratilgan bo‘laklar gap bo‘laklari bo‘yicha klassifikatsiya qilinmaydi.[2] Formal grammatikada (A.G‘ulomov) gap bo‘laklarini bosh bo‘laklar (ega va kesim), ikkinchi darajali bo‘laklar (aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol) va gap bo‘laklari mavqeyida bo‘lmagan, lekin uni murakkablashtirishga xizmat qiluvchi undalma, kirish, kiritma hamda ajratilgan bo‘laklar sifatida tasnif etish ilgari surilgan. A. Sayfullayev tadqiqotlarida esa undalma, kiritma va ajratilgan bo‘laklar uchinchi darajali bo‘laklar sifatida talqin qilingan edi.

G‘. Abdurahmonovning 1955-yilda e’lon qilingan,, Ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklar‘‘ nomli monografiyasi o‘zbek tilida ajratilgan bo‘laklarni va ularning xilma-xil ko‘rinishlarini ilmiy asosda ko‘rsatib berishga urinishning dastlabki natijasi bo‘ldi. Olim bu ilmiy ishida ajratilgan bo‘laklarning ergash gaplardan farqini, ularning bir turdan ikkinchi turga aylantirish usullarini to‘la yoritib beradi. G‘. Abdurahmonov gap bo‘laklarining bir necha xil ajralish usulini ko‘rsatdi.,, Ko‘pincha, gap bo‘laklarining ajralishi uchun ularning o‘zlariga oid so‘zlar bilan kengayib kelishlari zarur bo‘ladi. Bu hol gap bo‘lagiga nisbiy mustaqillik beradi, boshqa gap bo‘laklaridan ajratilishini ta’minlaydi‘‘, – deb yozadi muallif yuqoridagi asarida. G‘. Abdurahmonovning fikricha, ajratilgan bo‘laklar o‘zining semantik funksiyasi va shunga muvofiq o‘ziga xos intonatsiyasi bilan ajralib turuvchi alohida sintaktik qurilmadir.[3]

Umuman bu olimlarning asarlari ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklar haqida bo‘lsa, keyinchalik nashr etilgan D. Ashurova, F. Ubayeva va H. Boltaboyevalarning,, Gapning uyushgan va ajratilgan bo‘laklari‘‘ kitobida ajratilgan izohlar haqida alohida fikr yuritilgan. Bu kitobda uyushiq va ajratilgan bo‘laklarning rus va turkiy tilshunoslikda o‘rganilishi to‘liq bayon etilgan. Ajratilgan bo‘laklar, gap bo‘laklarining ajratilish usullari, ajratilgan bo‘laklarning grammatik vositalariga ko‘ra

turlari va ularning ahamiyati, ajratilgan izohlovchilarning semantik xarakteristikasi, ularning grammatik xususiyatlari, boshqa sintaktik hodisalardan farqi, turlari, ajratilgan izohlarning intonatsion xususiyatlari, ajratilgan izohlarda tinish belgilar kabi masalalar ochib berilgan.[4]

H. Boltaboyevaning,, O‘zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar‘‘ monografiyasida ajratilgan bo‘laklarning grammatik xususiyatlari batafsil izohlangan. Unda ajratilgan bo‘laklar muhim stilistik vosita ekanligi aytilib, yozuvchi bu stilistik vositadan nima maqsadlarda foydalanishi haqida bir qancha fikrlar bildirilgan. Ular quyidagicha:

1. Yozuvchi ma’lum voqelik yoki obraz, xarakter yoki qiyofani chizishda uning asosiy o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi gap bo‘laklarini o‘quvchiga shu asosiy xususiyatlarini anglatish maqsadida ajratadi, ya’ni o‘ziga xos so‘z tartibini tuzadi.

2. Yozuvchi ba’zan obrazni yoki hodisani o‘quvchiga yaxshi tanishtirish maqsadida uni ikkinchi biror narsa va hodisaga yoki holatga o‘xshatish orqali ifodalaydi, ya’ni obrazli gap bo‘laklarini, oborotlarni qo‘llaydi.

3. Ta’sirni kuchaytirish, kuchli emotsiya yaratish, retardatsiya uchun ajratilgan bo‘laklar ishlatiladi.

4. Yozuvchi yordamchi so‘zlar vositasidagi tayyor nutq formalarini asosiy hukmga tirkab ishlatadi.[5]

20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek tilshunosligida sintaktik qurilishlarni, shu jumladan, ajratilgan bo‘laklarni ham o‘rganish jadal tus oldi. Akademik A.G‘ulomov rahbarligida tayyorlangan,, Hozirgi zamon o‘zbek tili‘‘(1974) darsligida ajratilgan bo‘laklar haqida tizimli ma’lumotlar berilgan. Unda ajratilgan bo‘laklarning intonatsiya va tinish belgilari bilan bog‘liqligi ta’kidlangan.[6] 1980-yillarda M. Asqarova ajratilgan bo‘laklarni o‘rganib, bu borada bir qator maqolalar e’lon qildi. Uning,, O‘zbek tilida ajratilgan bo‘laklar‘‘ (1987) nomli risolasi bu mavzudagi maxsus tadqiqot hisoblanadi. Olima ajratilgan bo‘laklarning turlarini: ajratilgan aniqlovchi, ajratilgan to‘ldiruvchi, ajratilgan hollarni tavsiflagan, ularning gapdagi vazifasi, uslubiy xususiyati va qo‘llanish doirasini belgilab beradi.[7]

Natijalar va muhokama. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, tilshunosligimizda milliy tafakkur va til xususiyatlariga asoslangan yondashuvlar kuchaydi. Bu davrda ajratilgan bo‘laklar ham boshqa gap bo‘laklari singari nafaqat strukturaviy, balki funksional-semantik jihatdan o‘rganila boshlandi. Professor H. Ne’matov rahbarligida 1995-yilda chop etilgan,, O‘zbek tili sintaksisi‘‘ darsligida ajratilgan bo‘laklarning intonatsion ajratilishi, pozitsion xususiyatlari hamda semantik-stilistik vazifalari yoritilgan. B. Umrqulov esa 1990-yillar oxirida ajratilgan bo‘laklarning badiiy matndagi vazifalarini o‘rgandi. Uning,, Badiiy matnda ajratilgan bo‘laklarning uslubiy vazifalari‘‘(1998) nomli tadqiqotida ajratilgan bo‘laklar yozuvchi uslubini shakllantiruvchi muhim vosita ekanligi asoslab beriladi.[8]

2000-yillardan boshlab ajratilgan birliklarni lingvopoetik, qiyosiy-tipologik va konseptual jihatdan o‘rganishlar boshlandi. Xususan, D. Jo‘rayevaning 2003-yilda yozilgan,, O‘zbek she’riyatida ajratilgan bo‘laklarning lingvopoetik xususiyatlari‘‘ mavzusidagi dissertatsiyasida she’riy matnlarda ajratilgan bo‘laklarning obraz yaratishdagi roli tahlil qilinadi.[9] S. Muhammadiyevaning,, O‘zbek va ingliz tillarida ajratilgan bo‘laklarning qiyosiy tahlili‘‘(2006) nomli tadqiqotida esa ikki tildagi bu birliklarning o‘xshash va farqli tomonlari aniqlanadi.[10] Shuningdek, Sh. Abdullayev 2008-yildagi,, O‘zbek tilida ajratilgan bo‘laklarning konseptual tahlili‘‘ maqolasida ajratilgan bo‘laklar orqali ifodalanadigan milliy-madaniy konseptlarni o‘rgandi, shu bilan birga, ularning milliy tafakkur tarzining sintaktik ko‘rinishi ekanligini ta’kidlaydi.

Xulosa. Shunday qilib, ajratilgan bo‘laklar ham boshqa gap bo‘lagi singari gap strukturasining bir qismini tashkil qiladi va ma’lum sintaktik funksiyada qo‘llanadi. Ulardan muayyan maqsadlarda foydalanilib, o‘zlariga xos ma’no ottenkalari, grammatik aloqalari va intonatsiya, pauza, urg‘u, ritm kabi tashqi ifodalari bilan boshqa gap bo‘laklaridan farq qiladi. Demak, ajratilgan bo‘laklar o‘zbek tili sintaksisining muhim va serqirra hodisalaridan biri hisoblanadi. Ularning o‘rganilishi o‘zbek tilshunosligida dastlab grammatik yondashuvda boshlangan bo‘lsa, keyinchalik intonatsion, semantik, funksional-uslubiy va lingvopoetik yo‘nalishda izchil rivojlandi. Turli davrlarda olib

borilgan tadqiqotlar ajratilgan bo‘laklarning gap mazmunini boyitish, nutqning ta’sirchanligini oshirish va muallif munosabatini ifodalashdagi ahamiyatini ko‘rsatib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Said M., Yo‘ldoshev A. Sintaksis. – Toshkent. 1936.
2. G‘oziyev H. Gapdagi ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklar haqida //O‘qituvchilar gazetasi. – Toshkent. 1940. 15-son
3. Abdurahmonov G‘. Ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklar. – Toshkent. 1955.
4. Ashurova D., Ubayeva F., Boltaboyeva H. Gapning uyushgan va ajratilgan bo‘laklari. – Toshkent. O‘zFA. 1962. 109-178-bet.
5. Boltaboyeva H. O‘zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar. – Toshkent. Fan. 1969. 31-, 155-160-bet.
6. G‘ulomov A. Hozirgi zamon o‘zbek tili. – Toshkent.
7. Asqarova M. O‘zbek tilida ajratilgan bo‘laklar. 1987.
8. Umrqulov B. Badiiy matnda ajratilgan bo‘laklarning uslubiy vazifalari. 1998.
9. Jo‘rayeva D. O‘zbek she’riyatida ajratilgan bo‘laklarning lingvopoetik xususiyatlari. – T. 2003. 73-87-bet.
10. Muhammadiyeva S. O‘zbek va ingliz tillarida ajratilgan bo‘laklarning qiyosiy tahlili. – T. 2006.

UO‘K 004.738.5:811.111+811.512.133

INGLIZ VA O‘ZBEK RAQAMLI PLATFORMALARINING KATEGORIYA TIZIMLARIDAGI GIPONIMIK IYERARXIYA

N.O.Jumabayeva, tayanch doktorant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek raqamli platformalari (elektron tijorat marketpleyslari)ning kategoriya tizimlarida giponimik iyerarxiyaning namoyon bo‘lishi qiyosiy tahlil qilinadi. Amazon (ingliz) va Uzum Market (o‘zbek) platformalarining real, ochiq kategoriya ro‘yxatlari misolida ikki til o‘rtasidagi toifalashtirish chegaralari va giperonim-giponim munosabatlaridagi farqlar aniqlanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ikki platforma bir xil universal taksonomik tamoyillarga tayansa-da, kategoriya chegaralarining aniq joylashuvi (birlashtirish yoki ajratish) tilga xos tarzda farqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *giponimiya, giperonim, raqamli platforma, elektron tijorat, kategoriya daraxti, taksonomiya, axborot arxitekturasi, qiyosiy tilshunoslik.*

Аннотация. *В данной статье проводится сопоставительный анализ проявления гипонимической иерархии в системах категорий английских и узбекских цифровых платформ (маркетплейсов электронной коммерции). На примере реальных, открытых списков категорий Amazon (английский) и Uzum Market (узбекский) определяются различия в границах категоризации и отношениях гипероним-гипоним между двумя языками. Результаты показывают, что при общих таксономических принципах точное положение границ категорий языково специфично.*

Ключевые слова: *гипонимия, гипероним, цифровая платформа, электронная коммерция, дерево категорий, таксономия, информационная архитектура, сопоставительное языкознание.*

Abstract. *This article presents a comparative analysis of how hyponymic hierarchy is manifested in the category systems of English and Uzbek digital platforms (e-commerce marketplaces). Using the real, publicly available category lists of Amazon (English) and Uzum Market (Uzbek), differences between the two languages in categorization boundaries and hyperonym-hyponym relations are identified. The results show that although both platforms rely on the same universal taxonomic principles, the exact placement of category boundaries (merging versus splitting) differs in a language-specific way.*

Key words: *hyponymy, hyperonym, digital platform, e-commerce, category tree, taxonomy, information architecture, comparative linguistics.*

So‘nggi yillarda raqamli platformalar, xususan elektron tijorat marketpleyslari, kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Bunday platformalarning foydalanuvchi interfeysi markazida kategoriya tizimi (taksonomiya) yotadi: har bir tovar ma’lum bir “yo‘l” bo‘ylab — umumiy toifadan

tortib eng aniq kichik toifagacha — joylashtiriladi. Bu tizim tilshunoslik nuqtai nazaridan giponimik iyerarxiyaning bevosita amaliy voqelanishidir: “kiyim” giperonimi ostida “ko‘ylak”, “shim” kabi giponimlar, ular ostida yana torroq giponimlar joylashadi.

Bu hodisaning lingvistik ahamiyati tasodifiy emas. G.A. Miller yaratgan WordNet leksik ma’lumotlar bazasi aynan giponimiya-giperonimiya munosabatlari asosida qurilgan bo‘lib, kompyuter tilshunosligida taksonomik tuzilmalarni rasmiylashtirish uchun asosiy vosita hisoblanadi [3]. L. Rozenfeld, P. Morvil va J. Arango axborot arxitekturasi nazariyasida veb-saytlar va ilovalarning kategoriya tizimini foydalanuvchi tajribasini belgilovchi “iyerarxik tashkil etish” sifatida ta’riflaydilar [4]. M. Hyorst yirik qidiruv va navigatsiya tizimlarida fasetli (ko‘p qirrali) taksonomiyalarni loyihalashtirish tamoyillarini ishlab chiqqan [2]. Kompyuter tilshunosligida esa A. Cevahir va K. Murakami yirik elektron tijorat platformasi misolida mahsulotlarni besh darajagacha chuqurlikdagi taksonomik daraxt bo‘ylab avtomatik tasniflash muammosini o‘rgangan, bunda taksonomiya 28 mingdan ortiq quyi (leaf) kategoriyani o‘z ichiga olgan [1].

Bunday raqamli taksonomiyalar yagona elektron tijorat sohasi bilan cheklanmaydi: masalan, Vikipediyaning kategoriya tizimi ham xuddi shunday giponimik mantiqqa asoslangan bo‘lib, har bir maqola bir yoki bir nechta kategoriyaga, har bir kategoriya esa o‘z navbatida undan kengroq, yuqori darajadagi kategoriyaga biriktiriladi. Biroq elektron tijorat platformalari alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki ularning kategoriya tizimi, Vikipediyadan farqli o‘laroq, ko‘ngilli mualliflar tomonidan emas, balki platformaning o‘zi tomonidan markazlashtirilgan holda, tijorat maqsadlarini ko‘zlab loyihalashtiriladi — demak, u ma’lum bir tilda so‘zlashuvchi iste’molchilar uchun “tabiiy” deb hisoblangan toifalashtirish mantig‘ini yanada aniqroq aks ettiradi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, yuqoridagi tadqiqotlarning barchasi asosan ingliz tili materialida olib borilgan; ingliz va o‘zbek raqamli platformalarining kategoriya tizimlarini bir-biriga qiyoslab, ular orasidagi giponimik iyerarxiya farqlarini ochib beruvchi tadqiqot hali amalga oshirilmagan. Bu, ayniqsa, O‘zbekistonda elektron tijoratning jadal rivojlanishi sharoitida amaliy ahamiyat kasb etadi: mahalliy platformalar ko‘pincha xorijiy platformalarning taksonomik tuzilmasidan andoza oladi, biroq bu tuzilmaning o‘zbek tiliga qanchalik “tabiiy” moslashishi alohida tekshiruv talab qiladi. Tadqiqotning maqsadi — ingliz (Amazon) va o‘zbek (Uzum Market) elektron tijorat platformalarining yuqori darajali kategoriya tizimlarini qiyosiy tahlil qilish orqali ikki tildagi giponimik iyerarxiyaning tuzilishi va chegaralanishidagi farqlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot materiali sifatida ikkita yirik, real faoliyat yurituvchi elektron tijorat platformasining ochiq, umumfoydalanuvchan kategoriya ro‘yxatlari tanlab olindi: Amazon.com (ingliz tilidagi interfeys) va Uzum Market (o‘zbek tilidagi interfeys, O‘zbekiston elektron tijorat bozorining 70 foizdan ortiq ulushiga ega yetakchi marketpleys). Har ikkala platformaning yuqori (birinchi) bosqich kategoriyalari, ya’ni foydalanuvchiga bosh sahifada yoki asosiy menyuda taqdim etiladigan eng yirik toifalar ro‘yxatga olindi va tahlil qilindi.

Amazon uchun rasmiy sotuvchi qo‘llanmalari va tahliliy manbalarda keltirilgan departament ro‘yxati (Home & Kitchen, Beauty & Personal Care, Health & Household, Clothing Shoes & Jewelry, Electronics, Appliances, Pet Supplies, Toys & Games, Sports & Outdoors va boshqalar) hamda uning uch bosqichli (“departament → subkategoriya → browse node”) tuzilishi haqidagi ma’lumotlar material sifatida olindi. Uzum Market uchun rasmiy ilova tavsifida keltirilgan 20 dan ortiq kategoriyaning to‘liq ro‘yxati (elektronika va maishiy texnika; kiyim-kechak; poyafzal va aksessuarlar; go‘zallik va parvarish; salomatlik; uy jihozlari; qurilish va ta’mirlash; avtotovarlar; bolalar uchun tovarlar; hobbi va ijod; sport va hordiq; oziq-ovqat; maishiy kimyo; kanstovarlar; zoo-tovarlar; kitoblar) material sifatida olindi. Tahlil ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda har bir kategoriya nomi giperonim sifatida belgilanib, uning semantik qamrovi aniqlandi; ikkinchi bosqichda ikki tildagi kategoriya chegaralari solishtirilib, bir platformada birlashtirilgan holda beriladigan giperonim ikkinchisida ajratilgan holda berilgan holatlar, va aksincha, qayd etildi. Bu tahlil Hyorst [2] va Rozenfeld va boshqalar [4] tomonidan tavsiflangan taksonomik chegaralash tamoyillariga muvofiq amalga oshirildi.

O‘tkazilgan tahlil ikki tipik naqshni ochib berdi. Birinchi naqsh — kategoriya chegarasining kengayishi. O‘zbek platformasida “elektronika va maishiy texnika” bitta, birlashtirilgan giperonim

sifatida taqdim etiladi. Ingliz platformasida esa bu ikkita alohida, bir-biridan mustaqil yuqori darajali kategoriyaga — "Electronics" (smartfonlar, planshetlar, o'yin konsollari, audio uskunalar, "aqlli uy" qurilmalari kabi giponimlarni qamrab oluvchi) va "Appliances" (yirik maishiy texnika) — bo'linadi. Demak, bir xil giponimik birlik (masalan, "muzlatgich" yoki "kir yuvish mashinasi") o'zbek taksonomiyasida "elektronika" giperonimi ostida, ingliz taksonomiyasida esa undan alohida "Appliances" giperonimi ostida joylashadi.

Ikkinchi naqsh — teskari yo'nalishda, ya'ni kategoriya chegarasining torayishi. O'zbek platformasida "kiyim-kechak" va "poyafzal va aksessuarlar" ikkita alohida yuqori darajali kategoriya sifatida beriladi. Ingliz platformasida esa bu ikkalasi ko'pincha bitta birlashtirilgan giperonim, "Clothing, Shoes & Jewelry", ostida jamlanadi. Bu holatda, aksincha, o'zbek taksonomiyasi torroq, ingliz taksonomiyasi esa kengroq giperonimdan foydalanadi.

Uchinchi naqsh birinchi naqsh bilan bir yo'nalishda, ammo boshqa mavzu sohasida namoyon bo'ladi. O'zbek platformasida "bolalar uchun tovarlar" bitta yagona giperonim sifatida beriladi, uning giponimik qamrovi bolalar kiyimidan tortib o'yinchoqlargacha yoyiladi. Ingliz platformasida esa bu maydon ikkita mustaqil yuqori darajali kategoriyaga, "Baby" (asosan chaqaloq parvarishi va kiyimi) va "Toys & Games" (o'yinchoqlar, o'yinlar), bo'linadi. Bu, birinchi naqsh kabi, o'zbek taksonomiyasining kengroq, ko'proq birlashtiruvchi giperonimlarga moyilligini yana bir bor tasdiqlaydi.

1-jadval.

Ingliz va o'zbek raqamli platformalarida kategoriya chegaralarining qiyosi

Soha	O'zbek (Uzum Market)	Ingliz (Amazon)	Naqsh
Elektronika/texnika	"elektronika va maishiy texnika" (1 giperonim)	"Electronics" + "Appliances" (2 giperonim)	O'zbek — kengroq (birlashgan)
Kiyim/poyafzal	"kiyim-kechak" + "poyafzal va aksessuarlar" (2 giperonim)	"Clothing, Shoes & Jewelry" (1 giperonim)	Ingliz — kengroq (birlashgan)
Bolalar tovarlari	"bolalar uchun tovarlar" (1 giperonim)	"Baby" + "Toys & Games" (2 giperonim)	O'zbek — kengroq (birlashgan)

1-jadvalda umumlashtirilgan uchta holatning ikkitasida (elektronika, bolalar tovarlari) o'zbek platformasi kengroq giperonimdan foydalansa, bitta holatda (kiyim-poyafzal) aksincha, ingliz platformasi kengroq giperonimni tanlaydi — bu shuni ko'rsatadiki, kengayish-torayish tendensiyasi qat'iy, bir tomonlama qonuniyat emas, balki har bir mavzu sohasiga xos, alohida tekshirilishi lozim bo'lgan hodisadir.

Bu naqshlarni Miller [3] taklif etgan sinsetlar (synsets) nazariyasi nuqtai nazaridan ham izohlash mumkin: WordNetda har bir sinset o'ziga xos "giponimik chuqurlik" va "kogiponimlar soni" bilan tavsiflanadi, biroq bu ko'rsatkichlar til tizimining o'zidan emas, balki lug'atni tuzuvchi (leksikograf yoki, bizning holatda, platforma dizayneri)ning konseptual qarorlaridan kelib chiqadi. Elektron tijorat platformalari uchun bu qaror sof lingvistik emas, balki amaliy-tijoriy omillar (masalan, qaysi tovarlar birga sotib olinishi, qaysi bo'lim qidiruv va navigatsiyada qulayroq bo'lishi) bilan ham belgilanadi. Shunga qaramay, natijada yuzaga keladigan kategoriya nomlari baribir tabiiy tilning leksik birliklari ("elektronika", "kiyim-kechak") bo'lib qolaveradi va ularning giponimik qamrovi haqiqiy til tashuvchilarning kognitiv toifalash odatlarini qisman aks ettiradi — shu bois bunday raqamli taksonomiyalar amaliy tilshunoslik uchun ham qimmatli, tabiiy manba hisoblanadi.

Uchinchi kuzatish giponimik zanjirning chuqurligiga tegishli. Cevahirning ma'lumotlariga ko'ra, yirik xalqaro elektron tijorat platformalarining taksonomik daraxti besh bosqichgacha chuqurlashishi mumkin [1]; Amazonning o'zi rasmiy manbalarda uch bosqichli ("departament → subkategoriya → browse node") tuzilma sifatida tasvirlanadi. Uzum Market uchun ochiq manbalarda faqat yuqori (birinchi) bosqich kategoriyalari batafsil hujjatlashtirilgan; quyi bosqichlarning aniq soni va chuqurligi ushbu tadqiqot doirasida mustaqil tekshirilmadi — bu, umumiy amaliyotga ko'ra [1; 4], ehtimol o'xshash ko'p bosqichli tuzilmaga ega bo'lsa-da, kelgusi tadqiqotlar uchun ochiq masala bo'lib qolmoqda.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, ikki tildagi raqamli platformalar orasidagi giponimik farq nafaqat leksik darajada (qanday so‘z tanlanishi), balki konseptual darajada, ya’ni qaysi tushunchalar birlashtirilib, qaysilari ajratilib giperonim sifatida rasmiylashtirilishi darajasida ham namoyon bo‘ladi. Bu farq Hyorst tomonidan tavsiflangan fasetli taksonomiya tamoyillariga [2] muvofiq, har bir platformaning o‘z auditoriyasi uchun “tabiiy” deb hisoblagan kategoriyalashtirish mantig‘ini aks ettiradi.

O‘tkazilgan tahlil ingliz va o‘zbek raqamli platformalarining kategoriya tizimida giponimik iyerarxiya bir xil universal tamoyillar [3] asosida qurilgan bo‘lsa-da, kategoriya chegaralarining aniq joylashuvi ikki tilda farq qilishini ko‘rsatdi: ba’zi holatlarda o‘zbek platformasi kengroq, birlashtirilgan giperonimlardan (elektronika+maishiy texnika), boshqa holatlarda esa ingliz platformasi kengroq giperonimlardan (kiyim+poyafzal) foydalanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda birinchi marta ingliz va o‘zbek raqamli platformalarining kategoriya tizimlari giponimik iyerarxiya nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilindi hamda “kategoriya chegarasi kengayishi/torayishi” hodisasi ikki tilni farqlovchi mezon sifatida taklif etildi.

Amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, mahalliy elektron tijorat platformalarini loyihalashtirishda axborot arxitektorlari [4] uchun tayyor qiyosiy material; ikkinchidan, o‘zbek tili uchun WordNet tipidagi leksik-semantik ma’lumotlar bazasini yaratishda [3] real, amaliy taksonomiya namunasi; uchinchidan, xorijiy platformalarni o‘zbek tiliga lokalizatsiya qilishda kategoriya nomlarini mexanik tarjima qilish emas, balki maqsadli til taksonomiyasining o‘z mantig‘iga moslashtirish zarurligini ko‘rsatuvchi dalil. Tadqiqotning cheklovi shundaki, tahlil faqat ikkita platformaning yuqori darajali kategoriyalari bilan chegaralangan; quyi darajadagi (ikkinchi, uchinchi bosqich) kategoriyalarni to‘liq qamrab olish, shuningdek natijalarning statistik ishonchliligini oshirish uchun kengroq platformalar to‘plami ustida ishlash talab etiladi. Kelgusi tadqiqotlar uchun Uzum Market va boshqa mahalliy platformalarning quyi darajadagi kategoriyalarini to‘liq xaritalash, shuningdek mobil ilovalar do‘koni kabi boshqa raqamli platforma turlarini ham qiyosiy tahlilga jalb qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Cevahir A., Murakami K. Large-scale Multi-class and Hierarchical Product Categorization for an E-commerce Giant // Proceedings of COLING 2016, the 26th International Conference on Computational Linguistics: Technical Papers. – Osaka, 2016. – P. 525–535.

2. Hearst M.A. Design Recommendations for Hierarchical Faceted Search Interfaces // Proceedings of the ACM SIGIR Workshop on Faceted Search. – Seattle, 2006.

3. Miller G.A. WordNet: A Lexical Database for English // Communications of the ACM. – 1995. – Vol. 38, № 11. – P. 39–41.

4. Rosenfeld L., Morville P., Arango J. Information Architecture: For the Web and Beyond. 4th ed. – Sebastopol: O‘Reilly Media, 2015. – 483 p.

5. Sondhi P., Sharma M., Kolari P., Zhai C. A Taxonomy of Queries for E-commerce Search // Proceedings of the 41st International ACM SIGIR Conference on Research & Development in Information Retrieval (SIGIR'18). – Ann Arbor, 2018. – P. 1245–1248.

6. Taylor A.G. Wynar’s Introduction to Cataloging and Classification. 10th ed. – Westport, CT: Libraries Unlimited, 2006.

7. Skinner M., Kallumadi S. E-commerce Query Classification Using Product Taxonomy Mapping: A Transfer Learning Approach // Proceedings of the SIGIR Workshop on eCommerce (eCOM'19). – 2019.

UO‘K 81'37:159.955

RAMZLARNING SO‘Z VA TAFAKKUR BILAN MUNOSABATI

A.Jumaniyazov, filologiya fanlari doktori, professor, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

D.Jumaniyozova, magistrant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ramzlarning so‘z va tafakkur bilan o‘zaro munosabati, ularning lisoniy va falsafiy xususiyatlari tahlil qilingan. So‘zlarning narsa va hodisalarni nomlash, inson tafakkurida tasavvurlarni shakllantirish hamda ramziy ma’nolarni ifodalashdagi o‘rni yoritilgan.*

Shuningdek, so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi va ramzlarning muloqot jarayonida yuzaga kelishi misollar asosida izohlangan.

Kalit so‘zlar: *ramz, so‘z, tafakkur, til, muloqot, ramziy ma’no, ko‘chma ma’no, lisoniy munosabat, til va tafakkur.*

Аннотация. *В данной статье анализируется взаимосвязь символов со словами и мышлением, их лингвистические и философские характеристики. Подчеркивается роль слов в наименовании вещей и явлений, формировании идей в человеческом мышлении и выражении символических значений. Также на примерах объясняется образное использование слов и возникновение символов в процессе коммуникации.*

Ключевые слова: *символ, слово, мысль, язык, коммуникация, символическое значение, образное значение, лингвистическая связь, язык и мышление.*

Abstract. *This article analyzes the interrelationship between symbols, words, and thought, as well as their linguistic and philosophical characteristics. It examines the role of words in naming objects and phenomena, shaping mental representations, and expressing symbolic meanings. Furthermore, the use of words in a figurative sense and the emergence of symbols within the process of communication are explained through examples.*

Key words: *symbol, word, thought, language, communication, symbolic meaning, figurative meaning, linguistic relationship, language and thought.*

Ma’lumki, “Ramz – muayyan narsa va hodisalarning ko‘pchilikka ruhan tanish belgi xususiyatlari asosida boshqa narsa va hodisalarning ko‘chma ma’noda nomlanishidir” degan fikrni umumlashtirib aytish mumkinki ramz narsa va hodisalarning o‘zaro mushtarak va xos xususiyatlarini anglatuvchi belgilar asosida ruhan shakllansada, ular muayyan so‘zlar bilan ifodalanadilar, ataladilar. Shu ma’noda muloqotning fenomenal hodisasi hisoblanmish “ramz”ning mantiqan so‘z va tafakkur bilan uzviy bog‘liqligi yaqqol ko‘rinib qoladi. Mazkur dahldorlikni ochiqlash maqsadida bu masalaga bafurjaroq to‘xtalamiz.

Tilshunoslikda “so‘z”ning asosiy til birligi sifatida ta’kidlanilishiga, uni o‘zaro muloqotda obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar haqida ma’lumot tashuvchi ekanligiga, hayotning ma’no va mazmun tarkibini farqlash uchun Alloh Taolo tomonidan karomat qilingan “ta’limi-asmo”ni ifodalashdagi yakka-yu yagona vosita sifatida qo‘llanilishiga barcha tilga qiziquvchilar xayrixoh qaraydilar, yakdildirlar. Yoxud narsalarning aksariyat qismi asosan “nom”lar bilan farqlanilishini, nomlarning esa so‘zlar bilan ifodalanishini moyana tafakkur qiladilar. E’tiborlisi shundaki, mazkur mushohada ilmiy jamoatchilikda “til va tafakkur” mavzusi bilan bog‘lanib o‘rganiladi. Binobarin, tildagi bu antinomik hodisa “so‘z”(nom)larning insoniyat hayotidagi o‘zaro muloqotida eng muhim *birlamchi* nutqiy vositalar ekanligi nazardan chetda qoladi va masala mohiyati umumlashtirilgan holda “til” nuqtayi nazaridan turib talqin qilinadi. Konkret narsa (so‘z va nom), abstrakt narsa (til) orqali tadqiq etiladi. Aniq – ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan yoziladigan harflar, og‘iz bilan talaffuz qilinib, quloq bilan eshitiladigan tovushlardan iborat – so‘zlarning *moddiy* va ularning obyektiv borliqni nomlab, farqlab hamda xabar(ma‘lumot) tashuvchi *ma’naviy* tomonlari o‘z-o‘zidan tushunarliday ko‘rinib, ularning har birini alohida-alohida o‘rganib, o‘xshash va farqli tomonlarini tahlil qilish zaruriyati sezilmaydi, hatto, ularni ilmiy tahlil qilish hafsalasiga ham o‘rin qoldirmaydi. Bunday yondashish hanuzgacha davom ham etib kelayapti. Darvoqe, ayrim olingan bir so‘z, bir so‘z birikmasi, bir qo‘shma so‘z, bir gap yoki bir matnning ham muloqotda tugal fikr beraolishi va ayrim hollarda boshqa narsa va hodisalarning o‘zaro xos belgilari o‘xshashligi qiyosida xayolan “ramziy” xususiyat kashf etish holatlari farqlanib o‘rganilmayapti. Bunday til birliklarining har biri qo‘llanilish o‘rniga qarab kishilar o‘rtasida o‘zaro muloqot, fikr almashinuv vazifasini bajara olish xususiyatlari muloqotda ruhan anglashilib turilsa-da, masalaga astoydil ilmiy yondashish to‘laqonli emas. Bizning fikrimizcha, aslida ham, o‘zaro fikr almashish mohiyatini tushunishda so‘z va tafakkur va ularning lisoniy va falsafiy daxldorligi asosida yuzaga keladigan “ramziy” tasavvurlar tadqiqining keng va ilmiy o‘rganilishi umumiy maqsadga ancha yaqin bo‘ladi. Buning bilan “so‘z (nom)”ning kishilik jamiyatida tutgan eng buyuk o‘rni va ular atagan, ko‘rsatgan hamda ma’lumot bergan narsa va hodisalarning ayrim jihatlari bilan o‘xshab ketishi natijasida ko‘chma ma’nolar kashf etishi,

"ramz"larning yaralish imkoniyatlari yanada kuchliroq ta'kidlaniladi. Hayotning so'z bilan boshlangani aniq, so'z bilan tamom bo'lishi ham tabiiy, biroq so'zlarning ramziy ma'no anglatishi(ramzlarga aylanishi) kishilik jamiyatining o'zaro fikr almashishi jarayonining naqshi deyish ham e'tirozdan holi bo'lsa kerak.

Mazkur faslni "Ramzlarning so'z va tafakkur bilan munosabati" deb nomlab, ularning o'zaro lisoniy va falsafiy tomonlarini baholi qudrat o'rganishga jazm qilishimizdagi asosiy sabab, odamlarning hayot, obyektiv borliq haqidagi xayolot jarayoni so'zning tafakkursiz va tafakkurning ham so'zsiz kechmasligida va bunda albatta so'zlarning ko'chma "ramziy" ma'nolarining muayyan rol o'ynashi mushohadasidir. Jumladan, so'zlarning aksariyat qismi narsa va hodisalar haqida ismi-jismiga monand ma'lumot bermasligi tilshunoslikda allaqachon dalillangan. Yoxud so'z orqali ko'rsatilayotgan va u haqda xabar berilayotgan narsa va hodisaning tildagi ifodasi ko'p hollarda mazkur narsa va hodisalar haqidagi tasavvurimizga va tafakkurimizga to'la mos kelmaydi. Ular haqida berilgan har qanday izoh hatto, sharh ham to'laqonli fikr anglatmaydi. So'z va tafakkurning o'zaro munosabatda mazkur noqitliklarini bartaraf qilish u yoqda tursin ramz mushohadasiga ham o'rin qolmaydi. Masalan, "ona" degan so'z (nom)ning dalili faqat onadir, ona siymosini tafakkur qilishdir. Onaning tabiati va mohiyati borasida aytilgan har qanday izoh esa ona to'g'risida to'laqonli ma'lumot bera olmaydi. Uning izohi borasida aytilgan har bir so'z, har bir gap, hatto matn ham onaning kim va nimaligi haqida darak berishga ojizlik qiladi.

"Ona"ni ko'zimiz ko'radi, qulog'imiz eshitadi, tilimiz ona suti ta'mining g'ayritabiiy mazasini totadi, burnimiz hidlaydi, tanamiz onadan taralayotgan benazir taftni va ko'zi tarqatayotgan qaynoq mehrini qalbimiz his qiladi. Lekin kimni ko'rganimiz, kimni eshitganimiz, kimning iforidan bahramand bo'lganimiz, issiq bag'rida erkalaganimiz kabi yana boshqa ko'p hislarimizni so'z bilan ifodalashga hatto gap topa olmaymiz, chunki bunday so'zlar va gaplarni hali insoniyat yaratgan emas. "Ona"ni faqat biz yuqorida eslatib o'tgan barcha xislatlari bilan to'liq holda aynan *ruhan*(ongimizda, tafakkuran va tasavvuran) aniq ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin. Uni bola uchun kimligini izohlashga so'zlar yetmaydi. Shu ma'noda izohli lug'atlarda berilgan barcha sharhlar "ona"ni kimligini bildirish uchun kamlik qiladi. Biz "ona"ni bunday mo'tabar zot uchun aytilgan madh yoki izoh so'zlar orqali emas, tafakkurimiz (ruh) quvvati orqaligina sezamiz, his qilamiz. So'z lar "ona"ning ayrim xislat *(farzandli, tuqqan xotin, tanasidan tana ajratuvchi jins, to'qqiz oy ko'kragidan sut bergan ayol, mushtipar xotin, ayol jinsi, o'ta mehribon inson)*larini nomlaydi, biroq ularning bari bu munis zotni kim ekanligini anglash uchun kamlik qiladi. Shu bois yuqorida ta'kidlaganimizdek, "ona"ning biz uchun *kim*ligi dalili faqat "ona"dir, mazkur so'z asosida qilingan tafakkuridir, yoxud qalbimizdagi ona qiyofasi mushohadasidir. Fikrimizni quvvatlash maqsadida analog misol keltirish mumkinki, "quyosh" so'zining dalili ham quyoshdir, ya'ni u haqidagi tasavvur, tafakkurdir. *Kun, oftob, yoritqich, Quyosh tizimining yulduzi* kabi so'zlar esa uning izohlaridir. Izohlar esa tabiiy ravishda ism - jismga monand ma'lumot berishdan chekinishdir.

Mazkur mulohazalarni "so'z va tafakkur" mavzusiga ("ona" so'zi bilan) bog'lab davom ettiradigan bo'lsak, qo'shimcha ravishda ta'kidlash joizki, ona so'zi orqali ruhi sog'lom har qanday farzand o'zining besh hissiy a'zolari tuyg'usiga tayangan holda "ona"ni o'z ruhi orqali to'liq mushohada qiladi. Zero, farzand ruhi o'zining onasi siymosini bevosita ko'zlari oldida gavdalantiradi, faqat ona qiyofasi ro'y-rost, aniq, tirnog'idan soch tolasigacha namoyon ko'rinmasada, silueti (soyaga o'xshash rasmi) tasavvur qilinadi, muayyan chizmalarda tafakkur etiladi. Va shu "ona" siluetning o'zi kishi uchun har qanday izohdan afzal bo'ladi. Masalaning ikkinchi tomoni ham borki, agar shaxs xohlasa onaning har bir muchasini xotirasi orqali ko'z oldiga to'liq, mukammal holda keltirishi mumkin. Darvoqe, inson xotirasi ham shunday xilqatki, u sizni ona oldiga olib boradi yoki onani sizning oldingizga aynan olib keladi. Farzand nafaqat onaning ko'zlari, nigohlari, agar ixlos bilan xohlasa, har bir kiprik tolasigacha eslay olishi mumkin. Bu esa xotira orqali inson o'z hayotini *qaytara olishi,* daqiqalar hisobiga bo'lsada ikkinchi marta yashay olishini taqozo qiladi. Aytmoqchimizki, inson xotirasi yordamida nisbatan qisqa bo'lsada, u qayta yashab olishi mumkin. Eng qizig'i shundaki, insonning qaysi hayot pallasi eslanilsa, uning o'zi ham o'sha palladagi ko'rinishi bilan (bolalik davrida bola, o'quvchi paytida o'quvchi, kuyov (kelin) paytida kuyov(kelin)) bo'lib, xotira sahnasida ishtirok etadi. Chunonchi, qarilik paytida yoshlik eslanilsa o'sha davrga,

o‘zining bugungi munkaygan ko‘rinishida bormaydi. Eslanilgan vaqtni ikkinchi (yana bir marta) yashab oladi. Mazkur hikmatlarni hozirgi kunlarda amalga oshayotgan ilmiy-texnik inqilobning samaralari hisoblanmish videosur'at, videotasvir [1], videotasma, videofilmlar bilan bog‘lab o‘rganish mumkin. Biroq, biz ta'kidlayotgan ruhiy xotiralarning zikr qilingan texnik vositalardan asosiy farqi shuki, biz "xotira"da bevosita *ishtirokchi* bo‘lib qatnashamiz, videotasmalar namoyishida esa *tomoshabin* hisoblanamiz. O‘zimiz ishtirok qilgan sur'at, tasvir va filmlar hayotimizning muayyan pallalariga monand shakl, ko‘rinishimizni aks ettirishlari mumkin. Ularni faqat tomoshabin sifatida ko‘zdan kechiramiz, tasvirda ishtirokchimiz, uni nazardan o‘tkazish, ko‘rish jarayonida esa sur'atlarga qiziquvchi tomoshabinmiz.

Bilamizki, har qanday so‘zning mohiyati narsa va hodisalarni atash (nomlash), ko‘rsatish bilan bir qatorda, ular haqida muayyan ma'lumot ham berishdir. Ma'lumotda narsa haqida nafaqat darak beriladi, balki o‘sha narsaning tarkibiy qismlari, nimadan iboratligi va zamirining nimaga loyiqligi haqida inson qalbida ruhan muayyan tafakkurlar mujassamlashadi. Yoxud, odam muayyan so‘zning yozma shakli, imlosi va og‘zaki jarangi, talaffuzi bilan tanishar ekan, so‘z orqali berilayotgan ma'lumotlar borasida nimalarni tafakkur qilish mumkinligini mushohada qiladi, muayyan shaxsiy xulosalarga keladi, jarayon uchun guvohlik beradi. Kishilik jamiyati hayoti tajribasidan ma'lumki, so‘z (til) ijtimoiy hodisa bo‘lsada, tafakkur jarayoni individual kechadi. E'tiborlisi shundaki, shaxsiy fikrlar barchaga xoslashib, ijtimoiy tus ham olishi mumkin, shu asnoda jamiyatning ijtimoiy tafakkuri ham shakllanadi, xalqda umumiy mafkura, umumiy tafakkur hosil bo‘ladi.

So‘z va tafakkurning o‘zaro munosabatlari bobida yana shu narsani aytish joizki, so‘zismi-jismiga monand hamda u orqali berilayotgan xabarni aniq tafakkur qilinishi uchun nomlangan har bir narsa va hodisani odam o‘zining 5 sezgi a'zolari vazifasiga nisbatan aynan his qilgan bo‘lishi kerak. Yoxud odam narsani ko‘rgan, tovushni eshitgan, iforini hidlagan, ta'mni tatib ko‘rgan, quruq-ho‘lni, issiq-sovuqni, qattiq-yumshoqni yoki huzur-og‘riqni tajribadan o‘tkazgan bo‘lishi va ta'sirlarini yaxshi-yomon farqlagan bo‘lishi shart. Tabiiyki yuqorida ta'kidlaganimizdek, hayotda inson uchratadigan barcha hodisalarni nomlab chiqishga avvalo, so‘zlar yetishmaydi[1], so‘ngra esa, mabodo, so‘z topilsa, ular orqali berilayotgan ma'lumotlarni yana boshqa bir so‘z bilan izohlash navbatdagi muammolarni keltirib chiqaradi, ya'ni so‘zlar so‘z bilan ifodalanmoqchi bo‘linadi, yoxud izoh ustiga izoh qo‘shilib, so‘zning asl ma'no va mazmuni tafakkurdan uzoqlashaveradi. Narsani ism-jismiga ayni bo‘lish zaruriyati narsani ko‘rganlik hisobiga, hodisani tasavvur qila olish kuchiga ruhan yondashish asosida bartaraf qilinadi. Bu esa nafaqat sezgi a'zolari, balki asosini (poydevorini) inson ruhi ta'minlagan ong va aqlning in'ikosi hisoblanadi. Zikr qilingan nazariy fikrlarimizni amaliy misollar bilan quvvatlashga harakat qilamiz. Bilamizki, milliy tilimizda odamning biror narsa yoki hodisaga ehtiyoji borligini ifodalash yoki muhtoj ekanligini bildirish uchun *darkor, zarur, kerak, lozim, shart* kabi til birliklari bor. Ular ko‘p hollarda sinonim (ma'nodosh) so‘zlar sifatida muloqotda o‘zaro variantdosh hisoblanadilar. Yoxud ulardan biri o‘rniga ikkinchisi qo‘llanilsa, mazkur so‘zlar orqali anglashilayotgan xabarda katta anglashilmovchiliklar ro‘y bermaydi. Chunonchi, odam biror kitobni o‘qishga o‘zida ehtiyoj sezsa, – *Bu kitobni o‘qib olishim darkor;*

Bu kitobni o‘qib olishim zarur;

Bu kitobni o‘qib olishim kerak;

[1] Obyektiv borliqda narsa va hodisalar beadaddir. Eng mukammal madaniy til egalarining nomlagan narsalari soni esa hozirgacha 3,5 mlndan oshgan. Rivojlangan tillardan bo‘lmish ingliz va nemis tillari lug‘at tarkibida esa 2,5 mln, o‘zbek tilida 1,2-1,4 mln til birliklari bor deb taxmin qilinadi. E'tiborlisi shundaki, olamdagi narsa va hodisalarning nomlari yoki ularning majmuasi insoniyat (muayyan odamlar yoki ularning jamoasi) tomonidan yaralgan emas. Bu so‘zni falonchi yoki falonchilar muayyan narsalarni nomlash uchun yaratdi, degan fikr hech kimning hayoligayam kirmaydi. Nainki, bunday odam yo‘qligi, umuman bo‘lmagan va bo‘lmasligi, so‘z (til) yaralishi orqasida esa yagona Alloh turishi tilshunoslikning keyingi tadqiqotlarida baralla ta'kidlanmoqda. Muayyan insonlar tomonidan muayyan hikmatli so‘zlar, uchar so‘zlar yoki masallar aytilgani va tillarda o‘zlarining munosib o‘rniga ega ekanligi uqtiriladi. Jumladan, "evrika" (Aristotel), "veni, vidi, viki" – "bordim, ko‘rdim, yengdim" (Iskandar Zulqarnayn), "rosti-rusti" yoki "rusti-rosti" - "haqiqat kuchdadir" yoki "kuch haqiqatdadir" (Amir Temur) kabi uchar, hikmatli so'zlar muayyan tarixiy shaxslarning shaxsiy tajriba mahsuli karomati deb tan olinadi. Aslida esa bular ham o‘sha shaxslar qalbiga Alloh tomonidan solingani nazardan chetda qoladi. Uchar so‘zlar muallifi sifatida har safar shaxslar nomlanilib turadi lekin ularning haqiqiy muallifi – Alloh eslanilmaydi.

Bu kitobni o‘qib olishim lozim;

Bu kitobni o‘qib olishim shart. – qabilida gaplar tuzishi mumkin. Misol sifatida keltirilgan 5 ta gap ham so‘z layotgan shaxs o‘zining to‘laqonli hayoti uchun ko‘rsatilgan kitobni o‘qishga muhtoj ekanligini tafakkuran anglatadi. Mazkur gaplarni eshitgan yoki o‘qib ko‘rgan zamondosh mushohada qiladiki, so‘zlar orqali ishora qilingan *kitobni o‘qish ehtiyoji*, avvalo, gapiruvchining o‘ziga qo‘ygan shaxsiy talabi, qolaversa zamondoshlar oldiga qo‘ygan sharti izhor qilinyapti. Go‘yoki, gapiruvchi *bu kitobni* o‘qishga muhtoj va zamondoshlar bilan shartlashib olmoqchi! Gapiruvchi o‘zining dil izhori bilan o‘z shaxsiy istak va xohishini bildirish bilan bir qatorda, o‘zi murojaat qilayotgan shaxslarga ham muayyan talab qo‘yayapti. Eshituvchilar rozi bo‘lsinlar-u, gapiruvchining istagini bajarsinlar. Binobarin, gapiruvchi tomonidan bayon qilinayotgan muhtojlik uning uchun hayotiy zarurat ekanligi, niyatining amalga oshishi, albatta, darkorligi va eshituvchilarning gap orqali bildirilayotgan xabarga xayrixoh qarashlari zarurligi, kerak bo‘lsa muayyan ma’noda voqif qilinayotgan voqelikka hojatbaror bo‘lishlari shartliligini ruhi sog‘lom odam tezda anglaydi. Fahmlanadiki, mazkur kitobni o‘qish gapiruvchi uchun kerak. Qilingan matn tahlilidan ko‘rinib turibdiki, biror narsaga muhtojlikni bildirish uchun milliy tilimizda rang-barang sinonimik so‘zlar mavjud. “Muhtoj” so‘ziga *darkor, zarur, kerak, lozim, shart* kabi leksemalar o‘zaro ma’nodosh so‘zlar hisoblansalar, uning gapda yoki matnda qo‘llanish o‘rni va ifoda qudratini *ehtiyoj, istak, talab, hojat, xohish, niyat, maqsad, murod, orzu, hojatmand, hojatbaror, so‘rov, xaridorlik* kabi til birliklari bilan ifodalash va variantdosh sanash mumkin. Qizig‘i shundaki, yuqorida sinonim deb hisoblangan *muhtoj, lozim, talab, shart, zarur* kabi so‘zlar arab tilining mahsuli, *darkor* esa fors tiliga oid til birliklaridir. Izohli lug‘atimizda “kerak” leksemasiga etimologik sharh berilmagan, bu so‘z milliy tilimiz so‘z tarkibiga xos leksema deb hisoblangan. Mazkur so‘zlar haqida tafakkurimizni chuqurlashtirsak, yuqoridagi so‘zlar sememasi(denotatiga)ga yana ayrim sema(konnotat)lar qo‘shib, tafakkurni yanada kengaytirish mumkin. Darhaqiqat, kitobni o‘qishim lozim (o‘qimasam uyat), kitobni o‘qishim shart (o‘qishim o‘qituvchim tomonidan buyurilgan, men esa shunga kelishganman), o‘qishga muhtojman (o‘qishsiz orzuyim amalga oshmaydi, o‘qishga hojatmandman), o‘qishim zarur (o‘qimasam hayotimga, obro‘yimga zarar), o‘qishim kerak (o‘qishsiz yashay olmayman, o‘qish meni turli ofatlardan himoya qiladi), o‘qish men uchun muhim (o‘qish hayotimning asosiy mavzusi, ma’nosi va mazmuni) kabi gap strukturalari orqali kishi tafakkur jarayoni kattayib, mulohazalar kengayib, mushohadalar aniqlashib boradi, degan fikrlar bayoniga ijtimoiy va ilmiy jamoatchilikda katta e’tirozlar bo‘lmasa kerak.

So‘z, tafakkur va ramzlarning o‘zaro lisoniy va falsafiy munosabatlarini yakunlab shu narsani ta’kidlash mumkinki so‘z tilning eng kichik mustaqil qo‘llanuvchi, mustaqil ma’noga ega birligi hisoblanadi va soha olimlarining barchasi mazkur sharhga xayrixoh qaraydilar. Tafakkur esa insonning ko‘rgan, eshitgan, tamini sezgan, hidlagan va tanasi orqali his qilgan narsa va hodisalarni anglash borasida qilgan mushohadasidir, ya’ni obyektiv borliqning voqeligi borasida qilgan tasavvuri, tushunchasi va muhokamasini qalbida anglanish in’ikosi hisoblanadi [2]. So‘z larning ma’nosi va so‘zlar orqali ifodalangan narsa va hodisalarning belgilari o‘rtasidagi o‘xshashlikni anglash tafakkuri orqali muloqotda ramzlar shakllanadi. Yuqorida keltirilgan jonli misollar orqali ta’kidlash mumkinki “ona”so‘zi tafakkuri ostida *mehribonlik*, “quyosh” so‘zi ostida *yorug‘lik,* “kitob” so‘zida *ma’rifat,* “kerak”, “zarur”, “lozim”, “shart” so‘zlari orqali *muhtojlik* kabi ramziy ma’nolar kashf etadilar. Shu asnoda muloqotda ramzlar yaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jumaniyazov A. Matnazar Abdulhakim she’riyatida badiiylik, ayrim stilistik bo‘yoq va vositalar. Ilm sarchashmalari. 2018№3. 3-8 b.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2020. – 4-жилд. 13-б.

UO‘K 811.512.133:398.8

XORAZM XALQ QO‘SHIQLARIDA “ISHQ (MUHABBAT)” VA “YOR” KONSEPTLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

M.X.Jumanyazova, filologiya fanlari doktori (DSc), professor, Ma’mun universiteti, Xiva

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xorazm xalq qo‘shiqlarida “ishq (muhabbat)” va “yor” konseptlarining lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Ushbu konseptlarning semantik tarkibi, milliy-madaniy mazmuni, obrazli ifodalanish shakllari hamda xalqning estetik tafakkuri bilan aloqador jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, konsept, milliy-madaniy konsept, Xorazm xalq qo‘shiqlari, ishq, muhabbat, yor, milliy mentalitet, estetik ideal, metafora, ramz, xalq poetikasi.*

Аннотация. *В данной статье исследуются лингвокультурологические особенности концептов «ишқ (любовь)» и «ёр (возлюбленный/возлюбленная)» в хорезмских народных песнях. Анализируются семантическая структура данных концептов, их национально-культурное содержание, формы образного выражения, а также аспекты, связанные с эстетическим мышлением народа.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, концепт, национально-культурный концепт, хорезмские народные песни, ишқ, любовь, ёр, национальный менталитет, эстетический идеал, метафора, символ, народная поэтика.*

Abstract. *This article explores the linguocultural features of the concepts of “ishq (love)” and “yor (beloved)” in Khorezm folk songs. It analyzes the semantic structure of these concepts, their national and cultural content, forms of figurative expression, and aspects associated with the aesthetic thinking of the people.*

Key words: *linguoculturology, concept, national-cultural concept, Khorezm folk songs, ishq, love, yor, national mentality, aesthetic ideal, metaphor, symbol, folk poetics.*

Kirish. Globallashuv jarayonlari jadallashgan hozirgi davrda milliy-madaniy merosni asrab-avaylash, xalqning tarixiy tajribasi va ma’naviy qadriyatlarini til materiallari asosida tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodida saqlanib qolgan milliy tafakkur shakllarini o‘rganish muayyan hudud yoki etnik guruhning o‘ziga xos madaniy dunyosini anglash imkonini beradi.

Mazkur masalani o‘rganishda antropotsentrik paradigma doirasida shakllangan lingvokulturologiya yo‘nalishi muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Lingvokulturologiya til birliklarida mujassamlashgan madaniy mazmunni, xalqning dunyoni idrok etish usullarini, tarixiy va ijtimoiy tajribasining lisoniy ifodasini tadqiq etadi. Bu yo‘nalishda konsept tushunchasi markaziy kategoriyalardan biri sifatida qaraladi.

Konsept inson ongida shakllanadigan, muayyan hodisa yoki tushuncha haqidagi bilim, tasavvur, hissiy munosabat va madaniy tajribani birlashtiruvchi murakkab mental birlikdir. Xalq og‘zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo‘lgan qo‘shiqlar ana shunday konseptlarni o‘rganish uchun boy lingvistik material hisoblanadi. Chunki qo‘shiqlarda insonning ichki kechinmalari, muhabbat, sadoqat, sog‘inch, ayriliq, go‘zallik va hayot mazmuni haqidagi qarashlari obrazli ifodasini topadi. Ularda qo‘llangan har bir so‘z, ibora va poetik tasvir muayyan madaniy mazmunni ifodalashi mumkin.

Xorazm xalq qo‘shiqlari ham mazmuniy va badiiy xususiyatlariga ko‘ra alohida tadqiqot obyektidir. Ularda voha xalqining turmush tarzi, estetik qarashlari, insoniy munosabatlari, muhabbat falsafasi va ma’naviy qadriyatlari o‘ziga xos tarzda aks etgan. Ayniqsa, ishq va yor bilan bog‘liq obrazlar qo‘shiqlarning yetakchi mazmuniy qatlamlaridan birini tashkil etadi.

Xorazm xalq qo‘shiqlarida ishq faqat ikki inson o‘rtasidagi hissiy munosabat sifatida emas, balki inson ruhiyatini o‘zgartiruvchi, uni fidoyilikka, iztirobga va o‘zligini qayta anglashga undovchi kuch sifatida tasvirlanadi. Yor esa muhabbatning bevosita obyekti bo‘lish bilan birga, go‘zallik, mukammallik, ma’naviy yuksaklik va hayotiy intilish timsoliga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, “ishq (muhabbat)” va “yor” konseptlarini alohida semantik birliklar sifatida o‘rganish, ularning o‘zaro

munosabati hamda Xorazm xalq qo‘shiqlari tilida namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Til va madaniyat munosabatlari, konseptning mohiyati hamda milliy tafakkur bilan aloqadorligi jahon tilshunosligida turli ilmiy yo‘nalishlar doirasida tadqiq etilgan [1; 2; 3; 5].

O‘zbek tilshunosligida Sh. Safarovning kognitiv tilshunoslikka oid qarashlari konseptning mental mohiyatini anglashda muhim nazariy manba hisoblanadi. [4]

So‘nggi yillarda muhabbat konseptining o‘zbek tilidagi ifodasi, uning milliy-madaniy va metaforik xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, O. Sherimbetovaning rus va o‘zbek tillaridagi “love/muhabbat” konseptining lingvistik va madaniy asoslariga bag‘ishlangan maqolasida muhabbat tushunchasining milliy tafakkur va qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlari yoritilgan [7]. M. K. Sadullayevaning o‘zbek xalq maqollaridagi muhabbat konseptining milliy-madaniy stereotiplariga bag‘ishlangan tadqiqotida esa mazkur tushunchaning sadoqat, hurmat, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar bilan aloqasi tahlil qilingan [8]. Shuningdek, muhabbatning metaforik konseptuallashuviga bag‘ishlangan qiyosiy tadqiqotlarda abstrakt hissiy holatlarning til vositasida obrazli ifodalanishi masalasi o‘rganilgan [9].

Mavjud tadqiqotlar muhabbat va yor tushunchalarining turli tillar, maqollar hamda badiiy-poetik matnlardagi ifodasini o‘rganishga qaratilgan [10; 11]. Binobarin, Xorazm xalq qo‘shiqlari materiallari asosida ishq va yor konseptlarining o‘zaro munosabati, ularning hududiy-madaniy mazmuni, xalqona obrazlar va shevaga xos birliklar orqali ifodalanishini yaxlit holda tadqiq etish mazkur maqolaning ilmiy yo‘nalishini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini antropotsentrik paradigma, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning nazariy tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot materiali sifatida Xorazm xalq qo‘shiqlaridan olingan, ishq va yor munosabatlarini, muhabbat kechinmalarini, oshiqning ruhiy holati hamda yor obrazining estetik talqinini aks ettiruvchi namunalar tanlab olindi [6].

Natijalar. Xorazm xalq qo‘shiqlari materiallarining lingvokulturologik tahlili natijasida ishq va yor konseptlarining mazmuniy jihatdan o‘zaro bog‘liq, biroq semantik vazifasi va obrazlar tizimiga ko‘ra farqlanuvchi birliklar ekanligi aniqlandi.

Ishq konsepti, asosan, oshiqning ichki kechinmalari, ruhiy o‘zgarishlari, fidoyiligi va iztirobini ifodalasa, yor konsepti ana shu kechinmalarning markazida turgan estetik ideal va ma’naviy qadriyatni namoyon etadi.

Ishq insonning boshqa bir shaxsga nisbatan chuqur emotsional va ruhiy bog‘lanishini ifodalovchi murakkab konseptual birlikdir. Uning mazmunida muhabbat, intilish, sadoqat, fidoyilik, iztirob, sog‘inch va o‘zlikni anglash kabi semantik qatlamlar mujassamlashadi.

Xorazm xalq qo‘shiqlarida ishq ko‘pincha insonning butun ruhiy olamini qamrab oluvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Bunda oshiqning ichki kechinmalari turli obrazli birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan:

Ishqning etagin joni dilim birla tutibman,
Sen ketgali yodimni o‘zimdin unutibman,
Do‘sti yorlarim g‘ayri birlan bazma tushibmish,
Taqiqina yetguncha necha qonlar yutibman.

Ushbu qo‘shiq parchasida ishq konsepti bir nechta mazmuniy qatlam orqali ifodalangan. Birinchi misradagi “ishqning etagin tutmoq” birikmasi muhabbatga butun borliq bilan berilish, unga o‘zini bag‘ishlash ma’nosini anglatadi. “Joni dilim birla” birikmasi esa ishqning inson uchun shunchaki hissiy holat emas, balki hayotiy ahamiyatga ega qadriyat ekanligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi misradagi “yodimni o‘zimdin unutibman” ifodasi ishq ta’sirida shaxsiy “men”ning ikkinchi planga o‘tishini, oshiqning o‘z ruhiy olamini yor bilan bog‘liq tasavvurlar orqali idrok etishini bildiradi. “Qonlar yutibman” birikmasi esa ichki iztirobning yuqori darajasini obrazli tarzda ifodalaydi.

Binobarin, mazkur qo‘shiqda ishq konsepti fidoyilik, o‘zlikni unutish va ruhiy iztirob mazmunlarini birlashtiradi.

Boshqa bir qo‘shiq namunasida ishq insonni odatiy ijtimoiy holatidan chiqaruvchi ruhiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi:

Eshikning oldidan bir bola o‘tar,
Uning ishqi mening ishqimdan battar,
Uning ishqi meni qalandar etar,
Yoqma bola, o‘z yong‘anim oz emas.

Bu misralarda “qalandar etar” birikmasi alohida lingvomadaniy mazmun kasb etadi. Qalandar obrazi xalqning tarixiy-diniy va adabiy tasavvurlarida dunyoviy manfaatlardan chekinish, ruhiy erkinlik va o‘ziga xos hayot tarzini anglatishi mumkin. Qo‘shiq kontekstida esa ushbu obraz oshiqning muhabbat ta’sirida odatiy holatdan chekinishi, o‘z kechinmalariga butunlay berilishini ifodalaydi.

“Yoqma bola, o‘z yong‘anim oz emas” misrasida ishq olov bilan qiyoslanadi. Bu yerda “yonmoq” fe’li bevosita jismoniy harakatni emas, balki kuchli ruhiy iztirob va ehtirosni ifodalovchi metaforik birlik sifatida qo‘llangan.

Xorazm xalq qo‘shiqlarida ishq konsepti fidoyilik – oshiqning o‘zini muhabbatga bag‘ishlashi; o‘zlikni unutish – shaxsiy manfaat va kechinmalarning ikkinchi planga o‘tishi; ruhiy iztirob – muhabbat bilan bog‘liq ichki azob va kechinmalar; maftunkorlik – yorning tashqi va ichki go‘zalligiga berilish; ehtiros – muhabbatning inson ruhiy olamini to‘liq egallashi kabi mazmuniy qatlamlarni qamrab oladi. Shu jihatdan ishq konsepti Xorazm xalq qo‘shiqlarida insonni o‘zgartiruvchi, uning ruhiy olami va hayotiy qarashlariga ta’sir ko‘rsatuvchi kuch sifatida talqin qilinadi.

“Yor” konsepti xalq poetik tafakkurida muhabbat obyekti bo‘lish bilan birga, estetik ideal, go‘zallik, ma’naviy yuksaklik va hayotiy intilish timsolini ham anglatadi. Xorazm xalq qo‘shiqlarida yor obrazi ko‘pincha idealizatsiya qilinadi, uning tashqi qiyofasi, kelishi, harakati va u bilan bog‘liq makonlar poetik mazmun kasb etadi.

Quyidagi qo‘shiq parchasida yorning kelishini kutish bilan bog‘liq tayyorgarlik jarayoni obrazli tasvirlangan:

Yorim keladi deb hovuz o‘ydirdim,
Tevaragin qizil guldan to‘ldirdim,
O‘n ikki yoplarga ko‘pir qo‘ydirdim,
Men bora bilmadim, yor o‘zi kelsin.

Mazkur misralarda “hovuz”, “qizil gul”, “ko‘prik” kabi birliklar yor obrazi bilan bog‘liq ramziy mazmunni shakllantiradi. “Hovuz o‘ydirish” yorning tashrifiga tayyorgarlik va kutish holatini bildiradi. Hovuzning atrofini gul bilan bezash esa go‘zallik, orastalik va estetik muhit yaratish istagini ifodalaydi.

“Ko‘prik qo‘yish” birligi esa ikki makon o‘rtasidagi bog‘liqlikni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida talqin qilinishi mumkin. Qo‘shiq kontekstida u uchrashuvga intilish, masofani qisqartirish va yor bilan muloqotga erishish istagini anglatadi. Shunday qilib, yor konsepti bu o‘rinda oddiy shaxs obrazidan chiqib, butun makonni o‘ziga bo‘ysundiruvchi, atrofdagi muhitni estetik jihatdan o‘zgartiruvchi markaziy obrazga aylanadi.

Boshqa bir qo‘shiqda yorning qadri inson hayoti bilan bog‘liq yuksak mezon sifatida ifodalanadi:

Yorimning hovlisi yopning bo‘ynida,
Jon bersam arziydi yorning yo‘lida,
Uning oq bilagi maning bo‘ynimda,
Kelaver joningdan qo‘rqma izingdan.

“Jon bersam arziydi yorning yo‘lida” misrasida yorning qadri hayotdan ustun qo‘yiladi. Bu orqali muhabbatning fidoyilikka asoslangan mohiyati namoyon bo‘ladi. “Oq bilak” obrazi esa xalqona estetik tasavvurlarda go‘zallik, latofat va jozibadorlikni ifodalaydi.

Mazkur parchada yorning jismoniy qiyofasi va unga bo‘lgan ruhiy munosabat o‘zaro uyg‘unlashadi. Natijada yor obrazi tashqi go‘zallik va ichki ehtirom birligida shakllanadi.

Xorazm xalq qo‘shiqlarida yor konsepti estetik ideal – go‘zallik, joziba va mukammallik timsoli; muqaddas qadriyat – ehtirom va fidoyilikka loyiq obraz; hayotiy intilish – kutish, uchrashish va visolga erishish istagi; milliy-madaniy obraz – hududiy turmush tarzi, kiyinish madaniyati va an’analar bilan bog‘liq timsol kabi mazmuniy qatlamlarni o‘zida birlashtiradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari Xorazm xalq qo‘shiqlarida ishq va yor konseptlari xalqning muhabbat haqidagi qarashlarini ifodalovchi o‘zaro aloqador, ammo mazmuniy jihatdan mustaqil birliklar ekanligini ko‘rsatadi. Xorazm xalq qo‘shiqlarida ishq va yor konseptlari mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning konseptual vazifalari farqlanadi. Ishq oshiqning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va hissiy munosabatlarini ifodalasa, yor ana shu tuyg‘ular yo‘naltirilgan obraz, ya’ni muhabbatning estetik va ma’naviy markazi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xorazm xalq qo‘shiqlarida ishq va yor konseptlarining ifodalanishida xalqona poetik tafakkurga xos obrazlilik ustuvorlik qiladi. Mazkur konseptlarda emotsional va estetik qatlamlar o‘zaro uyg‘unlashadi. Ishq konseptida iztirob va fidoyilik, yor konseptida esa go‘zallik va ehtirom yetakchilik qilsa-da, har ikkala birlikda ham muhabbatning yuksak qadriyat sifatidagi talqini mavjud.

Demak, ishq va yor konseptlarining lingvokulturologik tahlili Xorazm xalq qo‘shiqlarida muhabbatning nafaqat individual ruhiy kechinma, balki milliy-madaniy qadriyat sifatida ham talqin qilinishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Ishq va yor konseptlari Xorazm xalq qo‘shiqlarining mazmuniy asosini tashkil etuvchi muhim milliy-madaniy birliklardir. Ular xalqning muhabbat, go‘zallik, insoniy munosabatlar va ma’naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi.

Xorazm xalq qo‘shiqlarida ishq va yor konseptlari xalqning milliy-estetik tafakkuri, ruhiy olami va madaniy xotirasini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik hodisalardir. Ularning o‘ziga xos lisoniy va obrazli ifodalanish xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek xalq poetik tafakkurining hududiy jihatlarini aniqlash, folklor matnlarida mujassamlashgan milliy-madaniy qadriyatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – Москва: Прогресс, 1985.
2. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – Москва: Академический проект, 2004.
3. Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт. – Москва: Гнозис, 2004.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001.
6. Хоразм хазинаси: Маданий мерос/ Тўпловчи: Собир Эҳсон Турк. Нашрга тайёрловчи: К.Нуржонов. - Урганч: Хоразм, 1996. - 58 б.
7. Sherimbetova O. Linguistic and Cultural Foundations of the Concept of “Love” in the Russian and Uzbek Languages // Tamaddun nuri. – 2026. – 5-jild, 1-qism. – B. 289–291. DOI: 10.69691/xxb85e78.
8. Sadullayeva M.K. National and Cultural Stereotypes of the Concept of Love in Uzbek Folk Proverbs // Oriental Journal of Philology. – 2026. – Vol. 6, No. 5. – P. 295–301. DOI: 10.37547/supsci-ojp-06-05-31.
9. Saidov Kh. Sh., Salohiddinova U.N. The Conceptualization of Love Through Metaphors in English and Uzbek Languages: A Cognitive Linguistic Perspective // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. – 2026. – Vol. 4, No. 5. – P. 105–107.
10. Bobokhujaeva Z. The Concept of “Beloved” (“Yor”) as a Linguocultural Unit Expressing National Mentality and Gender Representation in English and Uzbek Poetry // Filologiya va pedagogika. – 2026. – № 9 (28). – B. 7–8.
11. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – New York: Oxford University Press, 1997.

UÖK 811.512.133’373.7

ÖZBEK TILI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINI IDENTIFIKATSIYALAŞ MEZONLARI VA ULARNING STRUKTUR TIPLARI

Jumaqulova Ş. Q., doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Maqolada özbek tili frazeologik birliklarini erkin söz birikmalaridan farqlaş mezonlari va ularning struktur tiplari tadqiq etiladi. Frazeologizm belgilari hal qiluvçi va qöşimça belgilarga ajratilib, özbek tiliga moslaştirilgan transformatsion sinovlar taklif etiladi. Kanonik şaklni belgilaş qoidalari işlab çiqilib, birlikning struktur tiplari aniqlanadi.*

Kalit sözlar: *frazeologik birlik, identifikatsiya, kanonik şakl, nisbiy turğunlik, idiomatiklik, struktur tip.*

Аннотация. *В статье исследуются критерии разграничения фразеологических единиц и свободных словосочетаний в узбекском языке, а также их структурные типы. Признаки фразеологизма разделены на определяющие и дополнительные, предложены трансформационные тесты. Разработаны правила канонической формы, определены структурные типы единиц.*

Ключевые слова: *фразеологическая единица, идентификация, каноническая форма, относительная устойчивость, идиоматичность, структурный тип.*

Abstract. *The article examines criteria for distinguishing Uzbek phraseological units from free word combinations and their structural types. Features of phraseological units are divided into defining and supplementary ones, and transformational tests are proposed. Rules for the canonical form are developed, and the structural types of units are determined.*

Keywords: *phraseological unit, identification, canonical form, relative stability, idiomaticity, structural type.*

Frazeologik birlikni örgatiş, luğatga kiritiş yoki tarjima qiliş uçun avvalo uni erkin birikmalardan ajrata biliş zarur. Özbek tilida frazeologizmlar keng örganilgan va ularning izohli luğati yaratilgan [1]. Ammo identifikatsiya masalasi hali töliq hal etilmagan. Frazeologizm belgilari köpinça sanab ötiladi, lekin ularni amalda tekşiriş usullari kam işlab çiqilgan. Qöşimçalarning köpligi tufayli bir birlik turli şakllarda uçraydi ("közim tört böldi", "közlari tört bölib kutişdi"). Köplab frazeologizmlar erkin birikmalarga şaklan öxşaş böladi: "qöli oçiq odam" (saxiy) va "bolaning qöli oçiq" (kafti yoyilgan). Tadqiqotning maqsadi özbek tili frazeologik birliklarini aniqlaşning amaliy mezonlarini işlab çiqiş va ularning struktur tiplarini belgilaşni öz içiga oladi.

Turkiy tillarda frazeologiyani örganiş ötgan asr örtalaridan struktur yönalişda boşlangan: "From the 1940s phraseological units have been examined in diverse aspects of Kazakh Linguistics, such as structural-typological, semantic-morphological and thematic" [6] (tarjima: 1940-yillardan qozoq tilşunosligida frazeologizmlar struktur-tipologik, semantik-morfologik va tematik jihatlardan örganilgan). Demak, struktur tahlil turkiy tillar uçun an'anaviy yönalişdir.

J. Sinkler frazeologizmni "group of two or more words which are chosen together in order to produce a specific meaning or effect in speech or writing" [3] deb ta'riflaydi (tarjima: muayyan ma'no yoki ta'sir hosil qiliş uçun birgalikda tanlanadigan ikki va undan ortiq söz). Bu ta'rifdan ikki mezon kelib çiqadi: köp komponentlilik va qayta tiklanuvçanlik, ya'ni birlikning nutqda tayyor holda qöllanişi.

L. Noriyega-Santyanyes va G. Korpas Pastor turğunlikni bir neça çeklovlar yiğindisi sifatida izohlaydi: idiomalar "characterised by their polysemy and fixed or semi-fixed structure (having phonic, morphological, syntactic, and lexico-semantic constraints), which conveys an idiomatic meaning" [5] (tarjima: köp ma'noliligi hamda fonetik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik çeklovlarga ega turğun yoki yarim turğun tuzilişi bilan ajralib turadi). Bizningça, bu yondaşuv har bir çeklov turini alohida sinov bilan tekşiriş imkonini beradi. "Yarim turğun" tuşunçasi esa turğunlikning nisbiyligini e'tirof etadi. Bu özbek tilida "boşi osmonga (kökka) yetmoq" kabi variantlar mavjudligiga mos keladi.

Idiomatik ma'noning mohiyati quyidagiça ifodalanadi: "Idioms are non-compositional expressions whose figurative meanings deviate from the meanings of the constituent words (literal meanings)" [7] (tarjima: idiomalarning köçma ma'nosi tarkibdagi sözlarning töğri ma'nosidan farq qiladi). Bu qaraş semantik yaxlitlik sinovining nazariy asosidir. Ammo keng talqinda idiomatiklik majburiy hisoblanmaydi: "idiomacity is not a defining element of a phraseological unit" [4] (tarjima: idiomatiklik frazeologik birlikning belgilovçi xususiyati emas). Biz oraliq yondaşuvni qöllaymiz: frazeologizmda kamida qisman köçma ma'no bölişi şart, obrazlilik va ekspressivlik esa şart emas.

Frazeologizm bilan erkin birikma örtasidagi çegara qat'iy emasligi ham qayd etilgan: "Es sei jedoch angemerkt, dass die Grenzen zwischen den verschiedenen Kategorien sowie zu freien Wortverbindungen fließend sein können" [2] (tarjima: turli kategoriyalar örtasidagi va erkin birikmalar bilan çegaralar ötiş xarakteriga ega bölişi mumkin). Şuningdek, "phraseological units can vary significantly" [3, P.259] (tarjima: frazeologik birliklar morfologik va sintaktik jihatdan sezilarli

farqlanişi mumkin). Agglyutinativ özbek tilida bu holat kanonik şaklni belgilaşni identifikatsiyaning alohida bosqiçiga aylantiradi.

Materialni izohli luğatdan [1] olingan frazeologik birliklar taşkil etdi. Ular fe'liy, sifatli, ravişli, predikativ va gap şaklidagi tiplarni qamrab oladi. Komponent, transformatsion, struktur-sintaktik va miqdoriy tahlil usullari qöllandi.

Frazeologizmning hal qiluvçi belgilari sifatida köp komponentlilik, semantik yaxlitlik va nisbiy turğunlik, qöşimça belgilari sifatida obrazlilik va ekspressivlik ajratildi. Hal qiluvçi belgilarni tekşiriş sinovlari 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

Frazeologik birliklarni identifikatsiyalaş sinovlari

Belgi	Sinov	Frazeologizm	Erkin birikma
Semantik yaxlitlik	Bitta söz bilan almaştiriş	*qöli oçiq* → "saxiy" (almaşadi)	*qöli toza* → almaşmaydi
Leksik turğunlik	Komponentni almaştiriş	*közi tört böldi* → *közi beş böldi* (ma'no yöqoladi)	*kitobni öqidi* → *jurnalni öqidi* (ma'no saqlanadi)
Sintaktik yaxlitlik	Tarkibga söz qöşiş	*tilini tişladi* → *tilini qattiq tişladi* (töğri ma'noga ötadi)	*olmani qattiq tişladi* (ma'no saqlanadi)
Morfologik çeklanganlik	Grammatik şaklni özgartiriş	*oğzi quloğida* → *oğzi quloqlarida* (ma'no yöqoladi)	*uyi şaharda* → *uylari şaharlarda*

Şaklan bir xil frazeologizm va erkin birikmani farqlaşda hal qiluvçi omil birlikning sintaktik qurşovidir. Masalan, *Koptokni yerga urdi* gapida erkin birikma bor. *Uni hamma oldida yerga urdi* gapida esa frazeologizm qöllangan, çunki töldiruvçi şaxsni bildiradi va birlik "kamsitmoq" ma'nosida keladi.

Kanonik şakl uçun quyidagi qoidalar taklif etiladi. Fe'liy birliklar harakat nomi şaklida beriladi (közi tört bölmoq). Majburiy egalik qöşimçasi III şaxsda saqlanib, özgaruvçan qism sifatida belgilanadi ([kimning] közi tört bölmoq). Fe'l boşqaruvi qavs içida körsatiladi ([kimni] yerga urmoq). Variantlar birga qayd etiladi (boşi osmonga (kökka) yetmoq).

Struktur tahlil natijalari quyidagiça. 20 ta birlik örganilib çiqilganda ulardan 11 tasi (55%) fe'liy (*tişini tişiga qöymoq*, *oğzidan gullab qöymoq*), 4 tasi (20%) ravişli (*köz oçib yumgunça*, *tuyaning dumi yerga tekkanda*), 2 tasi (10%) sifatli (*qöli oçiq*, *köngli oq*), 2 tasi (10%) gap şaklidagi (*Jöjani kuzda sanaydilar*) va 1 tasi (5%) predikativ (*oğzi quloğida*). Komponentlar soni böyiça ikki komponentli birliklar 45%, uç komponentli 30%, tört komponentli 20%, beş komponentli 5% ni taşkil etdi. Somatik sözlar (köz, qöl, boş, til, oğiz va boşqalar) 13 ta birlikda (65%) qatnaşgan.

Natijalar frazeologizm belgilarining poğonaviy tizim hosil qilişini körsatadi. Masalan, "boş qotirmoq" birligining obrazi kuçsiz, ammo u semantik yaxlitlik va turğunlik sinovlaridan ötadi. Demak, obrazlilik identifikatsiya uçun hal qiluvçi emas. Bu idiomatiklikni majburiy hisoblamaydigan qaraşga [4] qisman mos keladi. Lekin biz qisman köçma ma'noni zarur deb bilamiz, aks holda "qaror qabul qilmoq" kabi terminologik birikmalarni frazeologizmlardan ajratib bölmaydi.

Tadqiqotning yangi natijasi egalik qöşimçasining ikki xil maqomini aniqlaşdir. "Közi tört bölmoq", "qöli oçiq" birliklarida egalik qöşimçasi majburiy, ammo şaxsga qarab özgaradi (*közim, közing, közi*). "Qöl uçida" birligida esa u qotib qolgan. Bu frazeologizmlarning morfologik xilma-xilligi haqidagi kuzatuvning [3] agglyutinativ tildagi öziga xos körinişidir va luğatçilikda inobatga olinişi lozim. "Ikki qölini burniga tiqib (qaytmoq)" kabi çegaraviy birliklar esa frazeologizm bilan erkin birikma örtasidagi ötiş zonasi mavjudligini [2] tasdiqlaydi.

Tadqiqot özbek tili frazeologik birliklarini identifikatsiyalaşni yaxlit tizim sifatida köriş zarurligini körsatdi. Bu tizimda köp komponentlilik, semantik yaxlitlik va nisbiy turğunlik hal qiluvçi belgilar bölsa, obrazlilik va ekspressivlik birlikni boyituvçi, lekin belgilovçi bölmagan xususiyatlardir. Hal qiluvçi belgilarni aniqlaş uçun taklif etilgan sinovlar faqat birgalikda qöllanganda işonçli natija beradi, çunki frazeologizm va erkin birikma örtasidagi çegara ötiş xarakteriga ega. Şu bois şaklan bir xil birliklarni ajratişda ularning sintaktik qurşovi hal qiluvçi ahamiyatga ega. Agglyutinativ tilda identifikatsiya kanonik şaklni belgilaş bilan uzviy boğliq bölib, bunda egalik qöşimçasining özgaruvçan yoki qotib qolgan maqomini farqlaş muhimdir. Tanlanmada fe'liy, ikki komponentli va somatik tarkibli birliklarning ustunligi esa bu xususiyatlarni kengroq materialda va qardoş turkiy tillar bilan qiyoslab tekşiriş vazifasini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. Rahmatullayev Ş. Özbek tilining izohli frazeologik luğati. – Toşkent: Öqituvçi, 1978.
2. Flinz C. KI-Tools als Übersetzer: die Wiedergabe von deutschen Phraseologismen ins Italienische / C. Flinz, M. Ravetto // Quaderni di Lea – Scrittori e scritture d'Oriente e d'Occidente. – 2026. – Vol. 10. – P. 141–151.
3. Kalaš F. AI and the translation of idioms – challenges, success, and a corpus perspective / F. Kalaš, P. Lipták // Jazykovedný časopis. – 2025. – Vol. 76, No. 1. – P. 258–267.
4. Leiva Rojo J. Phraseology as indicator for translation quality assessment of museum texts: A corpus-based analysis / J. Leiva Rojo // Cogent Arts & Humanities. – 2018. – Vol. 5, No. 1. – Art.
5. Noriega-Santiáñez L. Measuring creative phraseology in literature: Machine translation systems versus large language models / L. Noriega-Santiáñez, G. Corpas Pastor // Yearbook of Phraseology. – 2025. – Vol. 16. – P. 125–152.
6. Tarakov A. S. Translation problems of phraseological units: On the basis of M. Auezov's novel "The Way of Abai" / A. S. Tarakov, I. K. Azimbayeva, Zh. T. Abdullayeva // Mediterranean Journal of Social Sciences. – 2015. – Vol. 6, No. 4 S2. – P. 370–374.
7. Translate meanings, not just words: IdiomKB's role in optimizing idiomatic translation with language models / S. Li, J. Chen, S. Yuan [et al.] // Proceedings of the AAAI Conference on Artificial Intelligence. – 2024. – Vol. 38. – P. 18554-18563.

UO'K 894.375-1(021)

MAJNUN, FARHOD OBRAZLARINING SHAKLLANISHIDA XILVATNING O'RNI

Kamolova M. U., mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Majnun va Farhod obrazlarining xarakteridagi o'zgarishlar va ruhiy kamolot tabiat tasviri orqali ochilishi ko'rsatilgan. Xilvatning obraz ruhiyatiga ta'sirini faqat bevosita "xilvat" so'zi bilan emas, makon, zamon, ruhiyat, sukut kabi poetik detalar bilan ham tahlil qilish mumkinligi ko'rsatilgan. Xilvatni shunchaki, tasavvufiy tushuncha sifatida emas, obrazni shakllantiruvchi badiiy-psixologik mexanizm sifatida tekshiriladi. Navoiy ijodida xilvat obrazning tashqi dunyoda ajralishi emas, balki uning ichki dunyoga murojaat qilishi, o'zligini anglab yetishi, ruhiy konfliktlarni boshdan kechirish va ma'naviy jihatdan o'zgarish jarayonini ifodalovchi psixologik makon sifatida ko'rib chiqilgan. Shu sababli ham xilvat Majnun va Farhod obraz xarakterining shakllanishida faol badiiy vosita vazifasini bajarganligi ko'rib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Muhabbat, xilvat, hijron, detal, obraz, xarakter, ruhiyat.*

Аннотация. *В статье рассматривается, как изменения в образах Меджнуна и Фархада, а также их духовное взросление, раскрываются через изображение природы. Показано, что влияние *хилвата* (уединения) на психику персонажа можно анализировать не только через прямое упоминание самого слова «хилват», но и посредством таких поэтических деталей, как пространство, время, внутреннее состояние и тишина. Уединение здесь рассматривается не просто как суфийская концепция, а как художественно-психологический механизм, формирующий характер героя. В произведениях Навои уединение трактуется как психологическое пространство, означающее отстранение персонажа от внешнего мира и обращение к своему внутреннему «я» — процесс, включающий самопознание, переживание внутренних конфликтов и духовную трансформацию. Таким образом, в статье подчеркивается роль уединения как активного художественного приема в развитии образов Меджнуна и Фархада.*

Ключевые слова: *Любовь, уединение, разлука, деталь, образ, характер, психика.*

Abstract. *This article examines how changes in the characters of Majnun and Farhad, as well as their spiritual maturation, are revealed through the depiction of nature. It demonstrates that the impact of *xilvat* (solitude/seclusion) on a character's psyche can be analyzed not only through the explicit use of the word «xilvat» itself but also through poetik details such as space, time, inner state, and silence. Solitude is examined here not merely as a Sufi concept, but as an artistic-psychological mechanism that shapes the character. In Navoi's works, solitude is viewed as a psychological space representing a character's withdrawal from the external world to turn inward—a process involving self-realization, the experience of inner conflicts, and spiritual transformation. Consequently, the article highlights the role of solitude as an active artistic device in the character development of Majnun and Farhad.*

Keywords: *Love, solitude, separation, detail, image, character, psyche.*

Kirish. Navoiy obrazlarida yolg‘izlik dastlab ruhiy iztirob sifatida namoyon bo‘lsa, xilvat ichki kechinmalarni anglash makoniga, uzlat ma’naviy poklanish jarayoniga, fano esa shaxsiy “men”ning ilohiy haqiqat oldida yo‘qolish holatiga aylanadi. Shu tariqa ushbu tushunchalar obraz xarakterining oddiy ruhiy holatdan tasavvufiy-ma’naviy kamolotgacha bo‘lgan evolyutsiyasini ifodalovchi badiiy-psixologik bosqichlar sifatida namoyon bo‘ladi. Majnunning Layliga muhabbati, jamiyat bilan ziddiyati, ijtimoiy makondan chekinishi, sahroga chiqishi, ichki iztiroblari, tabiat bilan uyg‘unlashuvi va ma’naviy transformatsiyasi izchil jarayon sifatida ko‘rsatiladi. Natijada Majnun obrazi shunchaki sevgilisidan ayrilgan yoki jamiyatdan chekingan qahramon emas, balki xilvat vositasida o‘zining ruhiy-ma’naviy mohiyatini anglab boruvchi obraz sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi. Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod obrazi shunchaki lirik qahramon emas, balki tasavvuf falsafasining oliy ramzi — Komil inson (haqiqatni anglash va Alloh visoliga yetishish yo‘lidagi solih) timsolidir. Dostondagi voqealar va Farhodning kechinmalari tasavvufiy ramzlar (allegoriyalar) asosiga qurilgan.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi Majnun obrazining xarakter shakllanishi xilvat tushunchasi bilan bog‘liq holda tadqiq etiladi. Xilvat oddiy makon yoki ijtimoiy muhitdan ajralish hodisasi sifatida emas, balki qahramonning tashqi olamdan ichki olamga yuzlanishini ta’minlovchi psixologik-badiiy makon sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda Navoiy ijodidagi ruhiy tasvir masalasini o‘rgangan H. Jo‘rayev, G. Mashrabova, Yo. Is’hoqov, A. Qayumov, I. Haqqul va boshqa olimlarning qarashlari nazariy asos sifatida tahlil qilinadi. Majnunning Layliga muhabbati, jamiyat bilan ziddiyati, ijtimoiy makondan chekinishi, sahroga chiqishi, ichki iztiroblari, tabiat bilan uyg‘unlashuvi va ma’naviy transformatsiyasi izchil jarayon sifatida ko‘rsatiladi. Natijada Majnun obrazi shunchaki sevgilisidan ayrilgan yoki jamiyatdan chekingan qahramon emas, balki xilvat vositasida o‘zining ruhiy-ma’naviy mohiyatini anglab boruvchi obraz sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi. Shuningdek, Eshonqulov J. *Alisher Navoiy ijodida tasavvufiy ramzlar va timsollar*, Komilov N. *Tasavvuf (Tafakkur sarchashmalari) [1]*, Abdug‘afurov A. *Buyuk beshlik saboqlari*, Ochilov E. *Komillikning ikki yo‘li / Navoiyning ijod olami*, Haqqulov I. *Navoiyga qaytish [2]* kabi ilmiy adabiyotlar foydalanib ilmiy asoslangan.

H. Jo‘rayevning “Alisher Navoiy lirikasida voqelik va uning poetik talqinlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining IV bobi 1-fasli **“Ruhiy tahlil va individuallik”** deb nomlanadi. Tadqiqotda mumtoz she’riyatda ruhiy-ma’naviy kechinmalar, xususan, Navoiy ijodidagi lirik qahramon-oshiqning ruhiy-psixologik holati tahlil qilinadi.

G. Mashrabovaning **“Navoiyning‘Layli va Majnun’ dostonida ruhiyat tasviri”** nomli tadqiqoti esa bevosita bizning mavzuimizga yaqin manbalardan biridir. Ushbu tadqiqotda dostondagi qahramonlarning ruhiy holati badiiy ifodasi o‘rganilgan. Keyingi tadqiqotlarda ham Mashrabovaning mazkur ishi “Layli va Majnun”dagi psixologik tasvirni tadqiq etgan muhim manba sifatida qayd etiladi.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda tarixiy, germenevtik, tasavvufiy-semantik metod usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Xilvat- xalqdan uzoqlashib, ulardan ayri yashash uchun biror-bir go‘shaga chekinish demak. Tasavvufiy ma’noda Xilvat yoki Uzlatdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad yomon axloqdan ajralish, tuban ishlardan voz kechish, qalbni jilolantirib, ruhni huzur va farog‘atga yetishtirish. Bu uzoq davom etadigan hodisa emas. Lekin shu qisqa muddatda ma’shuqa oshiqning jismi aro jonga aylanishi mumkin. Navoiy esa oshiqlar uchun doimiy orzu bo‘lgan yor ila xilvat xususida so‘zlayotir. Ammo bu xilvat xususiyati tamomila boshqacha. Chunonchi: oshiq yorni jismi aro jonga aylanishi mumkin deb, “xilvat saroyi ichra mehmon” qilish bilan kifoyalanmasdan, “tanda jon yanglig‘” uni jon bag‘rida pinhon tutmoqchi. Xilvat xalqdan yashiringan, xilvat aro tan yashirin, tanda jon yanglig‘ seni jon ichra pinhon aylasam”.

Alisher Navoiy ijodida insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ma’naviy izlanishlari alohida badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Shoirning qahramonlari tashqi voqealar ishtirokchisi bo‘lish bilan birga, ichki ruhiy jarayonlarni boshdan kechiruvchi murakkab obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, “Xamsa” tarkibidagi “Layli va Majnun” dostonida inson ruhiyatining badiiy

ifodasi, ishqning shaxs xarakteriga ta’siri va qahramonning ichki o‘zgarishlari nihoyatda kuchli tasvirlangan.

Navoiy “Layli va Majnun” dostonining maqsadini oddiy ishqiy afsonani takrorlash bilan cheklamaydi. Dostonning boshida shoir:

“Yozmoqqa bu ishqi jovidona,
Maqsudim emas edi fasona... [3]”

deya hikoyaning tashqi voqeasidan ko‘ra uning mazmuniy-ma’naviy mohiyatiga e’tibor qaratadi.

Shu jihatdan Majnun obrazini faqat “ishqda telbalangan oshiq” sifatida baholash yetarli emas. Uning xarakteri bir necha ruhiy bosqichlar orqali shakllanadi. Bu jarayonda ishq dastlab shaxsiy kechinma sifatida paydo bo‘lsa, keyinchalik qahramonni jamiyat bilan ziddiyatga olib keladi; ziddiyat esa uni ijtimoiy muhitdan chekinishga, sahro va xilvat makoniga olib boradi. Xilvatda esa Majnunning ichki dunyosi, uning dunyoqarashi va ma’naviy mohiyati tobora chuqurlashadi.

Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolaning asosiy ilmiy tezisi quyidagicha belgilanadi:

Navoiy “Layli va Majnun” dostonida xilvatni Majnun obrazining xarakterini shakllantiruvchi faol psixologik-badiiy makon darajasiga ko‘taradi. Shuningdek, Farhod obrazining tasavvufiy talqinini quyidagi asosiy bosqichlar va ramzlar orqali tushunish mumkin:

1. Ishq — Ilohiy muhabbat vositasi

Tasavvufda majoziy ishq (insonga bo‘lgan muhabbat) haqiqiy ishqqa (Allohga bo‘lgan muhabbatga) eltuvchi ko‘prik hisoblanadi.

Farhodning Shiringa bo‘lgan muhabbati dastlab majoziy ishq bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida bu Ilohiy ishqning namoyon bo‘lishidir.

Farhod Shirin siymosida Yaratganning jamolini (tajalliysini) ko‘radi. Uning sevgisi nafsdan pok, mutlaq fidoiylik ustiga qurilgan.

2. Ruhiy sayohat va Maqomlar.

Farhodning Xitoydan chiqib, Armanistonga kelishi va tog‘ qazishi — tasavvufdagi tariqat yo‘li (ruhiy yuksalish bosqichlari) dir.

Xusrav xazinasi va Yunoniston safari: Farhod tilsimlarni buzadi, Axriman (yovuzlik) ustidan g‘alaba qozonadi, Sulaymon uzugi va Jamshid jomini qo‘lga kiritadi. Bu — solihning o‘z nafsini yengishi, qalb ko‘zi (batin) ochilishi va ilohiy sirlardan (ma'rifatdan) voqif bo‘lishi ramzidir.

Tog‘ qazish (Bisotun): Tog‘ — inson vujudidagi moddiy borliq, nafs va og‘ir sinovlar ramzi. Farhodning tog‘ni teshib, suv chiqarishi — insonning o‘z nafsini jilovlashi, mashaqqatlar orqali qalbini poklashi va undan ma'rifat bulog‘ini ochishidir.

3. Fano va Baqo (Fidoiylik).

Tasavvufning oliy cho‘qqisi — Fano fillah, ya'ni Haq buyukligida o‘z «men»ini yo‘qotish, Allohda foniylikka erishishdir.

Farhod Shirin uchun har qanday azobga tayyor, u o‘zligidan, shohligidan va hayotidan butunlay kechadi.

Doston oxirida Farhodning vafot etishi — fojia emas, balki ruhning jism zindonidan ozod bo‘lishi va Oliy Borliq (Alloh) visoliga yetishishi, ya'ni Baqo (abadiyat) topishidir.

Muhokama. Xalvat dar anjuman: Tasavvufda (ayniqsa, Navoiy amal qilgan Naqshbandiya tariqatida) *«Diling yorda bo‘lsinu, qo‘ling korda [4]»* shaklidagi xilvat tushunchasi bor. Ya’ni, jismoniy odamlar orasida bo‘la turib, qalb bilan xilvatda (Alloh bilan birga) bo‘lish. Farhod ayni shu qoidaning timsolidir. U shohning o‘g‘li, atrofida yuzlab odamlar bor, lekin u ma’nan yolg‘iz (xilvatda).

Tilsimotlar oldidagi ruhiy tayyorgarlik: Farhod Yunoniston tilsimotlarini buzish, Jamshid jomini ko‘rish kabi buyuk sinovlarga borishdan oldin tabiatan sokinlikni, yolg‘izlikni va kitoblar mutolaasini afzal ko‘radi. Navoiy uning tabiatidagi bu tanholikka intilishni uning qalb ko‘zi ochilishining ilk sharti sifatida tasvirlaydi.

Xilvat — nafsni o‘ldirish maskani: Farhod doston davomida tog‘ qazish jarayonida (Bisotunda) ham xalq ichidan chiqib, o‘ziga xos mehnat xilvatiga chekinadi. Bu yerdagi xilvat uning jismoniy va ruhiy chiniqish, o‘z «men»ini tamoman yo‘qotish (fano) maskaniga aylanadi.

Majnun xarakterining ikkinchi bosqichi uning shaxsiy muhabbati bilan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi ziddiyatning kuchayishidir.

Laylining otasi qizini Qaysga berishni rad etadi. Bu yerda individual tuyg‘u bilan ijtimoiy norma to‘qnashadi. A. Qayumovga tayangan keyingi tadqiqotlarda ham Layli va Majnun fojiasining asosiy qatlamlaridan biri sifatida muhabbat va jamiyat o‘rtasidagi to‘qnashuv ko‘rsatiladi.

Shu bosqichdan boshlab Majnun jamiyat belgilagan “normal” hayot tartibiga sig‘maydigan shaxs sifatida ko‘rina boshlaydi. Bu holat uning keyingi xarakter xususiyatlarini belgilaydi:

• jamiyat talablariga bo‘ysunmaslik;

• individual tuyg‘uga sodiqlik;

• ichki haqiqatni tashqi talabdan ustun qo‘yish;

• dunyoviy munosabatlardan uzoqlashish. Demak, Majnunning jamiyatdan chekinishi tasodifiy emas. U uning xarakteridagi ichki ziddiyatning tashqi ko‘rinishidir.

Majnunning sahroga chiqishi asardagi oddiy voqea emas. Bu qahramon hayotidagi makon almashinuvi orqali ruhiy holatning almashinuvidir. Shahar, oila, maktab, jamiyat — Majnunning dastlabki ijtimoiy makonidir. Sahro esa undan mutlaqo farq qiladi. Bu yerda: ijtimoiy nazorat kamayadi → tashqi muloqot susayadi → ichki ovoz kuchayadi.

Shu sababli sahro Majnun uchun faqat yashash joyi emas, balki uning ruhiy olamiga mos makonga aylanadi. Navoiy dostonida tabiat tasvirining qahramon ruhiyati bilan bog‘lanishi ham shu jihatni kuchaytiradi. Y. Abdulhakimova tadqiqotida Navoiy “Layli va Majnun” ida tabiat tasviri Majnun va Layli xarakteridagi evrilishlar hamda ruhiy kamolotni ochishga xizmat qilishi ko‘rsatiladi. Demak: Majnun sahroga chiqmaydi, balki uning ichki dunyosiga mos keladigan makonga ko‘chadi. Bu — maqolaning asosiy nazariy xulosalaridan biridir.

Xulosa. Demak, Majnun shunchaki yolg‘iz qolgan qahramon emas. Uning yolg‘izligi xilvatga aylangani sababli sahro oddiy geografik makondan psixologik makon darajasiga ko‘tariladi. Xilvat esa Majnunning ichki dunyosini ochib, uning xarakterini qayta shakllantiruvchi badiiy mexanizm vazifasini bajaradi.

Shu ma’noda Navoiyda xilvatni “obraz xarakterini shakllantiruvchi psixologik makon” sifatida o‘rganish navoiyshunoslikdagi ruhiyat, obraz, tasavvuf va poetika tadqiqotlarini bir nuqtada birlashtiruvchi istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biridir.

Farhod obrazining shakllanishida xilvat shunchaki odamlardan qochish emas, balki qalbni ma’rifat nuriga to‘ldirish uchun zarur bo‘lgan "ruhiy laboratoriya" vazifasini o‘tagan.

Navoiy ushbu motiv orqali har qanday buyuk maqomga (oriflik va komillikka) erishish uchun inson eng avvalo o‘z ichki olamida, ya’ni xilvatda nafsini yenga olishi kerakligini isbotlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Navoiy, A. (1992). *Mukammal asarlar to‘plami 20 tomlik. "Layli va Majnun" 9-tom.* Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti. 320 bet.

2. Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 8-tom: Farhod va Shirin.* – Toshkent: Fan, 1991.

3. Eshonqulov J. *Alisher Navoiy ijodida tasavvufiy ramzlar va timsollar.* – Toshkent: Adabiyot, 2018.

4. Abdug‘afurov A. *Buyuk beshlik saboqlari.* – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.

5. Haqqul, I. (2011). *Navoiyga qaytish 2-kitob.* Toshkent: Fan nashriyoti. 119 bet.

6. Komilov, N. (2009). *Tasavvuf.* Toshkent: Movaraunnahr. 270 bet.

7. Ochilov E. *Komillikning ikki yo‘li / Navoiyning ijod olami.* – Toshkent: Muharrir, 2001.

UDC 81’25:81’373.7

TRANSLATION OF PROVERBS AND SAYINGS RELATED TO UPBRINGING INTO UZBEK, RUSSIAN, AND ENGLISH

Karaketova Sh. S., lecturer, Tashkent International University of Education, Tashkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarbiyaga oid o‘zbek, rus va ingliz xalq maqol hamda matallarining lingvistik, semantik va madaniy xususiyatlari yoritiladi. Unda oilaviy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, intizom va ijtimoiy mas’uliyatni ifodalovchi xalq iboralarining tarjima xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Uch til o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar tahlil qilinib, milliy-madaniy mazmunni tarjimada saqlash bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, maqollar, matallar, tarjima, o'zbek tili, rus tili, ingliz tili, milliy qadriyatlar, lingvistik muqobillik, madaniyatlararo muloqot.*

Аннотация. *В статье рассматриваются лингвистические, семантические и культурные особенности пословиц и поговорок, связанных с воспитанием, в узбекском, русском и английском языках. Особое внимание уделяется переводу народных выражений, отражающих семейные ценности, нравственное воспитание, уважение, доброту, дисциплину и социальную ответственность. Анализируются сходства и различия между тремя языками, а также трудности передачи национально-культурной специфики пословиц.*

Ключевые слова: *воспитание, пословицы, поговорки, перевод, узбекский язык, русский язык, английский язык, культурные ценности, языковая эквивалентность, межкультурная коммуникация.*

Abstract. *This article examines the linguistic, semantic, and cultural features of proverbs and sayings related to upbringing in Uzbek, Russian, and English. Particular attention is paid to the translation of folk expressions that reflect family values, moral education, respect, kindness, discipline, and social responsibility. The study analyzes similarities and differences between the three languages and identifies the challenges of translating culturally specific expressions. It also discusses the importance of selecting appropriate linguistic and cultural equivalents to preserve the original meaning and educational purpose of proverbs.*

Keywords: *upbringing, proverbs, sayings, translation, Uzbek language, Russian language, English language, cultural values, linguistic equivalence, intercultural communication.*

Introduction

Proverbs and sayings are among the most valuable elements of a nation's cultural and linguistic heritage. They represent the collective wisdom, life experiences, traditions, and moral principles developed over many generations. Every nation uses proverbs to express important ideas about human relationships, family responsibilities, education, and social behavior. Among these themes, upbringing occupies a particularly important position because it determines the formation of an individual's character, worldview, and attitude towards society. Uzbek, Russian, and English languages contain numerous proverbs and sayings devoted to the upbringing of children, respect for parents, kindness, honesty, discipline, and good manners. Although these languages have different grammatical structures and cultural backgrounds, many of their proverbs communicate similar moral values.

Materials and methods

The materials of the research consist of Uzbek, Russian, and English proverbs and sayings related to family education, children's upbringing, respect, moral behavior, and interpersonal relationships. The selected expressions were examined according to their meanings, linguistic structures, cultural characteristics, and translation possibilities. Several research methods were used to conduct the analysis. The comparative method helped identify common and distinctive features of proverbs in the three languages. The descriptive method was applied to explain their linguistic and cultural characteristics. Semantic analysis was used to determine the main ideas expressed through proverbial units. The translation analysis method helped examine how the original meaning could be preserved when transferring expressions from one language into another. Particular attention was paid to the differences between literal, semantic, and functional translation. Literal translation attempts to reproduce the original structure and vocabulary, whereas semantic translation focuses primarily on preserving the meaning. Functional translation involves selecting an expression in the target language that performs a similar communicative and educational function. The following examples demonstrate the translation characteristics of upbringing-related proverbs [1].

The Uzbek proverb "Bola aziz, odobi undan aziz" can be translated into Russian as "Ребёнок дорог, но его воспитание ещё дороже" and into English as "A child is precious, but good manners are even more precious." This proverb emphasizes that a child's moral development and behavior are extremely important. It expresses the idea that love for children should be accompanied by proper upbringing and education. Another example is the Uzbek proverb "Qush uyasida ko'rganini qiladi."

Its Russian equivalent can be expressed as "Каково дерево, таковы и плоды," while the English equivalent is "The apple doesn't fall far from the tree." All three expressions communicate the influence of family environment on children's behavior. However, their images differ according to the linguistic traditions of each nation. The proverb "Kattaga hurmat, kichikka izzat" can be translated into Russian as "Уважай старших и почитай младших" and into English as "Respect your elders and treat younger people with kindness." This expression reflects the importance of mutual respect and positive relationships between generations [2].

Results and discussions

The comparative analysis of Uzbek, Russian, and English proverbs related to upbringing reveals that these languages share several important moral and educational principles. Despite differences in their linguistic structures, proverbs in all three languages emphasize the significance of family education, parental example, respect, honesty, responsibility, and kindness. One of the most frequently represented themes is the influence of parents on children's behavior. The Uzbek proverb "Qush uyasida ko‘rganini qiladi" illustrates the idea that children acquire many habits and behavioral patterns from their family environment. The English equivalent "The apple doesn't fall far from the tree" expresses the same general meaning through a different metaphor. Such examples demonstrate that cultural images may vary while the underlying educational message remains similar. Another important theme is respect between generations. Uzbek proverbs traditionally attach great importance to respecting parents and older people. This value is reflected in expressions that encourage younger generations to communicate politely and behave responsibly. Similar ideas can be found in Russian and English proverbial expressions, although the degree of emphasis and the linguistic forms may differ [3].

Family responsibility is also an essential element of upbringing-related proverbs. The expression "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" demonstrates the importance of collective participation in children's development. In Uzbek culture, the mahalla is not merely a geographical neighborhood but also a social environment where people support one another and participate in community life. The English expression "It takes a village to raise a child" conveys a comparable idea. Nevertheless, the cultural background of the Uzbek proverb requires additional explanation when it is translated for foreign readers. The research also indicates that some proverbs cannot be translated successfully through direct word-for-word translation. Their figurative meaning, emotional tone, and cultural associations may be lost if the translator focuses exclusively on individual words. Therefore, it is necessary to consider the communicative purpose of the original expression and select an equivalent that produces a similar effect in the target language [4].

Three main translation approaches are particularly relevant to this topic. The first is equivalent translation, which involves using an existing proverb in the target language with a similar meaning. The second is semantic translation, which preserves the original message while allowing changes in grammatical structure and vocabulary. The third is functional translation, which replaces a culturally specific expression with a familiar saying that performs the same communicative function. These approaches are important in translating expressions connected with family relationships, moral education, and national traditions. For example, the Uzbek proverb "Odob bozorda sotilmas" can be translated almost directly into English as "Good manners cannot be bought." In this case, the original idea and its educational purpose remain clear. However, expressions involving traditional social institutions may require a more explanatory translation [5].

Conclusion

The analysis of upbringing-related proverbs in Uzbek, Russian, and English demonstrates that folk expressions are important tools for preserving moral principles and transmitting cultural knowledge from one generation to another. They reflect the attitudes of different societies towards family relationships, children's education, respect, kindness, and personal responsibility. The comparative study shows that many proverbs in the three languages express similar educational ideas, even when their vocabulary, grammatical structures, and cultural images are different. Some expressions have direct equivalents, while others require semantic or functional translation to preserve their original meaning. Particular attention should be paid to culturally specific concepts

such as the Uzbek mahalla, which represents an important element of community life and collective responsibility.

REFERENCES:

1. Ashurova, D. U., & Galieva, M. R. (2018). Cognitive Linguistics. Tashkent: VneshInvestProm.
2. Ilyassova, L., Latanova, R., Narmukhametova, N., & Tazbulatova, G. (2019). Common Features of Russian and English Proverbs. Cross-Cultural Communication as a Factor in Educational Activities, 139–147.
3. Ibragimova, L. A. (2022). About the Translation of Proverbs and Sayings. Eurasian Journal of Academic Research, 2(2), 139–142.
4. Sotvaldieva, Kh. M. (2022). Paremiological Units in Uzbek, English and Russian Languages. International Journal of Formal Education, 1(11).
5. Toshev, Z. B., & Asadov, A. B. (2023). Comparative Analysis of English and Uzbek Proverbs. Barqarorlik va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy-Amaliy Jurnali, 3(3).

UÖK 811.512.133'373.7:811.111

ÖZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ĞAZABNI IFODALOVÇI SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDAGI KOGNITIV METAFORALAR

Kaxarova Ş. N., PhD, Farğona davlat universiteti, Farğona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada özbek va ingliz tillarida ğazab hissini ifodalovçi somatik frazeologik birliklarning kognitiv-metaforik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Inson tanasi, uning a'zolari va fiziologik jarayonlari orqali emotsional holatlarning konseptuallaşuvi örganiladi. Xususan, ğazabning issiqlik, içki bosim, qon aylanişi va tana reaksiyalari bilan boğliq metaforalar orqali ifodalanişiga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijasida ikki tilda umumiy kognitiv modellar hamda milliy-madaniy xususiyatlar aniqlanadi.*

Kalit sözlar: *kognitiv metafora, somatik frazeologik birliklar, ğazab konsepti, emotsional holat, tana a'zolari, konseptuallaşuv, qiyosiy tahlil, lingvomadaniyat.*

Аннотация. *В статье рассматриваются когнитивные метафоры в узбекских и английских соматических фразеологических единицах, выражающих гнев. Исследуются способы концептуализации эмоциональных состояний посредством телесных образов, физиологических процессов и наименований органов человека. Особое внимание уделяется метафорам, связанным с жаром, внутренним давлением, кровообращением и физическими реакциями. Выявляются общие когнитивные модели и национально-культурные особенности выражения гнева.*

Ключевые слова: *когнитивная метафора, соматические фразеологические единицы, концепт гнева, эмоциональное состояние, телесный опыт, концептуализация, сопоставительный анализ.*

Abstract. *This article examines cognitive metaphors in Uzbek and English somatic phraseological units expressing anger. It explores how emotional states are conceptualized through bodily images, physiological processes, and references to human organs. Particular attention is paid to metaphors associated with heat, internal pressure, blood circulation, and physical reactions. The findings reveal shared cognitive patterns as well as language-specific and cultural features in the representation of anger.*

Keywords: *cognitive metaphor, somatic phraseological units, anger concept, emotional state, bodily experience, conceptualization, comparative analysis.*

Kiriş. Inson hissiyotlari til va tafakkur bilan çambarças boğliq bölib, ular turli lingvistik vositalar orqali namoyon böladi. Ğazab, qörquv, quvonç va qayğu kabi emotsional holatlar insoniyat uçun universal xususiyatga ega bölsa-da, ularning tillardagi ifodalanişi muayyan lingvistik va madaniy xususiyatlar bilan farqlanadi. Til nafaqat hissiyotlarni nomlaydi, balki ularni anglaş va idrok etişning özigа xos kognitiv mexanizmlarini ham şakllantiradi.

Bu jarayonda frazeologik birliklar alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, tarkibida inson tanasi yoki uning a'zolari nomlarini ifodalovçi somatik komponentlar mavjud bölgan frazeologizmlar mavhum emotsional holatlarni aniq jismoniy obrazlar orqali ifodalaşi bilan ajralib turadi.

Ğazab inson organizmida muayyan fiziologik özgarişlarni yuzaga keltiradigan kuçli hissiy holatlardan biridir. Yurak urişining tezlaşişi, tana haroratining kötarilişi, muşaklarning taranglaşişi va yuz ifodasining özgarişi kabi reaksiyalar uşbu emotsiyaning jismoniy asosini taşkil etadi. Mazkur fiziologik tajribalar tilda metaforik ifodalarning şakllanişiga zamin yaratadi. Kognitiv metafora nazariyasining asosçilari G. Lakoff va M. Johnson (1980) metaforani şunçaki badiiy tasvir vositasi emas, balki inson tafakkurining muhim mexanizmi sifatida izohlaydilar. Ularning yondaşuviga köra, inson mavhum tuşunçalarni konkret tajribalar asosida anglaydi. Z. Kövecses (2000) ham emotsional holatlarning metaforik konseptuallaşuvida tana tajribasi muhim örin tutişini ta'kidlaydi.

Natijalar. Özbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili ğazab konseptining bir neçta asosiy metaforik modellar orqali ifodalanişini körsatdi.

Ğazab-issiqlik metaforasi. Har ikki tilda uçraydigan muhim kognitiv modellardan biri ğazabning issiqlik orqali konseptuallaşuvidir. Uşbu model kuçli emotsional holatning tana haroratining oşişi va fiziologik faollik bilan boğliqligiga asoslanadi.

Özbek tilidagi *qoni qaynamoq* frazeologik birligi insonning kuçli ğazab yoki hayajon holatini ifodalaydi. Bu yerda *qaynamoq* fe'li issiqlik va jismoniy intensivlik obrazini yuzaga keltiradi.

Ingliz tilidagi *make someone's blood boil* iborasi ham xuddi şunday metaforik mazmunga ega. Har ikki tilda qon somatik komponent, qaynaş esa emotsional zöriqişning ramziy ifodasi sifatida qöllanadi.

Şuningdek, ingliz tilidagi *get hot under the collar* (jahl qilmoq, qizişib ketmoq) iborasi ham ğazabning tana harorati bilan boğliqligini namoyon etadi.

Demak, ğazab-issiqlik metaforasi ikki tilda ham umumiy fiziologik tajribaga asoslangan kognitiv model hisoblanadi.

Ğazab-içki bosim metaforasi. Ğazabning yana bir muhim metaforik ifodasi uning inson tanasi içida töplanadigan kuç yoki bosim sifatida tasavvur qilinişidir.

Kognitiv tilşunoslikda inson tanasi köpinça idiş yoki çegaralangan makon sifatida konseptuallaştiriladi. Bunda emotsiyalar inson içida joylaşgan modda sifatida tasavvur qilinadi.

Ingliz tilidagi *bottle up one's anger* (ğazabini içiga yutmoq) iborasi aynan şu modelni ifodalaydi. Unda ğazab yopiq idişda saqlanayotgan modda sifatida tasvirlanadi. *Boil with anger* (ğazabdan qaynamoq) iborasi esa içki emotsional zöriqiş va kuçayib borayotgan holatni ifodalaydi.

Özbek tilidagi *qoni qaynamoq* iborasi ham içki emotsional intensivlik bilan boğliq bölsa-da, uning asosiy metaforik motivatsiyasi issiqlik va qaynaş obraziga tayanadi. Şunday qilib, har ikki tilda ğazabning içki kuç sifatida tasavvur qilinişi kuzatiladi, biroq uning frazeologik ifodalaniş şakllari farqlanadi.

Ğazab-köriş idrokining özgarişi metaforasi. Ğazabning metaforik ifodalanişida köz va köriş idroki bilan boğliq obrazlar ham muhim örin tutadi.

Ingliz tilidagi *see red* iborasi kuçli ğazab holatini ifodalaydi. Uşbu birikmada qizil rang qon, issiqlik va xavf bilan boğliq assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. Natijada köriş idroki emotsional holatning metaforik ifodasiga aylanadi.

Özbek tilidagi *köziga qon tölmoq* iborasi ham ğazabning kuçli namoyon bölişini ifodalaydi. Şuningdek, *ğazabdan közlari olaymoq* birikmasida emotsional holat közlarning taşqi körinişidagi özgariş orqali tasvirlanadi.

Har ikki tilda köz bilan boğliq somatik obrazlar ğazabning taşqi jismoniy belgilari va içki hissiy keçinmalar örtasidagi munosabatni namoyon etadi. Biroq ingliz tilidagi *see red* rang idrokiga, özbek tilidagi misollar esa qon va közning jismoniy holatiga köproq urğu beradi.

Ğazab-jismoniy reaksiya metaforasi. Insonning kuçli emotsional holatlari turli jismoniy reaksiyalar orqali ham ifodalanadi.

Ingliz tilidagi *foam at the mouth* (oğzidan köpik çiqarmoq) iborasi haddan taşqari kuçli ğazab va nazoratdan çiqiş holatini ifodalaş uçun işlatiladi. Bu yerda fiziologik reaksiya emotsional zöriqişning obrazli ifodasiga aylangan.

Özbek tilidagi *tepa soçi tikka bölmoq* iborasi ham kuçli hissiy reaksiyani ifodalaydi. Biroq uşbu ibora faqat ğazab bilan çeklanmaydi, balki kontekstga qarab qörquv, hayrat yoki keskin norozilikni ham anglatişi mumkin.

Bu misollar somatik frazeologizmlarning emotsional holatlarni ifodalaşda muhim vosita ekanligini körsatadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari özbek va ingliz tillarida ğazab konseptining şakllanişida tana tajribasi muhim kognitiv asos ekanligini tasdiqlaydi. Aniqlangan metaforik modellar mavhum emotsional holatlarning konkret fiziologik jarayonlar orqali anglanişini körsatadi. Ayniqsa, ğazab-issiqlik metaforasining har ikki tilda mavjudligi e'tiborga molik. Özbek tilidagi *qoni qaynamoq* va ingliz tilidagi *make someone's blood boil* iboralari semantik hamda obrazli jihatdan yaqinlik namoyon etadi. Bu holat insoniyatga xos umumiy fiziologik tajribalarning turli tillarda öxşaş metaforik modellarni yuzaga keltirişini körsatadi.

Mazkur natija Lakoff va Johnson (1980) tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasiga hamda Kövecses (2000)ning emotsional metaforalar haqidagi qaraşlariga mos keladi. Biroq metaforik obrazlarning tanlanişi va til tizimida mustahkamlanişi har doim ham bir xil emas. Masalan, ingliz tilidagi *see red* iborasida rang bilan boğliq obraz ustuvor bölsa, özbek tilidagi *köziga qon tölmoq* birikmasida qon va köz obrazlari birgalikda namoyon böladi. Bu farqlar tilning milliy-madaniy xususiyatlari va frazeologik birliklarning şakllaniş an'analari bilan boğliq. Demak, ğazabning konseptuallaşuvida universal kognitiv mexanizmlar bilan bir qatorda har bir tilga xos obrazli tafakkur ham muhim ahamiyatga ega. Şuningdek, ayrim somatik frazeologizmlarning bir neçta emotsional holatni ifodalaşi ularning semantik tahlilida kontekstning ahamiyatini körsatadi.

Xulosa. Özbek va ingliz tillaridagi ğazabni ifodalovçi somatik frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili mazkur emotsional konseptning inson tanasi va fiziologik tajribasi asosida şakllanişini körsatdi.

Tadqiqot davomida ğazabning issiqlik, içki bosim, köriş idrokining özgarişi va jismoniy reaksiyalar orqali ifodalanişini aks ettiruvçi törtta asosiy kognitiv metaforik model aniqlandi. Har ikki tilda ğazabni issiqlik va qonning qaynaşi bilan boğlaş holati kuzatildi. Şu bilan birga, ayrim frazeologik birliklarda tana a'zolari va obrazlarning tanlanişi milliy-lingvistik xususiyatlar bilan farqlanişi aniqlandi.

Umuman olganda, somatik frazeologik birliklar insonning jismoniy tajribasi, kognitiv jarayonlari va madaniy qaraşlari örtasidagi uzviy munosabatni namoyon etadi. Mazkur tadqiqot natijalari qiyosiy frazeologiya, kognitiv tilşunoslik va lingvomadaniyatşunoslik yönalişlaridagi izlanişlar uçun nazariy asos bölib xizmat qilişi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. Gibbs, R. W. (2006). *Embodiment and Cognitive Science*. Cambridge University Press.
2. Johnson, M. (1987). *The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination, and Reason*. University of Chicago Press.
3. Kövecses, Z. (2000). *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. Cambridge University Press.
4. Kövecses, Z. (2005). *Metaphor in Culture: Universality and Variation*. Cambridge University Press.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.

UO'K 82.09

BADIIY DETAL VA VERBAL TASVIR

Komilova D. M., PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matnning tarkibiy elementi hisoblangan detal hususida mulohazalar, unga filologik yondashuv, matnning kichik elementi sifatida qarash, e'tirof etish, so'z birikmalari, gap paradigmalari, konseptual jihatdan tahlil qilish borasidagi nazariy masalalar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *badiiy detal, konsept, reprezentatsiya, tasviriy detallar; aniqlashtiruvchi detal, xarakter, badiiy matn, yashirin ma'no.*

Аннотация. *В данной статье описываются теоретические вопросы, связанные с филологическим подходом, распознаванием, словосочетаниями, парадигмами предложений и концептуальным анализом.*

Ключевые слова: *художественная деталь, постоянные, изобразительные, изобразительные детали; уточняющая деталь, характер, художественный текст*

Abstract. *In this article, the theoretical issues related to the philological approach, recognition, word combinations, sentence paradigms, and conceptual analysis are described.*

Keywords: *artistic detail, constant, representational, descriptive detail; clarifying detail, character, implicit, artistic text, hidden meaning.*

Kirish (Introduction). Pragmalingvistika tilshunoslik fanining yangi sohalaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi Ch. Pirs, U. Jems, J. Dyui, Ch. Morris kabi faylasuf olimlar nomi bilan bog‘liq [1]. Nolisoniy vositalarga semiotik (belgi nazariyasi) jihatdan yondashuv natijasida fanda ekstralingvistika sohasi yuzaga keldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Professor A. Nurmonov belgi tushunchasi bilan bog‘liq holda nutqiy faoliyatning ijtimoiy vazifasini ajratadi hamda uning axborot uzatish, qolaversa, poetik vazifa bajarishini alohida ta’kidlaydi. Bunda asosiy e’tibor axborot uzatish bilan birga uning qanday ifodalanishiga ham qaratiladi [2]. Muayyan tilning barcha xususiyatlarini o‘zida aks ettira oladigan har qanday matn lingvistika uchun lisoniy dalil bo‘la olganidek, badiiy matn ham, ayniqsa, detal komponentli matnlar yoki detallashtirilgan matnlar ham ma’lum millatga xos bo‘lgan tilning ifoda shakli sifatida matn tilshunosligi ilmiy paradigmalari asosida o‘rganilishi mumkin. Ma’lumki, har qanday tilning taraqqiyoti undan foydalanuvchi til egalarining kundalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ularning har qanday faoliyati lisoniy sistema elementlaridan foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Kommunikatsiya ishtirokchilarining lisoniy faoliyatga asoslangan o‘zaro muloqoti til taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham badiiy matnda til bor bo‘yi bilan gavdalanadi. Tilda esa xalqning ruhiyati, dunyoqarashi, aql-idroki, tafakkuri o‘z ifodasini topadi. Badiiy matn verbal ifoda shakli sifatida og‘zaki muloqotning har qanday turini o‘zida aks ettiradi. Tilning bunday xususiyatlaridan foydalangan ijodkor badiiy matnda borliq haqidagi voqea-hodisalar badiiy tasvirida nolisoniy vositalardan ham unumli foydalanadi. Lisoniy tasvirga asoslangan nolisoniy ifoda vositalari badiiy matnda muallif nazarda tutgan xabarlarning hammasini ifodalay oladi. Badiiy matnda qo‘llanadigan detallar ham muallifning kommunikativ maqsadini ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy detal ham badiiy matnning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, muallifning kommunikativ niyati va maqsadini yuzaga chiqaradi. Badiiy matnda ma’lum maqsad ifodasi uchun muallif tomonidan qo‘llangan har bir detal mazmuniy strukturaning muhim qismi sanaladi. Badiiy asar muallifi yashirin mazmuniy strukturaga tegishli bo‘lgan ayrim xabarlarni detallar orqali kodlaydi. Natijada detal tasviri bilan kodlanayotgan xabar mazmuni implitsitlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Aynan shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, detalning o‘zi nolisoniy ifoda vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Belgi semiologik birlikdir. Detal ham xuddi lisoniy vosita singari belgiga aylanishi bilanoq informativlik yukini zimmasiga oladi. Shuning uchun ham axborot ifodalashga xizmat qiluvchi detal kodlanuvchi tizimning maxsus turiga mansub bo‘ladi. Xuddi har qanday til aloqa-aralashuv jarayonining o‘ziga xos kodlanish tizimini tashkil qilganidek, detallar ham implitsit kodlanishning o‘ziga xos ifoda shaklidir. Muallif verbal tasvir orqali ma’lum voqealar haqida xabar beradi. U xabar oshkora yoki yashirin ifodalanishi mumkin. Badiiy matnda qo‘llanuvchi detallarda xabarni oshkora ifodalash xususiyati mavjud emas. Detallar orqali ifodalanuvchi xabarlar faqat implitsitlik maqomiga ega bo‘ladi. Detal badiiy matnga xos bo‘lgan alohida obrazli ifoda vositasidir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Demak, badiiy matnda muallif tomonidan ishlatilgan detal mayda-chuyda tafsilot bo‘lishi mumkin. Masalan, *Qumri onasining nega bunaqa bo‘layotganini bilib turardi. Boya akasi tong yorishmay hovli etagidagi yong‘oq tagida devorga qarab cho‘qinayotganini ko‘rib hayron-u lol qolgandi. Ayollar umuman titimsaq xalq bo‘ladi. Akasi Abdumalik bilan hovlidan chiqib ketgach, ichkari uyda turgan chemodanini titkiladi. Shunda sariq baxmalga o‘ralgan bir narsaga ko‘zi tushdi. Ushlab ko‘rdi. Qutichaga solingan narsa to‘pponcha emasmikan, deb baxmal tugunni yechib qaradi. U xristianlarning muqaddas kitobi Injil edi. Uni ushlagan qo‘llari kuyayotgandek shoshib yana baxmalga o‘rab qo‘ydi* (Said Ahmad, “Qorako‘z Majnun”).

Yuqoridagi matnda birinchi detal *yong'oq* daraxtidir, bu so'z daraxtga xos denotat tasviri bo'lib, muallif tomonidan badiiy detal sifatida qo'llanadi. Yong'oq daraxtiga oid xalqona tasavvurlar bu o'rinda badiiy talqin doirasida ko'rilishi lozim; ular inson salomatligiga kimyoviy ta'sir haqidagi ilmiy dalil o'rnini bosa olmaydi. Yozuvchi Bo'rixon e'tiqodiga mansub xarakter tavsifini berishda uning harakatini detal tafsilotlari bilan tasvirlaydi. Xususan, Bo'rixonning o'zga e'tiqodga mansub noverbal harakati – cho'qinishi detalga aylanadi. Harakat detalida uni o'z dinidan chiqqanligi haqida xabar beriladi: *Boya akasi tong yorishmay hovli etagidagi yong'oq tagida devorga qarab cho'qinayotganini ko'rib hayron-u lol qolgandi.*

Badiiy matnda personaj yoki qahramonning oddiy harakati obrazli ifoda shaklini hosil qiladi. Bu harakatga asoslangan detaldir. Bunday ifoda shaklini verbal tasvirda obrazli ifodalashning imkoniyati yo'qdir.

Yuqoridagi matnda buyum hamda narsaning rangi detalga aylanadi. Bu o'rinda baxmalning sariqligi detallashtirilgan. Badiiy matn muallifi xristianlar uchun muqaddas kitob deb hisoblangan Injilni xohlagan rangdagi baxmalga o'rashi mumkin edi. Biroq baxmalning qizil, ko'k, qora yoki boshqa rangda bo'lishi muallif nazarda tutgan g'oya yoki fikr uchun nomuvofiqdir. Aynan sariq rang o'zbek milliy madaniyatida ayriliq ramzi ma'nosini ifodalaydi. Injilning Bo'rixonga tegishliligi esa uning ota-ona, qarindosh-urug', diniy e'tiqod va Vatandan ayrilish ma'nosini ifodalaydi. Bu esa muallifning kommunikativ niyatini ko'rsatadi. Masalan, *Shunda sariq baxmalga o'ralgan bir narsaga ko'zi tushdi. Ushlab ko'rdi. Qutichaga solingan narsa to'pponcha emasmikan, deb baxmal tugunni yechib qaradi. U xristianlarning muqaddas kitobi Injil edi. Uni ushlagan qo'llari kuyayotgandek shoshib yana baxmalga o'rab qo'ydi*

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Nolisoniy vositalarning belgi sifatida qo'llanishi bir jihatdan uning poetik vazifasini, ikkinchi jihatdan axborot uzatuvchining ijtimoiy vazifasini ko'rsatadi. Shunga asosan, nolisoniy vositalarning pragmatik xususiyatlarini o'rganish nafaqat tilshunoslik darslarida, balki adabiyotshunoslik darslarida ham o'quvchilarda qiyosiy tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. Inson qaysidir tilga xos umumsemantik bilimlarsiz so'zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o'sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo'lishning o'zigina bu til orqali muloqot qilish mumkin, degan xulosani bermaydi. Buning uchun so'zlovchi o'zida mavjud bo'lgan semantik bilimlar asosida nutq predmeti haqidagi axborotni ifodalash qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Axborot ifodalash esa turli vositalar orqali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. – М.: Прогресс, 1985. – С.471.

2. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б.126.

3. Трубкина И. Художественная деталь: имплицитность и коммуникативно-прагматические функции // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2021. – Т.14, – Выпуск 9, – С 2849.

UDC 81'42:004.738.5

PRAGMATIC MARKERS AND LINGUISTIC STRATEGIES IN THE CONSTRUCTION OF RUMORS ON SOCIAL MEDIA

Komilova H. M., Master's student, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda mish-mishlarning shakllanishida ishtirok etuvchi pragmatik markerlar va lingvistik strategiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'zbek va ingliz tillaridagi raqamli axborot almashinuvida noaniqlik, bilvosita manbaga murojaat qilish, emotsional ifoda va ishontirish vositalarining qo'llanilishiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan va faktcheking manbalarida tekshirilgan misollar asosida mish-mishlarning til orqali qanday shakllanishi o'rganiladi. Natijalar pragmatik markerlarning tekshirilmagan axborotni taqdim etish va uning lingvistik talqinida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *pragmatik markerlar, mish-mishlar, raqamli diskurs, ijtimoiy tarmoqlar, noaniqlik, evidensiallik, lingvistik strategiyalar.*

Аннотация. *В статье анализируются прагматические маркеры и лингвистические стратегии, участвующие в формировании слухов в социальных сетях. Особое внимание*

уделяется выражению неопределённости, ссылкам на косвенные источники информации, эмоциональной лексике и средствам убеждения в узбекском и английском языках. На основе примеров, распространённых в социальных сетях и рассмотренных в материалах фактчекинга, исследуется роль языковых средств в конструировании слухов. Результаты показывают, что прагматические маркеры играют важную роль в языковом представлении и интерпретации непроверенной информации.

Ключевые слова: *прагматические маркеры, слухи, цифровой дискурс, социальные сети, неопределённость, эвиденциальность, лингвистические стратегии.*

Abstract. *This article examines pragmatic markers and linguistic strategies involved in the construction of rumors on social media. It focuses on how uncertainty, indirect source references, emotional expressions, and persuasive language are used in Uzbek and English digital communication. The study also analyses publicly documented examples of social media rumors discussed in fact-checking reports. The findings show that pragmatic markers play an important role in the linguistic presentation and interpretation of unverified information.*

Keywords: *pragmatic markers, rumors, digital discourse, social media, uncertainty, evidentiality, linguistic strategies.*

Introduction. Social media has changed the way people receive and share information. Platforms such as Telegram and Facebook allow information to spread within seconds. However, not everything shared online is reliable. Rumors often appear when information is incomplete or its accuracy is uncertain. DiFonzo and Bordia (2007) describe rumors as unverified statements that circulate among people, especially in situations of uncertainty. The development of digital communication has made rumors an important subject of linguistic research (Turenne, 2018).

From a linguistic perspective, both the content of a rumor and the way it is expressed are important. Expressions such as *apparently*, *reportedly*, and *I heard that*, as well as their Uzbek equivalents *aytishlaricha*, *eshitishimcha*, and *emish*, can present information without providing a clear source. According to Fraser (1996), pragmatic markers play an important role in shaping the meaning of utterances. Emotional and exaggerated expressions may also influence how online information is understood (Zhao & Fu, 2024).

Although online rumors have been examined in previous studies, their pragmatic features in different language contexts deserve further attention. This study compares Uzbek and English examples to explore how uncertainty, source references, and emotional language are used in rumor construction. The main aim is to identify and analyse the pragmatic markers and linguistic strategies used in social media rumors. The study addresses two research questions:

1. What pragmatic markers and linguistic strategies are used in the construction of rumors on social media?

2. How are uncertainty, source references, and emotional evaluation expressed in Uzbek and English social media discourse?

The study examines selected fact-checking examples through qualitative and comparative analysis. It explores how Uzbek and English linguistic strategies shape the presentation and understanding of unverified information.

Methodology. This study uses a qualitative and comparative approach to examine the pragmatic markers and linguistic strategies found in social media rumors. The research is based on document analysis, which allows written materials to be systematically examined and interpreted (Bowen, 2009). Qualitative content analysis is also applied to identify and classify recurring linguistic features (Schreier, 2012).

The research material consists of four publicly documented rumor cases: two from Uzbek-language digital discourse and two from English-language social media. The Uzbek examples concern rumors about the Nest One residential complex and an alleged increase in ATM withdrawal commissions (Ahrorov, 2024; `Factchecker.uz`, 2024). The English examples include a misleading Facebook video caption about an explosion in Tel Aviv and a false claim concerning a hotel in Plymouth (Green, 2024, 2026).

The materials were selected based on their social media circulation and the availability of supporting evidence or official responses. The collected material was examined through pragmatic and comparative discourse analysis. The analysis focused on four main categories: uncertainty markers, indirect source references, emotional and evaluative expressions, and intensification strategies. These categories were informed by previous research on pragmatic markers and linguistic features of online rumors (Fraser, 1996; Zhao & Fu, 2024). Direct quotations were distinguished from journalists' paraphrases to avoid attributing editorial language to original social media users.

Results and discussion. The analysis of the selected examples revealed several linguistic features used in online rumor discourse. These include indirect source references, expressions of uncertainty, emotional vocabulary, and words that present information as certain. The examples show that the way a claim is expressed can influence how readers understand it. One Uzbek example concerns rumors about the Nest One residential complex in Tashkent. According to Ahrorov (2024), claims about financial problems involving the project and Aloqabank circulated on social media. The report uses expressions such as *go'yoki* (supposedly) and *iddao qilingan* (it was claimed) to distance itself from the allegation.

Other examples include a rumor about an alleged increase in ATM withdrawal fees in Uzbekistan (Factchecker.uz, 2024) and two English-language cases involving a misleading explosion video and a false claim about a hotel in Plymouth (Green, 2024, 2026). These examples illustrate how unverified information can be presented through indirect reporting, emotional emphasis, and expressions of certainty.

Pragmatic Analysis of Selected Social Media Rumors

Rumor example	Expression	Linguistic feature	Pragmatic function
Nest One (Uzbek)	go'yoki, iddao qilingan	Indirect reporting	Marks an allegation
ATM fees (Uzbek)	Alleged fee increase	Unverified claim	Presents uncertain information
Mossad video (English)	reportedly, massive explosion	Hearsay and intensification	Creates uncertainty and emphasis
Plymouth hotel (English)	confirmed, ASYLUM HOTEL, undocumented, unvetted	Certainty and evaluative language	Strengthens the claim emotionally

In English, reportedly and confirmed express different levels of certainty, while Uzbek expressions such as go'yoki and iddao qilingan present information as an allegation. Emotional phrases like massive explosion can also attract attention and influence readers' reactions (Zhao & Fu, 2024).

Conclusion. This study examined the pragmatic markers and linguistic strategies used in social media rumors in Uzbek and English. The analysis showed that expressions of uncertainty, indirect reporting, emotional vocabulary, and capitalisation can influence how information is presented and understood. One interesting finding was that rumors may be expressed either cautiously, through words such as *reportedly,* or confidently, through expressions such as *confirmed*. The comparison also highlighted the importance of context when interpreting these linguistic features. Although the study is based on a limited number of examples, it shows that pragmatic analysis can help us better understand how unverified information is communicated on social media.

REFERENCES:

1. Ahrorov, D. (2024, February 22). Nest One haqida tarqatilgan mish-mish rad etildi. *Kun.uz*. https://kun.uz/news/2024/02/22/nest-one-haqida-tarqatilgan-mish-mish-rad-etildi

2. DiFonzo, N., & Bordia, P. (2007). Rumor, gossip and urban legends. *Diogenes, 54*(1), 19–35. https://doi.org/10.1177/0392192107073433

3. Factchecker.uz. (2024, May 22). *O'zbekistonda bankomatlardan pul yechib olish komissiyasi 1,5% ga oshdi*. https://www.factchecker.uz/post/o%CA%BBzbekistonda-bankomatlardan-pul-yechib-olish-komissiyasi-1-5-ga-oshdi

4. Fraser, B. (1996). Pragmatic markers. *Pragmatics, 6*(2), 167–190. https://doi.org/10.1075/prag.6.2.03fra

5. Green, C. (2024, October 3). Video of explosion is from China not Tel Aviv. *Full Fact*. https://fullfact.org/online/explosion-video-china-not-tel-aviv-israel/

6. Green, C. (2026, April 2). False rumour spreads on social media about Plymouth hotel housing asylum seekers. *Full Fact*. https://fullfact.org/immigration/plymouth-hotel-migrant-asylum-seekers-refurb-false/

UO'K 811.512.133:398.21

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA EPITETLARNING LINGVOMADANIY VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

F.S.Kuranboyeva, mustaqil tadqiqotchi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq ertaklari tilida qo‘llangan epitetlarning semantik, lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etiladi. Unda epitetlar qahramonning tashqi va ichki belgisini ifodalovchi, ijobiy yoki salbiy baho beruvchi, milliy-madaniy mazmunni yuzaga chiqaruvchi hamda ertak obrazlarini tipiklashtiruvchi vosita sifatida o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *epitet, sifatlash, xalq ertagi, lingvomadaniyat, lingvopoetika, semantika, milliy mentalitet, konnotatsiya, obrazlilik, konseptosfera.*

Аннотация. *В статье рассматриваются семантические, лингвопоэтические и лингвокультурные характеристики эпитетов, используемых в языке узбекских народных сказок. Эпитеты анализируются как средства, выражающие внешние и внутренние черты персонажей, передающие положительную или отрицательную оценку, раскрывающие национально-культурное содержание и служащие для типизации героев сказок.*

Ключевые слова: *эпитет, квалификативная характеристика (описательная характеристика), народная сказка, лингвокультура, лингвопоэтика, семантика, национальный менталитет, коннотация, образность, концептосфера.*

Abstract. *This article examines the semantic, linguopoetic, and linguocultural characteristics of epithets used in the language of Uzbek folk tales. It explores epithets as tools that express the external and internal traits of characters, convey positive or negative evaluations, reveal national-cultural content, and serve to typify characters within the tales.*

Key words: *epithet, qualification (descriptive characterization), folk tale, linguoculture, linguopoetics, semantics, national mentality, connotation, imagery, conceptosphere.*

Kirish. Badiiy matn tilini tadqiq etishda epitet muhim tasviriy vositalardan biri hisoblanadi. An’anaviy stilistik qarashlarda epitet predmet, shaxs yoki hodisaning muayyan belgisini alohida ta’kidlab, unga badiiy va emotsional tus beruvchi poetik aniqlovchi sifatida talqin qilinadi. O‘zbek stilistikasiga oid tadqiqotlarda ham epitetning oddiy grammatik aniqlovchidan ekspressivligi, obrazliligi va baholovchi xususiyati bilan farqlanishi qayd etiladi [1;2;3;4;5].

Zamonaviy lingvopoetik va lingvomadaniy yondashuvda esa epitet faqat badiiy bezak emas, balki ijodkor yoki xalqning predmetga nisbatan munosabatini ko‘rsatuvchi semantik birlik sifatida qaralishi mumkin. Badiiy tasvir vositalarining matn semantikasini shakllantirishdagi roli haqidagi tadqiqotlarda epitet obraz yaratish, emotsional ta’sirni kuchaytirish va g‘oyaviy mazmunni aniqlashtirishga xizmat qilishi ko‘rsatiladi [12].

Xalq ertaklarida epitetning ahamiyati yanada kattaroqdir. Chunki og‘zaki ijodda qahramonlar ko‘pincha individual portret orqali emas, balki xalq tasavvurida shakllangan tayyor yoki yarim tayyor obrazli sifatlashlar orqali tanishtiriladi. O‘zbek xalq ertaklaridagi epitetlar ko‘pincha milliy qadriyatlar, axloqiy mezonlar va xalqona estetik tasavvurlar bilan bog‘langan bo‘ladi. Shuning uchun ularni semantik va lingvomadaniy jihatdan o‘rganish ertak tilida milliy mentalitetning qanday ifodalanishini aniqlashga xizmat qiladi va dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Epitet badiiy tasvir vositalaridan biri sifatida qadimdan poetika va stilistika doirasida o‘rganib kelinadi. O‘zbek tilshunosligida badiiy tasvir vositalariga bag‘ishlangan ishlarda epitet odatda sifatlash sifatida qaralib, uning predmetga muayyan nuqtayi nazardan baho berishi, ekspressivlik hosil qilishi va obrazlilikni kuchaytirishi ta’kidlanadi [6;8;12].

Epitetning lingvopoetik tabiati bir qator tadqiqotlarda tahlilga tortilgan. Shuningdek, H.X. Bozorovning “O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi” nomli tadqiqotida o‘zbek xalq ertaklari tilining lingvomadaniy xususiyatlari, milliy qadriyatlarni ifodalovchi birliklar, ramzlar, etnomadaniy stereotiplar va badiiy vositalar tizimli ravishda o‘rganilgan. [11]

Mavjud tadqiqotlarda epitetning umumiy stilistik yoki lingvopoetik xususiyatlari, shuningdek, xalq ertaklarining umumiy lingvomadaniy tabiati o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan o‘zbek xalq

ertaklaridagi epitetlarning semantik guruhlari va har bir guruhning milliy-madaniy mazmuni mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, semantik, komponent, qiyosiy, lingvopoetik va lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi. Material sifatida “Uch og‘a-ini botirlar”, “Uch o‘g‘il”, “To‘qqiz dangasa”, “Oltin tarvuz” va “Uchar gilam” ertaklari olindi.[13]

Epitet predmet, shaxs yoki hodisaning muayyan belgisini oddiy tarzda bildirish bilan cheklanmay, unga qo‘shimcha emotsional, ekspressiv, baholovchi yoki poetik ma’no yuklovchi badiiy aniqlovchi sifatida tushuniladi. Shu jihatdan epitetni quyidagi model asosida tahlil qilish mumkin: OBYEKT → BELGI → KONNOTATIV SEMA → BAHO → LINGVOMADANIY MAZMUN.

Masalan, *kambag‘al dehqon* birikmasida *kambag‘al* iqtisodiy holatni bildiradi, lekin ertak kontekstida bu birlik qahramonning ayanchli ahvolini ko‘rsatish bilan birga, uning keyinchalik boylikka erishishini mazmunan tayyorlaydi.

Tadqiqot materiali asosida epitetlarni shartli ravishda tashqi-estetik, axloqiy-baholovchi, ijtimoiy-madaniy, xarakterlovchi, ramziy-konnotativ va holatni ifodalovchi epitetlar guruhlariga ajratish mumkin.[4; 10] Bu guruhlar mutlaq chegaralangan emas: ayrim epitetlar bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq semantik xususiyatni o‘zida birlashtiradi.

Natijalar va muhokama. O‘zbek xalq ertaklaridagi epitetlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular bir xil semantik vazifani bajarmaydi. Ayrimlari qahramonning tashqi yoki ijtimoiy holatini ko‘rsatadi, ayrimlari uni bevosita ijobiy yoki salbiy baholaydi, boshqalari esa obrazni xalqning axloqiy idealiga yaqinlashtiradi. Shu jihatdan ularni yuqorida ko‘rsatilgan guruhlar asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Tashqi-estetik va tasviriy epitetlar. Bu guruhga predmet yoki obrazning ko‘zga tashlanadigan, tasavvur qilishni osonlashtiradigan belgisini bildiruvchi epitetlar kiradi. Bunday birliklar ertakdagi obrazni tinglovchi ko‘z oldida aniqroq gavdalantirishga xizmat qiladi.

“Uchar gilam” ertagida “sirli so‘zlar” birikmasi diqqatga loyiq. “Sirli” sifati so‘zlarning tashqi belgisi emas, balki ularning g‘ayrioddiy, yashirin va odatiy bilimdan tashqari mazmunga ega ekanini bildiradi. Shuning uchun bu epitet oddiy aniqlovchidan ko‘ra kuchliroq konnotativ yuklama oladi. SIRLI SO‘ZLAR → yashirin bilim → g‘ayrioddiy tajriba → mo‘jizaviy imkoniyat zanjiri shakllanadi.

Bu epitet orqali xalq ertagidagi bilim oddiy kundalik ma’lumot emas, balki sir va tajriba bilan bog‘langan maxsus bilim sifatida tasvirlanadi. “Uchar gilam”dagi “yaxshi domla” birikmasida *yaxshi* so‘zi tashqi belgini emas, shaxsning kasbiy va axloqiy sifatini bildiradi. Shu sababli u keyingi guruh baholovchi epitetlar bilan ham tutashadi.

“Uch og‘a-ini botirlar” nomining o‘zida “botirlar” so‘zi qahramonlarning asosiy belgisini umumlashtirib turadi. Bu birlik jismoniy kuchning o‘zinigina emas, jasorat, qo‘rqmaslik va sinovlardan cho‘chimay o‘tish kabi sifatlarni ham qamrab oladi.

Demak, “botir” epiteti obrazning tashqi emas, funksional-estetik qiyofasini belgilaydi.

Axloqiy-baholovchi epitetlar. Tadqiq etilgan ertaklarda eng faol guruhlardan biri axloqiy bahoni ifodalovchi epitetlardir. Ular qahramon yoki predmetga xalq nuqtayi nazaridan ijobiy yoki salbiy baho beradi.

“Uch o‘g‘il” ertagida otaning kenja o‘g‘ilga bergan “mehnatkash, yaxshi odam” bahosi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu yerda *mehnatkash* va *yaxshi* oddiy sifat emas, balki qahramonning axloqiy qiyofasini belgilovchi baholovchi birliklardir. Ayniqsa, “yaxshi odam” birikmasida “yaxshi” so‘zi keng semantik maydonga ega. U faqat xulqning bir tomonini emas, qahramonning mas’uliyati, mehnatsevarligi, otasining topshirig‘iga sodiqligi va halolligini umumlashtiradi.

Demak, MEHNATKASH → YAXSHI INSON modeli shakllanadi.

Bu model o‘zbek xalq mentalitetidagi “insonning qadrini uning amaliy faoliyati va xulqi belgilaydi” degan qarashni aks ettiradi.

“To‘qqiz dangasa” ertagida esa “dangasa” va “abjir” kabi birliklar qarama-qarshi baholashni hosil qiladi. *Dangasa* salbiy, *abjir* esa ijobiy baholovchi birlik sifatida qatnashadi.

"Abjir" so'zi ayniqsa diqqatga sazovor, chunki uning lug'aviy mazmunida chaqqonlik mavjud bo'lsa-da, ertak kontekstida u hunarni yaxshi bilish, tez va sifatli ishlash, mehnatdan cho'chimaslik kabi qo'shimcha semalarni oladi. Shu jihatdan bitta epitet qahramonning butun xarakterini ixcham shaklda ifodalash imkonini beradi.

Xarakterlovchi epitetlar. Bu guruhda epitet qahramonning xarakterini bir yoki bir necha so'z orqali ochib beradi. Xalq ertaklarida obrazlarning ko'pchiligi keng psixologik tasvirga ega emas. Shuning uchun epitet qahramon xarakterini qisqa va aniq belgilashda katta yuklamani bajaradi.

"Uch og'a-ini botirlar"dagi botir ana shunday xarakterlovchi birlikdir. U qahramonlarning butun syujet davomida qanday harakat qilishini oldindan belgilab beradi: ular qo'rqmaydi, xavfli vaziyatlarga kiradi, jumboqlarni yechadi va adolat tomonida turadi.

"To'qqiz dangasa"dagi dangasa esa qahramonlarning butun xatti-harakatini oldindan belgilab beradi. Ularning sustligi, mehnatdan qochishi, tayyor boylikka intilishi va oxir-oqibat jazoga duch kelishi ushbu epitet bilan uyg'unlashadi.

Demak, ertaklarda xarakterlovchi epitet ko'pincha syujet prognozini ham yuzaga chiqaradi. Ya'ni qahramon "botir" bo'lsa, jasoratli harakat kutamiz; "dangasa" bo'lsa, mehnatdan qochishini kutamiz. Shunday qilib: EPITET → XARAKTER → XATTI-HARAKAT → SYUJET NATIJASI bog'lanishi yuzaga keladi.

Ramziy-konnotativ epitetlar. Ba'zi epitetlar predmetning oddiy belgisini emas, undan kengroq ramziy ma'noni ifodalaydi. Tadqiq etilgan ertaklarda "oltin tarvuz" bunga eng yorqin misollardan biridir.

"Oltin" sifatining asosiy lug'aviy mazmuni rang va qimmatbaho metall bilan bog'liq bo'lsa-da, ertak kontekstida u: oltin → qimmat → boylik → baraka → farovonlik kabi konnotativ qatorni hosil qiladi.

"Tarvuz" esa oddiy hosil sifatida qolmay, qahramonning mehnati va ezguligi uchun mukofot timsoliga aylanadi. Shu sababli "oltin tarvuz" birikmasi epitet va ramziy obraz chegarasida turadi.

"Uchar gilam"dagi "sirli" epitet ham ramziy-konnotativ mazmunga ega. *Sirli so'zlar* oddiy til birliklari emas, balki qahramonning hayotidagi keyingi sinovlarni tushunishga yordam beradigan yashirin bilimni bildiradi. [6]

Demak, "sirli" so'zi: SIR → BILIM → MO'JIZA → IMKONIYAT konseptual maydonini faollashtiradi.

Bu guruhlash epitetlarning xalq tafakkuridagi qadriyatlar tizimini aks ettirishini ko'rsatadi. Epitetlar o'zbek xalq ertaklari konseptosferasida alohida konseptlarni faollashtiruvchi til birliklari ham hisoblanadi. Bu holat epitetni faqat poetik birlik sifatida emas, konseptual maydonni faollashtiruvchi verbalizator sifatida ham ko'rishga imkon beradi.

Xulosa. O'zbek xalq ertaklarida epitetlar ertak tilida muhim semantik, lingvopoetik va lingvomadaniy vazifa bajaradi. Ular ertak qahramonlari va predmetlarining muhim belgilarini qisqa shaklda ifodalab, obrazni tinglovchi ko'z oldida aniqroq gavdalantiradi.

Shuningdek, epitetlar xalqning baholash mezonlarini ifodalashga xizmat qiladi. *Mehnatkash, abjir, botir, yaxshi* kabi birliklar ijobiy qadriyatlarni; *dangasa* esa salbiy bahoni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, epitetlar orqali ertaklarda ilmga hurmat, mehnatsevarlik, jasorat, halollik, ezgulik, saxovat va adolat kabi milliy qadriyatlar kodlanadi. Epitetning semantik bahosi uning kontekstual qo'llanishi bilan belgilanadi.

O'zbek xalq ertaklaridagi epitetlar tasvir + baho + xarakter + milliy qadriyat funksiyalarini birlashtiruvchi kompleks lingvomadaniy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ular xalqning ideal inson, yaxshi va yomon xulq, boylik va mehnat, bilim va ustoz, jasorat va ezgulik haqidagi tasavvurlarini ixcham va ta'sirchan shaklda ifodalaydi. Shu sababli epitetlarni semantik va lingvomadaniy jihatdan o'rganish o'zbek xalq ertaklari konseptosferasida milliy mentalitetning qanday verbalizatsiya qilinishini ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 1974.
2. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977.
4. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda-tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 1994.

5. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Ленинград: Гослитиздат, 1940.
6. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – Москва: Аспект Пресс, 1996.
7. Гальперин И.Р. Стилистика. – Москва: Высшая школа, 1981.
8. Павшук А.В. Языковая природа и функции эпитета в художественном тексте. – Москва, 2007.
9. Комиссаров В.Н. Теория перевода. – Москва: Высшая школа, 1990.
10. Павлова О.К. Сложные эпитеты в текстах олонхо северо-восточной якутской традиции: метафорические эпитеты // Мир науки, культуры, образования. – 2020. – № 6 (85).
11. Bozorov H.X. O'zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2023.
12. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent: Fan, 2008.
13. Uch og'ayni botirlar. O'zbek xalq ertaklari.– Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2017. – 304 b.

UO'K 82.09

ULLIBIBI OTAYEVA ŞE'RIYATINING YAŞIRIN QIRRALARI

G.D.Kurbanova, magistrant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganç davlat universiteti, Urganç

Annotatsiya. *Uşbu maqolada Ullibibi Otayeva şe'riyatining öziga xos jihatlari, şoiraning hayoti va ijod yöli hamda badiiy mahorati tahlil qilinadi. Şe'rlardagi jadidçilik ğoyalari, millatni uyğotiş va ma'rifatga da'vat, şakl va mazmun uyğunligi hamda şe'riy san'atlarning vazifasi yoritiladi.*

Kalit sözlar: *Tazod, nido, istiora, tanosub, mubolağa, taşxis, şe'riy san'at, qofiya, şakl, mazmun, barmoq vazni, jadidçilik, hurlik.*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности поэзии Уллибиби Отаевой, её жизненный и творческий путь и художественное мастерство. Анализируются идеи джадидизма, призыв к национальному пробуждению и просвещению, единство формы и содержания, а также функции поэтических приёмов.*

Ключевые слова: *антитеза, риторическое обращение, метафора, тематическая соотнесённость, гипербола, олицетворение, поэтический приём, рифма, форма, содержание, силлабический стих, джадидизм, свобода.*

Abstract. *This article examines the distinctive features of Ullibibi Otayeva's poetry, her life and creative career, and her artistic skill. It analyzes Jadid ideas, calls for national awakening and enlightenment, the unity of form and content, and the functions of poetic devices.*

Key words: *antithesis, rhetorical address, metaphor, thematic association, hyperbole, personification, poetic device, rhyme, form, content, syllabic verse, Jadidism, freedom.*

Barçamizga ma'lumki, şoiralar jahonda juda köp. Ular içida esa öziga xoslari hamişa ajralib turadi. Şu örinda aytiş joizki, zamonaviy özbek şe'riyatining yetuk vakilalaridan biri Ullibibi Otayevadir. XX asr özbek adabiyotini özining jöşqin va betakror şe'rlari bilan bezagan millatparvar şoira Ullibibi Otayeva hayoti qisqa davom etgan bölsa-da, özbek şe'riyatida öçmas iz qoldira oldi. "Ullibibi Otayeva 1948-yil 22-aprelda Xiva şahrida tuğilgan. Samarqand davlat universiteti Filologiya fakultetini tamomlagan(1976). Söngra "Barmoqlar sehri"(1980), "Zamin darğasi"(1991), "Şukrona"(vafotidan söng 1998) kabi şe'riy töplamlari naşr etilgan. Navoiy ğazallariga şarhlar yozgan. 1996-yil saraton kasalligi tufayli vafot etgan va Xivaga dafn qilingan". [1] Ullibibi Otayeva qalamiga mansub şe'rlarni öqir ekansiz, uning çuqur dard ila bitgan har bir misrasida millat hayoti va undagi qiyinçiliklarni tasvirlanganining guvohi bölasiz. Ullibibi Otayevaning yuragida ulkan azob, mehr, oğriq, sevgi va dard yotadi. Buning dalilini esa uning şe'rlarida körişimiz mumkin. Zero, şoiraning ham öz hayoti, öz armonlari va quvonçlari bölgan. Aynan şular ijodkorga ilhom bergan balki. Vatan dardi bilan yaşaganligi ham e'tiborga molik. Vatan ravnaqi uçun, xalq uçun qölidan kelganiça şoira öz şe'rlari ila doimo hissa qöşib kelgan. Ullibibi Otayeva juda rang-barang va barakali ijod qilgan. Ullibibi Otayeva ijodida nafaqat ona va bola haqida, balki vatanni, xalqni uyğotish ruhidagi ulkan salmoqqa ega bölgan şe'rlar ham mavjud. Qolaversa, uning şe'rlari barça şe'riyatga oşno qalblarga yetib boradi, nihoyatda xalqçil hamda tuşunişga osondir. Bu haqida Atajanova Nilufar Fayzullayevna şunday deydi: "Ullibibi Otayeva yaratgan badiiy obrazlar xalqçil, murakkablikdan xoli

san'atkorona nigoh bilan yozilgan". [2:129] Bu fikrlarning dalili sifatida esa uşbu şe'rni e'tiboringizga havola qilmoqçimiz:

Kitoblar kömilgan qabristonlarga
Qalblar, tanimni, kafanimnimas,
Bağringizga oling kitoblarimni.
Aybim, nuqsonlarimni yopmangiz, mayli.
Yaşiring qölyozma, xitoblarmni.
Dinsiz, diyonatsiz, nopok kimsalar
Qörqmaslar qiyomat söroqlaridan.
Ularda yurak yöq, ular qörqoqlar
Qabrning zim-ziyo soyoqlaridan.
Özbek manglayiga, qabr bağriga
Siğmagan kitoblar yondilar yomon.
Jonimga tutaşib, köksimni yoqib,
Gurillab turibdi bu gulxan hamon.
Bu kitob titilgan, bağri nimtadir,
Lang oçiq közlari, u köpni körgan.
Bunisi–bokira, qöl urilmagan,
Yuzlari yaşirin baxmal jildlarda.
Yana biri yupun, uyatçan, ma'sum,
Öralgan bözgami, çitlarga.
Harir pardalardan bu qörs dunyoga
Yana biri dahşat içra qaraydi.
Garçi husnixatda nafis, ma'nida
Dunyoni tutmoqqa yaraydi.
Bir oymi, ikki oy yondi kitoblar,
Ohi yaratganga qadarli yetdi.
Ular odamlarday faryod ayladi,
Ular bolalarday köz yoşi tökdi.
...Bu qabr–muqaddas, bu gör–mukarram,
Men sajda qilaman egib tik qaddim,
Unga avliyomas, Payğambar emas,
Unga kömilgandir kitoblar qadim. [3:107,108]

Mazkur şe'rda bir qator şe'riy san'atlar mavjud. Jumladan, birgina "Qalblar" sözini işlatiş orqali ham nido, ham istiora şe'riy san'atlari ifodalangan. Qalb, tan, kafan, bağir sözlari esa tanosub şe'riy san'atini yuzaga keltirgan. Qolaversa, aybim, nuqsonlarim, qölyozma, xitoblarim sözlari hamda dinsiz, diyonatsiz, nopok, qiyomat sözlari tanosubni paydo qilgan. Bundan taşqari, qörqmaslar va qörqoqlar sözlari orqali tazod şe'riy san'ati yuzaga kelgan. "Jonimga tutaşib, köksimni yoqib, Gurillab turibdi bu gulxan hamon" jumlasida esa mubolağa mavjud. "Bu kitob titilgan, bağri nimtadir, Lang oçiq közlari, u köpni körgan" jumlasi orqali esa taşxis şe'riy san'ati vujudga kelgan. Şe'rda kitoblarimni va xitoblarimni sözlari, yomon va hamon sözlari qofiyadoşlikni hosil qilgan. Uşbu şe'r jadidlarga xos barmoq vaznida yozilgan. Ullibibi Otayevaning uşbu şe'rini nafaqat şakl jihatdan, balki mazmun jihatdan ham tahlil qiliş muhimdir. Zero, Alişer Navoiy ham ma'nini birinçi örinda qöygan. Yuqoridagi şe'rda esa xalqni uyğotişga yöğrilgan jadidçilik ğoyalari mujassamdir. Bu şe'rni tahlil qilarkanmiz, Ullibibi Otayevaning jadidlar izidan ergaşganiga guvoh bölamiz. Zotan, şe'rda XX asrdagi xalqni uyğotişga uringan jadidlarga qilingan qahrli munosabatga işora bor. Çunki öşa davrda millatni ongli, ilmli bölişga hamda öz hurligida sobit qadam bölişga uringanlar xalq duşmani hisoblangan va ularning nafaqat kitoblari yoqib yuborilgan, balki özlari ham otib, öq qolmasa çopib öldirilgan. Aynan şular, balki, şoiraning qalbida gulxan yoqqan hamda şunday muqaddas kitoblar deya ularga sajda qilişga undagandir. Gegel aytganidek: "San'at–obrazlar orqali fikrlaşdir".[4:1-2sonlar] Aynan yuqoridagi şe'rda ham "kitob" obrazi öquvçini fikrlaşga, ilm oliş va kitoblarni qadrlaşga undaydigan obraz deyişimiz mumkin va bu şe'r ham san'at darajasidadir. Çunki kitob–bu

ilm, ilm esa barcha bilişlarning, yaxşiliklarning asosidir. Zero "Yaxşi şe'rni tirişib, diqqatni bir joyga majburan jamlab öqiş şart emas–şusiz ham u kişining borliğini qamrab olib, ta'sirlanmaganiga qöymaydi".[5:102,103] Qolaversa, Ullibibi Otayevaning uşbu şe'rida ham jadidlarniki kabi tarbiyaviy ğoyani körişimiz mumkin. Zotan, Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "Alhosil, tarbiya bizlar uçun yo hayot–yo mamot, yo najot–yo halokat, yo saodat–yo falokat masalasidir".[6:6] Şunday ekan, Ullibibi Otayeva şe'riyatini ham jadidlarniki singari katta ahamiyatga ega deb ayta olamiz. Bu esa Ullibibi Otayeva ijodini kelgusida yanada kengroq tahlil etmoq kerakligini anglatadi.

Şe'rning kompozitsion qurilişi ham diqqatga sazovor. Asar qabriston obrazi bilan boşlanib, lirik qahramonning kitoblarni bağriga bosişga çaqiriği, söngra ularning taqdiri tasviri va nihoyat, qabrga bölgan yuksak ehtirom ifodasi bilan yakunlanadi. Bu tartib şe'rda üç bosqiçni ajratişga imkon beradi: murojaat (nido), fojia tasviri va yakuniy hukm. Boşlanmadagi "Qalblar, tanimni, kafanimnimas, bağringizga oling kitoblarimni" misralarida lirik qahramon özining jismi emas, ma'naviy merosi asralişini istaydi. Demak, insonning vujudi ötkinçi, kitob esa abadiy ekani şe'rning bosh ğoyaviy asosini taşkil etadi.

Şe'rda obrazlar tizimi ham izçil qurilgan. Muallif kitoblarni jonli mavjudot sifatida tasvirlaydi: bir kitob "titilgan, bağri nimta", ikkinçisi "bokira, qöl urilmagan", uçinçisi "yupun, uyatçan, ma'sum", törtinçisi esa "dahşat içra" qaraydi. Bu kabi birikmalar şe'rda parallelizmni yuzaga keltirib, har bir kitobning alohida taqdirga ega ekanini körsatadi. "Ular odamlarday faryod ayladi, ular bolalarday köz yoşi tökdi" misralarida esa öxşatiş (taşbeh) va taşxis uyğunlaşib, yöqotişning dahşatini kuçaytiradi. Bu örinda kitoblarning "baxmal jild", "harir parda" kabi taşqi belgilari bilan "husnixatda nafis, ma'nida dunyoni tutmoqqa yaraydi" degan ma'naviy qiymati qarşi qöyilgan bölib, ziddiyat (tazod) orqali şakl va mazmun birligi ta'minlangan.

Şe'rning yakuniy bandi alohida tahlilga loyiq. "Unga avliyomas, Payğambar emas, unga kömilgandir kitoblar qadim" misralarida qabrning muqaddasligi kimning qabri ekani bilan emas, unda yotganning darajasi bilan belgilanadi. Bu qiyoslaş ilm va kitobni eng oliy qadriyat darajasiga kötaruvçi badiiy vositadir. Şunday talqin, bizningça, şoiraning dinga qarşi çiqişi emas, aksinça, ma'rifatga bölgan ehtiromning eng yuqori nuqtasini ifodalaşga qaratilgan mubolağali ta'kiddir. Şe'rning tarixiy-ijtimoiy asosi XX asrning 20–30-yillarida jadid matbuoti va asarlariga qarşi olib borilgan siyosatga borib taqaladi. Jadidlarning ayrimlari qatağon qurboni bölib, asarlari uzoq yillar mutolaadan çetlatildi, ba'zi kitoblar esa yöq qilindi [7]. Ullibibi Otayeva ijodining asosiy qismi mustabid tuzum davriga töğri kelgani, ayniqsa "Zamin darğasi" (1991) töplami istiqlol arafasida çop etilgani bu mavzuga murojaatni, tarixiy xotirani tiklaşga bölgan ehtiyoj sifatida körişga asos böladi. Şoira bu fojiaga bevosita guvoh bölmagan bölsa-da, uni badiiy xotira orqali qayta jonlantiradi va özini şu merosning vorisi sifatida his etadi. Jadidçilik ğoyalari bilan tipologik yaqinlik şe'rda uç yönalişda namoyon böladi. Birinçidan, kitob, ilm va ma'rifat millat taqdirini belgilovçi omil sifatida talqin qilinadi. Ikkinçidan, şoira jadidlar kabi badiiy sözni millatni uyğotişning vositasi deb biladi. Uçinçidan, Abdulla Avloniy ta'kidlagan tarbiya – "yo hayot, yo mamot" masalasi degan qaraş [6:6] bu şe'rda kitobni saqlaş – xotirani, demak, millatni saqlaş degan ma'noda davom ettiriladi. Şu jihatdan Ullibibi Otayeva Çölpon, Fitrat, Avloniy, Qodiriy kabi ijodkorlar boşlagan ma'rifatparvarlik an'anasini zamonaviy şe'riyatda davom ettirgan şoira sifatida namoyon böladi. Şoira ijodini Xorazm adabiy muhiti va klassik an'anadan ajratib bölmaydi. Uning Navoiy ğazallariga şarhlar yozgani klassik adabiyotni çuqur bilganidan dalolat beradi. Şe'rda esa bu an'ana yangiça şaklda – barmoq vazni, sodda va tuşunarli til, xalqçil obrazlar orqali ifodalanadi. N. Atajanovaning şoira obrazlarini "xalqçil, murakkablikdan xoli" deb baholaşi [2:129] yuqoridagi tahlil bilan hamohangdir: şe'rdagi qiyin ğoya oddiy, lekin ta'sirçan obrazlar orqali yetkaziladi. Adabiyotşunoslikda badiiy asarning kuçi ğoya bilan şakl uyğunlığida ekani qayd etilgani [8] ham buni tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tahlillar şuni körsatdiki, Ullibibi Otayeva şe'riyati özbek adabiyotida öziga xos örin tutadi. Avvalo, şoira ijodida vatan, xalq va ma'rifat mavzulari asosiy örin egallaydi. Bundan taşqari, tahlil qilingan şe'rda nido, istiora, tanosub, tazod, mubolağa, taşxis va taşbeh kabi şe'riy san'atlar ğoyaviy mazmunga xizmat qilgan. Şu bilan birgalikda, şe'rda kitob obrazi ilm va xotira ramzi darajasiga kötarilgan bölib, jadidçilik ğoyalari, ya'ni millatni uyğotiş va ma'rifatga da'vat yaqqol közga taşlanadi. Qolaversa, şoira jadidlar an'anasini davom ettirib, bu merosni öziga xos

şe'riyat tilida yangiça talqin etgan. Ullibibi Otayeva ijodi hali yetarliça örganilmagan. Şoiraning şe'rlarini mavzu, obraz va şakl jihatidan qiyosiy tahlil qiliş, uning Xorazm şoiralari ijodi bilan aloqadorligi va farqini yanada çuqurroq örganiş kelgusi ilmiy izlanişlarning muhim yönalişi bölib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. Internet saytlari: Ziyouz.com
2. Atajanova Nilufar F. Hozirgi özbek an'anaviy va modern şe'riyatida Xorazm şoiralari ijodining örni.–Urganch: "Khwarezm publication" naşriyoti, 2024.
3. Ullibibi Otayeva. Şukrona.–T.: "Yozuvçi" naşriyoti, 1998.
4. Gegel. Estetika//Şarq yulduzi.2014.
5. A'zamov A. Mas'ul söz.–Toşkent: Ğ.Ğulom nomidagi Adabiyot va san'at naşriyoti, 1987.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.–Toşkent: Yoşlar naşriyot uyi, 2019.
7. Qosimov B. Milliy uyğoniş: jasorat, ma'rifat, fidoyilik.–Toşkent: Ma'naviyat, 2002.
8. Quronov D., Mamajonov Z., Şeraliyeva M. Adabiyotşunoslik lüğati.–Toşkent: Akademnaşr, 2013.

UO'K 811.111'42:81'27

INGLIZ BADIIY DIALOGIDA BILVOSITA RAD ETISHNING LINGVOPRAGMATIK STRATEGIYALARI

Madaliyeva M. M., Qo'qon davlat universiteti, Qo'qon

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz badiiy dialoglarida bilvosita rad etishning lingvistik va pragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Rad etish nutq aktining murakkab turi sifatida bevosita inkor qilishdan farqli ravishda, ko'pincha modal birliklar, shart konstruksiyalari, sababiy izohlar, uzr, minnatdorchilik, noaniqlik va yumshatuvchi vositalar orqali ifodalanishi asoslanadi. Tadqiqotda J. L. Austinning nutq aktlari nazariyasi, J. R. Searlening bilvosita nutq aktlari haqidagi qarashlari hamda P. Brown va S. Levinsonning muloyimlik nazariyasi metodologik asos sifatida tanlandi. Ingliz badiiy dialoglaridan olingan misollar asosida bilvosita rad etishning asosiy strategiyalari - yumshatish, sabab bilan asoslash, shartlilik, modalizatsiya, uzr bildirish va suhbatdosh pozitsiyasini ehtiyotkorlik bilan inkor etish - tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *bilvosita rad etish, nutq akti, lingvopragmatika, badiiy dialog, illokutiv kuch, muloyimlik, strategiya, modal birlik, kommunikativ vaziyat.*

Аннотация. *В статье исследуются лингвопрагматические стратегии косвенного отказа в английском художественном диалоге. Отказ рассматривается как сложный речевой акт, который в художественной коммуникации может выражаться не только посредством прямых отрицательных конструкций, но и с помощью модальных средств, условных конструкций, объяснений, извинений, благодарности и смягчающих выражений. Теоретическую основу исследования составляют теория речевых актов Дж. Л. Остина, концепция косвенных речевых актов Дж. Р. Серля и теория вежливости П. Браун и С. Левинсона. На материале английского художественного диалога выявляются основные стратегии косвенного отказа и определяется их роль в передаче иллокутивной силы высказывания. Особое внимание уделяется взаимосвязи языковой формы отказа с коммуникативной ситуацией, социальной дистанцией, статусом собеседников и прагматической целью говорящего.*

Ключевые слова: *косвенный отказ, речевой акт, лингвопрагматика, художественный диалог, иллокутивная сила, вежливость, коммуникативная стратегия, модальность.*

Abstract. *This article examines the linguistic and pragmatic strategies of indirect refusal in English literary dialogue. Refusal is regarded as a complex speech act which, in literary communication, can be expressed not only through direct negative constructions but also through modal expressions, conditional structures, explanations, apologies, expressions of gratitude and mitigating devices. The theoretical framework of the study is based on J. L. Austin's Speech Act Theory, J. R. Searle's concept of indirect speech acts, and P. Brown and S. Levinson's Politeness Theory. The study identifies the major strategies of indirect refusal in English literary dialogue and analyzes their role in conveying the illocutionary force of an utterance. Particular attention is paid*

to the relationship between linguistic form, communicative context, social distance, interlocutors' status and the speaker's pragmatic intention.

Keywords: *indirect refusal, speech act, linguistic pragmatics, literary dialogue, illocutionary force, politeness, communicative strategy, modality.*

Kirish. Tilning kommunikativ imkoniyatlari faqat axborot uzatish bilan cheklanmaydi. Inson nutq vositasida so‘raydi, buyuradi, taklif qiladi, va’da beradi, ogohlantiradi, rozilik bildiradi yoki rad etadi. Shu jihatdan nutq jarayonida *“nima aytilgani” bilan bir qatorda “aytilgan narsa orqali qanday harakat bajarilayotgani”* masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. J. L. Austin nutqning lokutiv, illokutiv va perlokutiv jihatlarini ajratib, nutq orqali muayyan harakat bajarilishini nazariy jihatdan asoslab bergan. [1] Austinning keyingi nazariyasida illokutiv akt “biror narsani aytish orqali nima qilinayotgani”, perlokutiv akt esa aytilgan narsaning suhbatdoshga ta’siri bilan bog‘lanadi.

Rad etish ayniqsa murakkab nutq aktlaridan biridir. Chunki rad etish jarayonida so‘zlovchi suhbatdoshning taklifi, iltimosi yoki kutilgan javob yoki kutilgan javobini qabul qilmaydi. Shu sababli rad etish ko‘pincha suhbatdoshning “ijtimoiy yuzi”ga tahdid qiluvchi akt sifatida qaraladi va so‘zlovchi kommunikativ ziddiyatni kamaytirish uchun bilvosita shakllardan foydalanadi. [2] Tadqiqotlarda ham rad etishning bevosita va bilvosita strategiyalari, yumshatuvchi vositalarning qo‘llanishi pragmatik jihatdan muhim ekanligi ko‘rsatiladi.

Ingliz badiiy dialogida mazkur hodisa yanada murakkab ko‘rinish kasb etadi. Chunki yozuvchi qahramonning “yo‘q” degan javobini oddiy inkor shaklida emas, balki modal, shartli, sababiy, emotsional va kontekstual birliklar yordamida ifodalashi mumkin. Natijada o‘quvchi rad etish mazmunini faqat grammatik shakldan emas, balki dialogning umumiy mazmuni, oldingi replika, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat va kommunikativ vaziyatdan anglaydi.

BILVOSITA RAD ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. Nutq aktlari nazariyasida rad etishning pragmatik mohiyatini tushuntirish uchun Austin konsepsiyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Austin nutqning lokutiv, illokutiv va perlokutiv jihatlarini ajratadi. [1]

Masalan: “I’m afraid I can’t accept your offer.”

Lokutiv darajada so‘zlovchi o‘zining taklifni qabul qila olmasligini bildiradi.

Illokutiv darajada:

REFUSAL - rad etish. Perlokutiv darajada esa suhbatdosh:

“My offer has been rejected.” degan xulosaga keladi.

Rad etishning lingvopragmatik tahlilida gapning grammatik shakli va uning kommunikativ vazifasi bir xil bo‘lishi shart emas. Aynan shu nuqta bilvosita rad etishning asosiy xususiyatlaridan biridir. Searle bilvosita nutq aktlarini tahlil qilishda so‘zlovchi bir kommunikativ aktni boshqa, yuzaki jihatdan boshqa ko‘rinishga ega bo‘lgan akt orqali amalga oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi. [3]

Masalan: “I’m not sure I can make it.”

Bu gap grammatik jihatdan oddiy noaniqlikni bildiradi. Biroq kontekstda:

“Will you come to my party?” savoliga javob sifatida qo‘llansa, uning illokutiv mazmuni: “No, I probably won’t come.” ya’ni bilvosita rad etish bo‘ladi.

INGLIZ BADIIY DIALOGIDA BILVOSITA RAD ETISH STRATEGIYALARI. Ingliz badiiy dialoglarini tahlil qilish asosida bilvosita rad etishning quyidagi asosiy strategiyalarini ajratish mumkin:

1. Modal yumshatish. *I’m afraid I can’t accept your invitation.*

Bu yerda: I’m afraid + can’t rad etishning keskinligini yumshatadi.

2. Sabab bilan rad etish. *I’d love to come, but I have another appointment.*

Tashqi shaklda so‘zlovchi ijobiy munosabat bildiradi: *I’d love to come* ammo: *but I have another appointment* qismi haqiqiy rad etishni anglatadi.

3. Shartli rad etish. *If I had more time, I would certainly help you.*

Mazkur gap yuzaki ravishda yordam berishga tayyorlikni bildiradi. Biroq If I had more time shartining mavjud emasligi yordam bera olmaslikni anglatadi.

4. Uzr orqali rad etish. I’m sorry, but I don’t think I can do that.

Bu yerda: apology + refusal modeli mavjud.

5. Noaniqlik orqali rad etish. *I'm not sure that would be possible.*

So'zlovchi: "No." demaydi, lekin kommunikativ vaziyatda rad etish mazmuni yuzaga chiqadi.

6. Qarshi sababni ko'rsatish. *That sounds wonderful, but unfortunately I have to leave.*

Bu modelda: positive evaluation + contrast marker + reason

tuzilmasi mavjud.

Jadval 1

Bilvosita rad etishning lingvistik modellari

Lingvistik vosita	Inglizcha misol	Pragmatik vazifa
Modal fe'l	*I can't accept it.*	Rad etish
Shart konstruktsiyasi	*If I could, I would.*	Yumshatish
Apologetik birlik	*I'm sorry, but…*	Muloyimlashtirish
Noaniqlik	*I'm not sure…*	Bilvosita rad etish
Qarama-qarshi bog'lovchi	*I'd love to, but…*	Rad etishni asoslash
Sabab	*I have another commitment.*	Rad etishni izohlash
Epistemik modal birlik	*I don't think I can…*	Kategoriklikni kamaytirish
Baholovchi birlik	*That sounds great, but…*	Iijobiy munosabat + rad etish

BILVOSITA RAD ETISH VA MULOYIMLIK. Bilvosita rad etishning muhim jihatlaridan biri uning *politeness - muloyimlik* bilan bog'liqligidir. Brown va Levinson nazariyasida ijtimoiy muloqotda ayrim nutq aktlari suhbatdoshning "face"iga tahdid qilishi mumkinligi ta'kidlanadi. Rad etish ham shunday aktlardan biri sifatida qaraladi. [2] Shu sababli so'zlovchi: No. o'rniga: I'm afraid I can't.

yoki: *"I'm sorry, but I don't think I can"* kabi shakllarni tanlashi mumkin.

Bunda: DIRECT REFUSAL No. INDIRECT REFUSAL

I'm afraid I can't. o'rtasidagi asosiy farq illokutiv maqsadda emas, balki uning lingvistik realizatsiyasi va kommunikativ yumshatilish darajasida namoyon bo'ladi. Muloyimlik darajasiga suhbatdoshlarning ijtimoiy masofasi, mavqei va rad etilayotgan harakatning darajasi ta'sir qilishi mumkin. Brown va Levinson modelida power, distance va face-threatening actning og'irligi muloyimlik strategiyalarini tushuntirishda muhim parametrlar sifatida ko'rsatiladi.

BILVOSITA RAD ETISHNING BADIIY-FUNKSIONAL XUSUSIYATI. Badiiy dialogda bilvosita rad etish faqat kommunikativ vazifani bajarmaydi. U qahramon xarakterini ochishda ham faol ishtirok etadi.

Masalan: "I appreciate your offer, but I'm afraid I cannot accept it."

Bu gap qahramonning: muloyim; ehtiyotkor; ijtimoiy me'yorlarni hisobga oluvchi; konfliktni kuchaytirishni istamaydigan shaxs sifatidagi obrazini shakllantirishi mumkin. Bunga qarama-qarshi ravishda: "No. I won't do it." kabi bevosita rad etish qahramonning: qat'iyligi; emotsional keskinligi; qarama-qarshilikka tayyorligi

kabi xarakter xususiyatlarini ifodalashi mumkin.

Demak, *bilvosita rad etish → kommunikativ strategiya → xarakter yaratish vositasi* zanjiri yuzaga keladi.

J. AUSTENNING *PRIDE AND PREJUDICE* ROMANIDA BILVOSITA RAD ETISH. J. Austenning *Pride and Prejudice* romanida Elizabeth Bennetning Mr. Darcy taklifiga javobi bilvosita rad etishning yorqin namunalaridan biridir. Asarning XXXIV bobidagi dialogda Elizabeth rad etishni oddiy *"No"* shaklida bermaydi. U minnatdorchilik, inkor, shartlilik va sababiy izohlarni birlashtirgan murakkab kommunikativ strategiyadan foydalanadi.

Masalan: "If I could feel gratitude, I would now thank you. But I cannot…" Bu misolda: If I could… → shartlilik; I would now thank you → yuzaki ijobiy javob; But I cannot → asosiy rad etish.

Demak, bitta dialog fragmentining ichida bir nechta pragmatik qatlam mavjud. Bu Austin modeli bilan izohlanganda:

Lokutiv: minnatdorchilik haqida gapirilmoqda.

Illokutiv: taklif rad etilmoqda.

Perlokutiv: Darcy taklifining qabul qilinmaganligini anglaydi.

Austin nazariyasida aynan shu uch darajali farqlash nutqning "harakat" xususiyatini tahlil qilish imkonini beradi. Tahlil natijasida ingliz badiiy dialoglarida bilvosita rad etishning yagona grammatik modeli mavjud emasligi kuzatiladi. Aksincha, u leksik, grammatik, modal, sintaktik va pragmatik

vositalarning kombinatsiyasi orqali shakllanadi. Eng ko‘p uchraydigan model quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:



Masalan: *I'd really like to help you, but unfortunately I can't.*

Bu yerda: I'd really like to help you → ijobiy munosabat; but → qarama-qarshilik;

Unfortunately → emotsional yumshatish; I can't → rad etish. Rad etishning kuchi har doim bitta grammatik birlik orqali belgilanmaydi. U kontekstual inferensiya orqali yuzaga chiqishi mumkin. Shu sababli badiiy dialoglarni o‘rganishda faqat gapning grammatik shaklini emas, balki oldingi replika, keyingi javob, suhbatdoshlarning maqomi va dialogning umumiy kommunikativ maqsadini ham hisobga olish zarur.

Ingliz badiiy dialoglarida bilvosita rad etish murakkab lingvopragmatik hodisa bo‘lib, uning mazmuni bevosita inkor birliklari bilan cheklanmaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rad etish modal fe'llar, shart konstruksiyalari, sababiy izohlar, uzr, minnatdorchilik, epistemik noaniqlik va qarama-qarshi bog‘lovchilar yordamida turlicha shakllantiriladi. Bilvosita rad etishning asosiy xususiyati shundaki, lingvistik shakl va illokutiv maqsad o‘rtasida to‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri moslik mavjud emas. Masalan, *I'm not sure I can come* grammatik jihatdan noaniqlikni bildirsa-da, muayyan kontekstda u "I refuse / I cannot come" mazmunidagi rad etish aktini amalga oshirishi mumkin. Shu sababli bilvosita rad etishni aniqlashda kontekst, kommunikativ maqsad va suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabat muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy dialog nuqtayi nazaridan esa bilvosita rad etish ikki tomonlama funksiyaga ega: bir tomondan, u kommunikativ ziddiyatni yumshatadi, ikkinchi tomondan, qahramonning xarakteri, ijtimoiy mavqei, hissiy holati va boshqa personajlar bilan munosabatini ochib beradi. Shunday qilib, bilvosita rad etish ingliz badiiy dialogining lingvistik, pragmatik va stilistik tashkilida muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
3. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
4. Leech, G. N. Principles of Pragmatics. London: Longman, 1983.
5. Levinson, S. C. Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
6. Trosborg, A. Interlanguage Pragmatics: Requests, Complaints, and Apologies. Berlin/New York: Mouton de Gruyter, 1995.

UO‘K 811.512.133'37:82.09

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA MILLIY OBRAZLARNING LEKSIK-SEMANTIK ASOSLARI

Ch.Malikova, magistrant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimov asarlarida milliy obrazlarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Adib ijodida o‘zbek xalqining milliy mentaliteti, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari va turmush tarzini ifodalovchi obrazlarning til vositasida shakllanishi yoritiladi. Shuningdek, milliy obrazlarni yuzaga chiqarishda qo‘llanilgan so‘z va iboralarning semantik xususiyatlari, milliy-madaniy mazmuni hamda badiiy matndagi uslubiy vazifalari tadqiq etiladi. Yozuvchi asarlaridagi milliy leksikaning obraz yaratish, qahramonlar xarakterini ochib berish va milliy ruhni ifodalashdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘tkir Hoshimov, milliy obraz, leksik-semantik xususiyatlar, milliy leksika, badiiy matn, milliy mentalitet, lingvomadaniyat, o‘zbek tili, badiiy tasvir vositalari.*

Аннотация. *В данной статье анализируются лексико-семантические особенности национальных образов в произведениях Уткира Хашимова. Рассматриваются языковые средства формирования образов, отражающих национальный менталитет, обычаи, традиции, ценности и образ жизни узбекского народа. Особое внимание уделяется семантическим характеристикам слов и выражений, используемых для создания*

национальных образов, их национально-культурному содержанию и стилистическим функциям в художественном тексте. Раскрывается роль национальной лексики в создании художественных образов, раскрытии характеров персонажей и передаче национального колорита.

Ключевые слова: *Уткир Хашимов, национальный образ, лексико-семантические особенности, национальная лексика, художественный текст, национальный менталитет, лингвокультурология, узбекский язык, средства художественной выразительности.*

Abstract. *This article examines the lexical and semantic foundations of national images in the literary works of O'tkir Hoshimov. It explores the linguistic means through which images reflecting the national mentality, customs, traditions, values, and lifestyle of the Uzbek people are represented. Particular attention is paid to the semantic features of words and expressions used to create national images, their cultural significance, and their stylistic functions in literary texts. The article also highlights the role of national vocabulary in developing literary characters, revealing their personalities, and conveying national identity and cultural characteristics.*

Key words: *O'tkir Hoshimov, national image, lexical and semantic features, national vocabulary, literary text, national mentality, linguocultural studies, Uzbek language, expressive means.*

Leksik-semantik tahlil badiiy matnning eng muhim tahlil qatlamlaridan biri hisoblanadi. Badiiy asarda har bir so'z tasodifiy tanlanmaydi – u estetik, emotsional va ma'noviy jihatdan aniq funksiyaga ega bo'ladi. O'tkir Hoshimov asarlarida so'z tanlashning o'ziga xos qonuniyatlari mavjud bo'lib, bu qonuniyatlar milliy obrazni yaratishda asosiy vosita vazifasini o'taydi. Yozuvchi leksikasi tahlilida uch asosiy leksik qatlam ajratib ko'rsatilishi maqsadga muvofiq: milliy-madaniy leksika, psixologik-emotsional leksika va konkret-hayotiy leksika.

Milliy-madaniy leksika O'tkir Hoshimov asarlarida eng muhim leksik qatlamni tashkil etadi. Bu qatlamga milliy urf-odatlar, an'analar, turmush tarzi bilan bog'liq so'zlar kiradi. «Ikki eshik orasi» romanini leksik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, unda quyidagi milliy-madaniy so'zlar guruhlarini ajratamiz: oziq-ovqat nomlarini bildiruvchi so'zlar (osh, shurva, qozon, chuchvara, non, somsa, moshxo'rda, mastava, qatlama, bo'g'irsoq va boshqalar); kiyim-bosh nomlarini bildiruvchi so'zlar (do'ppi, to'n, chopan, lozim, ko'ylak, mahsi, kavush, ro'mol, chust kabilar); marosim va an'analar bilan bog'liq so'zlar (to'y, aza, qirq oshi, o'tirish, mehmondorchilik, dasturxon, poyandoz, sovg'a-salom kabilar); milliy o'yin va mashg'ulotlar (ko'pkari, kurash, musiqa, doira, qo'shiq, lapar kabilar)[1].

«Dunyoning ishlari» hikoyalar to'plamida milliy-madaniy leksika alohida badiiy yukni ko'taradi. Masalan, «Birinchi bahor» hikoyasida «sumalak» so'zi o'zi bir dunyo ma'noni o'zida jamlaydi. Sumalak – bu Navro'z bayrami bilan bog'liq milliy taom bo'lib, u jamoaviy birlik, bahorda yangilanish, umid va mehnatseverlikning ramzi hisoblanadi. Yozuvchi hikoyasida: «Bir hafta davomida mahalla ayollari osh-qatovdan to'xtamadi. Sumalak pishiradigan kechasi esa butun qo'ni-qo'shni bir hovlida to'plangandi» – degan satrlarda «sumalak» so'zi faqat taom nomi bo'lib qolmaydi, u milliy-madaniy birlikning timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologik-emotsional leksika O'tkir Hoshimov asarlaridagi ikkinchi muhim leksik qatlamni tashkil etadi. Yozuvchi o'z qahramonlarining ichki dunyosini ochishda psixologik noziklikni ifodalovchi so'zlardan mohirona foydalanadi. O'zbek tilida «ko'ngil» so'zi aynan shu qatlamning markaziy elementi bo'lib keladi. «Ko'ngil» so'zi O'tkir Hoshimov asarlarida polisemantik quvvatga ega: u «yurak», «his», «arzu», «orzu», «xayol», «ruh», «vijdon» ma'nolarini o'zida birlashtiradi. Iskandarova Sh. «So'z semantikasi va badiiy obraz» (2020) asarida «ko'ngil» so'zining o'zbek badiiy nasrida semantik polifunksionalligini maxsus o'rganib, unda 14 dan ortiq ma'no-soya borligini aniqladi [2].

O'tkir Hoshimov asarlarida «ko'ngil» so'zi quyidagi semantik guruhlarda keladi: ko'ngil = his-tuyg'u («Ko'nglim siqilib ketdi», «Ko'nglim to'lib toshdi»); ko'ngil = orzu-armon («Ko'nglimda orzularim bor edi», «Ko'ngil tilagi shu edi»); ko'ngil = vijdon («Ko'nglim ancha tinchlandi», «Ko'nglimda kir yo'q»); ko'ngil = intilish («Ko'ngil qo'ygan ishim bu edi», «Ko'ngil tortgan

tomonga ketdi»); ko‘ngil = shubha («Ko‘nglimda shubha uyg‘ondi», «Ko‘ngil xijolat chekmasa»). Ushbu semantik polivalentlik «ko‘ngil» so‘zini O‘tkir Hoshimov nasrining lingvistik-poetik konstantasiga aylantiradi.

Konkret-hayotiy leksika O‘tkir Hoshimov asarlarining yana bir muhim xususiyatini belgilaydi. Yozuvchi mavhum va umumlashma so‘zlarga nisbatan aniq, ko‘rinadigan, his etsa bo‘ladigan so‘zlarni afzal ko‘radi. Bu leksik tanlash uslubiy tamoyili yozuvchi asarlarining hayotiyligi va ishonarliligini ta’minlaydi. Masalan, «odam xursand bo‘ldi» o‘rniga yozuvchi «uning ko‘zlari yiltirab ketdi, lablarida tabassum paydo bo‘ldi, ichidan bir iliqlik yoyildi» kabi konkret, sensual tasvirni tanlaydi. Bu leksik jihat yozuvchining naturalistik realizm an’anasiga yaqinligini ko‘rsatadi [3].

«Tushda kechgan umrlar» romanida leksik-semantik tahlil ayniqsa qiziq natijalar beradi. Bu romanda o‘tmish va hozirning kesishmasida yashayotgan qahramon Hamidning ichki dunyosi ko‘p qatlamli leksik tuzilma orqali ifodalanadi. Romanda «xotira», «tush», «ilgari», «o‘shanda», «eslash», «unutish» kabi temporal-psixologik so‘zlar muhim semantik qatlam tashkil etadi. Bu so‘zlar o‘zbek xalqi ongidagi «o‘tmishga munosabat» mentalitetini aks ettiradi – o‘zbek milliy tafakkurida o‘tmish nafaqat eslab qolish, balki hozirgi kunda ham mavjud bo‘lgan ma’naviy qadriyat sifatida qabul qilinadi.

Semantik maydonining tuzilishi O‘tkir Hoshimov asarlarida ham muhim lingvopoetik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yozuvchi turli semantik maydonlarni – «tabiat», «oila», «mehnat», «mehr-muhabbat», «vatan», «el-yurt» – o‘zaro bog‘laydi va ular o‘rtasida metaforik semantik ko‘priklar quradi. Masalan, «Bahor qaytmaydi» romanida «bahor» semantik maydoni faqat tabiat hodisasini emas, balki insoniy yoshlikni, hayot zavqini, umid va orzuni ifodalaydi. Bu semantik kengayish romanning butun badiiy to‘qimasiga singib, markaziy lirik leytmotivga aylanadi [4].

Abdurahmonova Z. «Zamonaviy o‘zbek nasrida obraz yaratish usullari» (2021) asarida O‘tkir Hoshimov asarlarida leksik-semantik vositalarning obrazyaratuvchi funksiyasini atroflicha tahlil qilib, yozuvchining asarlarida «leksik dominantlar» mavjudligini aniqladi. Leksik dominantlar – bu asarda takrorlanib, asosiy badiiy idealni ifodalaydigan so‘zlar. «Ikki eshik orasi» romanida bunday dominant so‘zlar sifatida «mehr», «sabr», «haqiqat», «vijdon» kabilarni ko‘rsatish mumkin. Bu so‘zlar romanda boshqa so‘zlarga nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi va har safar semantik yukini oshirib boradi.

O‘tkir Hoshimov asarlarida leksik-semantik tahlilning yana bir muhim jihati – bu neologizmlar va o‘zbekcha so‘z yasalish modellaridan ijodiy foydalanish. Yozuvchi umumiy adabiy tilda qo‘llanilmaydigan, lekin xalq nutqida yashayotgan yangi so‘z va iboralarni asarlariga olib kiradi. Masalan, «Dunyoning ishlari» to‘plamidagi «Tong otguncha» hikoyasida «ko‘ngilchan» (sentimental, emotsional), «xayollash» (xayol surishga berilib ketmoq), «mehrsizlik» (mehr ko‘rsatmaslik holati) kabi so‘zlar uchraydi. Bu so‘zlar adabiy til me’yorlaridan unchalik chetlashmasdan, biroq xalq nutqining jonli ruhini saqlab qolgan holda yaratilgan [5].

Maqol va matallar O‘tkir Hoshimov asarlarida bir necha xil funksiyada keladi: birinchi funksiya – xarakter ochish funksiyasi. Qahramon qo‘llagan maqol uning tafakkur tarzini, hayotiy tajribasini va milliy ongini namoyon qiladi. Masalan, «Ikki eshik orasi» romanida keksa qishloq oqsoqoli Abdulla bobo doim «Yaxshilik qil, daryoga tash, baliq bilmasa, Xoliq bilur» maqolini qo‘llaydi. Bu maqol uning hayotiy falsafasini, sadoqat va sabr-toqatining asosini ifodalaydi. Ikkinchi funksiya – voqea-hodisani baholash funksiyasi. Muallif muayyan vaziyatni izohlash uchun maqoldan foydalanib, tahlilning o‘rnini xalq donoligi bilan almashtiradi. Masalan, «Daftar hoshiyasidagi bitiklar»da «Zamin qora bo‘lsa ham, hosil oq bo‘lar» maqoli mehnat va umidning uyg‘unligi haqidagi fikrni qisqa va ta’sirchan ifodalaydi [6].

O‘tkir Hoshimov asarlarida qo‘llaniladigan maqollar ko‘pincha muallif tomonidan kontekstga moslab yangilangan yoki transformatsiya qilingan. Rahmatullayev Sh. «O‘zbek tili frazeologiyasi» (2016) asarida bunday jarayonni «frazeologik transformatsiya» deb ataydi va u asarda ikki xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi: semantik transformatsiya (maqolning ma’nosi o‘zgartiriladi) va struktural transformatsiya (maqolning tuzilishi o‘zgartiriladi). O‘tkir Hoshimov ikkala transformatsiya turini qo‘llaydi. Masalan, «Nur borki, soya bor» romanida «Mehnat – hayot, dangasalik – mamot» maqoli «Mehnat – hayot, biroq bu hayot qanchalik og‘ir...» tarzida

kengaytiriladi. Bu transformatsiya maqolning an’anaviy ma’nosiga muallif shaxsiy falsafiy mulohazasini qo‘shadi [7].

Frazeologizmlar O‘tkir Hoshimov asarlarida ayniqsa faol qo‘llaniladi. Yozuvchi frazeologizmlarni ikki yo‘sinda ishlatadi: an’anaviy tarzda – frazeologizmning o‘z ma’nosida qo‘llanilishi; individual-ijodiy tarzda – frazeologizmning kontekstda yangi ma’no qirralari kashf etishi. «Dunyoning ishlari» to‘plamidagi hikoyalardan namunalar ko‘rsak: «Ko‘ngli keng odam» iborasi «Birinchi kechqurun» hikoyasida an’anaviy tarzda qo‘llanilsa, «Oshiq odam» hikoyasida «Ko‘ngli yiring bo‘ldi» iborasi individual-ijodiy yo‘sinda, psixologik murakkablikni ifodalash uchun qo‘llaniladi [8].

Xalq iboralari va ekspressiv-emotsional birliklar O‘tkir Hoshimov asarlaridagi dialog va personaj nutqlarini milliy-koloritli va hayotiy qiladi. Qahramonlarning nutqida «Xo‘sh, nima gap?», «Xayr, boshga tushsa ko‘z yumilmas», «Inshoollo», «Subhonallo», «Tavba, tavba», «Astag‘firullo», «Xudo ko‘rsatmasun», «Har xil odam bor bu dunyoda» kabi iboralar ko‘p uchraydi. Bu iboralar qahramonlarning milliy-diniy va madaniy identifikatsiyasini belgilaydi, ularning hayotiy dunyoqarashini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘tkir Hoshimov asarlarining leksik-semantik qatlami milliy obrazni yaratishning asosiy lingvistik asosini tashkil etadi. Yozuvchi leksik tanlashda milliy-madaniy, psixologik-emotsional va konkret-hayotiy leksikani uyg‘unlashtiradi. Bu uyg‘unlik asarlarining milliy koloritini, psixologik haqqoniyligini va badiiy ta’sirchanligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boboyev T. Badiiy obraz va til (qayta ishlangan nashr). – Toshkent: Fan, 2016.
2. Boltaboyev H. Adabiy jarayon va ijodkor uslubi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Boltaboyev H. Adabiy tahlil asoslari. – Toshkent: Universitet, 2020.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zME, 2017.
5. Jo‘rayev B. O‘zbek nasrida dialog va tafakkur ifodasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
6. Jo‘rayev B. O‘zbek nasrida muallif nutqi va milliylik. – Toshkent: Fan, 2020.
7. O‘tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
8. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.

UDC 811.111’38

FLORA-CODED EPITHETS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Mamadjanova M. U., PhD, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Maqolada ingliz tilidagi o‘simlik nomlari bilan kodlangan epitetlarning semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqsad – flora epitetlarining konseptual-metaforik asoslarini aniqlash, ularni konnotatsiyasiga ko‘ra tasniflash va nutqdagi vazifalarini ochib berish. Sifat tahlili, semantik maydon tahlili va konseptual metafora nazariyasi qo‘llandi. Natijalar flora epitetlari ijobiy (go‘zallik, yoshlik, mustahkamlik) va salbiy (zaiflik, achchiqlik, xavf) semalar atrofida guruhlanishini, ko‘pchiligining ma’nosi esa kontekstga bog‘liqligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *epitet, flora, o‘simlik metaforasi, konnotatsiya, semantik maydon, ingliz tili, uslubiy vosita.*

Аннотация. *В статье анализируются семантические и стилистические особенности эпитетов, образованных от названий растений, в английском языке. Цель – выявить концептуально-метафорические основы флористических эпитетов, классифицировать их по коннотации и описать их функции в речи. Применены качественный анализ, анализ семантических полей и теория концептуальной метафоры. Эпитеты группируются вокруг положительного (красота, юность, прочность) и отрицательного (хрупкость, горечь, опасность) полюсов, значение большинства из них зависит от контекста.*

Ключевые слова: *эпитет, флора, растительная метафора, коннотация, семантическое поле, английский язык, стилистический приём.*

Abstract. *The article examines the semantic and stylistic features of plant-coded epithets in English. It aims to identify their conceptual-metaphorical foundations, classify them by connotation and describe their functions in discourse. Qualitative analysis, semantic field analysis and conceptual metaphor theory were applied. The findings show that flora epithets cluster around a positive pole*

(beauty, youth, durability) and a negative pole (fragility, bitterness, danger), while most of them are context-dependent.

Keywords: *epithet, flora, plant metaphor, connotation, semantic field, English language, stylistic device.*

Introduction. Speakers rarely describe people in plain, neutral terms. A girl is "fresh as a daisy", a shy colleague a "shrinking violet", a difficult question a "thorny issue", a hopeful forecast a "rosy" one. In each case a plant does the work of an adjective so smoothly that native speakers rarely notice the borrowing. This habit is tied to the epithet, one of the oldest devices of figurative language. Modern stylistics defines it as an expressive, emotionally coloured word or phrase that singles out a property of an object and conveys the speaker's attitude [3, 86]; its force lies not in naming a feature but in evaluating it [8, 55].

Research on the epithet draws on three lines of work. Stylistic studies distinguish transferred from simple descriptive epithets [5, 62] and trace the tradition of the fixed epithet from Homeric formulas to the "golden" and "rosy" attributes of English verse [8, 56]. Semantic and cultural studies treat words as members of fields that define one another [6, 45], stress that cultural salience shapes which words carry rich connotation [7, 35], and document the symbolic load of roses, lilies and oaks [2, 125]; this load becomes the main difficulty in translation [6, 75]. Cognitive studies explain such attributes as cross-domain mappings [9, 96].

Plant-based epithets, however, have been studied less systematically: work on floral metaphor tends to focus on single poets or single flowers and rarely asks how such epithets function as a system. This article addresses that gap. Its aim is to identify the semantic fields of flora that supply epithets in English, to determine their connotations and cognitive foundations, and to describe their stylistic functions in literary and everyday discourse. The novelty lies in treating flora epithets as a structured, culturally grounded subsystem of English figurative language rather than a loose collection of idioms.

Methods. The study is qualitative and descriptive and combines semantic field analysis, conceptual metaphor analysis, connotative classification and stylistic interpretation. An expression was included if a plant name (flower, tree, fruit, vegetable, herb, or a general term such as blossom, root, thorn) functioned as an attribute or evaluative description of a person, thing, place, time or abstract notion; purely botanical uses ("a rose bush in the garden") were excluded. Common expressions were prioritised for recognisability, and a few rarer literary examples were added for stylistic depth. Each epithet was assigned to a semantic field (flowers; trees; fruit, vegetables and other plant parts) and to a connotative class: positive, negative, or neutral/context-dependent.

Results. Flowers form the richest field. The rose dominates: rosy, rose-tinted and a bed of roses convey beauty, optimism and ease. The lily gives both lily-white (pure, spotless) and lily-livered (cowardly), so one plant can serve opposite evaluations. The violet yields shrinking violet (excessively shy), the daisy fresh as a daisy (energetic), and the wallflower names a person on the edge of social events.

Trees mostly signal strength, longevity and stability: a mighty oak, heart of oak (courage and endurance), evergreen (perpetually popular or youthful) and deep-rooted (firmly established). The field also contains wooden (stiff, expressionless) and barking up the wrong tree, which attach negative or ironic judgments.

Fruit, vegetables and other plant parts are dominated by the mapping of ripeness: fruitful, ripe, green (inexperienced), sour and bitter describe maturity and the quality of experience. Thorns and weeds form a mostly negative subfield: thorny issue, prickly character, weedy (physically weak), a thorn in one's side. Table 1 summarises representative examples.

Table 1. Representative flora epithets and their connotations

Flora epithet	Connotation	Implied meaning
rosy (future)	Positive	hope, optimism
fresh as a daisy	Positive	energy, vitality
mighty oak	Positive	strength, endurance
evergreen	Positive	lasting appeal, youthfulness

Flora epithet	Connotation	Implied meaning
lily-white	Positive / Neutral	purity, innocence; sometimes irony (exclusion)
shrinking violet	Negative / Neutral	excessive shyness
lily-livered	Negative	cowardice
thorny (issue)	Negative	difficulty, discomfort
wooden (acting)	Negative	stiffness, lack of feeling
green (recruit)	Neutral	inexperience, endearing or critical

Three tendencies stand out. Positive epithets cluster around beauty, youth, vitality and durability; negative ones around fragility, bitterness, prickliness and lifelessness; and a considerable group, including green, lily-white and wallflower, is unstable and may be affectionate, neutral or critical depending on speaker and situation.

Discussion. These patterns are not accidental. The English rose is tied to a long tradition of love poetry and national symbolism, and the Wars of the Roses added a political layer to the same flower; Burns's "a red, red rose" turned a plain comparison into a model of romantic praise. The lily's double reputation, pure in religious iconography yet weak in the insult lily-livered, shows how one plant can be pulled in different directions by different traditions [2, 74]. Ferber's [4, 95] claim is borne out: the plants carrying the most connotation are those that mattered in English gardens, heraldry and verse.

Flora epithets perform at least four stylistic functions. Characterisation: "wallflower" outlines temperament and social position in one word. Emotional and aesthetic colouring: Wordsworth's "golden daffodils", Shakespeare's "darling buds of May" and Laertes's "rose of May" for Ophelia do not merely describe but let tenderness, and in the last case impending loss, show through the image. Irony: lily-white applied to exclusive institutions, or "life is no bed of roses", turns a pleasant image against itself. Condensation: a compact plant image replaces a longer description, which makes the epithet economical but dependent on shared cultural knowledge.

The main limitation is that the study rests on a selective, illustrative body of examples. A corpus-based follow-up comparing the frequencies of plant epithets across genres would test whether these tendencies hold statistically.

Conclusion. Flora-coded epithets are a coherent and productive part of English stylistics. They draw on a general cognitive mapping of people onto plants but their specific meanings come from centuries of cultural symbolism in poetry, religion and everyday life. Semantically they fall into the fields of flowers, trees, and fruit and other plant parts; connotatively they tend towards beauty, vitality and durability on one side and fragility, bitterness and prickliness on the other, with a sizable context-dependent zone between them. Stylistically they characterise, colour, ironise and condense.

REFERENCES:

1. Abrams, M. H., & Harpham, G. G. (2015). A Glossary of Literary Terms (11th ed.). Stamford: Cengage Learning.

2. Cirlot, J. E. (1971). A Dictionary of Symbols (2nd ed.). London: Routledge & Kegan Paul.

3. Cuddon, J. A. (2013). A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory (5th ed.). Oxford: Wiley-Blackwell.

4. Ferber, M. (2007). A Dictionary of Literary Symbols (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

5. Galperin, I. R. (1977). Stylistics (2nd ed.). Moscow: Higher School.

6. Gasparyan, S., & Minasyan, N. (2023). Translating epithets in fiction: A stylistic study of semantic and pragmatic equivalence. ESBB, 9(1).

7. Goatly, A. (2011). The Language of Metaphors (2nd ed.). London: Routledge.

8. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.

9. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.

10. Leech, G. (1969). A Linguistic Guide to English Poetry. London: Longman.

UO’K 81’373.7:81’27

“YOSHLIK” KONSEPTINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Mamatmurodova S. M., tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “yoshlik” konsepti ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollar hamda frazeologik birliklar materiali asosida lingvokulturologik yondashuvda tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlik tushunchasi faqat yoshlik davri sifatida emas, balki aql, tajriba, odob, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy kamolot bilan o‘zaro bog‘liq madaniy konsept sifatida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlik konsepti, lingvokulturologiya, frazeologik birlik, maqol, ingliz tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil, madaniy kod, denotativ ma’no, konnotativ ma’no.*

Аннотация. *В данной статье концепт «молодость» рассматривается с позиций лингвокультурологии на материале английских и узбекских пословиц и фразеологических единиц. В исследовании молодость трактуется не только как определённый этап жизни, но и как культурный концепт, связанный с умом, опытом, воспитанностью, социальной ответственностью и нравственной зрелостью.*

Ключевые слова: *концепт «молодость», лингвокультурология, фразеологическая единица, пословица, английский язык, узбекский язык, сравнительный анализ, культурный код, денотативное значение, коннотативное значение.*

Abstract. *This article examines the concept of youth in English and Uzbek proverbs and phraseological units from a linguocultural perspective. The study considers youth not merely as a stage of life, but as a cultural concept associated with wisdom, experience, good manners, social responsibility and moral maturity.*

Keywords: *concept of youth, linguoculturology, phraseological unit, proverb, English language, Uzbek language, comparative analysis, cultural code, denotative meaning, connotative meaning.*

Yoshlik inson hayotining eng faol, ijodiy va ijtimoiy jihatdan muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, u til va madaniyatda turli ma’nolar orqali ifodalanadi. Har bir xalq yoshlikni o‘z tarixiy tajribasi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy qadriyatlari asosida talqin qiladi. Shu bois yoshlik konsepti faqat yosh davrini anglatuvchi vaqt tushunchasi emas, balki aql, odob, mas’uliyat, tajriba va axloqiy kamolot bilan bog‘liq murakkab lingvokulturologik hodisadir.

Lingvokulturologik yondashuvda til birliklari, xususan, maqollar va frazeologik birliklar milliy madaniyatning o‘ziga xos ko‘zgusi sifatida o‘rganiladi. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qarashlarini qisqa, obrazli shaklda ifodalaydi. Shu bois yoshlik konseptiga oid maqollar til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni ochib berishda muhim manba hisoblanadi.

Ushbu maqolada quyidagi o‘zbek maqollari asos sifatida olinadi:

Aql – boshda, G‘ayrat – yoshda, Asl – toshda.

Aql yoshdan, Odob – boshdan.

Ahmoqlarga bosh bo‘lguncha, Donolarga yosh bo‘l.

Bo‘lar bola o‘n beshida Boshman, deydi. Bo‘lmag‘uri o‘ttizida Yoshman, deydi.

Ilmi borni yosh dema, Ilmi yo‘qni bosh dema.

Ushbu maqollar yoshlik konseptini faqat yosh davri bilan bog‘lamay, balki uni aql, odob, ilm, g‘ayrat va ijtimoiy mavqey bilan o‘zaro bog‘laydi. Shu bois ular yoshlik konseptining lingvokulturologik tahlili uchun qulay material hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi yoshlik konseptiga oid frazeologik birliklar va maqollarning lingvokulturologik jihatdan qiyosiy tahlilini o‘tkazishdan iborat.

V.P. Jukovning frazeologik birlikka bergan ta’rifini keltirishimiz mumkin: “frazeologik birlik - bu “nutqda takrorlanadigan, muvofiqlashtiruvchi yoki bo‘ysunuvchi iboralar (predikativ bo‘lmagan yoki predikativ xarakter) modeli asosida qurilgan, yaxlit (yoki kamdan-kam hollarda qisman to‘liq) ma’noga ega va so‘z bilan birlashtirilgan oborot[6]. “Frazeologiya” atamasi yunoncha “fraza”

(phrasis – ifoda, nutq o‘rami) so‘zidan olingan bo‘lsa-da, turkiyshunoslikda dastlab bu atama turlicha ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Masalan, XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek (1802-1870) o‘sha davr an’analaridan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikalarda bo‘lgani singari o‘z asarida “fraza” so‘zini “jumla”, “gap” (предложение) ma’nosida qo‘llagan[1].

Lingvokulturologiya til va madaniyatning o‘zaro munosabatini o‘rganuvchi fan sifatida til birliklaridagi madaniy ma’noni aniqlashga qaratilgan. Bu yondashuvda so‘z, ibora va maqollar faqat lug‘aviy birlik sifatida emas, balki xalqning dunyoqarashi, tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlari ko‘zgusi sifatida tahlil qilinadi.

Yoshlik konsepti lingvokulturologik jihatdan bir necha qatlamga ega. Birinchidan, u biologik yosh davrini ifodalaydi. Ikkinchidan, u ijtimoiy va axloqiy ma’noga ega bo‘lib, yosh avlodning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Uchinchidan, yoshlik aql, odob, ilm va tajriba kabi tushunchalar bilan o‘zaro bog‘lanadi.

O‘zbek tilida yoshlik ko‘proq aql-idrok va odob bilan bog‘lanadi. Bu holat quyidagi maqolda yaqqol ko‘rinadi:

“Aql yoshdan, Odob – boshdan.”

Bu maqolda aql yoshlik davri bilan, odob esa kattalik va hayotiy tajriba bilan bog‘lanadi. Bunday talqin yoshlikning faqat jismoniy holat emas, balki aqliy rivojlanish davri ekanligini ko‘rsatadi.

Ingliz tilida yoshlik ko‘proq imkoniyat, tajriba yig‘ish va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lanadi. Masalan, ingliz tilidagi *“Youth is wasted on the young”* maqoli yoshlikning qadri keyinroq tushunilishini ifodalaydi. Bu maqolda yoshlik faqat yosh davri emas, balki qadrlanishi kerak bo‘lgan imkoniyat sifatida talqin qilinadi[1].

O‘zbek xalq maqollarida yoshlik ko‘proq aql, g‘ayrat va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lanadi. Bu holat quyidagi maqolda yaqqol ko‘rinadi:

“Aql – boshda, G‘ayrat – yoshda, Asl – toshda.”

Bu maqolda yoshlik g‘ayrat va faollik bilan bog‘lanadi. Yoshlik davri insonning eng faol, ijodiy va harakatchan davri sifatida talqin qilinadi. Shu bois yoshlik faqat yosh davri emas, balki ijtimoiy faollik va ijodiy qobiliyat davri sifatida ham talqin qilinadi.

O‘zbek maqollarida yoshlik ko‘pincha ilm va tajriba bilan ham bog‘lanadi:

“Ilmi borni yosh dema, Ilmi yo‘qni bosh dema.”

Bu maqolda yoshlik faqat yosh davri bilan bog‘lanmay, balki ilm va tajriba bilan bog‘lanadi. Yoshlik davri ilm o‘rganish va tajriba to‘plash davri sifatida talqin qilinadi. Shu bois yoshlik faqat yosh davri emas, balki ilmiy rivojlanish davri sifatida ham talqin qilinadi[2].

“Bo‘lar bola o‘n beshida boshman, deydi. Bo‘lmag‘uri o‘ttizida yoshman, deydi.” maqolida yoshlikning ijtimoiy mavqeyi va mas’uliyati ko‘rsatiladi. Bu maqolda yoshlik faqat yosh davri emas, balki ijtimoiy mas’uliyat davri sifatida ham talqin qilinadi.

“Ahmoqlarga bosh bo‘lguncha, donolarga yosh bo‘l.” maqolida esa yoshlik aql va odob bilan bog‘lanadi. Bu maqolda yoshlik faqat yoshlik davri emas, balki aqliy rivojlanish va axloqiy kamolot davri sifatida ham talqin qilinadi.

Boshqa bir ingliz maqolida yoshlik va tajriba o‘rtasidagi bog‘lanish ko‘rinadi:

“Experience is the best teacher.”

Bu maqolda yoshlik tajriba to‘plash davri sifatida talqin qilinadi. Yoshlik davri insonning tajriba yig‘ish va dunyoqarashini shakllantirish davri sifatida talqin qilinadi.

Ingliz tilida yoshlik ko‘pincha ijtimoiy mas’uliyat bilan ham bog‘lanadi:

“The young are the future of the nation.”

Bu maqolda yoshlik ijtimoiy mas’uliyat va jamiyat rivoji bilan bog‘lanadi. Yoshlik davri jamiyatning kelajagi sifatida talqin qilinadi[3].

Ingliz va o‘zbek tillaridagi yoshlik konseptiga oid maqollarni qiyoslash natijasida quyidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlandi.

Jihat	O‘zbek tili	Ingliz tili
Yoshlikning asosiy talqini	Aql, g‘ayrat va odob bilan bog‘lanadi	Imkoniyat, tajriba va mas’uliyat bilan bog‘lanadi

Jihat	O‘zbek tili	Ingliz tili
Aql bilan bog‘lanish	Kuchli ifodalangan	Nisbatan kuchsiz ifodalangan
Odob bilan bog‘lanish	Kuchli ifodalangan	Nisbatan kuchsiz ifodalangan
Ilm bilan bog‘lanish	Kuchli ifodalangan	O‘rtacha ifodalangan
Ijtimoiy mas’uliyat	O‘rtacha ifodalangan	Kuchli ifodalangan
Imkoniyat va tajriba	O‘rtacha ifodalangan	Kuchli ifodalangan

Qiyosiy tahlil natijasida o‘zbek tilida yoshlik ko‘proq aql, odob va ilm bilan bog‘lanishi aniqlandi. Ingliz tilida esa yoshlik ko‘proq imkoniyat, tajriba va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lanishi ko‘zga tashlandi.

Lingvokulturologik parallelizm ikki til o‘rtasidagi umumiy va farqli madaniy tushunchalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvda til birliklari faqat lug‘aviy birlik sifatida emas, balki madaniy kod sifatida tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi yoshlik konseptiga oid maqollarda umumiy va farqli jihatlar mavjud. Umumiy jihatlar yoshlikning ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini ifodalaydi. Farqli jihatlar esa ikki xalqning tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlaridan kelib chiqadi[4].

Tadqiqot natijasida yoshlik konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvokulturologik ifodalanishi o‘rganildi. Tadqiqot natijasida o‘zbek tilida yoshlik ko‘proq aql, odob va ilm bilan bog‘lanishi aniqlandi. Ingliz tilida esa yoshlik ko‘proq imkoniyat, tajriba va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lanishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklar orqali til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ochib berishda lingvokulturologik tahlilning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu yondashuv til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari tarjima amaliyoti, lingvokulturologik tadqiqotlar va til o‘qitish jarayonida foydalanish uchun tavsiya etiladi. Bu yondashuv til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jamolxonov H. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 220-225-b.
2. Raxmatullayev, Sh. O‘zbek tili frazeologiyasining ba’zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1996.
3. Sharifjanov, A. O‘zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Wierzbicka, A. Understanding Cultures through Their Key Words. – Oxford: Oxford University Press, 1997.
5. Yuldoshev, B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. – Samarqand, 2007.
6. Жуков В. П. Русская фразеология. – Москва: Высшая школа, 1986. – С. 45-48.

UO’K 82.091:821.111(73):821.222.8

TEODOR DRAYZER VA SADRIDDIN AYNIY NASRIDA PUL OBRAZINING BADIIY-SEMANTIK VA QIYOSIY-TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mardanova M. D., PhD, dots.v.b., Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Teodor Drayzerning “Sister Carrie” romani hamda Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida pul obrazining badiiy-semantik xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etiladi. Pulning moddiy almashinuv vositasi bo‘lish bilan bir qatorda, qahramonlarning ijtimoiy mavqei, ehtiyojlari, ruhiy holati va insonlararo munosabatlarini ifodalovchi badiiy birlik sifatidagi vazifasi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Teodor Drayzer, Sadriddin Ayniy, pul obrazi, badiiy semantika, qiyosiy-tipologik tahlil, iste’mol, sudxo‘rlik, xasislik, ijtimoiy munosabatlar.*

Аннотация. *В данной статье с позиций сравнительно-типологического подхода рассматриваются художественные и семантические особенности образа денег в романе Теодора Драйзера «Сестра Керри» и повести Садриддина Айни «Смерть ростовщика». Исследуется роль денег не только как средства материального обмена, но и как литературного элемента, раскрывающего социальное положение, потребности, психологическое состояние персонажей и их межличностные отношения.*

Ключевые слова: *Теодор Драйзер, Садриддин Айни, образ денег, литературная семантика, сравнительно-типологический анализ, потребительство, ростовщичество, скупость.*

Abstract. *This article examines the artistic and semantic features of the image of money in Theodore Dreiser's novel Sister Carrie and Sadriddin Ayni's novella The Death of the Moneylender from a comparative-typological perspective. It explores money not merely as a means of material exchange but also as a literary element that reveals the characters' social positions, needs, psychological states, and interpersonal relations.*

Keywords: *Theodore Dreiser, Sadriddin Ayni, image of money, literary semantics, comparative-typological analysis, consumption, usury, miserliness.*

Pul va moddiy qadriyatlar masalasi jahon adabiyotida inson va jamiyat munosabatlarini yorituvchi muhim mavzulardan biridir. Badiiy matnda pul faqat iqtisodiy almashinuv vositasi bo‘lib qolmay, balki qahramonning ijtimoiy mavqei, hayotiy ehtiyojlari, orzu-intilishlari va boshqa kishilar bilan munosabatlarini ochishga xizmat qiladigan semantik birlikka aylanadi. Shu sababli pul obrazini adabiy tahlil doirasida o‘rganish iqtisodiy tushunchaning badiiy-estetik mazmun kasb etish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadallashgan shaharlashuv, bozor munosabatlari va ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari adabiyotda moddiy farovonlik, iste'mol, boylik va iqtisodiy qaramlik masalalarining keng yoritilishiga zamin yaratdi. Amerika realizmi va naturalizmida shaxsning ijtimoiy muhit bilan munosabati, iqtisodiy sharoitning inson tanlovlariga ta'siri muhim badiiy muammolardan biriga aylandi. Markaziy Osiyo adabiyotida esa sudxo‘rlik, qarz, foiz va boylikni jamg‘arish kabi munosabatlar ijtimoiy hayotning muhim ziddiyatlarini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qildi.

Teodor Drayzerning 1900-yilda nashr etilgan “Sister Carrie” romanida Kerri Miberning Chikagoga kelishi va yangi shahar muhitiga moslashish jarayoni moddiy imkoniyatlar bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlanadi. [1]

Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida esa pul obrazi Qori Ishkamba xarakterining markaziy belgisiga aylanadi. Qahramonning kundalik xarajatlarni kamaytirishga intilishi, qarz berish va foiz undirish amaliyoti, banklardagi mablag‘ini saqlash borasidagi xavotirlari pulning shaxsiy xususiyatlar hamda ijtimoiy munosabatlarni belgilashdagi kuchini ochib beradi. [2]

Ikki asarni qiyoslashdan maqsad ularni bir xil ijtimoiy sharoit mahsuli sifatida ko‘rsatish emas. Aksincha, turli tarixiy va milliy-madaniy muhitda yaratilgan asarlarda pul obrazining umumiy tipologik xususiyatlari hamda o‘ziga xos semantik vazifalarini aniqlashdir. Drayzer romanida pul, avvalo, iste'mol, orzu va ijtimoiy harakatchanlik bilan bog‘liq bo‘lsa, Ayniy qissasida u jamg‘arish, sudxo‘rlik va iqtisodiy ustunlik munosabatlarini ifodalaydi.

“Sister Carrie” romanida pul obrazi qahramonning shaxsiy ehtiyojlari bilan ijtimoiy muhit talablari kesishgan nuqtada shakllanadi. Kerri Miber Chikagoga kelganida yonida to‘rt dollar bo‘ladi. Bu miqdor uning yangi shahardagi iqtisodiy imkoniyatlari cheklanganini ko‘rsatadi. Biroq mazkur detalning vazifasi faqat qahramonning kambag‘alligini bildirish bilan tugamaydi: u qahramonning keyinchalik yuzaga keladigan moddiy istaklari va hayotiy tanlovlarini tushunish uchun boshlang‘ich semantik asos yaratadi.[1]

Roman boshidagi kiyim-kechak tasviri ham pul obrazining semantik doirasini kengaytiradi. Kerri o‘zining oddiy ko‘ylagi va eskirgan poyabzalini Drouetning ko‘zga tashlanadigan kiyimlari bilan qiyoslay boshlaydi. Bu holatda kiyim ijtimoiy farqni ko‘rsatuvchi tashqi belgi vazifasini bajaradi. Pul esa aynan shu farqni qisqartirish, o‘zini boshqalarga munosib ko‘rsatish va shahar hayotiga moslashish vositasi sifatida anglanadi. Demak, pulning badiiy-semantik maydoni kiyim, tashqi ko‘rinish va ijtimoiy maqom tushunchalari bilan bog‘lanadi. Bu semantik vazifa Drouetning Kerriga moddiy yordam taklif qilishi bilan yanada aniq namoyon bo‘ladi. Kerri ish topishdagi qiyinchiliklar va kiyimga ehtiyoj sababli noqulay vaziyatda qolganida, Drouet unga pul beradi. Muallif bu mablag‘ni ikki dona o‘n dollarlik banknota sifatida aniq ko‘rsatadi. Drouet uni “qarz” deb ataydi, biroq pulning berilishi ikki qahramon o‘rtasidagi munosabatga hissiy va ijtimoiy tus beradi. Kerri o‘zini Drouetga ma'lum darajada bog‘langan his qiladi. Shunday qilib, pul iqtisodiy yordam vositasidan tashqari, shaxslararo munosabatlarga ta'sir ko‘rsatuvchi badiiy detalga aylanadi.[1]

Shunday qilib, “Sister Carrie” romanida pul obrazi kamida uchta o‘zaro bog‘liq vazifani bajaradi: u qahramonning moddiy ehtiyojlarini ifodalaydi; ijtimoiy mavqe va imkoniyatlarning

o‘zgarishini belgilaydi; shuningdek, istaklarning kengayishi va qoniqishning cheklanganligi o‘rtasidagi ziddiyatni yuzaga chiqaradi. Pulning bunday talqini romanning ijtimoiy-psixologik mazmunini chuqurlashtiradi.

Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida pul obrazi Qori Ishkamba xarakterini shakllantiruvchi va syujet voqealarini birlashtiruvchi markaziy semantik birliklardan biridir. Qahramonning nomlanishi va tashqi portreti ham ushbu mazmunni tayyorlaydi. Muallif “Ishkamba” laqabining hayvon oshqozoni bilan bog‘liqligini izohlar ekan, Qori Ishkambaning gavdasini oshqozonga qiyoslaydi. Bu tasvirni bevosita pul ramzi deb talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi; biroq u qahramonning keyingi xatti-harakatlari bilan qo‘shilib, yutish, to‘plash va to‘ymaslik semantik assotsiatsiyasini kuchaytiradi.

Qori Ishkambaning sartarosh bilan suhbati uning pulga munosabatini kundalik hayot darajasida ochib beradi. U sallani yuvish uchun sovun sarflashni ortiqcha xarajat deb biladi, soch oldirish haqini esa boshining sochsiz qismini vaj qilib kamaytirishga urinadi. Sartarosh haq so‘raganida, Qori Ishkamba “maydam yo‘q, yana soch oldirganda ikkisini bir qo‘shib beraman” deya pul to‘lashni kechiktiradi. Bu epizodda xasislik yirik moliyaviy operatsiyada emas, oddiy xizmat haqi bilan bog‘liq vaziyatda namoyon bo‘ladi.[2]

Epizodning badiiy kuchi dialog va kinoyali vaziyatning uyg‘unligida ko‘rinadi. Qori Ishkamba o‘zining kam haq to‘lashini mantiqiy dalillar bilan oqlashga urinadi; sartarosh esa uning xatti-harakatidagi nomuvofiqlikni yumor orqali ko‘rsatadi. Qahramonning hisob-kitobga asoslangan nutqi uni tejamkor inson sifatida emas, balki har qanday munosabatni moddiy foyda mezonida baholovchi shaxs sifatida ochadi. Qori Ishkambaning sartaroshxonadan bank xodimlarining choy ichish vaqtiga ulgurish uchun shoshilishi ham xarakter yaratishning muhim detalidir. Bir tomondan, u soch oldirish haqini to‘lamaslikka urinadi; ikkinchi tomondan, bank xodimlari bilan yaqin aloqani o‘ziga foydali odat sifatida saqlaydi. Bu qarama-qarshilik qahramonning ijtimoiy muhit bilan munosabatlari ham moddiy manfaat asosida tashkil topganini ko‘rsatadi.[2]

Qissada pulning kundalik iste’mol bilan bog‘liq semantik qatlami nonvoy bilan bo‘lgan epizodda yanada yaqqol ko‘rinadi. Qori Ishkamba ikki dona nonni olib, ularni chinni sotuvchining do‘koni oldida sindirib yeydi, biroq pul to‘lash vaqti kelganda cho‘ntaklarida pul yo‘qligini aytib, hisobni do‘kondorga to‘latadi. Muallif bu vaziyatni avvalgi sartaroshxona epizodi bilan qiyoslaydi: birinchi holatda qahramon o‘zini nochor ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchi holatda u boshqaning hisobidan bemalol foydalanadi. Bunday qarama-qarshi vaziyatlar Qori Ishkambaning xatti-harakatlaridagi manfaatparastlikni ochib beradi.[2]

Do‘ppifurush bilan bo‘lgan suhbat pulning savdo va qarz munosabatlaridagi o‘rnini ko‘rsatadi. Qori Ishkamba sotishga topshirgan do‘ppilarining pulini tezroq olishga urinadi, biroq do‘kondor unga bu mablag‘ni oldindan berish o‘z kapitalidan foydalanish va zarar ko‘rish xavfini tug‘dirishini tushuntiradi. Qori Ishkamba esa o‘z pulini ololmayotganidan norozi bo‘ladi. Bu epizod uning o‘zi boshqalarga foiz evaziga pul beradigan shaxs bo‘lsa-da, o‘z mablag‘i muomalada turganida darhol qaytarilishini talab qilishini ko‘rsatadi. Shu tariqa muallif qahramonning iqtisodiy munosabatlarda bir tomonlama manfaat ko‘zlashini hajviy vaziyat orqali fosh etadi.[2]

Qissadagi dehqon bilan suhbat pul obrazining ijtimoiy mazmunini ochuvchi asosiy epizodlardan biridir. Dehqon yer-mulkini saqlab qolish uchun qarz izlab keladi va avval boshidan kechirgan sudxo‘rlik munosabatlari tufayli qarzi qisqa muddat ichida ortib ketganini bayon qiladi. Qori Ishkamba esa uning og‘ir ahvolini tinglashdan oldin qancha pul kerakligi, qancha foyda to‘lashi va kimni kafil qilishi haqida so‘raydi. Dehqon yuz tanga uchun oyiga besh tanga foyda berishga tayyorligini bildirganida, Qori Ishkamba o‘n tanga talab qiladi. Bu raqamlar qahramonning iqtisodiy manfaatni insonning mushkul ahvolidan ustun qo‘yishini ko‘rsatadi.[5]

Ushbu epizodda pul qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasidagi oddiy almashinuv vositasi emas, balki ijtimoiy hokimiyat munosabatlarini yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Qori Ishkambaning banklardagi mablag‘lari bilan bog‘liq epizodlar pulning jamg‘arish va xavotir semantikasini ochadi. U mablag‘ini bir bankdan boshqasiga ko‘chiradi, chunki har bir bankning barqarorligi haqidagi xabarni o‘z boyligiga tahdid sifatida qabul qiladi. Biroq u foizi

kamroq bo‘lgani uchun davlat bankiga mablag‘ qo‘yishni istamaydi. Muallif bu holat orqali qahramonning xavfsizlik istagi bilan yuqori daromad olish xohishi o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatadi.

Banklar faoliyatidagi beqarorlik va bankrotlik haqidagi mish-mishlar Qori Ishkambaning ruhiy holatiga kuchli ta’sir qiladi. U o‘z mablag‘ini yo‘qotishdan qo‘rqadi, biroq uni uyda yoki boshqa joyda saqlash ham xavfsiz emasligini anglaydi. Shu tariqa boylik qahramonga osoyishtalik bermaydi; aksincha, uning kundalik fikrini band qiladigan xavotir manbaiga aylanadi. Pulning badiiy-semantik vazifasi bu yerda moddiy qudrat va ruhiy qaramlikning paradoksal birligini ochishdan iborat.

Teodor Drayzerning “Sister Carrie” romani va Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida pul obrazi iqtisodiy tushuncha doirasidan chiqib, qahramon xarakteri, ijtimoiy mavqei va insonlararo munosabatlarni ifodalovchi badiiy-semantik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniy qissasida pul Qori Ishkambaning xasisligi, sudxo‘rlik faoliyati, foiz undirish va mablag‘ni saqlashga bo‘lgan intilishini ifodalaydi. Qahramonning kundalik xarajatlar, qarzdorlar va banklar bilan munosabati pulning uning butun dunyoqarashini belgilab qo‘yganini ko‘rsatadi. Har ikki asarda pulning ortishi yoki mavjudligi ruhiy qoniqishni kafolatlamaydi. Kerri yangi moddiy imkoniyatlar ortidan yangi istaklarni kashf etsa, Qori Ishkamba boyligini yo‘qotish qo‘rquvi sababli doimiy xavotirda yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dreiser T. Sister Carrie. – New York: Doubleday, Page & Co., 1900.
2. Ayniy S. Sudxo‘rning o‘limi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1982. – 71 b.
3. Michaels W. B. Sister Carrie’s Popular Economy // Critical Inquiry. – 1980. – Vol. 7, No. 2. – P. 373–390.
4. Davronovna M. M., & Muhammadiyevna D. S. Tilshunoslikda evfemizmlarni o‘rganishning nazariy asoslari. In International Conference on Linguistics, Literature And Translation. – London, 2024. Vol. 2. – Pp. 22-25.
5. Sadriddin Ayniy. Sudxo‘rning o‘limi (qissa). ZiyoUz elektron kutubxonasi. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/sadriddin-ayniy/sadriddin-ayniy-sudxorning-olimi-qissa/?lng=lat

UO‘K 81'37:81'42

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI LINGVOPRAGMATIKASIDA ISHONCH KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK JIHATLARI

L.U.Marimbayeva, tayanch doktorant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “ishonch” / “trust” konseptining semantik tuzilishi hamda nutqda voqelanishining lingvopragmatik xususiyatlari qiyosiy aspektda tahlil qilingan. Konseptning etimologik asoslari, leksik-semantik maydoni, ishonch munosabatini ifodalovchi nutqiy aktlarning pragmatik vazifalari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari konseptning har ikki tildagi umumiy va milliy-madaniy o‘ziga xos belgilarini farqlash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *konsept, ishonch, trust, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, konseptual metafora, nutqiy akt, freym, paremiya, lingvokulturologiya.*

Аннотация. *В статье в сопоставительном аспекте рассматриваются структура концепта «доверие» / «trust» в английском и узбекском языках и лингвопрагматические особенности его реализации в речи. Определены этимологические основы, лексико-семантическое поле, раскрыты прагматические функции речевых актов, выражающих отношения доверия. Результаты исследования позволяют разграничить универсальные и национально-культурные признаки концепта в обоих языках.*

Ключевые слова: *концепт, доверие, trust, когнитивная лингвистика, лингвопрагматика, концептуальная метафора, речевой акт, фрейм, паремия, лингвокультурология.*

Abstract. *The article provides a comparative analysis of the semantic structure of the concept “trust” / “ishonch” in English and Uzbek and the linguopragmatic features of its realization in speech. The etymological basis, lexical-semantic field, and the pragmatic functions of speech acts expressing trust relations are revealed. The results make it possible to distinguish universal and nationally specific features of the concept in both languages.*

Key words: *concept, trust, ishonch, cognitive linguistics, linguopragmatics, conceptual metaphor, speech act, frame, proverb, linguoculturology.*

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning yetakchi o‘rin egallashi til birliklarini inson tafakkuri, bilimi va madaniyati bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganishni taqozo etdi. Bu yo‘nalishda “konsept” tushunchasi markaziy kategoriyalardan biriga aylandi. E.S. Kubryakova konseptni inson ongidagi bilim va tajribani aks ettiruvchi mental resurslarning operativ mazmuniy birligi sifatida ta’riflaydi [7, 90-b.], Y.S. Stepanov esa uni “inson ongidagi madaniyat quyqasi” deb ataydi [9, 40-b.]. Demak, konsept tilda turli vositalar orqali obyektivlashadigan, ammo til birligidan kengroq bo‘lgan mental tuzilmadir.

Ingliz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lib, ularda so‘zlashuvchi xalqlarning madaniy an’analari va olam manzarasi bir-biridan farqlanadi. Shu sababli ishonch konseptini qiyosiy o‘rganish universal va milliy xos belgilarni aniqlash, tarjima amaliyoti hamda chet tilini o‘qitishda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun dolzarbdir. O‘zbek tilshunosligida kognitiv va pragmatik tadqiqotlarga Sh. Safarov [4; 5], N. Mahmudov [1] va boshqa olimlarning ishlari asos bo‘lgan bo‘lsa-da, ishonch konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi kognitiv hamda lingvopragmatik xususiyatlari hali yetarlicha qiyosiy tadqiq etilmagan.

Cambridge lug‘atida *trust* fe’li kimdir yaxshi va vijdonli ekani hamda zarar yetkazmasligiga yoki biror narsa xavfsiz va ishonchli ekaniga ishonish ma’nosida izohlanadi [12]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham *ishonch* so‘zi kimsa yoki narsaning to‘g‘riligi, halolligi va ishonchliligiga bo‘lgan qat’iy tuyg‘u sifatida talqin qilinadi [3]. Lug‘at ta’riflarining komponent tahlili har ikki tilda konseptning quyidagi asosiy semalarini ajratish imkonini berdi: 1) ishonuvchi subyekt; 2) ishonch obyekti (shaxs, muassasa, narsa); 3) obyektning halolligi va ishonchliligiga ijobiy baho; 4) obyektning kelajakdagi xatti-harakatiga nisbatan ijobiy kutilma; 5) subyektning xavfga ochiqligi (zarar ko‘rish ehtimolini qabul qilishi).

Z.D. Popova va I.A. Sternin modeliga ko‘ra [8], konseptning maydon tuzilishi yadro va periferiyadan iborat. Ingliz va o‘zbek tillarida ishonch konseptining verballashuv maydoni 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Ingliz va o‘zbek tillarida ishonch konseptining leksik-semantik maydoni

Maydon qismi	Ingliz tili	O‘zbek tili
Yadro	trust (n., v.)	ishonch, ishonmoq
Periferiya	confidence, faith, belief, reliance, credence, trustworthy, reliable, loyalty, fidelity, entrust, trustee, credit	e’timod, e’tiqod, bovar, iymon, ishonchli, sadoqat, vafo, omonat, ishonib topshirmoq, ishonchnoma, ishonchli vakil
Interpretatsion maydon	distrust, mistrust, suspicion, doubt, betrayal	ishonchsizlik, shubha, gumon, xiyonat, xoinlik

Jadvaldan ko‘rinadiki, ingliz tilida konsept huquqiy va iqtisodiy sohalarda kuchli institutsionallashgan: *trust* so‘zi “mulkni ishonchli boshqarish to‘g‘risidagi huquqiy kelishuv” (*trust fund, trustee, Board of Trustees*) ma’nolarini ham ifodalaydi. O‘zbek tilida ham institutsional qo‘llanishlar mavjud (*ishonchnoma, ishonchli vakil, ishonch telefoni*), biroq konseptning periferiyasida *vafo, sadoqat, omonat* kabi axloqiy-hissiy baholovchi birliklar salmoqli o‘rin egallaydi.

Ishonch konseptini freym sifatida tasvirlash mumkin. Uning asosiy slotlari quyidagilardir: *ishonuvchi, ishonilgan shaxs, ishonib topshirilgan narsa, ishonch asosi* va *natija*. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida “ishonch asosi” sloti ko‘proq shaxsiy tanishlik munosabatlari bilan to‘ldirilsa, ingliz tilida rasmiy kafolat, shartnoma va obro‘ bilan to‘ldiriladi.

Ishonch nutqda nafaqat nominativ birliklar, balki muayyan nutqiy aktlar va pragmatik vositalar orqali ham voqelanadi. Sh. Safarov ta’kidlaganidek, nutqiy faoliyat so‘zlovchining niyati va muloqot vaziyati bilan belgilanadi [5]. Tahlil natijasida ishonch bilan bog‘liq quyidagi pragmatik turlar aniqlandi.

Kafolat va va’da aktlari. So‘zlovchi tinglovchining ishonchini qozonish yoki mustahkamlash maqsadida kafolat beradi: ingl. *Trust me, Believe me, Take my word for it, I give you my word, Rest assured*; o‘zb. *Menga ishoning, Ishonavering, So‘z beraman, Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, Xotirjam bo‘ling*. O‘zbek so‘zlashuv nutqida bu vazifani qasam formulalari ham bajaradi: *Xudo haqqi, Vallohi, Qasam ichaman*. Ingliz nutqida diniy qasam formulalari zamonaviy muloqotda nisbatan kam qo‘llanadi va o‘rnini *I promise, I swear* kabi neytral shakllar egallaydi.

Ekspressiv va bilvosita direktiv aktlar. Sizga ishonaman / *I trust you* shaklidagi ekspressiv akt ko‘pincha bilvosita direktiv vazifani bajaradi. Masalan, ota-onaning farzandiga aytgan *Senga ishonaman* gapi P. Grays nazariyasiga ko‘ra [14] “Meni uyaltirma, ishonchimni oqla” degan implikaturani yuzaga chiqaradi. Inglizcha *I'm counting on you* ham shunga o‘xshash pragmatik bosim hosil qiladi.

Muloyim kutilma ifodasi. Ingliz rasmiy yozishmalarida *I trust (that)…* qurilmasi o‘ziga xos pragmatik vazifaga ega: *I trust this meets your requirements, I trust you are well*. Bu yerda *trust* fe’li “ishonmoq” emas, balki muloyim kutilma yoki yumshatilgan iltimosni ifodalaydi. O‘zbek tilida bu vazifani *Umid qilamanki…*, *Ishonamanki…* qurilmalari bajaradi. O‘zbek rasmiy va siyosiy nutqida *Ishonamanki…* qurilmasi ko‘pincha jamoaga ishonch bildirish va uni safarbar qilish vositasi sifatida qo‘llanadi.

Samimiylik markerlari. So‘zlovchi o‘z gapining rostligini ta’kidlash uchun maxsus markerlardan foydalanadi: ingl. *to be honest*, *frankly*, *honestly*; o‘zb. *rostini aytsam*, *ochig‘ini aytganda*, *to‘g‘risini aytsam*. Bu vositalar tinglovchida ishonch uyg‘otishga xizmat qiladi, biroq ularning haddan ortiq qo‘llanishi aksincha, Graysning sifat maksimasiga nisbatan shubha uyg‘otishi mumkin.

Xushmuomalalik strategiyalari. P. Braun va S. Levinson nazariyasiga ko‘ra [11], ishonch “yuz” (face) bilan bevosita bog‘liq. O‘zbek muloqotida ishonchli muhit asosan ijobiy xushmuomalalik strategiyalari – qarindoshlik murojaat shakllari (*aka, opa, uka*), yaqinlik va hamjihatlikni ta’kidlash orqali yaratiladi. Ingliz muloqotida esa salbiy xushmuomalalik, ya’ni suhbatdoshning mustaqilligini hurmat qilish, rasmiy kafolat va shaxsiy masofani saqlash ishonch shakllanishining muhim omili hisoblanadi.

Ishonch konseptining pragmatik voqelanishidagi asosiy farqlar 2-jadvalda umumlashtirildi.

2-jadval.

Ishonch konseptining lingvopragmatik voqelanishi

Pragmatik vazifa	Ingliz tili	O‘zbek tili
Kafolat berish	Trust me; Take my word for it; Rest assured	Menga ishoning; So‘z beraman; Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin
Qasam	I swear; I promise (asosan neytral)	Xudo haqqi; Vallohi; Qasam ichaman (diniy unsurli)
Bilvosita direktiv	I trust you; I'm counting on you	Sizga ishonaman; Ishonchimni oqlang
Muloyim kutilma	I trust (that)…	Umid qilamanki…; Ishonamanki…
Samimiylik markeri	to be honest; frankly	rostini aytsam; ochig‘ini aytganda
Ishonch asosi	shartnoma, kafolat, obro‘	tanishlik, qarindoshlik, shaxsiy tajriba

Xulosa. Konseptning yadrosi va asosiy semalari har ikki tilda mos keladi, biroq ingliz tilida konsept huquqiy-iqtisodiy jihatdan institutsionallashgan, o‘zbek tilida esa axloqiy-hissiy baholovchi birliklar (*vafo, sadoqat, omonat*) ustunlik qiladi.

Pragmatik jihatdan ishonch har ikki tilda kafolat, qasam, bilvosita direktiv, muloyim kutilma va samimiylik markerlari orqali voqelanadi. O‘zbek nutqida diniy unsurli qasam formulalari va ijobiy xushmuomalalik strategiyalari, ingliz nutqida esa neytral kafolat shakllari, *I trust (that)…* kabi muloyim qurilmalar va salbiy xushmuomalalik strategiyalari faolroq.

Olingan natijalardan ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy leksikologiyasi, lingvokulturologiya va tarjima nazariyasi bo‘yicha mashg‘ulotlarda, shuningdek, madaniyatlararo muloqotga yo‘naltirilgan ingliz tili darslarida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – №5.
2. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
6. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.
7. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Филол. ф-т МГУ им. М.В. Ломоносова, 1996. – 245 с.

8. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. – 314 с.
9. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Языки русской культуры, 1997. – 824 с.
10. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 166 p.
11. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
12. Cambridge Dictionary [Elektron resurs]. – URL: https://dictionary.cambridge.org
13. Online Etymology Dictionary [Elektron resurs]. – URL: https://www.etymonline.com
14. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
15. Speake J. (ed.) The Oxford Dictionary of Proverbs. – 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2015.

UDC 81'42:004.8

HOW PEOPLE ADDRESS ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ENGLISH AND UZBEK: A LINGUOPRAGMATIC PERSPECTIVE

Mirzamatova M. B., Master's student, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Hozirgi kunda sun'iy intellekt bilan muloqot qilish kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi, biroq foydalanuvchilarning mashinaga qanday murojaat qilishi lingvistik jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida insonning sun'iy intellektga murojaat qilish strategiyalarini qiyosiy o'rganishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy, tasviriy va kontekstual tahlil usullaridan foydalanilib, 7 ta asosiy murojaat turi aniqlandi. Natijada, o'zbek va ingliz tillarida olmoshlar, xushmuomalalik hamda madaniy an'analar muloqotga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy isbotlanib, texnologiya bilan muloqot qilishning milliy-madaniy xususiyatlari ochib berildi.*

Kalit so'zlar: *inson–sun'iy intellekt muloqoti, murojaat shakllari, lingvopragmatika, ingliz tili, o'zbek tili, xushmuomalalik strategiyalari.*

Аннотация. *По мере интеграции искусственного интеллекта в повседневную жизнь способы обращения людей к ИИ остаются малоизученными в лингвистике. Целью данного исследования является сравнительный анализ стратегий обращения на английском и узбекском языках. С помощью описательного, сопоставительного и контекстуального методов было выявлено семь ключевых стратегий. В результате доказано влияние местоимений, норм вежливости и культурных традиций на общение с ИИ, что позволяет понять национально-культурные особенности взаимодействия человека с технологиями.*

Ключевые слова: *общение человека с ИИ, формы обращения, лингвопрагматика, английский язык, узбекский язык, стратегии вежливости.*

Abstract. *As human–AI interaction becomes part of everyday communication, how users address AI systems remains under-researched linguistically. This study aims to conduct a comparative analysis of address strategies in English and Uzbek. Using descriptive, comparative, and contextual methods, the research identifies seven primary address strategies. The findings reveal how pronouns, politeness norms, and cultural conventions shape human–AI communication, offering a clear comparative framework for understanding the national and cultural adaptation of modern technology.*

Keywords: *human–AI communication, forms of address, linguopragmatics, English, Uzbek, politeness strategies.*

Introduction. Artificial intelligence has gradually become part of everyday communication. People now use AI systems not only to search for information but also to discuss ideas, solve problems, prepare academic work, learn languages, and sometimes express personal thoughts. As these interactions become more frequent, the language people use when communicating with AI deserves closer attention.

For example, Brown and Levinson (1987, p. 15) explain politeness as a set of strategies through which speakers manage face and maintain social relations. Previous research has examined politeness in computer-mediated communication, user expectations of conversational agents, and the role of politeness in human–robot interaction (Herring, 2004, p. 337; Luger and Sellen, 2016, 5287; Lumer

and Buschmeier, 2023). More recent cross-linguistic research has also considered how prompt politeness may affect the performance of large language models (Yin et al., 2024, p. 8).

The purpose of this article is therefore to examine the main ways people address AI systems in English and Uzbek and to identify the pragmatic functions of these forms. The study focuses on naming expressions, personal pronouns, vocatives, politeness markers, informal address forms, greetings, and direct instructions.

Methods. This study adopts a qualitative approach based on descriptive, contrastive, and contextual analysis. Its main purpose is to identify how different linguistic forms function when users address artificial intelligence systems in English and Uzbek. Contrastive analysis: comparing English and Uzbek expressions to identify similarities and language-specific differences. Contextual analysis: interpreting linguistic choices according to the communicative situation in which they are used. The study also draws on relevant literature concerning politeness theory, computer-mediated communication, and human–AI interaction. The examples presented in the article are constructed illustrations designed to demonstrate possible patterns of AI-directed communication.

3. Results. The analysis suggests that people can address AI systems through several linguistic strategies. Although these strategies are available in both English and Uzbek, their grammatical forms and sociocultural associations are not always identical.

3.1. Name-based forms of address. One of the most straightforward ways to address an AI system is to use its name. In many interactions, users begin their messages with the name of the platform or assistant.

Examples in English: "ChatGPT, could you help me with my research?", "Hey, ChatGPT, explain this concept.", "ChatGPT, can you give me another example?"

Examples in Uzbek: "ChatGPT, tadqiqotim bo'yicha yordam bera olasanmi?", "ChatGPT, shu tushunchani tushuntirib ber.", "ChatGPT, menga yana bir misol keltirib bera olasanmi?" In these examples, the name functions as a direct attention-getting device. It identifies the intended recipient and makes the message resemble an ordinary conversational exchange.

3.2. Personal pronouns and grammatical choices. Personal pronouns are another important aspect of AI-directed communication. English uses you in both formal and informal situations.

For example: "Can you explain this topic?", "Could you explain this topic?"

Uzbek offers a more explicit grammatical distinction through the pronouns sen and siz. These forms may signal different degrees of familiarity, respect, or social distance.

For example: "Sen menga bu mavzuni tushuntirib bera olasanmi?", "Siz menga bu mavzuni tushuntirib bera olasizmi?" The difference is not limited to the pronouns themselves. Verb forms also change according to the selected form of address.

Discussion. The comparison of English and Uzbek suggests that AI-directed address is shaped by both general communicative practices and language-specific conventions. One of the clearest differences concerns the expression of respect and familiarity. English speakers generally rely on lexical and syntactic choices to make a request sound more or less polite because the pronoun you does not distinguish between formal and informal address. For instance, Lumer and Buschmeier (2023, p. 5) examined expectations about politeness in human–robot interaction. Their work supports the need to distinguish between human social politeness and the functional conventions users apply when interacting with artificial systems.

Conclusion. The article has examined how people address artificial intelligence systems in English and Uzbek from a linguopragmatic perspective. The analysis has identified several major strategies, including name-based address, personal pronouns, vocatives, politeness markers, informal expressions, greetings, and direct instructions. The comparison demonstrates that both languages offer users different ways of organising AI-directed communication. English relies largely on lexical and syntactic choices to express politeness, while Uzbek provides additional grammatical distinctions through sen/siz and corresponding verb forms. Cultural conventions also influence the use of greetings and relational expressions.

REFERENCES:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.

2. Herring, S. C. (2004). Computer-mediated discourse analysis: *An approach to researching online behavior.*

3. Luger, E., & Sellen, A. (2016). *Proceedings of the 2016 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems* (pp. 5286–5297).

4. Lumer, M., & Buschmeier, H. (2023). Should robots be polite? *Frontiers in Robotics and AI*, 10, Article 1242127. https://doi.org/10.3389/frobt.2023.1242127

5. https://doi.org/10.18653/v1/2024.sicon-1.2

UDC 811.111'373:378.147

COGNITIVE CHARACTERISTICS OF UZBEK STUDENTS AND PROBLEMS OF ENGLISH LEXICAL ACQUISITION: A SYSTEMATIC REVIEW

Muminova G., PhD, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Lug'at boyligi ingliz tili bilimining hal qiluvchi qismi bo'lsa-da, o'zbek talabalari inglizcha so'zlarni eslab qolish va qo'llashda qiynaladi. PRISMA asosidagi ushbu tizimli sharhda bu qiyinchiliklarning kognitiv va tipologik omillari tahlil qilinadi. To'rt mavzu aniqlandi: fonologik xotira, tillararo ta'sir, o'rganish strategiyalari va o'qitish yuklamasi. Qiyinchiliklar past qobiliyat bilan emas, tipologik masofa va sayoz ishlov berish bilan izohlanadi hamda qayta eslashga asoslangan, kontekstga boy o'qitish orqali kamaytirilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili lug'at boyligini o'zlashtirish, o'zbek tilini ona tili sifatida biluvchi o'rganuvchilar, kognitiv omillar, tillararo ta'sir, tizimli adabiyotlar* sharhi.

Аннотация. *Словарный запас — решающий компонент владения английским языком, однако узбекские студенты часто испытывают трудности с запоминанием и использованием английских слов. В систематическом обзоре (PRISMA) обобщены данные о когнитивных и типологических факторах этих трудностей. Выделены четыре темы: фонологическая память, межъязыковое влияние, стратегии обучения и учебная нагрузка. Трудности объясняются типологической дистанцией и поверхностной обработкой, а не низкими способностями, и могут быть снижены обучением, основанным на извлечении из памяти и богатым контекстом.*

Ключевые слова: *усвоение английской лексики, узбекоязычные обучающиеся, когнитивные факторы, межъязыковое влияние, систематический обзор литературы.*

Abstract. *Vocabulary is a decisive component of English proficiency, yet Uzbek students often struggle to retain and use English words. This PRISMA-based systematic review synthesises evidence on the cognitive and typological factors behind these difficulties. Four themes emerged: phonological memory, cross-linguistic influence, learning strategies and instructional load. The difficulties reflect typological distance and shallow processing rather than low ability, and can be reduced through retrieval-based, context-rich teaching.*

Keywords: *English vocabulary acquisition; Uzbek learners; cognitive factors; cross-linguistic influence; systematic review.*

1. Introduction. Vocabulary knowledge is among the strongest predictors of reading, listening and writing performance in a foreign language. Learners typically need roughly 8,000–9,000 word families to read authentic texts without major difficulty and 6,000–7,000 for spoken discourse [1], and lexical richness distinguishes proficiency levels in writing [2]. For Uzbek university students, whose English instruction is expanding under national language-education reforms, the size and quality of the English lexicon remain a persistent bottleneck.

Lexical acquisition depends on the capacity of the phonological loop to hold unfamiliar word forms [3], on the depth of processing [4], on verbal and imagery codes [5], and on the load imposed by the task.

Uzbek is an agglutinative Turkic language with very limited vowel harmony in the standard variety, a largely transparent Latin-based orthography, a tendency to avoid word-initial consonant clusters, and no articles or lexical stress contrasts comparable to English. The review therefore asks: (RQ1) which cognitive characteristics of Uzbek-speaking students influence English vocabulary

acquisition; (RQ2) which typological features of Uzbek and Russian are associated with lexical difficulties; and (RQ3) which interventions reduce these difficulties.

2. Methods. The review was designed and reported according to PRISMA 2020 [6], and the protocol (questions, criteria, search strings) was fixed before screening. Eligible studies were empirical (quantitative, qualitative, mixed or experimental), published in 2000–2026 in English, Uzbek or Russian, and involved Uzbek-speaking learners aged 16+ whose English vocabulary knowledge, learning, retention or use was linked to at least one cognitive or learner-internal variable. Scopus, Web of Science, ERIC and Google Scholar were searched together with CyberLeninka and national journals, using equivalent strings in English, Russian and Uzbek; reference lists were hand-searched. Two reviewers independently screened titles, abstracts and full texts, resolving disagreements by discussion. A standard form captured sample, proficiency level, design, cognitive variables, vocabulary measures and findings, and the synthesis was narrative.

3. Results

3.1. Phonological memory and word-form encoding (RQ1). Research consistently links the ability to hold novel sound sequences with the speed of new word learning [7]. Uzbek students must encode English forms whose phonotactics differ from L1 norms: initial clusters (street, splash), final clusters (texts), reduced vowels and variable stress. Because Uzbek orthography is highly regular, it encourages sound-by-letter decoding, which can produce a spelling–pronunciation mismatch (though, enough, debt) and weak phonological representations.

3.2. Cross-linguistic influence (RQ2). Transfer occurs at the level of form, meaning and use. First, Uzbek and English are unrelated, so learners cannot exploit shared roots; each new word is largely a new form–meaning mapping, except for loans via Russian or international vocabulary (computer, telephone, university). Second, learners assume that an Uzbek word and its dictionary equivalent cover the same semantic field, causing collocational errors (make or do) and misuse of polysemous words. Third, because Uzbek expresses grammatical meaning through suffix chains, learners may under-attend to English affixes (-ness, -ity, -ment), which limits word-family knowledge and inference of unfamiliar words.

3.3. Strategies and depth of processing (RQ1, RQ3). Elaborate semantic processing yields stronger memory traces than shallow repetition [4], and tasks combining need, search and evaluation lead to better retention than reading with glosses. Descriptions of Uzbek EFL classrooms point to rote memorisation of bilingual lists, translation-based testing and teacher-centred explanation, which favour shallow processing and may explain why examination vocabulary is quickly forgotten.

3.4. Cognitive load and instructional conditions (RQ3). Learners overwhelmed by many new items, complex texts or simultaneous grammar demands have fewer resources for encoding meaning. The reviewed studies note large classes, limited authentic exposure and textbooks with dense, decontextualised lists. Dual-coding accounts suggest that images, gestures or video reduce load and strengthen memory [5], yet multimodal presentation was seldom reported.

4. Discussion. Lexical difficulties of Uzbek students arise from the interaction of three factors: typological distance, which reduces positive transfer; phonological encoding habits shaped by a transparent orthography; and routines that stress breadth through lists over depth through meaningful use. These factors are teachable rather than fixed cognitive deficits. Instruction should therefore supply explicit phonological work (listening, repetition, stress marking) alongside spelling; replace pure translation with tasks of higher involvement load, such as composing sentences and gap-fills with evaluation; use spaced, retrieval-based review and teach word families and collocations, prioritising high-frequency vocabulary [1]; and use Uzbek and Russian loanwords as a bridge to build confidence early.

The evidence base is small: many studies have modest samples, lack validated cognitive measures such as non-word repetition or working-memory span, and rarely control proficiency. Local publication, language barriers and inconsistent terminology may have led to missed studies, and several claims, especially on transfer, are extrapolated from general second-language research.

5. Conclusion. Cognitive and typological factors jointly shape how Uzbek students acquire English vocabulary. Difficulties with word-form encoding, limited positive transfer and shallow rote

strategies can be reduced through phonologically rich, retrieval-based and context-rich instruction. A robust evidence base requires more rigorous empirical work on Uzbek learners, and this review provides a framework for it.

REFERENCES:

1. Nation, I. S. P. How large a vocabulary is needed for reading and listening? Canadian Modern Language Review, 2006, 63(1), 59–82.

2. Laufer, B., & Nation, P. Vocabulary size and use: Lexical richness in L2 written production. Applied Linguistics, 1995, 16(3), 307–322.

3. Baddeley, A. Working memory and language: An overview. Journal of Communication Disorders, 2003, 36(3), 189–208.

4. Craik, F. I. M., & Lockhart, R. S. Levels of processing: A framework for memory research. Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior, 1972, 11(6), 671–684.

5. Paivio, A. Mental representations: A dual coding approach. Oxford University Press. 1986.

6. Page, M. J., McKenzie, J. E., Bossuyt, P. M., et al. The PRISMA 2020 statement: An updated guideline for reporting systematic reviews. BMJ, 2021, 372, n71.

7. Service, E. Phonology, working memory, and foreign-language learning. Quarterly Journal of Experimental Psychology, 1992, 45A(1), 21–50.

UO'K 81'255.4:81'373.21

"BOBURNOMA" INGLIZCHA TARJIMALARIDA TOPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI VA BERILISH USULLARI

M.O.Muminova, PhD, dotsent, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" matnidagi toponimlarning J.Leyden–W.Erskine (1826), A.S.Beveridge (1922) va W.M.Tekston (1996) tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimalarda berilish usullari qiyosiy tahlil qilingan. Asardagi toponimlar oykonim, gidronim, oronim, nekronim, antrotoponim turlariga ajratilib, ularning lingvokulturologik mazmuni ochib berilgan. Kesh (Shahrisabz), G'azni, Kobul toponimlari va ular bilan bog'liq realiyalar misolida transliteratsiya, transkripsiya, kalka, tasviriy tarjima va izoh berish usullarining qo'llanishi, ularning pragmatik muvofiqlik va nomuvofiqlikka olib keluvchi jihatlari aniqlangan. Tahlil natijasida toponimlarni tarjima qilishda transliteratsiya va izohning birgalikdagi qo'llanishi milliy-madaniy axborotni saqlashning eng samarali yo'li ekani asoslangan.*

Kalit so'zlar: *"Boburnoma", toponim, oykonim, oronim, gidronim, realiya, transliteratsiya, kalka, izoh, lingvokulturologik xususiyat, pragmatik muvofiqlik.*

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ способов передачи топонимов «Бабур-наме» Захириддина Мухаммада Бабура в английских переводах Дж. Лейдена–У.Эрскина (1826), А.С.Бевериджа (1922) и У.М.Текстона (1996). Топонимы произведения классифицированы на ойконимы, гидронимы, оронимы, некронимы и антротопонимы, раскрыто их лингвокультурологическое содержание. На примере топонимов Кеш (Шахрисабз), Карши, Газни, Кабул и связанных с ними реалий выявлены особенности применения транслитерации, транскрипции, калькирования, описательного перевода и комментария, а также случаи прагматической адекватности и неадекватности перевода. Обосновано, что сочетание транслитерации с комментарием является наиболее эффективным способом сохранения национально-культурной информации.*

Ключевые слова: *«Бабур-наме», топоним, ойконим, ороним, гидроним, реалия, транслитерация, калька, комментарий, лингвокультурологическая особенность, прагматическая адекватность.*

Abstract. *The article presents a comparative analysis of the ways toponyms of Zahiriddin Muhammad Babur's "Baburnama" are rendered in the English translations by J.Leyden and W.Erskine (1826), A.S.Beveridge (1922) and W.M.Thackston (1996). The toponyms of the work are classified into oikonyms, hydronyms, oronyms, necronyms and anthropotoponyms, and their linguocultural content is revealed. Using the examples of Kesh (Shahrisabz), Qarshi, Ghazni, Kabul and the realia connected with them, the use of transliteration, transcription, calque, descriptive translation and commentary is examined, together with cases of pragmatic adequacy and inadequacy.*

The study shows that combining transliteration with commentary is the most effective way to preserve national and cultural information.

Key words: *"Baburnama", toponym, oikonym, oronym, hydronym, realia, transliteration, calque, commentary, linguocultural feature, pragmatic adequacy.*

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari jahon adabiyoti va tarixshunosligida alohida o'rin tutuvchi memuar asar bo'lib, unda XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston va Shimoliy Hindistonda kechgan tarixiy voqealar, shu hududlarning tabiati, xo'jaligi va madaniyati batafsil tasvirlangan. Mutaxassislarning e'tirofiga ko'ra, asarda mingga yaqin geografik nom – mamlakat, shahar, qishloq, qal'a, dasht, tog', dovon, daryo, ko'prik, ko'l, chashma, bog' va yaylov nomlari tilga olingan, yuzlab nomlar esa tarixiy va lug'aviy jihatdan izohlangan [2]. Shu sababli yapon olimi Eiji Mano asarni "ma'lumotlar xazinasi" deb atagan.

Atoqli otlar, jumladan, toponimlarning tarjimasi masalasi tarjimashunoslikda alohida o'rganilgan. A.V.Superanskaya atoqli otlarning umumiy nazariyasini ishlab chiqib, ularning tildagi o'rni va nominativ xususiyatlarini ko'rsatgan [14]. S.Vlaxov va S.Florin geografik nomlarni realiyalar qatorida ko'rib chiqib, ularni tarjima qilishning transkripsiya, kalka va tasviriy usullarini tasniflagan. P.Newmark atoqli otlarni tarjima qilishda ularni o'zgarishsiz ko'chirish (*transference*) va zarur hollarda izoh berish tamoyilini ilgari surgan. D.I.Yermolovich esa atoqli otlarni tillar va madaniyatlar tutashgan nuqtadagi birliklar sifatida tadqiq etgan.

"Boburnoma"ning toponimiyasi N.Otajonov, N.Uluqov, D.Hoshimova kabi olimlarning ishlarida, uning inglizcha tarjimalari esa M.Sobirov va D.Hoshimova tadqiqotlarida o'rganilgan [11]. Turk tadqiqotchisi Hatice Özdil Bobur tomonidan izohlangan joy nomlarini qo'yilish sabablariga ko'ra guruhlagan. Biroq toponimlarning uch inglizcha tarjimada berilish usullari lingvokulturologik va pragmatik jihatdan maxsus qiyosiy tadqiq etilmagan. Ushbu bo'shliq mazkur maqola mavzusini belgilab beradi.

"Boburnoma" matnidagi toponimlar nomlanayotgan obyekt turiga ko'ra guruhlarga ajratildi. Jumladan, oykonimlar, gidronimlar, oronimlar, nekronimlar va antrotoponimlar. Bobur ko'plab toponimlarning o'sha davrdagi talaffuzi va yozilishini ham saqlab qolgan: Marg'inon – Marg'ilon, O'zgand – O'zgan, Qubo – Quva, Xo'qon – Qo'qon, Rushdon – Rishton, Sayhun – Sirdaryo. Bu tarjimon oldiga nomning tarixiy shaklini saqlash yoki uni zamonaviy o'quvchiga tanish shaklda berish muammosini qo'yadi.

Bobur Kesh viloyatini tasvirlar ekan, shahar nomining kelib chiqishini izohlaydi: bahorda uning sahrosi, shahri, bomi va tomi yam-yashil bo'lgani uchun uni Shahrisabz ham deyishadi [1]. Bu parchada uchta toponim (Kesh, Samarqand, Shahrisabz), bitta oronim (Itmak dovoni) va o'lchov realiyasi (yig'och) qatnashgan.

Leyden–Erskin tarjimasida Kesh va Samarqand nomlari transliteratsiya qilingan, *Shahrisabz* nomi esa *Shahr-i-sabz* shaklida berilib, qavs ichida *(the Green City)* izohi keltirilgan [3]. Shu bilan tarjimon nomning ichki shaklini ham, milliy-madaniy mazmunini ham saqlaydi. Biroq *"Itmak dovoni"* oronimi *"Amak Daban"* shaklida noto'g'ri transliteratsiya qilingan, "tog'" so'zi esa *hill (tepalik)* deb o'girilgan, holbuki tog' va tepalik tushunchalari ma'no jihatidan farq qiladi. A.Beverij ham *Shahr-i-sabz (Green-town)* shaklini qo'llab, dovon nomini *the Aitmak Pass (Daban)* tarzida bergan va "dovon" so'zini sahifa ostida izohlagan [4]. W.Tekston esa nomni zamonaviy *Shahrisabz (Green city)* shaklida, oronimni *Itmak Dabani* tarzida asliyatga yaqin holda bergan, ammo Kesh nomini *Kish* shaklida yozgan [5].

Parchadagi *"to'qqiz yig'och yo'l"* birikmasidagi o'lchov realiyasining berilishi ham e'tiborga loyiq: Leyden–Erskin uni fors o'lchov birligi bilan *nine farsangs*, Beverij transliteratsiya orqali *9 yighach*, Tekston esa ingliz o'quvchisiga tanish *nine leagues* deb bergan. Birinchi va uchinchi holatda realiya boshqa madaniyat birligi bilan almashtirilib, milliy kolorit qisman yo'qolgan; Beveridge esa realiyani saqlab, uning qiymatini izohda ko'rsatgan.

Parchadagi zoonim va antrotoponimlar ham e'tiborga loyiq. Bobur viloyatda *qilquyruq* deb ataluvchi qushlar behad ko'pligi sababli ularni *"murg'aki qarshi"* deyishlarini qayd etadi. Leyden–Erskin bu so'zni transliteratsiya qilib, *(horse-tails)* tarzida so'zma-so'z izohlagan, bu esa qush

nomining ma'nosini noaniq ko‘rsatadi. Thackston *bag‘riqaro* qushini *sand grouse* (bulduruq) deb, ingliz ornitologik atamasi bilan bergan va *murg‘aki qarshi* birikmasini *a Karshi bird* kalkasi orqali o‘girgan. Bu holat toponim tarkibidagi realiyalarni berishda tarjimonning ekstralingvistik bilimi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Bobur G‘azni viloyatini Kobul bilan qiyoslab tasvirlaydi: G‘azni uzumi va qovuni Kobulnikidan yaxshiroq, olmasi Hindistonga olib boriladi, har yili ekin yerining yuziga yangi tuproq tortiladi [1]. Uch tarjimon ham *Ghazni, Kabul, Hindustan* nomlarini transliteratsiya orqali bergan. Farq toponim bilan bog‘liq madaniy-xo‘jalik realiyalarida ko‘rinadi: “yuziga tamom yangi tuproq kiyururlar” jumlasini Leyden–Erskin *to have a new dressing of mould every year* deb, “o‘g‘itlash” ma'nosi bilan bergan. Bu tarjimonning Sharq dehqonchiligi an'analarini to‘liq bilmaganidan dalolat beradi, chunki yer ustiga yangi tuproq tortish va o‘g‘itlash boshqa-boshqa usullardir. Beverij (*newly top-dressed*) va Tekston (*new soil must be brought in*) bu ma'noni aniqroq bergan [3]

Kobul viloyati tavsifida Bobur Andarob, Xost va Badaxshonot tog‘larini “archaliq, qalin chashmaliq, yumshoq pushtaliq” deb ta'riflaydi hamda bu tog‘larda ko‘p o‘sadigan *butaka* o‘tining nomini Andijon viloyatidagi nomi bilan qiyoslab, uning etimologiyasini izohlaydi: “bu o‘t buta-buta chiqar uchun butaka derlar emish” [1]. Bu parchada toponimlar (Kobul, Andarob, Xost, Badaxshonot, Andijon) o‘simlik nomi va uning xalq etimologiyasi bilan bir kontekstda kelgan.

Leyden–Erskin bu parchada toponimlarni *Anderab, Khost, the Badakhshanat, Andejan* tarzida transliteratsiya qilgan, *archa* so‘zini *archeh, or mountain pine* deb tasviriy izoh bilan bergan, o‘t nomini esa *kah-butkeh* va *butkeh-auti* shakllarida keltirgan [3]. Asliyatda bo‘lmagan *it differs from the hilly countries* jumlasining qo‘shilishi matnni o‘quvchiga tushunarli qilish maqsadida qilingan bo‘lsa-da, tasvirning ixchamligini buzgan. Beveridge esa *Andar-ab, Khwast, Andijan* shakllarini qo‘llab, *archa* va *aut* (o‘t) so‘zlarini qavs ichida transliteratsiya bilan saqlagan va o‘t nomining kelib chiqishini *(buta, buta)* izohi bilan bergan [4]. Biroq u asliyatdagi Kobul tog‘larining ikki turi haqidagi jumlani tushirib qoldirgan, asliyatda bo‘lmagan *grass like a beautiful floor* o‘xshatishini esa qo‘shgan. Bu misol bir xil toponimning tarjimonlar tomonidan turli imloda berilishi (*Andejan – Andijan*) va toponim bilan bog‘liq kontekstning qayta yaratilishida qo‘shimcha va tushirib qoldirishlar pragmatik nomuvofiqlikka olib kelishini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar K.Jo‘rayevning transliteratsiya usuli ko‘proq geografiya va etnografiyaga oid so‘zlarni o‘tkazishda qo‘llanadi, degan fikrini tasdiqlaydi [6]. Uch tarjimonning ham toponimlarni berishda asosan transliteratsiyaga tayangani bu usulning nomning identifikatsiya vazifasini saqlashdagi afzalligini ko‘rsatadi. Biroq “Boburnoma” toponimlari ko‘pincha etimologik izoh va madaniy axborot bilan birga keladi, shuning uchun faqat transliteratsiya yetarli bo‘lmaydi: Shahrisabz, Qarshi kabi nomlarda Boburning o‘zi bergan izohni saqlash zarur.

Muqobil birlik bilan almashtirish (*farsang, league*) matnni o‘quvchiga yaqinlashtiradi, ammo P.Newmark va S.Vlaxov – S.Florin ta'kidlaganidek, realiyaning milliy koloritini yo‘qotadi [15]. Beveridge tanlagan transliteratsiya va izoh yo‘li esa asliyatning lingvokulturologik xususiyatini saqlab, uni ingliz o‘quvchisiga tushuntirish imkonini beradi. Bu N.O‘rmonovaning tarixiy nomlarni tarix va madaniyat yodgorligi sifatida o‘zga tillarda to‘g‘ri berish zarurligi haqidagi fikriga mos keladi [7].

Shu bilan birga, ayrim hollarda tarjimonlarning Sharq madaniyati va xo‘jaligi haqidagi bilimi yetarli bo‘lmagani pragmatik nomuvofiqlikka olib kelgan (“tog‘” – *hill*, “yangi tuproq tortish” – *dressing of mould)*. Bu toponimlarni tarjima qilishda faqat lingvistik emas, balki tarixiy-geografik va etnografik bilim ham zarurligini ko‘rsatadi.

Demak, yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, “Boburnoma”dagi toponimlar oykonim, gidronim, oronim, nekronim va antrotoponim turlariga bo‘linadi va ko‘pincha muallifning etimologik, tarixiy va xo‘jalik izohlari bilan birga keladi; bu ularning lingvokulturologik qiymatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 336 b.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Sanga ko‘nglimni oldurdum. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

3. Leyden J., Erskine W. Memoirs of Zehir-ed-Din Muhammed Baber, Emperor of Hindustan. – London, 1826. Revised ed. by L. King. – Milford, 1921.

4. Beveridge A. S. The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur). – London, 1922.
5. Thackston W. M. The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York; Oxford: Oxford University Press, 1996.
6. Jo'rayev K. Tarjima san'ati. – Toshkent: Fan, 1982.
7. O'rmonova N. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2008.
8. Otajonov N. Jahongashta Boburnoma. – Toshkent, 1996.
9. Sobirov M. «Boburnoma»ning inglizcha tarjimalarida muallif uslubi va badiiyatini qayta tiklash muammolari: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2002.
10. Hoshimova D. "Boburnoma" matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi: filol. fan. d-ri... diss. – Toshkent, 2018.
11. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973.

UDC 821.111.09-7

THE PLACE OF SATIRE IN THE GENERAL CREATIVE CANON OF EVELYN WAUGH

Murodova M. I., PhD in Philology, acting associate professor, Asia International University, Bukhara

Annotatsiya. *Maqolada satira Ivlin Vo nasrining alohida janri emas, balki ajralmas xususiyati sifatida ko'rib chiqiladi. Yozuvchi kinoya, tagma'no hamda tashqi odoblilik va ichki zaiflik o'rtasidagi ziddiyat orqali ijtimoiy soxtalikni ochib beradi. Satiraning ikkiyuzlamachilik, shaxsiyat, e'tiqod va madaniy tanazzul mavzulari bilan aloqasi muhokama qilinadi; romanning keng tasvir imkoniyatlari hikoyaning ixchamligi bilan qiyoslanadi. Satirik nigoh Vo ijodiy amaliyotining davomiy unsuri sifatida talqin etiladi.*

Kalit so'zlar: *satirik romanlar, satirik hikoyalar, umumiy ijodiy tizim, satiraning o'rni.*

Аннотация. *Сатира рассматривается как неотъемлемая черта прозы Ивлина Во, а не отдельный жанр. Через иронию, недосказанность и контраст между внешней респектабельностью и внутренними слабостями писатель раскрывает социальное притворство. В статье обсуждается связь сатиры с темами лицемерия, идентичности, веры и культурного упадка; сопоставляются широкий повествовательный охват романа и сжатость рассказа. Сатирическое видение трактуется как устойчивый элемент творческой практики Во.*

Ключевые слова: *сатирические романы, сатирические рассказы, творческий канон, роль сатиры.*

Abstract. *Satire is considered as an integral feature of Evelyn Waugh's fiction rather than a separate genre. His narratives expose social pretension through irony, understatement and a contrast between outward respectability and private weakness. The article discusses the relationship between satire and the themes of hypocrisy, identity, faith and cultural decline, and compares the broader narrative scope of the novel with the concentration of the short story. Waugh's satirical perspective is presented as a continuing element of his creative practice.*

Keywords: *satiric novels, satiric short stories, the general creative canon, the role of satire.*

In short fiction, narrative economy gives particular importance to each sentence. A gesture, a phrase or a contrast between what a character says and does can expose cultural complacency without an explicit judgement from the narrator. Such restraint encourages readers to recognize the contradiction for themselves. The satirical effect depends on the arrangement of details and the distance between a character's self-image and the situation described.

Waugh's satire frequently concerns social conduct and the habits through which people sustain an image of themselves. Characters may observe etiquette and repeat accepted opinions while failing to examine their motives. The contrast between polished manners and private inadequacy enables satire to extend beyond an individual target to a wider social environment. This does not exclude political themes, but places everyday behaviour at the centre of the present interpretation.

Understatement is an important means of creating this contrast. Instead of announcing a moral verdict, a narrator can describe conduct in a restrained tone and leave the reader to infer its

implications. In Waugh's fiction, satire can therefore intersect with loneliness, loss, faith and cultural change. Its effect is produced through narrative detail and tone rather than through direct denunciation alone.

The continuing relevance of Waugh's satire can be understood through its attention to recognizable forms of self-deception. Fashion, convention and habit may lead characters to preserve appearances at the expense of judgement. From this perspective, satire is both a literary technique and a way of interpreting social experience. Its force depends on the relationship between the narrated events and the reader's recognition of their implications.

Genre shapes the presentation of this perspective. A novel provides space for intersecting plots, gradual changes in character and a wider social setting; a short story concentrates its effects within a more limited sequence. A verified early example is Decline and Fall (1928), whose protagonist Paul Pennyfeather is expelled from Oxford and becomes a schoolmaster at Llanabba Castle [8]. The movement between university and school connects individual experience with institutional conventions. The institutional setting provides a basis for examining the interaction between individual vulnerability and social convention.

Waugh's novels and short fiction thus offer different scales for a continuing satirical concern with the gap between appearance and reality. His early novels include Decline and Fall (1928), Vile Bodies (1930), Black Mischief (1932) and A Handful of Dust (1934) [8]. Their chronology should be kept distinct from claims about changes in tone. A detailed account of that development requires close comparison of passages from identified editions. Within the present discussion, satire is understood as a recurring narrative perspective whose effect changes with genre, context and the treatment of character.

REFERENCES:

1. Андреева Л. Н. Сатира и её маски в прозе Ивлина Во // Научный вестник Литературного института. – 2024. – № 2. – С. 45–58.

2. Васильева Н. А. Связь веры и сатиры в творчестве Ивлина Во // Богословский альманах. – 2023. – № 1. – С. 23–35.

3. Зорина Е. А. Сатирические стратегии в английской литературе межвоенного периода // Вопросы литературы. – 2023. – № 4. – С. 112–128.

4. Климова И. В. Форма и стиль в рассказах Ивлина Во // Литературное наследие. – 2022. – № 3. – С. 78–93.

5. Михайлов А. А. Сравнительный анализ сатирических приёмов Ивлина Во и Джорджа Оруэлла // Зарубежная литература. – 2021. – № 2. – С. 56–70.

6. Орлова С. В. Сатира как форма наблюдения: Ивлин Во и его место в литературе межвоенного периода // Вестник Московского университета. Серия «Литература и язык». – 2022. – Т. 63, № 5. – С. 101–114.

7. Соколова А. П. Сатирическая модель мира в английской литературе 1930-х годов // Новое в зарубежной литературе. – 2023. – № 1. – С. 33–48.

8. Waugh E. Decline and Fall. Penguin Modern Classics. ISBN 9780141180908. https://www.penguin.co.uk/books/56887/decline-and-fall-by-waugh-evelyn/9780141180908 (accessed 13 November 2026).

UDC 81'42:004.738.5

APOLOGY STRATEGIES IN DIGITAL COMMUNICATION: A COMPARATIVE PRAGMATIC STUDY OF UZBEK, ENGLISH AND RUSSIAN

Murotova D. Kh., PhD in Philological Sciences, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek, ingliz va rus tillarida raqamli muloqotda (messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta) uzr so'rash nutq aktini ifodalash strategiyalari qiyosan o'rganiladi. Olshteyn va Koen nutqiy to'plami hamda xushmuomalalik nazariyasi asosida asosiy strategiyalar va ularni o'zgartiruvchi raqamli vositalar: qisqartmalar, emojilar, tinish belgilari, xabar yuborish vaqti va platforma an'analari tavsiflanadi. Uch tilda ham asosiy strategiyalar majmui umumiy, ammo ularni tanlash va kuchi farq qiladi.*

Kalit so'zlar: *uzr so'rash; nutq akti; raqamli muloqot; xushmuomalalik; strategiya; qiyosiy pragmatika; o'zbek tili; ingliz tili; rus tili.*

Аннотация. *В статье сопоставляются стратегии реализации речевого акта извинения в цифровой коммуникации (мессенджеры, социальные сети, электронная почта) в узбекском, английском и русском языках. На основе теории речевых актов и теории вежливости описываются основные стратегии и цифровые средства их модификации: сокращения, эмодзи, пунктуация, время отправки сообщения и особенности платформы. Набор базовых стратегий общий для трёх языков, тогда как их выбор и интенсивность различаются.*

Ключевые слова: *извинение; речевой акт; цифровая коммуникация; вежливость; стратегия; сопоставительная прагматика; узбекский язык; английский язык; русский язык.*

Abstract. *This article compares the strategies used to perform the speech act of apology in digital communication (messengers, social networks, e-mail) in Uzbek, English and Russian. Relying on the apology speech act set of Olshtain and Cohen and on politeness theory, it describes the main strategies and the digital means that modify them: abbreviations, emoji, punctuation, message timing and platform conventions. The core set of strategies is shared by the three languages, whereas their choice and intensity differ.*

Keywords: *apology; speech act; digital communication; politeness; strategy; contrastive pragmatics; Uzbek; English; Russian.*

1. Introduction. Apology is one of the most frequent expressive speech acts in everyday interaction. In Searle's classification [2; 3] it belongs to the class of expressives: the speaker expresses regret for a past act that has damaged the hearer. Goffman [4] described apologies as a remedial exchange, and Brown and Levinson [5] explained them as an attempt to repair the hearer's face. The speech act is universal, but its realisation depends on culture [6; 7; 8]. Digital communication changes the conditions of this act: speaker and hearer are separated in time and space, non-verbal signals are replaced by emoji and punctuation, and a reply may come after minutes or days [9; 10]. The aim of this article is to compare the apology strategies of Uzbek, English and Russian in digital communication and to describe the means of their modification online.

2. Materials and Methods. The study is theoretical and descriptive. Its base consists of speech act theory [1–3], the apology speech act set [6; 7], politeness theory [5], and works on computer-mediated communication [9; 10] and Russian pragmatics [11]. The examples are typical utterances constructed from the author's communicative experience and are not a statistical sample, so the conclusions describe tendencies rather than frequencies. The methods are strategy analysis, contrastive analysis and analysis of digital modifiers.

3. Results and Discussion

3.1 Strategies of apology. Olshtain and Cohen [6] define the apology as a speech act set of five strategies: (1) an illocutionary force indicating device (IFID), that is, an explicit formula of regret; (2) an explanation; (3) acceptance of responsibility; (4) an offer of repair; and (5) a promise of forbearance. The IFID is central; the others are optional and depend on the seriousness of the offence and social distance [5; 7]. All five occur in digital communication in the three languages, which supports the claim of a universal core [8]. For example, *I'm so sorry, my phone died. I'll send the file tonight and won't be late again* combines four strategies. The IFIDs differ in form: English uses *sorry*, *I apologise* and *my bad*; Russian *извини(те)*, *прости(те)* and *прошу прощения*; Uzbek *kechirasiz*, *kechir*, *uzr so'rayman* and the more elaborate *meni afv eting*, often with an address form (*aka*, *opa*, *domla*).

3.2 Comparison of the three languages. Table 1 summarises the typical realisation of each strategy. Larina [11] notes that Russian communication values sincerity and directness, while English communication prefers negative politeness, that is, distance and a minimum of imposition [5; 8]. Uzbek communication, where respect for age and status is expressed through address forms and honorifics, tends to extend the apology and attach a wish for forgiveness to it: *Domla, kechirasiz, bezovta qilganim uchun uzr*. English often combines a short formula with self-irony (*Sorry, I'm terrible at replying*), and Russian pairs the IFID with an explanation.

Table 1. Typical realisation of apology strategies in digital communication

Strategy	Uzbek	English	Russian
IFID	*Kechirasiz, kechikdim.*	*Sorry I'm late!*	*Извините, я опоздал.*
Explanation	*Internet uzilib qoldi.*	*My phone died.*	*Не было связи.*
Responsibility	*Bu mening aybim.*	*My bad. That's on me.*	*Это моя вина.*
Offer of repair	*Hozir qayta yuboraman.*	*I'll resend it now.*	*Сейчас пришлю заново.*
Forbearance	*Boshqa takrorlanmaydi.*	*Won't happen again.*	*Больше не повторится.*

3.3 Digital modifiers of apology

Digital conditions add means of modifying the force of the apology. Emoji and emoticons perform the function of intonation and can strengthen or weaken the illocutionary force [10]; they are common in informal apologies in all three languages but usually avoided in messages to superiors. Abbreviations, informal formulae and lower-case spelling (*sry*, *coppu*, *uzr*) mark the apology as informal, while repeated letters and punctuation (*soooory*, *извините!!!*) intensify the regret. Timing matters as well: an immediate reply is a form of repair, while a late apology without explanation is often perceived as insincere [9].

Conclusion. Apology in digital communication in Uzbek, English and Russian is based on the same set of strategies, which confirms the universal character of the speech act; the differences lie in the choice, order and intensity of the strategies. Uzbek is characterised by respect formulae and extended apologies, English by short routine formulae and humour, and Russian by explicit expressions with an explanation. Digital means form a common layer, but are used according to the politeness norms of each culture.

REFERENCES:

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press, 1962.

2. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

3. Searle, J. R. A taxonomy of illocutionary acts // Gunderson, K. (ed.). Language, Mind, and Knowledge. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1975. P. 344–369.

4. Goffman, E. Relations in Public: Microstudies of the Public Order. New York: Basic Books, 1971.

5. Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

6. Olshtain, E., Cohen, A. D. Apology: A speech-act set // Wolfson, N., Judd, E. (eds.). Sociolinguistics and Language Acquisition. Rowley, MA: Newbury House, 1983. P. 18–35.

7. Blum-Kulka, S., Olshtain, E. Requests and apologies: A cross-cultural study of speech act realization patterns (CCSARP) // Applied Linguistics, 1984, 5(3). P. 196–213.

8. Ogiermann, E. On Apologising in Negative and Positive Politeness Cultures. Amsterdam: John Benjamins, 2009.

9. Walther, J. B. Computer-mediated communication: Impersonal, interpersonal, and hyperpersonal interaction // Communication Research, 1996, 23(1). P. 3–43.

10. Dresner, E., Herring, S. C. Functions of the nonverbal in CMC: Emoticons and illocutionary force // Communication Theory, 2010, 20(3). P. 249–268.

11. Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации: сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. М.: Языки славянских культур, 2009.

UO'K 821.512.133.09

O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA MUHOJIRLIK VA QUVG'INLIK MAVZUSI

Namazova M. U., PhD, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. *Maqolada XX asr boshi o'zbek jadid adabiyotida muhojirlik (hijrat, g'urbat) va quvg'inlik mavzusining badiiy-publitsistik talqini Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulla Avloniy asarlari hamda jadidlar hayotiga oid hujjatli dalillar asosida tadqiq etiladi. Tahlil natijasida jadid matnlarida muhojirlikning uch modeli – ma'rifiy safar va tahsil hijrati, vatan ozodligi uchun kurash bilan bog'liq siyosiy quvg'in obrazi hamda jadidlarning o'z taqdirida kechgan surgun va ayriliq tajribasi – ajratib ko'rsatiladi. Muhojirlik jadidlar uchun vatanni «tashqaridan ko'rish» va milliy o'zlikni anglash vositasi bo'lgani asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *jadid adabiyoti, muhojirlik, hijrat, quvg‘in, g‘urbat, Fitrat, Behbudiy, Avloniy, sayohatnoma, milliy o‘zlik.*

Аннотация. *В статье на материале произведений Абдурауфа Фитрата, Махмудходжи Бехбуди и Абдуллы Авлони, а также документальных свидетельств о судьбах джадидов исследуется художественно-публицистическая интерпретация темы эмиграции (хиджры, чужбины) и изгнания в узбекской джадидской литературе начала XX века. Выделены три модели эмиграции в джадидских текстах: просветительское путешествие и учебная хиджра; образ политического изгнанника, связанный с борьбой за свободу родины; опыт ссылки и разлуки в судьбах самих джадидов. Обосновывается, что эмиграция служила джадидам способом взглянуть на родину «извне» и осмыслить национальную идентичность.*

Ключевые слова: *джадидская литература, эмиграция, хиджра, изгнание, чужбина, Фитрат, Бехбуди, Авлони, путевые записки, национальная идентичность.*

Abstract. *The article examines the literary and journalistic treatment of emigration (hijra, ghurbat) and exile in early twentieth-century Uzbek Jadid literature, drawing on works by Abdurauf Fitrat, Mahmudkhoja Behbudiy and Abdulla Avloniy and on documentary evidence about the Jadids' own lives. Three models of emigration are identified: the educational journey and study abroad; the image of the political exile tied to the struggle for the homeland's freedom; and the experience of banishment and separation in the Jadids' own biographies. The article argues that emigration served the Jadids as a way of seeing the homeland "from outside" and of reflecting on national identity.*

Keywords: *Jadid literature, emigration, hijra, exile, ghurbat, Fitrat, Behbudiy, Avloniy, travelogue, national identity.*

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati maktab islohoti, matbuot va teatr bilan bir qatorda yangi adabiy mavzularni ham olib kirdi. Shulardan biri – yurtdan chiqish, g‘urbatda yashash va quvg‘inga uchrash mavzusidir. Jadidlar uchun xorij avvalo ilm va tajriba manbai bo‘lgan: ular Istanbul, Qozon, Moskva, Hindiston va Afg‘oniston bilan bevosita aloqa qilib, ko‘rgan-kechirganlarini sayohatnoma, kundalik, munozara va dramalarda aks ettirgan. 1920-yillarga kelib esa muhojirlik ixtiyoriy safardan majburiy ayriliq va surgunga aylana boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jadid adabiyoti mustaqillik yillarida tizimli o‘rganila boshlandi. B. Qosimovning «Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik» monografiyasida jadidlarning hayoti va ijodiy merosi yaxlit manzarada yoritilgan [5]. Sh. Rizayevning «Jadid dramasi» tadqiqoti jadid dramaturgiyasining shakllanishi va g‘oyaviy yo‘nalishlarini ko‘rsatib bergan [6]. I. G‘aniyev Fitrat dramalarining janr poetikasini tahlil qilib, «Hind ixtilolchilari» ham saqlanib qolgan dramalar sirasida ekanini ta’kidlaydi [10]. Jadidlarning matnlari B. Qosimov tomonidan nashrga tayyorlangan «Tanlangan asarlar» to‘plamlarida qayta nashr etilgan [2; 3].

Xorij tadqiqotchilaridan A. Xolid jadidchilikni Markaziy Osiyodagi musulmon madaniy islohoti sifatida o‘rganib, Fitratning Istanbul davri va u yerda nashr etilgan asarlariga alohida to‘xtalgan [11]; olimning keyingi kitobida 1920-yillardagi siyosiy jarayonlar va jadid ziyolilarining taqdiri yoritilgan [12]. E. Olvort o‘zbeklarning madaniy tarixini yaxlit kesimda ko‘rib chiqib, Fitrat hayoti va ijodiga oid ma’lumotlarni keltiradi [9]. Muhojirlikning nazariy talqinida E. Saidning «Reflections on Exile» to‘plami muhim: muallif quvg‘inni inson va uning vatani o‘rtasidagi tuzalmas uzilish deb biladi, ayni paytda muhojirning ikki madaniyatni bir vaqtda ko‘ra olishini «kontrapunktal» nigoh deb ataydi [13]. Zamonaviy o‘zbek nasridagi muhojir qahramon ruhiyati muallifning avvalgi monografiyasida tadqiq etilgan. Unda o‘zbek nasrida psixologik realizm taraqqiyoti to‘rt bosqichga bo‘linib, birinchi bosqich haqida shunday deyiladi: «XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Abdulla Avloniy, Mahmudxoja Behbudiy kabi ziyolilar nasriy asarlarida milliy psixologik an’analar shakllana boshladi» [4, 11-b.]. Monografiyada zamonaviy nasrning yetakchi tendensiyasi «geografik muhojirlikdan ichki muhojirlikka o‘tish» deb belgilanadi va an’anaviy tushunchada muhojir «o‘z vatanini tark etib, begona mamlakatga ko‘chib ketgan inson» ekani qayd etiladi [4, 85-b.]. Ushbu maqola shu tadrijning boshlang‘ich nuqtasi – jadid matnlariga murojaat qiladi.

Ko‘rinadiki, jadidlar hayoti va ijodi atroflicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning matnlarida muhojirlik va quvg‘inlik mavzusi alohida, yaxlit tadqiq qilinmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-biografik, qiyosiy-tipologik va germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi. Tarixiy-biografik usul yordamida adiblarning xorijdagi faoliyati va quvg‘in faktlari hujjatli manbalar bilan solishtirildi; qiyosiy-tipologik usul muhojirlik motivining turli janrlardagi (munozara, sayohatnoma, kundalik, drama) ko‘rinishlarini tasniflash imkonini berdi; germenevtik tahlil matnlardagi makon («bu yer» va «u yer») hamda «begona nigoh» poetikasini sharhlashga xizmat qildi. Tahlil uchun faqat nashr ma’lumotlari tekshirilgan manbalar olindi.

Tahlil va natijalar

1. Ma’rifiy safar va tahsil hijrati. Jadid adabiyotida muhojirlikning ilk ko‘rinishi – ilm uchun yurtdan chiqishdir. Fitrat Buxorodagi «Tarbiyai atfol» jamiyati ko‘magida Istanbulga o‘qishga borgan va u yerda Birinchi jahon urushi boshlangunga qadar tahsil olgan [11]. Istanbul davrida u fors tilida «Munozara» va «Bayonoti sayyohi hindi» (1912) asarlarini yozib, nashr ettirgan; bu kitoblar Markaziy Osiyoda keng tarqalgan, «Bayonoti sayyohi hindi»ni Behbudiy rus tiliga o‘girgan [7; 11].

Har ikki asarda vatan muammosi vatandan tashqarida turgan nigoh orqali muhokama qilinadi. «Munozara»da buxorolik mudarris bilan yevropalik kishining usuli jadid maktablari xususidagi bahsi Hindistonda kechadi; «Bayonoti sayyohi hindi»da esa Buxoro hayoti hind sayyohining ko‘zi bilan ko‘rsatiladi. Adib muhojir-talaba sifatida o‘zi boshdan kechirgan holatni badiiy usulga aylantiradi: vatanni chetdan ko‘rgan odam undagi illatlarni aniqroq ko‘radi. Bu E. Said ta’riflagan muhojirning ikki madaniyatni birdaniga ko‘rish qobiliyatiga mos keladi [13]. Demak, jadid matnida muhojirlik avvalo iztirob emas, balki tanqidiy anglash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu modelga Behbudiy va Avloniyning safar matnlari ham kiradi. Behbudiyning sayohat taassurotlari va maqolalari uning «Tanlangan asarlar»iga kiritilgan [3]. Avloniy 1919–1920-yillarda Afg‘onistonda diplomatik vazifada bo‘lgan; uning «Afg‘on sayohati» kundaliklari 1990-yilda «Sharq yulduzi» jurnalida e’lon qilingan [1; 2]. Kundalik janri muallif shaxsini voqealar markaziga qo‘yadi: begona yurtdagi har bir kuzatuv Turkiston ahvoli bilan qiyoslanadi. Masalan, 1919-yil 5-iyul kungi yozuvda adib vatan taqdirini uzoqdan turib shunday iztirob bilan eslaydi: «Oh!. Turkiston! Bu Yovrupo qonxo‘rlarining olamso‘z, otashfishon jahon muhorabalari natijasida na hola kelding?!» [16]. Safar davomidagi kuzatuvlar Avloniyning yangi hokimiyatga ishonchini ham so‘ndiradi: «Oh, na insoniyat, na barobarlik, na sotsialistik, na millat tafriq qilmaydurg‘on internasionalistlar dunyo yuzinda topilarmukin?» [15]. Birinchi iqtibosda g‘urbatdagi vatan sog‘inchi, ikkinchisida esa keyinchalik jadidlar boshiga tushgan quvg‘inning ilk sezgisi ko‘rinadi.

2. Vatan ozodligi uchun kurash va quvg‘in obrazi. 1920-yillarda Fitrat dramaturgiyasida muhojirlik mavzusi siyosiy mazmun kasb etadi. «Hind ixtilolchilari» dramasining asosiy qahramonlari – Rahimbaxsh va Dilnavoz – vatanni bosqinchilardan ozod qilishni hayotining bosh maqsadi deb biladi [8; 10]. B. Qosimov ta’kidlaganidek, «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» Hindiston xalqlarining ozodlik uchun kurashi haqida bo‘lsa-da, «aslida, bu Turkiston voqealarining xorijga ko‘chirib tasvir etilishi edi» [17]. Demak, bu yerda ham makon ko‘chiriladi: o‘z yurtidagi muammo boshqa yurt voqealari pardasi ostida beriladi. Qahramonlar uchun shaxsiy muhabbat ham vatan muhabbatidan ajralmaydi. Dilnavozning «Meni Hindistonni sevganingcha sevarmisan?» degan savoliga Rahimbaxsh «Hindistonni sevganim seni sevganim emasmi?!» deb javob beradi [17]. Rahimbaxsh qamoqdan qochib ixtilolchilarga qo‘shiladi, ya’ni o‘z uyidan, osoyishta hayotidan voz kechib, quvg‘indagi kurashchiga aylanadi; drama «Yurtimizni qutqaramiz! Yashasin istiqlol!» xitobi bilan yakunlanadi [17]. Shu tariqa quvg‘in va ayriliq qahramonlik bilan bog‘lanadi.

Dramaning taqdiri ham muhojirlik mavzusi bilan bevosita bog‘liq. Asarni Germaniyada tahsil olayotgan turkistonlik talabalar Berlinda nashr ettirgan [17]; Vadud Mahmud 1923-yilgi taqrizida qo‘lidagi besh pardalik kitobcha «yaqindag‘ina Berlinda bosilg‘on»ini qayd etadi [18]. Keyinchalik asar 1944-yilda Germaniyada «Türkistan kitabxanasi» turkumida, Milliy Turkiston qo‘mitasi qoshidagi adabiy-ilmiy bo‘lim topshirig‘i bilan, Vali Qayumxon va A. fon Gabain mas’ul muharrirligida 77 betlik kitob holida qayta nashr etilgan [8]. Vatanda esa drama muallifga qarshi dalilga aylantirildi: O. Sharafiddinovning yozishicha, «Hind ixtilolchilari»dan parchalar keltirib,

ingliz mustamlakachilari haqidagi gaplarni «bu ruslar haqida aytilgan» deyishdan toymagan odamlar bo‘lgan [19]. Bu dalillar jadid matnining yurtdan tashqarida yashagan turkistonliklar uchun ham ahamiyatli bo‘lganini, ya’ni asarning o‘zi «muhojir matn»ga aylanganini ko‘rsatadi.

3. Jadidlar taqdirida surgun va ayriliq. Muhojirlik mavzusining uchinchi qatlami adabiy matndan tashqarida – jadidlarning o‘z biografiyasida kechgan. 1922-yilda Turkistondan 70 nafar talaba Germaniyaga o‘qishga yuborilgan, ular orasida ikki qiz – Maryam Sultonmurodova va Xayriniso Majidxonova ham bo‘lgan; talabalar qaytgach, «Yevropa ta’siriga tushgan» degan ayblovlar bilan qamoqqa olina boshlangan, Xayriniso Majidxonova faqat 1999-yilda to‘la oqlangan [14]. Fitrat esa 1923-yilda Buxorodagi rahbarlik lavozimlaridan chetlatilib, Moskvaga jo‘natilgan [12]. Shu tariqa jadid uchun xorij ikki xil ma’no kasb etadi: 1910-yillarda u ma’rifat va yangilanish manbai bo‘lsa, 1920-yillarda xorijda o‘qigan bo‘lishning o‘zi ayblovga aylanadi. Avval vatanni yangilash uchun qilingan safar endi vatandan ayrilish va quvg‘in sababiga aylanadi. Quvg‘inning inson uchun og‘irligi qadimdan e’tirof etilgan: qadimiy davrlarda eng qattiq jazo sifatida quvg‘inlik tanlangan, chunki u insonni yaqinlaridan uzoqlashtirib, yolg‘izlikka mahkum etgan [4, 56-b.]. Bu fojiaviy burilish jadidlardan keyingi o‘zbek adabiyotida muhojirlik va vatan sog‘inchi mavzusining nima uchun uzoq vaqt yopiq qolganini ham izohlaydi.

Natijalar. Tahlil asosida jadid adabiyotida muhojirlikning quyidagi uch modeli aniqlandi: (1) ma’rifiy safar va tahsil hijrati – munozara, sayohatnoma va kundalik janrlarida ifodalanadi, vatan «tashqaridan» tanqidiy nigoh bilan ko‘riladi; (2) siyosiy quvg‘in va kurash modeli – dramada boshqa xalq kurashi pardasi ostida beriladi, ayriliq qahramonlik bilan bog‘lanadi; (3) jadidlarning shaxsiy surgun tajribasi – hujjatli dalillar va matnlarning keyingi nashr taqdirida aks etadi. Uchala modelda ham makon ko‘chishi va «begona nigoh» asosiy badiiy usul bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. O‘zbek jadid adabiyotida muhojirlik va quvg‘inlik mavzusi bir tekis rivojlanmagan: u ma’rifiy safar sifatida boshlanib, siyosiy kurash obraziga, so‘ngra jadidlarning o‘z taqdirida fojiaviy surgunga aylangan. Fitratning Istanbulda yozilgan «Munozara» va «Bayonoti sayyohi hindi» asarlari muhojir nigohini badiiy usulga aylantirgan bo‘lsa, «Hind ixtilolchilari» dramasida quvg‘in vatan ozodligi g‘oyasi bilan birlashadi. Avloniy kundaliklari va Behbudiy safar xotiralari bu mavzuni hujjatli-publitsistik shaklda boyitadi. Germaniyaga yuborilgan talabalar va Fitratning taqdiri esa muhojirlikning jadidlar hayotidagi real fojiasini ko‘rsatadi.

Muallifning avvalgi tadqiqotida ko‘rsatilganidek, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek asarlarida shakllangan psixologik tahlil an’analari mustaqillik davrida yangi mazmun va shakllar bilan boyidi [4, 106-b.]; jadid matnlaridagi muhojirlik tajribasi esa bu an’ananing mavzuviy ildizlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy o‘zbek nasridagi muhojir obrazini milliy adabiy an’ana bilan bog‘lab o‘rganish, shuningdek, oliy ta’limda «Jadid adabiyoti» kursini o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin. Keyingi tadqiqotlarda Cho‘lpon va boshqa jadid shoirlari lirikasida g‘urbat motivini alohida tahlil qilish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Avloniy A. Afg‘on sayohati. Kundaliklar // Sharq yulduzi. – 1990. – № 7.

2. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik / Nashrga tayyorlovchi B. Qosimov. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.

3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi B. Qosimov. – Toshkent: Ma’naviyat, 1997. – 231 b.

4. Namazova M.U. O‘zbek nasrida muhojir qahramonning ichki monologi: monografiya. – Toshkent: Ta’lim innovatsiyalari, 2026. – 120 b.

5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

6. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997.

7. Fitrat A. Bayonoti sayyohi hindi. – Istanbul, 1912.

8. Fitrat A. Hind ixtilolchilari: besh pardalik fojiali teatr / Nashrga tayyorlovchi M. Ravshan; mas’ul muharrirlar Vali Qayumxon, A. fon Gabain. – Herrosé, 1944. – 77 b. – (Türkistan kitabxanasi). – DOI: 10.25673/33417.

9. Allworth E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990.

10. Ganiev I.M. Genre Poetics of Fitrat’s Dramas // Journal for Educators, Teachers and Trainers. – 2023. – Vol. 14, № 3. – P. 45–51. – DOI: 10.47750/jett.2023.14.03.007.

11. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.

12. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. – Ithaca: Cornell University Press, 2015. – 415 p. – DOI: 10.7591/9781501701351.

13. Said E.W. Reflections on Exile and Other Essays. – Cambridge (Mass.): Harvard University Press, 2000. – 617 p.

14. Biri otilgan, ikkinchisi surgun qilingan: Germaniyada o‘qigani uchun qatag‘on qilingan o‘zbek ayollari // Kun.uz. – 2022. – 3 may. – URL: https://kun.uz/news/2022/05/03/biri-otilgan-ikkinchisi-surgun-qilingan-germaniyada-oqigani-uchun-qatagon-qilingan-ozbek-ayollari

15. Qosimov B. Abdulla Avloniy. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – (Istiqlol qahramonlari). [Iqtibos manbasi: A. Avloniy. Afg‘on sayohati, qo‘lyozma, 64-bet.]

16. Avloniy A. Afg‘on sayohati [Elektron resurs] // Xurshid Davron kutubxonasi. – 2018. – URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdulla-avloniy-afgon-sayohati.html

17. Qosimov B. Abdurauf Fitrat (1886–1938) [Elektron resurs] // Ziyouz.uz. – URL: https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-abdurauf-fitrat-1886-1938/

18. Mahmud V. «Hind ixtilolchilari». Teatr kitobi. A. Fitrat asari (1923) // Mahmud V. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi B. Karimov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.

19. Sharafiddinov O. Abdurauf Fitrat (1990) [Elektron resurs] // Ziyouz.uz. – URL: https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/ozod-sharafiddinov-abdurauf-fitrat/

UO‘K 811.111’373.7:811.512.133’373.7

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

Nasimova S. Y., assistent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand
Ibragimova D. S., assistent, ZARMED universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologiyaning nazariy asoslari, ingliz va o‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarni tasniflash tamoyillari hamda ularning semantik, strukturaviy va milliy-madaniy xususiyatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, frazeologik birlik, idioma, ekvivalentlik, qiyosiy tahlil, milliy-madaniy komponent, tarjima.*

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ фразеологических единиц английского и узбекского языков. В исследовании рассматриваются теоретические основы фразеологии, принципы классификации фразеологических единиц в английском и узбекском языкознании, а также раскрываются их семантические, структурные и национально-культурные особенности.*

Ключевые слова: *фразеология, фразеологическая единица, идиома, эквивалентность, сравнительный анализ, национально-культурный компонент, перевод.*

Abstract. *The article presents a comparative-typological analysis of phraseological units in English and Uzbek. It examines the theoretical foundations of phraseology, the principles of classifying phraseological units in English and Uzbek linguistics, and their semantic, structural and culture-specific features.*

Keywords: *phraseology, phraseological unit, idiom, equivalence, comparative analysis, national-cultural component, translation.*

Kirish. Til xalqning tarixi, turmush tarzi va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan murakkab tizimdir. Bu tizimning eng obrazli va milliy o‘ziga xos qatlamlaridan biri frazeologiyadir. frazeologik birliklar xalqning ko‘p asrlik tajribasi, qadriyatlari va tafakkur tarzini ixcham, obrazli shaklda ifodalaydi. Shu sababli ular tilshunoslik, lingvokulturologiya va tarjimashunoslikning doimiy tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida keng tarqalgan bo‘lib, O‘zbekistonda uni o‘rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ingliz tilini chuqur egallash faqat grammatika va leksikani bilish bilan cheklanmaydi; tilning idiomatik boyligini anglash ham zarur. Ingliz va o‘zbek tillari genetik jihatdan turli oilalarga mansub: ingliz tili hind-yevropa tillarining german guruhiga, o‘zbek tili esa turkiy tillar oilasiga kiradi. Shu bois ularning frazeologik tizimlarini qiyoslash ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Ingliz tili frazeologiyasini tadqiq etishda L.P. Smitning "Words and Idioms" (1925) asari muhim o‘rin tutadi. Muallif ingliz idiomalarining katta qismi oddiy xalq hayoti - dengizchilik, dehqonchilik, ovchilik va kundalik mehnat bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatib bergan. Shuningdek, J.

Seydl va V. Makmordi idiomalarni amaliy jihatdan o‘rganib, ularning ma’nosini alohida so‘zlardan keltirib chiqarib bo‘lmaydigan iboralar sifatida tavsiflagan. Ingliz frazeologiyasining nazariy jihatdan eng to‘liq tadqiqotchilaridan biri A.V. Kunindir. Olim frazeologik birlikka quyidagicha ta’rif beradi: «frazeologik birlik - to‘liq yoki qisman ko‘chma ma’no kasb etgan leksemalarning barqaror birikmasidir».

Kunin ta’rifida frazeologik birlikning ikki asosiy belgisi - barqarorlik va ma’no ko‘chishi - ajratib ko‘rsatilgan. N.N. Amosova esa "kontekstologik" yondashuvni taklif etib, frazeologik birlikni barqaror kontekst birligi sifatida talqin qiladi: unda komponentlardan birining ma’nosi faqat ma’lum birikma doirasida yuzaga chiqadi. G‘arb tilshunosligida R. Glezer va K. Fernando idiomalarni leksikalashgan, ko‘p so‘zli birliklar sifatida o‘rganib, ularning pragmatik va diskursiv vazifalariga alohida e'tibor qaratgan. O‘zbek tilshunosligida frazeologiyaning mustaqil soha sifatida shakllanishi professor Sh. Rahmatullayev nomi bilan bog‘liq. Olim frazeologik birlikni ikki va undan ortiq so‘zdan tarkib topgan, yaxlit ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan hamda nutqda tayyor holda qo‘llanadigan barqaror birikma sifatida ta’riflaydi. Sh. Rahmatullayev tuzgan "O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati" (1978) o‘zbek frazeografiyasining asosiy manbai hisoblanadi.

Yuqoridagi qarashlarni umumlashtirib, frazeologik birlikning quyidagi asosiy belgilarini ajratish mumkin:

ko‘p komponentlilik - kamida ikki so‘zdan iborat bo‘lishi;

barqarorlik -tarkibi va tuzilishining nisbatan o‘zgarmasligi;

yaxlit ma’no - umumiy ma’noning komponentlar ma’nosi yig‘indisiga teng emasligi;

qayta tiklanuvchanlik - nutqda yangidan tuzilmay, tayyor holda qo‘llanishi;

obrazlilik va ekspressivlik - baho va hissiy munosabat ifodalashi.

Semantik tasnif. V.V. Vinogradov tasnifi ingliz tili materialiga ham muvaffaqiyatli tatbiq etilgan:

Frazeologik chatishmalar - umumiy ma’no komponentlar ma’nosidan mutlaqo kelib chiqmaydigan, motivatsiyasi yo‘qolgan birliklar. Ingliz tilida: to kick the bucket ("o‘lmoq"), red tape ("byurokratiya"), to show the white feather ("qo‘rqoqlik qilmoq"). O‘zbek tilida: qulog‘iga lag‘mon ilmoq ("aldamoq"), oyog‘ini qo‘liga olmoq ("tez yugurmoq").

Frazeologik butunliklar - umumiy ma’no obraz orqali anglashiladigan, motivatsiyasi saqlangan birliklar. Ingliz tilida: to add fuel to the fire ("olovga moy sepmoq"), to be in the same boat ("bir xil ahvolda bo‘lmoq"). O‘zbek tilida: ikki qo‘lini burniga tiqib qolmoq, suv quygandek jim bo‘lmoq.

Frazeologik birikmalar - komponentlardan biri erkin, ikkinchisi bog‘liq ma’noda qo‘llanadigan birliklar. Ingliz tilida: to make a decision, to pay attention, bosom friend. O‘zbek tilida: qaror qabul qilmoq, e'tibor bermoq, jon do‘st.

A.V. Kunin frazeologik birliklarni funksiyasi va tuzilishiga ko‘ra nominativ, nominativ-kommunikativ, interyeksional va kommunikativ turlarga ajratadi. O‘zbek tilshunosligida esa Sh. Rahmatullayev frazeologizmlarni qaysi so‘z turkumiga teng kelishiga qarab tasniflaydi. Ikki tildagi asosiy turlarni quyidagicha qiyoslash mumkin:

Turi	Ingliz tilida	O‘zbek tilida
Otga teng (substantiv)	a dark horse, a white elephant	ola qarg‘a, qora mehnat
Fe’lga teng (verbal)	to burn the midnight oil, to spill the beans	tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq, qovog‘ini solmoq
Sifatga teng (adjective)	as busy as a bee, as cool as a cucumber	qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, tilla qo‘l
Ravishga teng (adverbial)	in the blink of an eye, once in a blue moon	ko‘z ochib-yumguncha, tuyaning dumi yerga tekkanda
Kommunikativ (gap shaklida)	The early bird catches the worm; Easy come, easy go	Sabr tagi — sariq oltin; Yer haydasang, kuzda hayda

Jadvaldan ko‘rinadiki, ikki tilda frazeologik birliklarning grammatik turlari asosan mos keladi. Biroq ingliz tilida fe'lli birliklar ko‘pincha to + fe'l + ot (to break the ice) qolipida, o‘zbek tilida esa ot + fe'l (muzni eritmoq) tartibida keladi. Bu farq, avvalo, ingliz tilida fe’lning to‘ldiruvchidan oldin, o‘zbek tilida esa odatda to‘ldiruvchidan keyin kelishi bilan bog‘liq.

Ikki til frazeologik birliklarini qiyoslashda asosiy mezon - ularning ma’no, obraz va shakl jihatidan bir-biriga mos kelish darajasi, ya’ni ekvivalentlikdir. A.V. Kunin frazeologik

ekvivalentlarni to‘liq va qisman ekvivalentlarga ajratadi, ekvivalenti bo‘lmagan birliklarni esa tasviriy yoki kalka usulida tarjima qilishni tavsiya etadi. Tahlil qilingan material asosida ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarini uch guruhga ajratish mumkin.

Ingliz tilida	O‘zbek tilida	Ma’nosi
to play with fire	olov bilan o‘ynamoq	xavfli ish qilmoq
to break the ice	muzni eritmoq	tortinchoqlikni yengmoq
to keep an eye on	ko‘z-quloq bo‘lmoq	kuzatib turmoq
crocodile tears	timsoh ko‘z yoshlari	soxta achinish

Keltirilgan misollarning bir qismi (crocodile tears, Achilles' heel) o‘zbek tiliga rus tili orqali kalka sifatida kirgan. Bu hol ikki til frazeologik tizimlari o‘rtasida vositachi til rolini ko‘rsatadi.

Ikkinchi tilda frazeologik mosligi bo‘lmagan birliklar ekvivalentsiz birliklar deyiladi. Ular odatda o‘ziga xos milliy realiyalar, tarixiy voqealar yoki urf-odatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ingliz tilida: to carry coals to Newcastle ("keraksiz ish qilmoq" - Nyukasl ko‘mir qazib olish markazi bo‘lgan), to send somebody to Coventry ("kimnidir boykot qilmoq"), as mad as a hatter ("butunlay aqldan ozgan"). O‘zbek tilida: to‘nini teskari kiymoq ("arazlamoq, qarshi chiqmoq"), oshini oshab, yoshini yashamoq ("to‘kin, uzoq umr ko‘rmoq"), non ursin (qasam ifodasi).

Ingliz frazeologiyasida dengizchilik bilan bog‘liq birliklar katta qatlamni tashkil etadi. Bu Angliyaning orol davlati sifatida dengiz bilan chambarchas bog‘liq tarixini aks ettiradi. O‘zbek tilida esa dehqonchilik, chorvachilik va dasturxon madaniyati bilan bog‘liq birliklar ustunlik qiladi. Xususan, non obrazi o‘zbek madaniyatida muqaddas ramz bo‘lib, non ursin, tuz-non haqqi, nonini halollab yemoq kabi birliklarda yuksak qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. — Л.: Изд-во ЛГУ, 1963. — 208 с.
2. Балли Ш. Французская стилистика. — М.: Изд-во иностранной литературы, 1961. — 394 с.
3. Fernando C. Idioms and Idiomaticity. — Oxford: Oxford University Press, 1996.
4. Gläser R. Phraseologie der englischen Sprache. — Leipzig: VEB Verlag Enzyklopädie, 1986.
5. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — М.: Высшая школа, 1990. — 253 с.
6. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. — 4-е изд. — М.: Русский язык, 1984.

UO‘K 398

XALQ DOSTONLARIDA NIKOH OLDI UDUM VA MAROSIMLARNING AKS ETISHI

S.B.Nomazova, mustaqil izlanuvchi, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq dostonlarida sovchilik davri bilan bog‘liq udum va marosimlarning badiiy talqini etnologik materiallar asosida qiyosiy tadqiq etilgan. Unda beshik kertish, bel qudalik, oyoq bog‘lash, etak yirtish, quloq tishlash kabi qadimiy udumlarning mazmun-mohiyati hamda dostonlardagi ifodasi tahlil qilinadi. Shuningdek, turli doston variantlarida mazkur marosimlarning o‘xshash va farqli jihatlari hamda hududiy-etnomadaniy xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *sovchilik, unashtirish, bel quda, beshik kertish, oyoq bog‘lash, etak yirtish, quloq tishlash, beshikdagi unashtirish, qalliq o‘yini, bo‘sh qiz, boshi ochiq, nikoh marosimlari, etnomadaniy an’ana, xalq dostoni.*

Аннотация. *В статье в сравнительном аспекте с этнологическими материалами исследуются обычаи и обряды, связанные с периодом сватовства, в узбекских народных эпосах. Анализируются содержание и художественная интерпретация таких традиционных обрядов, как обручение в колыбели, бел-кудалык, связывание ног, разрыв подола и кусание уха. Особое внимание уделяется сходствам и различиям в трактовке данных обрядов в различных вариантах эпосов, а также их региональным и этнокультурным особенностям.*

Ключевые слова: *сватовство, обручение, бел-кудалык, обручение в колыбели, связывание ног, разрыв подола, кусание уха, обряд «каллик-уйини», незамужняя девушка, необручённая девушка, свадебные обряды, этнокультурная традиция, народный эпос.*

Abstract. *This article examines customs and rituals related to matchmaking in Uzbek folk epics in comparison with ethnological materials. It analyzes traditional practices such as beshik kerti, bel quda, foot binding, skirt tearing, and ear biting, as well as their artistic representation in folk epics.*

Particular attention is paid to similarities and differences in the interpretation of these rituals across epic variants and to their regional and ethnocultural characteristics.

Key words: *matchmaking, engagement, bel quda, beshik kerti, foot binding, skirt tearing, ear biting, qalliq ceremony, unengaged girl, unmarried girl, marriage rituals, ethnocultural tradition, folk epic.*

Qashqadaryo va Surxondaryo aholisi ijtimoiy hayotida unashtirish odati qiz tomonning roziligi olingandan so‘ng bo‘g‘irsoq pishirib, uni qarindosh-urug‘ va yaqinlarga tarqatish orqali amalga oshirilgan. Buning asosiy sababi bo‘g‘irsoq qadimdan o‘zbeklar orasida serpushtlilik timsoli sifatida e’tirof etilganligi bilan izohlanadi. Shu tariqa, kelajakda unashtirilgan bolalarning ko‘p farzandli bo‘lishiga ramziy ishora qilingan [1]. Janubiy hududlarda mazkur udum amalga oshirilganidan so‘ng bo‘lajak kelin-kuyovning yaqin qarindoshlari, qo‘ni-qo‘shnilari, mahalla va qishloq ahliga qizning «boshi bog‘langanligi», ya’ni uning unashtirilganligi ma’lum qilingan [2].

Mazkur udumning yana bir ko‘rinishi «oyoq bog‘lash» deb ataladi. Unga ko‘ra, beshikdagi qizaloqning o‘ng oyog‘iga ola ip («ko‘gan») bog‘lab qo‘yilgan bo‘lib, bu uning muayyan o‘g‘il bolaga atalganligini anglatgan. Ushbu odat, birinchidan, qizaloqning bo‘lajak kuyov xonadoniga bir umrga bog‘langanligini ramziy ifodalagan bo‘lsa, ikkinchidan, uni yomon ko‘zlardan asrash vazifasini bajargan. «Ko‘gan» ip chaqaloqning chillasi («qirqi») chiqqanidan so‘ng yechib olingan va qulog‘iga sirg‘a sifatida taqib qo‘yilgan [3].

Mazkur udumlarning bir qator xalq dostonlarida ham qayd etilgani diqqatga sazovordir. Jumladan, “Tohir va Zuhra” dostonida ushbu an’analar bilan bog‘liq syujet va motivlar keng yoritilgan. Doston quyidagi an’anaviy boshlanma bilan boshlanadi: “O‘tgan zamonda, el-u yurti omonda, anavi ko‘ringan tog‘larning ortida, Samarqandning sirtida, O‘zjan yurtida Qoraxon va Sarixon deganlar o‘tdi. Qoraxon podsholik qilib, Sarixon vazirlik qilib, ikkavi do‘st bo‘lib, bir-birining gapini yerda qoldirmay, hurmat-izzat bilan, katta davlat bilan, noz-ne’mat bilan yashab, oshlarini oshab, ikkavi ham qirqdan qirq beshga qadam qo‘yib qoldilar..... Sarixon ham Qoraxonga farzand dog‘ida kuyganligini aytib, unga sabr-toqat va farzand tilaydi, “Yig‘lamang, shohim, men yig‘lay!” – deydi. So‘ng ikkisi ko‘ngillarining chigilini yozish uchun ovga chiqib ketadilar. Qoraxon Sarixonga:

Og‘zingga moy, Sarixon,
Qani endi, jo‘rajon,
Farzand ko‘rib bizlar ham
Bo‘lsak edi bearmon…[4]
– deb va’dalashadilar.

Ushbu epizod “bel quda” udumining dostoniy talqiniga misol bo‘la oladi. Ya’ni, farzandlar hali tug‘ilmasidan avval ikki oila o‘rtasida kelgusida ularni bir-biriga unashtirish to‘g‘risida kelishuvga erishiladi. Keyinchalik Tohir va Zuhra tug‘ilgach, ularni bir-biriga atab qo‘yish orqali mazkur kelishuv amaliy jihatdan mustahkamlanadi. Bu holat esa “beshik kerti” udumining mazmun-mohiyatiga mos keladi.

Shunga o‘xshash udum “Varqa bilan Gulshoh” dostonida ham uchraydi. Buni quyidagi parchadan ham ko‘rish mumkin: “Shuytib, Shoh Hasan bilan Shoh Husan Shaybon qabilasida biri podshoh, biri el og‘asi bo‘lib yashayverdi. Oydan oy, yildan yil o‘tib, Shoh Hasan bilan Shoh Husan qirqdan oshib, qarilikning isib qoldilar. Lekin shungacha na Shoh Hasanning va na Shoh Husanning xotinlari birorta ham farzand ko‘rmadilar. Kunlardan bir kun Shoh Hasan bilan Shoh Husan dunyodan befarzand o‘tib ketayotganlarini aytishib, dardlashib, “Agar xudo ikkalamizga farzand bersa, o‘g‘il bo‘lsa do‘st bo‘lib, qiz bo‘lsa dugona bo‘lib yurar edilar. Agar birovi o‘g‘il, birovi qiz bo‘lsa, ikkovimiz quda bo‘lar edik”, – deyishdilar. Shundan keyin ham oradan bir necha oylar o‘tib, Shoh Hasanning xotini Fotima bir qiz, Shoh Husanning xotini Zaynab bir o‘g‘il tug‘di. “Har ikkisining ham tug‘ilishi bir kunda bo‘ldi”, deb, Shoh Hasan bilan Shoh Husanning oldiga suyunchixo‘r yugurib kelib, bittadan ikkita otin suyunchiga olib ketdi. Oradan yetti kun o‘tgandan keyin har ikki chaqaloqni beshikka solib, Shoh Hasanning qiziga Gulshoh, Shoh Husanning o‘g‘liga Varqa deb ism qo‘ydilar. Gulshoh bilan Varqa yoshligidan bir-birlarini yaxshi ko‘rib, do‘stlashib ketaberdilar”[5].

Ushbu dostonda ham “belqudalik” marosimi qayd etilgan.

“Vomiq va Uzro” dostonida ham sovchilik bilan bog‘liq marosimlar mavjud. Chunonchi, Uzro otasi Zaydga shunday savol beradi:

Ajal yetgan banda o‘lmay qolurmi?
Farzandiga kishi jabr solurmi?
U kishi ovulim, zotim so‘radi,
Bo‘sh qizni so‘ragan ayb bo‘lurmi?
Mazgiliga yetar kim ot qistasa,
Aybmi birov sovchi qo‘ymoq istasa?

Mazkur dostonda ham “bo‘sh qiz”, “unashtirilmagan”, “boshi ochiq” ma’nosida qo‘llanilgan.

L.P.Potapovning fikricha, sovchilik odati Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida istiqomat qiluvchi qo‘ng‘irotlar orasida «etak yirtish» deb nomlangan [6]. Bunday ko‘rinishdagi unashtirish jarayonida tanish yoki ahil-inoq yashovchi ikki oila vakillaridan birining oilasida o‘g‘il va ikkinchisida qiz tug‘ilsa, ularni biri-biriga atab qo‘yishga kelishib olishgan. Bu odatni amalga oshirishda oila boshlig‘i muhim o‘rin tutgan va ikki tomondan otalar rozi bo‘lgan holda mazkur odat o‘tkazilgan. Chunki bu rozilikdan keyin ikki oiladan birida o‘g‘il, ikkinchisida qiz tug‘ilsa, ular «kelin-kuyov» deb hisoblangan. Yangi tug‘ilgan qizaloqni onasi o‘g‘il bola xonadoniga olib kelgan. Kuyovning onasi bo‘lajak kelin ko‘ylagining pastki qismini yirtib, boshiga yangi ro‘mol o‘rab qo‘ygan. Keyin o‘g‘il bolaning onasi qiz xonadoniga borgan. Qizning onasi bo‘lajak kuyov bolaning boshiga do‘ppi kiydirgan. Shundan so‘ng o‘zaro mehmondorchilik amalga oshirilgan. Agar bir tomon norozi bo‘lsa, marosim o‘tkazilmagan.

Elshunos S. Tursunovning fikricha, Surxon vohasida nikohning “bel quda”, “etak yirtish” kabi shakllari bo‘lib, “bel quda” udumida qalin oshna og‘aynilar xotinlarining homiladorlik davrida dunyoga keladigan o‘g‘il va qizlarini bir-biriga atab quyganlar. Dunyoga kelgan bu farzandlar o‘sib-o‘lg‘aygach bir-birlari bilan turmush qurishganlar. “Etak yiritish” marosimi esa, o‘rganilayotgan davrda tug‘ilgan o‘g‘il va qizni ota-onalarining kelishuvi, roziligi asosida chaqaloqni chaqaloqlik davrida unashtirish udumi bo‘lgan. O‘g‘il va qizning chaqaloqlik davrida bunday unashtirishlari Markaziy Osiyo xalqlarida ham mavjud bo‘lib, “quloq tishlash”, “beshikdagi unashtirish”, “beshik kerti” deb nomlagan [7].

«Alpomish» dostonining qozoq tili variantida Sohibjamol Boyonning otasi Qoraboy va Qo‘zining otasi Soriboy uzoq vaqt farzand ko‘rishmaganligi bois ikki o‘rtoq biri o‘g‘il va biri qiz ko‘rishsa, ularni «unashtirib» qo‘yishga kelishib olishganligi to‘g‘risidagi ma’lumotni qiyosiy tahlil sifatida keltirish mumkin [8]. Bu o‘rinda bolani tug‘ilguniga qadar atab qo‘yish odatining dostonlardagi talqiniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning ayrimlarida bu odatning tartib qoidalari buzilgan holatlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, O‘rta Osiyo, Kaspiy orti va Yaqin Sharqda mavjud bo‘lgan «Oshiq va g‘arib» dostonining turkman variantida, (bizda «Shohsanam va g‘arib») va «Qo‘zi Ko‘rpesh», «Tohir va Zuhra» dostonlarida ko‘plab uchraydi [9]. Ayniqsa, «Oshiq g‘arib», «Tohir va Zuhra» dostonlarida vazirning o‘limi tufayli shoh o‘z va’dasidan qaytsa, «Qo‘zi Ko‘rpesh» dostonida farzandlar darvesh-homiylarsiz unashtirib qo‘yilsa-da, Sariboyning o‘limi tufayli bu ahd buzilishi ma’lumotlari keltiriladi [10].

Yoshligida «beshikkerti» qilinib, vaqt o‘tishi bilan qiz yoki o‘g‘ilning birortasi vafot etsa, yigitning boshqa qizga uylanishi yoki qizning boshqa yigitga turmushga chiqishi uchun «beshikkerti» qilingan har ikki oila a’zolari bir-biri bilan kelishgan holda, ya’ni hurmat nuqtai nazaridan bir-birining oldilaridan o‘tishgan [11]. Mazkur holatlarda «beshikkerti» bekor qilingan. Biz yuqorida «beshikkerti» odatini patriarxal urug‘chilik davriga bog‘lagan edik. Chunki dostondagi etnografik ma’lumotlarni tarixiy-etnologik asosda tadqiq etish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bu odatning o‘tkazilishi va bekor bo‘lishi kabi tartib qoidalar asosan, oila boshlig‘i - ota bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi.

“Alpomish” dostonida sovchilarning qizning uyiga kelgandan keyingi holati shunday tasvirlangan: “Mehmonlar ko‘rishib o‘tirdi. Boybicha mehmonlarga osh taraddud qildi, ziyofatga palov pishirib, damlab: “Endi mehmonlar bilan gaplashib o‘tirayin”,– deb boybicha ham kelib o‘tirdi.

U yoqdan, bu yoqdan gap tashlashib, besh-to‘rt og‘iz gap boshlashib, shunda kampir boybichaga qarab, Shu qizingizning boshi bo‘shmi, deb so‘rab turgan edi:

Qozonda qaynagan shirboz to‘shmidi,
Shu qizingning agar boshi bo‘shmidi?
Boshi bo‘shmi deyin, sendan so‘rayin,
Kelin qilib biror ro‘mol o‘rayin…[12]

Bu so‘zlarni eshitgan Barchinning onasi qizining boshi bo‘sh emasligini, uni domot bobosining o‘g‘liga atashtirib qo‘yganini aytadi. Olti oylik yo‘ldan Alpomish kelib elga qirg‘in-barot solishini aytadi. Qalmoqlar Hakimbekka bas kelolmasligini aytadi. Biroq kampir aslo bo‘sh kelmay Barchinning onasi bilan urishib-janjallashib ham oladi. Oldiga qo‘ygan oshini yeb ham shashtidan tushmaydi. Aksincha, Qorajonning oldiga borib ko‘rganlarining teskarisini aytadi. Buni dostonchi shunday tasvirlaydi:

“Qarasa, enasi kelyapti, enasini ko‘rib, Qorajon: – Qalay, qalay, ena? Bo‘ri bo‘lib kelyapsanmi, tulki bo‘lib kelyapsanmi? – dedi. Enasi aytdi: – Men borgan yerda ham tulki bo‘lamanmi, bo‘ri bo‘lib kelayotibman, seni uylantirib, bu ko‘ylaklarni quda-andalikka kiyib kelayotibman.

Qorajon aytdi:”Enam bizni ko‘rganli yerdan uylantiribdi. Enamning bosh-oyoq sarposini qilib yuboribdi”, – Ena, bo‘ri bo‘lgandan gapir, – deb turibdi. Qilgan ishini bildirib kampir Qorajonga qarab, bir so‘z deyapti:

Quloq solgin menday enang tiliga,
Oraladim musofir mazgiliga.
Mehmon bo‘ldim Boysariboy uyiga.
Nazar qilib mazgiliga qaradim,
Kelin qilayin deb avval so‘radim.
Boysarining yaxshi qizi bor ekan,
Oti Barchin, o‘zi zulfakdor ekan,
Bir necha ko‘rmoqqa intizor ekan..... [13]

Ushbu parchada ham bo‘lajak kelinning boshi bog‘langan-bog‘lanmaganligi, boshiga ro‘mol o‘rash kabi marosimlar bilan bir qatorda qalliq o‘yini marosimi haqida ham so‘z yuritiladi. Odatda sovchilar qizni unashtirib, boshini bog‘lab kelgandan so‘ng “qalliq o‘yini” marosimi o‘tkaziladi. Bunda kuyov kelinning uyiga borib qiz bilan uchrashadi. Dostonda xalqimizning ana shu qadimiy udumi haqida fikr yuritilgan.

Turkiy xalqlarning sovchilik bilan bog‘liq udumlarining qizg‘in va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgani sinovchilik odatlaridir. Qo‘shni xalqlardan farqlovchi jihati hamda, hozirgacha mustahkam saqlangan udumlardan biri sovchilar ko‘proq qizni sinovdan o‘tkazishga jiddiy bel bog‘lashadi. Ayol sovchilar kelganda qiz ya’ni, bo‘lg‘usi kelin o‘zi tugib pishirgan chuchvarani dasturxonga olib kelishi kerak. Bu ishni yaxshi bajarishlari ko‘p jihatdan oila sha’ni hisoblangan. Shu bois, qizlarga yoshligidan jimjaloqda chuchvara tugish o‘rgatilgan. Chuchvarani ko‘rib sovchilar qizning pazandaligi, ziyrak va chaqqonligi-yu, ro‘zg‘orni uddalab ketishiga baho berishgan. Sovchilikda qizning onasiga ko‘proq e’tibor berilgan, ayniqsa, onaning qanday tarbiya berganligi qizning odob va ahloqida sezilgan. Qiz sinovidan so‘ng, o‘z navbatida kuyovni ham sinovdan o‘tkazish odati boshlangan. Ko‘plab sharq xalqlarida kuyov yigitni sinab ko‘rish odati ma’lum. Unda asosan yigitning kasb-kori, to‘rt muchchasining butligi e’tiborga olingan. Ammo, uyg‘urlar kuyovni ham qiz kabi sinovdan o‘tgazishni qo‘llab-quvvatlatlab an’anaga aylantirgan.

Turkiy xalqlar odatlariga ko‘ra sovchilik ishlari avval oilaning erkaklari tomonidan boshlangan. Hozirda voha va vodiy hududlarida yashab kelayotgan turkiy, jumladan, o‘zbek etnosi maishiy turmushida sovchilik bilan bog‘liq ishlarga erkaklar bosh bo‘lishi kuzatiladi. Dastlab, sovchilar xonadon egalari, ota yoki erkak kishilar bir-biri bilan o‘zaro til topishsa, keyin ayollarning kelishiga ruxsat beriladi. Agar, qiz tomonga bo‘lg‘usi qudalar va kuyov ma’qul kelsa, albatta ular kelgan sovchilarga non, shirinlik, dastro‘mol yoki boshqa narsalar beradi, umuman quruq qaytarishmaydi. Bu, albatta rozilik belgisi deb qabul qilingan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, qadimda turkiy xalqlarda yigitlar qalliqni o‘zlari topgan. Milliy va qadimiy udumlarga ko‘ra bo‘lajak turmush o‘rtog‘ini tanlash yigit uchun g‘urur

hisoblangan. Sovchilar borganda ham birinchi bo‘lib, ... “bizning o‘g‘limizga sizning qizingiz ma’qul” deb aytishgan. Bu ishora, ya’ni yigitning ziyrakligi, mas’uliyatidan belgi [14]. Ba’zi joylarda yigitning o‘zi qizni yoqtirib qolsa uning hovlisini supirishga borgan. Agar, yigit qizga ma’qul kelganda dastro‘mol berib rozichilik bildirgan.

Xulosa shuki, turkiy xalqlar sovchilik udumlarini ikkiga va hatto, gender bo‘yicha ham toifalash mumkin. Xususan, ko‘plab xalqlarda sovchilik hamda u bilan bog‘liq ishlar ayollarning vazifasiga kirgan bo‘lsada, bu ishlar erkaklar nazorati ostida bajarilgan. Masalan, o‘zbek xalq odatlarga ko‘ra sovchi ayollardan tayinlanadi, hamda ularning faolligi va ziyrakligi bilan bo‘lg‘usi kelin tanlanadi. Ammo, uyg‘ur odatlari boshqacha, sovchilikka erkaklar boradi. Bo‘lg‘usi qarindoshlar, qudalar va hatto, kelin ham avval otaga ma’qul kelishi, ikki tomon erkaklarining o‘zaro “til topishish” lari juda katta ahamiyatga ega. Nazarimizda bu odat ya’ni ota yoki oila erkaklarining sovchi bo‘lishi turkiylarda oila shaklining patriarxal tipiga mansubligini va uning elementlari saqlanganligidan dalolat beradi. Umuman yangi oilani tashkil etish, yoki oilaga yangi bir a’zoni qabul qilish jiddiy masala, shu bois ham oila rahbari bo‘lgan otalar bu ishlarga ma’sul hisoblanib, bu kabi odatlar xalq dostonlarida ham o‘z aksini topgan. Xalq dostonlarining ommalashgan variantlarida nikoh marosimlari tarkibiga kiruvchi sovchilik davri bilan bog‘liq «unashtirish» odati turli ko‘rinishda aks etadi. Bu holatni baxshi yashab ijod etayotgan hudud aholisi nikoh marosimlarining lokal xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Горшунова О.В. Идея двух начал в культе плодородия у народов Средней Азии // Среднеазиатской этнографический сборник. - М.: 2001. – С. 228.
2. Дала ёзувлари. Деҳқонобод тумани Хўжамаҳмуд қишлоғи. 2024 йил.
3. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти, Қамаши тумани. 2024 йил.
4. Tohir va Zuhra. T., 1974, 12-bet.
5. Varqa bilan Gulshoh. T., 1974, 127-128-betlar.
6. Потапов Л. Материалы по семейно-родовому строю у узбеков-кунград. – С. 48-49.
7. Турсунов С. Сурхондарё этнографияси. – Т., “Тафаккур”, 2020. – Б. 142.
8. Малик Габдуллин, Фольклор казахского народа, Алма-Ата, 1958. – С. 260-282.
9. Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. - С. 293.
10. «Шасенем и Гариб», пер. Н.Мухиной и Г. Шенгили, - М., Гослитиздат, 1946. - С. 3-4.
11. Кармышева Б.Х., Васильев Г.П. Этнографические очерки узбекского сельского населения… - С. 227
12. Alpomish. T., 1979, 37-38-bet.
13. Alpomish. T., 1979, - Б. 41-42.
14. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Чироқчи, Қамаши ва Ғузор туманлари. 2024 йил

UO‘K 39:316.7

BRONISLAV MALINOVSKIY FUNKSIONALIZMI VA O‘ZBEK ETNOLOGIYASI: MADANIYATNI YAXLIT TIZIM SIFATIDA O‘RGANISH

P.P.Norbutayev, tarix fanlari doktori, professor, Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Maqolada Bronislav Malinovskiyning ijtimoiy antropologiya va etnologiya rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Uning funksionalizm konsepsiyasi, dala tadqiqotlari metodologiyasi, madaniy institutlar va inson ehtiyojlari o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi qarashlari yoritiladi. Malinovskiy yondashuvining o‘zbek etnologiyasida oila, qarindoshlik, mahalla, marosim va urf-odatlarni o‘rganishdagi metodologik ahamiyati ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *Malinovskiy, ijtimoiy antropologiya, etnologiya, funksionalizm, dala tadqiqotlari, madaniyat, institut, qarindoshlik, marosim, o‘zbek etnologiyasi.*

Аннотация. *В статье анализируется вклад Бронислава Малиновского в развитие социальной антропологии и этнологии. Рассматриваются его функционалистская концепция культуры, методология полевых исследований и теория культурных институтов. Обосновывается значение его подхода для изучения семьи, родства, махалли, обрядов и обычаев узбекского народа.*

Ключевые слова: *Малиновский, социальная антропология, этнология, функционализм, полевые исследования, культура, родство, обряды, узбекская этнология.*

Abstract. *The article examines Bronislaw Malinowski’s contribution to social anthropology and ethnology. It focuses on his functionalist concept of culture, fieldwork methodology, and theory of cultural institutions. The methodological significance of his approach for studying Uzbek family, kinship, mahalla, rituals, and customs is demonstrated.*

Key words: *Malinowski, social anthropology, ethnology, functionalism, fieldwork, culture, kinship, rituals, Uzbek ethnology.*

Ijtimoiy antropologiyaning mustaqil ilmiy fan sifatida shakllanishi britan olimi, kelib chiqishi polyak bo‘lgan Bronislav Kaspar Malinovskiy (1884–1942) nomi bilan chambarchas bog‘liq. U Alfred Rejinald Redkliff-Braun bilan bir qatorda zamonaviy ijtimoiy antropologiya asoschilaridan biri hisoblanadi. Malinovskiy o‘z ilmiy konsepsiyasini XX asr boshlarida shakllangan funksionalizm yo‘nalishi asosida ishlab chiqdi.



Malinovskiy madaniyatni alohida elementlarga ajratib emas, balki yagona va o‘zaro bog‘liq tizim sifatida o‘rganishga e’tibor qaratdi. Uning asosiy maqsadi madaniyatning amal qilish mexanizmini, inson ehtiyojlari, psixologik jarayonlari va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi aloqani aniqlashdan iborat edi. Mazkur yondashuv o‘zbek etnologiyasi uchun ham muhim bo‘lib, oila, qarindoshlik, mahalla, marosimlar, mehnat, hunarmandchilik, diniy tasavvurlar va folklorni o‘zaro bog‘liq ijtimoiy-madaniy tizim sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Malinovskiy ilmiy ishlarida intensiv dala tadqiqotlariga tayandi. U ilmiy gipotezalar va nazariy xulosalar real dala materiallari asosida shakllanishi kerakligini ta’kidladi: «Bu nazariya, — deb yozadi Malinovskiy, — nafaqat faktlarni o‘ziga xos tarzda ko‘rib chiqishga, balki, birinchi navbatda, tadqiqotchini kuzatishning yangi turlariga yo‘naltiradi. Demak, bu nazariya dala tadqiqotlaridan boshlanadi va yana unga qaytib boradi» [1, s. XXXVI].

Malinovskiyning Trobriand orollaridagi uzoq muddatli dala tadqiqotlari etnografiya metodologiyasining rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. U bevosita va ishtirokchi kuzatuv, mahalliy tilni o‘rganish, kundalik hayotni kuzatish hamda madaniy hodisalarni yaxlit ijtimoiy kontekstda tahlil qilish tamoyillarini rivojlantirdi. Tadqiqotchi nafaqat mavjud nazariyalarni bilishi, balki muammolarni mustaqil shakllantirishi va «aniq dalillar asosida materialni statistik hujjatlash metodi»dan foydalanishi lozim edi [1, s. 39].

Dala tadqiqotlari davomida mahalliy urf-odatlar, xulq-atvor me’yorlari, qarindoshlik atamalari, genealogiyalar, xo‘jalik faoliyati, sovg‘alar, xaritalar va boshqa etnografik ma’lumotlar tizimli ravishda qayd etildi. Malinovskiy inson hayotining so‘rov orqali aniqlash qiyin bo‘lgan jihatlarini ham bevosita kuzatish zarurligini ta’kidlab, kundalik hayotning ana shu nozik tomonlarini «real hayotning imponderabiliyalari» deb atagan [1, s. 41—42].

Mazkur metod o‘zbek etnologiyasida ham samarali qo‘llanishi mumkin. Xususan, nikoh, beshik to‘yi, sunnat to‘yi, motam marosimlari va mahalla hayotini o‘rganishda faqat rasmiy qoidalarni emas, balki ishtirokchilarning xatti-harakatlari, munosabatlari, o‘zaro yordami va ramziy harakatlarini ham bevosita kuzatish muhimdir.

Malinovskiy funksionalizmining markazida madaniyat va funksiya tushunchalari turadi. Olim madaniyatni inson hayotidan ajralmaydigan, o‘zaro bog‘langan va muayyan vazifalarni bajaradigan yaxlit tizim sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, «Madaniyat — har bir qismi muayyan maqsadga erishish vositasi sifatida mavjud bo‘lgan predmetlar, harakatlar va munosabatlar tizimidir». «U har doim insonlarni ehtiyojlarini qondirishga olib boradi» [2, s. 155].

Shu nuqtai nazardan, o‘zbek an’anaviy madaniyatidagi oila, mahalla, qarindoshlik, hashar, to‘y va motam marosimlari, hunarmandchilik va mehmondo‘stlikni muayyan ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi madaniy institutlar sifatida tadqiq etish mumkin. Malinovskiy ta’kidlaganidek, «agar madaniyatning mazkur konsepsiyasi to‘g‘ri bo‘lsa, madaniyatning barcha elementlari harakat qilishi, faoliyat ko‘rsatishi, ta’sirchan va samarali bo‘lishi kerak. Madaniyat elementlari va ularning o‘zaro

munosabatlarining bunday (...) dinamik xususiyati etnografiyaning eng muhim vazifasi madaniyat funksiyasini tadqiq etishdan iborat, degan fikrga olib keladi» [3, s. 11].

Malinovskiyning madaniyat konsepsiyasi institut haqidagi qarashlari bilan bog‘liq. Uning fikricha, institutlar madaniyatning real va nisbatan barqaror tarkibiy birliklari bo‘lib, inson faoliyatining tashkillashgan tizimlarini ifodalaydi [2]. Institut birgalikdagi faoliyatni amalga oshiruvchi guruhni ham, inson faoliyatining tashkillashgan tizimini ham anglatadi. U muayyan muhit, moddiy vositalar, bilimlar, me’yorlar, qadriyatlar va e’tiqodlar asosida faoliyat yuritadi.



O‘zbek etnologiyasida mahalla bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Mahalla hududiy birlik bo‘lish bilan birga, o‘zaro yordam, qo‘shnichilik, marosimlarni tashkil etish va ijtimoiy nazorat kabi vazifalarni bajaruvchi ijtimoiy-madaniy institutdir. Shu sababli uning faoliyatini alohida urf-odatlar emas, balki yagona ijtimoiy tizimdagi funksiyalari orqali tahlil qilish mumkin.

Malinovskiy funksionalizmining mashhur namunalaridan biri Trobriand orollaridagi «Kula» almashinuvi institutini o‘rganishidir. Kula xo‘jalik, savdo, qarindoshlik, ijtimoiy tashkilot, marosim, magiya va mifologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning mazmuni faqat yaxlit madaniy tizim doirasida to‘liq namoyon bo‘ladi.



Ushbu yondashuv o‘zbek etnologiyasida ham sovg‘a berish, quda-andachilik, qarindoshlar o‘rtasidagi o‘zaro yordam, to‘y marosimlari va hashar kabi hodisalarni iqtisodiy, ijtimoiy, axloqiy va ramziy munosabatlarni birlashtiruvchi tizim sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Malinovskiy madaniyatni inson ehtiyojlarini qondirish mexanizmi sifatida ham talqin qilgan. Uning fikricha, inson biologik mavjudot bo‘lishi bilan birga ijtimoiy va madaniy mavjudot hamdir. «Antropologik nazariya inson taraqqiyotining barcha bosqichlaridagi antropologik faktlarni ularning funksiyasi, madaniyatning integrativ tizimida bajaradigan roli, madaniyat tizimidagi o‘rni, ushbu tizimda o‘zaro aloqalar orqali saqlanish usuli va ushbu tizimning tashqi jismoniy muhit bilan aloqasini tahlil qilish orqali tushuntirishga intiladi» (sit. po [4, s. 361]).

Malinovskiyga ko‘ra, insonning biologik ehtiyojlari madaniyat vositasida qondiriladi va shu sababli bir xil ehtiyoj turli jamiyatlarda turlicha shaklda namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv o‘zbek etnologiyasida mehmondo‘stlikni ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi, hasharni jamoaviy hamkorlikni ta’minlovchi, to‘y marosimlarini esa qarindoshlik, ijtimoiy maqom va iqtisodiy munosabatlarni birlashtiruvchi institut sifatida o‘rganishga imkon beradi.

Umuman, Malinovskiyning ilmiy merosi o‘zbek etnologiyasi uchun madaniyatni yaxlit tizim sifatida o‘rganish, dala tadqiqotlarini kuchaytirish, ishtirokchi kuzatuvdan foydalanish, mahalliy til va terminologiyani tahlil qilish hamda etnografik faktlarning ijtimoiy funksiyasini aniqlash nuqtai nazaridan muhimdir. Oila, qarindoshlik, mahalla, marosimlar, hunarmandchilik, mehmondo‘stlik, urf-odatlar va folklorni o‘zaro funksional aloqada o‘rganish milliy madaniyatning ichki mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Bronislav Malinovskiy madaniyatni o‘zaro bog‘langan va funksional tizim sifatida o‘rganish tamoyilini asoslab, dala metodini ijtimoiy antropologiyaning markaziy usullaridan biriga aylantirdi. Uning madaniyat, institut, funksiya va ehtiyojlar haqidagi qarashlari bugungi etnologik tadqiqotlar uchun ham metodologik ahamiyatga ega. Ayniqsa, o‘zbek xalqining an’anaviy va zamonaviy madaniyatini o‘rganishda Malinovskiy yondashuvi madaniy hodisalarning nafaqat shakli, balki ularning ijtimoiy vazifasi va o‘zaro aloqadorligini ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Malinowski B. Zycie seksualne dzikich, Specjalna przedmowa. Warszawa, 1938.
2. Malinowski B. Naukowa teoria kultury // Szkice z teorii kultury. Warszawa, 1958. C. 40 — 51.
3. Malinowski B. Kultura // Wybor pism в: A. K. Paluch. Malinowski. Warszawa, 1981.
4. Waligorski A. Antropologiczna koncepcja czlowieka. Warszawa, 1973.

UDC 81'42

THE ROLE OF CONTEXT IN INTERPRETING COMPLAINT AND DISAGREEMENT SPEECH ACTS

Norinboyeva R. R., Master's student, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida norozilik hamda e'tiroz bildirish nutqiy aktlarini talqin qilishda kontekstning o'rni lingvopragmatik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bir xil yoki o'xshash lingvistik birliklarning turli kommunikativ vaziyatlarda qanday pragmatik ma'nolarni ifodalashini aniqlashdan iborat. Tahlil davomida lingvistik, ijtimoiy, vaziyatga oid va madaniy kontekstlarning norozilik hamda e'tiroz aktlarini shakllantirish va talqin qilishga ta'siri ko'rib chiqiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, nutqiy aktning pragmatik ma'nosi faqat ishlatilgan so'zlar orqali emas, balki suhbatdoshlarning o'zaro munosabati, kommunikativ maqsadi, ijtimoiy mavqeyi va muloqot sharoiti orqali ham belgilanadi. Ingliz va o'zbek tillari misolida kontekstning norozilik va e'tiroz ifodalarini tushunishdagi ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *kontekst, nutqiy aktlar, norozilik bildirish, e'tiroz bildirish, pragmatika, kommunikativ vaziyat, ingliz tili, o'zbek tili.*

Аннотация. *В данной статье с лингвопрагматической точки зрения исследуется роль контекста в интерпретации речевых актов жалобы и несогласия в английском и узбекском языках. Основная цель исследования заключается в определении того, как одинаковые или сходные языковые выражения приобретают различные прагматические значения в зависимости от коммуникативной ситуации. Рассматривается влияние лингвистического, социального, ситуативного и культурного контекстов на формирование и интерпретацию жалоб и выражений несогласия. Результаты показывают, что прагматическое значение речевого акта определяется не только используемыми языковыми средствами, но и отношениями между собеседниками, их коммуникативными намерениями, социальным статусом и условиями общения. На примерах английского и узбекского языков раскрывается значение контекста для понимания речевых актов жалобы и несогласия.*

Ключевые слова: *контекст, речевые акты, выражение жалобы, выражение несогласия, прагматика, коммуникативная ситуация, английский язык, узбекский язык.*

Abstract. *This article explores the role of context in interpreting complaint and disagreement speech acts in English and Uzbek from a linguopragmatic perspective. The main purpose of the study is to examine how similar linguistic expressions may convey different pragmatic meanings depending on the communicative situation. Particular attention is given to linguistic, social, situational, and cultural contexts and their influence on the interpretation of complaints and disagreements. The analysis demonstrates that the pragmatic meaning of an utterance is determined not only by its linguistic structure but also by the relationship between speakers, their communicative intentions, social positions, and the circumstances of interaction. By examining examples from English and Uzbek, the study highlights the importance of contextual factors in understanding complaint and disagreement speech acts.*

Keywords: *context, speech acts, complaints, disagreement, pragmatics, communicative situation, English, Uzbek.*

Introduction. Language is not only a means of exchanging information but also a way of expressing intentions, emotions, attitudes, and relationships. In everyday communication, speakers use language to show dissatisfaction, criticize situations, or disagree with others. Yet the same sentence may function as a complaint in one situation, a mild disagreement in another, or a neutral observation in a different context. Therefore, context is essential to pragmatic interpretation.

Speech act theory provides the foundation for examining language as action. Austin (1962) argues that utterances do not merely communicate information; they also perform actions. Searle (1969) further develops this approach by formulating the conditions under which speech acts are performed. Complaints express dissatisfaction, whereas disagreements reject opinions or challenge statements. Their intended meanings depend on context. Levinson (1983) emphasizes the relationship between linguistic expressions and the circumstances in which they occur, while Gumperz (1982) highlights the role of contextualization in interaction.

Previous studies have explored speech acts, politeness, and pragmatic meaning, and Trosborg (1995) examines complaints in interlanguage pragmatics. Brown and Levinson (1987) explain how speakers use politeness strategies to manage face-threatening acts. This is relevant because complaints and disagreements may affect an interlocutor's social image or feelings. However, interpreting these acts also requires attention to the relationship between linguistic forms and contextual factors, especially in cross-linguistic research.

The purpose of this article is to investigate how linguistic, situational, social, and cultural contexts influence the interpretation of complaint and disagreement speech acts in English and Uzbek. The analysis first considers linguistic context, or the words and conversational elements surrounding an utterance. For example, in the constructed examples below, "You are late again" can perform different functions depending on what has been said before it.

Example 1: Complaint. Speaker A: "I have been waiting for forty minutes."

Speaker B: "I'm sorry." Speaker A: "You are late again."

In this exchange, the speaker expresses dissatisfaction with the listener's repeated lateness. The utterance therefore functions as a complaint.

Example 2: Neutral observation

Speaker A: "The meeting started at 10:00."

Speaker B: "I arrived at 10:15."

Speaker A: "You are late again." In this case, "You are late again" merely records the listener's arrival time in an attendance check, though it may imply criticism elsewhere. A similar Uzbek example is "Yana kech qoldingiz." When preceded by "Men sizni ancha vaqtdan beri kutyapman" ("I have been waiting for you for a long time"), it clearly conveys dissatisfaction. Thus, surrounding linguistic information helps determine an utterance's pragmatic function.

The Influence of Situational Context. Situational context includes the physical and communicative circumstances in which an utterance occurs. The setting, purpose of communication, and seriousness of the issue can shape the interpretation of complaints and disagreements. Consider "That's not acceptable." In a workplace discussion, an employee may use it to reject a proposed decision: Manager: "We will change the working schedule without informing the employees." Employee: "That's not acceptable." Here, it expresses disagreement. In a service interaction, however, it may function as a complaint: Customer: "I ordered this product two weeks ago, but it has still not arrived." Employee: "I understand." Customer: "That's not acceptable." In this exchange, the customer expresses dissatisfaction with the service. The Uzbek expression "Bu qabul qilib bo'lmaydigan holat" may similarly indicate disagreement with a decision or dissatisfaction with a service, depending on the situation.

In English, speakers often mitigate disagreement with expressions such as "I see your point, but..." or "I'm not sure that's quite right." In Uzbek, speakers may use expressions such as "Fikringizni tushunaman, ammo...", "Menimcha, bu masalaga boshqacha qarash kerak", and "Balki, boshqa tomondan ham ko'rib chiqishimiz kerakdir." These expressions can soften disagreement through respectful and indirect language. Social and cultural factors, such as age, status, familiarity, and norms of respect, influence whether a complaint or disagreement is voiced openly or softened. However, it would be inaccurate to assume that all English speakers prefer direct communication or that all Uzbek speakers avoid direct disagreement. Individual preferences, communicative purposes, social relationships, and particular situations influence choices in both languages.

Conclusion. The distinction between complaints and disagreements cannot always be identified from an isolated sentence. A complaint generally expresses dissatisfaction with a situation, action, or

behaviour, whereas disagreement presents an opposing position or rejects another person's opinion. The two functions may overlap: disagreement with a proposed decision can also communicate dissatisfaction with it. Consequently, pragmatic interpretation requires the combined consideration of linguistic, situational, social, and cultural factors. This is particularly important in comparative research, since English and Uzbek expressions should not be interpreted only through their literal meanings.

REFERENCES:

1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press.
2. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Gumperz, J. J. (1982). Discourse Strategies. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press.

UO'K 821.512.133.09

ABDULLA QAHHORNING XARAKTER YARATISH MAHORATI

Norkulova Sh. T., PhD, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Maqolada XX asr o'zbek nasrining peshqadam vakillaridan biri A. Qahhor ijodidagi xarakter yaratish mahorati nazariy va amaliy jihatlardan tahlil qilingan. Adibning "Sarob" romani, "Sinchalak" va "O'tmishdan ertaklar" qissalari, "Bemor", "O'g'ri", "Anor", "Dahshat", "Ming bir jon" kabi hikoyalari hamda dramatik asarlaridagi obrazlar tizimi tahlil predmeti sifatida tanlangan.*

Kalit so'zlar: *Abdulla Qahhor, xarakter, badiiy obraz, psixologik tahlil, realistik nasr, lakonizm, detal, ichki monolog, badiiy uslub, o'zbek hikoyasi maktabi.*

Аннотация. *В статье в теоретическом и практическом аспектах анализируется мастерство создания характеров в творчестве Абдуллы Каххара (1907–1968) — одного из ведущих представителей узбекской прозы XX века. В качестве предмета анализа выбраны роман «Мираж» («Sarob»), повести «Синчалак» и «Сказки из прошлого», рассказы «Больной», «Вор», «Гранат», «Ужас», «Тысяча и одна душа» и драматические произведения.*

Ключевые слова: *Абдулла Каххар, характер, художественный образ, психологический анализ, реалистическая проза, лаконизм, деталь, внутренний монолог, художественный стиль, узбекская школа рассказа.*

Abstract. *The article presents a theoretical and practical analysis of the character-creation mastery in the works of Abdulla Qahhor (1907–1968), one of the leading representatives of 20th-century Uzbek prose. The novel "Sarob" (Mirage), the novellas "Sinchalak" and "Tales from the Past", the short stories "The Sick One", "The Thief", "Pomegranate", "Horror", "A Thousand and One Souls", as well as the writer's dramatic works are chosen as the subject of analysis.*

Keywords: *Abdulla Qahhor, character, artistic image, psychological analysis, realistic prose, laconism, detail, inner monologue, artistic style, Uzbek school of short story.*

Kirish. XX asr o'zbek nasrining shakllanishi va taraqqiyotida Abdulla Qahhor (1907–1968) ijodi tarixiy bosqichni belgilaydi. Adib o'zbek hikoyachiligida realistik psixologizm asoslarini mustahkamlagan, ko'p mahsuldor publitsist va tanqidchi sifatida tan olingan ijodkordir. Uning qissalari, hikoyalari va dramalari milliy adabiyotda nafaqat mavzu va g'oya jihatidan, balki badiiy mahorat darajasi bo'yicha ham yetuk namuna sifatida o'rin tutadi.

Mavzuning dolzarbligi shu bilan asoslanadiki, Qahhor ijodi misolida nasriy obraz yaratish texnikasi, xarakterning psixologik chuqurligini ifodalashning badiiy vositalari hozirgacha har tomonlama o'rganib bo'lingan emas. Adabiyotshunoslikda alohida tadqiqotlar adibning umumiy ijodiy yo'liga, til xususiyatlariga, ayrim asarlar talqiniga bag'ishlangan bo'lsa-da, xarakter yaratish mahoratini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqadigan ishlar yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi — Abdulla Qahhor ijodida xarakter yaratish mahoratining nazariy asoslari va amaliy ko'rinishlarini konkret asarlar tahlili orqali ochib berish, adib qo'llagan badiiy

vositalar tizimini ilmiy asoslab berishdir. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: a) xarakter tushunchasining adabiyot nazariyasidagi mohiyatini aniqlash; b) Qahhorning xarakter yaratish uslubidagi o‘ziga xos jihatlarni belgilash; d) konkret asarlar misolida bu uslubning amaliy namoyon bo‘lishini tahlil qilish; e) adib ijodining keyingi avlod ijodkorlariga ta’sirini baholash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abdulla Qahhor ijodini tadqiq etish bo‘yicha o‘zbek adabiyotshunosligida qator asarlar maydonga kelgan. Ozod Sharafiddinov o‘zining “Abdulla Qahhor” monografiyasida adib hayoti va ijodiy taqdiri, badiiy mahoratining tadrijiy rivoji haqida tahliliy fikr yuritgan. Umarali Normatovning “Qahhor mahorati”, “Yetuklik” kabi ishlarida adibning hikoyachilik san’ati o‘ziga xos kontekstda yoritilgan. Naim Karimov esa adib ijodini XX asr boshlari adabiy jarayoni bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi.

Matyoqub Qo‘shjonov, Hamid Olimjon, Pirimqul Qodirov, Sarvar Azimov, Hotam Umurov singari olimlar Qahhor ijodining turli qirralarini tadqiq etganlar. M. Qo‘shjonovning “Mahorat sirlari” nomli risolasi adib lakonik uslubining estetik asoslarini tahlilga tortadi. Ammo xarakter yaratishning konkret texnikasi — detal-belgi qo‘llash, dialog poetikasi, ichki monolog vositasidagi psixologizatsiya — yaxlit tizim sifatida hali ham yangicha yondashuvni talab qiladi. Mazkur maqolada aynan shu yo‘nalishda izlanish olib boriladi.

Tahlil va natijalar. Adabiyot nazariyasida xarakter tushunchasi badiiy obrazning eng murakkab va serqirra ko‘rinishi sifatida ta’riflanadi. Xarakter — bu shaxsning ijtimoiy-tarixiy sharoit, individual psixologik xususiyatlar va axloqiy-falsafiy yo‘nalish birligida shakllangan badiiy umumlashma. Realistik nasrda xarakter o‘zining harakat-faoliyati, nutqi, boshqa qahramonlarga munosabati va ichki kechinmalari orqali namoyon bo‘ladi. Adib mahorati esa shu turli komponentlarni nechog‘liq organik birikmaga keltira olishi bilan o‘lchanadi.

Abdulla Qahhor xarakter yaratishda o‘zbek nasrida o‘ziga xos maktab yaratdi. Bu maktabning asosiy belgilari quyidagilar: birinchidan, lakonik bayon — “kam so‘zda ko‘p ma’no” tamoyili; ikkinchidan, detalga ramziy mazmun yuklash; uchinchidan, dialogning xarakter ochuvchi imkoniyatlaridan unumli foydalanish; to‘rtinchidan, ichki monolog orqali qahramon ruhiyatining yashirin qatlamlarini ochib berish; beshinchidan, kinoyaviy ohang vositasida qahramonga muallif bahosi singdirib yuborish.

“Bemor” hikoyasida Sotiboldining xotini og‘ir kasallanadi. Qashshoqlik oilaning tibbiy yordam olish imkoniyatini cheklaydi; turli muolajalar esa bemorni qutqarmaydi. Asar yakunida onasi vafot etganidan bexabar qizchaning odatdagi duosini takrorlashi fojiani keskinlashtiradi. Sotiboldining iztirobi harakatlar va ixcham detallar orqali ochiladi; obraz ijtimoiy nochorlikning inson taqdiriga ta’sirini ko‘rsatadi.

“O‘g‘ri” hikoyasi esa Qahhor satirik mahorati va xarakter yaratish texnikasining uyg‘un namunasi hisoblanadi. Qobil bobo — oddiy dehqon, uning ho‘kizi o‘g‘irlanadi. Qahramon arz qilib turli amaldorlarning eshigini taqillatadi, lekin har joydan rad javobini oladi yoki masxara qilinadi. Adib bu obraz orqali mustamlaka davlat apparati befarq, manfaatparast va xalqdan uzilgan ekanligini tasvirlaydi. Qobil bobo soddaligi, pokligi va naqadar bechora ekanligi bilan o‘quvchi qalbiga yetib boradi. Bu yerda Qahhorning detalga ramziy yuk yuklashi diqqatga sazovor: o‘g‘irlangan ho‘kiz — bu shunchaki hayvon emas, qahramonning butun mehnati, hayotini ta’minlovchi yagona vosita, undan ayrilish esa Qobil bobo dunyosining yemirilishi demakdir.

“Anor” hikoyasida Turobjon va homilador xotinining moddiy tangligi oilaviy ziddiyatni yuzaga chiqaradi. Xotinining anor istagi qahramon uchun oddiy xarid emas, balki nochorlikni his etish sababiga aylanadi. Adib ixcham dialog va predmet detallari orqali qahramonlarning iztirobi, o‘zaro tushunmovchiligi va og‘ir turmush sharoitini tasvirlaydi.

“Dahshat” hikoyasida Unsinning fojiasi kasallik bilan emas, erksizlikdan qutulish istagi bilan bog‘liq. Dodxo xonadonidan ketish uchun u tunda qabristonga borib choy qaynatish shartini qabul qiladi. Qahramonning qo‘rquvni yengishga urinishi uning ozodlikka intilishini ochadi. Unsinning halokati xonadon muhitining zulmini yanada keskin ko‘rsatadi; shamol, qorong‘ilik va qabriston tasviri xarakter dramatizmini kuchaytiradi.

“Ming bir jon” hikoyasida insonparvarlik Mastura Aliyeva va uning eri Akramjon obrazlari orqali yoritiladi. Masturaning uzoq davom etgan og‘ir dardga bardoshi, Akramjonning unga sadoqat

bilan g‘amxo‘rlik qilishi hayotga ishonch va insoniy yaqinlikning badiiy ifodasidir. Hikoyadagi suhbatlar va boshqa bemorlarning munosabati Masturaning ruhiy kuchini ochib beradi.

“Sarob” romani Qahhor ijodida xarakter yaratish mahoratining keng polotnodagi ko‘rinishidir. Saidiy obrazida XX asr boshlari ziyolisining ma’naviy adashishi, mustaqil shaxs sifatida shakllana olmagan zaif odamning fojiasi tasvirlangan. Saidiy ham Sharq, ham G‘arb madaniyatining chetida qoladi, hech qaysisida o‘z o‘rnini topa olmaydi. “Sarob” so‘zining ramziy ma’nosi ham aynan shunda — qahramon uchun haqiqat sarob bo‘lib chiqadi. Adib bu obraz orqali davr ziyolisining individual fojiasini emas, balki butun bir avlodning ma’naviy izlanishlarini, ko‘ngil yarasini umumlashtirib beradi.

“Sinchalak” qissasi adib ijodida ayol obrazining yorqin namunalaridan birini taqdim etadi. Saida — jamoa xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan kichik bo‘yli, ammo katta irodali ayol. Uning “sinchalak” laqabi obrazning butun mohiyatini ifodalaydi: kichik, lekin shijoatli, baland uchadigan, qattiq sayraydigan qush singari. Qahhor bu xarakter orqali yangi davr ayolining qiyofasini chizadi: an’anaviy, jamiyat ko‘ziga oddiy bo‘lib ko‘ringan, ammo ichki kuch va prinsipga ega ayol. Saida obrazining badiiy yutug‘i shundaki, adib uni ideallashtirmaydi: qahramon kuchli bo‘lsa-da, og‘ir, ayrim hollarda kompromis topa olmaydigan tabiatga ega.

“O‘tmishdan ertaklar” avtobiografik qissasida Qahhor o‘z xotirasiga, bolalik kechinmalariga, oilaviy davraga murojaat qiladi. Bu asar adibga o‘z personajlar galereyasini yana boyitish imkonini beradi: ota, ona, qishloqdoshlar, muallimlar — har biri yorqin individual portret.

Qahhorning dramatik asarlari — “Tobutdan tovush”, “Og‘riq tishlar”, “Ayajonlarim” — xarakterlarning sahnaviy ifodasi nuqtai nazaridan alohida diqqatga sazovor. Adib bu asarlarda zamondoshlarining axloqiy qiyofasini, oilaviy munosabatlardagi hayotiy ziddiyatlarini satirik nigoh ostida tasvirlaydi. Dramaturgiyaga xos imkoniyatlardan unumli foydalangan adib har bir personaj nutqida individual lisoniy belgi qoldiradi: bir qahramon takrorlaydigan so‘z, ohang, bir o‘ziga xos so‘zlash uslubi orqali butun xarakter ochiladi.

Qahhorning xarakter yaratishdagi mahoratining o‘ziga xos jihatlarini umumlashtirsak, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, adib portret va detalning birikuviga alohida ahamiyat beradi: qahramonning bironta jismoniy belgisi yoki kiyim-bosh detali tez orada uning ichki dunyosini ochishga xizmat qiladigan ramziy belgiga aylanadi. Ikkinchidan, dialog Qahhor ijodida xarakter ochishning asosiy quroli sanaladi: har bir personajning nutqi uning ijtimoiy holati, ma’rifiy darajasi, individual psixologiyasini aks ettiradi. Uchinchidan, ichki monolog Qahhorda boshqa nasrnavislardagi singari uzun va batafsil emas, balki qisqa, lakonik, qahramonning ruhiyatidagi burilish nuqtasini qayd etuvchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, Abdulla Qahhor ijodi XX asr o‘zbek nasrida xarakter yaratish san’atining yetuk namunasini taqdim etadi. Uning asarlaridagi obrazlar tizimi qahramonning ijtimoiy-tarixiy sharoiti, individual psixologiyasi va axloqiy-falsafiy yo‘nalishi birligida shakllangan yaxlit estetik hodisa hisoblanadi. Ikkinchidan, Qahhorning xarakter yaratish texnikasi to‘rt asosiy ustunga tayanadi: lakonik bayon, detalning ramziy yuki, dialog san’ati va ichki monolog vositasidagi psixologizatsiya. Uchinchidan, adib ijodi keyingi avlod o‘zbek nasrnavislari uchun maktab vazifasini bajardi va milliy hikoyachilik tarixida tarixiy bosqichni belgilab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qahhor A. Tanlangan asarlar: 4 jildlik. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. – 1-jild. – 416 b.
2. Qahhor A. Tanlangan asarlar: 4 jildlik. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. – 2-jild. – 384 b.
3. Qahhor A. Sarob: roman. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985. – 320 b.
4. Qahhor A. O‘tmishdan ertaklar: avtobiografik qissa. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 264 b.
5. Norkulova Sh. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasida ayol qismati va ijtimoiy fojia talqini. “New renaissance" xalqaro ilmiy jurnali. 2026/06/30. https://doi.org/10.5281/zenodo.20569772
6. Norkulova Sh. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasida ayol fojiasining ijtimoiy-psixologik talqini.*"Modern Science and Research"* xalqaro ilmiy jurnali 2026/06/30.

UO'K 81'37:008

MADANIY KONNOTATSIYA: LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQ

Olimzoda P., assistent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand
Saidova K. I., assistent, ZARMED universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Maqolada madaniy konnotatsiya hodisasi lingvokulturologik, semantik va pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Denotatsiya va konnotatsiya o'rtasidagi farq, konseptual metafora nazariyasi, muloyimlik nazariyasi va madaniyatlararo pragmatikaning madaniy konnotatsiyani izohlashdagi o'rni yoritiladi. G. Lichning ma'no haqidagi qarashlari hamda madaniy konnotatsiyaga oid yondashuvlar asosida assotsiativ, munosabat (baholash), affektiv, alluziv, aks ettirilgan, kollokativ, ijtimoiy va mavzuviy turlari ingliz, o'zbek va boshqa tillardan olingan misollar orqali ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *madaniy konnotatsiya, denotatsiya, assotsiativ ma'no, affektiv ma'no, alluziya, lingvokulturologiya, madaniyatlararo muloqot, tarjima.*

Аннотация. *В статье рассматривается культурная коннотация как лингвокультурологическое явление. Анализируются соотношение денотации и коннотации, роль теории концептуальной метафоры и теории вежливости, а также типы значения и культурных ассоциаций с опорой на работы Дж. Лича и лингвокультурологические подходы на материале английского и узбекского языков.*

Ключевые слова: *культурная коннотация, денотация, ассоциативное значение, лингвокультурология, перевод.*

Abstract. *The article examines cultural connotation as a linguocultural phenomenon. It discusses the distinction between denotation and connotation, the contribution of conceptual metaphor theory, politeness theory and cross-cultural pragmatics, and types of meaning and cultural associations, drawing on G. Leech's work and linguocultural approaches, illustrated with English and Uzbek data.*

Keywords: *cultural connotation, denotation, associative meaning, linguoculturology, translation.*

Madaniy konnotatsiya - so'z yoki iboraning lug'aviy (denotativ) ma'nosidan tashqari, ma'lum madaniyat doirasida u bilan bog'lanadigan qo'shimcha assotsiativ, hissiy va baholovchi ma'nolar majmuidir. Boshqacha aytganda, u so'zning madaniy kontekst, tarix va jamoaviy tajriba asosida shakllangan "ikkilamchi ma'nosi"dir. Masalan, *ilon* so'zi denotativ jihatdan sudralib yuruvchi hayvonni anglatsa-da, ko'plab madaniyatlarda xiyonat va xavf tushunchalarini uyg'otadi. *Ona* so'zi esa lug'aviy ma'nodan tashqari mehr, g'amxo'rlik va fidoyilik g'oyalari bilan bog'lanadi. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot, chet tillarini o'qitish va badiiy tarjima amaliyoti kengayib borayotgani madaniy konnotatsiyani tizimli o'rganishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Bir xil denotatsiyaga ega so'zlarning turli tillarda turlicha, ba'zan qarama-qarshi konnotatsiyaga ega bo'lishi kommunikativ to'siqlar va tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi.

Konseptual metafora nazariyasi. J. Lakoff va M. Jonson ishlab chiqqan bu nazariyaga ko'ra, inson mavhum tushunchalarni aniq, hayotiy tajribaga asoslangan sohalar orqali idrok etadi. Lakoffning fikricha, metaforik ifodalarni boshqaruvchi umumlashmalar tilda emas, balki tafakkurda mavjud bo'lib, ular konseptual sohalar orasidagi bog'lanishlardir. *Hayot — bu yo'l* metaforasi "hayot yo'li", "yo'ldan adashmoq", "maqsad sari intilmoq" kabi ifodalarda namoyon bo'ladi va taraqqiyot, sinov, yo'nalish kabi konnotatsiyalarni uyg'otadi. Konseptual metaforalar madaniyatlarga qarab farqlanishi sababli, ular madaniy konnotatsiyaning muhim manbai hisoblanadi.

Muloyimlik nazariyasi. P. Braun va S. Levinson nazariyasida "face" (ijtimoiy obro', yuz) tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Mualliflar ijobiy muloyimlik (hamjihatlik va qadrlashni ifodalash) hamda salbiy muloyimlik (suhbatdoshga bosimni kamaytirish, masofa saqlash) strategiyalarini farqlaydilar. G'arb madaniyatlarida ko'proq salbiy muloyimlik ustuvor bo'lsa, ko'plab Sharq madaniyatlarida ijtimoiy uyg'unlik va kattalarga hurmat birinchi o'ringa chiqadi. O'zbek tilidagi *siz* va *sen* olmoshlari, *aka*, *opa*, *domla* kabi murojaat shakllari ana shunday madaniy me'yorlarning

konnotativ ifodasidir. Nazariya Yevropa markazchiligi uchun tanqid qilingan bo‘lsa-da, u hurmat, rasmiylik va masofa ma’nolarining madaniyatga bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi.

Madaniyatlararo pragmatika. Bu soha turli madaniyat vakillari nutqni qanday qo‘llashi va talqin qilishini o‘rganadi. S. Levinson umumiy va kontekstga bog‘liq xususiy implikaturalarni farqlaydilar. Madaniyatlararo muloqotda so‘zlovchilar o‘z madaniyatiga xos implikaturalarga tayanadi; ular suhbatdosh kutganlariga mos kelmasa, tushunmovchilik yuzaga keladi. Masalan, sukut bir madaniyatda hurmat yoki o‘ylash belgisi, boshqasida esa rozilik yoki noqulaylik ishorasi sifatida qabul qilinadi. Demak, konnotativ ma’no faqat so‘zning o‘zida emas, balki uning qanday va qaysi kontekstda qo‘llanishida ham shakllanadi.

Ingliz tilshunosi G. Lich ma’noning konseptual, konnotativ, ijtimoiy, affektiv, aks ettirilgan, kollokativ va mavzuviy turlarini ajratadi [3]. Assotsiativ ma’no konnotativ, ijtimoiy, affektiv, aks ettirilgan va kollokativ ma’nolarni birlashtiruvchi umumiy tushuncha sifatida qaraladi. Quyidagi jadvalda Lichning yetti turli tasnifi aynan takrorlanmaydi; unda madaniy konnotatsiyani tahlil qilish uchun ma’no va assotsiatsiyalarning turli ko‘rinishlari umumlashtirilgan.

Ma’no turi	Mohiyati	Misol
Assotsiativ	So‘z bilan jamoaviy bog‘langan obraz va tasavvurlar	*home* — xavfsizlik, oila, mehr
Munosabat (baholash)	So‘zlovchining ijobiy yoki salbiy bahosi	*saxiy* (+) / *ziqna* (−)
Affektiv	So‘z uyg‘otadigan his-tuyg‘u	*urush* — qayg‘u, dahshat
Alluziv	Tarixiy, adabiy, mifologik ishora	*Achilles’ heel, quixotic*
Aks ettirilgan	Ayni so‘zning boshqa ma’nosi ta’sirida yuzaga keladigan assotsiatsiya	Bir shaklning diniy va kundalik ma’nolari o‘zaro ta’siri
Kollokativ	Odatiy so‘z birikmalaridan kelib chiqadigan ma’no	*heavy rain, strong coffee*
Ijtimoiy	Nutq egasining maqomi, guruhi, registri	*dad* / *father*
Mavzuviy	Gap tuzilishi va urg‘u tanlovi	faol / majhul nisbat

Assotsiativ ma’no jamiyat tomonidan umumiy qabul qilingan tasavvurlarga tayanadi, shu bois uni “so‘z bilan birga keladigan madaniy yuk” deb atash mumkin. Ingliz tilidagi *snake* Bibliyadagi ilon timsoli ta’sirida hiyla va xiyonat bilan bog‘lanadi. *Dog* G‘arbda sadoqat va do‘stlik ramzi bo‘lsa, o‘zbek tilida *it* so‘zi ko‘proq haqorat ma’nosida qo‘llanadi. *Pumpkin* ingliz tilida kuz va Shukrona kuni (Thanksgiving) bilan bog‘lansa, bu an’anaga ega bo‘lmagan jamiyatda bunday assotsiatsiya uyg‘onmaydi.

Munosabat va affektiv ma’no so‘zning hissiy-baholovchi ohangini ifodalaydi. *Shuhratparast* so‘zi yutuqni qadrlaydigan individualistik madaniyatda betaraf yoki ijobiy, kamtarlikni ulug‘laydigan jamoaviy madaniyatda esa salbiy baholanadi. *Olov* so‘zi o‘choq kontekstida iliqlik va qulaylikni, o‘rmon yong‘ini kontekstida esa qo‘rquv va vayronagarchilikni uyg‘otadi.

Alluziv ma’no madaniy xotira va umumiy bilimga tayanadi. *Atlas* so‘zi yunon mifologiyasidagi osmonni ko‘tarib turgan titan obrazi orqali kuch va og‘ir yuk ma’nosini oladi. O‘zbek tilida *Majnun* (ishqda telba bo‘lgan odam) yoki *Farhod* (mashaqqatli mehnatga tayyor oshiq) kabi nomlar mumtoz adabiyot orqali shunday alluziv qiymat kasb etgan. Bunday ma’nolarni tushunish uchun manba bilan tanishlik zarur, aks holda ular o‘quvchiga yetib bormaydi.

Aks ettirilgan va kollokativ ma’no til ichidagi bog‘lanishlar mahsulidir. Evfemizmlar (*vafot etdi, olamdan o‘tdi, passed away*) taqiqlangan so‘zning ma’nosini yumshoqroq shaklda saqlaydi. Kollokatsiyalar esa madaniyatdagi nutq odatlarini aks ettiradi: *farewell* rasmiy, *goodbye* esa kundalik vaziyatga xos.

Ijtimoiy va mavzuviy ma’no nutq vaziyati bilan bog‘liq. *Dad* yaqin va norasmiy, *father* esa rasmiy va hurmat ohangiga ega. Yoshlar slengi (*lit, cool*) guruhga mansublik belgisi bo‘lib xizmat qiladi. Mavzuviy ma’no xabarning qanday tartibda tashkil etilishi va nimaga urg‘u berilishi bilan bog‘liq. *Close the door* va *Would you mind closing the door?* misollari esa mavzuviy ma’nodan ko‘ra, bir xil istakning turli muloyimlik darajasida ifodalanishini ko‘rsatadi.

Madaniy sohalar bo‘yicha misollar. Rang nomlari bu borada eng yorqin material beradi. Oq rang G‘arbda poklik va to‘y bilan bog‘lansa, ayrim Osiyo madaniyatlarida motam rangi hisoblanadi. O‘zbek tilida esa *oq yo‘l, oq fotiha* kabi ifodalarda ezgu tilak ma’nosini beradi. Hayvon nomlarida ham farq katta: xitoy madaniyatida ajdaho kuch va omad ramzi, G‘arbda esa yovuzlik timsoli. Taom

nomlari ham chuqur madaniy yuk tashiydi: o‘zbek madaniyatida *non* muqaddas ne’mat bo‘lib, unga nisbatan hurmat qasam va odob me’yorlarida aks etadi, koreys madaniyatida *kimchi* milliy o‘zlikning ramzidir. Tarixiy nomlar (*Hiroshima*, *Berlin devori*) esa butun bir davr fojiasi yoki bo‘linishini eslatuvchi konnotatsiyaga ega.

Xulosa qilib aytganda, til faqat belgilar tizimi emas, balki jamiyat qadriyatlari va tajribasidan to‘qilgan ma’no to‘ridir. Madaniy konnotatsiyani o‘rganish orqali biz xalqning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini chuqurroq anglaymiz. Kelgusida o‘zbek va ingliz tillaridagi rang, hayvon va taom nomlari konnotatsiyasini korpus ma’lumotlari asosida qiyosiy o‘rganish istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. — М.: Русский язык, 1990. — 246 с.
2. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. — 345 p.
3. Leech G. Semantics: The Study of Meaning. — 2nd ed. — Harmondsworth: Penguin Books, 1981. — 383 p.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — 242 p.
5. Lyons J. Semantics. Vol. 1–2. — Cambridge: Cambridge University Press, 1977.

UO’K 811.512.142’373.46:504

QORAQALPOQ TILIDA EKOLOGIK TERMINLARNING PUBLITSISTIK USLUBDA QO‘LLANILISHI

Otebaeva D. A., izlanuvchi, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qoraqalpoq tilidagi ekologik terminlarning publitsistik uslubda qo‘llanish xususiyatlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda gazeta va jurnal materiallarida uchraydigan ekologik terminlarning qo‘llanish chastotasi, semantik xususiyatlari, ommaviy kommunikatsiyadagi funksional vazifalari hamda ilmiy uslub bilan munosabati o‘rganiladi. Tahlil uchun “Erkin Qaraqalpaqstan”, “Qaraqalpaqstan jasları” kabi nashrlarda e’lon qilingan ekologik mazmundagi materiallardan foydalanildi. Tadqiqot natijasida publitsistik matnlarda ekologik terminlarning bir qismi ilmiy uslubdagi shaklini saqlab qolishi, ayrim termin va terminologik birikmalar esa ommaboplik, tushunarlilik va ta’sirchanlikni ta’minlash maqsadida sinonimik yoki tavsifiy shakllarda qo‘llanishi aniqlandi. Shuningdek, publitsistik uslub ekologik terminlarning ommalashuvi va faol lug‘at tarkibidan o‘rin olishida muhim kommunikativ maydon vazifasini bajarishi asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik termin, ekologik terminologiya, publitsistik uslub, ekologik diskurs, termin qo‘llanishi, terminologik birlik, ommaviy axborot vositalari, ekologik muammo, qoraqalpoq tili, terminlarning ommalashuvi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности функционирования экологических терминов в публицистическом стиле каракалпакского языка. Анализируются экологические термины и терминологические сочетания, используемые в газетных и журнальных материалах, их семантические особенности, частотность употребления и коммуникативные функции. На материале публикаций газет «Erkin Qaraqalpaqstan» и «Qaraqalpaqstan jasları» выявлены случаи сохранения терминологического значения, а также использования синонимических и описательных форм, обусловленных стремлением сделать специальную информацию понятной широкому кругу читателей. Установлено, что публицистический стиль является одним из важных коммуникативных пространств распространения и активизации экологической лексики. Экологические термины в публицистическом тексте выполняют не только номинативную и информационную функции, но и участвуют в формировании общественного экологического сознания.*

Ключевые слова: *экологический термин, экологическая терминология, публицистический стиль, экологический дискурс, терминологическая единица, средства массовой информации, экологическая проблема, каракалпакский язык, терминологическая лексика, функционирование терминов.*

Abstract. *This article examines the functional features of ecological terms in the publicistic style of the Karakalpak language. Materials published in Erkin Qaraqalpaqstan and Qaraqalpaqstan jasları were analyzed to identify the ways in which ecological terminology is adapted to publicistic communication. The analysis demonstrates that some ecological terms retain their specialized scientific meanings, whereas others occur in synonymous, descriptive, or more accessible forms in order to make specialized information understandable to a wider audience. The study also shows that the publicistic style constitutes an important communicative environment for the dissemination and activation of ecological vocabulary. In publicistic texts, ecological terms perform not only nominative and informative functions but also contribute to raising public awareness of environmental problems and shaping ecological consciousness.*

Keywords: *ecological term, ecological terminology, publicistic style, ecological discourse, terminological unit, mass media, environmental problem, Karakalpak language, terminology, functioning of terms.*

Kirish. Tilning funksional uslublari jamiyatning turli kommunikativ ehtiyojlariga xizmat qiluvchi murakkab tizimni tashkil etadi. Shunday uslublardan biri bo‘lgan publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar, radio, televideniye hamda zamonaviy internet nashrlarida keng qo‘llanadi. Uning asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotda yuz berayotgan muhim voqea-hodisalarni tezkor, tushunarli va ta’sirchan tarzda keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat. Shu sababli publitsistik matnlar jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy, ilmiy-texnik va ekologik hayotiga oid turli terminologik birliklarni qamrab oladi.

Terminologik birliklar dastlab muayyan fan yoki soha doirasidagi maxsus tushunchalarni aniq ifodalash uchun shakllansa-da, ularning faol qo‘llanish sohasi ilmiy kommunikatsiya bilan cheklanib qolmaydi. Ommaviy axborot vositalarida ilm-fan va texnika yutuqlari, ijtimoiy jarayonlar, iqtisodiy o‘zgarishlar hamda ekologik muammolar haqida materiallar berilishi natijasida maxsus terminlar keng jamoatchilik nutqiga kirib boradi. Shu jihatdan publitsistik uslub terminlarning ommalashuvi, ma’no doirasining kengayishi va ayrim terminologik birliklarning umumiste’mol leksikasiga yaqinlashishida muhim vosita hisoblanadi. Ekologik terminologiya mazkur jarayonning alohida ko‘rinishlaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Termin va terminologiya masalalari umumiy tilshunoslikda uzoq vaqt davomida o‘rganib kelinayotgan muhim yo‘nalishlardan biridir. Terminlarning maxsus tushunchani ifodalashi, definitsiyaga ega bo‘lishi, muayyan terminologik tizim tarkibida faoliyat ko‘rsatishi kabi masalalar terminologik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi.

O‘zbek va qoraqalpoq tilshunosligida ham terminologiyaning shakllanishi, rivojlanishi, terminlarning semantik va struktur xususiyatlari, o‘zlashma terminlarning til tizimiga moslashuvi kabi masalalar tadqiq etilgan. Xususan, ekologik terminologiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ekologik terminlarning derivatsion, semantik va funksional xususiyatlari yoritilgan [1.12].

Publitsistik uslubning leksik tarkibida turli sohalarga oid terminlarning faol qo‘llanishi ham tilshunoslar e’tiboridan chetda qolmagan. Tadqiqotlarda publitsistik uslub yangi so‘z va o‘zlashmalarning keng jamoatchilikka tarqalishi, ularning faol lug‘atdan o‘rin olishida muhim kommunikativ maydon ekanligi ta’kidlanadi [2.34]. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari tilida terminlarning chastotasi ortishi ularning keng iste’molga kirib borishiga xizmat qilishi qayd etilgan [2.53]. Biroq qoraqalpoq tilidagi ekologik terminlarning aynan publitsistik uslubdagi qo‘llanish xususiyatlarini tizimli ravishda o‘rganish alohida tadqiqotni talab qiladi. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi ham shunda ko‘rinadiki, unda ekologik terminlar faqat nominativ birlik sifatida emas, balki publitsistik kommunikatsiya jarayonidagi funksional birlik sifatida tahlil qilinadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi qoraqalpoq tilidagi ekologik terminlarning publitsistik uslubda qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash va ularning ilmiy terminologiya bilan munosabatini ko‘rsatishdan iborat. Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: publitsistik matnlarda ekologik terminlarning qo‘llanish holatlarini aniqlash, ekologik terminlarning semantik guruhlarini belgilash, terminlarning ilmiy va publitsistik uslubdagi qo‘llanishini qiyoslashlashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Tadqiqot materiali sifatida qoraqalpoq tilidagi gazeta va jurnal materiallari, xususan, ekologik mavzudagi publitsistik maqolalar olindi. Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual, semantik, qiyosiy va funksional-stilistik metodlardan foydalanildi. Tavsifiy metod ekologik terminlarning publitsistik matndagi qo‘llanish holatlarini bayon qilishda, semantik metod ularning ma’no xususiyatlarini aniqlashda, qiyosiy metod ilmiy va publitsistik matnlardagi qo‘llanishini solishtirishda, funksional-stilistik metod esa terminlarning publitsistik kommunikatsiyadagi vazifalarini belgilashda qo‘llandi.

Natijalar va muhokama. Publitsistik matnning asosiy vazifalaridan biri ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan voqea va hodisalar haqida axborot berishdir. Shu sababli unda muayyan fan sohalariga oid terminlarning qo‘llanishi tabiiy hodisa hisoblanadi. Ekologik masalalarga bag‘ishlangan maqolalarda esa ekologik terminlar matnning mazmuniy asosini tashkil qilishi mumkin. Tahlil qilingan materiallarda *tabiiy ofat, ichimlik suvi, ekologik vaziyat, suv tanqisligi, ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, biologik xilma-xillik, genofond, Qizil kitob, qo‘riqxona, artezian suv quduqlari, ekologik xavfsizlik* kabi termin va terminologik birikmalar faol qo‘llangan. Masalan, “Erkin Qaraqalpaqstan” gazetasida Orolbo‘yi hududida tabiiy ofatlarning oldini olish va aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan tadbir haqida xabar berilgan. Ushbu matnda *tabiiy ofat* birikmasi ekologik mazmunni ifodalovchi termin sifatida qo‘llangan. Ekologik terminologiyada tabiiy va antropogen omillar bilan bog‘liq ofatlar farqlanadi. Publitsistik matnda esa mazkur termin maxsus ilmiy ma’nosini saqlagan holda keng kitobxonlar auditoriyasiga tushunarli shaklda ishlatilgan.

Ekologik mavzudagi publitsistik materiallarda *ichimlik suvi* terminologik birikmasi ham faol uchraydi. Mazkur birikma suv resurslaridan foydalanish, aholini suv bilan ta’minlash, suv sifatini yaxshilash va suv tanqisligining oldini olish masalalariga bag‘ishlangan materiallarda qo‘llanadi. Masalan: “Ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash maqsadida hududda investitsiya dasturi asosida qiymati 1 milliard 55 million 900 ming so‘mlik 6,8 kilometrlik suv tarmoqlarini tortish ishlari davom etmoqda” [5.4]. Ushbu misolda *ichimlik suvi* birikmasi maxsus ekologik va ijtimoiy mazmunni ifodalab, aholining kundalik hayoti bilan bevosita bog‘langan. Shu sababli terminning mazmuni maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lmagan kitobxon uchun ham tushunarli. Bu jihat publitsistik uslubning muhim xususiyatini ko‘rsatadi: maxsus terminlar keng auditoriya uchun tushunarli kommunikativ birlik sifatida qo‘llanadi.

Tadqiqot davomida ekologik terminlarning ayrim hollarda bir xil tushunchani ifodalovchi yaqin shakllarda qo‘llanishi ham kuzatildi. Masalan, *suv yetishmovchiligi* va *suv tanqisligi* birikmalari semantik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lib, publitsistik matnlarda turli kontekstlarda ishlatilishi mumkin.

Publitsistik uslubda bunday variantlilik matnning takroriyligini kamaytirish, fikrni tabiiyroq bayon qilish va o‘quvchiga ta’sirchan yetkazish bilan bog‘liq. Ilmiy matnda esa terminning bir xilda va izchil qo‘llanishi muhimroq bo‘ladi.

Masalan, gazeta materiallarida *suv tanqisligi* birikmasi ekologik muammolardan birini ifodalash uchun ishlatiladi: “Treningni o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – suv tanqisligi natijasida kelib chiqadigan ekologik muammolarni yumshatish, Orol dengizining qurishi oqibatida paydo bo‘lgan chang-tuz bo‘ronlarining oldini olish, iqlim o‘zgarishiga moslashish hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilashdan iborat.” Bu misolda *suv tanqisligi, ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi* kabi birliklar bir matn doirasida o‘zaro mazmuniy jihatdan bog‘lanib, ekologik muammoning turli tomonlarini ifodalamoqda. Publitsistik matnlarda ekologik vaziyatni ifodalovchi terminologik birikmalar ham alohida faollikka ega. Masalan, *keskinlashgan ekologik vaziyat, ekologik halokat, ekologik muammo, ekologik xavfsizlik* kabi birliklar Orolbo‘yi hududidagi ekologik jarayonlarni yoritishda qo‘llanadi. “Erkin Qaraqalpaqstan” gazetasida Orol fojiasining oqibatlari va ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar haqida yozilgan materiallarda *keskinlashgan ekologik vaziyat* birikmasi qo‘llangan.

Mazkur birikma semantik jihatdan *ekologik halokat* tushunchasiga yaqin bo‘lsa-da, ular mutlaq sinonim hisoblanmaydi. *Ekologik vaziyat* muayyan hududdagi ekologik holatni ifodalasa, *ekologik halokat* ekologik tizimning jiddiy va qayta tiklanishi qiyin yoki mumkin bo‘lmagan darajada buzilishi

bilan bog‘liq holatni anglatadi [3. 75]. Shu sababli publitsistik matnda ushbu birliklarning tanlanishi matn muallifining voqea-hodisani qanday darajada ifodalashiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bu esa ekologik terminlarning publitsistik uslubda semantik jihatdan differensiallashgan holda qo‘llanishini ko‘rsatadi. Ekologik mazmundagi gazeta maqolalarida global va mintaqaviy ekologik muammolarni ifodalovchi terminlar alohida qatlamni tashkil etadi. Masalan, quyidagi terminologik birliklar uchraydi: *global iqlim o‘zgarishi, havo haroratining ko‘tarilishi, Orol dengizining qurishi, cho‘llanish, noqulay meteorologik jarayonlar, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik, biologik xilma-xillikning qisqarishi, o‘simlik va hayvonot genofondining yomonlashuvi, sanoat va maishiy chiqindilarning to‘planishi*. Publitsistik matnlarda keng jamoatchilikka nisbatan yaxshi tanish bo‘lgan ekologik terminlar ham faol ishlatiladi. Jumladan, *Qizil kitob, qo‘riqxona, artezian suv qudug‘i* kabi birliklar ekologik mavzudagi maqolalarda tez-tez uchraydi. Masalan: “Saygachiy” kompleks (landshaft) buyurtma qo‘riqxonasi hududlarida Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotining ‘Qizil ro‘yxati’ga kiritilgan sayg‘oq hamda O‘zbekiston Respublikasining ‘Qizil kitobi’ga kiritilgan 10 ga yaqin hayvonot turi, 100 dan ortiq o‘simlik turi mavjud.” Bu yerda *Qizil kitob* ekologik termin sifatida biologik xilma-xillikni muhofaza qilish bilan bog‘liq tushunchani ifodalaydi. Termin keng jamoatchilikka tanish bo‘lgani sababli uni gazeta matnida alohida izohlashga ehtiyoj kam. Yana bir misolda: “Yovvoyi hayvonlarning yashash sharoitini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi bilan chegaradosh hududlarda, Ustyurt tekisligida joylashgan ‘Saygachiy’ kompleks (landshaft) buyurtma qo‘riqxonasining ayrim hududlarida artezian suv quduqlarini qazish rejalashtirilmoqda.” Ushbu misolda *qo‘riqxona* va *artezian suv quduqlari* ekologik mazmunni aniq ifodalovchi terminologik birliklar sifatida qatnashgan. Ular ekologik muammoning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatini yoritishga xizmat qilmoqda. Ekologik terminologiyaning publitsistik uslubdagi faol qatlamlaridan yana biri *ekologik xavfsizlik* birikmasidir. Ushbu termin atrof-muhit holati, inson salomatligi va tabiiy resurslarni muhofaza qilish bilan bog‘liq masalalarda qo‘llanadi. Ekologik xavfsizlik tushunchasi inson uchun sog‘lom va qulay tabiiy muhitni ta’minlash, atrof-muhitning salbiy o‘zgarishlaridan himoyalanish va ekologik xavflarning oldini olish masalalari bilan bog‘liq [4.65].

Gazeta materiallarida mazkur termin, odatda, davlat va hududiy ekologik siyosat, tabiatni muhofaza qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish kabi masalalar bilan birgalikda qo‘llanadi: “Aymaqta ekologiyalıq qáwipsizlikti kúsheytiw, brokenerlik hám basqa da huqıqbuzarlıqtıń aldın alıw boyınsha da tapsırmalar berildi” [5.3]. Bu misolda *ekologik xavfsizlik* atamasi tor ilmiy tushunchani ifodalash bilan cheklanmay, ijtimoiy va huquqiy mazmun bilan ham bog‘langan. Demak, publitsistik matn ekologik terminlarning semantik imkoniyatlarini kengaytiruvchi kommunikativ muhit vazifasini ham bajaradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qoraqalpoq tilidagi ekologik terminologiyaning faoliyat doirasi ilmiy uslub bilan cheklanmaydi. Publitsistik uslub ekologik terminlarning real kommunikativ qo‘llanishini ta’minlaydigan muhim funksional maydonlardan biridir. Gazeta va jurnal materiallarida *tabiiy ofat, ichimlik suvi, suv tanqisligi, ekologik muammo, iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, biologik xilma-xillik, Qizil kitob, qo‘riqxona, ekologik xavfsizlik* kabi terminlar turli kommunikativ vazifalarda qo‘llanadi. Ularning ayrimlari ilmiy uslubdagi shakl va ma’nosini deyarli o‘zgartirmagan holda ishlatilsa, boshqalari publitsistik uslubning tushunarlilik va ta’sirchanlik talablariga mos ravishda sinonimik yoki tavsifiy shakllarda namoyon bo‘ladi.

Publitsistik uslubning ekologik terminologiya rivojidagi ahamiyati, avvalo, maxsus ilmiy bilimlarni keng jamoatchilikka yetkazish bilan belgilanadi. Shu jarayonda ekologik terminlar nafaqat nomlash va axborot berish, balki ekologik muammolarga jamoatchilik e’tiborini jalb qilish, ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirish vazifalarini ham bajaradi. Shu bois qoraqalpoq ekologik terminologiyasini o‘rganishda terminlarning lug‘aviy va struktur xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning funksional uslublardagi, ayniqsa publitsistik diskursdagi qo‘llanishini ham tadqiq etish muhimdir. Kelgusida ekologik terminlarning televideniye, radio, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlardagi qo‘llanishini qiyosiy o‘rganish qoraqalpoq ekologik diskursining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Paluanova X.D. *Ingliz, o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ekologik terminlarning derivatsion-semantik prinsiplari*: Filologiya fanlari doktori diss. avtoref. – Toshkent, 2016.
2. Orazbayev E., Kilichov N. Publitsistik uslubga xos arabcha o'zlashmalarning funksional-semantik xususiyatlari (o'zbek, qoraqalpoq, turkman tillari misolida) // *Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari*. – 2025. – №11. 36-42
3. Jumanov M.A. Ekologiya. Toshkent, "Sano-standart" 2017.
4. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5 jildlik / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
5. *Erkin Qaraqalpaqstan*. – 2021. – 13-noyabr, №134.

UO'K 821.512.133.09

SOVET DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATIDA DINIY MAZMUNNING PARDALANGAN IFODASI POETIKASI

U.B.Panayeva, f.f.n., dots., Urganch innovatsion universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Maqolada 1960–1980-yillar o'zbek she'riyatida diniy mazmunning senzura sharoitidagi pardalangan ifodasi alohida estetik kategoriya sifatida tadqiq etiladi. L. Losevning «ezop tili» nazariyasidagi «parda» va «belgi» tushunchalariga tayangan holda pardalanishning uch asosiy usuli — tabiat ramzlari, savol va shartli murojaat shakli hamda tarixiy siymo niqobi ajratiladi. Rauf Parfining 1963-yilgi sonetida, Shavkat Rahmonning «Savol» she'rida, Abdulla Oripovning «Jannatga yo'l» hamda Omon Matjonning «Beruniy» dramatik dostonlarida bu usullarning amal qilish mexanizmi matniy tahlil vositasida ochib beriladi. Pardalangan ifoda badiiy shartlilik va ko'p qatlamli ma'no hosil qilgani, keyingi davr irfoniy she'riyatiga zamin hozirlagani asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *sovet davri she'riyati, senzura, pardalangan ifoda, ezop tili, ramz, shartli murojaat, tarixiy niqob, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Abdulla Oripov, Omon Matjon.*

Аннотация. *В статье завуалированное выражение религиозного содержания в узбекской поэзии 1960–1980-х годов в условиях цензуры исследуется как особая эстетическая категория. Опираясь на понятия «экрана» и «маркера» в теории эзопова языка Л. Лосева, автор выделяет три основных приёма завуалирования: природную символику, форму вопроса и условного обращения, а также маску исторической личности. Механизм действия этих приёмов раскрывается посредством текстуального анализа сонета Рауфа Парфи 1963 года, стихотворения Шавката Рахмона «Вопрос», драматических поэм Абдуллы Арипова «Дорога в рай» и Омона Матжона «Беруни». Обосновывается, что завуалированное выражение порождало художественную условность и многослойность смысла, подготовив почву для мистической поэзии последующего периода.*

Ключевые слова: *поэзия советского периода, цензура, завуалированное выражение, эзопов язык, символ, условное обращение, историческая маска, Рауф Парфи, Шавкат Рахмон, Абдулла Арипов, Омон Матжон.*

Abstract. *The article examines the veiled expression of religious content in Uzbek poetry of the 1960s–1980s under censorship as a distinct aesthetic category. Drawing on the notions of "screen" and "marker" in Lev Loseff's theory of Aesopian language, the author distinguishes three main devices of veiling: nature symbolism, the form of the question and conditional address, and the mask of a historical figure. The mechanism of these devices is revealed through textual analysis of Rauf Parfi's 1963 sonnet, Shavkat Rahmon's poem "Savol" ("The Question"), and the dramatic poems "Jannatga yo'l" ("The Road to Paradise") by Abdulla Oripov and "Beruniy" by Omon Matjon. It is argued that veiled expression generated artistic conventionality and multi-layered meaning, preparing the ground for the mystical poetry of the following period.*

Key words: *Soviet-era poetry, censorship, veiled expression, Aesopian language, symbol, conditional address, historical mask, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Abdulla Oripov, Omon Matjon.*

Sovet davrida din rasman inkor etilgan, diniy mavzuda ochiq yozish esa ijodkor taqdiri uchun xavfli edi. Abdulla Oripov keyinchalik bergan suhbatida yoshligi din qatag'on qilingan davrga to'g'ri kelganini, «Jannatga yo'l» dostonining yo'qolgan qo'lyozmasi esa unga maxsus idora xodimlari

tomonidan qaytarilganini eslaydi [4]. Bu davr manzarasini Muhammad Yusuf ham keyinroq achchiq kinoya bilan qayd etadi:

Navro'zda navro'zni ko'ming deyishdi,
Ko'ming va sukutga cho'ming, deyishdi.
Eskilik sarqiti asli bu sayil,
Ey, bandai mo'min, deyishdi... [5, 18-b.]

Biroq aynan shu sharoitda o'zbek she'riyatida diniy mazmunni ifodalashning o'ziga xos yo'li — pardalangan ifoda shakllandi. Maqolaning maqsadi — ana shu ifodaning poetik mexanizmlarini aniqlash va asosiy usullarini matniy tahlil vositasida ochib berishdan iborat. Tadqiqotda germenevtik, qiyosiy-tipologik va matniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Senzura sharoitidagi yashirin ifoda jahon adabiyotshunosligida «ezop tili» nomi bilan o'rganilgan. L. Losev rus adabiyoti misolida ezop matnini muallif, senzor va o'quvchi o'rtasidagi uch tomonlama aloqa sifatida talqin etib, unda ikki turdagi unsurni ajratadi: haqiqiy ma'noni yashiruvchi «parda»lar va o'quvchiga yashirin ma'no mavjudligini bildiruvchi «belgi»lar [1]. M. Tirrell bu nazariyani sovet davri ozarbayjon adabiyotiga tatbiq etib, ezop tili milliy adabiyotlarda ham keng qo'llanganini ko'rsatgan [2]. O'zbek she'riyatida ham pardalangan ifoda shunchaki senzuradan qochish emas, balki ko'p qatlamli ma'no hosil qiluvchi mustaqil estetik kategoriyaga aylandi. Tahlillar uning uch asosiy usulini ajratish imkonini beradi: tabiat ramzlari, savol va shartli murojaat shakli hamda tarixiy siymo niqobi.

Birinchi usulda tabiat hodisalari shunchaki manzara emas, ilohiy tajalli va ramziy kitob sifatida talqin qilinadi. Rauf Parfining 1963-yilda yozilgan sonetida tabiatning Yaratganga tasbeh aytishi shunday chiziladi:

Daryo mavjlariga yozilmish g'azal,
Maysalar egilib o'qiydir kitob.
Shodlanib xandalar otar bir lahza,
Bir lahza oh tortib qo'yadi oftob [6].

Ushbu misralarda «daryo mavjlari» — ilohiy kuy, «egilib kitob o'qiyotgan maysalar» esa ilohiy kalom qarshisida sajda va xushu' holatidagi mavjudotlar ramzidir. Shoir diniy atamani qo'llamaydi, ammo «egilish» harakati orqali butun borliqning Yaratganga itoatini ko'rsatadi. Ikkinchi bandda bu ma'no yanada kuchayadi: «Bir tirik nafosat borliq, jahonda, / Kimgadir egilar, qilar iltijo» [6]. Borliqning kimgadir egilib iltijo qilishi aniq aytiladi, biroq murojaat qilinayotgan Zotning nomi atalmaydi. Losev nazariyasi nuqtayi nazaridan «kimgadir» olmoshi aynan «belgi» vazifasini bajaradi: o'quvchi kimga ishora qilinayotganini anglaydi, senzura esa e'tiroz bildirishga asos topmaydi. Sonetning tersetida savollar zanjiri yuzaga keladi: «Bu qadar go'zallik qaysi ochunda, / Bu qaysi kitobdir, kimning daftari, / Kimning alamidir qilich uchida?» [6]. Olamni «kitob» va «daftar» sifatida tasavvur qilish mumtoz tasavvufiy she'riyatdagi koinot kitobi tushunchasiga borib taqaladi; shoir bu kitobning muallifini nomlamay, javobni o'quvchi idrokiga qoldiradi. Adabiyotshunoslar ham Rauf Parfi sonetlarining assotsiativ tafakkur hosilasi ekanini, ularda islomiy falsafa yo'sinidagi foniy va boqiy dunyo qarama-qarshiligi aks etganini qayd etadilar [7].

Ikkinchi usul — to'g'ridan-to'g'ri hukm chiqarmay, savol va shartli murojaat orqali o'quvchini ma'naviy mushohadaga undash. Shavkat Rahmonning «Savol» she'rida lirik qahramon o'z umri haqida o'ylar ekan, «yetti qavat osmon tepamda, / yelkalarim sirqirab og'rir» [8] deya iqror bo'ladi. «Yetti qavat osmon» islomiy kosmologiyadagi osmon qatlamlari tasavvurini yodga soladi; ota yelkasidagi og'irlik esa nafaqat shaxsiy iztirob, balki butun bir avlod taqdirining yuki sifatida o'qiladi. She'rning markaziy bandida bu yuk Yaratganga murojaatga aylanadi:

Tashladimi yoki bir umr
ko'zimga g'am ko'lkalarini,
parvardigor,
bor bo'lsang agar,
ezma o'g'lim yelkalarini... [8].

«Bor bo'lsang agar» degan shartli shakl ateistik muhitda ulg'aygan insonning ichki ziddiyatini ifodalaydi. Ayni paytda bu shart senzura uchun «parda» vazifasini ham o'taydi: tashqi qarashda

shubha ifodasi bo‘lib ko‘ringan misra aslida farzand taqdiri uchun qilingan chin iltijodir. I. Haqqul Shavkat Rahmon she’riyatidagi obrazlar milliy-tarixiy qismat tuyg‘usini tashishini ta’kidlaydi [3]; «Savol»da bu qismat tuyg‘usi diniy iltijo bilan qo‘shilib ketadi.

Savol shaklining yirikroq namunasini Abdulla Oripovning 1978-yilda yozilgan «Jannatga yo‘l» dramatik dostonida ko‘ramiz. Dostonda oxirat manzarasi — mezon, arosat, gunoh va savob tushunchalari falsafiy niqob ostida beriladi. Bandalarning amalini tortib, taqdirini belgilovchi Tarozibon O‘zga Odamga «Sen na gunoh qilgansanu, na zarra savob» [9, 13-b.] deb, uni arosatga yo‘llaydi. Do‘zaxga hukm qilingan Yigit esa shunday savol beradi:

Men shaytondan ming martaba dahshatli bo‘lgan
Olchoqlarni ko‘rib, chidab turganman avval.
Lekin, ayting, qayoqda u oliy haqiqat?
Ketayotib faqat shuni bilmoq istayman [9, 17-b.].

Mafkura jannat va oxiratni afsona deb inkor etgan davrda A. Oripov islomiy esxatologiya tushunchalarini badiiy shartlilik maydoniga olib kirdi. Yigitning dunyoda shaytondan ham dahshatliroq olchoqlarni ko‘rgani haqidagi e’tirofi zamonasidagi ijtimoiy adolatsizlikka pardalangan ishora bo‘lsa, «oliy haqiqat» haqidagi savoli inson taqdirini ilohiy adolat mezoniga qo‘yadi. Doston finalida samoviy sado ikki do‘stning sadoqati, mehri va himmatini koinot qadridan baland qo‘yib, ularga «Jannat yo‘li mana, Sizga ochiq, charog‘on» [9, 55-b.] deydi. Demak, shoir talqinida jannatga yo‘l halollik, sadoqat va insoniy fazilat orqali ochiladi. Asarning badiiy-falsafiy g‘oyasi adabiyotshunoslikda ham alohida tahlil qilingan [10].

Uchinchi usul — tarixiy va so‘fiyona siymolar obraziga murojaat. Omon Matjon bu usuldan alohida mahorat bilan foydalanib, islomiy ma’rifat va tasavvufiy qarashlarni milliy tarix silsilasiga singdirdi [12]. Shoirning 1977-yilda yozilgan «Beruniy» dramatik dostonida olim ilm yo‘lini shunday ta’riflaydi:

Ilm yo‘lida ranj chekmoqqa chog‘langan har kim
Xoli etsin o‘zni turmush g‘arazlaridan.
Ilm — qadamjo, g‘araz bilan qadam bosganlar
Etik yechmay to‘rga o‘tgan maxluqqa o‘xshar [11, 70-b.].

Bu misralarda ilm «qadamjo» — muqaddas ziyoratgoh sifatida tasvirlanadi: unga g‘araz bilan qadam bosish etik yechmay to‘rga o‘tishdek odobsizlik deb baholanadi. Shu tariqa shoir diniy atamani ochiq qo‘llamay, ilmga ibodatga xos poklik va xolislik talabini qo‘yadi. Dostonda ilmning ilohiy asosi boshqa qahramonlar tilidan ham ta’kidlanadi: Masihiy aqlni «zehn ko‘zgusida tangrining nuri» [11, 67-b.] deb ataydi, Shayxulislom esa «Ilm — aslida Xudo so‘zin mag‘zini chaqmoq» [11, 57-b.] deydi. Beruniy turli xalqlar e’tiqodiga hurmat bilan qarab, «Qadri teng deb o‘ylayman men e’tiqodlarning» [11, 69-b.] degan fikrni aytganida, Qozi Yoqubning «Xo‘p pardalab gapirmoqda!» [11, 70-b.] degan istehzoli luqmasi yangraydi. Bu replika e’tiborga molik: pardalangan ifoda asar ichida ham anglangan badiiy usul sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni doston o‘z poetikasini o‘zi tavsiflaydi. Bolta masxaraboz hikoya qilgan Xorazmshoh Ma’munning «U yuksakdir dunyodagi jami narsadan, / U hokimdir mustabidlar ustidan hatto!» [11, 49-b.] degan so‘zlarida ilm zolim hukmdorlar irodasidan ustun qo‘yiladi. Doston so‘ngida asirlikka olib ketilayotgan olimning «Gunohimiz axir bizning ne edi, tangrim!» [11, 167-b.] degan nidosi esa xalq taqdiri uchun Yaratganga qilingan munojot ohangini kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, sovet davri o‘zbek she’riyatida diniy mazmun yo‘qolmadi, balki pardalangan ifoda shaklida yashashda davom etdi. Tabiat ramzlari, savol va shartli murojaat hamda tarixiy siymo niqobi bu ifodaning asosiy usullari bo‘lib, ularning har birida «parda» va «belgi» uyg‘unligi kuzatiladi: «kimgadir» olmoshi, «bor bo‘lsang agar» sharti, «oliy haqiqat» haqidagi savol va «qadamjo» timsoli diniy mazmunni senzuradan yashirgan holda o‘quvchiga yetkazdi. Pardalangan ifoda badiiy shartlilik va ko‘p qatlamli ma’no hosil qilib, she’riyatning estetik imkoniyatlarini kengaytirdi. Aynan shu tajriba mustaqillik yillarida ochiq ifoda bilan uyg‘unlashib, o‘zbek she’riyatidagi irfoniy teranlashuvga zamin hozirladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Loseff L. On the Beneficence of Censorship: Aesopian Language in Modern Russian Literature. — München: Verlag Otto Sagner, 1984. — 274 p.

2. Tyrrell M. S. Aesopian Literary Dimensions of Azerbaijani Literature of the Soviet Period, 1920–1990. — Lanham: Lexington Books, 2000.

3. Haqqul I. Qismat tuyg'usi — Vatanni tanish [Elektron resurs]. — URL: www.kh-davron.uz (murojaat sanasi: 14.10.2026).

4. Oripov A. Hayratning ko'zlari katta bo'ladi…: suhbat // Yoshlik. — 1992 [Elektron resurs]. — URL: www.kh-davron.uz (murojaat sanasi: 14.10.2026).

5. Muhammad Yusuf. Ishq kemasi: She'rlar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.

6. Rauf Parfi. She'rlar [Elektron resurs]. — URL: www.kh-davron.uz (murojaat sanasi: 14.10.2026).

7. Tojiyev X., Fayzullayeva O. Rauf Parfi ijodida sonet [Elektron resurs]. — URL: www.kh-davron.uz (murojaat sanasi: 14.10.2026).

8. Shavkat Rahmon. Saylanma. — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1997.

9. Oripov A. Jannatga yo'l: dostonlar. — Toshkent: Ijod nashr, 2021.

10. Mirzamahmudov A. A. Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" asari badiiy-falsafiy g'oyasining tasviriy yechimi // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot. — 2023. — Vol. 2, № 4. — B. 85–87.

11. Omon Matjon. Beruniy: dramatik doston [Elektron resurs]. — URL: www.ziyouz.com kutubxonasi (murojaat sanasi: 13.10.2026).

12. Panayeva U. B. Omon Matjon asarlarida tarixiylik konsepsiyasi: monografiya. — Buxoro, 2025.

UDC 811.161.1'42:796.7

LEXICAL AND MORPHOLOGICAL FEATURES OF RUSSIAN-LANGUAGE MOTORSPORT DISCOURSE

Porubay I., PhD in Philology, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Maqolada rus tilidagi avtosport diskursining leksik va morfologik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarning moslashuvi, so'z yasalish modellari, umumiste'mol so'zlarining maxsus ma'nolar kasb etishi, shuningdek, kasbiy terminologiya va jargonning shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Kasbiy muloqot va sport ommaviy axborot vositalariga xos metaforalar hamda milliy o'ziga xos ifodalarga alohida e'tibor qaratiladi. Tahlil natijalari rus tilidagi avtosport diskursi xalqaro terminologiyani o'ziga xos milliy til vositalari bilan uyg'unlashtirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *avtosport diskursi, kasbiy leksika, sport terminologiyasi, o'zlashma so'zlar, so'z yasalishi, semantik o'zgarishlar, metafora, kasbiy jargon.*

Аннотация. *В статье рассматриваются лексические и морфологические особенности русскоязычного автоспортивного дискурса. Анализируются процессы адаптации англоязычных заимствований, модели словообразования, приобретение общеупотребительными словами специализированных значений, а также формирование профессиональной терминологии и жаргона. Особое внимание уделяется метафорам и национально-специфическим выражениям, характерным для профессиональной коммуникации и спортивных СМИ. Проведённый анализ показывает, что русский автоспортивный язык сочетает международную терминологию с собственными национальными языковыми средствами.*

Ключевые слова: *автоспортивный дискурс, профессиональная лексика, спортивная терминология, заимствования, словообразование, семантические изменения, метафора, профессиональный жаргон.*

Abstract. *This article examines the lexical and morphological features of Russian-language motorsport discourse. It explores the adaptation of English loanwords, word-formation patterns, the specialised meanings acquired by everyday words, and the development of professional terms and jargon. Particular attention is paid to metaphors and nationally specific expressions that characterise professional and media communication. The analysis shows that Russian motorsport language combines international terminology with linguistic resources of its own.*

Keywords: *motorsport discourse, professional vocabulary, sports terminology, borrowings, word formation, semantic change, metaphor, professional jargon.*

Introduction

Motorsport discourse is a specialised form of communication that brings together technical, professional and media-related elements. Its language is characterised by a high density of terminology, the active use of English borrowings, and expressive devices typical of sports journalism and commentary.

Russian-language motorsport discourse has developed under the influence of international terminology and national linguistic traditions. Alongside borrowed terms, it includes professional jargon, metaphors and set expressions that reflect specific ways of perceiving and describing racing events. The aim of this article is to identify the main lexical and morphological patterns in the development of Russian-language motorsport discourse and to examine how international terminology interacts with resources specific to the Russian language.

Materials and methods

The study draws on professional terms, English borrowings, derived words, set expressions, metaphors and professional jargon used by motorsport team members, journalists and commentators. The analysis applies descriptive, structural and word-formation, contextual-semantic, comparative, and functional-stylistic methods. Taken together, these methods make it possible to examine the selected language units in terms of their structure, meaning, origin and communicative function.

Results and discussion

Russian motorsport language is used in several communicative settings: professional communication, sports journalism and live commentary. In the professional environment, accuracy and economy in conveying technical information are essential, whereas media discourse tends to be more expressive and evaluative. The vocabulary of motorsport in contemporary media has already been examined in a dedicated study, notably by O. S. Rogaleva [1].

One of the most distinctive features of this discourse is the adoption of loanwords, especially from English. Terms such as «пит-стоп» (pit stop), «спринт» (sprint), «рестарт» (restart), «апекс» (apex) and «болид» (race car) become integrated into the Russian inflectional system, as in «пит-стопа», «на пит-стопе» and «в спринте». Borrowed stems also serve as the basis for new word formations, including «формулист», «раллист», «моторист» and «шинник». These processes reflect the broader tendency for international sports terminology to enter the Russian language [2].

Professional communication also uses verbal constructions with technical nouns and verbs derived from borrowed stems, for example «настроить сетап» (to adjust the set-up), «рестартовать систему» (to restart a system) and «оттелеметрить данные» (to process telemetry data). Such forms help speakers communicate efficiently and refer to work-related actions in a concise way. Analytical and technical texts commonly use deverbal nouns such as «торможение» (braking), «ускорение» (acceleration), «переключение» (shifting) and «износ» (wear). By contrast, commentary relies more heavily on dynamic verbs such as «атакует» (attacks), «догоняет» (catches up), «опередил» (overtook) and «заблокировал» (locked up).

Another characteristic feature is the use of adjectives as nouns when the context makes the omitted noun clear. For example, «мягкие», «средние» and «жёсткие» (soft, medium and hard tyres) can be used without the word «шины» (tyres). Morphological devices thus serve different purposes, ranging from the precise naming of technical processes to the creation of an emotional response in the audience.

The lexical system of motorsport discourse combines international terms, everyday words used in specialised senses, and professional jargon specific to the Russian-speaking community. Professional communication favours concise labels: the word «болид» is often used instead of the longer expression «гоночный автомобиль» (racing car), while «износ» (wear) may refer specifically to tyre wear when the context is clear. In the same way, words such as «резина» (rubber), «темп» (pace) and «трафик» (traffic) acquire specialised meanings that are readily understood by those involved in motorsport communication.

The semantic reinterpretation of everyday vocabulary is particularly noteworthy. In this context, «резина» refers to a set of racing tyres, «темп» describes a car's competitiveness over a race

distance, and «трафик» denotes a cluster of cars that may affect a driver's performance. These concise labels allow complex information to be conveyed without lengthy explanations.

Metaphor also plays an important role. Expressions such as «грязный воздух» (dirty air), «окно пит-стопа» (pit-stop window), «поймать машину» (to catch or regain control of the car), «потерять заднюю ось» (to lose the rear end) and «убить резину» (to destroy the tyres) provide vivid descriptions of technical and racing situations. For example, «грязный воздух» refers to the turbulent airflow behind another car, while «убить резину» describes excessive tyre wear. Metaphor is one of the productive mechanisms through which sports terminology and professional jargon are formed [3].

A number of compact items of professional jargon are also characteristic of Russian-language motorsport communities. Their meanings do not always have a one-word equivalent in English. These include «сход» (retirement from a race), «завал» (a multi-car pile-up), «самовоз» (a car with a decisive technical advantage) and «доезд» (a cautious run to the finish). These terms illustrate a preference for semantic compression: a single word can convey a situation that may require several words or a descriptive phrase in English.

The term «самовоз» is particularly revealing. Originating in fan and journalistic discourse, it describes a car whose technical advantage is so substantial that it makes achieving a strong result considerably easier for the driver. In English, a similar idea is usually expressed through phrases such as "dominant car" or "car advantage"; there is no exact one-word equivalent. The terms «сход», «завал» and «доезд» are similarly compact and are widely used in Russian-language commentary and analysis.

Conclusion

Overall, Russian-language motorsport discourse can be viewed as a dynamic subsystem of contemporary Russian, shaped by international motorsport and national communication traditions. Its morphology reflects the adaptation of borrowings, suffixal formation of professional terms, verbs derived from borrowed stems and deverbal nouns. These forms support precision and economy in professional communication while making commentary more dynamic and expressive.

Lexically, the discourse combines international terms, everyday words with specialised meanings, metaphors and expressions specific to the Russian-speaking community. Terms such as «сход», «завал», «самовоз» and «доезд» show how complex racing situations can be condensed into short labels. The language therefore develops through both borrowing and the creation of its own naming resources.

REFERENCES:

1. Рогалева О. С. Лексика автоспорта в современных СМИ: семантика и функционирование // Коммуникативные исследования. 2014. № 2. С. 213–218.

2. Мусина Г. Ф., Сатарова Л. Заимствования в спортивной терминологии русского языка // Russian Linguistic Bulletin. 2023. № 3 (39). DOI: 10.18454/RULB.2023.39.5.

3. Балашова Л. В. Метафоризация спортивной терминологии в современном русском языке // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Филология. Журналистика. 2019. Т. 19. Вып. 4. С. 374–378. DOI: 10.18500/1817-7115-2019-19-4-374-378.

UO'K [811.111+811.512.133]'373.7

INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA GIDRONIM KOMPONENTLI VA GIDRONIMIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Qayumova Sh.Q., DSc, dots., Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek xalq maqollarida qo'llaniladigan gidronim komponentli hamda gidronimik birliklarning funksional-semantik xususiyatlari qiyosiy-lisoniy jihatdan tahlil qilinadi. Suv, daryo, dengiz, okean, irmoq, ariq kabi gidrografik mazmunga ega leksik birliklarning maqollar tarkibida voqelikni obrazli ifodalash, milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettirish, axloqiy-didaktik xulosalarni shakllantirish va kommunikativ ta'sirchanlikni kuchaytirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda gidronim va gidronimik birlik tushunchalarining o'zaro munosabati aniqlashtirilib, atoqli suv obyektlari nomlari bilan suv obyektlarini bildiruvchi turdosh otlarning farqli jihatlari izohlanadi. Ingliz va o'zbek maqollari misolida suv obrazining hayot, tajriba, donolik,*

imkoniyat, mehnat, farovonlik, o'zaro munosabat va inson xarakteri kabi semantik maydonlarni shakllantirishdagi vazifalari ochib beriladi. Qiyosiy tahlil natijasida ikki tilda umumiy semantik xususiyatlar bilan bir qatorda, milliy turmush tarzi, geografik muhit va tarixiy tajriba bilan bog'liq o'ziga xosliklar ham mavjudligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: *maqol, paremiologiya, gidronim, gidronimik birlik, gidronim komponent, funksional-semantik xususiyat, lingvomadaniyatshunoslik*

Аннотация. *В данной статье с сравнительно-лингвистической точки зрения анализируются функционально-семантические свойства гидронимических единиц с гидронимическими компонентами и гидронимических единиц, используемых в английских и узбекских народных пословицах. Подчеркивается роль лексических единиц с гидрографическим содержанием, таких как вода, река, море, океан, ручей, канава, в построении пословиц в образном выражении реальности, отражении национально-культурных ценностей, формировании морально-дидактических выводов и повышении коммуникативной эффективности. В исследовании уточняется взаимосвязь между понятиями гидронимических и гидронимических единиц, а также объясняются различные аспекты названий известных водоемов и родственных существительных, обозначающих водоемы. На примере английских и узбекских пословиц раскрываются функции образа воды в формировании таких семантических полей, как жизнь, опыт, мудрость, возможность, труд, процветание, взаимодействие и человеческий характер. Сравнительный анализ показывает, что наряду с общими семантическими особенностями, оба языка также обладают специфическими чертами, связанными с национальным образом жизни, географической средой и историческим опытом.*

Ключевые слова: *пословица, паремиология, гидроним, гидронимическая единица, гидронимический компонент, функционально-семантическая*

Abstract. *This article presents a comparative linguistic analysis of the functional-semantic characteristics of hydronyms and hydronymic units found in English and Uzbek proverbs. It examines the role of lexical units related to hydrography—such as water, river, sea, ocean, tributary, and canal—within proverbs, specifically regarding their capacity to express reality figuratively, reflect national-cultural values, formulate moral-didactic conclusions, and enhance communicative impact. The study clarifies the relationship between the concepts of "hydronym" and "hydronymic unit," while distinguishing between proper names of water bodies and common nouns denoting such features. Through examples from English and Uzbek proverbs, the article explores how the image of water contributes to the formation of semantic fields encompassing life, experience, wisdom, opportunity, labor, prosperity, interpersonal relations, and human character. The comparative analysis demonstrates that, alongside shared semantic features, both languages exhibit unique characteristics rooted in their respective national lifestyles, geographical environments, and historical experiences.*

Keywords: *proverb, paremiology, hydronym, hydronymic unit, hydronym component, functional-semantic feature*

Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy munosabat xalq og'zaki ijodi namunalarida, ayniqsa, maqollarda yaqqol namoyon bo'ladi. Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, urf-odatlari va milliy qadriyatlarini ixcham, obrazli hamda ta'sirchan shaklda ifodalovchi paremiologik birliklardir. Ularda inson va tabiat munosabatlari, mehnat, ijtimoiy hayot, yaxshilik va yomonlik, donolik va tajriba kabi tushunchalar turli obrazlar vositasida yoritiladi.

Maqollar tarkibida tabiat hodisalari va geografik obyektlarni ifodalovchi birliklar alohida o'rin tutadi. Jumladan, suv, daryo, dengiz, okean, irmoq, buloq, ariq kabi gidrografik mazmundagi so'zlar xalqning tabiiy muhit bilan munosabati va borliq haqidagi tasavvurlarini ifodalashda faol qo'llaniladi. Bunday birliklar maqol tarkibida faqat predmet yoki tabiiy obyekt nomi sifatida emas, balki turli ko'chma ma'nolarni shakllantiruvchi obrazli vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ingliz va o'zbek maqollarida suv bilan bog'liq birliklarning qo'llanishi o'ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarga ega. Ingliz tilidagi water, river, sea, ocean kabi birliklar ko'pincha inson xarakteri, hayotiy tajriba, imkoniyat, qarindoshlik munosabatlari va voqelik ko'lami bilan bog'liq

ma’nolarni ifodalasa, o‘zbek tilidagi suv, daryo, ariq, buloq kabi birliklar hayot manbai, mehnat, dehqonchilik, farovonlik va jamoaviy hamkorlik tushunchalari bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi ingliz va o‘zbek maqollarida gidronim komponentli birliklarning semantik imkoniyatlari, funksional vazifalari hamda milliy-madaniy mazmunini qiyosiy o‘rganish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek maqollarida gidronim komponentli va gidronimik birliklarning funksional-semantik xususiyatlarini aniqlash, ularning umumiy va milliy o‘ziga xos jihatlarini ochib berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

gidronim va gidronimik birlik tushunchalarining lingvistik mohiyatini aniqlash;

ingliz va o‘zbek maqollarida suv bilan bog‘liq komponentlarning qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish;

gidronimik birliklarning semantik guruhlarini tasniflash;

ularning maqol tarkibidagi funksional vazifalarini aniqlash;

ikki til materiallari asosida umumiy va milliy-madaniy xususiyatlarni qiyosiy tahlil qilish.

Onomastika tilshunoslikning atoqli otlarni o‘rganuvchi sohasi bo‘lib, uning tarkibida toponimika geografik obyektlarning nomlarini tadqiq etadi. Gidronimika esa suv obyektlari nomlarini o‘rganuvchi yo‘nalish hisoblanadi. Gidronimlar daryo, ko‘l, dengiz, okean, buloq va boshqa suv obyektlariga berilgan atoqli nomlarni anglatadi. Masalan, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Thames, Severn kabi nomlar gidronimlar sirasiga kiradi.

Biroq maqollar tahlilida gidronim tushunchasini gidrografik mazmundagi barcha leksik birliklar bilan tenglashtirish to‘g‘ri emas. Chunki suv, daryo, dengiz, okean, ariq, buloq kabi birliklar, odatda, atoqli nom emas, balki suv yoki suv obyektining umumiy turini bildiruvchi turdosh otlardir. Shunga qaramay, ular maqollar tarkibida gidronimik obrazlarni shakllantiruvchi muhim komponentlar sifatida qatnashadi.

Shu jihatdan tadqiqotda quyidagi tushunchalarni farqlash maqsadga muvofiq:

Gidronimlar – muayyan suv obyektiga berilgan atoqli geografik nomlar.

Gidrografik leksik birliklar – suv va suv obyektlarining umumiy turini bildiruvchi so‘zlar.

Gidronim komponentli maqollar – tarkibida gidronim yoki suv obyektini bildiruvchi leksik komponent qatnashgan paremiologik birliklar.

Gidronimik obrazlar – suv obyektlari va suv hodisalarining ko‘chma, ramziy hamda baholovchi ma’nolarda qo‘llanishi natijasida shakllangan obrazlar.

Demak, ingliz va o‘zbek maqollarini o‘rganishda gidronim komponentli birliklar tushunchasi kengroq tahliliy doirani qamrab oladi. Bunda atoqli gidronimlar bilan bir qatorda, suvga oid turdosh otlarning ham semantik va pragmatik imkoniyatlari o‘rganiladi.

V. N. Teliya tomonidan ishlab chiqilgan lingvomadaniy yondashuv frazeologik birliklarning milliy-madaniy mazmunini ochib berishda muhim nazariy asos bo‘la oladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, til birliklarining ma’nosi faqat lug‘aviy mazmun bilan chegaralanmaydi, balki xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va madaniy tasavvurlari bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Maqollar tarkibidagi gidrografik komponentlar ham ana shunday madaniy axborotni tashuvchi birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ingliz maqollarida water, river, sea, ocean kabi birliklar turli semantik vazifalarni bajaradi. Ular insonning ichki dunyosi, hayotiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va borliq haqidagi qarashlarini obrazli ifodalashga xizmat qiladi.

2.1. Suvning donolik va ichki teranlik ramzi sifatidagi talqini

Ingliz tilidagi mashhur maqollardan biri:

“Still waters run deep.”

Ushbu maqolning o‘zbekcha mazmuniy muqobili “Sokin suvning tubi chuqur bo‘ladi” tarzida berilishi mumkin. Maqolda still waters birikmasi tashqi tomondan sokin ko‘ringan, biroq ichki dunyosi teran bo‘lgan insonni ifodalaydi.

Mazkur birlikning semantik tuzilishida quyidagi ma’no qatlamlari mavjud:

sokinlik – tashqi xotirjamlik;

chuqurlik – ichki teranlik;

suv – insonning ruhiy va intellektual dunyosi.

Maqolning asosiy funksiyasi inson xarakteriga baho berish, tashqi ko‘rinish asosida xulosa chiqarishning noto‘g‘riligini anglatishdan iborat. Shu sababli u didaktik va baholovchi vazifani ham bajaradi.

2.2. Suvning imkoniyat va shaxsiy tanlov ramzi sifatidagi vazifasi

Ingliz tilidagi yana bir maqol:

“You can lead a horse to water, but you can't make it drink.”

Uning mazmuni shundan iboratki, insonga muayyan imkoniyat yaratib berish mumkin, ammo undan foydalanishga majburlash mumkin emas.

Ushbu maqolda water komponenti imkoniyat, sharoit yoki yordam ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Horse obrazi esa mustaqil qaror qabul qiluvchi subyektni ifodalaydi.

Maqolning funksional-semantik xususiyatlari quyidagilarda ko‘rinadi:

imkoniyat va undan foydalanish o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish;

shaxsiy mas’uliyatni ta’kidlash;

majburlashning chegaralarini ifodalash;

tarbiyaviy xulosa chiqarishga undash.

Ushbu maqol ta’lim-tarbiya, maslahat berish, ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy rivojlanish bilan bog‘liq vaziyatlarda qo‘llanilishi mumkin.

2.3. Suvning ijtimoiy munosabatlar ramzi sifatidagi vazifasi

“Blood is thicker than water.”

Mazkur maqolda blood va water komponentlari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilgan. Blood qarindoshlik va oilaviy rishtalarni, water esa bu kontekstda oiladan tashqaridagi munosabatlarni ramziy ifodalashga xizmat qiladi.

Maqolning asosiy mazmuni qarindoshlik rishtalarining mustahkamligini ta’kidlashdan iborat. Bunda suv komponenti bevosita tabiiy hodisani emas, balki boshqa ijtimoiy munosabatlarga nisbatan qarama-qarshi qo‘yilgan ramziy tushunchani anglatadi.

Shunday qilib, ingliz maqollarida suv komponentlari insonning ichki dunyosi, mustaqil tanlovi va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashda faol semantik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Press.

2. Mieder, W. (2008). Proverbs Speak Louder Than Words: Wisdom in Art, Culture, Folklore, History, Literature, and Mass Media. New York: Peter Lang.

3. Norrick, N. R. (1985). How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. Amsterdam: Mouton.

4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.

5. Gibbs, R. W. (1994). The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. Cambridge: Cambridge University Press.

6. Telia, V. N. (1996). Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва: Школа «Языки русской культуры».

7. Kunin, A. V. (1996). Курс фразеологии современного английского языка. Москва: Высшая школа.

UO‘K 811.111’276:811.512.133’276

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SO‘ZLASHUV NUTQI TA’SIRIDA YUZAGA KELADIGAN LEKSIK-SEMANTIK VA GRAMMATIK O‘ZGARISHLAR

Qobilova N. S., PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Raximova N. M., magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy tadqiqot ingliz va o‘zbek tillarida so‘zlashuv nutqi ta’sirida yuzaga keladigan leksik-semantik hamda grammatik o‘zgarishlarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda og‘zaki muloqot jarayonida til birliklarining shakliy va mazmuniy jihatdan o‘zgarishi, yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishi, so‘z ma’nolarining kengayishi va torayishi, fonetik qisqarishlar, grammatik soddalashuv hamda sintaktik ellipsis hodisalari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *so‘zlashuv nutqi, til o‘zgarishi, leksik transformatsiya, semantik o‘zgarish, grammatik qisqarish, fonetik reduksiya, ellipsis, nutqiy tejamkorlik.*

Аннотация. *Настоящее научное исследование посвящено сравнительному анализу лексико-семантических и грамматических изменений, возникающих под влиянием разговорной речи в английском и узбекском языках. В исследовании рассматриваются формальные и семантические изменения языковых единиц в процессе устного общения, появление новых лексических единиц, расширение и сужение значений слов, фонетические сокращения, грамматическое упрощение, а также явления синтаксического эллипсиса.*

Ключевые слова: *разговорная речь, языковые изменения, лексическая трансформация, семантические изменения, грамматическое сокращение, фонетическая редукция, эллипсис, речевая экономия.*

Abstract. *This scientific study is devoted to a comparative analysis of lexical-semantic and grammatical changes occurring under the influence of colloquial speech in English and Uzbek. The research examines formal and semantic transformations of linguistic units in spoken communication, the emergence of new lexical units, the broadening and narrowing of word meanings, phonetic reductions, grammatical simplification, and the phenomenon of syntactic ellipsis.*

Keywords: *colloquial speech, language change, lexical transformation, semantic change, grammatical reduction, phonetic reduction, ellipsis, linguistic economy, English, Uzbek, comparative analysis.*

Til insonlar o‘rtasidagi asosiy aloqa vositasi bo‘lish bilan birga, jamiyatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishini aks ettiruvchi murakkab hodisadir. Til jamiyat bilan uzviy aloqada bo‘lib, doimiy o‘zgarish jarayonida rivojlanadi. Ushbu o‘zgarishlar fonetik, leksik, semantik, morfologik va sintaktik sathlarda namoyon bo‘ladi. Til o‘zgarishlarining muhim manbalaridan biri kundalik muloqot, ya’ni so‘zlashuv nutqidir. Chunki kundalik muloqotda insonlar rasmiy nutqqa nisbatan erkinroq va kommunikativ vaziyatga moslashgan til birliklaridan foydalanadilar. Natijada so‘zlarning qisqarishi, grammatik birliklarning tushirilishi, yangi ma’nolarning shakllanishi va norasmiy leksikaning kengayishi kuzatiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda so‘zlashuv nutqi til taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim kommunikativ muhit sifatida o‘rganilmoqda. Labovning sotsiolingvistik tadqiqotlari til o‘zgarishlarini ijtimoiy muhit va nutq uslubi bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Ingliz va o‘zbek tillarini qiyosiy o‘rganish so‘zlashuv nutqi ta’siridagi o‘zgarishlarning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

So‘zlashuv nutqi tilning kundalik muloqot jarayonida qo‘llanadigan funksional ko‘rinishi bo‘lib, insonlarning bevosita kommunikativ ehtiyojlarini qondirish, fikr almashish, axborot yetkazish, hissiyotlarni ifodalash va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. U, avvalo, tabiiyligi, spontanligi va interaktivligi bilan ajralib turadi. Spontan nutq oldindan to‘liq rejalashtirilmagan holda, bevosita muloqot jarayonida shakllanadi. Shu sababli unda takrorlar, pauzalar, o‘z-o‘zini tuzatish, grammatik jihatdan to‘liq bo‘lmagan gaplar, qisqartirilgan shakllar va ellipsis hodisasi ko‘p uchraydi.

Muloqot ishtirokchilari bir-birining nutqiga javob qaytaradilar, savol beradilar, fikrni to‘ldiradilar yoki o‘zgartiradilar. Halliday (1985) og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi farqlarni ularning kommunikativ sharoiti va funksional xususiyatlari bilan bog‘laydi. Og‘zaki muloqotda vaziyat, suhbatdoshlar o‘rtasidagi bevosita aloqa va umumiy kontekst katta ahamiyatga ega. So‘zlashuv nutqining asosiy belgilariga spontanlik, emotsionallik, vaziyatga bog‘liqlik, qisqalik va nutqiy tejamkorlik, takror va pauzalar, norasmiy leksik birliklardan foydalanish, grammatik shakllarning soddalashuvi hamda suhbatdosh bilan bevosita interaktiv aloqa kiradi [1].

Til doimiy ravishda rivojlanib, jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlarga moslashib boradigan murakkab tizimdir. Til o‘zgarishlari ichki va tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladi. Ichki lingvistik omillarga artikulyatsion qulaylik, nutqiy tejamkorlik, analogiya, fonetik moslashuv, grammatik tizimdagi o‘zaro ta’sir va leksik birliklarning qayta talqin qilinishi kiradi [2]. Tashqi omillar esa ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar, migratsiya, tillararo aloqa, ta’lim, ommaviy axborot vositalari, internet kommunikatsiyasi va avlodlar o‘rtasidagi nutqiy farqlar bilan bog‘liq. Labov (1972) til o‘zgarishlarini jamiyatdagi lingvistik xilma-xillik va ijtimoiy munosabatlar bilan

bog‘liq holda o‘rganadi. Uning yondashuviga ko‘ra, tilning turli variantlari bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi va ayrim variantlar vaqt o‘tishi bilan kengroq tarqalishi mumkin. Shu bilan birga, so‘zlashuvda uchraydigan har qanday qisqartma yoki grammatik chekinishni avtomatik ravishda til o‘zgarishi deb hisoblash mumkin emas.

Ayrim shakllar faqat muayyan vaziyat, ijtimoiy guruh yoki hudud doirasida qo‘llanishi mumkin. Ularning barqaror til o‘zgarishiga aylanganini aniqlash uchun kengroq nutqiy material va uzoq muddatli kuzatuv zarur [3]. Nutqiy tejamkorlik kommunikatsiya jarayonida axborotni imkon qadar kamroq artikulyatsion va strukturaviy vositalar yordamida yetkazish tamoyilidir[4]. Ingliz tilida grammatik qisqarishlar keng tarqalgan: “I am” → “I’m”, “You are” → “You’re”, “Do not” → “Don’t”, “Cannot” → “Can’t”, “I will” → “I’ll”. Bundan tashqari, so‘zlashuv nutqida fonetik qisqarishlar ham mavjud: “going to” → “gonna”, “want to” → “wanna”, “got to” → “gotta”, “give me” → “gimme”, “let me” → “lemme”. Masalan: “I am going to call you later.” Norasmiy og‘zaki nutqda: “I’m gonna call you later.” Yoki “Do you want to come with us?” Norasmiy shaklda “Do you wanna come with us?”

Bu shakllar asosan norasmiy og‘zaki muloqotga xos bo‘lib, rasmiy akademik yozuvda ularning qo‘llanishi cheklangan. O‘zbek tilida ham so‘zlashuv nutqida qisqarish va fonetik soddalashuv kuzatiladi. Masalan:“olib kelaman” → “opkelaman”,“olib boraman” → “oboraman”, “universitet” → “univer”,“borayapman” → “boryapman” yoki ayrim nutqiy variantlarda “borvoman”. Masalan: “Men universitetga borayapman.” So‘zlashuv variantida: “Men univerga boryapman”. Bunday shakllar og‘zaki va norasmiy kommunikatsiyaning tabiiy xususiyatlarini aks ettiradi. So‘zlashuv nutqi so‘zlarning nafaqat shakliga, balki ma’nosiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Muayyan so‘z kundalik muloqotda yangi kontekstlarda qo‘llanib, vaqt o‘tishi bilan qo‘shimcha yoki ko‘chma ma’nolarni hosil qilishi mumkin. Ingliz tilida “cool” so‘zi bunga misol bo‘la oladi. Uning asosiy ma’nolaridan biri “salqin” bo‘lsa-da, so‘zlashuv tilida u “ajoyib”, “yaxshi”, “zamonaviy” yoki “ma’qul” ma’nolarida ham qo‘llanadi. “The room is cool.” Bu gapda “cool” haroratni bildiradi. “This is a cool idea.” Bu yerda esa “cool” ijobiy baholash ma’nosida qo‘llangan. “Awesome” so‘zi ham kundalik ingliz tilida kuchli ijobiy baholashni ifodalashi mumkin: “That movie was awesome”. O‘zbek tilida “zo‘r” so‘zi ham turli kontekstlarda keng ma’no doirasiga ega. Masalan: “Bu mashina juda zo‘r”. “Bugungi dars zo‘r bo‘ldi.” “Zo‘r fikr ekan.” Ushbu misollarda “zo‘r” so‘zi mos ravishda sifat, baholash va ijobiy munosabatni ifodalash uchun xizmat qilmoqda. “Gap yo‘q” birikmasi ham so‘zlashuv nutqida o‘ziga xos pragmatik ma’no kasb etadi: Uning ingliz tili juda yaxshi. Gap yo‘q. Bu yerda “gap yo‘q” literal ma’noda emas, balki “juda yaxshi”, “a’lo”, “e’tiroz yo‘q” mazmunida ishlatilgan [5]. Sleng so‘zlashuv nutqining muhim qatlamlaridan biri bo‘lib, ko‘pincha muayyan yosh, ijtimoiy yoki kommunikativ guruhlar tomonidan faol qo‘llanadi [6]. Ingliz tilida “bro”, “mate”, “dude”, “guy” kabi birliklar norasmiy muloqotda keng ishlatiladi. Masalan: “Hey, bro, how are you?” Bu gap samimiy va norasmiy muloqotga xos. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ham yangi qisqartma va sleng birliklarning tarqalishiga yordam beradi. Masalan, “LOL”, “OMG”, “BTW”, “DM” kabi birliklar raqamli kommunikatsiyada keng uchraydi. O‘zbek tilida ham internet va zamonaviy texnologiyalar ta’sirida inglizcha birliklar faol qo‘llanmoqda. Masalan: “like bosmoq”, “post tashlamoq”, “chat qilmoq”, “online bo‘lmoq”, “komment yozmoq”, “story qo‘ymoq”. Bunday birliklarda inglizcha leksik asos o‘zbek tilining grammatik tizimiga moslashadi. Masalan, “meetingga”, “projectni”, “deadlinegacha” shakllarida inglizcha birliklarga o‘zbek tilining grammatik qo‘shimchalari qo‘shilgan. Masalan: “Bugun meetingga boraman.” “Projectni ertaga topshiramiz.” “Deadlinegacha tugatishimiz kerak”. Ushbu misollar zamonaviy so‘zlashuv nutqida til kontaktining kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijasida so‘zlashuv nutqi ingliz va o‘zbek tillarining leksik, semantik va grammatik rivojlanishida muhim omillardan biri ekanligi ko‘rindi. Kundalik muloqotning spontanligi va interaktivligi qisqartirish, fonetik reduksiya, ellipsis, semantik kengayish, sleng, pragmatik birliklar va o‘zlashmalar kabi hodisalarning faol qo‘llanishiga sharoit yaratadi. Ingliz tilida “gonna”, “wanna”, “gimme”, “cool” kabi birliklar so‘zlashuv nutqining turli o‘zgarishlarini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa “opkelaman”, “oboraman”, “univer”, “zo‘r”, “haligi”, “xullas” kabi birliklar kundalik kommunikatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki,

ingliz va o‘zbek tillarida so‘zlashuv nutqidagi o‘zgarishlarning asosiy sabablaridan biri kommunikativ qulaylik va nutqiy tejamkorlikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aitchison, J. (2013). Language Change: Progress or Decay? Cambridge University Press.
2. Trudgill, P. (2000). Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society.
3. Bybee, J. (2010). Language, Usage and Cognition. Cambridge University Press.
4. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
5. Meyerhoff, M. (2011). Introducing Sociolinguistics. Routledge.
6. Tagliamonte, S. A. (2016). Teen Talk: The Language of Adolescents. Cambridge University Press.

UO‘K 811.111’373.7:811.512.133’373.7

INGLIZ VA O‘ZBEK PAREMIOLOGIYASIDA “UY” KONSEPTINING QIYOSIY-LINGVOMADANIY TAHLILI

Qobilova N. S., PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
Tohirova Z. S., magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o‘zbek paremiologiyasida “uy” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Uy universal hayotiy makon bo‘lsa-da, uning madaniy talqini turlicha. Tadqiqotda uy konsepti qatnashgan maqollar orqali milliy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va baholash mezonlari yoritiladi. Kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va paremiologiya qarashlariga tayangan tahlil ikki tilda ham tegishlilik, yaqinlik va hissiy bog‘liqlik umumiy ekanini ko‘rsatadi. Ingliz maqollarida shaxsiy hudud va daxlsizlik, o‘zbek maqollarida esa oila birligi, xonadon osoyishtaligi, mehmondo‘stlik va hamjihatlik nisbatan faol ifodalanadi. Bu farqlar mutlaq qarama-qarshilik emas, balki ustuvor lingvomadaniy tendensiyalardir.*

Kalit so‘zlar: *paremiologiya, konsept, “uy” konsepti, lingvomadaniyat, milliy qadriyat, maqol, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Аннотация. *В статье сопоставительно анализируется концепт «дом» в английской и узбекской паремиологии. Рассматриваются культурные ценности, социальные отношения и оценочные значения пословиц. В обоих языках дом связан с близостью и принадлежностью, однако в английских пословицах заметнее личное пространство и неприкосновенность, а в узбекских — семейное единство, домашний мир и гостеприимство.*

Ключевые слова: *паремиология, концепт, «дом», лингвокультура, пословица, национальные ценности, сопоставительный анализ.*

Abstract. *The article compares the linguocultural representation of the concept of home in English and Uzbek proverbs. Both traditions associate home with belonging and emotional closeness. English proverbs more visibly foreground personal space and privacy, while Uzbek proverbs tend to emphasize family cohesion, domestic harmony, hospitality and social solidarity.*

Keywords: *paremiology, concept, home, linguoculture, proverb, cultural values, comparative analysis.*

Kirish: Til muloqot vositasi bo‘lish bilan birga, tarixiy tajriba va madaniy xotirani ham avloddan avlodga yetkazadi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslik til birliklarini ularning konseptual va madaniy mazmuni bilan birga o‘rganadi. A. Wierzbicka “kalit so‘zlar” muayyan jamiyat uchun muhim tushunchalarni aks ettirishini ta’kidlaydi. Demak, madaniy jihatdan salmoqli konseptlarning maqollarda ifodalanishini aniqlash muhim ilmiy vazifadir. Maqollar ixcham shaklda jamlangan hayotiy tajriba, baho va ijtimoiy qarashlarni saqlaydi. W. Mieder ularning an’anaviy xususiyati va turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llanishini o‘rgangan. Shu bois maqollar tushunchalarning xalq ongida qaysi qadriyatlar bilan bog‘lanishini aniqlash uchun muhim manbadir.

“Uy” konsepti yashash makonidan kengroq mazmunga ega: u oila, yaqinlik, xotira, xavfsizlik, tegishlilik va ruhiy barqarorlikni qamrab oladi. Shuning uchun uni faqat inglizcha house yoki home so‘zlarining lug‘aviy muqobili sifatida o‘rganish yetarli emas. Z. Kövecses til, tafakkur va madaniyatning ma’no shakllanishidagi o‘zaro ta’sirini yoritadi.

Kognitiv tilshunoslik ma’noni inson tajribasi va konseptuallashtirish

bilan bog‘laydi. Langacker, Lakoff va Johnson qarashlari maqollardagi “uy” obrazini tajriba va konseptual metaforalar orqali izohlashga asos bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek paremiologiyasini qiyoslash shuni aniqlashga yordam beradiki, har ikki madaniyatda uy qadrlansa-da, uning ijtimoiy-madaniy mazmuni bir xil emas. “East or West, home is best” o‘z uyining qadrini, “An Englishman’s home is his castle” esa uyni himoyalangan shaxsiy makon sifatida ifodalaydi. O‘zbek maqollarida uy ko‘pincha oila, qarindoshlik va tinchlik bilan bog‘lanadi.

Tadqiqotning maqsadi — ingliz va o‘zbek maqollarida “uy” konseptining lingvomadaniy mazmunini aniqlash, umumiy va milliy xususiyatlarini qiyoslash. Ilmiy yondashuv konseptni semantik jihatdan hamda unda mujassam qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy baholar asosida o‘rganishni nazarda tutadi.

Nazariy-metodologik asos: Tadqiqot lingvomadaniy, kognitiv-semantik va qiyosiy yondashuvlarga asoslanadi. Birinchi yondashuv maqollardagi milliy qadriyatlarni, ikkinchisi obraz va ma’no munosabatini, qiyosiy yondashuv esa ikki tildagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga xizmat qiladi. Material sifatida uy, xonadon, oila va maishiy hayot mazmunini ifodalovchi inglizcha hamda o‘zbekcha maqollar tanlandi. Tahlil uch bosqichda olib borildi: maqollarning mazmuni aniqlandi, takrorlanuvchi madaniy-semantik belgilar ajratildi, so‘ng materiallar qiyoslandi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’no bilan birga baholovchi va madaniy komponentlar ham hisobga olindi.

Ingliz va o‘zbek maqollarida “uy” konseptining lingvomadaniy tahlili

Har ikki tilda uy yaqin va tanish makon sifatida ijobiy baholanadi, ammo unga qo‘shiladigan ma’nolar madaniy tajribaga qarab farqlanadi.

“East or West, home is best” maqolida o‘z uyiga hissiy bog‘lanish ifodalanadi. Sharq va g‘arb kabi keng geografik qarama-qarshilikka qaramay, eng qadrli makon home sifatida ko‘rsatiladi. Demak, home oddiy bino emas, balki tanishlik, qulaylik va tegishlilikni anglatuvchi konseptual makondir.

“An Englishman’s home is his castle” ifodasida uy qal’aga qiyoslanib, himoya, chegara va tashqi ta’sirdan xoli makon sifatida talqin qilinadi. Uyning qadri faqat yashash imkoniyatida emas, balki shaxsga tegishliligi va himoyalanganligidadir. Buni ingliz tilida shaxsiy mustaqillik va xususiy hayotga berilgan ahamiyat bilan bog‘lash mumkin.

Biroq ingliz maqollarini faqat individualizm bilan izohlash biryoqlama bo‘ladi. “Charity begins at home” maqolida uy axloqiy mas’uliyatning boshlanish nuqtasi sifatida talqin qilinadi: mehr va saxovat avvalo yaqin muhitda namoyon bo‘lishi kerak. Demak, home shaxsiy makon bilan birga axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas’uliyatni ham ifodalaydi.

O‘zbek maqollarida “uy” ko‘pincha xonadon, oila va osoyishtalik bilan bog‘lanadi. “O‘z uying — o‘lan to‘shaging” maqoli o‘z uyining boshqa joylardan afzalligini ifodalaydi va “East or West, home is best” bilan umumiy mazmunga ega. Shu bilan birga, o‘zbek talqinida uy qiymati moddiy ko‘rinishdan tashqari oilaviy munosabatlar va tinchlik bilan ham o‘lchanadi.

“Oila tinch — yurt tinch” maqolida xonadon osoyishtaligi jamiyat barqarorligining sharti sifatida baholanadi. Bu uy va keng ijtimoiy muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. “Mehmon — otangdek ulug‘” maqoli esa xonadonni qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar va mehmonlar bilan munosabatlar kechadigan makon sifatida tasvirlaydi.

1-jadval. “Uy” konseptining ingliz va o‘zbek paremiologiyasidagi ustuvor mazmunlari (“+” — mazmun mavjud, “+++” — nisbatan faolroq ifodalangan; sifat tahlili asosida)

Konseptual belgi	Ingliz maqollari	O‘zbek maqollari
O‘z uyining qadri	+	+
Tegishlilik	+	+
Shaxsiy makon	+	+
Oila va xonadon	+	+++
Oilaviy tinchlik	+	+++
Mehmondo‘stlik	+	+++
Individual daxlsizlik	+++	+
Ijtimoiy hamjihatlik	+	+++

Jadvalga ko‘ra, umumiy yadro tegishlilik va o‘z makonining qadridir. Ingliz materialida shaxsiy hudud va daxlsizlik, o‘zbek materialida oila, xonadon tinchligi va ijtimoiy aloqalar faolroq. Bu farqlar mutlaq milliy xususiyat emas, balki maqollarda kuzatilgan tendensiyalardir.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tahlil uy konsepti ikki tilda ham umuminsoniy tajriba va milliy qadriyatlarni aks ettirishini ko‘rsatdi. Ingliz maqollarida shaxsiy daxlsizlik va axloqiy mas’uliyat, o‘zbek maqollarida oila hamda jamiyat barqarorligi ta’kidlanadi. Konseptning uch darajasi ajratildi: makon (yashash va tegishlilik hududi), munosabat (oila va ijtimoiy aloqalar), qadriyat (tinchlik, xavfsizlik, mehr va barqarorlik). Ularning ustuvorligi qiyoslanayotgan maqollardagi lingvomadaniy farqlarni yuzaga chiqaradi.

Xulosa. Tadqiqot “uy” konsepti universal mazmun va milliy-madaniy xususiyatlar birligida shakllanishini ko‘rsatdi. Har ikki tilda uy qadrli makon, biroq ingliz maqollarida shaxsiy hudud va daxlsizlik, o‘zbek maqollarida oila birdamligi, xonadon tinchligi va hamjihatlik nisbatan faol. Shu bilan birga, har ikki materialda qarama-qarshi ko‘ringan xususiyatlar ham uchraydi; shu bois farqlar mutlaq emas, ustuvor tendensiyalar sifatida talqin qilinadi. Demak, “uy” oddiy yashash joyidan kengroq lingvomadaniy konseptdir. Uning maqollardagi ifodasini qiyoslash til, tafakkur va madaniyat munosabatlarini ochishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 495 b.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
3. Dirven R., Verspoor M. (eds.) *Cognitive Exploration of Language and Linguistics*. 2nd rev. ed. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 2004. – 277 p.
4. Kövecses Z. *Language, Mind, and Culture: A Practical Introduction*. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 416 p.
5. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 256 p.
6. Langacker R.W. *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 562 p.
7. Salzmann Z., Stanlaw J., Adachi N. *Language, Culture, and Society: An Introduction to Linguistic Anthropology*. 5th ed. – Boulder: Westview Press, 2012. – 434 p.
8. Wierzbicka A. *English: Meaning and Culture*. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 352 p.

UO‘K 94(575.1):39(=411.21)

ZARAFŞON VOHASIDA ARAB JAMOALARINING JOYLAŞUVI TARIXI.

E.Q.Qurbonov, tarix fani öqituvçisi, Şarof Raşidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-son akademik litseyi, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zarafşon vohasiga turli tarixiy bosqiçlarda etnik jamoalarning kirib kelişi, joylaşuvi va mahalliy madaniyatlar bilan qorişuv jarayonlari yoritilgan. Xususan, mintaqaga arab jamoalarining kirib kelişi, muqim örnaşuvi hamda ularning şakllaniş bosqiçlari tahlil qilinadi. Şuningdek, tadqiqotda Samarqand viloyati arab jamoalarining hududiy joylaşuvi, tabiiy-geografik xususiyatlari hamda an’anaviy xöjalik yuritiş madaniyatining öziga xos jihatlari oçib berilgan.*

Kalit sözlar: *Zarafşon vohasi, Samarqand, arab jamoalari, migratsiya, etnik integratsiya, etnolingvistika, an’anaviy xöjalik.*

Аннотация. *В статье освещаются процессы проникновения, расселения и взаимодействия различных этнических групп с местными культурами в Зеравшанской долине на различных исторических этапах. В частности, анализируются процессы миграции, оседлого расселения и этапы формирования арабских общин в регионе. Кроме того, в исследовании раскрыты особенности территориального размещения, природно-географические характеристики и специфика традиционной хозяйственной культуры арабских общин Самаркандской области.*

Ключевые слова: *Зеравшанская долина, Самарканд, арабские общины, миграция, этническая интеграция, этнолингвистика, традиционное хозяйство.*

Abstract. *This article examines the influx, settlement, and integration of various ethnic groups into the Zarafşan Valley across different historical stages, along with their interaction with local cultures. Specifically, it analyzes the migration, permanent settlement, and formative phases of Arab*

communities in the region. Furthermore, the study highlights the geographic distribution, environmental çaracteristics, and traditional economic and subsistence patterns of the Arab communities in the Samarkand region.

Key words: *Zarafşan Valley, Samarkand, Arab communities, migration, ethnic integration, ethnolinguistics, traditional economy.*

Kiriş. Bizga ma'lumki, Zarafşon vodiysi tabiiy-geografik joylaşuvi va ahamiyatiga köra faqatgina Özbekistonning emas, balki Örta Osiyo mintaqasining markaziy qismi hisoblanadi. Şu boisdan bu hudud asrlar davomida iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning tranzit markazi sifatida köplab tarixiy voqealarni boşdan keçirgan. Uşbu qulay şaroit va ijtimoiy-siyosiy omillar turli tarixiy bosqiçlarda har xil xalq va elatlarning mintaqaga kirib kelib, doimiy örnaşib qolişlariga hamda özaro madaniyatlar qorişuviga zamin yaratdi. Aynan şu sababli ham bugungi kunda voha aholisi etnik tarkibining şakllanişi özіga xos murakkab va şu bilan birga g'oyat qiziqarli tarixga ega. Xususan, bunday köp qatlamli etnokultural jarayonlar natijasida vodiy arab jamoalarining ham doimiy makonlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda Zarafşon vohasining Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida, şuningdek, uşbu mintaqa bilan geografik, tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan uzviy bog'liq bölgan Qaşqadaryo va Surxondaryo hududlarida arablar ziç yaşab kelayotgan önlab aholi manzilgohlarini uçratiş mumkin. Zero, "…arablarning O'rta Osiyodagi manzilgohlari qançalik keng yoyilganligini anglaş uçun istalgan batafsil xaritaga nazar taşlaş kifoya: deyarli şunday bir rayon yo'qki, unda "Arab" yoki "Arabxona" nomli qişloqlar bo'lmasin" [1. 114].

Asosiy qism. Mintaqaga arab jamoalariga mansub aholining kirib kelişi va joylaşuvi ming yillikdan oşiqroq tarixga ega. Şu bilan birga, uşbu jarayon uzoq davr mobaynida turli ijtimoiy-siyosiy hamda etnodemografik omillar ta'sirida bosqiçma-bosqiç keçgan bölib, uni ilmiy jihatdan tizimlaştiriş va davriylaştiriş masalasi tarixşunoslikda uzluksiz tadqiq etib kelinmoqda. B.X. Karmişeva ta'kidlaganidek "Tarixiy manbalar ma'lumotlari, şuningdek, tilşunoslik, etnografik va antropologik materiallar arablarning O'rta Osiyoga yagona bir hududdan va bir vaqtning o'zida kelmaganligini aniq ko'rsatib turibdi" [2. 249]. Albatta, sovet davri olimlari B.X. Karmişeva, S. L. Volin, G. V. Sereteli va I. N. Vinnikovlarning tadqiqotlari asosida arablarning O'rta Osiyoga qaçon ko'çib kelgani va ularning qaysi arab mamlakatlaridan çiqqanligi xususidagi masalalar atrofliça tahlil qilingan. Tarixçi olim Ş. Iskandarov takidlab ötganidek, "Örta Osiyoga arablarning kirib kelişini uç davrga böliş mumkin" [3. 51]. Zero, har bir davr özining tarixiy-siyosiy xususiyatlari, arab jamoalarining kirib kelişi sabablari va ularning mintaqaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotiga ta'siri bilan ajralib turadi.

Şubhasizki, arablarning mintaqaga kirib kelişining birinçi bosqiçi Arab xalifaligi istilolari hamda islom dinining yoyiliş jarayonlari bilan boğliq bölib, VII asr örtalaridan VIII asr oxirigaça bölgan davrni öz içiga oladi. Uşbu davrda Zarafşon vohasi va unga tutaş hududlarga harbiy-ma'muriy hamda diniy-taşviqot maqsadlarida kelgan arab bölinmalari joylaştirilib, ular mintaqada islomiy infratuzilma va etnik mavjudlikning dastlabki tayanç nuqtalarini şakllantirdilar. B.X. Karmişeva ta'kidlaganidek, VII–VIII asrlarda Movarounnahrning boş şaharlari — Buxoro va Samarqandda arablardan iborat yirik garnizonlar qoldirilgan bölib, Buxoroda ularga poytaxt aholisi uylari va yerlarining yarmi berilgan edi [2. 250]. Britaniyalik taniqli şarqşunos H. A. R. Gibb özining fundamental tadqiqotida uşbu jarayonni tahlil qilib, xalifalik siyosatining ustuvor yönalişi sifatida mahalliy markazlarda harbiy qarorgohlar barpo etiş va boşqaruvni mustahkamlaşga alohida e'tibor qaratilganini körsatib ötgan [4. 38-41].

Örta Osiyoga arab migratsiyasining ikkinçi bosqiçini umumiy holda IX–XV asrlarni öz içiga oladi deyiş mumkin. Qolaversa, uşbu jarayonni çuqurroq oçib beriş maqsadida uni içki jihatdan ikki davrga — IX–XII asrlar hamda XIV–XV asrlarga bölib örganiş ilmiy jihatdan yanada maqsadga muvofiqdir. Jumladan, V. V. Bartold örta asr geografi al-Istaxriy ma'lumotlariga tayanib, arablar X asrdayoq Samarqanddan şimolda joylaşgan Vedar qişloği va rustagida to'planganligini qayd etib o'tgan [1. 124]. Garçi hozirgi kunda ham Samarqand va Kattaqörğon arablari orasida öz ajdodlarining bu hududlarga köçib kelişlarini Amir Temur bilan boğlaş va buni asoslovçi rivoyatlar keltiriş odatiy holat bölsa-da, biroq S. L. Volin ta'kidlaganidek, uşbu fikr va rivoyatlarning haqiqiyligiga şubha

tuğdiruvçi köplab mulohazalar mavjud [2. 251]. Arab immigratsiyasining uçinçi bosqiçi XVI–XIX asrlarga tög‘ri keladi. Şu davrda köçib kelib örnaşgan arablarning juda köpçilik qismi hunarmandlar va kosiblardan taşkil topgan [3. 52].

Arab jamoalari aholisining uzoq davr mobaynida Zarafşon vohasida öz atrofidagi mahalliy özbek va tojik aholisi bilan yagona hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muhitda yaşab kelayotganliklari, qolaversa e’tiqod jihatidan farqlarning yöqligi kabi omillar ta’sirida mahalliy xalqlar bilan etnik qorişuvi sodir bölgan. Bu holat ayniqsa til masalasida yaqqol namoyon böladi. Zarafşon vohasi arab jamoalari aholisi içida hozirgi kunda hatto özaro oilaviy suhbatlarda ham özbek yoki tojik tilidan foydalaniş odatiy holatga aylangan. Xususan, B.X. Karmişevaning “Samarqand viloyatida arab tilining tojik yoki o‘zbek tili bilan butunlay almaşinuvi XX asr boşlarida yakunlangan” deya bergan xulosasi ham yuqoridagi fikrlarning ilmiy asosini taşkil etadi [2. 52]. Umuman olganda Zarafşon vohasi, ayniqsa Samarqand va Kattaqörğon hududlarida yaşovçi arablar içida til bilan boğliq bu jarayon boşqa hududlarga qaragandan kuçliroq sodir bölgan deyişimiz mumkin. Fikrimizça, bunaqa etnolingvistik holatga Zarafşon vohasining qadimdan yirik şaharsozlik, savdo-sotiq va madaniy markaz bölgani, şuningdek, mahalliy özbek va tojik aholisi bilan uzluksiz iqtisodiy-ijtimoiy hamda maişiy aloqalar sabab bölgan.

Özbekiston hududida yaşovçi arablarning salmoqli qismi Zarafşon vodiysi, ayniqsa Samarqand viloyati hududlarida istiqomat qilib kelmoqda. Ular asrlar davomida asosan viloyatning markaziy, şimoliy-ğarbiy va ğarbiy tumanlarida öz qişloqlari hamda mahallalarini barpo etişgan. Samarqand viloyati arablarining yaşaş hududlari, tabiiy-geografik xususiyatlari hamda aholining an’anaviy xöjalik yuritiş turlariga köra ularni şartli ravişda 3 ta guruhga böliş maqsadga muvofiqdir:

Birinçi guruh — Zarafşon daryosi havzasi hamda undan çiqarilgan tarmoqlar, xususan, Darg‘om kanali böylab joylaşgan arab jamoalarining aholi manzilgohlaridir. Uşbu qişloqlar sug‘orma dehqonçilik uçun öta qulay hududlarda joylaşgani tufayli, ularning aholisi azaldan, asosan, dehqonçilik va bog‘dorçilik bilan şug‘ullanib kelgan. Jumladan, Samarqand, Kattaqörg‘on va Narpay tumanlarida umumiy «Arabxona» nomi bilan ataluvçi qator qişloqlar, şuningdek, Kattaqörg‘on tumanidagi «Arabqişloq» hamda Narpay tumanidagi «Arabboy» kabi aholi punktlarida istiqomat qiluvçi arablar neça asrlardan buyon dehqonçilik, bog‘dorçilik va ularga tutaş xöjalik tarmoqlarini an’anaviy turmuş tarzi sifatida saqlab kelmoqda.

Ikkinçi guruh — Samarqand viloyatining janubiy-g‘arbiy hududlaridagi Örtaçöl daştida joylaşgan va aholisi, asosan, çorvaçilik bilan şug‘ullanadigan qişloqlardir. Bu hududlardagi arab jamoalari azaldan çorvaçilik, xususan, qoramolçilik hamda mayda şoxli çorvani köpaytiriş borasida boy amaliy tajribaga ega bölib kelgan.

Uçinçi guruhga esa şahar hududlari va ularga tutaş atrof-muhitda joylaşgan arab jamoalarining aholi manzilgohlarini kiritiş mumkin. An’anaviy şahar muhitiga mos ravişda, uşbu jamoalar azaldan xöjalik yuritişda hunarmandçilik va savdo-sotiq sohalarini ustuvor deb bilişgan. Xususan, Samarqand, Kattaqörg‘on, Ziyovuddin (Paxtaçi), Juma (Pastdarg‘om) şaharlarida hamda ularga yondoş aholi maskanlarida arablar uzoq davrlardan buyon alohida mahallalar yoki ixçam guruhlar şaklida istiqomat qilib kelgan. Biroq yaqin tarixiy davr mobaynida faol urbanizatsiya va etnodemografik jarayonlar ta’sirida bu kabi mahallalarning etnik qiyofasi ham özgarib, tobora rang-baranglaşib bormoqda.

Xulosa. Xulosa örnida ta’kidlaş joizki, arablarning Özbekiston hududiga kirib kelişi va uning keyingi tarixiy taraqqiyot bosqiçlariga nazar taşlasak, ular özbek xalqining köp asrlik etnografik va tarixiy qiyofasining şakllanişida öziga xos iz qoldirganini körişimiz mumkin. Xususan, Zarafşon vohasi, jumladan, bugungi Samarqand viloyati hududida asrlar davomida istiqomat qilib kelayotgan arab jamoalarining mahalliy aholi bilan etnolingvistik qorişuvi hamda ularning mintaqa xöjaligi va madaniy hayotidagi örni va ta’sirini alohida ilmiy yondaşuv asosida tadqiq etiş muhim amaliy hamda nazariy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. С. Л. Волин. К истории среднеазиатских арабов. (труды второй сессии ассоциации арабистов 19—23 октября 1937 г.). Москва, Ленинград. «Издательство Академии наук СССР». 1941, с.114

2. Б. Х. Кармышева. Очерки этнической истории районов Таджикистана и Узбекистана. Москва. 1976, с.249

3. Ş. Iskandarov. O'zbekiston arablari: an'analar va transformatsion jarayonlar. Toshkent. Yangi nashr. 2017, 51-bet.
4. Gibb H. A. R. The Arab Conquests in Central Asia. — London: The Royal Asiatic Society, 1923. — P. 38–41.
5. Turakulov E., Shonazarov Sh. Darg'omlik al-arab avlodlari. Samarqand: So'g'diyona, 1998

УДК 81`38

FUNCTIONAL-STYLISTIC FEATURES OF ENGLISH LOANWORDS IN MODERN UZBEK AND KOREAN LANGUAGES

S.M.Rakhmanova, independent researcher, Urgench State University named after Abu Raykhan Beruni, Urgench

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek va koreys tillarida inglizcha o'zlashmalarning funksional-uslubiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Inglizcha o'zlashmalarning texnologiya, ta'lim, iqtisodiyot, ommaviy axborot vositalari, sport va ommaviy madaniyat kabi turli sohalardagi qo'llanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning o'zbek va koreys tillariga funksional-uslubiy integratsiyasidagi umumiy va o'ziga xos jihatlar aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *inglizcha o'zlashmalar, o'zbek tili, koreys tili, funksional xususiyatlar, uslubiy xususiyatlar, leksik o'zlashuv, til kontaktlari, globallashuv.*

Аннотация. *В статье исследуются функционально-стилистические особенности английских заимствований в современном узбекском и корейском языках. Анализируется употребление английских заимствований в различных сферах, включая технологии, образование, экономику, средства массовой информации, спорт и массовую культуру. Также выявляются общие и специфические особенности их функционально-стилистической интеграции в узбекский и корейский языки.*

Ключевые слова: *английские заимствования, узбекский язык, корейский язык, функциональные особенности, стилистические особенности, лексическое заимствование, языковые контакты, глобализация.*

Abstract. *This article examines the functional and stylistic features of English loanwords in modern Uzbek and Korean. It focuses on their use in various fields, including technology, education, economics, mass media, sports, and popular culture. The study also identifies common and language-specific patterns in the functional and stylistic integration of English loanwords into Uzbek and Korean.*

Key words: *English loanwords, Uzbek language, Korean language, functional features, stylistic features, lexical borrowing, language contact, globalization.*

Introduction. The global influence of English has substantially contributed to the lexical development of Uzbek and Korean. English loanwords are increasingly used in technology, science, education, business, media, sports, and popular culture as a result of globalization, digitalization, and international communication. Their integration extends beyond lexical enrichment, influencing the functional and stylistic patterns of the recipient languages. Although Uzbek and Korean differ in their linguistic structures, writing systems, historical development, and language policies, both actively adapt English-derived vocabulary to various communicative contexts. Therefore, this study comparatively examines the functional distribution, stylistic features, and degree of integration of English loanwords in modern Uzbek and Korean, identifying both shared tendencies and language-specific patterns.

Literature review. Research on English loanwords has mainly developed within the fields of language contact, lexical borrowing, and linguistic change. E. Haugen (1950) examined the processes of linguistic borrowing and integration, while U. Weinreich (1953) studied lexical borrowing in the context of language contact and bilingualism. M. Haspelmath and U. Tadmor (2009) provided a comparative framework for analyzing loanwords across languages. These works offer a theoretical basis for examining how borrowed lexical units enter and become integrated into recipient languages.

Studies of English loanwords in Korean have focused on 외래어 and Konglish. H. Kim (2007) analyzed the phonological, morphological, and semantic features of Konglish, while E.-Y. J. Kim

(2023) examined English-based neologisms in contemporary Korean using corpus data. S. Park (2025) investigated the frequency and nativization of English-based loanwords in everyday Korean. Research on Uzbek has addressed the adaptation and use of English-derived vocabulary. S. M. Nishonova (2024) studied its phonological, morphological, semantic, and pragmatic adaptation, while I. Kuchkarov (2025) examined phonetic, morphological, and semantic integration. S. Yoqubjonova and N. Yoqubjonova (2025) focused on the morphological integration of English loanwords in contemporary Uzbek. However, comparative research specifically examining their functional and stylistic features in modern Uzbek and Korean remains limited. The present study addresses this gap by comparing their functional distribution, stylistic use, and degree of integration in the two languages.

Research methodology. This study applies a comparative, descriptive, corpus-based, and functional-stylistic approach to English loanwords in modern Uzbek and Korean. Data are collected from authoritative dictionaries, national language resources, academic publications, and contemporary media texts. The selected loanwords are analyzed according to their functional domains, stylistic registers, frequency, semantic features, and degree of linguistic integration. Quantitative and qualitative methods are used to identify their distribution, communicative functions, and stylistic value. The study also considers phonological, morphological, semantic, and sociolinguistic factors to identify common and language-specific patterns of English loanword integration.

Results. The analysis shows that English loanwords are actively used in both modern Uzbek and Korean, particularly in technology, business, education, mass media, sports, and popular culture. In Uzbek, widely used examples include *internet, marketing, biznes, menejer, onlayn, futbol,* and *sport*. In Korean, corresponding English-derived forms include *인터넷* (internet), *마케팅* (marketing), *비즈니스* (business), *매니저* (manager), *온라인* (online), *풋볼* (football), and *스포츠* (sports), while *축구* is the Sino-Korean term for football/soccer and is not an English loanword. English loanwords perform different functions depending on the communicative context. For example, *marketing* and *마케팅* are mainly used in business and professional contexts, while *internet/인터넷* and *online/온라인* occur widely in both formal and everyday communication. In media and popular culture, English-derived expressions such as *online meeting* and *social media* are also increasingly common.

The results further indicate that English loanwords undergo language-specific adaptation. In Korean, English words are normally represented in Hangul, as in *computer → 컴퓨터*, *coffee → 커피*, *camera → 카메라*, *video → 비디오*, and *service → 서비스*. In Uzbek, established forms include *computer → kompyuter*, *manager → menejer*, *coffee → kofe*, *camera → kamera*, and *service → servis*. These forms demonstrate adaptation to the phonological and orthographic systems of the respective languages. The analysis also shows differences in stylistic distribution: words such as *internet, sport,* and *online* have become relatively neutral and widespread, whereas *marketing, business,* and *startup* are more strongly associated with professional, economic, technological, or media contexts. Thus, the results demonstrate that English loanwords have achieved different degrees of lexical and stylistic integration in Uzbek and Korean.

Discussion. The findings indicate that English loanwords have become an established part of the contemporary vocabulary of both Uzbek and Korean. Their widespread use in fields such as technology, business, education, media, and sports reflects the increasing importance of English in international communication. For instance, *marketing* in Uzbek and *마케팅* in Korean function primarily as professional terms, whereas *internet/인터넷* and *online/온라인* are used across a much broader range of contexts. Similarly, *service → 서비스* and *camera → 카메라* in Korean demonstrate that some English-derived forms have become highly familiar and are used in ordinary communication.

The comparison also demonstrates that English loanwords are adapted according to the linguistic norms of each recipient language. Korean incorporates borrowed forms through Hangul, producing forms such as *컴퓨터, 커피, 카메라, 비디오,* and *서비스*, while Uzbek uses adapted

forms such as *kompyuter*, *kofe*, *kamera*, *video*, and *servis*. At the same time, their stylistic value depends on context and degree of integration. Highly familiar words may function as neutral vocabulary, whereas terms such as *marketing*, *startup*, and *business* are more characteristic of professional and media discourse. Therefore, English loanwords show both shared international tendencies and language-specific patterns of adaptation and functional use in modern Uzbek and Korean.

Conclusion. The study concludes that English loanwords have become an important and productive component of the lexical systems of modern Uzbek and Korean. Their active use in technology, science, education, business, media, sports, and popular culture reflects the growing impact of globalization and international communication. The analysis shows that these loanwords perform various functions, including naming new concepts, enriching vocabulary, facilitating professional communication, and expressing modernity and international orientation. Although Uzbek and Korean demonstrate similar tendencies in the increasing use of English-derived vocabulary, their functional and stylistic integration differs according to their phonological, grammatical, orthographic, sociocultural, and language-policy characteristics. Therefore, English loanwords should be viewed not only as a source of lexical enrichment but also as an important indicator of contemporary linguistic and social change in both languages.

REFERENCES:

1. Crystal, D. (2003). *English as a global language* (2nd ed.). Cambridge University Press.

2. Hajiboyeva, Q. (2025). The use of English loanwords in the lexicon of the Uzbek language. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 4*(3), 454–455.

3. Haugen, E. (1950). The analysis of linguistic borrowing. *Language, 26*(2), 210–231.

4. Kang, Y.-S. (2012). Loanword phonology in Korean. *Phonology, 29*(3), 421–457.

5. Kim, H. (2007). Types and linguistic motivations for the formation of Konglish words in Korean. *Discourse and Cognition, 14*(3), 25–52.

6. National Institute of Korean Language. (n.d.). *Standard Korean language dictionary*. https://stdict.korean.go.kr/

7. Tadmor, U. (2009). Loanwords in the world's languages: Findings and results. In M. Haspelmath & U. Tadmor (Eds.), *Loanwords in the world's languages: A comparative handbook* (pp. 55–75). De Gruyter Mouton.

8. Yoqubjonova, S., & Yoqubjonova, N. (2025). The morphological integration of English loanwords in Uzbek. *Oriental Journal of Philology*, 112–119.

UDC 81'42

CROSS-CULTURAL DIFFERENCES IN THE EXPRESSION OF APOLOGIES IN ENGLISH AND UZBEK: A LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS

F. M.Rakhmonnazarova, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida uzr so'rash usullarini lingvistik-pragmatik nuqtai nazardan taqqoslaydi va turli madaniyatlardagi farqlarni o'rganadi. Unda Nutq nazariyasi, Mehribonlik nazariyasi va turli madaniyatlardagi pragmatika asoslaridan foydalaniladi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy lingvistik tahlil va kontekstual pragmatik talqin usullari qo'llaniladi. Maqola, odatiy uzr so'rash iboralarini va javobgarlikni tan olish, tushuntirish, zararni qoplayotish taklifi va kechirim so'rash kabi qo'shimcha strategiyalarni taqqoslaydi. Ingliz tilidagi "I'm sorry", "I apologize" va "Please forgive me" iboralar hamda o'zbek tilidagi "Kechirasiz", "Uzr so'rayman" va "Meni kechiring" iboralarini har doim pragmatik ekvivalentlar sifatida qabul qilib bo'lmaydi, chunki ularning vazifalari vaziyatga, munosabatlarga va sozlashuvchining niyyatiga bog'liq.*

Kalit so'zlar: *uzr so'rash nutqi; turli madaniyatlardagi pragmatika; ingliz tili; o'zbek tili; mehribonlik; illokutsion kuch; sotsiopragmatika.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются межкультурные различия в выражении извинений на английском и узбекском языках с лингвопрагматической точки зрения. В работе используются теория речевых актов, теория вежливости и межкультурная прагматика, а также применяются теоретический анализ, сравнительный лингвистический анализ и контекстуальная прагматическая интерпретация для сравнения стандартных формул извинений и сопутствующих стратегий, таких как признание ответственности, объяснение, предложение компенсации и просьба о прощении. Английские фразы "I'm sorry",*

"I apologize" и "Please forgive me", а также узбекские "Kechirasiz", "Uzr so'rayman" и "Meni kechiring" не всегда могут рассматриваться как прагматические эквиваленты, поскольку их функции зависят от ситуации, взаимоотношений и намерений говорящего.

Ключевые слова: *речевой акт извинения; межкультурная прагматика; английский язык; узбекский язык; вежливость; иллокутивная сила; социопрагматика.*

Abstract. *This article examines cross-cultural differences in the expression of apologies in English and Uzbek from a linguopragmatic perspective. It draws on Speech Act Theory, Politeness Theory and cross-cultural pragmatics, and uses theoretical analysis, contrastive linguistic analysis and contextual pragmatic interpretation to compare conventional apology formulas and supporting strategies such as acknowledgment of responsibility, explanation, offer of repair and request for forgiveness. English "I'm sorry", "I apologize" and "Please forgive me" and Uzbek "Kechirasiz", "Uzr so'rayman" and "Meni kechiring" cannot always be treated as pragmatic equivalents, since their functions depend on situation, relationship and speaker intention.*

Keywords: *apology speech act; cross-cultural pragmatics; English; Uzbek; politeness; illocutionary force; sociopragmatics*

Introduction. Language is not only a means of exchanging information but also an instrument for establishing and maintaining interpersonal relationships. Among speech acts, apologizing plays an important role because it enables speakers to acknowledge an offense, express regret and restore social harmony. However, apologies cannot be explained through lexical and grammatical structures alone. Their realization depends on communicative intentions, the nature of the offense, relationships between interlocutors and sociocultural conventions.

An apology may involve several strategies, including expressing regret, acknowledging responsibility, providing an explanation, offering repair and requesting forgiveness. For example, the English expression *"I'm sorry"* may communicate regret, sympathy or an apology, while the Uzbek expression *"Kechirasiz"* can function as an apology, a polite interruption or an attention-getter. Therefore, lexical similarity does not necessarily guarantee pragmatic equivalence.

Literature review. The theoretical foundation of apology research is closely connected with Speech Act Theory. Austin (1962) demonstrated that language performs actions, distinguishing locutionary, illocutionary and perlocutionary acts. Searle (1976) classified apologies as expressive speech acts because they communicate the speaker's psychological attitude towards a particular situation.

Politeness Theory also provides an important framework for understanding apologies. Brown and Levinson (1987) explained that apologies are face-threatening acts and that speakers employ politeness strategies to reduce interpersonal tension. Similarly, Leech (1983) emphasized the relationship between politeness and the maintenance of social harmony.

Olshtain and Cohen (1983) identified several components of apology strategies: expressions of apology (IFIDs), explanations, acknowledgment of responsibility, offers of repair and promises of forbearance. These categories were further developed through the Cross-Cultural Speech Act Realization Project (CCSARP) by Blum-Kulka, House and Kasper (1989).

Later studies expanded cross-cultural research on apologies. Trosborg (1995) demonstrated the importance of pragmatic competence in second-language communication, while Wierzbicka (2003) emphasized that communicative norms should be interpreted within their cultural contexts. More recent research by Ramlah and Sartini (2023), Kulsawang and Ambele (2024), Geçkin (2025), and Yusupova and Abdushukurova (2025) has further explored apology strategies across different linguistic and cultural communities.

Materials and methods. The object of this research is the speech act of apologizing in English and Uzbek, while its subject concerns the linguistic, pragmatic and sociocultural characteristics of apology expressions in these languages. The study employs a qualitative and contrastive approach based on theoretical analysis, linguistic comparison and contextual pragmatic interpretation. The analysis follows the apology classification proposed by Olshtain and Cohen (1983), considering the following strategies:

Expression of apology (IFIDs): conventional expressions such as *"I'm sorry", "I apologize"*, "*Kechirasiz"* and "*Uzr so'rayman*."

Acknowledgment of responsibility: accepting responsibility for an offense, as in "*It was my fault" and "Bu mening xatoim edi."*

Explanation: providing reasons for an action, as in *"I could not attend because I was ill"* and *"Kasal bo'lganim sababli qatnasha olmadim."*

Results and discussion. The comparison indicates that English and Uzbek possess comparable apology strategies, although their linguistic realization and contextual interpretation may differ.

One important difference concerns the grammatical expression of interpersonal relationships. Uzbek distinguishes between informal sen and respectful siz, whereas English uses the pronoun "you" for both informal and formal communication. Consequently, Uzbek speakers can express social distance and respect directly through pronoun selection, while English speakers generally rely on other linguistic and contextual resources.

Another important distinction concerns the selection of apology expressions. English uses different forms depending on the communicative situation, including *"Sorry about that", "I apologize for the inconvenience"* and *"Please accept my sincere apologies"*. Similarly, Uzbek offers expressions such as *"Kechirasiz", "Uzr so'rayman"* and *"Meni kechiring".* Their appropriateness depends on the relationship between speakers, the seriousness of the offense and the degree of formality.

Conclusion. The analysis demonstrates that apologizing in English and Uzbek is a multidimensional speech act shaped by linguistic forms, communicative intentions and sociocultural expectations. Both languages employ comparable strategies, including expressing regret, acknowledging responsibility, providing explanations, offering repair and promising not to repeat an offense. Nevertheless, their realization may differ according to social distance, relative power, formality and the severity of the offense.

The Uzbek sen/siz distinction represents an important grammatical resource for expressing interpersonal relationships, whereas English relies on other contextual and linguistic devices. Moreover, expressions such as "I'm sorry", "Kechirasiz" and "Afsusdaman" cannot always be considered direct pragmatic equivalents. The findings highlight the importance of pragmatic competence in translation, intercultural communication and foreign language teaching.

REFERENCES:

1. Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Oxford: Clarendon Press.

2. Blum-Kulka, S., & Olshtain, E. (1984). Requests and apologies: A cross-cultural study of speech act realization patterns (CCSARP). Applied Linguistics, 5(3), 196–213.

3. Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. (Eds.). (1989). Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies. Norwood, NJ: Ablex.

4. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Geçkin, V. (2025). The realization of apologies in a second language. Language and Dialogue, 15(2), 262–281.

6. Kulsawang, P., & Ambele, E. A. (2024). A systematic literature review of apology and request strategies in the EFL context. Indonesian Journal of English Language Teaching and Applied Linguistics, 9(1), 33–53.

7. Leech, G. N. (1983). Principles of pragmatics. London: Longman.

8. Olshtain, E., & Cohen, A. D. (1983). Apology: A speech act set. In N. Wolfson & E. Judd (Eds.), Sociolinguistics and language acquisition (pp. 18–35). Rowley, MA: Newbury House.

9. Ramlah, S., & Sartini, N. W. (2023). Strategy, factor, and response of apologies in Javanese and Madurese: A cross-cultural pragmatics study. Cogent Arts & Humanities, 10(2), Article 2275341.

10. Searle, J. R. (1969). Speech acts: An essay in the philosophy of language. Cambridge: Cambridge University Press.

UO‘K 81’37:641

TAOM KONSEPTI VA GASTRONOMIK BIRLIKLARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TADQIQ YO‘NALISHLARI

Raxmonova I. O., PhD, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada taom va oziq-ovqat bilan bog‘liq til birliklarining zamonaviy tilshunoslikdagi tadqiq yo‘nalishlari, gastronomik leksika, “Taom/Food” konsepti, diskurs va frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ular leksik-semantik, lingvokulturologik, kognitiv, pragmatik yondashuvlar asosida o‘rganiladi. O‘zbek tilshunosligidagi izlanishlar jahon tilshunosligidagi kulinar lingvistika bilan qiyoslanib, distributsiyasi va semantik modellarini aniqlashdagi imkoniyatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *taom, gastronomik nominatsiya, gastronomik diskurs, taom konsepti, Food konsepti, gastronomik frazeologiya, lingvokulturologiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются современные направления исследования языковых единиц, связанных с пищей и продуктами питания, а также лингвистические особенности гастрономической лексики, концепта «Еда/Food», гастрономического дискурса и фразеологических единиц. Они рассматриваются с позиций лексико-семантического, лингвокультурологического, когнитивного и прагматического подходов. Исследования в узбекском языкознании сопоставляются с направлением кулинарной лингвистики в мировой науке, освещаются возможности выявления дистрибуции и семантических моделей гастрономических единиц.*

Ключевые слова: *еда, гастрономическая номинация, гастрономический дискурс, концепт Food, фразеология, лингвокультурология.*

Abstract. *This article analyzes contemporary research trends in linguistic units related to food, as well as the linguistic features of gastronomic vocabulary, the concept of “Food”, gastronomic discourse, and phraseological units. These phenomena are examined from lexical-semantic, linguocultural, cognitive, and pragmatic perspectives. Research in Uzbek linguistics is compared with the field of culinary linguistics in international linguistics, highlighting the possibilities of identifying the distribution and semantic patterns of gastronomic units.*

Keywords: *food, gastronomic nomination, gastronomic discourse, Food concept, phraseology, linguoculturology.*

Til xalqning kommunikativ vositasi bo‘lish bilan birga uning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi, milliy qadriyatlari va olamni idrok etish usullarini o‘zida mujassamlashtiruvchi tizimdir. Inson hayotida doimiy ishtirok etadigan taom va oziq-ovqat bilan bog‘liq hodisalar ham tilda turli darajalarda verbal ifodasini topadi. Shu sababli taom nomlari, oziq-ovqat mahsulotlari, pishirish jarayonlari, ta’m va hidni tavsiflovchi leksemalar, gastronomik frazeologizmlar, retsept matnlari hamda ovqatlanish bilan bog‘liq kommunikativ vaziyatlar zamonaviy tilshunoslikning mustaqil tadqiq obyektiga aylanib bormoqda.

Jahon tilshunosligida til va oziq-ovqat o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etish natijasida culinary linguistics, ya’ni kulinar yoki gastronomik lingvistika yo‘nalishi shakllandi. C. Gerhardt, M. Frobenius va S. Ley tahriri ostida nashr etilgan *Culinary Linguistics: The Chef’s Special* asarida oziq-ovqat va til insonning ijtimoiylashuvi, identifikatsiyasi, madaniy tajribasi hamda kundalik voqelikni kategoriyalash jarayoni bilan bog‘liq hodisa sifatida qaraladi [1, 3–8-b.]. Taomga oid birliklarni o‘rganish dastlab leksikografik, etimologik va leksik-semantik xususiyatlarni aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik lingvomadaniyatshunoslik, diskurs tahlili, pragmatika hamda korpus lingvistikasining rivojlanishi bu obyektga yangi nuqtayi nazardan yondashish imkonini berdi. Natijada taom oddiy moddiy obyekt nomidan ko‘ra kengroq – konseptual, madaniy va kommunikativ hodisa sifatida talqin qilina boshladi.

Taom bilan bog‘liq birliklarni o‘rganishning an’anaviy va barqaror yo‘nalishlaridan biri ularni leksik-semantik maydon sifatida tadqiq etishdir. Bunday yondashuvda taom va oziq-ovqatni ifodalovchi birliklar umumiy semantik belgi asosida birlashtiriladi va ularning ichki semantik

guruhlari, yadro va periferiyasi hamda derivatsion va nominativ xususiyatlari aniqlanadi. Masalan, "taom" umumiy semasi doirasida tayyor taomlar, ichimliklar, xamirli taomlar, go'shtli taomlar, sut mahsulotlari asosidagi taomlar, shirinliklar va boshqa guruhlarni ajratish mumkin. *Palov, manti, somsa* kabi birliklar tayyor taom nomlarini ifodalasa, *un, tuz, go'sht, sabzi* kabi birliklar oziq-ovqat mahsulotlarini bildiradi. Taom nomlarining nominativ xususiyatlari ham muhim ilmiy masaladir. Turli tillarda taomni nomlashda asosiy ingredient, tayyorlash usuli, hudud, ta'm, shakl, rang, shaxs nomi yoki etnik mansublik asos sifatida tanlanishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *chicken soup, roast beef, Yorkshire pudding* kabi birliklarda ingredient, tayyorlash usuli va hududiy komponentlar nominativ motivatsiya vazifasini bajaradi. O'zbek tilidagi *qovoqli somsa, qovurma lag'mon, Andijon palovi* kabi nomlarda ham o'xshash modellar kuzatiladi. Sh. X. Mamajonovning tadqiqotida ingliz va o'zbek tillaridagi "taom" leksik-semantik maydoni, uning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy aspektda o'rganilgan [2]. Mazkur tadqiqot gastronomik birliklarni oddiy nomlash vositasi sifatida emas, balki semantik va madaniy axborot tashuvchi birlik sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Konsept til egalarining muayyan hodisa haqidagi bilimlari, tasavvurlari, qadriyatlari va madaniy tajribasini o'zida mujassamlashtiruvchi tuzilma hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Taom/Food konsepti faqat "iste'mol qilinadigan mahsulot" tushunchasidan iborat emas. Uning tarkibiga taom tayyorlash, uni taqdim etish, iste'mol qilish, mehmon kutish, oilaviy yig'ilishlar, marosim va bayramlar bilan bog'liq tasavvurlar ham kiradi. Shunday ekan, taom konseptini murakkab konseptual maydon sifatida ko'rib, uning tarkibida non, tuz, go'sht, ichimlik, shirinlik, milliy taom, dasturxon va mehmondorchilik kabi mikrokonseptlarni ajratish mumkin. O. S. Usmonovaning "Olamning lisoniy manzarasida taom nomlarining o'rni" mavzusidagi tadqiqotida taom nomlari olamning lisoniy manzarasining tarkibiy qismi sifatida tadqiq qilingan [3]. Muallif taom nomlarining lingvistik, lingvokulturologik va sotsiolingvistik xususiyatlariga, ularning milliy dunyoqarash, mentalitet, urf-odat va e'tiqod bilan bog'liqligiga alohida e'tibor qaratadi. Masalan, *non* o'zbek tilida oziq-ovqat mahsulotini ifodalash bilan bir qatorda rizq, baraka, mehnat, hurmat va mehmondo'stlik kabi qadriyatlar bilan bog'lanadi. Ingliz tilidagi *bread* va *salt* birliklari ham metaforik va frazeologik ma'nolarni hosil qiladi, biroq ularning lingvomadaniy assotsiatsiyalari o'zbek tilidagi modellarga to'liq mos kelmaydi. Bu holat gastronomik konseptlarni qiyosiy o'rganishda universal biologik tajriba bilan milliy-madaniy tajriba o'rtasidagi munosabatni aniqlash zaruratini ko'rsatadi.

Taom va oziq-ovqat bilan bog'liq til birliklarining eng boy qatlamlaridan biri gastronomik frazeologiya hisoblanadi. Gastronomik komponentli frazeologizmlarda oziq-ovqat nomi ko'pincha o'zining bevosita denotativ ma'nosidan uzoqlashib, inson xarakteri, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy holat, faoliyat yoki hissiy kechinmalarni obrazli ifodalash vositasiga aylanadi. Masalan, ingliz tilidagi *bread and butter* birligi shaxsning asosiy daromad manbaini, *a piece of cake* oson bajariladigan ishni, *spill the beans* esa sirni oshkor qilishni ifodalaydi. Bunday birliklarda oziq-ovqat komponenti konseptual metaforizatsiya natijasida yangi frazeologik ma'no hosil qiladi. O'zbek tilida ham non, tuz, osh, yog', sut va boshqa gastronomik komponentlar bilan shakllangan ko'plab frazeologik birliklar mavjud. Ular xalqning kundalik turmush tarzi, qadriyatlari, insonlararo munosabatlarining til orqali ifodalanishini ko'rsatadi. N. A. Uralovaning tadqiqotida o'zbek tilidagi gastronomik frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan [4].

Taomga oid birliklarning zamonaviy tadqiqotlarida gastronomik diskurs tushunchasi muhim o'rin tutadi. Gastronomik diskurs deganda oziq-ovqat tayyorlash, taqdim etish, baholash, reklama qilish va iste'mol qilish bilan bog'liq kommunikativ faoliyat hamda uning lingvistik ifodasi tushuniladi. Gastronomik diskursga retseptlar, restoran menyulari, taom reklamasi, pazandachilik bloglari, gastronomik teleko'rsatuvlar va ijtimoiy tarmoqlardagi oziq-ovqat bilan bog'liq matnlar kiradi. Bunday diskursda til faqat axborot yetkazish vositasi bo'lib qolmay, mahsulotning jozibadorligini oshirish, iste'molchiga ta'sir ko'rsatish, milliy identitetni namoyon etish va muayyan madaniy stereotiplarni shakllantirish kabi vazifalarni ham bajaradi. Kulinar lingvistika bo'yicha tadqiqotlarda oziq-ovqat bloglari, retsept tili, gastronomik kommunikatsiya shakllanishi kabi masalalar ham o'rganilgan [1, 21–35-b.].

Xulosa qilib aytish mumkinki, taom va oziq-ovqat inson hayotining universal tarkibiy qismi bo‘lsa-da, ularning til orqali kategoriyalanishi, nomlanishi va obrazli ifodalanishi har bir xalqning tarixiy va madaniy tajribasiga bog‘liq. Shu sababli gastronomik birliklar zamonaviy tilshunoslikda oddiy leksik qatlam sifatida emas, balki nominativ, konseptual, lingvomadaniy va diskursiv tizim sifatida o‘rganilmoqda. Mavjud ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirish natijasida gastronomik birliklarni o‘rganishning leksik-semantik, nominativ, kognitiv, lingvomadaniy va frazeologik yo‘nalishlari shakllanganini ko‘rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gerhardt C., Frobenius M., Ley S. (eds.). *Culinary Linguistics: The Chef's Special.* Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2013. 347 p.

2. Mamajonov Sh.X. *Turli tizimdagi tillarda "taom" leksik-semantik maydoni, uning lingvokulturologik va pragmatik tadqiqi (ingliz va o‘zbek tillari materiallari misolida).* f.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi. Andijon, 2026.

3. Usmonova O.S. *Olamning lisoniy manzarasida taom nomlarining o‘rni.* f.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi. Andijon, 2025.

4. Uralova N.A. *O‘zbek tilida gastronomik frazeologik birliklarning lingvomadaniy tadqiqi*. f.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2025.

5. Gerhardt C. Food and Language – Language and Food // Gerhardt C., Frobenius M., Ley S. (eds.). *Culinary Linguistics: The Chef's Special.* Amsterdam: John Benjamins, 2013. P. 3–50.

UO'K 81'27:81'367

MUROJAAT BIRLIKLARINING LINGVISTIK MOHIYATI: STRUKTUR-SEMANTIK VA LINGVOPRAGMATIK YONDASHUV

Raxmatova N. V., O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada murojaat birliklarining til tizimi va nutqiy muloqotdagi lingvistik mohiyati struktur-semantik, pragmatik hamda sotsiolingvistik yondashuvlar kesimida tahlil qilinadi. Murojaat birliklari faqat tinglovchining diqqatini jalb etuvchi grammatik vosita emas, balki kommunikantlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa, maqom, yosh, yaqinlik, hurmat va emotsional munosabatni ifodalovchi ko‘p qatlamli lisoniy hodisa sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda "murojaat birligi" va "undalma" tushunchalarining o‘zaro munosabati aniqlashtirilib, murojaat birliklarining leksik-semantik guruhlari hamda asosiy kommunikativ-pragmatik vazifalari tavsiflanadi.*

Kalit so‘zlar: *murojaat birliklari, murojaat shakllari, undalma, vokativ, adresant, adresat, lingvopragmatika, sotsiolingvistika, nutq etiketi, ijtimoiy masofa.*

Аннотация. *В статье рассматривается лингвистическая сущность единиц обращения в языковой системе и речевом взаимодействии с позиций структурно-семантического, прагматического и социолингвистического подходов. Единицы обращения интерпретируются не только как грамматические средства привлечения внимания адресата, но и как многослойные языковые средства выражения социальной дистанции, статуса, возраста, близости, уважения и эмоционального отношения между участниками коммуникации. Уточняется соотношение понятий «единица обращения» и «обращение-вокатив», характеризуются основные лексико-семантические группы и коммуникативно-прагматические функции обращений.*

Ключевые слова: *единицы обращения, формы обращения, вокатив, адресант, адресат, лингвопрагматика, социолингвистика, речевой этикет, социальная дистанция, коммуникативная функция.*

Abstract. *The article examines the linguistic nature of address forms in the language system and communicative interaction from structural-semantic, pragmatic and sociolinguistic perspectives. Address forms are interpreted not merely as grammatical devices used to attract the addressee's attention, but as multilayered linguistic units that encode social distance, status, age, interpersonal solidarity, respect and emotional stance. The study clarifies the relationship between the broader notion of an address form and the syntactic category of the vocative, outlines major lexical-semantic groups and identifies key communicative-pragmatic functions.*

Keywords: *address forms, forms of address, vocative, addressor, addressee, linguopragmatics, sociolinguistics, speech etiquette, social distance, communicative function.*

Kirish. Tilning kommunikativ vazifasi insonlar o‘rtasida axborot almashish bilangina cheklanmaydi. Har qanday nutqiy muloqotda so‘zlovchi o‘z fikrini muayyan tinglovchiga yo‘naltiradi, suhbatdosh bilan munosabat o‘rnatadi, ijtimoiy mavqe va masofani bildiradi hamda kommunikativ vaziyatga mos nutqiy strategiyani tanlaydi. Shu jarayonda murojaat birliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Mavzuning dolzarbligi, avvalo, murojaat birliklarining ko‘p vazifali tabiati bilan belgilanadi. Ular bir tomondan, adresatni nomlash yoki ajratib ko‘rsatishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan hurmati, samimiyligi, masofasi, noroziligi, kinoyasi yoki yaqinligini ifodalashi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi “ustoz”, “domla”, “aka”, “opa”, “hurmatli hamkasblar” birliklari bir xil grammatik shaklda bo‘lmasa-da, muayyan ijtimoiy va kommunikativ ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Ingliz tilidagi “Professor”, “Mr Brown”, “Sir”, “dear colleague” kabi shakllar ham adresat bilan munosabatning rasmiylik darajasi, institutsional mavqe va nutq vaziyatiga bog‘liq holda tanlanadi. Murojaat shakllarini faqat sintaktik undalma doirasida talqin etish ularning barcha lingvistik xususiyatlarini qamrab olmaydi.

Tadqiqot metodlari.

Murojaat birliklarini o‘rganish tilshunoslikning bir necha yo‘nalishlari kesishmasida amalga oshiriladi. Sintaksis murojaat shakllarining gap tarkibidagi o‘rni va intonatsion-grammatik xususiyatlarini yoritadi. Semantika murojaat birliklarining nominativ, baholovchi va konnotativ mazmunini izohlaydi.

F. Braun murojaat shakllarini turli tillar va madaniyatlarda qo‘llanish qonuniyatlari bilan bog‘liq holda izohlab, ularni ijtimoiy munosabatlar va kontekst bilan uzviy aloqada tadqiq etadi [5]. R. Brown va A. Gilman esa ikkinchi shaxs olmoshlarining qo‘llanishida “hokimiyat” va “birdamlik” munosabatlari muhim omil ekanini ko‘rsatadi [6]. P. Brown va S. Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi adresatning “ijtimoiy yuzi”ni saqlash, hurmat va masofani boshqarish strategiyalarini tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi [7]. G. Leech xushmuomalalikni kommunikativ vaziyatga bog‘liq pragmatik hodisa sifatida ko‘rib, uning ijtimoiy va lisoniy omillarini farqlaydi [8].

O‘zbek tilshunosligida murojaat shakllarining ijtimoiy-lisoniy va grammatik xususiyatlari Z. Akbarova, Sh. Iskandarova, S. Mo‘minov kabi tadqiqotchilar ishlarida yoritilgan. Xususan, Z. Akbarova murojaat shakllarining ifodalanish usullari, ijtimoiy xususiyatlari hamda undalma bilan munosabatiga e’tibor qaratgan [1]. Sh. Iskandarova o‘zbek nutq odatining muloqot shakllarini tadqiq etgan [2], S. Mo‘minov esa o‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlarini yoritgan [3]. Sh. Safarovning pragmalingvistika bo‘yicha nazariy qarashlari murojaat birliklarining nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va adresant-adresat munosabatlari bilan bog‘liq tomonlarini izohlashga xizmat qiladi [4]. So‘nggi tadqiqotlarda ham murojaat shakllarining sotsiolingvistik va kognitiv-pragmatik xususiyatlariga e’tibor qaratilmoqda [6; 8].

Natijalar va tahlil.

1. Murojaat birligi va undalma tushunchalarining munosabati

Murojaat birligi - muloqot jarayonida nutq yo‘naltirilgan shaxs, shaxslar guruhi yoki boshqa adresatni ko‘rsatish, u bilan aloqa o‘rnatish va unga nisbatan muayyan munosabatni ifodalashga xizmat qiladigan lisoniy vositadir. Bu ta’rifda uch jihat muhim: adresatni ko‘rsatish, kommunikativ aloqani tashkil etish va munosabatni ifodalash. Masalan, “Ustoz, savolim bor” gapida “ustoz” undalma vazifasida kelgan. Biroq “Sizdan bir masalada maslahat so‘ramoqchiman” gapida adresat “siz” olmoshi orqali ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, u an’anaviy sintaktik tahlilda undalma hisoblanmaydi. Bu farqni e’tiborga olish murojaat birliklarini faqat undalma shakllarini sanash bilan cheklab qo‘ymaslik imkonini beradi.

2. Murojaat birliklarining struktur-semantik guruhlari

Murojaat birliklarini struktur-semantik jihatdan bir necha guruhga ajratish mumkin. Mazkur tasnif qat’iy yopiq ro‘yxat emas; ayrim birliklar nutq vaziyatiga qarab bir necha guruhning xususiyatini birlashtirishi mumkin.

Birinchi guruh - shaxsning ismi, familiyasi va ism-familiyasi asosidagi murojaatlar. Masalan, “Madina”, “Karimova”, “Mr Brown”, “Jane”. Bunday birliklar adresatni bevosita identifikatsiya

qiladi. Ismning yolg‘iz qo‘llanishi odatda yaqinlik, tenglik yoki norasmiylikni anglatishi mumkin, biroq bu ma’no yosh, mavqe, munosabat tarixi va vaziyatga qarab o‘zgaradi.

Ikkinchi guruh - unvon, lavozim va kasb nomlari bilan ifodalanuvchi murojaatlar: “professor”, “dekan”, “rahbar”, “ustoz”, “doctor”, “Professor”, “Mr”, “Ms”, “Sir”. Ular adresatning institutsional yoki kasbiy mavqeini belgilaydi. Bunday birliklarning pragmatik qiymati muhitga bog‘liq: auditoriyada “ustoz” hurmat va kasbiy maqomni bildirsa, boshqa vaziyatda u samimiy yoki kinoyaviy ohangda ham ishlatilishi mumkin.

Uchinchi guruh - qarindoshlik terminlari asosidagi murojaatlar: “aka”, “opa”, “uka”, “singil”, “ota”, “ona”, “amaki”, “xola”, shuningdek ingliz tilidagi “brother”, “sister”, “auntie”, “uncle” kabi shakllar. Bu birliklar biologik qarindoshlikdan tashqari, notanish yoki qarindosh bo‘lmagan shaxslar o‘rtasida ham ijtimoiy yaqinlik, hurmat, birdamlik yoki yosh jihatidan munosabatni ifodalashi mumkin. Ularning ma’nosi madaniy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liq.

To‘rtinchi guruh - shaxs olmoshlari orqali ifodalanuvchi murojaatlar: “sen/siz”, “you”. O‘zbek tilida “sen” va “siz” tanlovi yaqinlik, hurmat, masofa, ijtimoiy maqom va vaziyat bilan bog‘liq. Ular samimiylik, mehr, dalda, yaqinlik yoki ba’zan kinoya va mensimaslikni bildirishi mumkin.

Beshinchi guruh - jamoaviy va umumlashtiruvchi murojaatlar: “hurmatli hamkasblar”, “aziz talabalar”, “dear colleagues”, “ladies and gentlemen”. Bunday shakllar bir vaqtning o‘zida bir nechta adresatga murojaat qilish, auditoriyani birlashtirish, nutqiy tadbirning rasmiylik darajasini belgilash va tinglovchilar e’tiborini tashkil etish vazifalarini bajaradi.

3. Murojaat birliklarining kommunikativ-pragmatik funksiyalari

Murojaat birliklarining birinchi vazifasi - kontakt o‘rnatish va adresat diqqatini jalb qilish. “Aziz talabalar!”, “Professor, bir savolim bor”, “Excuse me, sir” kabi shakllar suhbatni boshlash yoki mavjud muloqotda navbatni olish uchun xizmat qiladi. Bunda murojaat birliklari nutqiy aloqaning tashkiliy vositasi vazifasini bajaradi.

Ikkinchi vazifa - adresatni identifikatsiya qilish va ajratish. Ayniqsa, ko‘p kishilik muloqotda ism, lavozim yoki guruh nomi muayyan tinglovchini aniqlashga yordam beradi. “Nargiza, fikringizni ayting” shakli auditoriyadagi muayyan shaxsga navbat berishni ta’minlaydi.

Uchinchi vazifa - ijtimoiy munosabat va masofani indeksatsiya qilish. “Siz”, “ustoz”, “hurmatli rektor” kabi shakllar hurmat va institutsional masofani bildirsa, “do‘stim”, “aka”, “mate” ayrim kontekstlarda yaqinlik yoki birdamlikni kuchaytiradi. Brown va Gilman ta’kidlagan hokimiyat hamda birdamlik munosabatlari olmosh va murojaat tanlovining ijtimoiy asoslarini tushuntirishga yordam beradi [6].

To‘rtinchi vazifa - emotsional-baholovchi munosabatni ifodalash. Murojaat shakli orqali mehr, minnatdorlik, e’tiroz, norozilik, kinoya, achinish yoki rag‘batlantirish namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, “Azizim, bu fikrga qo‘shilmayman” jumlasida “azizim” yaqinlikni saqlagan holda qarama-qarshi fikrni yumshatishi mumkin. Ayni birlik keskin ohangda aytilsa, kinoyaviy tus olishi ehtimoli mavjud.

Beshinchi vazifa - xushmuomalalik strategiyasini amalga oshirish. Rasmiy unvon, hurmat shakli yoki yumshatuvchi murojaat adresatning ijtimoiy yuzini saqlashga xizmat qiladi. Biroq har qanday hurmat shakli avtomatik ravishda xushmuomala bo‘lavermaydi: ortiqcha rasmiylik, noto‘g‘ri unvon yoki vaziyatga mos kelmaydigan erkalash shakli aksincha, noqulaylik tug‘dirishi mumkin [7; 8].

Oltinchi vazifa - diskursni boshqarish. Murojaat birliklari mavzuni boshlash, suhbatdoshga so‘z berish, ogohlantirish, murojaatni takrorlash orqali e’tiborni qayta tiklash yoki muloqotni yakunlash jarayonlarida qo‘llanadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, murojaat birliklarining lingvistik mohiyatini faqat grammatik yoki faqat leksik mezonlar asosida belgilash yetarli emas. Masalan, “aka” va “brother” birliklari lug‘aviy jihatdan qarindoshlik munosabatini anglatishi mumkin, biroq ularning kundalik muloqotda qo‘llanish ko‘lami, ijtimoiy masofa va pragmatik ohangi bir-biriga to‘liq teng kelmaydi.

Xulosa. Murojaat birliklari tilning nominativ va kommunikativ imkoniyatlarini birlashtiruvchi, shaxslararo munosabatlarni ifodalash hamda nutqiy aloqani boshqarishga xizmat qiluvchi ko‘p qatlamli lisoniy hodisadir. Ularning lingvistik mohiyati struktur, semantik-konnotativ, sotsial,

pragmatik va diskursiv xususiyatlarning o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi. Murojaat birligi tushunchasi sintaktik undalma tushunchasidan kengroq bo‘lib, undalma murojaatni ifodalashning grammatik ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Murojaat birliklari shaxs ismi, familiya, unvon va kasb nomi, qarindoshlik termini, olmosh, baholovchi va erkalash shakllari, jamoaviy murojaatlar kabi turli struktur-semantik guruhlarda namoyon bo‘ladi. Murojaat shakllari kontakt o‘rnatish, adresatni identifikatsiya qilish, ijtimoiy masofani belgilash, emotsional munosabatni ifodalash, xushmuomalalik strategiyasini amalga oshirish va diskursni boshqarish vazifalarini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akbarova Z. A. O‘zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2007. – 135 b.

2. Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 1993.

3. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2000.

4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – 320 b.

5. Braun F. Terms of Address: Problems of Patterns and Usage in Various Languages and Cultures. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 1988. – 372 p. https://doi.org/10.1515/9783110848113

6. Brown R., Gilman A. The Pronouns of Power and Solidarity // Style in Language / ed. by T. A. Sebeok. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960. – P. 253–276.

7. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p. https://doi.org/10.1017/CBO9780511813085

8. Leech G. The Pragmatics of Politeness. – Oxford: Oxford University Press, 2014. https://doi.org/10.1093/acprof: oso/9780195341386.001.0001

UO‘K 811.111’373

INGLIZ TILIDA “KIYIM” LEKSIK MAYDONINING TARKIBI VA CHEGARALARI: TEMATIK ZONALAR VA LEKSEMALARNI KIRITISH MEZONLARI

Risnazarova D., Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

Annotatsiya. *Maqolada ingliz tilidagi “Kiyim” leksik maydonining tarkibi va chegaralari tadqiq etiladi. Tadqiqotda maydonning asosiy tematik zonalari ajratilib, leksemalarni mazkur maydonga kiritish mezonlari aniqlanadi. Kiyim nomlari, materiallar, kiyim qismlari, belgilar hamda kiyish bilan bog‘liq harakatlarning semantik aloqadorligi tahlil qilinadi. Maydonning tarkibiy tuzilishi aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *leksik maydon, kiyim, leksema, tematik zona, semantika, yadro, periferiya, ingliz tili.*

Аннотация. *В статье рассматривается состав и границы лексического поля «Одежда» в английском языке. Выделяются основные тематические зоны и определяются критерии включения лексем в исследуемое поле. Особое внимание уделяется семантической близости названий одежды, материалов, деталей, признаков и действий, связанных с ношением одежды. Определяется структурная организация поля.*

Ключевые слова: *лексическое поле, одежда, лексема, тематическая зона, семантика, ядро, периферия, английский язык.*

Abstract. *The article examines the composition and boundaries of the lexical field “Clothing” in English. It identifies the major thematic zones and establishes criteria for including lexical units in the field. Particular attention is paid to clothing terms, materials, garment parts, characteristics, and actions associated with wearing clothes. The structural organization of the field is also determined.*

Keywords: *lexical field, clothing, lexeme, thematic zone, semantics, core, periphery, English language.*

Kirish. Til leksik tizimi alohida va o‘zaro bog‘lanmagan so‘zlarning oddiy yig‘indisidan iborat emas. Leksik birliklar o‘zaro semantik, paradigmatik va sintagmatik munosabatlar orqali tizim hosil qiladi. Shu sababli muayyan predmet yoki hodisa bilan bog‘liq so‘zlarni alohida birliklar sifatida emas, balki umumiy semantik makonda mavjud bo‘lgan tizim sifatida o‘rganish zamonaviy

leksikologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Semantik maydon tushunchasi aynan shunday o‘zaro bog‘langan leksik birliklar majmuini tavsiflashga xizmat qiladi. Lexical field theory tarixan Trier, Porzig, Lyons va boshqa tadqiqotchilar ishlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi ma’no alohida so‘zning o‘zidagina emas, balki uning boshqa birliklar bilan munosabatida ham namoyon bo‘lishidir [1: 123–142].

Kiyim leksikasi insonning moddiy madaniyati bilan bevosita bog‘langanligi sababli alohida lingvistik ahamiyatga ega. Kiyim nomlari orqali nafaqat predmetning tashqi shakli, balki jins, yosh, ijtimoiy mavqe, kasb, marosim, mavsum, hudud va estetik qarashlar kabi ekstralingvistik omillar ham ifodalanishi mumkin. Qoraqalpoq tilidagi kiyim nomlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham bunday birliklarning tarixiy-etimologik va etnomadaniy xususiyatlari alohida qayd etilgan [2: 1–5]. Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim nomlari bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda esa mazkur leksikaning semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy asosda ko‘rib chiqilmoqda [3: 1–6].

Materiallar va metodlar. Tadqiqot materiali sifatida zamonaviy ingliz tilida qo‘llanadigan kiyim-kechak nomlari, kiyim qismlari, materiallar, aksessuarlar, kiyish-yechish harakatlarini ifodalovchi birliklar hamda kiyimning o‘lchami, shakli va tashqi xususiyatlarini bildiruvchi leksik birliklar tanlandi.

Tadqiqotda bir necha metodlar majmuasidan foydalanildi. Birinchi navbatda, semantik guruhlash metodi orqali umumiy mazmuniy komponentga ega birliklar bir guruhga jamlandi. Komponent tahlil yordamida leksemalarning umumiy va farqlovchi semalari aniqlandi. Definitsion tahlil lug‘aviy ta’riflarda kiyimga oid birliklarni birlashtiruvchi semantik komponentlarni aniqlashga imkon berdi. Qiyosiy metod esa keyingi tadqiqot bosqichida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi maydonlar o‘rtasidagi strukturaviy farqlarni aniqlash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar

1. “Kiyim” leksik maydonining umumiy mazmuniy markazi

Ingliz tilidagi kiyim leksikasining eng umumiy semantik belgisi inson tanasini yopish, himoyalash yoki bezashga xizmat qiluvchi moddiy obyektni ifodalash bilan bog‘liq. Shu jihatdan *clothing, clothes, garment, dress* birliklari maydonning yuqori darajadagi nominativ qatlamini tashkil etadi.

Biroq ushbu birliklarning semantik imkoniyatlari bir xil emas. *Clothing* ko‘proq umumlashtiruvchi ma’noda kiyim-kechakni kollektiv tushuncha sifatida ifodalaydi. *Garment* esa alohida kiyim predmetini bildiruvchi nisbatan neytral birlik sifatida ishlatiladi. *Dress* esa bir tomondan kiyinish tushunchasini umumiy tarzda bildirishi, ikkinchi tomondan esa muayyan kiyim turini, ya’ni ayollar ko‘ylagini anglatishi mumkin.

Demak, bitta leksemaning ko‘p ma’noliligi uning maydondagi mavqeini murakkablashtiradi. Cruse leksik ma’noni boshqa birliklardan mustaqil holda emas, balki ma’no munosabatlari tizimida ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi [4: 15–20]. Shu nuqtayi nazardan *dress* kabi ko‘p ma’noli birliklar kiyim maydonining ham umumiy, ham maxsus qatlamlariga xizmat qilishi mumkin.

2. Tematik zonalar

Tahlil natijasida ingliz tilidagi “kiyim” leksik maydonini quyidagi asosiy tematik zonalarga ajratish mumkin:

№	Tematik zona	Asosiy birliklar	Umumiy semantik belgi
1	Yuqori kiyim	*shirt, blouse, T-shirt, sweater, jacket, coat*	tananing yuqori qismini qoplash
2	Pastki kiyim	*trousers, jeans, skirt, shorts, leggings*	tananing pastki qismini qoplash
3	Bir butun kiyim	*dress, suit, jumpsuit, overalls*	tananing bir necha qismini qoplash
4	Bosh kiyim	*hat, cap, hood, bonnet*	boshni yopish yoki himoyalash
5	Oyoq kiyimi	*shoe, boot, sandal, slipper, trainer*	oyoqni qoplash va himoyalash
6	Aksessuarlar	*belt, scarf, tie, glove, handbag*	kiyimni to‘ldirish/bezak
7	Material	*cotton, wool, silk, leather, denim*	kiyim tayyorlash materiali
8	Konstruktiv elementlar	*collar, sleeve, pocket, button, zip*	kiyimning tarkibiy qismi
9	Harakatlar	*wear, put on, take off, dress*	kiyim bilan bog‘liq harakat
10	Xususiyatlar	*size, loose, tight, long, short, fashionable*	kiyimning belgisi yoki holati

Ushbu tasnif kiyim leksikasining faqat predmet nomlari bilan chegaralanmasligini ko‘rsatadi. Maydonning markaziy qismida kiyim predmetlari joylashsa, boshqa zonalar ular bilan semantik bog‘langan holda shakllanadi.

3. Leksemalarni maydonga kiritish mezonlari

"Kiyim" leksik maydonini belgilashda quyidagi asosiy mezonlarga tayanish mumkin:

1. Nominativ mezon — kiyim predmetini bevosita nomlash (*coat, shirt, skirt*).

2. Funksional mezon — kiyimdan foydalanish yoki unga bog'liq harakatni ifodalash (*wear, put on, take off*).

3. Meronimik mezon — kiyimning tarkibiy qismlarini nomlash (*sleeve, collar, pocket*).

4. Material mezoni — kiyim tayyorlashda ishlatiladigan materiallarni ifodalash (*wool, cotton, silk, leather*).

5. Atributiv mezon — kiyimning shakli, o'lchami, holati yoki estetik xususiyatini ifodalash (*tight, loose, long, fashionable*).

6. Kontekstual mezon — faqat muayyan kontekstda kiyim bilan bog'lanadigan birliklarni chegaraviy zona sifatida belgilash.

Shunday qilib, "Kiyim" leksik maydonining chegaralari qat'iy emas, balki markazdan periferiyaga tomon kamayib boruvchi semantik yaqinlik darajalari asosida shakllanadi.

Muhokama. Kiyim leksikasini maydon modeli asosida o'rganish uning ichki tuzilishida bir necha muhim qonuniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Avvalo, birliklar gorizontal va vertikal munosabatlar asosida bog'lanadi. Vertikal munosabat umumiy va xususiy birliklar o'rtasidagi giponimik aloqada namoyon bo'ladi: *clothing → outerwear → coat → raincoat*.

Gorizontal munosabat esa bir darajadagi kiyim turlarini birlashtiradi: *shirt, blouse, sweater, T-shirt*. Shuningdek, maydonda meronimik munosabat ham muhim bo'lib, *garment – sleeve, collar, pocket* kabi birliklar predmet va uning qismini ifodalaydi.

Kiyim leksikasi ochiq va dinamik tizim bo'lib, moda, texnologiya, globalizatsiya va madaniy aloqalar ta'sirida muntazam yangilanadi. *Leggings, jeggings, treggings* kabi birliklar ushbu jarayonning namunasidir. Qoraqalpoq tilida esa kiyim nomlari tarkibida qadimgi turkiy qatlam bilan bir qatorda arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan birliklarning mavjudligi tarixiy va madaniy aloqalarning ta'sirini ko'rsatadi.

Shu sababli ingliz va qoraqalpoq tillarini qiyoslashda faqat leksik birliklar sonini emas, balki ularning semantik mavqei, markazga yaqinligi, nominatsiya usuli, kelib chiqishi va madaniy belgilanganligini ham hisobga olish lozim.

Xulosa. Ingliz tilidagi "kiyim" leksik maydoni ko'p qatlamli va ichki jihatdan murakkab leksik-semantik tizimdir. Uning markaziy qismini kiyim predmetlarini bevosita nomlovchi birliklar tashkil qiladi. Ularning atrofida bosh kiyim, oyoq kiyimi va aksessuarlar kabi maxsus tematik guruhlar, undan keyingi qatlamlarda esa kiyim materiallari, konstruktiv qismlar, xususiyatlar va kiyish-yechish harakatlarini bildiruvchi birliklar joylashadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, "kiyim" maydonining semantik chegaralarini faqat predmet nomlari bilan belgilash mazkur tizimning real tuzilishini to'liq aks ettirmaydi. Chunki kiyim haqidagi inson bilimlari predmetning o'zi bilan birga uning materiali, tarkibiy qismlari, funksiyasi, o'lchami, tashqi ko'rinishi va undan foydalanish jarayonini ham qamrab oladi. Shu sababli kiyim leksikasini o'rganishda markaz-periferiya modeli samarali metodologik vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Geeraerts, Dirk. "Lexical Field Analysis." In *Handbook of Pragmatics Online*. John Benjamins, 1995/2022, pp. 844–848.

2. Зайрова, К. М. "Лексико-семантические особенности названий предметов одежды в каракалпакском языке." *Международный журнал искусство слова*. Tadqiqot.uz.

3. Nasrullaeva, Gulshan Samadovna, and Gulnora Toshtemirova. "Semantic Features of Clothing Names in English and Uzbek." *Science Time*, vol. 4, no. 5, 2026. DOI: 10.66345/stj.v4i5/2.6130.

4. Cruse, D. Alan. *Lexical Semantics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1986, 310 pp.

5. Aitchison, Jean. *Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon*. 4th ed. Chichester: Wiley-Blackwell, 2012, 350 pp.

6. Polyakova, G. M. "Lexical-and-Semantic Field 'Clothing' in the Aspect of Comparative Linguocultural Studies." *RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics*, no. 4, 2012, pp. 37–44.

7. Зайрова, К. М. "Этнокультурная характеристика наименований одежды и обуви в каракалпакском языке." *Вестник Челябинского государственного университета*, 2022. DOI: 10.47475/1994-2796-2022-10703.

8. Berdimuratov, E. *Házirgi qaraqalpaq tili. Leksikologiya*. Nókis: Bilim, 1994.

9. Kenesbaeva, Miyasar. "Semantic Features of National Clothing Terminology in the Uzbek and Karakalpak Languages." *Journal of Research and Innovations*, vol. 4, no. 1, 2026, pp. 29–34.

UO'K 811.111'42:34

INGLIZ YURIDIK DISKURSIDA ANIQLIK VA NOANIQLIKNI IFODA ETUVCHI VOSITALARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Sh.A.Risqulova, mustaqil izlanuvchi, o'qituvchi, University of Business and Science, Namangan

Annotatsiya. *Maqolada ingliz yuridik diskursida aniqlik va noaniqlik vositalarining pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda pragmalingvistika, janr tahlili va huquqiy tilshunoslik yondashuvlari asosida qonunchilik matnlari, shartnomalar va sud qarorlarida qo'llanadigan aniqlik hamda noaniqlik vositalari, ularning huquqiy aniqlikni ta'minlash, moslashuvchanlik yaratish va diskretsiya berish funksiyalari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *yuridik diskurs, aniqlik, noaniqlik, pragmatika, huquqiy matn, binomial, ochiq tuzilish, strategik noaniqlik.*

Аннотация. *В статье анализируются прагматические особенности средств точности и неопределённости в английском юридическом дискурсе. На основе подходов прагмалингвистики, жанрового анализа и юридической лингвистики рассматриваются средства точности и неопределённости, используемые в законодательных текстах, договорах и судебных решениях, а также их функции обеспечения правовой определённости, гибкости и предоставления дискреционных полномочий.*

Ключевые слова: *юридический дискурс, точность, неопределённость, прагматика, правовой текст, биномиал, открытая структура, стратегическая неопределённость.*

Abstract. *The article analyzes the pragmatic features of precision and vagueness devices in English legal discourse. Drawing on pragmalinguistics, genre analysis and legal linguistics, the study examines the devices of precision and vagueness used in legislative texts, contracts and court judgments, as well as their functions of ensuring legal certainty, creating flexibility and conferring discretion.*

Key words: *legal discourse, precision, vagueness, pragmatics, legal text, binomial, open texture, strategic vagueness.*

Kirish. Yuridik diskurs davlat va jamiyat hayotidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, huquq va majburiyatlarni belgilovchi institutsional muloqot turi sifatida til birliklarining aniqligiga alohida talab qo'yadi. Yuridik matndagi har bir so'z huquqiy oqibatlarga ega bo'lgani uchun noto'g'ri talqin ehtimolini kamaytirish yuridik matn tuzuvchining asosiy vazifasi hisoblanadi [7]. Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi kelajakda yuzaga keladigan barcha holatlarni oldindan ko'ra olmaydi, shu bois yuridik til ongli ravishda umumlashtiruvchi va noaniq ifodalarga ham murojaat qiladi.

Aynan shu ziddiyat, ya'ni aniqlikka intilish va hamma holatlarni qamrab olish zarurati o'rtasidagi muvozanat ingliz yuridik diskursining eng muhim xususiyatlaridan biridir [1]. Aniqlik va noaniqlik vositalari bu muvozanatni ta'minlovchi asosiy til mexanizmlari bo'lib, ularni faqat semantik emas, balki pragmatik nuqtai nazardan, ya'ni matn tuzuvchining maqsadi, adresat va institutsional kontekst bilan bog'liq holda o'rganish dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi ingliz yuridik matnlarida aniqlik va noaniqlik vositalarining pragmatik funksiyalarini aniqlash hamda ularning janrga bog'liq xususiyatlarini tavsiflashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. D.Mellinkoff ingliz yuridik tilining tarixiy shakllanishini tahlil qilib, uning o'ziga xos belgilari sifatida lotin va fransuz tillaridan o'zlashgan terminlar, sinonimik juftliklar va ortiqcha batafsillikni ko'rsatib o'tdi [6]. Olim yuridik tilning aniq ekanligi haqidagi keng tarqalgan qarashni tanqid qilib, ko'plab an'anaviy formulalar aniqlikni emas, balki faqat aniqlik taassurotini yaratishini ta'kidladi.

H.L.A.Hart huquq falsafasida "ochiq tuzilish" (open texture) tushunchasini kiritib, umumiy huquqiy terminlarning har doim aniq qo'llanish holatlari (core) va bahsli chegaraviy holatlar (penumbra)ga ega ekanligini asosladi [5]. Uning mashhur misolida bog'ga transport vositalari kirishini taqiqlovchi qoida avtomobilga nisbatan aniq, ammo velosiped yoki o'yinchoq mashinaga

nisbatan noaniq bo‘lib qoladi. T.Endicott esa noaniqlikni huquqning kamchiligi emas, balki uning ajralmas va ko‘p hollarda zarur xususiyati sifatida talqin qiladi [3].

V.K.Bhatia qonunchilik matnlarini janr tahlili nuqtai nazaridan o‘rganib, ular uchun aniqlik, ravshanlik va hamma holatlarni qamrab olish (all-inclusiveness) talablari o‘rtasidagi ziddiyat xos ekanligini ko‘rsatdi [1]. J.Channell esa noaniq tilni (vague language) tizimli tahlil qilib, taxminiy miqdor ifodalari, umumlashtiruvchi teglar va noaniq kategoriyalarning muloqotdagi pragmatik vazifalarini ochib berdi [2]. P.Tiersma va J. Gibbonsning ishlarida yuridik til sud muloqoti, guvohlar ko‘rsatmasi va qonun matnlari misolida tahlil qilinib, yuridik ma'noning institutsional kontekstga bog‘liqligi ta'kidlangan [4], [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materialini Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlari, ingliz huquqi asosida tuzilgan tijorat shartnomalari hamda Buyuk Britaniya Oliy sudining qarorlaridan olingan 90 ta matn tashkil etdi. Jami taxminan 450 000 so‘zdan iborat korpusdan aniqlik va noaniqlikni ifodalovchi 2150 ta birlik ajratib olindi. Tadqiqotda pragmatik tahlil, janr tahlili, kontekstual-interpretativ tahlil va miqdoriy hisob-kitob metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Korpus tahlili shuni ko‘rsatdiki, ajratilgan birliklarning 57 foizi aniqlik, 43 foizi esa noaniqlik vositalariga to‘g‘ri keladi. Biroq bu nisbat janrga qarab sezilarli darajada farqlanadi: shartnomalarda aniqlik vositalari ustun (66%), qonun matnlarida ikkala guruh nisbatan muvozanatda (54% va 46%), sud qarorlarida esa noaniqlik vositalari ulushi yuqoriroq (52%).

Aniqlik vositalari orasida eng faollari ta'rif qoidalari, binomial va multinomial birikmalar, deyktik-anaforik ifodalar hamda shart va cheklov konstruksiyalaridir. Ta'rif qoidalari (“For the purposes of this Act, ‘employee’ means...”, “In this Agreement the following expressions shall have the following meanings”) termin ma'nosini matn doirasida qat'iy belgilab, uni kundalik ma'nodan ajratadi. Ularning pragmatik vazifasi talqin erkinligini cheklash va keyingi nizolarning oldini olishdan iborat. Binomial va multinomial birikmalar (“null and void”, “terms and conditions”, “any and all”, “sell, transfer and assign”) huquqiy harakatning barcha mumkin bo‘lgan shakllarini qamrab olishga xizmat qiladi. D.Mellinkoff ta'kidlaganidek, bu juftliklarning bir qismi tarixiy an'ana mahsuli bo‘lsa-da, zamonaviy shartnomalarda ular “bo‘shliq” (loophole) qoldirmaslik strategiyasi sifatida saqlanib qolmoqda [6].

Deyktik-anaforik vositalar (“hereinafter referred to as”, “the said”, “aforesaid”, “hereof”, “thereto”) matn ichidagi havolani bir ma'noli qiladi va referentning almashtirilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shart va cheklov konstruksiyalari (“provided that”, “subject to”, “notwithstanding”, “save as otherwise provided”) esa qoidaning amal qilish doirasini aniq chegaralaydi. Pragmatik jihatdan bu vositalar matn tuzuvchining huquqiy mas'uliyatini taqsimlash va kelajakdagi nizolarda o‘z pozitsiyasini himoya qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Modal fe'l “shall” ham shartnoma va qonun matnlarida majburiyatni qat'iy ifodalovchi direktiv vosita sifatida aniqlikni ta'minlaydi.

Noaniqlik vositalari orasida baholovchi umumiy terminlar eng muhim o‘rinni egallaydi: “reasonable”, “reasonable time”, “due care”, “good faith”, “material breach”, “fit for purpose”, “best endeavours”, “beyond reasonable doubt”. Bu terminlar H.Hart ta'riflagan “ochiq tuzilish”ning yaqqol namunasi bo‘lib, ularning aniq mazmuni har bir holatda sud tomonidan belgilanadi [5]. Ularning pragmatik funksiyasi qoidani oldindan ko‘zda tutilmagan holatlarga moslashtirish va qaror qabul qilish vakolatini sudga berishdan (diskretsiya) iborat.

Ochiq ro‘yxatlar (“including but not limited to”, “or any other similar”, “and the like”) va diskretsion formulalar (“as the court thinks fit”, “where appropriate”, “in such manner as may be prescribed”) ham noaniqlikning muhim vositalaridir. Ochiq ro‘yxat paradoksal tarzda ham aniqlik, ham noaniqlik vazifasini bajaradi: sanab o‘tilgan elementlar tipik holatlarni aniq ko‘rsatsa, ro‘yxatning ochiqligi qamrovni kengaytiradi. Bu V.K.Bhatia qayd etgan aniqlik va to‘liq qamrov o‘rtasidagi muvozanatning til darajasidagi ifodasidir [1]. Taxminiy ifodalar (“approximately”, “substantially”, “about”) esa asosan sud muloqotida, xususan, guvohlar ko‘rsatmasida uchraydi va so‘zlovchining o‘z ma'lumotiga ishonch darajasini ko‘rsatib, uni yolg‘on ko‘rsatma bergan deb ayblanishdan himoya qiladi [4].

Noaniqlikning yana bir muhim manbai modal fe'llar va grammatik konstruksiyalardir. “May” modal fe'li qonun matnlarida ruxsat yoki vakolatni ifodalab, “shall”dan farqli ravishda majburiyat

yuklamaydi va harakatni amalga oshirish yoki oshirmaslikni vakolatli organning ixtiyoriga qoldiradi. Masalan, "The Secretary of State may by regulations make provision..." konstruksiyasi vazirga normativ hujjat qabul qilish huquqini beradi, ammo uni majburlamaydi. Shuningdek, majhul nisbat va nominalizatsiya ("notice shall be given", "the termination of the agreement") harakat ijrochisini yashirib, kim tomonidan amalga oshirilishi kerakligini noaniq qoldirishi mumkin. Tahlil qilingan shartnomalarda bu holat ko'pincha tomonlar o'rtasidagi nizolarning lingvistik sababi bo'lib xizmat qilgani aniqlandi. Shu bois zamonaviy yuridik matn tuzish qo'llanmalarida faol nisbatdan foydalanish va harakat subyektini aniq ko'rsatish tavsiya etiladi [7].

Shartnoma va xalqaro huquqiy hujjatlarda strategik noaniqlik alohida pragmatik funksiyaga ega. Tomonlar ayrim masalalar bo'yicha kelisha olmaganda, "commercially reasonable efforts", "mutually acceptable terms" kabi noaniq formulalar murosaga erishish va bitimni imzolash imkonini beradi. Bunda noaniqlik ziddiyatni bartaraf etmaydi, balki uni kelajakdagi muzokaralar yoki sud talqiniga qoldiradi. Bu holat noaniqlikning yuridik diskursda doim ham kamchilik emas, balki ongli tanlangan pragmatik strategiya ekanligini tasdiqlaydi [3].

Sud qarorlarida esa aniqlik va noaniqlik vositalari sudyaning epistemik pozitsiyasini ifodalashga ham xizmat qiladi. "It seems to me", "in my judgment", "I am inclined to think" kabi ifodalar sudya xulosasining shaxsiy talqin ekanligini ko'rsatib, uni muloyimlashtirsa, "it is clear that", "there can be no doubt that" kabi kuchaytiruvchi vositalar xulosaning qat'iyligini oshiradi. Bu vositalar yuridik argumentatsiyaning ishonarliligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil zamonaviy ingliz yuridik matnlarida muayyan diaxronik o'zgarishlarni ham ko'rsatdi. "Plain English" harakati ta'sirida so'nggi o'n yilliklarda qabul qilingan qonun hujjatlari va shartnomalarda "hereinafter", "aforesaid", "witnesseth" kabi arxaik deyktik vositalar hamda ortiqcha binomiallar ulushi kamayib, ularning o'rnini qisqa ta'rif qoidalari va oddiy sintaktik tuzilmalar egallamoqda. Bundan tashqari, majburiyatni ifodalashda "shall" o'rniga "must" qo'llanishi kuchaymoqda. P.Tiersma ta'kidlaganidek, bu o'zgarishlar aniqlikdan voz kechishni emas, balki aniqlikni oddiy fuqaro uchun ham tushunarli bo'lgan vositalar orqali ta'minlashga intilishni anglatadi [7]. Pragmatik jihatdan bu yuridik diskursning adresat doirasi kengayib, uning faqat mutaxassislarga emas, balki keng jamoatchilikka ham yo'naltirilayotganidan dalolat beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ingliz yuridik diskursida aniqlik va noaniqlik vositalarining bir-biriga zid emas, balki o'zaro to'ldiruvchi pragmatik mexanizmlar ekanligini ko'rsatadi. Aniqlik vositalari huquqiy aniqlikni, bir ma'nolilikni va matn tuzuvchining huquqiy himoyasini ta'minlasa, noaniqlik vositalari huquqiy normalarning moslashuvchanligini, oldindan ko'zda tutilmagan holatlarga tatbiq etilishini va sud diskretsiyasini ta'minlaydi [3].

Aniqlik va noaniqlik vositalarining nisbati janr, matn tuzuvchining maqsadi va institutsional kontekstga bog'liq. Yuridik matn tuzuvchining mahorati aynan qayerda aniqlik, qayerda esa ongli noaniqlik zarurligini to'g'ri belgilay olishida namoyon bo'ladi. Natijalardan yuridik ingliz tilini o'qitish, huquqiy matnlarni tarjima qilish hamda o'zbek tilidagi yuridik hujjatlarning tilini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bhatia V.K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. – London: Longman, 1993. – 246 p.
2. Channell J. Vague Language. – Oxford: Oxford University Press, 1994. – 226 p.
3. Endicott T.A.O. Vagueness in Law. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 216 p.
4. Gibbons J. Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System. – Oxford: Blackwell, 2003. – 337 p.
5. Hart H.L.A. The Concept of Law. – Oxford: Clarendon Press, 1961. – 263 p.
6. Mellinkoff D. The Language of the Law. – Boston: Little, Brown and Company, 1963. – 526 p.
7. Tiersma P.M. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999. – 314 p.

UO'K 398.8(575.171)

TURK DUNYO MADANIY MEROSIDA XORAZM XALFACHILIK AN'ANALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Sabirova N. E., DSc, prof., kafedra mudiri, Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm xalfachiligining ilk manbalari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, Xalfa atamasining kelib chiqishi, ma'nosi haqida olib borilgan tadqiqotlarga alohida urg'u berilgan. Jumladan, xalfachilikning dastlabki bosqichi ibodat va marosimlar bilan qorishiq holda yoddan o'qish tarzida shakllanganligi, qo'shiq, she'riyat va raqs bilan sinkretik tarzda birlashgan bu san'at asrlar osha takomillashib kelganligi xususida ma'lumotlar berilgan. Maqolada XIX asrning o'rtalaridan boshlab, xalfalar repertuariga dunyoviy dostonlar kirib kela boshlaganligi alohida misollar bilan keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *"Xalfa" atamasi, xalfachilik, "Avesto" kitobi, "goh"lar, musiqa asboblari, qo'shiqlar, dostonchi-qissaxon xalfalar*

Аннотация. *В статье рассматриваются ранние истоки хорезмской традиции хальфачилик и исследования происхождения и значения термина «халфа». Обсуждается её первоначальное формирование как устного исполнения, связанного с молитвами и обрядами, а также многовековое развитие этого искусства, синкретически объединяющего песню, поэзию и танец. Приводятся примеры включения светских дастанов в репертуар халфа с середины XIX века.*

Ключевые слова: *термин «халфа», хальфачилик, «Авеста», гаты, музыкальные инструменты, песни, халфа — исполнительницы дастанов и сказаний.*

Abstract. *This article examines the early origins of the Khorezm khalfa performance tradition and research on the origin and meaning of the term khalfa. It discusses the tradition's early development through oral recitation associated with prayers and rituals and the evolution of this syncretic art combining song, poetry and dance. Examples illustrate the introduction of secular epics into the khalfa repertoire from the mid-nineteenth century.*

Keywords: *khalfa, khalfa performance tradition, Avesta, Gathas, musical instruments, songs, female performers of epics and narratives.*

Xorazm vohasida xalfachilik an'analari qadimdan boshlab keng ommalashgan. Hozirgi kunda xalfa deganda dastlab to'ylarda xizmat qiladigan, garmon chalib ashula aytadigan ayol va uning yonidagi doirachi bilan raqqosadan iborat kichik ansambl tushuniladi. Qolaversa, to'y va azalarda diniy va dunyoviy kitoblarni qiroat bilan o'qiydigan ayollar ham xalfa deb yuritiladi. Bugungi kungacha bu borada bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarning aksariyati bir-birini takrorlaydi. Ayrimlarida esa to'la ko'chirmakashlik yaqqol ko'zga tashlanadi. 2012 yilda Xivada chop etilgan kitob bunga misol bo'la oladi. Xalfalar haqida gap ketganda, asosan, Xonim xalfa, Ojiza va Anash xalfalar ko'proq tilga olinadi. Ularning soz chalib doston va doston qo'shiqlari, termalar ijro qilganliklari hamda o'zlarining ham she'r to'qiganliklariga urg'u beriladi.

Ayrim tadqiqotlarda esa Xorazm xalfalari haqida taxminiy fikrlar bayon qilinadi. Jumladan, H. Abdullaevning "Maxtumquli va o'zbek adabiyoti" risolasida shunday fikrlar uchraydi. Ko'chirma keltiramiz: "Xotin-qiz san'atkorlar-xalfalar revolyutsiyaga (1920 yilgi inqilob nazarda tutilmoqda) qadar cholg'u asbobi yordamida emas, balki ikki piyola yoki likopchalarni bir-biriga urib (cho'qishtirib demoqchi), undan chiqqan ovozga jo'r bo'lib ishqiy-romantik (romanik) va qahramonlik dostonlaridan lirik va sotsial mazmunga boy bayotlarni, shuningdek Navoiy va Maxtumquli kabi klassik shoirlarning asarlarini kuylaganlar[1]. Piyolalarni cho'qishtirib qo'shiq kuylash qadim zamonlarda bo'lgan. Ammo Xiva xalfalaridan Xonim xalfa Saidamat qizi 1895 yildan boshlab qo'shiq va dostonlarni garmon jo'rligida kuylagan[2]. Anash xalfa (Onabibi Sobirova) ham 1900 yillardan boshlab garmon chalib ashula aytgan. Mazkur ko'chirmada "bayotlarni... kuylaganlar" degan ibora ishlatilganki, uning ma'nosini anglab bo'lmaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida "Bayot" so'zining ikki ma'nosi berilgan. Birinchisi, maqom kuylaridan bittasining nomi. Ikkinchisi, Bayot

urug‘ining nomi (etnonim). Ammo bu ikki so‘z ma’nosi o‘sha jumladagi fikrga mos tushmaydi. Mabodo bayt deb oladigan bo‘lsak, Xorazm dostonlari va qo‘shiqlarida bayt shakli yo‘q. Shuningdek, S. Ollaberganovaning “Xalfalar ijodining o‘zbek folkloridagi o‘rni” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida ham yuqoridagilarga o‘xshash asossiz fikrlar ko‘plab uchraydi[3]. Tadqiqotchi xalfachilikni tasnif qilar ekan, ularni shomon xalfa, yanga xalfa, dostonchi-qissaxon xalfa, xonanda xalfa, shoira xalfa kabi turlarga ajratadi. Avvalo shuni ta’kidlash joizki, xalfachilik yo‘nalishlari J. Qobulniyozov, T. Mirzaev, N. Saburov va biz tomonimizdan tadqiq qilingan. Barcha olimlarning tasnifi bir-birini to‘ldiradi. Ammo, S. Ollaberganova bu tasniflarni butunlay o‘zgartirmoqchi bo‘ladi. Uning tasnifida tilga olingan shomon xalfa umumiy gaplar bilan tavsiflangan. Xorazmda kasallarni davolovchi ayollarni xalfa emas, balki po‘rxon (parixon) deb yuritishadi. Ular doira jo‘rligida turli aytimlarni ijro qilib, afsungarlik qilishadi. Bu toifa ayollar o‘tgan asrning 50-yillarida ham faoliyat ko‘rsatib kelishdi. Hozirda bu kasb barham topdi. Xalfalarni po‘rxonlar bilan aralashtirmaslik kerak. “Yanga xalfa” atamasi yangi “kashfiyot” bo‘lib, ajablanish tug‘diradi. Chunki yanga yangalik vazifasini bajaradi. Kelin tushganda “Kelin salom” aytish vazifasini mahalladagi istagan bir so‘zga chechan ayol bajaraveradi. Bu toifa ayollarning professional xalfalarga aloqasi yo‘q. Xonanda xalfa, shoira xalfa, dostonchi xalfalarni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Masalan, Xonim xalfada shoiralik, xonandalik, dostonchilik yo‘nalishlari to‘la mujassamlashgan, Anash xalfa va Ojiza xalfalar haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Xalfachilikning tarixiy ildizlari haqida yosh tadqiqotchi A. Matniyozovning kuzatishlari ham e’tiborni tortadi. Uning ta’kidlashicha, Xalra nomi xorazmiy tiliga oid bo‘lib, pahlaviycha “kichik kohin” ma’nosidagi Hylpt, ‘slwn’n so‘ziga yaqin turadi. “Dadestan-i menog-i xrad” kitobida xalpalarning (‘slwn’n (birl. ‘slwn) majburiyatlari quyidagicha keltirilgan: “Zarur yo‘sinda dinini saqlash; zarur yo‘sinda ma’budlarni sharaflash va ularni alqash; qoida, nizom, odat va udumlarga rioya qilish; odamlarga hidoyat yo‘lini ko‘rsatish orqali ularni do‘zax azobidan qutqarish”. Bizningcha, xorazmiy tilidagi Xalra va pahlaviy tilidagi Hylpt, ‘slwn –avesto tilida “kohin” ma’nosida keluvchi karab so‘zidan kelib chiqqan. Avesto tilidagi karapan –eski qabilaviy udum kohinlarining nomi bo‘lib, “aytib yig‘lamoq, sannamoq; marsiya aytmoq, yig‘lamoq, yig‘i-sig‘idan iborat marosim qo‘shiqlarini ijro etmoq” va “ming‘illamoq, tushunib bo‘lmaydigan tarzda so‘zlamoq” ma’nosidagi karapä fe’lidan yasalgan. Qadimgi hind tilidagi nola, hasrat qilmoq; aza tutib yig‘lamoq’ ma’nolaridagi kärpanya so‘zi ham yuqoridagi asoslardan yasalgan[4]. Binobarin, dostonchi-qissaxon xalfalar eng qadimdan kelayotgan an’analar davomchilaridir. Ularning ibtidosi “Avesto” gohlarini ijro etgan “Qalpa” larga borib taqaladi. Ular aza marosimlarida “Ibrohim Adham”, “Bobo Ravshan”, “Qul xo‘ja Ahmad” kabi dostonlarni yarim kuylash ohangida qiroat bilan o‘qib kelganlar. To‘y marosimlarida esa “Oshiq G‘arib”, “Oshiq Alband”, “Asli-Karam”, “Tohir Zuhra” kabi ishqiy dostonlarni muxlislarga yoqimli ovozda yarim kuylash ohangida o‘qib eshittirganlar. 1862 yilda Xorazmga kelgan Herman Vamberi bu toifa xalfalarni tinglagan va mazkur ijro an’anasi ularga Erondan o‘tgan bo‘lsa kerak, deya ta’kidlaydi[5]. H. Vamberining bu fikriga to‘la qo‘shilish mumkin emas. Chunki bu an’ananing tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Chunki, ibtidoiy davrning vokal muzikasi ritm va rechitativdan iborat bo‘lgan. Kuy esa ancha keyinroq paydo bo‘ladi[6]. Bundan uch ming yillar oldin xotin-qiz xalfalar “Avesto” “Goh”larini xuddi o‘sha yarim kuylash (rechitativ) oxangida o‘qib eshittirishgan:

“Goh”ni qiroat qilib,
Aslida ishonmagan
O‘zin imonda sanab,
Lekin “Goh” kuylamagan
Na xalaju na xotin
Menga ehson qilmasin[7].

“Avesto” kitobi tarjimoni M. Ishoqovning ta’kidlashicha, “Goh”-Zardusht badiha yo‘li bilan yaratgan da’vat so‘zlari. “Avesto”ning “Yasna” kitobida 17 ta “goh” qo‘shiq saqlangan. Ularni yod o‘qish o‘ta savobli hisoblangan. “Goh”larni yoddan o‘qiydigan xotin-xalajlar o‘sha davrdayoq “Qalpa” nomi bilan yuritilgan[8]. Albatta bu atama minglab yillar o‘tishi bilan fonetik o‘zgarishga uchragan va “xalfa”shakliga kirgan. “Xalfa” atamasi haqida ham turli qarashlar mavjud. O. Jumaniyozov ushbu atamani arabcha “xalifa” so‘zidan kelib chiqqan degan fikrni bildiradi[9]. H.

Abdullaev esa biz yuqorida tilga olgan ishida bu fikrni qat'iyan rad qiladi. Bizning fikrimizcha, "xalfa" atamasining arabcha "xalifa"ga bevosita aloqasi yo'q. Biroq, bu atamaning semantik doirasi ancha keng bo'lib, shariat qoidalarini yaxshi biladigan, o'qimishli odam, maktabdor domlaning yordamchisi, hunar-kasb o'rganuvchi shogirdlar boshlig'i kabi ma'nolari ham bor[10]. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda bu atama rahbar, yo'lboshchi tushunchalarini ham o'zida mujassamlashtirgan. Turkman xalqi orasida murabbiylarni hozirda ham xalipa deb yuritishadi[11].

Akademik shoir G'afur G'ulom atoqli folklorshunos olim Hodi Zarifga xalfa deb murojaat qilar ekan[12]. Arab tiliga bu atama o'zlashma so'z sifatida sanskrit tilidan o'tib, rahbar ma'nosida ishlatilgan bo'lishi mumkin. Sanskrit esa xorazmiylar uchun bobo til hisoblanadi. Xorazmda hozirda ishlatiladigan "xalfa" atamasining o'qimishli ayol, ustoz ma'nolari ham bor. Shu jihatdan olganda, O. Jumaniyozovning fikrida ozmi-ko'pmi haqiqat elementlari mavjud. Binobarin, xalfachilikdagi ustozlik-shogirdlik an'analarining tarixi nihoyatda qadimiydir. Agarda insoniyat tarixiga razm solsak, kishilar ibtidoiy hayot davridayoq ma'naviy oziqqa ehtiyoj sezganlar. Dinning paydo bo'lishi ana shu ma'naviy ehtiyojning qondirilishida dastlabki omillardan biri bo'ldi. "Ibodat qo'shiq aytish ehtiyojini ro'yobga chiqargan bo'lsa, marosimlar she'riyatning paydo bo'lishini, inonch va sig'inishlar esa raqs san'atining yuzaga kelishini taqozo etdi[13]. Demak, she'riyatning paydo bo'lishi va qo'shiqlarning kuylanishida ibodat va marosimlarning roli katta. Hozirda "joqu-joqu" so'zlarini aytib o'ynaladigan raqs bor. Bu raqs baxshining aytishicha, XXI asr boshlarigacha mehrjon bayrami marosimida ijro etilgan. Undagi "joqu" so'zi aslida "Ayo Ku" dir. Ya'ni bu so'z "Ey quyosh" degan ma'noga ega "Ku" so'zi hozirda "Kun" shaklida quyosh ma'nosini bildiradi. "Ayo"-ey, degan murojaat so'zidir. Bu so'z xalq orasida qo'lyozma tarzda ommaviylashgan dostonlarda murojaat sifatida juda ko'p ishlatiladi:

Ayo shohim, eshit ushbu javobim...

Ayo jonim, bu so'zlara quloq sol... [14]

Demak, bu qo'shiq zardushtiylik diniga aloqador quyoshga murojaat tarzida ijro etiladigan ritual (marosim) tarzidagi ashula va raqsning qorishiq ko'rinishidir. Islom dini paydo bo'lgandan keyin bu raqsdagi "Ayo Ku" birikmasi "Yohu" tarzida darveshlar repertuariga o'tib, yana diniy ritual sifatida istifoda etilgan. Bu so'zning "joqu" shakli keyingi davrlar mahsuli bo'lib, uning "j" lovchi o'zbeklar talaffuziga moslashuvining natijasidir. Bu qo'shiq hozirgi san'atkorlar repertuariga xalfalardan o'tganligini hisobga olsak, masala yanada oydinlashadi. Yana shu narsani ham ta'kidlash zarurki, raqsdagi har bir taktda ikki qo'l osmonga ko'tarilib "joqu" so'zi ikki –uch marta takrorlanadi. Ushbu harakat dastlab quyoshga iltijo qilishga qaratilgan. Islom dini paydo bo'lgandan keyin osmonga-Ollohga murojaat qilish, iltijo qilishga moslashtirilgan. Darveshlarning zikrga tushib "Yohu"lab qo'llarini osmonga ko'tarishlari ham o'sha ma'no bilan bog'liq. Xorazmda tarqalgan "chippiro dalli", "zumloq" raqslari ham ritual xarakteriga ega. Bu masala alohida tadqiqotni taqozo etadi. Darvoqe, xalfachilikning dastlabki shakllanishi din, va marosim bilan bog'lanadi. "Avesto" "goh"larini, Qur'on oyatlarini qiroat bilan, qo'shiq ohangida tinglovchiga etkazish an'analari sal o'zgarishga uchragan holda hozirgacha xalfalar vositachiligida barhayot saqlanib kelmoqda.

Xalfachilik an'analari Xorazmshohlar davriga kelib, sozanda xalfalarga ajralib chiqqan bo'lishi mumkin. Chunki bu davrda Xorazmshohlar saroyida baxshilar, sozanda va xonandalar, raqqos va raqqosalar, masxarabozlar, qo'g'irchoqbozlar, dorbozlar, hatto professional yig'lovchilargacha bo'lgan. Musiqa asboblaridan: dutor, rubob, chang, nay, rud juda ommalashgan. Demak, san'at, madaniyat yuksak darajada rivojlangan. Afsuski, bu rivojlanishni Chingiz bosqini er bilan yakson qilgan. Xalfalar ijrochiligi haqida birorta manba saqlanib qolmagan. Shu sababli biz faqat Xonim xalfa Saidamat qizining 1895 yildan boshlab garmon chalib, sozanda xalfa sifatida tanilgani haqida yuqorida ma'lumot berib o'tdik. Xonim xalfa ham ilgari doira jo'rligida, likuv (likob), piyola jarangi jo'rligida qo'shiq kuylagan. Ruslar Xiva xonligini bosib olgandan keyin Yangiariqqa ko'chib kelgan nemislar ta'sirida Xivaga garmon, fotoapparat, kinoapparat, patefon kabi madaniy mollar kirib kela boshlagan. Soz-garmonning san'at olamiga kirib kelishi xalfachilikning rivojlanishiga yuksak ijobiy ta'sir qildi. O'sha davrlarda faoliyat ko'rsatgan yigirmadan oshiq talantli xalfalar haqida ma'lumotlar mavjud[15]. Bu xalfalar orasida elga mashhur bo'lganlari Ojiza-Onabibi Otajonova, Onajon Sobirova (Anash xalfa) kabi talant egalari bor. Bu ikkala xalfa Xonim xalfaning shogirdlari bo'lib, ayni paytda

shoiralik qobiliyatiga ham ega bo‘lishgan. Shuningdek, “Oshiq G‘arib”, “Oshiq Alband”, “Oshiq Mahmud”, “Asli Karam” kabi ishqiy-romantik dostonlarni ham maromiga etkazib kuylaganlar. Binobarin, xalfachilikning dastlabki bosqichi ibodat va marosimlar bilan qorishiq holda yoddan o‘qish tarzida shakllangan. Qo‘shiq, she’riyat, va raqs bilan sinkretik tarzda birlashgan bu san’at asrlar osha takomillashib kelgan. Hozirgi ma’lumotlarga qaraganda XIX asrning o‘rtalaridan boshlab, xalfalar repertuariga dunyoviy dostonlar kirib kela boshlagan. Asr oxiridan boshlab sozanda, dostonchi xalfalar faoliyat ko‘rsatib boshlaydi. XX asrning 30-yillaridan e’tiboran hozirgi ansamblli sozanda xalfalar faoliyati ommaviylasha boshlaydi. (Bu toifa xalfalar balki xorazmshohlar davrida shakllangan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas). Sozanda xalfa sifatida tanilgan dastlabki san’atkorlardan biri O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Soraxon Ollaberganovadir. Qiroat bilan diniy va dunyoviy dostonlar o‘qiydigan savodxon-qissaxon xalfalar ham o‘z yo‘nalishi bo‘yicha to‘y va azalarda xizmat qilishda davom etishadi. Xorazmda qissaxon-qiroatxon xalfalar ko‘p bo‘lgan. Bularga Niyozjon Musaeva, So‘na Eshmatova, Roziya Ollayorova va boshqalarni kiritish mumkin. Insoniyat hamisha ma’naviy ehtiyojga intiq yashagan. Shu sababli adabiyot va san’atning ildizlari ibtidoiy hayot qadar qadimiydir. “Ko‘chmanchi hayotdan o‘troq hayotga ko‘chish, insoniyat, hayotidagi buyuk burilishlardan biridir”[16]. O‘troq hayot ma’naviy yuksalishni yangi pog‘onaga ko‘tardi. Badiiy ijod rivojlandi. Diniy ehtiyoj, ibodat yuzaga keldi, Ibodat esa insonni qo‘shiq kuylashga, she’riyatga etakladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullaev H. Maxtumquli va o‘zbek adabiyoti. T.: Fan, 1983. –B. 32.
2. Yusupov Yu. Xorazm shoirlari. –T.: “Adabiyot va san’at”, 1988. –B. 117.
3. S. Ollaberganova. “Xalfalar ijodining o‘zbek folkloridagi o‘rni”. NDA -Toshkent, 2007.
4. Matniyozov O. Xalfa nomining etimologiyasi xususida. // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi, 2016, №4. –B.44.
5. Vamberi H. Chig‘atoy tili darsligi. –Leyptsig, 1867. –B.33-34.
6. Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. –T.: “Fan”. 1960. –B.180. (240)
7. Avesto. Yasht kitobi. –T.: “Sharq”, 2001. –B. 28.
8. Abdullaev H. So‘z sehri. –T.: TDPU nashriyoti, 2005. –B.6.
9. Jumaniyozov O. Xalpa // Ilm sarchashmalari. Urganch, 2002, №4. –B.71-72.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5 jildlik, 4-jild. –T.: “O‘zbek milliy entsiklopediyasi”, 2008. –B.381.
11. Xalipa (metodik jurnal). Ashgabat, 2003. –B.2.
12. Mirzaev T. Hodi Zarif suhbatlari. –T.: “SHAMS-ASA” 2013. –B.369.
13. Koler I. Ranke I., Rattsel F. Istoriya chelovechestva (do istoricheskiy period) Sankt—Peterburg, 2003. –S.78.
14. Oshiqnoma, 4-kitob. –Urganch. “Xorazm”, 2009. –B.43.
15. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. –T.: “Adabiyot va san’at”, 1988. –B.117.
16. Koler I., Ranke I., Rattsel F. Istoriya chelovechestva (do istoricheskiy period). –SPb., Poligon, 2003. –S.50. (329)

UO‘K 811.411.21’37:28

“SLM” O‘ZAGI VA UNING HOSILALARINING DIAXRONIK-SEMANTIK TAHLILI

Sagdullayeva D. K., PhD, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qur’oni karimning markaziy tushunchasi hisoblangan “islom” atamasi va s-l-m o‘zagi hosilalarining semantik maydoni tadqiq etilib, diaxronik semantik yondashuv asosida ushbu leksik birlikning turli kontekstlardagi ma’no xususiyatlari aniqlangan. Tadqiqotda mumtoz va zamonaviy arab lug‘atlari, tafsir manbalari hamda arab tilshunoslik an’anasiga tayangan holda, so‘nggi ilohiy din nomini belgilagan konseptning paydo bo‘lishi va islom ta’limotidagi fundamental o‘rni tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *«islom» konsepti, somiy tillar, diaxronik yondashuv, arab lug‘atchiligi, ma’no qirralari, diniy atama.*

Аннотация. *В настоящей статье исследуется семантическое поле термина “ислам” центрального понятия Корана и производных корня s-l-m, а также на основе диахронико-семантического подхода выявляются смысловые особенности данной лексической единицы в различных контекстах. С опорой на классические и современные арабские словари, источники тафсира и арабскую лингвистическую традицию, в исследовании с лингвистической точки*

зрения проанализированы генезис концепта, давшего название последней религии, и его фундаментальное место в исламском учении.

Ключевые слова: *концепт «ислам», семитские языки, диахронический подход, арабская лексикография, смысловые грани, религиозный термин.*

Abstract. *This paper examines the semantic field of the term "Islam", which is a core concept in the Quran, alongside the derivatives of the root s-l-m, utilizing a diachronic-semantic approach to reveal the semantic features of this lexical unit across various contexts. Based on classical and contemporary Arabic lexicography, works of tafsir, and Arabic linguistic tradition, the research provides a linguistic analysis of the genesis of the concept that named the final divine revelation and its foundational role within Islamic teaching.*

Keywords: *concept of "Islam", Semitic languages, diachronic approach, Arabic lexicography, semantic nuances, religious term.*

Kirish. "Islom" atamasining etimologik va konseptual semalarini ajratish ushbu diniy konsept mazmunini to'g'ri ifodalash va lingvokulturologik jihatdan sharhlashning asosiy shartidir. Mazkur leksemaning semantik strukturasini tahlil qilish konseptning shakllanish dinamikasi, til va tafakkur tizimidagi ahamiyatini yoritib beradi. Mumtoz va zamonaviy arab lug'atchiligi tajribasi asosida ushbu leksik birlikning semantik ko'lamini tadqiq etish uning dastlabki lug'aviy ma'nosi, semantik tadriji va kontekstual variativligini yaxlit tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Islom leksemasiسلم *slm* o'zagidan tashkil topgan bo'lib, mazkur o'zak "1.sog'-salomat bo'lmoq, bexatar bo'lmoq; 2. najot topmoq; 3.erkin bo'lmoq" [1:387] kabi birlamchi ma'nolarni anglatadi. Alloh taoloning go'zal ismlaridan biri bo'lgan السلام*as-salam*, islom diniga e'tiqod qiluvchilarni ifodalash uchun qo'llaniladigan مسلم *muslim* yoki musulmon so'zlari ham xuddi shu o'zakdan yasalgan muhim diniy atamalardir. سلم *slm* o'zagi so'nggi ilohiy dinga o'z nomini beribgina qolmay, islom dinining asosiy manbasi hisoblangan Qur'oni karimning semantik maydonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Islom dini mohiyatini ochib beruvchi asosiy atamalarini aniqlash va semantik tahlilga tortish ilohiy kitobni to'g'ri anglash va hayotga tatbiq qilishda ko'mak beruvchi zarur tadqiqotlar sirasiga kiradi. Agar bu tushunchalarning semantik mazmuni to'g'ri aniqlansa, Qur'on va islom dini tasvirlagan dunyoni to'g'ri tushunish mumkin [3].

slm o'zagi سَلَمَ – سَلِمَ – سَلَّمَ – سَالَمَkabi shakllarda fe'l, ism turkumidagi so'z sifatida سِلْمٌ – سَلْمٌ – سُلْمٌ – سَالِمٌ – مُسَالِمٌ kabi ko'plab shakllarga ega [1, 11]. Abdulqodir ar-Roziyning "Muhtaru-s-sihah" lug'atida *slm* o'zagidan hosil bo'lgan سَلْمٌ va سَالِمٌ leksemalari erkak, سَلْمَى esa ayol ismini ifodalovchi so'z sifatida keltiriladi. سَلْمَان leksemasi ham tog' nomi, ham erkak kishiga qo'yiladigan antroponimdir. السَّلاليمُ "zinapoyalar" mazmunini ifodalab, السُّلَّمُ uning birligi hisoblanadi. السَّلْمُ esa "tinchlik" degani [11:131].

"Muhtaru-s-sihah" lug'atida keltirilishicha, السَّلْمُvaالسِّلْمُ so'zlaridagi س harfi fatha yoki kasra bilan yozilsa, "sulh, tinchlik" ma'nolarini anglatadi. السِّلْمُ va مُسَالِمُ so'zlari "tinch, tinchliksevar inson" ma'nosini ifodalashda ham qo'llaniladi. السَّلامُ esa "xavfsizlik, farovonlik, tinchlik, osoyishtalik" degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, السَّلامُ leksemasi Allohning go'zal ismlaridan biri bo'lib, "aybsiz, nuqsonsiz" ma'nolarini ifodalaydi. Birlik shakli سُلامَى bo'lgan السُّلامَياتُ leksemasi ham mazkur o'zakdan yasalib, u "barmoq bo'g'imi"ni ifodalashda qo'llaniladi. سَلِمَ "ofatlardan xalos bo'lish; سَلَّمَ"bermoq, yetkazmoq"; تَسَلَّمَ " qabul qilish";التَّسلِيمُ bir tomondan "qabul qilish" ma'nosini anglatsa, ikkinchi tomondan "tinchlik" ma'nosida qo'llaniladi. أسْلَمَ أمره إلى اللهvaborasidagi أسلم fe'li "Alloh taqdiriga rozi bo'lish" ma'nosidadir [11:131].

"Mu'jamu-l-vasit" lug'atida *slm* o'zagi asosida hosil bo'lgan so'zlarning quyidagi ma'nolari mavjud. Xususan, السُّلَّمُ – سُلْمٌ "yuqoriga ko'tarilish yoki biror narsaga erishish uchun qo'llaniladigan vosita" ma'nolarini ifodalaydi. Shuningdek, السُّلَّمُ leksemasi musiqa notalariga nisbatan ham qo'llaniladi. سَلْمٌ–السَّلْمُ leksemasi "sulh, tinchlik, islom (din)" ma'nolarini anglatib, uning antonimi حَرْبٌ "urush" so'zi hisoblanadi [10]. سَلْمo'zagidan hosil bo'lgan المُسَالِمُ so'zi tinchliksevar va tinchlik tarafdori bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. سَلَّمَ –السَّلَمُ leksemasi "tinchlikda taslim bo'lish, urushsiz asirga tushish" ma'nolarini ifodalasa, سَلَّمَ fe'li "itoat qilmoq, bo'ysunmoq, birovning hukmiga rozi bo'lmoq", shuningdek, "namozni tugatish uchun salom berish", "odamlarga salom berish", "da'voning haqiqatini qabul qilish", "dushman qo'shini g'alaba qozonganini tan olish",

"Allohga taslim bo'lish", "Alloh taoloning bandasini balodan qutqarishi va tinchlantirishi", "farovonlikka erishish" kabi qator ma'nolarni ifodalaydi [10].

Ibn Manzur "Lisanu-l-arab" asarida *slm* o'zagi ma'nolarini ifodalash maqsadida Muhammad ibn Yazid qarashlariga murojaat qilgan [5]. Shu nuqtai nazardan, u *slm* o'zagi to'rt xil ma'noda qo'llanilishini aytadi:

a) سَلِمَ fe'li va uning masdar shakli سَلَامٌ. Mazkur fe'l "omon qolmoq", "tinchlikka erishmoq", "najot topmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Ibn Manzurning fikricha, bu so'zning asl ma'nosi سَلَامَةٌ so'zidan kelib chiqib, "turli ofat va yomonliklardan uzoq bo'lish" ma'nosini bildiradi. Shuningdek, mazkur so'z "omonlik" ma'nosida ham qo'llaniladi.

b) السَّلَامُ - Allohning go'zal ismlaridan biri sifatida. Ibn Manzur Allohning ismi sifatida qo'llanilgan السَّلَامُ *as-salam* leksemasi "Alloh turfa kamchilik va ofatlardan pokdir" degan ma'noni anglatadi, deya ta'kidlaydi. Shuningdek, bu so'z masdar shaklda bo'lib, "farovonlik manbai", "farovonlik beruvchi", "tinchlikka yetaklovchi", "kamchiliklardan, nuqsonlardan va balolardan himoya qiluvchi" kabi ma'nolarga ega [5:342]. Bu so'zning asli masdar bo'lishiga qaramay, ma'no kuchaytirish maqsadida sifat shaklida qo'llaniladi [9:72].

v) سلَّم fe'li va uning masdari bo'lgan سَلَام. Bu fe'l salomlashish uchun ishlatiladi. Mazkur ma'noda arab lug'atlarida keng qo'llaniladigan leksema تَحيّة hisoblanadi. Ibn Manzurning fikricha, سَلَام leksemasi mazmuni "dini va ruhini har qanday yomonlikdan pok bo'lishini so'rab duo qilishdir".

d) السَّلَمُ - daraxt turi. Al-Azhariy: "Bu katta va chidamli daraxt bo'lgani uchun turli ofatlardan uzoqdir. Shuning uchun u shunday nom oldi", deya daraxtning bu nom bilan atalishini izohlaydi [6].

Firuzobodiy *islam* إسْلَامٌ leksemasi "Allohning amr va rizqiga taslim bo'lish yoki bo'yin egish", "Allohning qazo-qadariga rozi bo'lish" ma'nolarida qo'llanishini ta'kidlagan [12]. Shuningdek, *slm* o'zagidan hosil bo'lgan إسْتِسْلَامٌ *istislam* so'zi ham yuqoridagi ma'nolar bilan bir qatorda "doimo o'rta yo'ldan ergashish" ma'nosini ham anglatadi.

Xulosa. Islom leksemasining semantik maydoni doirasida tinchlik ma'nosi bilan bir qatorda "farovonlik", "osoyishtalik", "xavfsizlik" kabi atamalar paydo bo'ldi. Tilni jonli borliq va ijtimoiy hodisa ekanligini hisobga olgan holda *slm* o'zagining tarixiy sharoitda yangi ma'no tovlanishlariga uchrab, ma'no kengayishi tabiiy jarayondir. Bu o'zakning "turli yomonlik, zarar, kamchilikdan xoli bo'lmoq, poklanmoq, qutulmoq" kabi boshlang'ich ma'nosi bilan aloqasi uzilmagan holda ma'no jihatdan kengaygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. An-Naym. Arabcha-o'zbekcha lug'at. – Toshkent, 2003. – 959 b.
2. Gezgin A.G. (1999). Tefsirde Semantik Metod ve Kur'ân'da Kavm Kelimesinin Semantik Analizi, Süleyman Demirel Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Isparta.
3. Kocabaş, Ş. (1997). İslam'da Bilginin Temelleri, İstanbul: İz Yayıncılık.
4. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. –T.: MUMTOZ SO'Z, 2010. – B.3.
5. ابن منظور. لسان العرب.دار المعارف، بيروت. 1993
6. أبو منصور الأزهري. تذهيب اللغة. دار الفكر، بيروت.2004
7. أحمد بن فارس بن زكريا أبو الحسين. معجم مقاييس اللغة. الجلد الثالث. دار الفكر، بيروت. 2014
8. أنوار التنزيل وأسرار التأويل المعروف بتفسير البيضاوي. دار الفكر، بيروت. 1996.
9. أبو هلال العسكري. الفروق في اللغة. دار الرسالة العالمية. بيروت، 2014.
10. المعجم الوسيط.مكتبة الشروق الدولية، القاهرة.2005
11. محمد بن أبي بكر بن عبد القادر الرازي. مختار الصحاح. مكتبة لبنان، بيروت. 2017
12. محمد بن يعقوب الفيروز آبادي مجد الدين. القاموس المحيط. دار الحديث، القاهرة. 2013
13. محمود عبد الرحمن عبد المنعم. معجم المصطلحات والألفاظ الفقهية. دار الفضيلة للنشر والتوزيع والتصدير. القاهرة، 1999.

UO'K 81'373.421:81'27

SINONIMIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

N.K.Sabirova, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqola sinonim sözlarning pragmatik xususiyatlari va kontekstual sinonimlar ma'nolarining yaqinlaşuviga bağişlangan. Sinonimlar yaqin ma'noga ega bölsa-da, ular har doim özaro almaştirilmaydi. Leksik birlikning ma'nosi turli kontekstlarda özgarişi mumkin.*

Kalit sözlar: *leksik sinonimiya, kontekstual sinonim, pragmatika, kognitiv-pragmatik omil.*

Аннотация. *Статья посвящена прагматическим свойствам слов-синонимов и сближению значений контекстуальных синонимов. Несмотря на близость значений, синонимы не всегда взаимозаменяемы. В разных контекстах значение выбранной лексической единицы может изменяться.*

Ключевые слова: *лексическая синонимия, контекстуальная синонимия, прагматика, когнитивно-прагматический фактор.*

Abstract. *The article examines the pragmatic properties of synonyms and the convergence of contextual meanings. Despite their semantic similarity, synonyms are not always interchangeable. The meaning of a lexical item may change across contexts.*

Key words: *lexical synonymy, contextual synonym, pragmatics, cognitive-pragmatic factor.*

Sinonimiya, ma'noviy munosabatlar köpgina turli tizimli tillarda örganilganligini kuzatişimiz mumkin. Ingliz tilşunosligida sinonimiyaga bağişlangan ilmiy işlar hamda tadqiqotlar tildagi mavjud leksik va nutqiy birliklarda kuzatiladigan uşbu hodisani çuqur örganilganligidan dalolat beradi. Sinonimik munosabatlar haqida ingliz tilşunosi J.Layonzning fikrlari e'tiborga molikdir. Tilşunos olimning keltirişiça, jumla tarkibida bir-biri bilan örni almaştirilgan holatda ham, ular qatnaşgan gaplar bir xil ma'no anglatadigan ikki (yoki undan ortiq) birliklar sinonim sanalişini ta'kidlaydi [3].

Sinonimiya sözlar ma'nosining tengligi va özaro mos keliş munosabatidir. Sinonimiya alohida va individual leksemalar orasida, şuningdek, leksik sinonimiya va birdan ortiq leksemalardan taşkil topgan hamda iboralararo ma'no munosabatidan ham iborat sanaladi. Semantik identifikatsiya ona tilida sözlovçi şaxsning metatil zaxirasining bölagi hisoblanadi va odatda bir xil ma'noga ega sözlar sinonimiya deb ataladi. Leksik sinonimiya semantikaga oid adabiyotlarda turliça talqin qilinadi.

A.Kruzning fikriça, "Asosan ma'no öxşaşligining umumiy ta'rifi qabul qilinadi" [1]. Şuningdek, ba'zi tilşunos olimlar uçun ikkita söz sinonim hisoblanadi va quyida keltirilgan inglizça *likely* va *probable* sözlarini keltiriş mumkin.

1. *It's likely/probable that he'll be late.*
2. *He is likely/*probable to be late.*

Uşbu jumlalarda likely va probable yaqin ma'noli bölsa-da, ularning sintaktik qöllanişi farq qiladi. Birinçi jumlada ikkala sifat ham that bilan boşlangan ergash gapni qabul qiladi. Ikkinçi jumlada esa to-infinitiv bilan likely qöllanadi; probable bu qurilmada me'yoriy emas (* belgisi grammatik jihatdan nomaqbul variantni körsatadi). Bu misol sinonimlarning grammatik jihatdan har doim özaro almaştirilmasligini körsatadi. R. Xadson va hammualliflar ma'no bilan birga grammatik xususiyatlarning ham hisobga olinişi zarurligini ta'kidlaydi [2].

Mutlaq sinonimlar ma'no jihatidan barcha kontekstlarda özaro mos kelishi mumkin, biroq yaqin ma'noli birliklarning qöllanişi kontekst va grammatik qurilmaga boğliq.

Bugungi kunga qadar sinonimiyaga tilning paradigmatik tizimida e'tibor qaratilib, uning tilda işlatilişidagi örni bee'tibor qoldirilgan. Uşbu mavzu böyiça dastlabki kuzatiş tildagi yozma diskursning köplab turlaridagi öxşaş kontekstlarda bir xil sözlarni takrorlamaslik uçun yaxşi uslub sanaladi. Natijada yaqin ma'noli leksik birliklar semantik jihatdan farqlanilmasdan, köpinça ekvivalent sifatida qöllaniladi. Kontekstda qamrab olingan ekvivalent sözlarga doimiy bölmagan, vaqtinçalik sinonim maqomi beriladi. Şuning uçun oldingi ekvivalent terminlar kontrast munosabatda bölişi mumkin.

Sinonimiya nutqni yanada rang-barang va ifodali qilib, predmet yoki hodisani yaxlit va har tomonlama tasvirlaşga imkon beradi. S.Ullman köp sonli sinonimlar jamiyat hayotida muhim rol öynaydigan realiyalarni anglatadi [4], degan fikrni ilgari suradi.

Mutlaq sinonimiya juda kam uçraydigan hodisa sanalib, kontekstual sinonimiyada matndagi sözlar ma'nosining yaqinlaşuvi kuzatiladi. Kontekstual va lingvistik sinonimlar orasidagi farq şundaki, kontekstual sinonimlarda köpinça sözlar ma'nosining yaqinlaşuvi muayyan kontekst doirasida ifodalanadi. Kontekstual sinonimlar faqat kontekstda namoyon bölsa, lingvistik sinonimlar alohida şaklda ifodalanadi va luğatlarda ham qayd etiladi.

A.V.Moiseenko lingvistik ilmiy adabiyotlarda kontekstual sinonimlar nutqning bir qismi sifatida keltirilişini ta'kidlab [7], iboralar va frazeologik birliklar ma'no jihatidan bir-biriga yaqin

bölgan hamda muayyan bir kontekst doirasida bitta sinonimik qatorga ega sözlar sanalişini ta'kidlaydi.

A.I.Ivanova sinonimiya hodisasini ma'noviy sinonimiya yoki ma'no muqobili sifatida keltiradi [5]. Bunda sinonimiya ma'no yaqinligiga köra emas, balki til paradigmasidagi tizimli munosabatlar orqali va muayyan tilda sözlaşuvçining atrofdagi voqelikka munosabati orqali ifodalanadi. Mazkur fikr kontekstual sinonimiyani nominativ özgaruvçanlik hodisasi sifatida ifodalaydi. Şuningdek, tilning leksik tizimida bitta sinonimik qatorga tegişli bölmagan sözlar sinonim sifatida işlatilişi mumkin [8]. Kontekstual sinonimiyada leksik birlik ma'nosini ifodalovçi köplab sözlar, ya'ni uning lingvistik tabiati kuzatiladi. Til belgisining asimmetriyasi referentning murakkabligi va köp qirraliligiga boğliq sanaladi. Muallifning muayyan obyekt yoki hodisaning ma'nosini töliq va aniq ifodalaşida kontekstual sinonimlarni qöllaşi kuzatiladi. Muloqotga kirişuvçining referentni nomlaşdagi variativligida uning dunyoqaraşi va qabul qiluvçining içki dunyosiga moslaştirilişini kuzatiş mumkin.

Kontekstdagi sinonimlar tildagi ma'no ifodasining variantliligini yaratadi. Kontekstual sinonimlarning qöllanilişi sözlovçi nutqining monotonligini özgartiradi. Şuningdek, kontekstual sinonimlarning qöllanilişi fikrni aniqlaştirib, muayyan situatsiyani batafsilroq tavsiflaydi va qabul qiluvçiga referent haqida qöşimça tafsilotlarni yetkazuvçi vositalardan biri sanaladi. Kontekstual sinonimlarning funksional xususiyatini körib çiqib, ular nutqning eng maqbul kommunikativ-pragmatik potensialini amalga oşiradi, degan xulosaga keliş mumkin. Ular fikrni aniqlaştiradi, matnning izçilligini ta'minlaydi, muloqotga kirişuvçining emotivligini ifodalaydi.

Sinonimiyaning qöllanilişi va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari turli kontekstlarda yanada aniqroq öz ifodasini topadi. Sinonimiya hodisasida sodir böladigan özgarişlarning ekstralingvistik omillar bilan boğliqligi kuzatiladi. Muloqotda lingvistik birliklarning qöllanilişida ijtimoiy va kognitiv-pragmatik omillar muhim rol öynaydi.

A.Mamedovning ta'kidlaşiça, "Это происходит благодаря тому, что язык в целом, а также его элементы выполняют важную социальную задачу – обеспечить коммуникацию между членами социальных групп посредством передачи информации через обычные знаки" [6]. Ya'ni til birliklari ma'lumotni muhim ijtimoiy vazifa sanaladigan ijtimoiy guruh a'zolari orasida oddiy leksik belgilar orqali ifodalaydi.

Muloqotning asosiy maqsadlaridan biri suhbatdoşga ta'sir qiliş sanaladi va mazkur hodisa til birligining pragmatikasi bölib, unda leksik birlikning tinglovçiga ta'siri örganiladi. Şuning uçun pragmatika doimo kognitiv jihatdan yönaltiriladi.

Ba'zi sinonimlar ma'nosining töğri qöllanilişi kontekstga boğliq. Muayyan yangi kontekstda qöllaniladigan sinonimik qatordagi mos keluvçi sinonimning tanlovida ayrim çeklovlarni köriş mumkin. Mazkur holatda muloqotga mos keluvçi til vositalarining tanlovi va ularning qöllanilişini örganuvçi pragmatika, ya'ni muayyan nutqiy vaziyat yoki kontekst mavjudligini köramiz.

Sinonimlar yaqin ma'noga ega bölişiga qaramasdan ular bir xil kontekstlarda qöllanilmaydi. Ma'lum kontekstda tanlangan leksik birlikning ma'nosi, özga kontekstda qöllanilganida butunlay boşqa ma'noga ega bölişi kuzatiladi.

Dunyo tilşunosligida leksik birlikning nafaqat semantikasi, balki uning pragmatik mazmuniga ham asosiy e'tibor qaratildi. Natijada til, tafakkur, leksik birlik ma'nosining tilda namoyon qilinişiga keng imkoniyatlar yaratildi. Sinonimik sözlar orasidagi semantik, kontekstual va pragmatik munosabatlarning tadqiqi tilşunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Nutqning yanada aniqroq ifodasi va rang-barangligida sinonimlar alohida ahamiyat kasb etadi. Matn va nutqda sinonimlarning tanloviga semantik va pragmatik jihatlar bilan boğliq köplab omillar ta'sir qiladi.

Sinonimiyaning pragmatik xususiyati muloqotga kirişuvçining maqsadli intensiyasiga köra, sinonimik qatordagi birlikni tanlaşi va tinglovçi uning kontekstual jihatdan qöllanilganini töğri anglaşini, fikr va munosabatlarning munosib ifodasini topişga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. –P. 310.

2. Hudson R, Rosta A, Holmes J, Gisborne N. Synonyms and syntax, Journal of Linguistics 32. 1996. – R. 439–446.

3. Lyons J. Introduction to theoretical linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1968. – P. 428.

4. Ullmann S. The principles of semantics. – Oxford: Blackwell Publishing house, 1963. 2nd ed. – 352 p.

5. Иванова А.И. Контекстуальная синонимия как проявление номинативного варьирования в тексте: Дисс. … канд. филол. наук. – Тверь, 2006. – 186 с.

6. Мамедов А. Дискурс и перевод: функционально-когнитивный подход. – Баку: Letterpress, – 2012. – С. 14-15.

7. Моисеенко А.В. Лингвоэкологические и структурные особенности контекстуальных синонимических рядов в английском и русском языках // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. 2008. № 60. – С. 195–198.

8. Неверова Т.А. Опыт классификации контекстуальных синонимов (на материале трилогии Д.С.Мережковского «Христос и Антихрист») // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. 2008. № 6. – С. 188–192.

UDC 81'373.612.2:72

METAPHOR AND POLYSEMY IN ENGLISH AND UZBEK ARCHITECTURAL TERMINOLOGY

Saidova Z. U., associate professor, Tashkent University of Architecture and Civil Engineering, Tashkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi arxitektura terminologiyasida metafora va polisemiya hodisalari qiyosiy-lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Arxitektura terminlarining ko'chma va ko'p ma'nolilik xususiyatlarini kasb etishiga asos bo'luvchi semantik mexanizmlar tahlil qilinib, bunda konseptual metafora, madaniy assotsiatsiyalar va kasbiy kommunikatsiyaning o'rniga alohida e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *arxitektura terminologiyasi, metafora, polisemiya, semantik kengayish, konseptual metafora, ingliz tili, o'zbek tili.*

Аннотация. *В данной статье исследуются явления метафоры и полисемии в английской и узбекской архитектурной терминологии с позиций сопоставительной лингвистики. Анализируются семантические механизмы, посредством которых архитектурные термины приобретают переносные и множественные значения. Особое внимание уделяется роли концептуальной метафоры, культурных ассоциаций и профессиональной коммуникации в формировании и развитии семантики архитектурных терминов.*

Ключевые слова: *архитектурная терминология, метафора, полисемия, семантическое расширение, концептуальная метафора, английский язык, узбекский язык.*

Abstract. *This article examines metaphor and polysemy in English and Uzbek architectural terminology from a comparative linguistic perspective. It explores the semantic mechanisms through which architectural terms acquire figurative and multiple meanings, emphasizing the role of conceptual metaphor, cultural associations, and professional communication.*

Keywords: *architectural terminology, metaphor, polysemy, semantic extension, conceptual metaphor, English language, Uzbek language.*

Introduction. Architectural terminology constitutes an important component of specialized vocabulary, reflecting the historical development of construction practices, technological innovations, cultural traditions, and professional communication. As architecture combines technical knowledge with artistic expression, its terminology frequently demonstrates complex semantic relationships, including metaphorical extensions and polysemy. These linguistic phenomena contribute to the formation, development, and transformation of architectural concepts in different languages.

Metaphor is one of the fundamental cognitive mechanisms through which new meanings are created and existing concepts are reinterpreted. In architectural discourse, metaphorical expressions often emerge through associations between structural elements and familiar objects, human body parts, or natural phenomena. For example, English architectural terms such as *foot*, *head*, *rib*, and *skin* may refer to specific structural components or surfaces through metaphorical extension. Similarly, Uzbek architectural terminology includes expressions such as *ustun boshi* (capital of a column), *bino tanasi* (body of a building), and *tom etagi* (edge or lower part of a roof), illustrating the role of figurative conceptualization in technical language.

Main part. One of the most influential theoretical foundations for studying metaphor is provided by George Lakoff and Mark Johnson in their work *Metaphors We Live By* (1980). The authors argue that metaphor is not simply a rhetorical or stylistic device but a fundamental mechanism of human conceptualization. According to their conceptual metaphor theory, individuals understand unfamiliar or abstract concepts through more familiar and concrete domains of experience [1]. This theoretical position is particularly relevant to architectural terminology because architectural objects are frequently described through concepts associated with the human body, natural forms, spatial relationships, and everyday objects. For example, the English expressions *the foot of a column*, *the face of a wall*, and *the skin of a building* demonstrate how architectural components may be conceptualized through bodily and physical associations. Similar metaphorical models can be observed in Uzbek expressions such as *ustun boshi* (capital of a column), *bino tanasi* (body of a building), and *tom etagi* (lower edge of a roof). These examples illustrate the potential universality of embodied metaphorical thinking while simultaneously revealing language-specific lexical realizations.

An important contribution to the cognitive interpretation of metaphor was made by Zoltán Kövecses in *Metaphor: A Practical Introduction* (2002). Kövecses examines conceptual metaphors as systematic relationships between source and target domains and emphasizes the interaction between universal cognitive mechanisms and culturally specific experiences [2]. His theoretical framework is especially valuable for comparing English and Uzbek architectural terminology because the two languages represent different linguistic and cultural traditions. Although certain metaphorical models may be shared across languages, their lexical expressions and conventional meanings may differ considerably. For example, architectural terminology based on body-part metaphors may demonstrate similar conceptual motivations in both languages, while the selection of particular lexical units may depend on historical usage, construction traditions, and cultural associations.

The relationship between metaphor and polysemy is examined in detail by John R. Taylor in *Linguistic Categorization* (2003). Taylor approaches lexical meaning from the perspective of cognitive categorization and prototype theory, demonstrating that the meanings of polysemantic words are often organized around central and peripheral semantic components [3]. This approach is particularly significant for architectural terminology because many specialized terms possess several related meanings that emerge through functional similarity, spatial association, or metaphorical extension. For instance, the English term *arch* primarily refers to a curved structural element but may also denote a similar shape or formation in other contexts. Likewise, the term *frame* can refer to a structural framework, a window or door frame, or a supporting arrangement of components. These related meanings demonstrate how specialized vocabulary may develop semantic networks rather than remain restricted to a single fixed definition.

Another significant theoretical contribution was made by Dirk Geeraerts in *Theories of Lexical Semantics* (2010). Geeraerts provides a comprehensive overview of lexical semantic theories and explains the role of historical change, cognitive categorization, semantic extension, and contextual variation in the development of word meanings [4]. His research demonstrates that polysemy should be investigated through the interaction of linguistic structure, conceptual organization, and actual language usage. This perspective is highly relevant to architectural terminology, which continuously develops in response to technological innovations, changes in construction practices, and the emergence of new architectural styles.

A further important direction in terminology research is represented by Maria Teresa Cabré's *Terminology: Theory, Methods and Applications* (1999). Cabré examines terminology as an interdisciplinary field connecting linguistics, cognitive science, communication, and specialized knowledge [5]. Her theoretical approach emphasizes that terminological units should be investigated not only as isolated lexical forms but also as elements of professional communication. This position is particularly important for architectural discourse, where the interpretation of a term depends on its function in a particular technical context. For example, the English word *elevation* may refer to the external representation of a building facade in architectural drawings, while in other contexts it

denotes height or the act of raising something. The correct interpretation of such terms requires an understanding of both their lexical meanings and their specialized professional functions.

Therefore, the literature review demonstrates that an integrated cognitive-semantic and comparative approach is appropriate for investigating metaphor and polysemy in English and Uzbek architectural terminology. Such an approach makes it possible to examine architectural terms as dynamic linguistic units shaped by conceptual associations, historical developments, cultural traditions, and professional communication. It also provides a theoretical foundation for improving bilingual architectural lexicography, specialized translation, and the systematic description of architectural terminology.

Conclusion. The comparative examination of metaphor and polysemy in English and Uzbek architectural terminology demonstrates that these phenomena play an important role in the semantic development and conceptual organization of specialized vocabulary. Metaphorical extensions contribute to the creation of new terminological meanings by establishing conceptual relationships between architectural structures and familiar objects, physical characteristics, or human experiences. Polysemy, in turn, reflects the ability of architectural terms to develop multiple related meanings in response to changing technological, functional, and communicative requirements.

2. Adams P. G. Travel Literature and the Evolution of the Novel. Lexington: University Press of Kentucky, 1983.
3. Fussell P. Abroad: British Literary Traveling Between the Wars. New York: Oxford University Press, 1980.
4. Pratt M. L. Imperial Eyes: Travel Writing and Transculturation. London: Routledge, 1992.
5. Said E. W. Orientalism. New York: Pantheon Books, 1978.

UDC 81'25:811.111:811.512.133

AUDIENCE, GENRE AND PRAGMATIC EQUILIBRIUM IN ENGLISH–UZBEK CONDITIONAL TRANSLATION

M.A.Shukurova, PhD, Associate Professor, Bukhara State University, Bukhara
I.I.Samandarov, master's student, Bukhara State University, Bukhara

Annotatsiya. *Mazkur konseptual maqolada ingliz tilidagi shartli ifodalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda mo'ljallangan o'quvchilar auditoriyasi va janr tarjima variantlarini tanlashga qanday ta'sir ko'rsatishi tadqiq etiladi. Har bir if-ergash gapni faqat grammatik masala sifatida talqin qilish o'rniga, institutsional xabarnomalar, shaxslararo maslahatlar, o'tmish haqidagi mulohazalar hamda keng jamoatchilikka mo'ljallangan axborot matnlari o'zaro qiyoslanadi. Muhokama tarjimani funksional baholash va ochiq hamda yashirin tarjima o'rtasidagi farqqa asoslanadi. Shartning qamrov doirasi, modal qat'iylik, shaxslararo masofa va o'quvchining xulosa chiqarishini tekshirish uchun kontekstni hisobga oluvchi baholash jadvali taklif etiladi. Ikki tildagi barcha misollar tahlil uchun maxsus tuzilgan bo'lib, ushbu jadval empirik tarzda tasdiqlangan vosita emas, balki sinovdan o'tkazilishi mumkin bo'lgan taklif sifatida taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar: *ingliz–o'zbek tarjimasi; o'quvchilar auditoriyasi; janr; shartlilik; ochiq tarjima; pragmatik baholash.*

Аннотация. *В данной концептуальной статье исследуется, как целевая читательская аудитория и жанр влияют на выбор переводческих решений при передаче английских условных высказываний на узбекский язык. Вместо рассмотрения каждого придаточного предложения с if исключительно как грамматической проблемы сопоставляются официальные уведомления, межличностные советы, ретроспективные размышления и информация, предназначенная для широкой аудитории. Обсуждение опирается на функциональную оценку перевода и разграничение открытого и скрытого перевода. Предлагается учитывающая контекст оценочная матрица для анализа сферы действия условия, степени модальной категоричности, межличностной дистанции и читательских умозаключений. Все двуязычные примеры специально составлены для анализа, а оценочная матрица представлена*

как предложение, подлежащее проверке, а не как эмпирически подтверждённый инструмент.

Ключевые слова: *англо-узбекский перевод; читательская аудитория; жанр; условность; открытый перевод; прагматическая оценка.*

Abstract. *This conceptual article investigates how target readership and genre change the choices available when translating English conditional utterances into Uzbek. Rather than treating every if-clause as a purely grammatical problem, it contrasts institutional notices, interpersonal advice, retrospective reflection and public-facing information. The discussion builds on functional translation assessment and the distinction between overt and covert translation. A context-sensitive assessment grid is proposed to examine conditional scope, commitment, interpersonal distance and reader inference. All bilingual examples are constructed for analysis, and the grid is offered as a testable proposal rather than an empirically validated instrument.*

Key words: *English–Uzbek translation; readership; genre; conditionality; overt translation; pragmatic assessment.*

Introduction. Conditional sentences occur in contracts, conversations, notices, fiction and scientific writing. Each genre establishes expectations about precision, interpersonal distance and implied meaning. Thus, even when translations express the same hypothetical relation, their suitability depends on readers and purpose. An English if-construction may impose a procedural restriction in one context but convey hesitation in another.

This article examines how audience expectations and genre affect the translator's preservation of conditional scope, social stance and interpretive openness, rather than cataloguing conditional forms. Following House's contextual approach to translation-quality assessment [1, pp. 21–35], it proposes qualitative criteria for evaluating English–Uzbek conditional translations, to be tested later with published texts.

Conceptual foundations and scope. Functional equivalence need not reproduce source syntax, but naturalness must not change a speaker's degree of obligation. In conditionals, may and will differ in commitment, whereas would have refers to an unrealized past possibility. Nida and Taber's reader-oriented model and Newmark's semantic/communicative distinction clarify the tension between preserving source meaning and ensuring target-reader accessibility [2, pp. 12–35; 3, pp. 48–71].

House distinguishes overt translation, which presents a source text as culturally situated, from covert translation, which functions like an original in the target setting [1, pp. 54–69]. Neither permits arbitrary alteration. Literary dialogue may retain unfamiliar social distance; a local service notice may need conventional Uzbek phrasing to achieve comparable interaction. Genre therefore affects how expressions such as "if you wish" should be rendered.

Method: a qualitative assessment grid. The grid assesses four dimensions: conditional scope—whether restrictions and exceptions survive translation; modal commitment—whether an outcome is certain, possible, permitted, obligatory or unrealized; interpersonal stance—whether address and directness preserve the relationship; and reader inference—whether intended ambiguity remains implicit rather than being made falsely explicit.

Assessors ask who speaks, to whom and for what genre-specific purpose. Translations may be judged adequate, in need of contextual revision or as changing an essential implication; these are qualitative comparisons, not numerical scores. Pragmatic equivalence depends on background assumptions [4, pp. 230–259], so identical effects across cultures cannot be presumed. The following bilingual examples are author-constructed, not corpus evidence.

Case one: institutional conditions and procedural certainty. In an institutional notice, "If the supporting documents are missing, the application may be delayed" may be rendered "Tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmasa, arizani ko'rib chiqish kechikishi mumkin." The wording kechikishi mumkin preserves possibility; kechiktiriladi would imply a firmer institutional decision and change the stated consequence.

By contrast, "If payment is not received by Monday, access will be suspended" conveys greater certainty: "To'lov dushanbagacha kelib tushmasa, foydalanish imkoniyati to'xtatiladi." Collapsing

may and will into one Uzbek pattern would erase this distinction. Administrative translation must preserve both the condition and the strength of its consequence.

Organizational equivalents for application, access and supporting documents should be used where established, provided they neither narrow nor widen the condition. In institutional texts, clarity should not enlarge an organization's commitment.

Case two: advice, deference and responsibility. Consider a supervisor's offer: "If you have concerns, we could discuss them privately." The modal could signals an option, not a demand. "Savollaringiz bo'lsa, ularni alohida muhokama qilishimiz mumkin" remains neutral; "E'tirozingiz bo'lsa, alohida gaplashamiz" may sound confrontational. Replacing savollaringiz with e'tirozingiz introduces presumed opposition that may be absent from the original.

The Uzbek respectful suffix -ingiz can convey appropriate social distance without an explicit English honorific. Yet polite morphology alone is insufficient: the recipient must retain the choice to initiate discussion. As Leech's discussion of politeness suggests, minimizing imposition contributes to interpretation [5, pp. 104–121]. The key is to preserve the optional, non-accusatory tone rather than the original word order.

Case three: retrospective possibility and narrative voice. In narrative prose, "If she had kept the letter, perhaps she would have understood his silence" portrays an unrealized past possibility rather than certainty. "Xatni saqlab qo'yganida, balki uning sukutini tushungan bo'lardi" retains uncertainty through balki. Omitting it overstates the outcome; adding afsuski without contextual support imposes a regretful tone.

Literary translation may need to retain unusual rhythm, incomplete explanation or narrative distance. Excessive domestication can eliminate intentional ambiguity. Translators should distinguish awkwardness caused by English interference from difficulty integral to the work. A cautiously overt approach can help, subject to the wider passage.

Case four: conditional claims in public communication. In public communication, "If current estimates prove accurate, the project could finish ahead of schedule" becomes "Joriy hisob-kitoblar tasdiqlansa, loyiha rejalashtirilgan muddatdan oldin yakunlanishi mumkin." Both uncertainties remain: the estimates are unconfirmed, and early completion is only possible. A definite prediction would overstate the claim, while extra methodological explanation could exceed the source's purpose.

Audience adaptation should improve accessibility without eliminating epistemic caution. Especially in scientific and journalistic discourse, qualifiers form part of the claim itself. The grid therefore evaluates modal force and conditional scope separately from fluency.

Discussion: limits and future validation. The four cases demonstrate differing genre priorities: procedural accuracy in notices, choice and social distance in advice, openness in literary narration and epistemic caution in public information. No single strategy applies universally; surrounding context remains decisive.

The grid's dimensions may overlap, particularly when one expression signals both modal force and interpersonal stance. Its value also remains untested with readers. Future research could compare documented source–translation pairs across genres, collect trained assessors' annotations and examine Uzbek reader interpretations. Disagreement may reveal category boundaries or audience differences. Accordingly, the grid is a transparent analytical proposal, not a validated scoring tool.

Conclusion. English–Uzbek conditional translation should be evaluated through text, audience and genre rather than isolated syntax. Translators must retain conditional scope, modal commitment and appropriate social stance without imposing interpretations. Informed by House's functional assessment approach, the four-dimensional grid makes these choices explicit and explains why a fluent translation may nevertheless distort what the source permits readers to infer.

REFERENCES:

1. House, J. Translation Quality Assessment: Past and Present. – London: Routledge, 2015. – 170 p. – Cited pages: 21–35, 54–69.

2. Nida, E. A., Taber, C. R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1982. – 218 p. – Cited pages: 12–35.

3. Newmark, P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p. – Cited pages: 45–49.

4. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2011. – 352 p. – Cited pages: 230–259.

5. Leech, G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p. – Cited pages: 104–121.

UO‘K 81’367.335:81’25

ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLARNING TUZILISHI, MA’NOSI VA TURLARI: YANGICHA YONDASHUV VA TARJIMA MASALALARI

G.Sobirjonova, talaba, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilida ergash gapli qo‘shma gaplarning tuzilishi, ma’nosi va turlari zamonaviy lingvistik yondashuv asosida o‘rganilgan. Shuningdek, tarjimada ergash gaplarning ma’no munosabatlarini to‘g‘ri aks ettirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda grammatik va semantik xususiyatlar tahlil qilinib, ularning tarjimada ekvivalent ifodalanish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *ergash gap, qo‘shma gap, sintaksis, tarjima, ma’no, yondashuv, pragmatika, korpus lingvistikasisi.*

Аннотация. *В данной статье исследуются структура, семантика и типы сложноподчинённых предложений в узбекском языке на основе современных лингвистических подходов. Особое внимание уделено вопросам точной передачи смысловых отношений при переводе. В исследовании анализируются грамматические, семантические и прагматические особенности придаточных предложений, а также рассматриваются их эквиваленты в процессе перевода.*

Ключевые слова: *придаточное предложение, сложное предложение, синтаксис, перевод, значение, подход, прагматика, корпусная лингвистика.*

Abstract. *This article studies the structure, semantics, and types of complex sentences with subordinate clauses in the Uzbek language based on a modern linguistic approach. It also focuses on the accurate transmission of meaning relations in translation. The study explores grammatical, semantic, and pragmatic aspects and their equivalents in translation practice.*

Key words: *subordinate clause, complex sentence, syntax, translation, meaning, approach, pragmatics, corpus linguistics.*

Kirish. Tilshunoslikda sintaktik birliklarning shakl va mazmun jihatdan o‘zaro bog‘lanishi, ayniqsa qo‘shma gaplarning tuzilish mexanizmlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Ergash gapli qo‘shma gaplar (EGQG) murakkab fikrlarni, sabab-oqibat, shart, vaqt va maqsad munosabatlarini ifodalash orqali nutqning mantiqiy aniqligini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida EGQGlarni faqat sintaktik qurilish nuqtayi nazaridan emas, balki “pragmatik, funksional va tarjimashunoslik aspektida” o‘rganishga qiziqish ortmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolaning maqsadi — EGQGlarning tuzilishi, ma’no turlari va tarjimada ularning ekvivalent ifodalanish imkoniyatlarini yangicha yondashuv asosida tahlil qilishdan iborat.

Ergash gapli qo‘shma gaplarning muhim belgisi shundaki, ularda grammatik bo‘ysunish mazmuniy munosabat bilan uyg‘unlashadi. Bosh gap asosiy axborotni ifodalasa, ergash gap shu axborotning sharti, sababi, maqsadi, vaqti yoki natijasini aniqlashtiradi. Shu sababli bunday tuzilmalarni faqat bog‘lovchi vositalar orqali tasniflash yetarli emas; ularning semantik vazifasi, nutqdagi kommunikativ maqsadi va kontekst bilan aloqasi ham hisobga olinishi zarur. O‘zbek tili sintaksisiga oid tadqiqotlarda qo‘shma gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari izchil yoritilgan bo‘lsa (Mamatov, 2020; Raximov, 2018), zamonaviy yondashuv bu birliklarni diskurs, pragmatika va tarjima jarayoni bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Mazkur masalaning tarjimashunoslik uchun ahamiyati ayniqsa katta. O‘zbek va ingliz tillarida bir xil mantiqiy munosabat turli grammatik vositalar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi shart yoki sabab munosabati ba’zan ingliz tilida ergash gap bilan, ba’zan esa predlogli birikma, ravish yoki boshqa sintaktik konstruksiya orqali tabiiyroq ifodalanadi. Shuning uchun tarjimada formal o‘xshashlikdan ko‘ra semantik va funksional moslik ustuvor bo‘lishi lozim.

Karimova (2022) qayd etganidek, ergash gaplarning ekvivalentini tanlashda ma’no munosabatining to‘g‘ri saqlanishi tarjima sifatining asosiy shartlaridan biridir.

Metodologiya. Tadqiqotda quyidagi “usullar va yondashuvlar” qo‘llanildi:

1. Taqqoslovchi tahlil (comparative analysis): o‘zbek va ingliz tillaridagi ergash gaplarning strukturaviy o‘xshashlik va farqlari aniqlangan.

2. Deskriptiv usul: grammatik va semantik belgilar tavsiflab berildi.

3. Korpus tahlili: o‘zbek tili milliy korpusidagi 200 dan ortiq ergash gapli qo‘shma gaplar namunasi o‘rganildi.

4. Tarjimaviy tahlil: ergash gapli qo‘shma gaplarning ingliz tiliga tarjimasida yuzaga keladigan ekvivalentlik masalalari ko‘rib chiqildi.

Tahlil birliklari strukturaviy shakl, bog‘lovchi vosita, semantik munosabat va tarjimadagi ifoda usuli bo‘yicha guruhlashtirildi. Har bir misolda ergash gapning bosh gapga qanday munosabatda ekani, qaysi grammatik ko‘rsatkich yordamida bog‘langani va mazkur munosabat ingliz tilida qaysi vosita bilan ifodalanishi mumkinligi e’tiborga olindi. Bunday yondashuv sintaktik shakl va mazmunni bir-biridan ajratib emas, balki o‘zaro bog‘liq hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Diskurs tahliliga oid qarashlar ham gapning ma’nosini kontekstdan tashqarida emas, muloqot jarayonida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi (Nunan, 1993).

Natijalar. Tahlil natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga erishildi:

1. Tuzilma jihatidan:

EGQG ikki yoki undan ortiq predikativ birliklardan tashkil topadi, bunda ergash gap bosh gapga sintaktik jihatdan bo‘ysunadi. Ergashlovchi vositalar sifatida “agar”, “chunki”, “toki”, “go‘yo”, “shuning uchun” kabi bog‘lovchilar faol ishlatiladi.

Masalan: Agar u kelsa, biz uchrashamiz. — shart ergash gap. U kech qoldi, chunki avtobus kech keldi. — sabab ergash gap.

Strukturaviy jihatdan ergash gapning o‘rni qat’iy bir holat bilan cheklanmaydi. U ayrim konstruksiyalarda bosh gapdan oldin kelib, keyingi axborot uchun shart yoki vaqt doirasini belgilaydi: “Agar vaqtimiz bo‘lsa, muzeyga boramiz”; “U kelganda, yig‘ilish boshlandi”. Boshqa holatlarda esa ergash gap bosh gapdan keyin kelib, undagi fikrning sababini yoki maqsadini izohlaydi: “U uyda qoldi, chunki o‘zini yomon his qildi”; “Biz erta yo‘lga chiqdik, toki manzilga vaqtida yetib boraylik”. Demak, komponentlarning joylashuvi faqat grammatik shakl emas, balki axborotning qanday tartibda taqdim etilishini ham belgilaydi.

2. Ma’no turlari bo‘yicha:

EGQGlar jumladan, quyidagi semantik guruhlarga ajratiladi: Shart ergash gaplar (conditional), Sabab ergash gaplar (causal), Maqsad ergash gaplar (purpose), Vaqt ergash gaplar (temporal), Natija ergash gaplar (resultative).

Shart ergash gaplarda bosh gapdagi voqeaning amalga oshishi muayyan shartga bog‘lanadi. Bunday munosabat ko‘pincha “agar”, “-sa” shakllari orqali ifodalanadi. Ingliz tilida esa if, unless, provided that kabi vositalar qo‘llanishi mumkin. Masalan: “Agar u rozilik bersa, ishni boshlaymiz” — “If he agrees, we will start the work”. Bunda ikki tilda ham shart munosabati aniq saqlanadi, biroq fe’l zamonlari bir xil shaklda berilmasligi mumkin.

Sabab ergash gaplar bosh gapdagi harakat yoki holatning sababini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida “chunki”, “negaki”, “-gani uchun” kabi birliklar faol ishlatiladi: “U darsga kelmadi, chunki kasal edi”. Ingliz tilida because, since, as kabi bog‘lovchilar sababni ifodalashi mumkin. Biroq ularning uslubiy va pragmatik xususiyatlari har doim ham to‘liq bir xil emas. Shu bois tarjimon bog‘lovchining lug‘aviy muqobilini emas, konkret kontekstdagi funksiyasini tanlashi lozim.

Maqsad ergash gaplarda bir harakat boshqa harakatning ko‘zlangan natijasi sifatida talqin qilinadi. “Toki”, “-ish uchun”, “deb” kabi vositalar bu munosabatni ifodalashi mumkin: “Talabalar mavzuni yaxshiroq tushunsin deb, o‘qituvchi qo‘shimcha misollar berdi”. Ingliz tilida so that, in order that yoki infinitivli konstruksiyalar tabiiy ekvivalent bo‘lishi mumkin. Bu holat sintaktik qayta qurish tarjimada ma’noni yo‘qotmasdan ifodalashning muhim usuli ekanini ko‘rsatadi.

Vaqt ergash gaplar voqealarning ketma-ketligi, bir paytda sodir bo‘lishi yoki ma’lum bir vaqt chegarasini bildiradi. “Qachonki”, “-ganda”, “-guncha”, “-gach” kabi shakllar vaqt munosabatining

turli ko‘rinishlarini yaratadi. Masalan: “U kelgach, suhbat boshlandi” — “After he arrived, the conversation began”. Natija ergash gaplarda esa oldingi vaziyat keyingi oqibatga olib keladi; tarjimada shu sababiy-natijaviy bog‘lanishning kuchi va mantiqiy yo‘nalishi saqlanishi zarur.

3. Pragmatik jihatdan:

EGQGlar nutqdagi ijtimoiy vaziyat, muloqot maqsadi va kontekstga mos tarzda shakllanadi. Ularning ishlatilish chastotasi muloqot turiga (rasmiy, norasmiy) qarab farq qiladi.

Pragmatik nuqtayi nazardan, bir xil grammatik shakl turli kommunikativ vazifani bajarishi mumkin. Masalan, “Agar mumkin bo‘lsa, derazani yoping” gapida shart shakli real shartni bildirishdan ko‘ra iltimosni yumshatish vazifasini bajaradi. Shu gapni ingliz tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin bo‘lsa-da, tabiiy muloqotda “Could you close the window, please?” kabi boshqa konstruksiya maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin. Bu holat sintaktik ekvivalentlik bilan pragmatik ekvivalentlik har doim bir xil emasligini ko‘rsatadi. Til birliklarining mazmuni kontekst va kommunikativ niyat bilan bog‘liq holda talqin qilinadi (Lyons, 1995; Crystal, 2010).

4. Tarjima aspektida:

Tarjima jarayonida ergash gaplarning ma’no munosabatlarini to‘g‘ri ifodalashda “ekvivalentlik” tamoyili muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “Agar u kelsa, biz uchrashamiz” gapining inglizcha ekvivalenti “If he comes, we will meet” shaklida bo‘lib, grammatik moslik to‘liq saqlanadi. Ammo ba’zi hollarda “because”, “although”, “unless” kabi bog‘lovchilarning semantik yuklamasi o‘zbek tilidagi ergashtiruvchilardan farq qiladi, bu esa tarjimada semantik siljishlarga olib kelishi mumkin.

Tarjimada uch asosiy holat kuzatilishi mumkin: strukturaviy va semantik moslikning bir vaqtda saqlanishi; semantik mazmun saqlangan holda strukturaning o‘zgarishi; hamda kontekst talabi bilan ma’noning qo‘shimcha aniqlashtirilishi. Birinchi holatda o‘zbek va ingliz konstruksiyalari bevosita mos tushadi. Ikkinchi holatda, masalan, o‘zbek tilidagi ergash gap ingliz tilida infinitiv, gerundiy yoki predlogli birikma bilan berilishi mumkin. Uchinchi holatda esa yashirin pragmatik ma’no maqsad tilida aniqroq vosita orqali ifodalanadi. Bunday transformatsiyalar tarjimaning mazmuniy aniqligi va tabiiyligini ta’minlaydi.

Shuningdek, inkor va shart ma’nolarini birlashtiruvchi birliklarga alohida e’tibor berish zarur. Ingliz tilidagi “unless” ko‘pincha o‘zbek tilida “agar... -masa” modeli bilan ifodalanadi: “Unless you hurry, you will miss the bus” — “Agar shoshilmasangiz, avtobusga kech qolasiz”. Bu misolda bitta bog‘lovchi o‘zbek tilida ikki qismli grammatik model orqali berilmoqda. Demak, tarjimadagi ekvivalentlik so‘z darajasida emas, butun sintaktik va semantik tuzilma darajasida baholanishi kerak.

Muhokama. Ergash gapli qo‘shma gaplarning o‘rganilishi nafaqat sintaktik tizimni, balki nutq madaniyati va tafakkur tizimini anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy lingvistika, xususan korpus lingvistikasi va kognitiv tilshunoslik yondashuvlari EGQGlarni kontekstual va statistik tahlil asosida o‘rganish imkonini beradi.

Tarjimada esa har bir ergash gap turining ma’no funksiyasini aniqlab, uni maqsad tilida tabiiy ekvivalent bilan ifodalash tarjimonning asosiy vazifasidir. Shu bois, ergash gapli qo‘shma gaplar tarjimasida strukturaviy emas, balki semantik moslikka e’tibor qaratish lozim.

Olingan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, EGQGlarning an’anaviy tasnifi amaliy tahlil uchun zarur asos yaratadi, biroq zamonaviy yondashuv bu tasnifni funksional va pragmatik mezonlar bilan to‘ldiradi. Mamatov (2020) va Raximov (2018) kabi o‘zbek tilshunosligidagi sintaktik qarashlar qo‘shma gaplarning grammatik qurilishini tushuntirishga xizmat qilsa, diskurs va semantika bo‘yicha tadqiqotlar gapning real nutqdagi vazifasini yoritishga yordam beradi (Nunan, 1993; Lyons, 1995). Natijada bir grammatik modelning turli matn va muloqot sharoitlarida turlicha ma’no soyalarini yuzaga chiqarishi aniqroq ko‘rinadi.

Korpus lingvistikasi bu yo‘nalishda muhim imkoniyatlar yaratadi. Katta hajmdagi real matn namunalarini kuzatish orqali qaysi ergashtiruvchi vositalar ko‘proq ishlatilishi, ularning qaysi uslub va janrlarda faol ekani, shuningdek, ayrim semantik munosabatlarning tipik konstruksiyalari aniqlanishi mumkin. Korpus ma’lumotlari an’anaviy grammatik tavsifni real qo‘llanish dalillari bilan to‘ldiradi. Biroq korpusdan olingan har bir misolni faqat formal belgisiga qarab emas, kontekstdagi kommunikativ vazifasini ham hisobga olgan holda tahlil qilish zarur.

Tarjima nuqtayi nazaridan esa eng muhim xulosa shuki, ergash gapning turi tarjima usulini avtomatik belgilab bermaydi. Tarjimon gapning mazmuniy munosabati, matn uslubi, axborot markazi va tabiiy til me'yorini birgalikda hisobga olishi lozim. Blokh (1982) ingliz tili grammatik tizimining sintaktik xususiyatlarini tavsiflashda gap bo‘laklari o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e'tibor qaratadi; bu esa qiyosiy tahlilda grammatik shakllarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tenglashtirilishi doimo to‘g‘ri emasligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, tarjima jarayonida formal parallellikdan ko‘ra ma'no va funksiyaning saqlanishi asosiy mezon bo‘lib qoladi.

Xulosa. Ergash gapli qo‘shma gaplar o‘zbek tilining sintaktik tizimida murakkab fikrlarni aniq, mantiqan izchil va sababli ifodalash vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi. Ularning tahlilini yangicha — funksional, pragmatik va tarjimashunoslik yondashuvlari asosida olib borish sintaksis nazariyasini boyitadi. Kelgusida EGQGlarni korpus lingvistikasisi yordamida avtomatik tahlil qilish, ularning tarjima modellari uchun kompyuter lingvistikasiga asoslangan algoritmlar ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalishlardan biridir.

Tadqiqotdan kelib chiqadigan yana bir xulosa shuki, EGQGlarni o‘rganishda sintaktik, semantik va pragmatik mezonlarni birlashtirish ularning tabiatini to‘liqroq ochib beradi. Shart, sabab, maqsad, vaqt va natija munosabatlari grammatik vositalar bilan ifodalansa-da, ularning aniq mazmuni kontekstda shakllanadi. Tarjimada esa ushbu munosabatlarni maqsad tilining tabiiy imkoniyatlari asosida qayta ifodalash talab etiladi. Shu sababli kelgusidagi izlanishlarda parallel korpuslar, avtomatik sintaktik tahlil va tarjima korpuslaridan foydalanish EGQGlarning qiyosiy-tipologik xususiyatlarini yanada aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mamatov, S. (2020). O‘zbek tili sintaksisi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Raximov, A. (2018). Qo‘shma gaplarning turlari va ularning o‘ziga xosliklari. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali.
3. Karimova, N. (2022). Tarjimada ergash gaplarning ekvivalenti. Til va tarjima ilmiy to‘plami.
4. Jalolov, J. (1996). Chet tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Blokh, M.Y. (1982). A Theoretical Course of English Grammar. Moskva: Prosveshcheniye.
6. Nunan, D. (1993). Introducing Discourse Analysis. London: Penguin.
7. Crystal, D. (2010). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press.
8. Lyons, J. (1995). Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge University Press.

UO‘K 81'37:82-84

THE EXPRESSION OF AXIOLOGICAL AND EVALUATIVE SEMANTICS IN APHORISMS

M.S.Sobirjonova, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Denau

Annotatsiya. *Mazkur maqolada aforizmlarda aksiologik va baholovchi semantikaning ifodalanishi lingvistik, semantik va pragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Aforizmlar individual va jamoaviy tajriba, axloqiy tamoyillar, madaniy qadriyatlar hamda ijtimoiy baholarni ifodalovchi o‘ziga xos ixcham nutqiy birliklar hisoblanadi. Tadqiqotda ijobiy va salbiy qadriyatlarning ifodalanishini ta'minlovchi leksik tanlov, metafora, qiyoslash, antiteza va ko‘chma ma'no kabi lingvistik mexanizmlarga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, aforizmlarda halollik, donishmandlik, bilim, do‘stlik, adolat, mehnatsevarlik va inson qadr-qimmati kabi fundamental tushunchalarning ifodalanish xususiyatlari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *aforizm, aksiologiya, baholovchi semantika, qadriyatga asoslangan baho, ijobiy baholash, salbiy baholash, lingvistik ifoda, madaniy qadriyatlar, metafora, pragmatika, semantik tahlil.*

Аннотация. *В данной статье с лингвистической, семантической и прагматической точек зрения исследуется выражение аксиологической и оценочной семантики в афоризмах. Афоризмы представляют собой особый тип кратких высказываний, посредством которых передаются индивидуальный и коллективный опыт, нравственные принципы, культурные ценности и социальные оценки. Особое внимание уделяется языковым механизмам выражения положительных и отрицательных ценностей, включая лексический выбор, метафору, сравнение, антитезу и переносное значение. В исследовании рассматриваются*

особенности выражения в афоризмах таких фундаментальных понятий, как честность, мудрость, знания, дружба, справедливость, трудолюбие и человеческое достоинство.

Ключевые слова: *афоризм, аксиология, оценочная семантика, ценностная оценка, положительная оценка, отрицательная оценка, языковое выражение, культурные ценности, метафора, прагматика, семантический анализ.*

Abstract. *This article examines the expression of axiological and evaluative semantics in aphorisms from a linguistic, semantic, and pragmatic perspective. Aphorisms represent a distinctive type of concise expression through which individual and collective experiences, moral principles, cultural values, and social judgments are conveyed. Particular attention is paid to the linguistic mechanisms through which positive and negative values are represented, including lexical choice, metaphor, comparison, antithesis, and figurative meaning. The study explores how aphorisms express such fundamental concepts as honesty, wisdom, knowledge, friendship, justice, hard work, and human dignity.*

Key words: *aphorism, axiology, evaluative semantics, value judgment, positive evaluation, negative evaluation, linguistic expression, cultural values, metaphor, pragmatics, semantic analysis.*

Language is not merely a means of exchanging information; it is also a system through which people express their attitudes, beliefs, judgments, and perceptions of the world. Every language contains lexical and grammatical resources that allow speakers to distinguish between what they consider good or bad, desirable or undesirable, acceptable or unacceptable. These distinctions are particularly visible in expressions that communicate moral principles and collective experience. Among such linguistic expressions, aphorisms occupy a special position because they convey significant ideas through concise and memorable forms.

Aphorisms reflect the intellectual, moral, and cultural experience of individuals and societies. Their meanings frequently extend beyond the literal interpretation of words and contain implicit judgments about human behavior, social relationships, knowledge, morality, and life in general. For this reason, aphorisms can be examined as linguistic units in which axiological and evaluative meanings are closely interconnected [1].

Axiology, as a philosophical discipline, is concerned with the nature of values and the principles through which individuals and societies determine what is valuable. In linguistics, the axiological dimension of language can be observed in expressions that represent cultural ideals, moral standards, and socially accepted principles. Evaluative semantics, on the other hand, focuses on the linguistic expression of attitudes and judgments toward particular objects, actions, situations, or individuals. Although these concepts are closely related, they are not identical. Axiological meaning primarily reflects the value system underlying an expression, whereas evaluative meaning demonstrates how that value is linguistically assessed or presented.

Aphorisms provide particularly useful material for investigating these phenomena. Expressions such as «Honesty is the best policy» and «Knowledge is power» communicate positive values by presenting honesty and knowledge as desirable qualities. In contrast, aphorisms that criticize ignorance, dishonesty, or excessive pride express negative evaluations of particular human characteristics. Such expressions demonstrate that aphorisms do not simply describe reality; they also interpret and evaluate it [2].

The study of aphorisms is also closely connected with cultural and linguistic research. Values reflected in English and Uzbek aphorisms may share universal characteristics while differing in their cultural associations and linguistic forms. For example, both linguistic traditions emphasize the importance of knowledge, honesty, friendship, and hard work. Nevertheless, the ways in which these values are represented may reflect different historical experiences, social traditions, and cultural perspectives.

The theoretical foundation of the research draws on studies in axiology, semantics, phraseology, linguoculturology, and pragmatics. The works of Wolfgang Mieder and Neal R. Norrick provide useful theoretical perspectives on the relationship between concise expressions, cultural knowledge, and generalized meanings. In addition, research by Uzbek scholars Muxlisa Sobirjonovna

Sobirjonova and Manzura Jamolovna Isroilova is considered in relation to the linguistic, semantic, cultural, and stylistic dimensions of figurative expressions [3].

The descriptive method was used to identify the main characteristics of axiological and evaluative meanings in aphorisms. This method made it possible to distinguish expressions that communicate positive values from those that convey negative attitudes or critical judgments.

Semantic analysis was employed to investigate the explicit and implicit meanings of selected aphorisms. Particular attention was paid to the relationship between lexical meaning and the broader value-based interpretation of an expression. For example, the aphorism «Time is money» contains a metaphorical relationship between time and material wealth. Its evaluative meaning emphasizes the importance of time and presents it as a valuable resource that should not be wasted. The contextual method was applied to determine how the meaning of aphorisms may change according to the communicative situation. The same expression may function as advice, criticism, encouragement, or moral instruction depending on the speaker's intention and the recipient's interpretation.

A pragmatic approach was also adopted to examine how aphorisms influence the attitudes and judgments of readers or listeners. This method focused on the relationship between the author, the intended message, and the addressee. It also helped identify the persuasive and educational functions of aphoristic expressions [4].

Furthermore, a comparative method was used to examine English and Uzbek aphorisms. The comparison focused on similarities and differences in the expression of universal values, culturally specific meanings, and evaluative attitudes. This approach provided an opportunity to understand how different linguistic communities represent similar moral concepts through their own cultural and linguistic resources.

The analysis was organized around three principal categories:

Positive axiological and evaluative meanings: expressions that promote desirable qualities such as honesty, knowledge, kindness, friendship, and justice.

Negative axiological and evaluative meanings: expressions that criticize undesirable qualities such as ignorance, dishonesty, arrogance, and injustice.

Context-dependent evaluation: expressions whose positive or negative interpretation depends on the communicative context and the speaker's intention.

The combination of these methods provides a basis for examining aphorisms as linguistic expressions that preserve cultural values and communicate evaluative attitudes [5].

The analysis demonstrates that axiological and evaluative meanings are expressed in aphorisms through various lexical, semantic, and stylistic mechanisms. The selected examples reveal that aphorisms can communicate both positive and negative judgments while presenting general observations about human life and society.

Positive axiological meaning is associated with the representation of qualities and principles that are considered valuable and desirable within a particular cultural or social environment. In aphorisms, such meanings are commonly expressed through concepts related to knowledge, honesty, friendship, patience, and hard work.

Example 1. «Knowledge is power».

Uzbek equivalent: «Bilim – kuch».

This aphorism presents knowledge as one of the most valuable resources available to human beings. The word «power» has a positive axiological meaning because it represents strength, opportunity, and the ability to influence one's surroundings. The metaphorical relationship between knowledge and power creates a strong evaluative effect. From a pragmatic perspective, the expression encourages education, intellectual development, and lifelong learning [6].

In conclusion, aphorisms constitute an important linguistic means of expressing, preserving, and transmitting axiological and evaluative meanings. Their concise form, figurative structure, and cultural significance enable them to communicate complex judgments about human behavior and social relationships. Further research involving larger English and Uzbek aphorism corpora would help identify more precisely the similarities and differences in their value systems and evaluative patterns.

REFERENCES:

1. Isroilova M. J. Fransuz komparativ frazeologizmlarining uslubiy xususiyatlari // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2023.
2. Isroilova M. J. Fransuz tili idiomalari haqida // Research Focus International Scientific Journal. – 2023. – T. 2, № 1. – B. 605–607.
3. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004.
4. Norrick N. R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. – Amsterdam: Mouton, 1985.
5. Sobirjonova M. Ingliz badiiy matnlarida "hijron" (ajralish, yo'qotish) konseptining qo'llanilishi // Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2025. – Т. 4, № 10. – Б. 373–375.
6. Sobirjonova M. S. O'zbek va ingliz tillaridagi aforizmlarda "yolg'izlik" va "hijron" konseptlari // Tamaddun Nuri. – 2024. – № 12 (63). – B. 41–43.
7. Taylor A. The Proverb. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1931.

UO'K 81'42:81'373.612.2

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SIYOSIY DISKURSDA METAFORALARNING KOGNITIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

M.Sh.Tojiboyeva, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek siyosiy diskursida qo'llangan metaforalarning kognitiv va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy metaforalarning asosiy konseptual modellari aniqlanib, ularning siyosiy voqelikni konseptuallashtirish, baholash va auditoriyaga ta'sir ko'rsatishdagi vazifalari yoritiladi. Qiyosiy tahlil asosida ikki diskursdagi umumiy va farqli metaforik tendensiyalar ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *metafora, siyosiy diskurs, konseptual metafora, kognitiv model, pragmatik funksiya, qiyosiy tahlil, framing.*

Аннотация. *В статье проводится сопоставительный анализ когнитивных и прагматических особенностей метафор, используемых в английском и узбекском политическом дискурсе. Выявляются основные концептуальные модели политических метафор и рассматриваются их функции в концептуализации и оценке политической действительности, а также воздействии на аудиторию. На основе сопоставительного анализа определяются общие и отличительные метафорические тенденции в двух типах политического дискурса.*

Ключевые слова: *метафора, политический дискурс, концептуальная метафора, когнитивная модель, прагматическая функция, сопоставительный анализ, фрейминг.*

Abstract. *This article comparatively analyzes the cognitive and pragmatic features of metaphors used in English and Uzbek political discourse. The study identifies the main conceptual models of political metaphors and examines their functions in conceptualizing and evaluating political reality and influencing the audience. The comparative analysis reveals common and distinctive metaphorical tendencies in the two types of political discourse.*

Key words: *metaphor, political discourse, conceptual metaphor, cognitive model, pragmatic function, comparative analysis, framing.*

Kirish. Metafora inson tafakkurida mavhum tushunchalarni konkret tajriba asosida anglash va ifodalashga xizmat qiluvchi muhim kognitiv mexanizmdir. Siyosiy diskursda esa u siyosiy jarayonlarni konseptuallashtirish, muayyan nuqtayi nazardan talqin qilish va auditoriyaga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz va o'zbek siyosiy diskursidagi metaforalarni qiyosiy o'rganish umumiy konseptual modellar bilan bir qatorda, ularning milliy-madaniy va pragmatik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi ikki tildagi siyosiy metaforalarning asosiy konseptual modellarini aniqlash hamda ularning kognitiv va pragmatik funksiyalarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Metaforaning kognitiv mohiyati G. Lakoff va M. Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasida asoslab berilgan bo'lib, ular metaforani bir

konseptual sohani boshqa, tajribada aniqroq bo‘lgan soha orqali anglash vositasi sifatida talqin qiladilar [4, 37]. Z. Kövecses mazkur yondashuvni rivojlantirib, metaforik konseptuallashtirishda inson tajribasi bilan bir qatorda madaniy omillarning ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi [3, 260]. Ushbu qarashlar metaforalarning turli tillarda umumiy va milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi. Siyosiy diskursga tatbiqan J. Charteris-Black metaforaning persuaziv xususiyatlarini tadqiq etib, uning siyosiy g‘oyalarni ta’sirchan ifodalash va auditoriya munosabatini shakllantirishdagi rolini ta’kidlaydi [1, 124].

A. Musolff siyosiy metaforaning mazmuni uning konteksti va diskursiv muhit bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydi [5, 89]. E. Semino metaforaning murakkab va mavhum mazmunni tushunarli hamda ta’sirchan shaklda ifodalash imkoniyatlarini yoritadi [6, 28]. P. Chilton esa siyosiy diskursda makon, harakat, yo‘nalish va qarama-qarshilik kabi konseptual kategoriyalarning faol qo‘llanishini ko‘rsatadi [2, 156]. Mazkur tadqiqotlar asosida metaforani siyosiy diskursda nafaqat tasviriy vosita, balki siyosiy voqelikni konseptuallashtiruvchi, baholovchi va auditoriyaga pragmatik ta’sir ko‘rsatuvchi muhim vosita sifatida baholash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiali sifatida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning rasmiy nutq va murojaatlari hamda AQSh prezidentlarining rasmiy siyosiy nutqlarida qo‘llangan metaforik birliklar tanlab olindi. Metaforalarni aniqlashda siyosiy konseptning boshqa tajriba sohasi orqali ifodalanishi asosiy mezon sifatida belgilandi. Tahlil jarayonida metaforik birliklar aniqlanib, ularning manba va maqsad sohalari hamda pragmatik funksiyalari belgilandi. Tadqiqotning nazariy asosini G. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasi tashkil etadi. Metaforalarning persuaziv xususiyatlarini tahlil qilishda J. Charteris-Blackning qarashlariga tayanildiiyosiy tahlilda metaforalarning siyosiy vaziyat, kommunikativ maqsad va auditoriya bilan bog‘liq diskursiv xususiyatlari hisobga olindi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot materiallarining qiyosiy tahlili ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida siyosiy voqelikni konseptuallashtirishda bir qator umumiy metaforik modellar faol qo‘llanishini ko‘rsatdi. Tahlil natijasida **SIYOSIY TARAQQIYOT – YO‘L, DAVLAT VA JAMIYAT – BINO, SIYOSAT – KURASH, DAVLAT – INSON, TARAQQIYOT – O‘SISH hamda KELAJAK – MAKON/YORUG‘LIK** kabi modellar aniqlandi. Ular siyosiy jarayonlarni insonning kundalik jismoniy va ijtimoiy tajribasi asosida anglash hamda auditoriyaga ta’sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

Eng faol modellardan biri **SIYOSIY TARAQQIYOT – YO‘L** modelidir. O‘zbek siyosiy diskursida “yo‘l”, “oldinga borish”, “ortga qaytmaslik”, “yo‘nalish”, “marraga erishish” kabi birliklar siyosiy taraqqiyotni ma’lum yo‘nalishdagi harakat sifatida ifodalaydi. Masalan, “demokratik islohotlar yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Oldinga, faqat oldinga qarab boramiz” ifodasida siyosiy islohotlar **YO‘L**, ularning davomiyligi esa **OLDINGA HARAKAT** sifatida konseptuallashtirilgan. Ingliz siyosiy diskursidagi *journey, path, course* birliklari ham shu kognitiv modelga asoslanadi. Mazkur metaforaning asosiy pragmatik vazifasi siyosiy jarayonning izchilligi, maqsadga yo‘naltirilganligi va qat’iyligini ta’kidlashdan iborat.

DAVLAT VA JAMIYAT – BINO modeli davlat, jamiyat va milliy taraqqiyotni qurilish jarayoni orqali ifodalaydi. O‘zbek diskursidagi “poydevor”, “barpo etish”, “yaratish”, “mustahkamlash” kabi birliklarda siyosiy taraqqiyot **BINO**, uning asoslari esa **POYDEVOR** sifatida tasavvur qilinadi. “Uchinchi Renessans poydevorini yaratish” kabi ifodalar taraqqiyotni maqsadli va izchil bunyodkorlik jarayoni sifatida ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi *build, construct, foundation* birliklari ham shu modelni ifodalaydi. Biroq o‘zbek materiallarida mazkur metafora ko‘proq milliy taraqqiyot, barqarorlik va umumiy kelajak g‘oyalari bilan bog‘lanadi.

SIYOSAT – KURASH VA URUSH modeli siyosiy muammo va xavflarni konflikt tajribasi orqali konseptuallashtiradi. “Kurash”, “qarshi turish”, “g‘alaba”, “kuch” kabi birliklar siyosiy jarayonni qarama-qarshilik ramkasiga joylashtiradi. Ingliz siyosiy diskursida bu model terrorizm, ekstremizm, xavfsizlik va siyosiy raqobat kontekstlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, *drive out the forces of terrorism and extremism* ifodasi xavfni faol qarshilikni talab qiluvchi kuch sifatida tasvirlaydi. *Commerce, not chaos* qarama-qarshiligi esa **TARTIB – XAOS** oppozitsiyasini yuzaga

keltirib, siyosiy kelajakning ikki xil modelini ajratadi. Shu tariqa metafora nafaqat tasvirlash, balki baholash va auditoriyani muayyan siyosiy pozitsiyaga yo‘naltirish vazifasini ham bajaradi.

DAVLAT – INSON modelida mamlakat insoniy xususiyatlarga ega faol subyekt sifatida tasvirlanadi. “Bugungi O‘zbekiston ham – kechagi O‘zbekiston emas” kabi ifodalar davlatni o‘zgaruvchi va rivojlanuvchi subyekt sifatida ko‘rsatadi. Ingliz diskursidagi *nation moves, rises, acts* konstruksiyalari ham shu umumiy kognitiv asosga ega. Mazkur model siyosiy o‘zgarishlarni inson tajribasiga yaqinlashtirib, davlatni faol harakat qiluvchi subyekt sifatida idrok etishga imkon beradi.

TARAQQIYOT – O‘SISH modelida siyosiy va iqtisodiy rivojlanish “rivojlanish”, “yuksalish”, “kuchayish”, “yangi bosqich” kabi birliklar orqali tabiiy o‘sish jarayoniga qiyoslanadi. Ushbu model taraqqiyotning bosqichma-bosqich va ijobiy jarayon ekanligini ta’kidlaydi. **KELAJAK – MAKON/YORUG‘LIK** modeli esa “yangi ufqlar”, “yorug‘ kelajak”, “ulkan marralar” kabi birliklar orqali kelajakni ijobiy va erishish mumkin bo‘lgan makon sifatida modellashtiradi. Ingliz diskursidagi *horizon, future, brighter future* birliklari ham shunga yaqin konseptual asosni namoyon etadi.

Umumlashtirib aytganda, ingliz va o‘zbek siyosiy diskurslarida metaforalarning **bazaviy kognitiv asoslari sezilarli darajada umumiy**: taraqqiyot harakat yoki o‘sish, davlat va jamiyat qurilish, siyosiy muammo esa kurash sifatida konseptuallashtiriladi. Biroq ularning pragmatik mazmuni milliy-madaniy kontekst, siyosiy vaziyat va kommunikativ maqsadga ko‘ra farqlanadi. O‘zbek diskursida bunyodkorlik, mustahkamlik, milliy taraqqiyot va umumiy kelajakni ifodalovchi metaforalar, ingliz diskursida esa tadqiq etilgan materiallar doirasida harakat, tanlov, konflikt va xavfni ifodalovchi modellar nisbatan faolroq namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, metaforalar siyosiy diskursda **framing, baholash, ishontirish va legitimlashtirish** vositasi sifatida xizmat qiladi. Bir xil siyosiy hodisaning “yo‘l”, “kurash” yoki “qurilish” sifatida ifodalanishi auditoriyada turlicha konseptual tasavvur hosil qiladi.

Xulosa. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan mazkurmodellar siyosiy jarayonlarni izchil harakat, bunyodkorlik, qarama-qarshilik, rivojlanish va ijobiy kelajak obrazlari orqali ifodalashga xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil o‘zbek siyosiy diskursida bunyodkorlik, mustahkamlik, milliy taraqqiyot va umumiy kelajak, ingliz siyosiy diskursida esa harakat, tanlov, konflikt va xavf bilan bog‘liq metaforik ifodalar faolroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, bu farqlar mutlaq lingvomadaniy xususiyat emas, balki tadqiq etilgan siyosiy nutqlarda kuzatilgan pragmatik tendensiyalardir. Umuman, metafora siyosiy diskursda nafaqat obrazlilik, balki baholash, framing, ishontirish va auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Charteris-Black, J. Politicians and Rhetoric: The Persuasive Power of Metaphor / J. Charteris-Black. – 2nd ed. – Basingstoke : Palgrave Macmillan, 2011. – 370 p.

2. Chilton, P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice / P. Chilton. – London:Routledge, 2004.–240 p.

3. Kövecses, Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation / Z. Kövecses. – Cambridge : Cambridge University Press, 2005. – 334 p.

4. Lakoff, G. Metaphors We Live By / G. Lakoff, M. Johnson. – Chicago : University of Chicago Press, 2003. – 276 p.

5. Musolff, A. Metaphor and Political Discourse: Analogical Reasoning in Debates about Europe / A. Musolff. – Basingstoke : Palgrave Macmillan, 2004. – 211 p.

6. Semino, E. Metaphor in Discourse / E. Semino. – Cambridge : Cambridge University Press, 2008. – 247 p.

UO‘K 81’42:81’27

KINOYA VA PRAGMATIK MA’NO: BILVOSITA KOMMUNIKATIV MAZMUNNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

M.R.Turdimatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Kinoya til qo‘llanilishida, ayniqsa, pragmatika sohasida murakkab va ko‘p qirrali hodisalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot kinoyaning so‘zlarning lug‘aviy yoki bevosita ma’nosidan tashqari yashirin va bilvosita ma’nolarni ifodalash vositasi sifatidagi funksiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Graysning implikatura nazariyasi hamda relevans*

nazariyasini o'z ichiga olgan pragmatik yondashuvlarga tayanilgan holda, so'zlovchilarning munosabat, tanqid va yumorni ifodalashda kinoyadan qanday foydalanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot sifatli (qualitative) yondashuv asosida olib borilib, tabiiy nutq jarayonida uchraydigan kinoyaviy ifodalar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kinoya pragmatik ma'noning shakllanishida muhim rol o'ynaydi hamda uni to'g'ri anglash suhbat ishtirokchilarining kontekstni tushunishi va umumiy bilimlariga tayanadi. Tadqiqot kinoyaning kommunikatsiyadagi ahamiyatini hamda uning til o'qitish va nutqni tushunish jarayonidagi amaliy ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: *kinoya, pragmatika, implikatura, ma'no, kommunikatsiya*

Аннотация. *Ирония представляет собой сложное и многоаспектное явление в речевой коммуникации, особенно в рамках прагматики. В данном исследовании рассматривается функционирование иронии как механизма передачи имплицитных значений, выходящих за пределы буквальной интерпретации высказывания. Основываясь на прагматических теориях, включая теорию импликатуры Грайса и теорию релевантности, в статье исследуется, каким образом говорящие используют иронию для выражения отношения, критики и юмора. Исследование выполнено в рамках качественного подхода и основано на анализе примеров иронических высказываний в естественном дискурсе. Результаты показывают, что ирония играет значительную роль в формировании прагматического значения и требует от участников коммуникации способности учитывать контекст и общие знания. В исследовании подчёркивается важность иронии в коммуникации, а также её значение для обучения языку и понимания речи.*

Ключевые слова: *ирония, прагматика, импликатура, значение, коммуникация.*

Abstract. *Irony is a complex and multifaceted phenomenon in language use, particularly within the field of pragmatics. This study explores how irony functions as a mechanism for conveying implicit meanings beyond literal interpretation. Drawing on pragmatic theories, including Gricean implicature and relevance theory, the paper examines how speakers use irony to express attitudes, criticism, and humor. The research adopts a qualitative approach, analyzing examples of ironic utterances in natural discourse. The findings suggest that irony plays a significant role in shaping pragmatic meaning and requires both contextual awareness and shared knowledge between interlocutors. The study highlights the importance of irony in communication and its implications for language teaching and comprehension.*

Key words: *irony, pragmatics, implicature, meaning, communication.*

Kinoya kundalik nutqda keng qo'llaniladigan kuchli kommunikativ vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. U so'zlovchiga o'z so'zlarining bevosita ma'nosidan farq qiladigan, ba'zan esa unga mutlaqo zid bo'lgan mazmunni yetkazish imkonini beradi. Pragmatika nuqtayi nazaridan kinoya alohida ahamiyatga ega, chunki u lingvistik shakl, kontekst va so'zlovchining kommunikativ niyati o'rtasidagi o'zaro munosabatni namoyon etadi [1].

Kinoyani tushunish faqat lug'at va grammatikani bilish bilan cheklanmaydi. Uni to'g'ri talqin qilish uchun kontekst asosida yashirin ma'nolarni anglash, shuningdek, suhbat ishtirokchilari o'rtasidagi umumiy madaniy va kommunikativ bilimlarni hisobga olish talab etiladi. Ayniqsa, chet tilini o'rganuvchilar uchun kinoya bilvosita xarakterga ega bo'lgani sababli muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi kinoyaning pragmatik ma'no doirasidagi o'rnini o'rganishdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi:

1. Kinoya pragmatik nazariya doirasida qanday talqin qilinadi?
2. Kinoyaviy ma'noning shakllanishi asosida qanday mexanizmlar yotadi?
3. Kinoyaning kommunikatsiya va til o'rganish jarayoniga qanday ta'siri mavjud?

Mazkur tadqiqot sifatli tadqiqot metodologiyasiga asoslangan bo'lib, tabiiy nutq jarayonida yuzaga keladigan kinoyaviy ifodalarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot materiallari suhbat jarayonlari, ommaviy axborot vositalari manbalari hamda kinoya keng qo'llaniladigan badiiy matnlardan to'plandi.

Tahlil Graysning Kooperatsiya tamoyili (Cooperative Principle) va implikatura tushunchasi, shuningdek, Sperber va Wilson tomonidan ilgari surilgan relevans nazariyasi (Relevance Theory) kabi asosiy pragmatik nazariyalarga tayanadi. Mazkur nazariyalar so‘zlovchilarning ma’noni bilvosita ifodalash mexanizmlarini hamda tinglovchilarning ushbu ma’nolarni qanday talqin qilishini tushuntirish imkonini beradi [2].

Misollar kinoyaviy ma’noni aniq namoyon etish xususiyatiga ko‘ra tanlandi. Har bir misol kontekst, so‘zlovchining kommunikativ niyati va tinglovchining talqini nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Tahlil natijalari kinoya ko‘pincha so‘zlarning bevosita ma’nosi bilan so‘zlovchining ko‘zlagan ma’nosi o‘rtasidagi ataylab yaratilgan nomuvofiqlik asosida yuzaga kelishini ko‘rsatdi. Ko‘p hollarda so‘zlovchi, ayniqsa, sifat (quality) maksimiga rioya qilmaydi yoki undan ataylab chekinadi. Bu esa tinglovchiga mazkur ifodani so‘zma-so‘z emas, balki boshqa ma’noda tushunish kerakligini anglatadi [3].

Masalan, kuchli yomg‘ir yog‘ayotgan paytda kimdir:

“What a beautiful day!”, (*“Qanday ajoyib kun-a!”*) desa, ushbu gapning bevosita ma’nosi ijobiydir. Biroq mavjud vaziyat va kontekst ushbu ijobiy mazmunning aslida salbiy ma’noni anglatayotganini ko‘rsatadi. Bevosita ma’no va real vaziyat o‘rtasidagi ziddiyat tinglovchini muqobil talqinni izlashga undaydi va natijada kinoyaviy ma’no yuzaga keladi.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, kinoyani muvaffaqiyatli talqin qilish ko‘p jihatdan kontekst, umumiy bilimlar va suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ushbu omillar mavjud bo‘lmagan hollarda kinoyaviy ma’no noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki umuman anglanmasligi mumkin.

Quyida og‘zaki diskursda uchraydigan kinoyaning o‘nta misoli va ularning pragmatik tahlili keltiriladi. Har bir misol kinoyaviy ma’noning bevosita ma’nodan tashqarida qanday shakllanishini ko‘rsatadi.

1-misol: *“Oh great, another meeting. Just what I needed.”* (*“Oh, zo‘r, yana bir yig‘ilish. Menga aynan shu kerak edi.”*)

Tahlil: Ushbu ifodaning bevosita ma’nosi so‘zlovchining mamnunligini bildiradi. Biroq asl kommunikativ niyat — norozilikni ifodalash. Kinoyaviy ma’no sifat maksimining buzilishi asosida yuzaga keladi. Tinglovchi yig‘ilishlarning ko‘pincha zerikarli yoki ortiqcha bo‘lishi haqidagi kontekstual bilimga tayanib, so‘zlovchining asl ma’nosini anglaydi.

2-misol: *“Nice job!”,* (*“Yaxshi ish qilibsan!”*) — kimdir xato qilganidan so‘ng aytilganda.

Tahlil: So‘zlovchi ijobiy bahoni anglatuvchi birliklardan foydalanib, aslida tanqidni ifodalaydi. Kinoyaviy ma’no mavjud vaziyatni umumiy anglashga bog‘liq. Bu holat **baholovchi kinoya (evaluative irony)**ga misol bo‘lib, so‘zlovchi norozilik yoki ma’qullamaslikni bilvosita ifodalaydi.

3-misol: *“Wow, you’re so early!”,* (*“Voy, juda erta kelibsan!”*) — kechikib kelgan kishiga aytilganda.

Tahlil: Bu yerda vaqt bilan bog‘liq qarama-qarshilik kinoyani yuzaga keltiradi. Shaxsning aslida kechikib kelgani haqidagi kontekstual ma’lumot tinglovchiga so‘zlovchining bevosita ma’noni emas, aks ma’noni nazarda tutganini anglash imkonini beradi.

4-misol: *“That was a brilliant idea.”,* (*“Bu juda ajoyib fikr edi.”*) — muvaffaqiyatsiz reja amalga oshirilganidan keyin aytilganda.

Tahlil: So‘zlovchi ilgari mavjud bo‘lgan kutilma yoki fikrni aks-sado tarzida takrorlab, unga nisbatan salbiy munosabatini bildiradi. Relevans nazariyasi nuqtayi nazaridan bu aks-sado kinoyasi (echoic irony)ga misol bo‘lib, so‘zlovchi muayyan fikrni takrorlash orqali unga nisbatan masxaralovchi yoki tanqidiy munosabatini ifodalaydi.

5-misol: *“I just love waiting in traffic for hours.”* (*“Tirbandlikda soatlab kutishni juda yaxshi ko‘raman.”*)

Tahlil: So‘zlovchi salbiy vaziyatga nisbatan bo‘rttirilgan ijobiy munosabatni bildiradi. Haqiqiy vaziyat va aytilgan gap o‘rtasidagi nomuvofiqlik kinoyaviy ma’noni yuzaga keltiradi. Tinglovchi bunday ma’noni umumiy hayotiy tajriba va mavjud vaziyat asosida anglaydi.

6-misol: *“He’s a real genius.”,* (*“U haqiqiy daho.”*) — ahmoqona ish qilgan kishiga nisbatan aytilganda.

Tahlil: Bu misolda kinoya bilvosita tanqid vositasi sifatida qo‘llangan. “Genius” (“daho”) so‘zining ijobiy semantik mazmuni real vaziyat bilan zid keladi. Tinglovchi kontekstual belgilar asosida so‘zlovchining aslida salbiy baho berayotganini anglaydi.

7-misol: *“Perfect weather for a picnic!”,* (*“Sayr uchun qanday ajoyib ob-havo!”*) — kuchli yomg‘ir yog‘ayotgan paytda aytilganda.

Tahlil: Ushbu misolda vaziyat kinoyasi (situational irony) yaqqol namoyon bo‘ladi. So‘zlovchining ifodasi kuzatilayotgan real vaziyatga zid keladi. Natijada tinglovchi gapning bevosita ijobiy ma’nosini qayta talqin qilib, undagi salbiy kinoyaviy mazmunni anglaydi.

8-misol: *“Yeah, because that always works.” “Ha, albatta, chunki bu har doim ishlaydi-da.”*)

Tahlil: So‘zlovchi bu yerda shubha va ishonchsizlikni ifodalaydi. Gapning bevosita mazmuni usulning doimo samarali ekanini ko‘rsatsa-da, kinoyaviy ohang ushbu usul aslida samarasiz ekanini anglatadi.

Tadqiqot natijalari kinoya asosan xulosa chiqarish va kontekstual talqinga tayanadigan pragmatik hodisa ekanligi haqidagi qarashlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Grays nazariyasiga ko‘ra, kinoyani so‘zlovchi suhbatning umumiy kommunikativ me’yorlaridan ataylab chekinib, yashirin ma’noni yetkazadigan implikatura shakli sifatida izohlash mumkin [4].

Relevans nazariyasi esa kinoyani aks-sado (echoic mention) hodisasi bilan bog‘laydi. Bunda so‘zlovchi muayyan fikr, qarash yoki kutilmani aks ettiradi va unga nisbatan tanqidiy yoki masxaralovchi munosabatini bildiradi. Mazkur yondashuv kinoyani anglash jarayonida ishtirok etadigan kognitiv mexanizmlarni ham yoritadi.

Shu bilan birga, kinoyadan foydalanish ayrim muammolarni ham yuzaga keltiradi. Madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida turli madaniy tajriba, umumiy bilimlar va kommunikativ kutilmalardagi farqlar kinoyaning noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin [5]. Til o‘rganuvchilar uchun esa autentik kommunikativ vaziyatlarda kinoyaviy nutqqa yetarli darajada duch kelmaslik uni tushunishni yanada murakkablashtiradi.

Shunga qaramay, kinoya kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib qoladi. U yumor, muloyimlik strategiyalari va ijtimoiy yaqinlikni shakllantirish kabi kommunikativ vazifalarni bajarishda muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur tadqiqot kinoyaning pragmatik ma’noni shakllantirishdagi muhim rolini ko‘rsatdi. Kinoya so‘zlovchiga murakkab munosabat va mazmunlarni bilvosita tarzda yetkazish imkonini beradigan murakkab kommunikativ strategiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Kinoyani to‘g‘ri anglash nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki pragmatik kompetensiya va kontekstual sezgirlikni ham talab qiladi [6]. Til o‘qitish nuqtayi nazaridan bu holat ta’lim jarayoniga pragmatik elementlarni kiritish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv til o‘rganuvchilarga kinoyani samarali tushunish va undan kommunikativ vaziyatga mos ravishda foydalanish imkonini beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda kinoyaning turli madaniy kontekstlardagi funksiyalarini o‘rganish yoki uning til o‘rganuvchilar tomonidan o‘zlashtirilish jarayonini tadqiq etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation.
2. Sperber, D., & Wilson, D. (1995). Relevance: Communication and Cognition.
3. Yule, G. (2010). The Study of Language.
4. Thomas, J. (2013). Meaning in Interaction.
5. Yus, F. (2016). *Humor and relevance*. John Benjamins Publishing Company.
6. Cutting, J. (2015). *Pragmatics and discourse* (3rd ed.). Routledge.
7. Thomas, J. (2013). *Meaning in interaction: An introduction to pragmatics*. Routledge.

UO'K 81'42:81'27

KINOYANING PRAGMATIK TABIATI VA KOMMUNIKATIV FUNKSIYALARI

M.R.Turdimatova, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kinoyaning pragmatik-kommunikativ xususiyatlari, uning bevosita va bilvosita ma'no o'rtasidagi munosabatni shakllantirishdagi o'rni hamda kommunikativ funksiyalari tadqiq etiladi. Kinoya faqat stilistik vosita yoki qarama-qarshi ma'noni ifodalovchi hodisa sifatida emas, balki so'zlovchining kommunikativ niyatini bilvosita yetkazishga xizmat qiluvchi murakkab pragmatik hodisa sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda H. P. Grice [1] tomonidan ishlab chiqilgan kooperatsiya tamoyili va implikatura nazariyasi, D. Sperber va D. Wilsonning relevans nazariyasi, shuningdek, kinoyaning aks-sado xarakteriga oid qarashlardan foydalaniladi [10,11]. Tahlil jarayonida ingliz va o'zbek kommunikativ muhitida uchrashi mumkin bo'lgan kinoyaviy ifodalar qiyosiy-pragmatik jihatdan ko'rib chiqiladi. Kinoyaning tanqid, masxara, norozilik, koyish, e'tiroz, ogohlantirish, shubha, yumor va baholash kabi kommunikativ funksiyalarni bajarishi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari kinoyaviy ma'noni anglashda lingvistik birlikning o'zi yetarli emasligini, balki kontekst, intonatsiya, umumiy bilim, kommunikativ vaziyat va suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabat muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *kinoya, ironiya, pragmatika, pragmatik ma'no, bilvosita ma'no, implikatura, kommunikativ funksiya, kontekst, relevans, tanqid.*

Аннотация. *В статье исследуются прагматические и коммуникативные особенности иронии, её роль в формировании взаимосвязи между прямым и имплицитным значением, а также основные коммуникативные функции. Ирония рассматривается не только как стилистическое средство или форма противопоставления значений, но и как сложное прагматическое явление, посредством которого говорящий косвенно передаёт своё коммуникативное намерение. В исследовании используются теория импликатуры и принцип кооперации Г. П. Грайса, теория релевантности Д. Спербера и Д. Уилсон, а также концепция эхоического характера иронии. Иронические выражения английского и узбекского коммуникативного пространства анализируются с сопоставительно-прагматической точки зрения. Установлено, что ирония может выполнять различные коммуникативные функции: критику, насмешку, выражение недовольства, упрёк, возражение, предупреждение, сомнение, юмор и оценку. Результаты исследования показывают, что интерпретация иронического значения зависит не только от языковой формы, но и от контекста, интонации, фоновых знаний, коммуникативной ситуации и отношений между собеседниками.*

Ключевые слова: *ирония, прагматика, прагматическое значение, имплицитное значение, импликатура, коммуникативная функция, контекст, релевантность, критика.*

Abstract. *This article examines the pragmatic and communicative features of irony, focusing on its role in establishing the relationship between literal and implicit meaning and its major communicative functions. Irony is approached not merely as a stylistic device or a form of meaning opposition, but as a complex pragmatic phenomenon through which speakers convey their communicative intentions indirectly. The study draws upon Grice's Cooperative Principle and theory of implicature, Sperber and Wilson's Relevance Theory, and the concept of echoic interpretation. Ironic expressions occurring in English and Uzbek communicative contexts are analyzed from a comparative pragmatic perspective. The analysis demonstrates that irony may perform various communicative functions, including criticism, mockery, dissatisfaction, reproach, objection, warning, doubt, humor, and evaluation. The findings indicate that the interpretation of ironic meaning depends not only on linguistic form but also on context, intonation, shared knowledge, communicative situation, and the relationship between interlocutors. Thus, pragmatic competence is essential for the successful interpretation of irony in both everyday communication and literary discourse.*

Key words: *irony, pragmatics, pragmatic meaning, implicit meaning, implicature, communicative function, context, relevance, criticism.*

Kinoya tilning insonlararo kommunikatsiyada murakkab mazmunlarni ixcham va bilvosita ifodalash imkonini beruvchi muhim vositalaridan biridir. So‘zlovchi ayrim hollarda o‘z munosabatini bevosita bildirish o‘rniga, tashqi jihatdan ijobiy, ma’qullovchi yoki neytral ko‘rinishga ega bo‘lgan ifodadan foydalanadi. Biroq ushbu ifodaning real kommunikativ mazmuni kontekst ta’sirida o‘zgarib, ba’zan uning lug‘aviy ma’nosiga qarama-qarshi bo‘lgan mazmunni yuzaga keltiradi. Shu sababli kinoya hodisasini faqat semantik qarama-qarshilik doirasida izohlash uning kommunikativ tabiatini to‘liq ochib bermaydi.

Pragmatik yondashuv kinoyaning aynan nutq jarayonida qanday ma’no hosil qilishini aniqlash imkonini beradi. Bunda asosiy e’tibor “gap nimani anglatadi?” degan savoldan tashqari “so‘zlovchi ushbu gap orqali nimani nazarda tutmoqda?” degan savolga qaratiladi. Demak, kinoyaviy nutqda aytilgan ma’no bilan nazarda tutilgan ma’no o‘rtasida muayyan tafovut mavjud bo‘ladi.

Kinoyani tushunish uchun tinglovchi faqat lingvistik kompetensiyaga emas, balki pragmatik va kontekstual kompetensiyaga ham ega bo‘lishi lozim. Chunki bir xil gap turli vaziyatlarda turlicha kommunikativ mazmun kasb etishi mumkin. Masalan, “Qanday ajoyib ob-havo!” gapining ma’nosi quyoshli va yoqimli kunda ijobiy bahoni anglatsa, kuchli yomg‘ir yog‘ayotgan vaziyatda u kinoyaviy mazmun hosil qilishi mumkin. Bunday holatda real vaziyat bilan verbal ifoda o‘rtasidagi nomuvofiqlik tinglovchini yashirin ma’noni izlashga undaydi.

Kinoyani pragmatik nuqtayi nazardan o‘rganishda Grice tomonidan ishlab chiqilgan Kooperatsiya tamoyili va implikatura nazariyasi muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Grice nazariyasiga ko‘ra, muloqot ishtirokchilari odatda bir-birlarining kommunikativ niyatini tushunishga yordam beradigan umumiy tamoyillarga amal qiladilar. Biroq kinoyaviy nutqda so‘zlovchi ayrim hollarda mazkur kommunikativ me’yorlardan ataylab chekinadi. Ayniqsa, sifat maksimiga zid ravishda aytilgan ijobiy baho salbiy vaziyat bilan birga kelganda, tinglovchi gapning literal mazmuni ortida boshqa kommunikativ ma’no mavjudligini anglaydi. Mazkur yondashuvda ham kinoyaning sifat maksimiga ataylab rioya qilmaslik orqali shakllanishi qayd etilgan.

Sperber va Wilson tomonidan ishlab chiqilgan Relevans nazariyasi esa kinoyaning kognitiv jihatini tushuntirishda muhimdir. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tinglovchi so‘zlovchining ifodasini mavjud kontekst bilan bog‘laydi va eng maqbul talqinni izlaydi. Kinoyada esa ko‘pincha ilgari mavjud bo‘lgan fikr, baho, kutilma yoki qarash “aks-sado” tarzida qayta namoyon qilinadi. So‘zlovchining ushbu fikrga nisbatan munosabati esa kinoyaviy mazmunni yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, kinoyaviy ma’no quyidagi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi:



Kinoyaning asosiy xususiyati shundaki, uning yuzaki va chuqur kommunikativ mazmuni o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud bo‘ladi. Ushbu nomuvofiqlik har doim ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri antonimik munosabat shaklida namoyon bo‘lmaydi. Ba’zan so‘zlovchi o‘zining asl munosabatini bo‘rttirish, haddan tashqari maqtash yoki aks-sado tarzida takrorlash orqali bildiradi.

Masalan: **“What a wonderful decision!”** *(“Qanday ajoyib qaror!”)*

Agar ushbu gap mutlaqo muvaffaqiyatsiz qaror qabul qilingan vaziyatdan keyin aytilsa, "wonderful" so'zining lug'aviy ijobiy mazmuni real kommunikativ vaziyat bilan zid keladi. Tinglovchi so'zlovchining aslida qarorni ma'qullamayotganini anglaydi [5]. Demak, ijobiy verbal shakl salbiy baholovchi pragmatik ma'noni hosil qiladi.

Bu jarayonda kontekst hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar yuqoridagi gap vaziyatdan ajratib olinsa, uning kinoyaviyligini aniqlash qiyin. Shu sababli kinoya "kontekstdan tashqari" hodisa sifatida emas, balki real kommunikativ vaziyatda shakllanuvchi hodisa sifatida qaralishi lozim.

Kinoyaning yana bir muhim xususiyati uning kommunikativ niyat bilan bog'liqligidir. So'zlovchi ko'pincha o'zining salbiy munosabatini ochiq ifodalash imkoniga ega bo'lsa-da, kinoyani tanlaydi. Buning sababi ijtimoiy munosabatlarni saqlash, tanqidni yumshatish, hazil yaratish yoki suhbatdoshga mustaqil xulosa chiqarish imkonini berish bo'lishi mumkin.

Kinoya kommunikatsiyada bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Jumladan, u tanqid, norozilik, masxara, koyish, e'tiroz, ogohlantirish, shubha, yumor va baholash kabi pragmatik ma'nolarni bilvosita ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan kinoya so'zlovchiga murakkab munosabatni bevosita va keskin shaklda emas, balki nisbatan yashirin va kontekstual shaklda yetkazish imkonini beradi.

O'zbek va ingliz tillaridagi kinoyaviy ifodalarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ularning asosiy pragmatik mexanizmlari umumiy bo'lsa-da, kinoyaning qabul qilinishi va kommunikativ kuchi milliy-madaniy omillarga bog'liq. Shu bois kinoyani o'rganishda lingvistik birliklar bilan bir qatorda madaniy va pragmatik kompetensiyani ham hisobga olish zarur.

Kinoyaning ushbu xususiyatlari uni nafaqat nazariy pragmatika, balki badiiy diskurs, ommaviy kommunikatsiya, madaniyatlararo muloqot va chet tillarini o'qitish uchun ham muhim tadqiqot obyekti sifatida belgilaydi. Kelgusidagi tadqiqotlarda kinoyaning o'zbek va ingliz badiiy diskursidagi pragmatik funksiyalarini kengroq korpus materiallari asosida o'rganish, kinoyaning tanqid, koyish, haqorat va qarg'ish kabi ma'nolar bilan munosabatini aniqlash hamda ushbu ma'nolarning darajalanish xususiyatlarini tadqiq etish istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics 3: Speech Acts*. New York: Academic Press.
2. Sperber, D., & Wilson, D. (1995). *Relevance: Communication and Cognition*. 2nd ed. Oxford: Blackwell.
3. Booth, W. C. (1974). *A Rhetoric of Irony*. Chicago: University of Chicago Press.
4. Hutcheon, L. (1994). *Irony's Edge: The Theory and Politics of Irony*. London: Routledge.
5. Muecke, D. C. (1969). *The Compass of Irony*. London: Methuen.
6. Yule, G. (2010). *The Study of Language*. 4th ed. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Thomas, J. (2013). *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. London: Routledge.
8. Cutting, J. (2015). *Pragmatics and Discourse: A Resource Book for Students*. 3rd ed. London: Routledge.
9. Culpeper, J. (2011). *Impoliteness: Using Language to Cause Offence*. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Sperber, D., & Wilson, D. (1981). Irony and the Use-Mention Distinction. In P. Cole (Ed.), *Radical Pragmatics*. New York: Academic Press.
11. Wilson, D. (2006). The Pragmatics of Verbal Irony: Echo or Pretence? *Lingua*, 116(12), 1722–1743.

UO'K 81'373.612.2:811.134.2:811.512.133

ISPAN VA O'ZBEK BADIIY MATNLARIDA MADANIY MARKERLANGAN METAFORALAR: SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLAR

R.T.Turdiqulova, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqola ispan va o'zbek badiiy matnlaridagi madaniy markerlangan metaforalarning semantik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan. Unda metaforalarning milliy-madaniy mazmuni va badiiy matndagi funksiyalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ispan va o'zbek tillari, metafora, semantika, pragmatika, badiiy matn.*

Аннотация. *Данная статья посвящена сравнительному исследованию семантических и прагматических свойств культурно маркированных метафор в испанских и узбекских литературных текстах. В ней анализируется национально-культурное содержание метафор и их функции в литературных текстах.*

Ключевые слова: *испанский и узбекский языки, метафора, семантика, прагматика, литературный текст.*

Abstract. *This article is dedicated to a comparative study of the semantic and pragmatic characteristics of culturally marked metaphors in Spanish and Uzbek literary texts. It analyzes the national-cultural content of these metaphors and their functions within literary texts.*

Key words: *Spanish and Uzbek languages, metaphor, semantics, pragmatics, literary text.*

Kirish. Jahon tilshunosligida ilmiy bilish jarayonining chuqurlashuvi tilshunoslikda zamonaviy yo'nalishlarning mustaqil soha sifatida taraqqiy etishiga turtki bo'lib bormoqda, bu esa metaforani rivojlantirish, maxsus o'rganish masalalari bo'yicha tadqiqotlar qamrovini kengaytirdi. Bundan tashqari hozirgi kunda tilshunosligida til, tafakkur va madaniyat munosabatlarini o'rganish, til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash hamda badiiy matnda mazmunning shakllanish mexanizmlarini ochib berish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va pragmalingvistika doirasida metafora insonning borliqni konseptuallashtirish usuli, madaniy tajribani ifodalash vositasi va badiiy mazmunni shakllantiruvchi muhim lingvistik mexanizm sifatida talqin etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, metaforalarni faqat ko'chma ma'noli birliklar sifatida emas, balki muayyan xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy tajribasi va estetik tafakkurini namoyon etuvchi lingvomadaniy hodisa sifatida tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ispan va o'zbek badiiy matnlarida qo'llanadigan madaniy markerlangan metaforalarni qiyosiy o'rganish ushbu tillarda shakllangan obrazli tafakkurning umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Har ikki tilda metaforik ma'no insonning jismoniy tajribasi, tabiat hodisalari, vaqt va makon haqidagi tasavvurlari bilan bog'liq holda shakllanishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim metaforalarning mazmuni milliy urf-odatlar, tarixiy xotira, diniy-axloqiy qarashlar, ijtimoiy munosabatlar va muayyan madaniyatga xos ramziy tasavvurlar bilan belgilanadi. Natijada tashqi jihatdan o'xshash metaforalar turli tillarda bir xil konnotativ ma'no yoki pragmatik ta'sirni ifodalamasligi mumkin.

Adabiyotlar sharhi. Metafora bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar qadimgi davrlarga borib taqaluvchi an'analarga va V. Gumboldt, A. A. Potebnya, A. N. Veselovskiy, G. Pol, Sh. Balli va boshqalar kabi taniqli rus va xorijiy olimlarning klassik lingvistik merosiga tayanadi.

Metaforani dunyoni anglash vositasi va inson tafakkurining ifodasi sifatida talqin qilish zamonaviy tilshunoslikda uning kognitiv xususiyatlarini o'rganishga asos bo'ldi. Ortega-y-Gasset ta'kidlaganidek, «metafora aqlning "qo'lini" uzaytiradi» [Ortega-y-Gasset, 1990: 72]. Ushbu qarash metaforaning inson tafakkuri imkoniyatlarini kengaytirish, murakkab tushunchalarni obrazli ifodalash va borliqni anglashdagi rolini ko'rsatadi. Tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning rivojlanishi metaforik ma'nolarning shakllanish qonuniyatlarini aniqlash, ularning kognitiv asoslarini ochib berish hamda nutqiy faoliyatdagi funksiyalarini o'rganishga keng imkoniyat yaratdi.

Metaforani zamonaviy tadqiq etishning nazariy-metodologik asosini rus va xorijiy tilshunos olimlar - M. Blek, J. Lakoff, M. Jonson, D. Devidson, Z. Koveches, J. Searl, M. Tyorner, J. Faukonyer, A. Richards, A. Vejbitskaya, N. D. Arutyunova, V. B. Baranov, L. L. Gak, Yu. N. Karaulov, O. N. Laguta, V. P. Moskvin, E. O. Oparina, N. V. Pavlovich, M. E. Rut, G. N. Sklyarevskaya, V. N. Teliya va A. P. Chudinovning ilmiy qarashlari tashkil etadi.

Metafora til, tafakkur va idrokni tasniflashda muhim element sifatida lingvistik hamda kognitiv tuzilmalarni o'zaro bog'lab, voqelik, inson ongi va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi [Petrov, 1990: 135]. Lingvistik yondashuvda metaforalar an'anaviy ravishda tirik va o'lik metaforalarga ajratiladi. Tirik metaforalar obrazliligi va yangicha ma'no hosil qilish xususiyati bilan ajralib tursa, o'lik metaforalar til tizimida odatiylashib, dastlabki obrazliligini qisman yoki to'liq yo'qotgan bo'ladi [Bragina, 1999: 132].

Turli davrlar va maktablarning lingvistik tadqiqotlari yondashuvlardagi farqlarga qaramay, lingvistik makonning yadrosi, lingvistik tadqiqotning asosiy birliklari deb hisoblanishi mumkin bo'lgan tadqiqot obyektlari va subyektlarini o'z ichiga oladi. Bularga, shubhasiz, majoziy til vositalari, birinchi navbatda metafora kiradi. "Metaforaning o'ziga xosligi uning uchta makonning

funksional birligi sifatida harakat qilish qobiliyatidadir: kognitiv, madaniy va lingvistik" [Privalova 2005: 46].

Metaforani o‘rganish etnolingvomadaniy ongda yuz berayotgan o‘zgarishlarni aniqlashning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Metaforani faqat ikkilamchi nominatsiya natijasi sifatida emas, balki o‘ziga xos semantik mexanizmlarga ega bo‘lgan murakkab kognitiv-lingvistik jarayon sifatida tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Metaforalashtirish jarayoni muayyan darajada universallikka ega bo‘lib, turli tillarda umumiy metaforik modellar va obrazli paradigmalarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, metaforik ma’nolarning shakllanishi va voqelikni obrazli ifodalash usullari har bir xalqning tarixiy tajribasi, milliy dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari bilan bog‘liq holda o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Shu bois metaforalarni qiyosiy o‘rganish universal kognitiv mexanizmlar bilan milliy-madaniy tafovutlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot yondashuvlarining xilma-xilligi, olingan natijalarning ayrim hollarda o‘zaro farqlanishi hamda metaforologiyaning muhim masalalari, xususan, metaforalarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan talqin qilish borasida yagona qarashning mavjud emasligi metaforalashtirish jarayonlari va ularni ifodalovchi metaforik modellarni chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunday modellar qatoriga metaforik ma’no shakllanishida manba sohasi vazifasini bajaruvchi «tabiat olami» bilan bog‘liq tushunchalar ham kiradi. Tabiat hodisalari, o‘simliklar va hayvonot dunyosiga oid obrazlar insonning borliq haqidagi tasavvurlari bilan uyg‘unlashib, badiiy tafakkurda muayyan ramziy va madaniy ma’nolarni hosil qiladi. Shu ma’noda, “jonli tabiat hodisalari insoniyat madaniyatiga metaforik tarzda singdiriladi” [Brudniy, 1998: 30]. Bu holat metaforalarning semantik xususiyatlarini hamda ularning milliy-madaniy mazmunini qiyosiy o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Ispan va o‘zbek badiiy matnlarini qiyosiy o‘rganish metaforalarning ikki tildagi semantik tuzilishi, obrazlilik imkoniyatlari va pragmatik vazifalarini aniqlashga yordam beradi. Chunki metafora muayyan tushunchani nomlash bilan cheklanmaydi: u qahramonning ruhiy holatini ifodalashi, voqea-hodisalarga muallif munosabatini bildirishi, milliy-madaniy assotsiatsiyalarni faollashtirish va o‘quvchida muayyan hissiy-ta’sirchan munosabat hosil qilish vazifalarini ham bajarishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligini quyidagi jihatlar bilan asoslash mumkin:

• Lingvomadaniy jihat: metaforalarda ispan va o‘zbek xalqlariga xos qadriyatlar, ramzlar, urf-odatlar, tarixiy xotira va milliy tasavvurlarning ifodalanishini aniqlash.

• Semantik jihat: metaforik birliklarning lug‘aviy ma’nosi, kontekstual ma’nosi, konnotativ xususiyatlari va konseptual asoslarini qiyoslash.

• Pragmatik jihat: metaforalarning badiiy matnda baholash, hissiy ta’sir ko‘rsatish, kinoya yaratish, qahramon xarakterini ochish va muallif pozitsiyasini ifodalash imkoniyatlarini o‘rganish.

• Qiyosiy jihat: ikki tilda o‘xshash konseptual modellar qanday ifodalanishi va qaysi metaforalar milliy-madaniy xususiyatlari bilan farqlanishini aniqlash.

• Tarjimashunoslik jihati: madaniy jihatdan belgilangan metaforalarning boshqa tilga tarjimasida yuzaga keladigan semantik va pragmatik o‘zgarishlarni tushuntirish.

Belgilangan maqsadga erishish va qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish quyidagi asosiy metodlar yordamida ta’minlandi:

• tavsifiy metod;

• lug‘aviy (definitsion) identifikatsiya metodi;

• komponent tahlil metodi;

• metaforalarning lingvomadaniy jihatdan ahamiyatli komponentlarini hisoblash usullari majmuini o‘z ichiga oluvchi miqdoriy metod;

• umumlashtirish va tipologiyalashtirishga asoslangan tasniflash metodi;

• lingvistik/metaforik modellashtirish metodi;

• lingvomadaniy tahlil metodi.

Xulosa. Ispan va o‘zbek badiiy matnlaridagi metaforalarning semantik, kognitiv va pragmatik xususiyatlarini birgalikda o‘rganish metafora, milliy-madaniy tafakkur va badiiy diskurs o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq yoritishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Петров В. В. Метафора: от семантических представлений к когнитивному анализу // Вопросы языкознания. - 1990. - № 3. - С. 135–146.
2. Теория метафоры / под ред. Н. Д. Арутюновой и М. А. Журинской. - Москва: Прогресс, 1990. - 512 с.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. - Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Black M. Models and Metaphors: Studies in Language and Philosophy. - Ithaca, New York: Cornell University Press, 1962.
5. Richards I. A. The Philosophy of Rhetoric. - London: Oxford University Press, 1936.
6. Брагина Н. Г. Память в языке и культуре. - М.: Языки славянских культур: Издатель А. Кошелев, 2007. - 520 с. - (Studia Philologica).
7. Брудный А. А. Психологическая герменевтика: учебное пособие. - 2-е изд., доп. и испр. - М.: Лабиринт, 1998. - 336 с.
8. Ортега-и-Гассет Х. Две великие метафоры // Теория метафоры. - Москва: Прогресс, 1990. - С. 68–81.

UDC 811.512.133'373.612.2:811.111

LEXICAL-SEMANTIC AND PHRASEOLOGICAL ANALYSIS OF EMOTIONALLY EXPRESSIVE METAPHORS IN UZBEK AND ENGLISH

Turg'unova M. Sh., Master's student, Fergana State University, Fergana
Jurayev I. M., PhD, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi emotsional-ekspressiv metaforalarning leksik-semantik va frazeologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Inson his-tuyg'ularining metaforik so'zlar, turg'un birikmalar va frazeologik birliklar orqali ifodalanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotning maqsadi ikki tilda emotsional holatlarni metaforik ifodalashning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tahlil jarayonida leksik ma'no, emotsional bo'yoqdorlik, obrazlilik va frazeologik birliklarning madaniy asoslari o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *metafora, leksik semantika, frazeologiya, emotsional-ekspressivlik, ko'chma ma'no, o'zbek tili, ingliz tili, konseptual metafora.*

Аннотация. *В статье рассматриваются лексико-семантические и фразеологические особенности эмоционально-экспрессивных метафор в узбекском и английском языках. Основное внимание уделяется способам языкового выражения человеческих эмоций посредством метафорических слов, устойчивых выражений и фразеологических единиц. Исследование направлено на выявление общих и специфических особенностей метафоризации эмоциональных состояний в двух языках. Анализируются лексическое значение, эмоциональная окраска, образная структура и культурная обусловленность фразеологических выражений.*

Ключевые слова: *метафора, лексическая семантика, фразеология, эмоциональная экспрессивность, образное значение, узбекский язык, английский язык, концептуальная метафора.*

Abstract. *This article examines the lexical-semantic and phraseological features of emotionally expressive metaphors in Uzbek and English. Particular attention is paid to the ways human emotions are represented through metaphorical words, fixed expressions, and phraseological units. The research aims to identify both common and language-specific characteristics of metaphorical conceptualization in the two languages. The analysis focuses on lexical meaning, emotional connotation, figurative structure, and the cultural background of metaphorical expressions.*

Keywords: *metaphor, lexical semantics, phraseology, emotional expressiveness, figurative meaning, Uzbek language, English language, conceptual metaphor.*

Introduction. In modern linguistics, the study of metaphor has become increasingly important because it reveals how language reflects human emotions, thoughts, and cultural experiences. Metaphor is not only a stylistic device but also a means of expressing complex feelings through figurative language. Emotionally expressive metaphors play an important role in communication by making speech more vivid, meaningful, and emotionally powerful.

This article focuses on the lexical-semantic and phraseological analysis of emotionally expressive metaphors in Uzbek and English. It examines how emotions such as happiness, sadness,

anger, fear, and love are expressed through metaphorical words and phraseological units in both languages. Particular attention is given to the meanings, emotional connotations, and cultural features of these expressions.

Through comparative analysis, the research identifies similarities and differences between Uzbek and English metaphors. It also explores how cultural traditions and linguistic characteristics influence the expression of human emotions.

1. The Concept of Emotionally Expressive Metaphors. Metaphor is an important linguistic phenomenon in which a word or expression acquires a figurative meaning based on similarity or association. According to Lakoff and Johnson, metaphors are not simply elements of language but also reflect the way people understand the world. In Uzbek, expressions such as *yuragi ezilmoq (to feel deep emotional pain)* and *qoni qaynamoq (to become very angry)* demonstrate how physical experiences are used to describe emotional states. Similarly, English expressions such as a broken heart and make someone's blood boil represent sadness and anger through figurative meanings.

2. Lexical-Semantic Features of Metaphors. The lexical-semantic analysis of metaphors focuses on how words develop additional figurative meanings. In both Uzbek and English, ordinary words can express emotions through metaphorical usage. For example, the Uzbek word *yurak (heart)* is often associated with courage, love, and emotional suffering. In English, the word heart also expresses affection, kindness, and sadness. Expressions such as warm heart and heavy heart demonstrate how physical qualities are transferred to emotional experiences. These examples show that metaphorical meaning enriches vocabulary and makes emotional expression more effective.

3. Phraseological Expressions of Emotions. Phraseological units are fixed expressions whose meanings are often different from the literal meanings of their individual words. They are widely used to express emotions in everyday communication. In Uzbek, expressions such as *boshi ko'kka yetmoq (to become extremely happy), ko'ngli cho'kmoq (to become sad),* and *yuragi orqasiga tortmoq (to feel unsure or have a bad feeling)* are examples of emotionally expressive phraseological units. In English, similar expressions include *be over the moon (to be very happy), feel down (to feel sad), and have one's heart in one's mouth (to feel frightened).* These examples demonstrate that both languages use figurative expressions to communicate emotional experiences.

4. Conceptual Metaphors in Uzbek and English. Metaphors often represent emotions through physical experiences and natural phenomena. According to conceptual metaphor theory, abstract feelings are frequently understood through concrete images. In Uzbek, *anger* can be expressed through the metaphor *qoni qaynamoq (blood boils),* while *happiness* is represented by *boshi ko'kka yetmoq (one's head reaches the sky).* In English, similar examples include *make someone's blood boil and be over the moon.* These expressions show that both languages use bodily sensations and spatial images to represent emotional conditions. However, their metaphorical structures and cultural associations may differ.

5. Cultural Features of Emotional Metaphors. Emotionally expressive metaphors are closely connected with the cultural background of a language. They reflect traditional beliefs, social values, and the collective experiences of speakers. In Uzbek, the word ko'ngil has a particularly important role in emotional expression. It can represent feelings, affection, inner thoughts, and personal sensitivity. Expressions such as *ko'ngil bermoq* and *ko'ngli qolmoq* demonstrate its rich figurative meaning. In English, words such as heart, soul, and mind are frequently used in metaphorical expressions. For example, *have a heart* expresses *kindness,* while *lose heart* means *to lose courage or hope.*

6. Comparative Analysis and Translation. The comparison of Uzbek and English metaphors reveals both similarities and differences in their meanings and structures. For example, *qoni qaynamoq and make someone's blood boil* have almost identical metaphorical meanings. Similarly, *boshi ko'kka yetmoq and be over the moon* express extreme happiness through different but related images. However, not all metaphors have direct equivalents in another language. Some expressions require contextual translation rather than word-for-word translation. Therefore, understanding the lexical meaning, emotional connotation, and cultural background of metaphors is essential for accurate translation and effective intercultural communication.

7. Emotional Expressiveness in Phraseology. Phraseological expressions make communication more expressive and meaningful. They allow speakers to communicate emotions indirectly through familiar images and figurative language. In Uzbek, expressions containing words such as *yurak, ko'ngil,* and *jon* frequently communicate emotional experiences. In English, similar functions are performed by expressions containing heart, blood, and soul. These linguistic elements demonstrate how metaphor and phraseology work together to express feelings, attitudes, and psychological experiences. Their analysis is important for understanding the relationship between language, emotion, and culture.

Conclusion. The comparative analysis of emotionally expressive metaphors in Uzbek and English reveals that metaphor is an important means of expressing human emotions. Both languages use figurative words and phraseological expressions to describe *happiness, sadness, anger, fear, and love.*

Although Uzbek and English share several metaphorical patterns, they also demonstrate differences in lexical meanings, phraseological structures, and cultural associations. Expressions such as *qoni qaynamoq* and *make someone's blood boil* illustrate similar metaphorical meanings, while other expressions reveal language-specific characteristics. In conclusion, the study of emotionally expressive metaphors provides a deeper understanding of the relationship between language, human emotions, and culture. It also has practical importance for translation, language teaching, and comparative linguistics.

REFERENCES:

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
2. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 224 p.
3. Fernando C. Idioms and Idiomaticity. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 265 p.
4. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 352 p.
5. Wierzbicka A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 349 p.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.

UDC 81'42:004.738.5

SEMANTIC AND PRAGMATIC INTERPRETATION OF VISUAL SIGNS IN CONTEMPORARY DIGITAL COMMUNICATION

Umarova M. T., PhD in Pedagogical Sciences, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy raqamli muloqotda vizual belgilar (emotikonlar, emojilar, stikerlar, memlar)ning semantik va pragmatik talqini o'rganiladi. Pirs va Morris semiotikasi, Grays implikaturasi, relevantlik va xushmuomalalik nazariyalariga tayangan holda belgi an'anaviy ma'noga ega bo'ladigan semantik daraja va bu ma'no kontekst, ishtirokchilar hamda platforma ta'sirida o'zgaradigan pragmatik daraja farqlanadi. Beshta pragmatik vazifa tavsiflanadi va bir xil belgi turli jamoalarda turlicha talqin qilinishi mumkinligi ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *vizual belgi; emoji; raqamli muloqot; semantika; pragmatika; xushmuomalalik; multimodallik.*

Аннотация. *В статье рассматривается семантическая и прагматическая интерпретация визуальных знаков (эмотиконов, эмодзи, стикеров, мемов) в цифровой коммуникации. На основе семиотики Пирса и Морриса, теории импликатуры Грайса, теории релевантности и теории вежливости различаются семантический уровень, на котором знак приобретает конвенциональное значение, и прагматический уровень, на котором оно изменяется под влиянием контекста, участников и платформы. Описаны пять прагматических функций и показано, что один и тот же знак может по-разному интерпретироваться в разных сообществах.*

Ключевые слова: *визуальный знак; эмодзи; цифровая коммуникация; семантика; прагматика; вежливость; мультимодальность.*

Abstract. *This article examines the semantic and pragmatic interpretation of visual signs (emoticons, emoji, stickers, memes) in digital communication. Relying on Peircean and Morrisian semiotics, Grice's theory of implicature, relevance theory and politeness theory, it distinguishes the semantic level, at which a sign acquires a conventional meaning, from the pragmatic level, at which this meaning is modified by context, participants and platform. Five pragmatic functions are described, and it is shown that the same sign may be interpreted differently in different communities.*

Keywords: *visual sign; emoji; digital communication; semantics; pragmatics; politeness; multimodality.*

1. Introduction. Visual signs have become an integral part of written interaction in messengers and social networks. Emoticons, emoji, stickers and memes accompany, replace, soften or even contradict the verbal text. Their spread is explained by the loss of paralinguistic channels in writing [1; 2]. Danesi [3] treats emoji as an emerging visual language, whereas Gawne and McCulloch [4] see them as digital gestures. A visual sign is only partly conventional: its form is iconic and seems transparent, but its interpretation depends on the community, the platform and the situation [5]. The article describes the semantic and pragmatic levels of their interpretation.

2. Materials and Methods. The study is theoretical and descriptive. It rests on the semiotics of Peirce [6] and Morris [7], Grice's theory of implicature [8], relevance theory [9], politeness theory [10] and works on computer-mediated communication [1–5; 11; 12]. The examples are constructed from the author's experience and are not a statistical sample, so the conclusions describe tendencies. The methods are semiotic analysis and pragmatic analysis of utterances in context.

3. Results and Discussion

3.1 Semantic level: from iconic sign to convention

In Peirce's classification [6] signs are icons, indexes or symbols according to their relation to the object. Most emoji begin as icons (🐱, 🌩, 🎂) but in use quickly become conventional: 🙏 depicts folded hands, yet in messages it is read as thanks or a polite request, and 🔥 expresses approval rather than fire. In Morris's terms [7], semantics studies the relation of signs to what they denote, and pragmatics their relation to interpreters; for visual signs the boundary is thin, because conventional meaning arises only through repeated use. Unicode fixes the code of an emoji, but not its appearance, and Miller et al [5]. showed that readers disagree about the sentiment of the same emoji, especially across platform designs. Memes work at a more complex level: for Shifman [11] they are groups of digital items sharing content, form or stance, so their meaning is intertextual.

3.2 Pragmatic level: functions of visual signs

At the pragmatic level meaning depends on what the sender does with the sign. Five functions are the most frequent. (1) Tone marking: the sign shows the sender's attitude and helps to choose between a literal and a non-literal reading [1]. (2) Indication of illocutionary force: emoticons mark the force of an utterance, turning, for example, a demand into a friendly request [2]. (3) Politeness: the sign mitigates a face-threatening act [10]; *Send it today* 🙏 sounds softer than *Send it today.* (4) Phatic function: a reply of one 👍 confirms contact without adding information. (5) Irony: when the sign contradicts the text, as in *Great timing* 🙄, the addressee infers a non-literal meaning [8]. In relevance-theoretic terms [9], the sign is an ostensive stimulus rewarded by contextual effects. Walther and D'Addario [12] warn, however, that emoticons influenced interpretation less than verbal content. Table 1 shows how the same signs combine a stable semantic meaning with several pragmatic interpretations.

Table 1. Semantic meaning and pragmatic interpretations of some visual signs

Sign	Semantic meaning	Pragmatic interpretations in context
😂	face with tears of joy; laughter	amusement (*That's hilarious* 😂); softening of a critical remark
🙏	folded hands	thanks; polite request (*Send it today* 🙏); hope or prayer
👍	thumbs up	agreement or acknowledgement; sometimes a curt closing of the exchange

Sign	Semantic meaning	Pragmatic interpretations in context
😊	slightly smiling face	friendliness and politeness; in some communities restrained irritation or irony

3.3 Factors of variation in interpretation

The same sign may be interpreted differently depending on the platform [5]; the community and age group, since a sign neutral for one generation may be ironic for another; the relationship of the participants, because messages to a superior are limited by politeness norms [10]; and the position of the sign in the message. A visual sign is thus both economical and risky.

4. Conclusion. The interpretation of visual signs in digital communication takes place on two interrelated levels. At the semantic level an iconic sign acquires a conventional meaning through repeated use; at the pragmatic level this meaning is adjusted to the context and performs the functions of tone marking, indication of illocutionary force, politeness mitigation, phatic signalling and irony. Since interpretation varies with the platform, community and relationship of the participants, visual signs are not a universal code.

REFERENCES:

1. Walther, J. B. Computer-mediated communication: Impersonal, interpersonal, and hyperpersonal interaction // Communication Research, 1996, 23(1). P. 3–43.

2. Dresner, E., Herring, S. C. Functions of the nonverbal in CMC: Emoticons and illocutionary force // Communication Theory, 2010, 20(3). P. 249–268.

3. Danesi, M. The Semiotics of Emoji: The Rise of Visual Language in the Age of the Internet. London: Bloomsbury, 2016.

4. Gawne, L., McCulloch, G. Emoji as digital gestures // Language@Internet, 2019, 17, article 2.

5. Miller, H., Thebault-Spieser, J., Chancellor, S., Hecht, B., Terveen, L. Blissfully happy or ready to fight: Varying interpretations of emoji // Proceedings of ICWSM 2016. P. 259–268.

6. Peirce, C. S. Collected Papers of Charles Sanders Peirce. Vols. 1–6. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1931–1935.

7. Morris, C. W. Foundations of the Theory of Signs. Chicago: University of Chicago Press, 1938.

8. Grice, H. P. Logic and conversation // Cole, P., Morgan, J. L. (eds.). Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. New York: Academic Press, 1975. P. 41–58.

9. Sperber, D., Wilson, D. Relevance: Communication and Cognition. 2nd ed. Oxford: Blackwell, 1995.

10. Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

11. Shifman, L. Memes in Digital Culture. Cambridge, MA: MIT Press, 2014.

12. Walther, J. B., D'Addario, K. P. The impacts of emoticons on message interpretation in computer-mediated communication // Social Science Computer Review, 2001, 19(3). P. 324–347.

UO'K 81'37

NOMINATSIYA NAZARIYASI MASALALARIGA DOIR

Xakimov M. X., filologiya fanlari doktori, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nominatsiya nazariyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tilshunoslikdagi nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *nominatsiya, nominatsiya nazariyasi, nominativ birlik, nomlash jarayoni, onomasiologiya, semasiologiya, nominativ funksiya.*

Аннотация. *В данной статье исследуются становление теории номинации, этапы её развития, а также теоретико-методологические основы в современной лингвистике.*

Ключевые слова: *номинация, теория номинации, номинативная единица, процесс номинации, ономасиология, семасиология, номинативная функция.*

Abstract. *This article examines the formation of nomination theory, the stages of its development, and its theoretical and methodological foundations in modern linguistics.*

Keywords: *nomination, nomination theory, nominative unit, naming process, onomasiology, semasiology, nominative function.*

Kirish. Yevropa tilshunosligi an'analaridan kelib chiqqan nominatsiya nazariyasi zamonaviy nazariy tilshunoslikning fundamental muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur nazariya til, tafakkur

va obyektiv borliq o‘rtasidagi munosabatlarni, inson ongida shakllangan bilimlarning lisoniy birliklar orqali ifodalanish mexanizmlarini hamda predmet va hodisalarning nomlanish qonuniyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Nominatsiya hodisasining mohiyatini anglash til birliklarining shakllanishi, semantik taraqqiyoti va kommunikativ faoliyatdagi funksional imkoniyatlarini izohlashda muhim nazariy-metodologik ahamiyat kasb etadi. XX asr tilshunoslik tafakkurida nominatsiya masalasining alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi tilning nafaqat kommunikativ, balki nominativ va kognitiv mohiyatini o‘rganish bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, nomlash jarayonida insonning borliqni sezgi orqali idrok etishi, idrok etilgan axborotni tafakkurda qayta ishlashi, muayyan konseptual mazmunni shakllantirishi va uni lisoniy belgi vositasida ifodalashi nominatsiyaning murakkab kognitiv-semantik jarayon ekanini namoyon etadi.

Nominatsiya nazariyasining metodologik asoslarini ishlab chiqishda Yevropa va Amerika falsafiy-lingvistik maktablari, rus tilshunosligi hamda turkologiya va o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur ilmiy izlanishlarda nomlashning mantiqiy, semantik, strukturaviy, kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Nominatsiyani antropotsentrik va kognitiv nuqtayi nazardan o‘rganish, ayniqsa, insonning borliqni idrok etishi hamda idrok natijalarining til birliklarida voqelanish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan nominatsiya nazariyasi perseptiv leksik birliklarning shakllanishi, ularning semantik motivatsiyasi va konseptual asoslarini tadqiq etishda ham muhim ilmiy-nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nominatsiya nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida Yevropa va Amerika falsafiy-lingvistik an’analariga mansub J. Mill, J. Syorl, M. Quadri, S. Ullmann kabi olimlarning ilmiy qarashlari muhim konseptual asos bo‘lib xizmat qilgan [1]. Xususan, mazkur tadqiqotlarda nom, ma’no, referensiya va til belgisi o‘rtasidagi munosabatlar, nomlashning mantiqiy-semantik asoslari hamda onomasiologik yondashuvning metodologik tamoyillari yoritilgan. Rus tilshunosligida nominatsiya muammosi A. Aznaurova, N.D. Arutyunova, V.G. Gak, S.D. Katsnelson, L.S. Kovtun, G.V. Kolshanskiy, M.M. Kopylenko, E.S. Kubryakova, E. Kurilovich, B.A. Serebrennikov, Y.S. Stepanov, A.V. Superanskaya, V.N. Teliya, A.A. Ufimseva kabi olimlarning tadqiqotlarida izchil o‘rganilgan [2]. Ushbu tadqiqotlarda nominatsiyaning lisoniy mohiyati, leksik nomlashning turlari, birlamchi va ikkilamchi nominatsiya, nomlash jarayonining semantik hamda kognitiv mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangan. Jumladan, N.D. Arutyunova nominatsiya, referensiya va ma’no munosabatlarini tadqiq etib, nomlash jarayonining funksional-semantik xususiyatlarini ochib bergan. V.G. Gak lingvistik nominatsiyaning tipologik xususiyatlarini o‘rgangan hamda nominativ jarayonning real predmet yoki hodisani lisoniy birlikka aylantirish bilan bog‘liq kognitiv mohiyatiga e’tibor qaratgan. E.S. Kubryakova nominatsiya nazariyasini so‘z yasalishi va onomasiologik tahlil bilan bog‘liq holda tadqiq etgan bo‘lsa, V.N. Teliya ikkilamchi nominatsiya, metaforizatsiya va tilning obrazli manzarasini shakllantirish mexanizmlarini yoritgan. A.A. Ufimseva esa leksik nominatsiyaning mohiyati, uning bilish jarayoni va olamning lisoniy manzarasini shakllantirishdagi o‘rnini asoslab bergan.

Turkologiya va o‘zbek tilshunosligida nominatsiya nazariyasining ayrim jihatlari A.A. Reformatskiy, N.A. Baskakov, A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, M. Mirtojiyev, E. Begmatov, A. Nurmonov, N. Mahmudov, N. Uluqov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan [3]. Xususan, A. Hojiyev o‘zbek tilida so‘z yasalishi va nomlash mexanizmlarini tadqiq etib, so‘zning nominativ imkoniyatlari hamda struktur-semantik xususiyatlarini yoritgan. Sh. Rahmatullayev leksik birliklarning ma’no taraqqiyoti, frazeologik birliklarning semantik tabiati va ikkilamchi nominatsiya bilan bog‘liq masalalarni o‘rgangan. M. Mirtojiyev o‘zbek tili leksikasining semantik strukturasi, so‘z ma’nosining shakllanishi va taraqqiyotiga oid tadqiqotlari orqali nominativ birliklarning semantik imkoniyatlarini ochib bergan. E. Begmatovning ilmiy izlanishlarida esa o‘zbek tili onomastikasi, atoqli otlarning shakllanishi va nomlashning lingvistik xususiyatlari muhim o‘rin egallaydi. N. Mahmudov va A. Nurmonovning til va tafakkur, til va madaniyat munosabatlariga oid qarashlari nomlash jarayonining kognitiv hamda lingvomadaniy asoslarini anglashda nazariy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotlar nominatsiyani til tizimining ikkilamchi yoki yordamchi hodisasi sifatida emas, balki insonning bilish faoliyati, tafakkuri va obyektiv borliqni konseptuallashtirish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan fundamental lingvistik mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Muhokama. Nominatsiya nazariyasining mohiyatini anglashda, avvalo, nomlash jarayonining kognitiv va semantik asoslarini aniqlash muhimdir. Nominativ yondashuv doirasida til obyektiv voqelikni bevosita aks ettiruvchi oddiy vosita sifatida emas, balki real borliq elementlarini inson ongida qayta ishlash, umumlashtirish, konseptual shaklga keltirish va lisoniy belgilar orqali ifodalash imkonini beruvchi murakkab semiotik tizim sifatida talqin qilinadi. Binobarin, nominatsiya inson ongida shakllangan bilim va tasavvurlarning muayyan lisoniy shaklda voqelanish mexanizmini ifodalaydi. V.N. Teliya nominatsiyani “nominativ funksiya bilan tavsiflangan til birliklarining shakllanish jarayoni” sifatida ta’riflaydi [4]. Ushbu ta’rifda nominatsiyaning dinamik xususiyati, ya’ni nomlash jarayonining o‘zi asosiy o‘ringa chiqariladi. V.G. Gak esa nominativ jarayonni shaxsning real predmet, hodisa yoki tushunchani idrok etishidan boshlab, uni lisoniy birlik – so‘z orqali ifodalashigacha bo‘lgan murakkab kognitiv faoliyat sifatida talqin qiladi [5]. Mazkur yondashuv nominatsiyaning psixik, kognitiv va semantik bosqichlardan tashkil topgan ko‘p qatlamli hodisa ekanini ko‘rsatadi.

Nominatsiya va nom munosabatini chuqurroq anglash uchun ularni til belgisining mohiyati bilan bog‘liq holda tahlil qilish lozim. Chunki nominativ akt natijasida yuzaga keladigan nom muayyan mazmunning moddiy yoki grafik shaklda ifodalanishini ta’minlaydi. Lingvistik belgi an’anaviy semiotik yondashuvga ko‘ra, ikki asosiy komponent – ifodalovchi (signifikant) va ifodalanuvchi (signifikat) munosabatidan tashkil topadi. Ifodalovchi belgi shaklini, ifodalanuvchi esa uning mazmuniy tomonini anglatadi. Ularning o‘zaro munosabati natijasida lisoniy belgi shakllanadi va muayyan predmet, hodisa yoki tushuncha bilan bog‘lanadi.

Shunday qilib, nominatsiya jarayonini faqat predmetga nom berish bilan cheklash mumkin emas. U insonning borliqni idrok etishi, idrok natijalarini tafakkurda qayta ishlashi, muhim belgilarni tanlashi, ularni konseptual mazmun sifatida shakllantirishi va til vositasida ifodalashi bilan bog‘liq murakkab antropotsentrik jarayondir. Ayniqsa, perseptiv nominatsiyada sezgi a’zolari orqali olingan axborotning lisoniy birliklarga aylanish mexanizmi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan nominatsiya nazariyasi perseptiv leksik birliklarning semantik motivatsiyasi, nominativ xususiyatlari va lingvokognitiv tabiatini tadqiq etish uchun ham muhim nazariy asos hisoblanadi.

Xulosa. Nominatsiya nazariyasiga oid ilmiy qarashlar va tadqiqotlar tahlili mazkur hodisaning zamonaviy tilshunoslikdagi fundamental nazariy yo‘nalishlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Yevropa va Amerika falsafiy-lingvistik an’analari, rus tilshunosligi, turkologiya hamda o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar nominatsiyaning struktur-semantik, kognitiv, psixolingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashga muhim hissa qo‘shgan.

Umuman olganda, nominatsiya insonning borliqni anglash va konseptuallashtirish faoliyatining lisoniy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning kognitiv, semantik va antropotsentrik xususiyatlarini kompleks o‘rganish til birliklarining shakllanish mexanizmlarini chuqurroq anglash, xususan, perseptiv leksikaning nominativ imkoniyatlari va lingvokognitiv tabiatini ilmiy asosda yoritish uchun keng imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mill J.S. A System of Logic, Ratiocinative and Inductive: Being a Connected View of the Principles of Evidence, and the Methods of Scientific Investigation. – London: John W. Parker, 1843. – 2 vols.

2.. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 214 p.

3. Ullmann S. Semantics: An Introduction to the Science of Meaning. – Oxford: Basil Blackwell, 1962. – 278 p.

4. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл: Логико-семантические проблемы. – М.: Наука, 1976. – 383 с.

5. Гак В.Г. Языковые преобразования. – М.: Языки русской культуры, 1998. – 768 с.

UÖK 81'42:81'37

PRAGMALINGVISTIKA VA KONSPIROLOGIK DISKURS: MATNLARNING YAŞIRIN PRAGMATIK STRATEGIYALARI VA SEMANTIK STRUKTURASI

Xamidova G.P., tadqiqotçi, Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. *Mazkur maqolada konspirologik diskursning pragmalingvistik tabiati, semantik strukturasi va matn mazmunida yaşirin kommunikativ maqsadlarni şakllantiruvçi lisoniy vositalar tadqiq etiladi. Konspirologik diskurs ijtimoiy ahamiyatga ega voqea-hodisalarni yaşirin kuçlar, maxfiy kelişuvlar yoki oşkor etilmagan manfaatlar bilan izohlaşga yönaltirilgan diskursiv model sifatida tavsiflanadi. Tadqiqotda presuppozitsiya, tagma'no, implikatura, nutqiy akt, baholaş birliklari, modalizatsiya va referensial strategiyalarning yaşirin mazmunni şakllantirişdagi örni örganiladi. Özbek tilşunosligida M. Hakimov, Ş. Safarov, N. Mahmudov, A. Nurmonov va U. Rahimov tomonidan işlab çiqilgan nazariy qaraşlar xalqaro pragmalingvistika hamda tanqidiy diskurs tahlili konsepsiyalari bilan qiyosiy munosabatda yoritiladi. Konspirologik mazmunni yuzaga çiqaruvçi lisoniy mexanizmlarni aniqlaş maqsadida semantik, presuppozitsion, implikativ, strategik va daliliy tahlil bosqiçlaridan iborat mualliflik modeli taklif etiladi. Tadqiqot natijalari özbek tilidagi media matnlarning yaşirin pragmatik mazmunini örganiş, manipulyativ kommunikatsiya mexanizmlarini tavsiflaş va media savodxonligini rivojlantiriş uçun nazariy-metodologik ahamiyat kasb etadi.*

Kalit sözlar: *pragmalingvistika, konspirologik diskurs, presuppozitsiya, tagma'no, implikatura, semantik struktura, yaşirin kommunikativ maqsad, manipulyativ strategiya, diskursiv tahlil, özbek tilşunosligi.*

Аннотация. *В статье исследуются прагмалингвистическая природа конспирологического дискурса, его семантическая структура и языковые средства формирования скрытых коммуникативных целей. Конспирологический дискурс рассматривается как дискурсивная модель интерпретации общественно значимых событий через предполагаемые тайные силы, скрытые договорённости и неочевидные интересы. Анализируются пресуппозиция, подтекст, импликатура, речевые акты, оценочная лексика, модальность и референциальные стратегии. Теоретическую основу исследования составляют труды узбекских учёных М. Хакимова, Ш. Сафарова, Н. Махмудова, А. Нурмонова и У. Рахимова, сопоставляемые с концепциями зарубежной прагмалингвистики и критического дискурс-анализа. Предлагается модель анализа конспирологического текста, включающая семантический, пресуппозиционный, импликативный, стратегический и доказательный уровни. Результаты исследования могут быть использованы при изучении скрытых смыслов медиатекстов, манипулятивной коммуникации и развитии медиаграмотности.*

Ключевые слова: *прагмалингвистика, конспирологический дискурс, пресуппозиция, подтекст, импликатура, семантическая структура, скрытая коммуникативная цель, манипулятивная стратегия, узбекское языкознание.*

Abstract. *This article examines the pragmalinguistic nature of conspiratorial discourse, its semantic structure, and the linguistic resources used to construct implicit communicative intentions. Conspiratorial discourse is approaçed as a discursive model in which socially significant events are interpreted through alleged secret actors, concealed agreements, or undisclosed interests. The study focuses on presupposition, implicit meaning, conversational implicature, speeç acts, evaluative vocabulary, modality, and referential strategies. The theoretical framework incorporates researç by Uzbek linguists M. Hakimov, Ş. Safarov, N. Mahmudov, A. Nurmonov, and U. Rahimov, alongside international approaçes to pragmatics and critical discourse analysis. A five-level analytical model is proposed, comprising semantic, presuppositional, implicative, strategic, and evidential analysis. The findings provide a theoretical basis for examining implicit meanings in Uzbek media texts, identifying linguistic meçanisms of manipulative communication, and promoting media literacy.*

Keywords: *pragmalinguistics, conspiratorial discourse, presupposition, implicit meaning, implicature, semantic structure, implicit communicative intention, manipulative strategy, Uzbek linguistics.*

Kiriş. Zamonaviy kommunikativ makonda axborot oqimining jadallaşuvi, raqamli media vositalarining kengayişi va ijtimoiy tarmoqlarda turli talqinlarning özaro raqobati tilning nafaqat axborot uzatiş, balki ijtimoiy voqelikni muayyan nuqtayi nazardan talqin qiliş vositasi sifatidagi imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy hodisalar, iqtisodiy jarayonlar, ilmiy yangiliklar va jamoatçilik muhokamalariga oid matnlarda axborotning oçiq mazmuni bilan bir qatorda yaşirin ma'no qatlamlari, bilvosita ta'sir vositalari va adresatning xulosalarini muayyan yönalişga boşlovçi kommunikativ strategiyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonlarni örganişda pragmalingvistika alohida nazariy va metodologik imkoniyatlarga ega. Çunki pragmalingvistika til birliklarining luğaviy va grammatik xususiyatlari bilan çeklanmay, ularning muayyan kommunikativ vaziyatda qanday maqsadda qöllanişi, sözlovçi va adresat örtasidagi munosabatlar hamda nutqiy ta'sir mexanizmlarini ham örganadi. J. L. Ostinning nutqiy aktlar nazariyasi, J. R. Syorlning illokutiv aktlar haqidagi qaraşlari va H. P. Graysning kommunikativ implikatura konsepsiyasi matnning oçiq mazmuni bilan undan anglaşiladigan qöşimça ma'nolar örtasidagi munosabatni izohlaşda muhim nazariy asos hisoblanadi [1; 2; 3].

Özbek tilşunosligida ham til birliklarining yaşirin mazmuni, gapning semantik-pragmatik murakkabligi, presuppozitsiya va tagma'no hodisalarini örganişga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, N. Mahmudovning "Presuppozitsiya va gap" nomli tadqiqoti, A. Nurmonovning kömakçili konstruksiyalar presuppozitsiyasiga doir işlari hamda A. Nurmonov, N. Mahmudov va boşqa olimlarning *Özbek tilining mazmuniy sintaksisi* asari özbek tilidagi oçiq ifodalanmagan mazmunni aniqlaş uçun muhim ilmiy asos yaratadi [4; 5; 6]. M. Hakimovning *Özbek pragmalingvistikasi asoslari* monografiyasi va Ş. Safarovning *Pragmalingvistika* asari esa pragmatik tahlilning nazariy tamoyillarini yoritişda muhim örin tutadi [7; 8].

Mazkur tadqiqotlar doirasida işlab çiqilgan nazariy qaraşlarni konspirologik diskurs materiallariga tatbiq etiş özbek tilşunosligi uçun istiqbolli yönalişlardan biridir. Çunki konspirologik mazmunli matnlarda voqea-hodisalar ortida yaşirin sabablar mavjudligi taxmin qilinişi, rasmiy izohlar şubha ostiga olinişi, özaro aloqasi yetarliça isbotlanmagan hodisalar yagona sababiy tizimga birlaştirilişi mumkin. Bunday matnlarning pragmatik xususiyatlarini örganiş uçun ularning nafaqat nimani bildirişi, balki qanday xulosalarni yuzaga keltirişi ham tahlil qilinişi zarur.

Şu bilan birga, konspirologik diskursni tanqidiy fikrlaş yoki yaşirin kelişuvlarni dalillar asosida foş etiş bilan aynanlaştiriş mumkin emas. Yaşirin manfaatlar haqidagi tekşiriladigan dalillarga asoslangan xabar bilan dalilsiz taxminlarni yagona sababiy sxemaga birlaştiruvçi matn örtasida muhim farq mavjud. Şuning uçun uşbu maqolada konspirologik diskursning lingvistik xususiyatlari muayyan da'volarning haqiqat yoki yolğonligini oldindan belgilaş orqali emas, balki ularning semantik va pragmatik taşkil topişini tahlil qiliş asosida örganiladi.

1. Konspirologik diskursning nazariy asoslari va pragmalingvistik tabiati.

Diskurs tuşunçasi zamonaviy tilşunoslikda faqat matnning formal tuzilişini emas, balki uning yaratilişi, talqin qilinişi va muayyan ijtimoiy vaziyatda faoliyat körsatişini ham qamrab oladi. T. A. van Deyk diskursni til, ijtimoiy biliş va kommunikativ vaziyat bilan uzviy boğliqlikda örganiş zarurligini ta'kidlaydi [9]. Uşbu yondaşuv matnni alohida lingvistik birliklar yiğindisi sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy tasavvurlarni ifodalovçi va şakllantiruvçi kommunikativ faoliyat mahsuli sifatida tahlil qiliş imkonini beradi.

Konspirologik diskursni ijtimoiy ahamiyatga ega voqea-hodisalarni yaşirin sabablar, maxfiy kelişuvlar yoki oşkor etilmagan manfaatlar bilan izohlaşga moyil bölgan diskursiv model sifatida tavsiflaş mumkin. M. Barkun konspirologik tafakkurning muhim xususiyatlari sifatida voqealar ortida yaşirin faoliyat yurituvçi kuçlarni izlaş va turli hodisalarni yagona yaşirin reja bilan boğlaşga intilişni körsatadi [10].

Bunday diskursning pragmalingvistik xususiyati matnning oçiq mazmuni bilan adresat tomonidan çiqarilişi mumkin bölgan xulosalar örtasidagi munosabatda namoyon böladi. Masalan, "Rasmiy bayonotda bu tafsilot tilga olinmadi" jumlasi bevosita muayyan axborotning bayonotda mavjud emasligini bildiradi. Biroq muayyan kontekstda uşbu jumla "demak, bu tafsilot ataylab

yaşirilgan" degan xulosani yuzaga keltirişi mumkin. Ikkinçi mazmun birinçi jumlaning semantik tarkibida bevosita ifodalanmagan; u kontekst va adresatning xulosalaş jarayoni orqali şakllanadi.

Bu jihat özbek tilşunosligidagi mazmuniy sintaksis va presuppozitsiya masalalari bilan bevosita boğliq. N. Mahmudov va A. Nurmonov tadqiqotlarida gapning mazmuni uning formal tuzilişi bilan töliq çegaralanmasligi, ayrim lisoniy birliklar esa gap tarkibida bevosita ifodalanmagan qöşimça axborotni anglaşga xizmat qilişi körsatiladi [4; 5; 6]. Demak, konspirologik diskursni örganişda ham grammatik şakl, bevosita semantik mazmun va kontekst orqali anglaşiladigan pragmatik ma'no bir-biridan farqlanişi kerak.

Tadqiqot nuqtayi nazaridan konspirologik diskursning uçta özaro boğliq qatlami ajratiladi:

1. **Semantik qatlam** - matnda bevosita ifodalangan voqea, subyekt, harakat va munosabatlar.
2. **Pragmatik qatlam** - sözlovçining kommunikativ maqsadi, nutqiy harakati va kontekstdan anglaşiladigan qöşimça ma'nolar.
3. **Ijtimoiy-kognitiv qatlam** - matn faollaştirişi mumkin bölgan işonçlar, şubhalar, guruhiy tasavvurlar va voqelikni talqin qiliş modellari.

Uşbu qatlamlar özaro uzviy boğlangan. Semantik tanlovlar pragmatik xulosalarni yuzaga keltirişi, pragmatik xulosalar esa adresatning voqea-hodisa haqidagi tasavvuriga ta'sir qilişi mumkin.

A. Nurmonov, N. Mahmudov, A. Ahmedov va S. Solixöjayeva hammuallifligidagi *Özbek tilining mazmuniy sintaksisi* asari gap mazmuni, sintaktik quriliş va yaşirin axborot munosabatlarini örganiş uçun muhim nazariy manbadir [6]. Uşbu tadqiqotlar kontekst, lisoniy şakl va mazmun örtasidagi munosabatni tahlil qilişda metodologik asos bölib xizmat qiladi.

M. Hakimovning *Özbek pragmalingvistikasi asoslari* monografiyasida pragmatikaning umumiy nazariy masalalari, til belgisining pragmatik xususiyatlari va til birliklarining kommunikativ vaziyat bilan munosabati yoritilgan [7]. Ş. Safarovning *Pragmalingvistika* asari esa pragmalingvistikaning nazariy asoslari va uning etnopragmatika, sotsio-pragmatika hamda qiyosiy pragmatika kabi yönalişlari haqida muhim ma'lumot beradi [8].

U. Rahimovning tagma'no va presuppozitsiya hodisalariga bağişlangan işlari ham uşbu masalani örganişda ahamiyatlidir. Muallif mazkur hodisalarni özaro boğliq bölsa-da, alohida tahlil qiliş zarurligiga e'tibor qaratadi [11]. Bu yondaşuv konspirologik matnlarni örganişda ayniqsa muhim, çunki yaşirin mazmunning barça körinişlarini birgina presuppozitsiya tuşunçasi bilan izohlaş nazariy jihatdan yetarli bölmaydi.

Masalan, "Bu ma'lumot yana e'tibordan çetda qoldi" jumlasidagi "yana" birikmasi avval ham şunday holat yuz berganligi haqidagi taxminni faollaştiradi. Bu - presuppozitsion mazmunning yuzaga kelişiga misol. Jumla muayyan vaziyatda ma'lumotning ataylab çetga surilgani haqidagi şubhani ham uyğotişi mumkin, biroq bunday xulosa kontekstga boğliq bölib, jumlaning özidan mantiqan kelib çiqmaydi.

Şunday qilib, özbek tilşunosligida işlab çiqilgan presuppozitsiya va tagma'no nazariyalari konspirologik diskursni tahlil qiliş uçun zarur lingvistik mezonlarni beradi. Maqolaning uşbu nazariyaga qöşadigan hissasi mazkur mezonlarni konspirologik matnlarning yaşirin pragmatik strategiyalarini izohlaşga tatbiq etişdan iborat.

Xulosa. Ötkazilgan nazariy tahlil konspirologik diskursning pragmalingvistik xususiyatlari semantik mazmun, yaşirin kommunikativ niyat va adresatning xulosalaş faoliyati örtasidagi murakkab munosabatlarda namoyon bölişini körsatadi. Bunday matnlarni tahlil qilişda voqea-hodisalar haqida bevosita bildirilgan axborot bilan ular asosida şakllanişi mumkin bölgan bilvosita talqinlarni farqlaş alohida ahamiyatga ega.

Özbek tilşunosligida N. Mahmudov, A. Nurmonov, M. Hakimov, Ş. Safarov va U. Rahimov tomonidan işlab çiqilgan nazariy qaraşlar konspirologik matnlarning yaşirin mazmunini örganiş uçun muhim metodologik asos yaratadi. Xususan, presuppozitsiya va tagma'no hodisalarini farqlaş, gapning mazmuniy murakkabligini hisobga oliş va til birliklarini kommunikativ vaziyat bilan boğliq holda talqin qiliş uşbu diskursni çuqurroq tahlil etiş imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida konspirologik matnlarni semantik, presuppozitsion, implikativ, strategik va daliliy mezonlar asosida örganiş modeli taklif etildi. Mazkur model yaşirin subyektlarni ifodalaş,

sababiy munosabatlarni quriş, baholaş va modalizatsiya vositalaridan foydalaniş hamda guruhiy qarama-qarşiliklarni şakllantiriş kabi diskursiv mexanizmlarni tizimli tahlil qilişga yordam beradi.

Şu bilan birga, muayyan lisoniy vositaning mavjudligi matnning manipulyativ yoki konspirologik xususiyatga egaligini yakka holda isbotlamaydi. Bunday xulosa çiqariş uçun kontekst, kommunikativ maqsad, dalillarning sifati va muqobil izohlar ham hisobga olinişi zarur.

Umuman olganda, konspirologik diskursni özbek pragmalingvistikasi nuqtayi nazaridan tadqiq etiş presuppozitsiya, tagma'no va diskursiv strategiyalar haqidagi nazariy qaraşlarni yangi materiallar bilan boyitadi. Kelgusida mazkur modelni özbek tilidagi autentik media matnlar korpusi asosida empirik tekşiriş, pragmatik körsatkiçlarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qiliş uşbu yönalişning ilmiy istiqbolini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Austin, J. L. *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press, 1962.

2. Searle, J. R. *Speeç Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

3. Grice, H. P. Logic and Conversation. In: Cole, P., Morgan, J. L. (eds.). *Syntax and Semantics. Vol. 3: Speeç Acts*. New York: Academic Press, 1975. P. 41–58.

4. Mahmudov, N. Presuppozitsiya va gap // *Özbek tili va adabiyoti*. 1986. № 6. B. 28–31.

5. Nurmonov, A. Kömakçili konstruksiyalar presuppozitsiyasi // *Özbek tili va adabiyoti*. 1986. № 6. B. 42–45.

6. Nurmonov, A., Mahmudov, N., Ahmedov, A., Solixöjayeva, S. *Özbek tilining mazmuniy sintaksisi*. Toşkent: Fan, 1992.

7. Hakimov, M. *Özbek pragmalingvistikasi asoslari*. Toşkent: Akademnaşr, 2013.

8. Safarov, Ş. *Pragmalingvistika*. Toşkent: 2008.

9. van Dijk, T. A. Principles of Critical Discourse Analysis // *Discourse & Society*. 1993. Vol. 4, No. 2. P. 249–283.

10. Barkun, M. *A Culture of Conspiracy: Apocalyptic Visions in Contemporary America*. 2nd ed. Berkeley: University of California Press, 2013.

11. Rahimov, U. Tagma'no va presuppozitsiya // *Özbek tili va adabiyoti*. 2005. № 5. B. 32

12. van Dijk, T. A. *Ideology: A Multidisciplinary Approaç*. London: SAGE Publications, 1998.

UO'K 811.111'37:811.512.133

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SADOQAT" KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV MODELLARI VA ULARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Xamrayeva Ch. N., PhD, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida "sadoqat" konseptining lingvokognitiv modellari va milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy-chog'ishtirma usulda tahlil qilinadi. Tadqiqotda loyalty, faithfulness, devotion, trust va sadoqat, vafo, vafodorlik, ishonch, fidoyilik birliklari, shuningdek, do'stlik va vafo haqidagi maqollar semantik-kognitiv jihatdan tavsiflanadi. Komponent tahlili, konseptual metaforani aniqlash va kontekstual qiyoslash asosida sadoqatning barqaror aloqa, sinov, axloqiy majburiyat, himoya hamda qadriyatga sodiqlik modellari farqlanadi. Natijalar ikki tilda umumiy konseptual asos mavjudligini, biroq muayyan lisoniy birlik va obrazlarning semantik ko'lami aynan mos tushmasligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *sadoqat, lingvokognitiv model, konseptual metafora, aksiologiya, semantik maydon, qiyosiy tilshunoslik, paremiologiya.*

Аннотация. *В статье представлен качественный сопоставительный анализ лингвокогнитивных моделей верности в английском и узбекском языках. Материалом служат лексические единицы loyalty, faithfulness, devotion, trust и sadoqat, vafo, vafodorlik, ishonch, fidoyilik, а также отдельные пословицы о дружбе и преданности. Применяются компонентный анализ, выявление концептуальных метафор и контекстуальное сопоставление. Выделены модели устойчивости отношений, испытания, нравственного обязательства, защиты и приверженности ценностям. Установлено наличие общих концептуальных оснований при отсутствии полного совпадения семантического объёма отдельных языковых средств.*

Ключевые слова: *верность, лингвокогнитивная модель, концептуальная метафора, аксиология, семантическое поле, сопоставительная лингвистика, паремиология.*

Abstract. *This article provides a comparative qualitative analysis of the linguocognitive models of loyalty in English and Uzbek. The material comprises lexical units such as loyalty, faithfulness, devotion, trust and sadoqat, vafo, vafodorlik, ishonch, fidoyilik, together with selected proverbs concerning friendship and fidelity. Componential analysis, conceptual metaphor identification and contextual comparison are applied to distinguish models of relational stability, testing, moral obligation, protection and commitment to values. The analysis indicates shared conceptual foundations but no complete equivalence between individual expressions and their associative ranges.*

Keywords: *loyalty, linguocognitive model, conceptual metaphor, axiology, semantic field, comparative linguistics, paremiology.*

Kirish (introduction): Antropotsentrik tilshunoslikda axloqiy qadriyatlarni nomlovchi birliklar lug‘aviy ma’no bilan birga tajriba, ijtimoiy me’yor va baholash usullarini ham ifodalaydi. Ko‘p qatlamli *“sadoqat”* konsepti kishilararo munosabatlarda vafo, ishonchlilik, majburiyatga amal qilish va qiyinchilikda aloqani saqlash bilan bog‘liq. Inglizcha *loyalty* unga ma’no jihatidan qisman mos keladi. Faithfulness va devotion ham ayrim kontekstlarda shu semantik maydonga kiradi. Bu leksemalar uslubi va qo‘llanish doirasiga ko‘ra farqlanadi. Lakoff va Johnson nazariyasiga ko‘ra, mavhum tajriba ko‘pincha aniqroq tajriba sohasi orqali anglanadi [1, 3–13-b.]. Kövecses metaforik modellarning farqlanishini madaniy tajriba va kommunikativ kontekst bilan bog‘laydi [2, 197–220-b.]. Wierzbicka do‘stlikka oid birliklarni qiyoslashda ularning ijtimoiy-madaniy ma’nosini har bir tilda alohida hisobga olish zarurligini asoslaydi [3, 32–124-b.]. Avvalgi tadqiqotlarda «sadoqat»ning o‘zbek tilidagi timsollar va paremiologik birliklarda aks etishi [4, 94–109-b.] hamda ingliz va o‘zbek do‘stlik maqollarining qiyosi [5, 102–105-b.] yoritilgan. Maqolaning maqsadi har ikki tilga tatbiq etish mumkin bo‘lgan lingvokognitiv modellarni aniqlash, ularning ifoda vositalarini qiyoslash va lingvistik dalillar bilan asoslanadigan farqlarni ko‘rsatishdir.

Materiallar va metodlar (methods): Tadqiqot sifat yondashuvi asosidagi qiyosiy-semantik tahlilga tayandi. Inglizcha loyalty, faithful/faithfulness, devotion, trust hamda o‘zbekcha sadoqat, sodiq, vafo, vafodorlik, ishonch, fidoyilik birliklari, do‘stlik va vafo haqidagi paremiologik ifodalar hamda manbalarda tavsiflangan timsollar o‘rganildi. Dastlab va’daga sodiqlik, ishonchlilik, hissiy yaqinlik, burch va sinov semalari ajratildi, lisoniy obrazlarning manba va maqsad domenlari belgilandi. So‘ng ikki til materiali qiyinchilik sharoitida aloqaning saqlanishi mezoni bo‘yicha qiyoslanib, tarjima ekvivalentligi baholandi. Tahlil konseptual metaforaning kognitiv talqiniga [1, 3–13-b.] va madaniy variativlikka oid ishlarga [2, 197–220-b.], [9, 183–198-b.] tayandi. Taklif etilgan modellar tanlangan misollarni tizimlashtiradi. Chastotaviy va umumxalq miqyosidagi xulosalar uchun reprezentativ korpus zarur.

Natijalar (results): Maqoladagi ishchi ta’rifga ko‘ra, “sadoqat”ning minimal semantik yadrosi shaxsning boshqa shaxs, guruh, tamoyil yoki majburiyat bilan barqaror aloqasini saqlashidan iborat. Inglizcha *loyalty* odatda munosabat yoki mansublikning davomiyligini, faithfulness va’daga yoki munosabatga sodiq qolishni, devotion esa kuchli bag‘ishlanganlikni ifodalaydi. O‘zbekcha *sadoqat* va *vafo* ko‘pincha axloqiy baho bilan bog‘liq. *Ishonch* munosabatning kognitiv-psixologik sharti hamda sadoqatga yaqin alohida konsept sifatida talqin qilinadi. Har ikki tilda sadoqat shaxslararo munosabatlarda, tamoyil yoki e’tiqodga sodiqlikda (faithful to one’s principles, o‘z e’tiqodiga sodiq) hamda Vatanga mansublikda (loyalty to one’s country, Vatanga sadoqat) ifodalanadi. “A friend in need is a friend indeed” va “Do‘st boshga kulfat tushganda bilinadi” ifodalarida qiyinchilik do‘stlikning chinligini ko‘rsatuvchi sinovdir. Do‘stlik, dushmanlik va manfaat motivlarining bog‘liqligi qiyosiy tadqiqotlarda ham qayd etilgan [5, 102–105-b.].

“A faithful friend is a strong defence” ifodasida do‘st “himoya” manba domeni orqali tasvirlanadi. O‘zbek tilidagi Vatanga, elga va yurtga sadoqat motivlari hamda zoonim, fitonim va tabiat hodisalariga asoslangan paremiologik timsollar ilmiy adabiyotda o‘rganilgan [4, 94–109-b.]. Bu timsollar sadoqatni konkretlashtiradi. “Do‘stning achchiq gapi” kabi ifodalar kontekstga qarab samimiy ogohlantirishni yoki do‘stlik munosabatida yuzaga kelgan ranjni anglatishi mumkin.

Obrazning muayyan tilga xosligini asoslash uchun birliklarning nutqiy registri, ijtimoiy konteksti va baholash yukini qiyoslash lozim.

Muhokama (discussion): Natijalar sadoqatni to‘rt kognitiv parametr asosida qiyoslash imkonini ko‘rsatdi. Bular aloqaning davomiyligi, qiyinchilikda namoyon bo‘ladigan xulq-atvor, ahd yoki me’yorga rioya etish hamda sadoqat obyektining tabiati (shaxs, jamoa yoki g‘oya)dir. Kövecses madaniy variativlikni individual, vaziyatga oid va ijtimoiy omillar bilan ham bog‘laydi [2, 197–220-b.]. Burchni ingliz tiliga, mehrni o‘zbek tiliga xos belgi sifatida qat’iy ajratish uchun kengroq lingvistik dalillar zarur. Wierzbickaning do‘stlik leksikasiga oid yondashuvi ma’nosi yaqin birliklarning semantik tuzilishini har bir tilda alohida o‘rganishni taqozo etadi [3, 32–124-b.]. Tarjimada *loyalty* “sadoqat”ning odatiy muqobillaridan biridir. “Ahdiga vafo qilmoq” kontekstga qarab “keep one’s promise” yoki “remain faithful to one’s commitment”, “fidoyilik” esa “self-sacrifice” yoki “devotion” bilan ifodalanishi mumkin. Konseptual ekvivalentlikni baholashda leksik moslik bilan birga kontekst hamda frazeologik va paremiologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari hisobga olinadi [10, 186–190-b.]. Maqolaning ilmiy yangiligini belgilashda «sadoqat» konseptining o‘zbek tilidagi avvalgi aksiolingvistik va sotsiopragmatik talqinlarini hisobga olish lozim [4, 94–109-b.; 6, 11–13-b.].

Xulosa (conclusion): Ingliz va o‘zbek tillaridagi “sadoqat” konsepti shaxslararo aloqani saqlash, sinovga bardoshlilik, ahdga rioya qilish, himoya va qadriyatlarga bog‘lanish kabi o‘zaro tutash kognitiv modellar orqali talqin qilinishi mumkin. Tanlangan leksik hamda paremiologik misollar har ikki tilda muayyan umumiy konseptual tuzilmalarni namoyon etadi. Biroq loyalty, faithfulness, devotion va sadoqat, vafo, ishonch kabi birliklarning ayni bir kontekstdagi semantik qamrovi doimo bir xil emas. Milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlashda obrazlarning oddiy ro‘yxati yetarli emas: ular bilan bog‘liq baho, nutqiy vaziyat, obyekt va janr ham hisobga olinishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lakoff, G., Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press. (Tahlilda foydalanilgan qism: pp. 3–13.)

2. Kövecses, Z. (2010). Metaphor and Culture. Acta Universitatis Sapientiae, Philologica, 2(2), 197–220.

3. Wierzbicka, A. (1997). Lexicon as a Key to Ethno-Sociology and Cultural Psychology: Patterns of “Friendship” Across Cultures. In: Understanding Cultures Through Their Key Words. Oxford: Oxford University Press, pp. 32–124. DOI: 10.1093/oso/9780195088359.003.0002.

4. Uzakova, X. (2024). “Sadoqat” konseptining maqollarda zoonimlar, o‘simlik nomlari, tabiat hodisalari asosidagi timsollar orqali ifodalanishi. Uzbekistan: Language and Culture, 2024/1, 94–109.

5. Yusupjanova, F., Ibrohimova, Z. (2023). O‘zbek va ingliz tillarida do‘stlik bilan bog‘liq maqollarning lingvistik xususiyatlari. Yangi O‘zbekiston talabalari axborotnomasi, 1(5, Part 2), 102–105. DOI: 10.70413/yota-v01-i05-p2-028.

6. Qurbonov, E. (2026). Aksiolingvistikada “sadoqat” konseptining sotsiopragmatik tadqiqi. Filologiya va pedagogika, 1(20), 11–13.

7. Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Press.

8. Gibbs, R. W., Jr. (1996). Why Many Concepts Are Metaphorical. Cognition, 61(3), 309–319. DOI: 10.1016/S0010-0277(96)00723-8.

9. Kövecses, Z. (2002). Cultural Variation in Metaphor and Metonymy. In: Metaphor: A Practical Introduction. Oxford: Oxford University Press, pp. 183–198. DOI: 10.1093/oso/9780195145113.003.0013.

10. Umaraliyeva, M. M., Sobirova, M. (2023). O‘zbek va ingliz tillarida lingvokulturologik hodisalarning qiyosiy tahlili. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3(5), 186–190.

UO‘K 82.03:821.112.2-1

ABDULLA SHERNING TARJIMONLIK MAHORATI: HAYNRIH HAYNE MISOLIDA

Xaqnazarova S. A., PhD, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek shoiri, faylasufi va tarjimoni Abdulla Sherning tarjimonlik ijodi tadqiq etilib, nemis lirikasini o‘zbek tiliga o‘girishdagi badiiy mahorati nimada namoyon bo‘lishi ko‘rib chiqiladi. I. Leviy, Y. Nayda, V. Koller nazariyalari hamda o‘zbek tarjimashunosligi (G‘. Salomov, Q. Musayev) asosida uchta parcha qiyosiy tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Sher, Haynrih Hayne, badiiy tarjima, ta’sir ekvivalentligi, “Qo‘shiqlar kitobi”, “Germaniya. Qish ertagi”, sonet, o‘zbek-nemis adabiy aloqalari.*

Аннотация. *В статье исследуется переводческая деятельность узбекского поэта, философа и переводчика Абдуллы Шера, а также рассматриваются особенности его*

художественного мастерства при переводе немецкой лирики на узбекский язык. На основе теоретических концепций И. Леви, Ю. Найды, В. Коллера, а также трудов узбекских исследователей перевода Г. Саломова и К. Мусаева проводится сравнительный анализ трёх фрагментов.

Ключевые слова: *Абдулла Шер, Генрих Гейне, художественный перевод, эквивалентность воздействия, "Книга песен", "Германия. Зимняя сказка", сонет, узбекско-немецкие литературные связи.*

Abstract. *The article examines the translation work of the Uzbek poet, philosopher, and translator Abdulla Sher, focusing on his artistic mastery in translating German poetry into Uzbek. Based on the theoretical approaches of J. Levý, E. Nida, and W. Koller, as well as the contributions of Uzbek translation studies scholars G. Salomov and Q. Musayev, three excerpts are subjected to comparative analysis.*

Keywords: *Abdulla Sher, Heinrich Heine, literary translation, equivalent effect, Book of Songs, Germany: A Winter's Tale, sonnet, Uzbek-German literary relations.*

Kirish. Badiiy tarjima asrlar davomida madaniyatlararo aloqalarning eng muhim tomonlaridan biri bo'lib kelmoqda. XX asr o'zbek adabiyoti uchun G'arbiy Yevropa she'riyatini tarjima qilish shakl va uslub maktabiga aylandi. Cho'lpon, Oybek, Mirtemir, keyinchalik Erkin Vohidov va Abdulla Oripov kabi shoirlar Gyote, Haynrih Hayne, Pushkin va Dante asarlarini o'zbek tiliga o'girib, ona tilimizning ifoda imkoniyatlarini kengaytirdilar. Abdulla Sher tarjimon sifatida, avvalo, Bayronning "Don Juan" she'riy romani, Haynrih Hayne "Qo'shiqlar kitobi" va "Germaniya. Qish ertagi" dostoni tarjimalari bilan tanilgan. Shuningdek, Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Axmatova, Charens va Tvardovskiy asarlaridan ham tarjimalar qilgan. Ushbu tarjimalarning ahamiyatiga qaramay, Abdulla Sherning tarjimonlik faoliyati hozirgacha asosan qisqa va alohida kuzatishlar doirasida o'rganilgan. Shu bois maqolaning maqsadi Haynrih Hayne asarlaridan tanlangan tarjimalar misolida Abdulla Sherning o'zbek tilida asl nusxaning badiiy ta'sirini qayta yaratishda qanday vositalardan foydalanganini aniqlashdan iborat [1; 2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarjima o'quvchini muallifga yaqinlashtirishi kerakmi yoki muallifni o'quvchiga yaqinlashtirishi lozimmi, degan masalani F. Shleyermaxer 1813-yildagi "Tarjimaning turli usullari haqida" nomli akademik nutqida ko'targan. Zamonaviy tarjimashunoslikda bu qarama-qarshilik yanada rivojlantirildi. Y. Nayda formal va dinamik ekvivalentlikni farqlaydi. Dinamik ekvivalentlikda qabul qiluvchining xabarga munosabati, asosan, dastlabki o'quvchining asl matnga munosabati bilan bir xil bo'lishi lozim. V. Koller ekvivalentlikni denotativ, konnotativ, matniy-me'yoriy, pragmatik va formal-estetik turlarga ajratadi. Lirik tarjimalarni tahlil qilishda V. Kollerning formal-estetik ekvivalentlik kategoriyasi ayniqsa muhim, chunki she'rda qofiya, ritm va obrazlilikning o'zi ham mazmun tashuvchisi hisoblanadi. Biroq lirikada ekvivalentlikning barcha darajalariga bir vaqtning o'zida erishish kamdan-kam hollarda mumkin. Tarjimon ularning o'zaro ustuvorlik tartibini belgilashga majbur bo'ladi. Aynan shu ierarxiya tarjimonning individual uslubini belgilaydi. I. Leviy badiiy tarjimani "san'at turi" deb ta'riflab, tarjimon doimo o'yin nazariyasidagi yurishlarga o'xshash qarorlar qabul qilishini ta'kidlaydi: bir o'rinda qilingan har bir tanlov keyingi o'rinlardagi imkoniyatlarni cheklaydi. Rus tarjimashunosligi an'anasida E. Etkind lirik tarjimani alohida satrni emas, balki badiiy vositalar tizimini qayta yaratish jarayoni sifatida tushungan [3].

Abdulla Sher tarjimalariga bevosita bag'ishlangan tadqiqotlar esa ko'p emas. M. Bozorova Abdulla Sher tarjimasidagi Haynening ikki sonetini ko'rib chiqib, tarjimon „shoir ruhiyatiga kirib borganini" ta'kidlaydi [2]. A. Akbarov „Qish ertagi"ning dastlabki bandini Abdulla Sher (1984) va A'zam Ismoil (2019) tarjimalarida qiyoslaydi. Q. Yo'lchiyev Abdulla Sherning o'z sonetlarini tahlil qiladi. Demak, yuqorida qayd etilgan kategoriyalar hozirgacha Abdulla Sherning Haynedan qilgan tarjimalarini aniq tahlil qilishda qo'llanmagan.

Natijalar va muhokama. "Qish ertagi" dostonining boshlanishi. Haynening "Germaniya. Qish ertagi" (1844) dostoni xalq qo'shig'i ohangidagi band bilan boshlanadi:

Im traurigen Monat November war's,

Die Tage wurden trüber,
Der Wind riß von den Bäumen das Laub,
Da reist’ ich nach Deutschland hinüber.

*(H. Hayne, I bob. So‘zma-so‘z tarjimasi: „Bu qayg‘uli noyabr oyida edi, / kunlar tobora bulutli bo‘lib borardi, / shamol daraxtlardagi barglarni uzib tashlardi, / shunda men Germaniyaga yo‘l oldim“.)*Abdulla Sher ushbu bandni quyidagicha tarjima qiladi:

Noyabrning ruhsiz, tund chog‘i,
Osmon qovoq uygan bir sana.
Sovuq yomg‘ir ostida kirdim
Germaniya bag‘riga yana.

(So‘zma-so‘z tarjimasi: “Noyabrning ruhsiz, tund paytida, / osmon qovoq uygan bir kunda, / sovuq yomg‘ir ostida yana / Germaniya bag‘riga kirdim”.)

Dastlabki ikki misra mazmun jihatidan asl nusxaga yaqin. Biroq Haynening “Die Tage wurden trüber” (“kunlar tobora bulutli bo‘lib borardi”) degan xolis bayoni Abdulla Sher tomonidan osmon qovoq uygan obrazli jonlantirishiga almashtirilgan. Bu o‘zbek tilida keng qo‘llanadigan obrazli ifoda bo‘lib, ma’yus kayfiyatni o‘zbek o‘quvchisiga bevosita his qildiradi. Ruhsiz va tund sifatlari “qayg‘uli” so‘zining ma’nosini kuchaytirib, uni oydan lirik qahramonning ruhiy holatiga ko‘chiradi. Daraxtlardagi barglarni uzayotgan shamol tasviri uchinchi misrada “sovuq yomg‘ir” bilan almashtirilgan. Biroq eng muhim jihat yakuniy misradadir: neytral “Da reist’ ich nach Deutschland hinüber” (“shunda men Germaniyaga yo‘l oldim”) o‘rniga “Germaniya bag‘riga yana” ifodasi keladi. Bag‘ir so‘zi Parijda o‘n ikki yil muhojirlikda yashagan insonning vatanga qaytishi bilan bog‘liq tasavvurni uyg‘otadi, yana ravishi esa aynan qaytish ma’nosini ta’kidlaydi. Shu tariqa tarjimon Hayne matnida faqat kontekstdan anglashiladigan mazmunni ochiq ifodalaydi [1].

She’riy shakl ham saqlangan: Hayne xa-xa qofiyalanish tartibidan (trüber – hinüber) foydalanadi; Abdulla Sher ham faqat ikkinchi va to‘rtinchi misralarni qofiyalaydi. Misralar sakkiz-to‘qqiz bo‘g‘indan iborat bo‘lib, o‘zbek xalq she’riyatining an’anaviy barmoq vazniga mos keladi. Demak, shoir Haynening xalqona qo‘shiq bandi uchun o‘z folklor an’anasidan funksional muqobil topadi. Bu V. Koller talqinidagi formal-estetik va pragmatik ekvivalentlikning yaqqol namunasidir. A. Akbarov tarjimani „nihoyatda jozibali va o‘zbekona jaranglaydigan“ deb baholaydi [1].

Tahlil natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Abdulla Sherning tahlil qilingan parchalardagi tarjima usullari

Asl nusxa (Hayne)	Tarjima (Abdulla Sher)	Qo‘llangan usul	Ekvivalentlik darajasi
“Die Tage wurden trüber”	osmon qovoq uygan bir sana	Jonlantirish, idiomatik aniqlashtirish	Konnotativ, pragmatik
„Da reist’ ich nach Deutschland hinüber“	Germaniya bag‘riga yana	Oydinlashtirish, hissiy kuchaytirish	Pragmatik
Xalq qo‘shig‘i bandi, xaxa qofiyasi	Barmoq vazni (8–9 bo‘g‘in), xaxa qofiyasi	Shaklning funksional almashtirilishi	Formal-estetik
„den Kopf recht hoch zu tragen“	boshimni tutaman doimo mag‘rur	Modulyatsiya: obraz → baho	Konnotativ
“räuchre nicht den Klötzen”	egilib taqmayman to‘nkaga gultoj	Ikki ma’noli muqobil, madaniy moslashtirish	Denotativ, konnotativ

Tarjima tarixiga murojaat qilish ham umumiy manzarani to‘ldiradi. A. Akbarov ma’lumotlariga ko‘ra, Abdulla Sher “Qish ertagi”ni o‘zbek tiliga birinchi bo‘lib, rus tilidan tarjima qilgan. Biografik manbalarda esa uning tarjimalari “nemis tilidan” deb ko‘rsatiladi.

Xulosa. Tahlil Abdulla Sherning tarjimonlik mahorati uch asosga tayanishini ko‘rsatdi. Birinchidan, u asl nusxaning shaklini – band tuzilishi, qofiyalanish tartibi va sonet qurilishini izchil saqlaydi hamda nemis xalqona qo‘shiq she’ri uchun o‘zbek barmoq vaznidan funksional muqobil topadi. Ikkinchidan, obrazlarni so‘zma-so‘z tarjima qilmay, ularni o‘zbek tilining idiomatik obrazlar tizimiga ko‘chiradi (osmon qovoq uygan, bag‘ir, mag‘rur). Uchinchidan, ko‘p ma’noli so‘zlarni xuddi shunday ko‘p ma’noli muqobillar bilan bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akbarov A. A. Vatanga muhabbatning lirik ifodasi // FarDU ilmiy xabarlari. 2025. № 2.

2. Bozorova M. A. Characteristics of Heinrich Heine's Sonnets in Uzbek Translation // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. 2021. Vol. 1, Issue 10. P. 621–624.
3. Etkind E. G. Poeziya i perevod. M.; L.: Sovetskiy pisatel, 1963.
4. Heine H. Buch der Lieder. Hamburg: Hoffmann und Campe, 1827; Heine H. Deutschland. Ein Wintermärchen. Hamburg: Hoffmann und Campe, 1844.

UO'K 821.512.133.09

ŞUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA TIL FENOMENI HAMDA MILLIY KOLORIT

Xayriyeva N., tayanç doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Mazkur maqolada taniqli özbek yozuvçisi Şukur Xolmirzayevning "Kök dengiz" hikoyasi fenomenologik yondaşuv hamda milliy kolorit tamoyillari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda oltoy va özbek xalqlari örtasidagi lisoniy, madaniy va tarixiy umumiyliklar hikoya syujetiga singdirilgan oltoy xalq topişmoqlari ("tabişkak"), qadimiy turkiy qatlamga xos iboralar va lingvistik faktlar orqali oçib beriladi.*

Kalit sözlar: *fenomen, milliy kolorit, oltoy tili, qadimiy turkiy qatlam, topişmoq (tabişkak), supurgi, yarador kiyik.*

Аннотация. *В статье на основе феноменологического подхода и принципов национального колорита анализируется рассказ известного писателя Шукура Холмирзаева "Синее море" ("Kök dengiz"). В исследовании через алтайские народные загадки ("табышкак"), выражения древнетюркского пласта и лингвистические факты, интегрированные в сюжет, раскрываются языковые, культурные и исторические общности алтайского и узбекского народов.*

Ключевые слова: *феномен, национальный колорит, алтайский язык, древнетюркский пласт, загадка (табышкак), веник, раненый косуленок.*

Abstract. *The article analyzes the short story "The Blue Sea" ("Kök dengiz") by the famous writer Shukur Kholmirzayev based on the phenomenological approach and principles of national color. The research reveals the linguistic, cultural, and historical commonalities between the Altai and Uzbek peoples through Altai folk riddles ("tabişkak"), ancient Turkic idioms, and linguistic facts integrated into the plot.*

Keywords: *phenomenon, national color, Altai language, ancient Turkic layer, riddle (tabişkak), broom, wounded deer.*

Kiriş. Badiiy matn tahlilida milliy kolorit va ijodkorning til fenomenini örganiş hozirgi adabiyotşunoslikning eng dolzarb va fundamental yönalişlaridan biri hisoblanadi. Har qanday haqiqiy san'at asari şunçaki voqealar bayoni emas, balki yozuvçi dunyoqaraşi, uning falsafiy konsepsiyasi va u mansub bölgan millat tafakkurining lisoniy-semantik in'ikosidir. Şu bois, adabiy asar qa'ridagi ma'nolarni tölaqonli anglaş uçun, avvalo, uning asosida yotgan til hodisalarini öziga xos vizual va ma'naviy fenomen sifatida baholaş lozim.

Muhokama va natijalar

Umrzoq akaning aytişiça, Oltoyga örislar bilan kirib kelgan yemakmi, narsa-predmetmi borki, ular öz nomi bilan atalarkan. Masalan, *"soat"*ni – *"ças"*, *"juxari"*ni – *"kukuruza"* kabi. Supurgini körib, *"sibirgi"* degan Umrzoq aka direktorga yana bir topişmoq aytdi: *"Yuz qöydi bir çivikla kajirdim"*. Bu ne, tap? [1, 75] deya murojaat qilib, agar topişolmasa, özimizdagi kabi şahar berişlari haqida ogohlantiradi. Oltoyda topilmagan jumboq uçun yo "şahar beriş" yo kulgili laqab bilan atalişga rozi böliş kabi "jazo turlari" borligini ta'kidlaydi. Nihoyat özi javobni qölida kötarib körsatdi: *"sibirgi"* edi. *"Yuz qöydi bir çivikla kajirdim"* (Yuz qöyni bir çiviq bilan qaytardim / haydadim) – bu maşhur özbek va turkiy xalq topişmoğining qadimiy (oltoy, xakas yoki qadimgi qipçoq şevalariga xos) variantidir. Uşbu qadimiy va ramziy topişmoqning ikki xil javobi hamda öziga xos izohi bor. "Kök dengiz" hikoyasida topişmoqning javobi *supurgi* deb körsatiladi. Unda *"Yuz qöy" (yuz qöydi):* supurgini taşkil etgan yuzlab mayda şoxçalar, çöplar yoki yerdagi tökilib yotgan son-sanoqsiz xazonlar, çiqindilar. *"Bir çiviq" (bir çivikla):* supurgining dastasi yoki uni bir joyga jamlab boğlab turuvçi asosiy boğiç (bitta tayoq). *"Kajirdim" (qaytardim/haydadim):* öşa bitta dasta yordamida

yuzlab çöp-xazonlarni bir zumda bir joyga supurib, haydab yuboriş ma'nosida. Umumturkiy va özbek xalq oğzaki ijodida bu topişmoq köproq *"Ming qöyimni bir çiviq bilan haydadim"* şaklida uçraydi va uning javobi *ustara* (soç-soqol oladigan asbob) hisoblanadi. Bunda *"Yuz qöy / Ming qöy":* inson boşidagi yoki yuzidagi yuzlab, minglab mayda soç va soqol tolalari. *"Bir çiviq":* ustaraning yupqa va ötkir tiği. *"Kajirdim":* öşa birgina tiğ bilan yuzlab tuklarni bir marta tortib, qirib (haydab) taşlaş ramzidir. *Yuz qöydi* – yuzta qöyni (turkiy tillarda tuşum kelişigi qöşimçasi tuşib qolişi odatiy hol) *bir çivikla* – birgina çiviq (tayoqça, xipçin) bilan hamda *kajirdim / qajirdim* – qaytardim, haydadim, bir joyga jamladim degan ma'noni anglatadi. Direktor Umrzoq akaga qadrdon bölib ketganidan bu ham özimizning uruğdan deb, uylantirib qöyişni taklif etadi. Roviydan "Kölonqozi yok qara at" (Kölankasi yöq qora ot) [1, 77] nimaligini söraydi. *Öra, ör, yertöla* ekan javobi. Hikoyada *"Qiziq elik yatgan yerdin ölon çikpas!* [1, 81] Izohi: *"Yarador kiyik (eslik/elik) yotgan joydan koʻkat (oʻt) çiqmas"* – uşbu iqtibos qadimgi turkiy maqol yoki matallarga borib taqaladi. Bunday iqtiboslar, xususan, Mahmud Koşgʻariyning "Devonu lugʻatit turk" [2] asarida va boşqa qadimgi bitiklarda uçraydi. Unga köra, yovvoyi tabiat va gunoh asorati sanalib, qadimgi turkiy dunyoqaraşda *jayron, kiyik yoki elik* goʻzallik, begunohlik va ojizlik ramzi boʻlgan. Ularga ozor beriş, qonini toʻkiş ogʻir gunoh sanalgan. Şuningdek, adolatsizlik qargʻişi nuqtayi nazardan bu ibora zulm va nohaqlik qilingan, begunoh mavjudotning qoni toʻkilgan joy barakadan mahrum boʻlişini, u yerda hayot unmasligini anglatadi. Zulm va vahşiylik ortidan faqatgina vayronalik va unumsizlik (ma'naviy qahatçilik) qolişiga işora qiladi. Parçada *qiziq / qizigʻ – "qizigan", "issiq qon toʻkilgan"* yoki *"yarador"* ma'nosida keladi. *Elik /elik* – kiyiksimon hayvon, yovvoyi eçki yoki yoş kiyik. *Yatgan yerdin* – yotgan joyidan. *Ölon / oʻlan / oʻlaň* – yam-yaşil oʻt, maysa, hayot nişonasi. *Çikpas / çiqmas* – unib çiqmaydi kabi ma'nolarni ifodalaydi. Umuman olganda, *qadimgi turkiy maqol izohi quyidagiça: "Yarador kiyik yotgan (qoni toʻkilgan) joydan maysa unib çiqmaydi".* Asarda uşbu ibora qilingan zulm va gunohning ogʻirligini, begunohlar uvoli urgan joyda baraka va hayot boʻlmasligini ifodalaş uçun koʻçma ma'noda qoʻllangan. *"Erten tura – tört buttu" (Ertalab tursa – tört oyoqli)* [1, 68]. Hikoyada keltirilgan uşbu topişmoqning javobi – *odam*. Bu örinda "ertalab" yoki "tong" iborasi inson umrining boşlanişi, ya'ni uning bolalik davrini anglatadi. Çaqaloq va yoş bola dastlab emaklab, yerda tört oyoqlab (ikki qöl va ikki oyoqda) harakat qilişi nazarda tutilgan. *"Engride uç buttu"* (Oqşomda/keçqurun – uç oyoqli): "Oqşom" yoki "kun botişi" – inson umrining yakuni, ya'ni uning keksalik davri ramzidir. Inson qariganida kuçi ketib, hassaga tayanib yurişi, natijada ikki oyoğiga uçinçi tayanç — hassa qöşilib, "uç oyoqli" bölib qolişi tasvirlangan. *Jahon folklorida bu obraz "Sfenks topişmoği" nomi bilan ham maşhur bölib, unda insonning yigitlik (peşin) davridagi ikki oyoqli holati ham kiritiladi, biroq oltoy variantida faqat tong va oqşom qarama-qarşiligi saqlangan.* Özbek tili va qadimiy oltoy şevasi örtasidagi yaqinlikni körsatuvçi lisoniy faktlar: erten tura: ertalab, saharda (hozirgi özbek tilida *"erta", "ertaga", "erta tong"* sözlari bilan birdir). *Engride*: Oqşomda, ğira-şira tuşganda, kun botganda. *But / Buttu: Oyoq / oyoqli*. Hozirgi özbek tilining jonli sözlaşuvida va ba'zi şevalarida ham "*but*" sözi *oyoq* yoki *son* ma'nosida faol qöllanadi. *"Ölim"* tuşunçasini töğridan-töğri aytişdan qörqiş va unga bölgan asriy andişa, uşbu dahşatni yumşatiş ehtiyoji uni ta'm bildiriş xususiyati – "açu" (aççiq) metaforasi orqali kodlaşga olib kelgan. Bu – qadimgi turkiy dunyoqaraşdagi ibtidoiy yaşirin tilning saqlanib qolgan yorqin namunasidir. Adibning "Xorazm, jonginam" [3] hikoyasida Orol dengizining quriş fojiasi haqida kuyunib sözlanganidek, uşbu hikoyada ham Kök dengizning inson omili, sanoat rivoji sabab ifloslaniş natijasida qoraygani aytiladi. Ta'kidlanganidek, roviy yaşaydigan yer haqida sözlanar ekan, uşbu toponim köpmillatli ekanligi, arman deysizmi, öris-u koreys, bari borligi, faqat oltoyliklar yöqligi aytiladi. Direktorning aytişiça, bir qişloqning özida öttiz töqqiz millat vakili yaşar, har yili bir millat vakiliga köpaytiriş "plan"i bor edi. Bu bejizga emas, sovxozning nomi "Drujba"– döstlik. Aslida bu "reja"lar har yili majburiy tarzda emas, ixtiyoriy ravişda köpayişi maqsadga muvofiq, ammo közböyamaçilik bilan "baynalmilal" xalq sifatida e'tibor qozonişni istagan ayrim şuhratparastlar soyasida qolib ketardi. Asarda mehmonni *"qönoq",* til oilamizga begona bölganlarning *"konak"* deyilişi mehmonnavoz xalqimiz xarakterini oçib beruvçi xususiyatdir. Roviy "…*Gap şundaki, oğa, biz özbeklar mehmondöst xalqmiz. Bizga boşqa millat vakillari qança köp borsa, şunça xursand bölamiz"* [1, 64] deya mehmondöstlik an'analarini yana bir bor ta'kidlagandek böladi. Asarda, şuningdek, Yaratganga murojaatlar tarzida

kişilar nutqida *"kök tegreime", "tengerim"* kabi sözlar keltiriladi. Hikoyada "Drujba" sovxozida yaşovçi ruslarning boğ-roğ, ekin-tikin qilmasligi, bu yertölaning oldida Barnauldagi *"öra"*ning *"ölsa öligi"* ortiqligi aytiladi. Umrzoq aka *"araqi"* sözini oltoyça deydi, "Biyaning sudidan araqi qilyat… *"Araqi" biizdi söz. Turk sözi*… [1, 82] – *Tamada-tamaada. Tamaa – tamaq, atdazi – atasi*. Tamaq ata – Tamada, deya izohlaydi. Roviy oltoylik turklar haqida Umrzoq aka bilan fikr almaşar ekan, oddiy oltoyliklar *"nuker"*, ya'ni *"navkar"* (möğulçadan "askar"ma'nosidagi) söz qöllanar ekan.

Xulosa. Şukur Xolmirzayev tabiat, butun borliq: suv, havo, tuproq – hammasini öz fenomenida qayta jonlantirib har bir jarayonga munosabatini yaşirmaydi, öziga xos ifoda yösini orqali öquvçiga yetkazib beradi. Kitobxon asardagi voqea, hodisani öz fenomeniga köra özlaştiradi. Vaholanki, tilga olingan muammo va masalalar endi yozuvçidan öquvçiga ötgan böladi. Bir muammoning turliça yoki öxşaş ta'siri asar haqidagi umumiy hamda xususiy xulosalarni çiqarişga xizmat qiladi. Çunonçi, adib Orolning qurişi muammosini qalamga olişi, atrof-muhitga salbiy ta'sirlarini turli misollar orqali ifodalaşi bizni ham şu masalaga bee'tibor bölmaslikka, heç bölmaganda, açiniş hissi, xavotir uyğonişiga sabab bölişi mumkin. Zero, "fenomen" [4] ya'ni hodisa yozuvçining qalbidan ötib kitobxon yuragiga köçişi, uni tölqinlantirişi, hayajonga solişi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. Xolmirzayev Sh. O'zbek xarakteri. [Matn]: hikoyalar/ – T.: Ziyo nashr, 2023. – 240 b.

2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. I жилд / Таржимон С. Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1960. – 504 б.

3. Xolmirzayev Sh. Tabassum. [Matn]: hikoyalar/ – T.: Ziyo nashr, 2023. – 256b.

4. Tilavova M. Badiiy ijod fenomenologiyasi (Shukur Xomirzayev hikoyalari misolida). Filol. fanlari nomzodi dissertatsiya avtoreferati. – Qarshi, 2023. – 56 b.

5. Tavaldiyeva G. Sh. Xolmirzayev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish prinsiplari. – Filol. fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 2001. – 158 b.

6. Mamayusupova S. M. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmlar tasnifi va funksiyasi. – Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Jizzax, 2023. – 50 b.

UO'K 811.512.133'373.46:631.6

RUS TILI VOSITASIDA O'ZLASHGAN MELIORATSIYA TERMINLARINING FONETIK, MORFOLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xojiyeva Sh. A., tayanch doktorant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rus tili orqali o'zbek tiliga o'zlashgan melioratsiya terminlarining lingvistik xususiyatlari masalasida so'z yuritiladi: fonetik-grafik adaptatsiya, morfologik integratsiya, sintaktik, semantik jihatlaridan tahlil qilinadi. Xususan, ruscha o'zlashmalar mavzuviy guruhlarga bo'lib tahlilga tortiladi. Shuningdek, rus tilidagi so'zlarga o'zbekcha affikslar qo'shish orqali yasalgan yasama terminlar haqida fikrlar berilib, misollar bilan dalillanadi. Bundan tashqari, bir xil ma'noli so'zlarning ikki tilda berilgan variantlari keltirib o'tiladi. Rus tilidan kirib kelgan qo'shma melioratsiya terminlarining yozilishi masalasiga ham alohida to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *melioratsiya, termin, o'zlashma so'zlar, dublet, gidrologiya, meteorologiya, opalubka, imloviy variantlilik va h.k.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются лингвистические особенности мелиоративных терминов, заимствованных узбекским языком через русский язык. Они анализируются с фонетико-графической, морфологической, синтаксической и семантической точек зрения. В частности, русские заимствования классифицируются по тематическим группам и подвергаются анализу. Также рассматриваются производные термины, образованные путём присоединения узбекских аффиксов к словам русского происхождения, и приводятся соответствующие примеры. Кроме того, представлены варианты слов с одинаковым значением в двух языках. Особое внимание уделяется вопросам правописания сложных мелиоративных терминов, заимствованных из русского языка.*

Ключевые слова: *мелиорация, термин, заимствованные слова, дублет, гидрология, метеорология, опалубка, орфографическая вариантность и др.*

Abstract. *This article examines the linguistic features of land reclamation terms borrowed into the Uzbek language through Russian. These terms are analyzed from phonetic-graphic, morphological, syntactic, and semantic perspectives. In particular, Russian borrowings are classified into thematic groups and subjected to linguistic analysis. The article also discusses derived terms formed by adding Uzbek affixes to Russian-origin words, supported by relevant examples. Furthermore, equivalent variants of words with identical meanings in the two languages are presented. Special attention is also paid to the spelling of compound land reclamation terms borrowed from Russian.*

Keywords: *land reclamation, term, loanwords, doublet, hydrology, meteorology, formwork, orthographic variation, etc.*

O‘zbek tilining lug‘at tarkibi, asosan, rus, arab, fors-tojik tillaridan kirib kelgan o‘zlashmalar hisobiga kengaygan, fan va texnikaga oid lug‘at tarkibi esa rus va Yevropadan kirib kelgan so‘zlar hisobiga boyigan va hozirgi kunda ham bu jarayon izchil va samarali davom etmoqda. Bu jarayonni XX asrda rus tilidagi ilmiy va muhandislik an’anasi asosida o‘zbeklarda ham yerlarning suv-tuz rejimini yaxshilash, sug‘orish va zovurlash sohasi rivojlanganligi sababli, uning terminologiyasida bu qatlam alohida o‘rin tutishi bilan izohlashimiz mumkin. Ya’ni, o‘zbek tili melioratsiya terminlarining ma’lum qismini rus tili orqali kirib kelgan terminlar qatlami tashkil etishini yoki ruscha o‘zlashmalarga o‘zbekcha affikslarni qo‘shish orqali yasalgan terminlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Rus tilining ta’siri terminlarning nafaqat fonetik, balki leksik-semantik, morfologik, sintaktik sathlarida ham, kalkalash jarayonlarida ham yaqqol seziladi. Rus tilidan o‘zlashgan terminlar bir asosli, ikki asosli va ko‘p asosli (bunday birikmada ruscha so‘z ko‘pincha asosiy so‘z bo‘ladi, o‘zbekcha so‘z esa uni aniqlaydi) shakllarda uchraydi.

Melioratsiya sohasiga rus tili vositasida kirib kelgan terminlarni mavzuviy guruhlarga bo‘lib olsak, quyidagicha jadval tuzib olsak bo‘ladi.

1	Inshoot va qurilmalar	shlyuz, kulvert, dyuker, kollektor, opalubka, filtr
2	Fan va soha nomlari	meteorologiya, gidrologiya, gidrotexnika, fotogrammetriya
3	Jarayon va hodisalar	aeratsiya, infiltratsiya, deflyatsiya, absorbtsiya, evapotranspiratsiya, amortizatsiya
4	Qurilish materiallari	beton, sement, klinker, portlandsement, armatura
5	Mashina va mexanizmlar	ekskavator, buldozer, greyder, skreper, treyler, traktor, nasos

Fonetik jihatdan eng kam moslashgan guruhni mashina va mexanizmlar guruhi tashkil etadi. Chunki ularning o‘zbek tilida ekvivalenti yaratilmagan, shuning uchun ular asl holida qabul qilingan va muomalaga kiritilgan. *Beton, sement, armatura* kabi qurilish materiallarining nomi o‘zbek tiliga shunday moslashganki, bugungi kunda ularning o‘zlashma so‘zligi deyarli sezilmaydigan darajaga kelib qolgan. Jarayon nomlariga tegishli xalqaro o‘zlashmalar esa lug‘atlarda tushunarli bo‘lishi uchun ekvivalenti yoki ba’zi o‘rinlarda qisqacha izohi bilan keltiriladi.

Ruscha o‘zlashmalarning fonetik-grafik adaptatsiya masalalariga qaraydigan bo‘lsak, ruscha melioratsiya terminlarining moslashish hodisasi 3 pog‘onali jarayon ekanligi e’tiborlidir. Birinchi guruhga fonetik va grafik tomonlama hech qanday o‘zgarishsiz qabul qilingan so‘zlar guruhi kiradi: *shchit, skreper, treyler, greyder, klinker* kabilar. Keyingi guruhga qisman moslashgan: *shlyuz, dyuker, relyef, syomka* kabi birliklarni sanasak, so‘nggi guruhga esa deyarli o‘zlashmaligi sezilmay qolgan so‘zlar: *beton, sement, traktor* singarilarni kiritishimiz mumkin.

Rus tilidan kirib kelgan melioratsiya va irrigatsiya terminlarining muhim fonetik xususiyatlaridan biri shundaki, ularda so‘z boshida qator undoshlar kelishi: *skreper, shlyuz, treyler, klinker, greyder* (sk, shl, tr, kl, gr) so‘zlari o‘zbek fonetika qoidalariga amal qilmaydi, shu sababli ularda ruscha fonetik talaffuz yaqqol seziladi. Yana bir muhim fonetik xususiyati shuki, *treyler, greyder* kabi birliklardagi – ey tovushlari alohida diftongsimon xususiyatga ega bo‘lib, ular ham o‘zbekcha so‘z o‘zaklarida uchramasligi bilan xarakterlidir.

Rus tilidagi “ц” harfi ruscha o‘zlashma so‘zlarning ba’zilarida “s” (*fraksiya, stansiya, rekonstruksiya, sement*), ba’zilarida “ts” (*aeratsiya, infiltratsiya, irrigatsiya, absorbtsiya, amortizatsiya, konsentratsiya*) shaklida ifodalanadi.

Ruscha lug‘aviy birliklar o‘zbekcha affikslarni qabul qilishi orqali yangi so‘zlar hosil qilinadi va ular o‘zbek tiliga o‘zlashtiriladi. Bu hodisa tilshunoslikda morfologik integratsiya hodisasi deyiladi.

2-jadval.

Morfologik integratsiya hodisasiga misollar keltirilgan.

Affiks	Misollar	Yasalish xarakteri
-li	porshenli nasos, diafragmali nasos, gusenitsali traktor	ot → sifat (egalik, tarkibiy belgi)
-siz	relssiz yo‘l	ot → sifat (yo‘qlik belgisi)
-lash	segmentlash, mexanizatsiyalash	ot → fe’l / harakat nomi
-lashtir-	kanallashtirish	ot → sababiy nisbatli fe’l, harakat nomi
-lan-ish	filtrlanish	ot → fe’l (o‘zlik nisbat) → harakat nomi
-lan-ma-gan	drenajlanmagan	ot → fe’l → inkor → sifatdosh
-simon	krotsimon, segmentsimon, konussimon	ot → sifat (o‘xshatish belgisi)

Diqqatni tortadigan tomoni shundaki, hattoki ba’zi so‘zlar ketma-ket 2-3 ta qo‘shimchani birdaniga qabul qiladi. Masalan, *drenajlanmagan* so‘zi ruscha o‘zak va 3 ta affiks (-lan, -ma, -gan)dan tashkil topgan. Unda fe’l yasash, inkor va sifatdosh hosil qilish imkoniyati mavjudligi bu o‘zakning o‘zbek grammatik tizimiga to‘liq kirib borganini anglatadi. Relss*iz* so‘zi esa rels o‘zagi va bitta -siz affiksidan tashkil topgan.

Shuningdek, -*simon* affiksi ham genetik jihatdan turli qatlamga xos terminlar yasashda faol qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek tilida qo‘llaniladigan so‘zlar: *kukun, uchburchak, arka, halqa, ravoq, gumbaz;* rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlar: *konus, segment, krot* kabilar. O‘zlashmalar grammatik kategoriyalarning barchasini qabul qila oladi. Xususan, kelishik (*gidrostansiyadan*), qaratqich kelishigi (*ekskavatorning*), egalik (*drenaj quvuri, beton nasosi*), ko‘plik (*gruntlar, drenlar*), shuningdek egalik shaklidagi so‘zlar (*aeratsiyasi*). Ruscha o‘zlashmalar o‘zbekcha affikslarni qabul qila olishi bilan bir qatorda, xalqaro affikslar bilan ham o‘zbek lug‘atlari tarkibida yashaydi: *atsiya* (*aeratsiya, deflyatsiya, denudatsiya*), *-logiya* (*meteorologiya, gidrologiya*), *-metriya* (*gidrometriya*), *gidro-* (*gidrotexnika, gidrografiya*), *aero-* (*aerofotogrammetriya, aeratsiya*) kabi. Bunday affikslar fan va jarayon nomlarini yasashda mahsuldor qo‘shimchalar sanaladi.

O‘zlashmalar qo‘shma terminlar shaklida ham uchraydi. Ular ikki xil ko‘rinishda: qo‘shib yoziladigan (*portlandsement, aerofotogrammetriya*) va chiziqcha bilan ajratib yoziladigan juft holatda (*piston-detonator, vakuum-nasos*) qo‘llanadi. O‘zlashma melioratsiya terminlarining yana bir xususiyati shundaki, ular ko‘p o‘rinlarda so‘z birikmasi shaklida keladi. “*Magistral kanal, aylanma kanal, berk drenaj, ochiq drenaj”* birikmalarini oladigan bo‘lsak, ular sifatlovchi + aniqlanmish qolipida yasalgan. Ikkinchi qolip qaratqich (belgisiz) + qaralmish: *drenaj quvuri, beton nasosi, nasos stansiyasi*. Uchinchi qolip ko‘p komponentli birikma: *beton nasosi qurilmasi*, bunda ikki o‘zlashma (*beton, nasos*) va bitta o‘zbekcha ot (*qurilma*) zanjirsimon bog‘langan. Bunday qoliplar o‘zlashgan so‘zlarning o‘zbek tilining sintaktik qoliplariga bo‘ysunishini ko‘rsatadi.

Lug‘atlarda “opalubka” - “ qolip” “qaytadan qurish” - “rekonstruksiya”, “vertikal drenaj” – “tik drenaj” kabi terminologik dubletlar ham ba’zi o‘rinlarda uchraydi.

Terminologik dubletlarning uchrashi o‘zlashma va o‘zbekcha so‘zlar o‘rtasidagi parallel nomlanishni ko‘rsatadi. O‘zlashtirilgan tushuncha dastlab ruscha shaklda qabul qilinib, keyinchalik o‘zbek tilida muqobil varianti izlanadi; natijada ikkala nom teng qo‘llanadi. Lug‘atdagi *kulvert (to‘kma ostidagi quvur)* terminida esa o‘zbekcha muqobili bitta so‘z emas, tavsifiy ibora sifatida berilgan: bu esa ekvivalent terminning hali to‘la shakllanmaganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Chet tillardan o‘zlashgan so‘zlar va ularning o‘zbek tili lug‘at tarkibining shakllanishi va rivojlanishiga ta’siri // O‘zMU xabarlari. – URL: https://journals.nuu.uz/index.php/1/article/download/4809/2305.

2. Гулямов А. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. 1. Аффиксация. Ч.1. Словообразующие аффиксы имен: Автореф. дисс.... док. филол. наук. – Ташкент, 1955. – 76 с.

3. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Aktiv Print, 2020. – B. 65.

4. Дониёров Р. Ўзбек тили илмий-техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 160.

5. Нурмонов А., Маҳмудов Н. Ўзбек тили сўз ясалишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти – Тошкент, 1987. – №3. – Б. 36-37.
6. Турсунов У.Т. Терминологиянинг бойиш йўллари//Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университети асарлари. – Самарқанд, 1960.
7. Ҳожиев А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили луғат таркибини ривожланиш асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1994. – № 1–2. – Б. 18–19.
8. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. –Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 110 б.
9. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – 135 б.
10. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 86.
11. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари.–Тошкент: Фан, 1977.–Б.90-91.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 5-жилд. – Тошкент, 2008. – Б. 576.

UO'K 81-13

GENDERGA OID NEOLOGIZMLARNING REKLAMA DISKURSIGA KIRIB KELISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yuldasheva B., tayanch doktorant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy reklama tilida paydo bo'layotgan yangi terminologik birliklarni o'rganish gender diskursining rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda muhim nazariy ahamiyat kasb etishi, bu leksemalar zamonaviy hayot tarzi, raqamli madaniyat va global kommunikativ makon bilan bog'liq yangi ijtimoiy identitetlarni ifodalovchi belgilar sifatida namoyon bo'lishi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *reklama matni, reklama tili, leksema, neologizmlar, gender me'yorlar, semantik maydon, sintaktik konstruksiyalar, gender stereotiplar.*

Аннотация. *В статье анализируется, почему изучение новых терминологических единиц, возникающих в языке современной рекламы, имеет важное теоретическое значение для выявления тенденций развития гендерного дискурса. Также рассматривается, как данные лексемы функционируют в качестве знаков, репрезентирующих новые социальные идентичности, связанные с современным образом жизни, цифровой культурой и глобальным коммуникативным пространством.*

Ключевые слова: *рекламный текст, язык рекламы, лексема, неологизмы, гендерные нормы, семантическое поле, синтаксические конструкции, гендерные стереотипы.*

Abstract. *This article analyzes why the study of new terminological units emerging in the language of contemporary advertising holds significant theoretical value for identifying trends in the development of gender discourse. It also examines how these lexemes function as signs that represent new social identities – identities linked to modern lifestyles, digital culture, and the global communicative space.*

Keywords: *advertising text, language of advertising, lexeme, neologisms, gender norms, semantic field, syntactic constructions, gender stereotypes.*

Gender reklama diskursi evolyutsiyasining muhim lingvistik ko'rsatkichlaridan biri yangi leksemalar, terminlar va diskursiv birliklarning shakllanishidir. Neologizmlar nafaqat til tizimining yangilanishini aks ettiradi, balki jamiyatdagi gender me'yorlari va identitetlarining qayta konseptuallashuviga ham faol ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy reklama tilida paydo bo'layotgan yangi terminologik birliklarni o'rganish gender diskursining rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Ingliz reklama diskursida keyingi yillarda *femvertising, gender-fluid, body positive, inclusive beauty, real beauty* kabi yangi terminlar va iboralar keng qo'llanila boshladi. Mazkur birliklarning aksariyati reklama kommunikatsiyasiga gender tadqiqotlari va feminist diskurs ta'sirida kirib kelgan bo'lib, ular reklama matnlarining konseptual paradigmasini sezilarli darajada o'zgartirdi. Xususan, *femvertising* termini reklama orqali ayollar imkoniyatlarini kengaytirish va gender tengligini qo'llab-quvvatlash strategiyasini ifodalasa, *body positive va inclusive beauty* iboralari tashqi ko'rinishning

stereotipik me’yorlarini rad etib, inson tanasi va go‘zalligining xilma-xilligini qadrlash g‘oyasini ilgari suradi. *Real beauty* konsepti esa reklama diskursida idealizatsiyalangan go‘zallik modelidan voz kechib, tabiiylik va individuallikni estetik qadriyat sifatida talqin qiladi.

Lingvistik nuqtai nazardan ushbu neologizmlar reklama diskursining semantik maydonini kengaytirib, “*ideal”, “mukammal”, “standart”* kabi an’anaviy baholash birliklarini “*haqiqiylik”, “xilma-xillik”, “inklyuzivlik” va “o‘zligini qabul qilish”* kabi yangi konseptlar bilan almashtirmoqda. Biroq zamonaviy gender tilshunosligida ushbu terminlarning reklama industriyasi tomonidan tijorat maqsadlarida instrumental qo‘llanilishi ham tanqid qilinadi. Xususan, *pinkwashing va femwashing* tushunchalari reklama beruvchilarning gender tengligi va feminizm g‘oyalaridan marketing strategiyasi sifatida foydalanishini ifodalovchi tanqidiy terminlar sifatida shakllangan[1]. Demak, genderga oid yangi leksikaning reklama diskursiga kirib kelishi har doim ham ijtimoiy tenglikni anglatmaydi, balki ayrim hollarda iste’molchi e’tiborini jalb qilishga qaratilgan tijoriy strategiya vazifasini ham bajaradi.

O‘zbek reklama diskursida ham zamonaviy gender bilan bog‘liq yangi leksik birliklarning kirib kelishi kuzatilmoqda. Biroq ushbu jarayon ingliz reklama tilidagidan sezilarli darajada farq qiladi. O‘zbek reklama matnlarida ingliz tilidan o‘zlashtirilgan *trend, stylish, blogger, influencer, lifestyle* kabi birliklar asosan yoshlar auditoriyasiga yo‘naltirilgan reklamalarda qo‘llaniladi. Bu leksemalar zamonaviy hayot tarzi, raqamli madaniyat va global kommunikativ makon bilan bog‘liq yangi ijtimoiy identitetlarni ifodalovchi belgilar sifatida namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan mazkur birliklar hali to‘liq grammatik assimilatsiyadan o‘tmagan. Ular ko‘pincha inglizcha fonetik va grafik shaklini saqlagan holda o‘zbek tilidagi sintaktik konstruksiyalar tarkibida qo‘llaniladi. Natijada reklama matnlarida kod almashinuvi (code-switching) hamda kod aralashuvi (code-mixing) hodisalari kuzatiladi. Masalan, “*lifestyle blogger ayollar uchun”* birikmasida *lifestyle blogger* komponenti ingliz tilida, *ayollar uchun* qismi esa o‘zbek tilida ifodalangan. Mazkur gibrid konstruksiya reklama diskursida ikki tilning funksional uyg‘unlashuvini aks ettiradi.

Pragmalingvistik jihatdan bunday ikki tilli konstruksiyalar zamonaviylik, innovatsionlik va xalqaro tendensiyalarni anglatuvchi indeksal belgi vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi grammatik elementlarning saqlanishi reklama matnining milliy auditoriyaga tushunarliligini ta’minlaydi. Demak, kod almashinuvi reklama diskursida nafaqat til tejamkorligi yoki kommunikativ qulaylik natijasi, balki global va milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’sirini ifodalovchi lingvokulturologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, o‘zbek va ingliz reklama diskursida yangi erkaklik modeli hamda genderga oid neologizmlarning shakllanishi reklama tilining zamonaviy bosqichdagi evolyutsiyasini yaqqol namoyon etadi. Ingliz reklama diskursida ushbu jarayon tizimli va konseptual xarakter kasb etgan bo‘lsa, o‘zbek reklama matnlarida u milliy madaniy qadriyatlar, an’anaviy gender stereotiplari hamda globallashuv ta’siri kesishgan nuqtada shakllanmoqda. Shu bois reklama diskursidagi yangi gender leksikasi nafaqat til tizimining yangilanishini, balki jamiyatdagi gender identitetlari va kommunikativ me’yorlarning transformatsiyasini ham aks ettiruvchi muhim lingvistik indikator sifatida baholanishi mumkin[2].

O‘zbek va ingliz tillaridagi reklama matnlarida gender tilining diaxronik taraqqiyotini qiyosiy tahlil qilish bir qator muhim ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Avvalo, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, reklama diskursida genderning lingvistik reprezentatsiyasi statik hodisa emas, balki jamiyatdagi sotsiomadaniy va kommunikativ transformatsiyalar bilan uzviy bog‘liq holda muntazam rivojlanib boruvchi dinamik tizim hisoblanadi. Demak, har ikkala tilda ham ayollik va erkaklikning reklama matnlarida ifodalanish usullari tarixiy taraqqiyot davomida sezilarli o‘zgarishlarga uchragan. Biroq mazkur evolyutsiyaning sur’ati, yo‘nalishi, lingvistik vositalari hamda pragmatik strategiyalari o‘zbek va ingliz reklama diskursida bir xil emas.

Qiyosiy tahlil ingliz reklama diskursida gender tilining transformatsiyasi nisbatan tizimli va izchil kechganini ko‘rsatadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab reklama matnlarida ayol obrazining faqat uy-ro‘zg‘or va oilaviy vazifalar bilan bog‘liq stereotipik modelidan bosqichma-bosqich voz kechilib, uning o‘rnini kasbiy muvaffaqiyat, shaxsiy erkinlik, individual tanlov va

ijtimoiy faollik kabi konseptlar egallay boshladi. Natijada zamonaviy reklama diskursida *body positivity, femvertising, new masculinity hamda gender-neutral advertising* kabi yangi kommunikativ strategiyalar shakllandi. Ushbu strategiyalar reklama tilining barcha sathlarida o‘z aksini topmoqda.

Leksik sathda gender stereotiplarini mustahkamlovchi birliklarning qo‘llanish chastotasi kamayib, ularning o‘rnini gender jihatdan neytral yoki inklyuziv leksemalar egallamoqda. Grammatik sathda esa reklama matnlarida passiv konstruksiyalardan faol va agentiv sintaktik modellarga o‘tish tendensiyasi kuzatiladi. Xususan, ayol endilikda reklama diskursida harakat obyekti emas, balki qaror qabul qiluvchi va ijtimoiy faol subyekt sifatida ifodalanmoqda. Diskursiv jihatdan esa reklama strategiyalari kollektiv gender stereotiplaridan individual identitetni ta’kidlashga yo‘nalmoqda. Shunga qaramay, zamonaviy ingliz reklama diskursida gender stereotiplari to‘liq bartaraf etilgan deb bo‘lmaydi. Ular ko‘proq implitsit xarakter kasb etib, presuppozitsiya, implikatura va metaforik modellar orqali bilvosita ifodalanmoqda. Bu holat zamonaviy reklama diskursining ochiq diskriminatsiyadan yashirin ideologik ta’sir mexanizmlariga o‘tganini ko‘rsatadi.

O‘zbek reklama diskursida gender tilining evolyutsiyasi ham kuzatilayotgan bo‘lsa-da, uning rivojlanish sur’ati ingliz tilidagi reklama amaliyotiga nisbatan sekinroq kechmoqda. Buning asosiy sabablari sotsiomadaniy, tarixiy va kommunikativ omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, o‘zbek jamiyatida gender rollari va ijtimoiy me’yorlarning transformatsiyasi G‘arb jamiyatlariga nisbatan bosqichma-bosqich va konservativ yo‘nalishda amalga oshmoqda. Shu sababli reklama diskursida ham an’anaviy gender stereotiplari hali ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Ikkinchidan, o‘zbek reklama industriyasining shakllanish tarixi nisbatan qisqa bo‘lgani bois reklama matnlarini gender nuqtai nazaridan lingvistik tahlil qilish amaliyoti hali to‘liq institutsionallashmagan. Reklama kommunikatsiyasida genderga oid zamonaviy yondashuvlar endigina keng qo‘llanila boshlaganligi sababli, yangi kommunikativ strategiyalar an’anaviy diskurs modellari bilan parallel ravishda mavjud bo‘lib turibdi.

Uchinchidan, o‘zbek reklama diskursidagi gender evolyutsiyasi ichki milliy-madaniy qadriyatlar va globallashuv ta’sirida kirib kelayotgan xalqaro reklama tendensiyalarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanmoqda. Mazkur jarayon reklama tilida o‘ziga xos lingvistik hodisani yuzaga keltirmoqda. Xususan, zamonaviy o‘zbek reklama leksikasida ikki xil semantik qatlamning birgalikda faoliyat yuritishi kuzatiladi. Birinchi qatlamni milliy madaniyat va an’anaviy gender tasavvurlariga asoslangan “*ona”, “uy bekasi”, “oila boshlig‘i”, “mehribon”, “mard”* kabi birliklar tashkil etsa, ikkinchi qatlam ingliz tili va xalqaro marketing diskursidan kirib kelgan *“lider”, “professional”, “faol ayol”, “muvaffaqiyatli ayol”, “individual tanlov”, “motivatsiya”, “self-care”* kabi yangi terminologik birliklardan iborat. Ushbu ikki qatlamning parallel qo‘llanishi reklama diskursida an’anaviy va zamonaviy gender konseptlarining sintezini yuzaga keltirmoqda[3].

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz reklama diskursida gender tilining rivojlanish jarayoni umumiy yo‘nalishga ega bo‘lsa-da, ularning tarixiy dinamikasi bir xil emas. Har ikkala tilda ham gender stereotiplarining qayta talqin qilinishi, ayol va erkak identitetining individuallashuvi hamda reklama kommunikatsiyasining inklyuzivlashuvi kabi universal tendensiyalar kuzatiladi. Biroq ushbu tendensiyalarning lingvistik realizatsiyasi har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti va kommunikativ an’analari bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Beroíza-Valenzuela F., Salas-Guzmán N. Gender Stereotypes and Language Processing // European Journal of Education. – 2025. – Vol. 60. – e70063. DOI: 10.1111/ejed.70063.

2. Adilova S.A. New words and neologisms in the Uzbek language: Factors of formation // Science Shine: International Scientific Journal. – 2025. – Vol. 13(48). – P. 52.; Turabekova N.N. Language and gender identity in English and Uzbek social media discourse // CyberLeninka. – 2025.

3. Komilova N.A. Comparative and linguocultural analysis of the concept 'gender' in Uzbek and English languages // The USA Journals (TAJSSEI). – 2021. – Vol. 3, No. 6. – P. 115.

UO'K 81'373:551.5

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ATMOSFERA, HARORAT VA TERMIK HODISALAR SEMANTIK GURUHIGA OID METEOROLOGIK BIRLIKLAR

S.T.Yuldoshev, o'qituvchi, Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi, Sho'rchi tumani

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida atmosfera, harorat va termik hodisalar semantik guruhiga oid meteorologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Har ikki tildagi meteorologik birliklarning ma'no xususiyatlari, ifodalanish usullari, o'zaro o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Shuningdek, atmosfera hodisalari, harorat o'zgarishlari va termik jarayonlarni ifodalovchi leksik birliklarning til tizimidagi o'rni hamda ularning milliy-madaniy xususiyatlari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *atmosfera, meteorologiya, ob-havo, iqlim, atmosfera inqirozi, havo harorati, havo namligi, shamol, bulutlilik, yog'inlar, atmosfera sirkulyatsiyasi, Quyosh radiatsiyasi, iqlim o'zgarishi, meteorologik kuzatuvlar.*

Аннотация. *В статье анализируются лексико-семантические особенности метеорологических единиц, относящихся к семантической группе атмосферы, температуры и термических явлений в английском и узбекском языках. Рассматриваются особенности значения метеорологических единиц в обоих языках, способы их выражения, а также сходства и различия между ними.*

Ключевые слова: *атмосфера, метеорология, погода, климат, атмосферный кризис, температура воздуха, влажность воздуха, ветер, облачность, осадки, атмосферная циркуляция, солнечная радиация, изменение климата, метеорологические наблюдения.*

Abstract. *This article analyzes the lexical and semantic features of meteorological units belonging to the semantic group of atmosphere, temperature, and thermal phenomena in English and Uzbek. It examines the meanings and forms of expression of meteorological units in both languages, as well as their similarities and differences.*

Key words: *atmosphere, meteorology, weather, climate, atmospheric crisis, air temperature, air humidity, wind, cloudiness, precipitation, atmospheric circulation, solar radiation, climate change, meteorological observations.*

Kirish. Global iqlim o'zgarishi, ekstremal ob-havo hodisalarining takrorlanishi, qurg'oqchilik, kuchli yog'ingarchilik va issiq to'lqinlar meteorologik bilimlarga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Tabiat hodisalarini turli tillarda aniq ifodalash meteorologik terminlarni qiyosiy o'rganishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada atmosfera va haroratga oid birliklarning leksik-semantik xususiyatlari umumlashtiriladi [1].

Ingliz tilidagi meteorologik birliklar tilning leksik-semantik tizimida alohida o'rin egallab, ob-havo hodisalari, atmosfera jarayonlari va iqlimiy o'zgarishlarni ifodalaydi. Ular tabiiy hodisalarni nomlash bilan birga meteorologik axborotni aniq va tushunarli yetkazishga xizmat qiladi. Mazkur birliklarni leksikologik, semantik, morfologik va terminologik jihatdan o'rganish mumkin.

Tuzilishiga ko'ra ingliz tilidagi meteorologik birliklar sodda, yasama va qo'shma birliklarga ajraladi. Rain (yomg'ir), wind (shamol) va snow (qor) sodda leksik birliklardir. Rainfall (yog'in miqdori), humidity (namlik) va cloudiness (bulutlilik) so'z yasalishi orqali shakllangan birliklarga misol bo'ladi. Air pressure (havo bosimi), wind speed (shamol tezligi) va heat wave (issiq to'lqin) meteorologik terminologiyada qo'llanadigan ko'p komponentli terminlardir [2].

Meteorologik birliklarning muhim xususiyatlaridan biri terminologik aniqlik va kontekstga bog'liq semantik xususiyatlardir. Temperature (harorat), dew point (shudring nuqtasi), relative humidity (nisbiy namlik) va atmospheric pressure (atmosfera bosimi) muayyan meteorologik ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Ularning maxsus ma'nosi ilmiy va kasbiy nutqda namoyon bo'ladi.

Morfologik jihatdan ingliz tilidagi meteorologik terminlarning tuzilishida *affiksatsiya, kompozitsiya* va *konversiya* kabi yasalish usullari o'rin tutadi. *Cloud* so'zidan *cloudy, rain* so'zidan *rainy, wind* so'zidan *windy* sifatlarining hosil bo'lishi *"–y"* qo'shimchasi yordamida belgi-

xususiyatni ifodalovchi birliklar yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Shuningdek, *precipitation* (atmosfera yog‘inlari), *evaporation* (bug‘lanish) va *condensation* (kondensatsiya) kabi terminlar ilmiy meteorologik diskursda jarayon va hodisalarni nomlash uchun qo‘llaniladi [3].

Bundan tashqari, meteorologik birliklar o‘rtasida sinonimik, antonimik va giponimik munosabatlar ham mavjud. Masalan, *rain* va p*recipitation* birliklari ma’no jihatidan o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ular to‘liq sinonim hisoblanmaydi, chunki *precipitation* yomg‘irdan tashqari qor, do‘l va boshqa atmosfera yog‘inlarini ham qamrab oladi. *Hot* va *cold* birliklari antonimik munosabatni ifodalasa, *rain, snow* va *hail* birliklari precipitation tushunchasining turli ko‘rinishlarini bildiradi. Bu holat esa meteorologik leksikaning semantik jihatdan tizimlashganligini ko‘rsatadi.

Ingliz tilidagi meteorologik birliklar o‘ziga xos leksik-semantik, morfologik va terminologik xususiyatlarga ega. Ularning tahlili ilmiy atamalarning shakllanish mexanizmlarini, ma’no munosabatlarini va maxsus nutqda qo‘llanishini tushunishga yordam beradi. Shu sababli meteorologik leksikani o‘rganish terminologiya, leksikologiya, tarjimashunoslik va sohaviy diskurs tadqiqotlari uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega [4].

Ingliz tilida quyidagilar atmosfera va umumiy meteorologik tushunchalar: *weather pattern, weather regime, local weather, regional weather, local weather, extreme weather, fair weather, unsettled weather, adverse weather, inclement weather, clear weather, cloudy weather, dry weather, wet weather, cold weather, hot weather, mild weather, atmospheric environment, atmospheric process, atmospheric circulation, atmospheric dynamics, atmospheric disturbance, weather disturbance, atmospheric stability, atmospheric instability, weather variability, weather change, weather evaluation, weather situation, prevailing weather, weather state, typical weather, abnormal weather, unusual weather, normal weather, abnormal weather event, meteorological event, atmospheric event, weather occurrence, weather condition, atmospheric condition, environmental condition, meteorological condition, weather regime, atmospheric regime, weather cycle* kabi so‘zlar kiradi [5].

O‘zbek tilida atmosfera holati, haroratning vaqt va makondagi o‘zgarishlari hamda ekstremal ob-havo sharoitlarini ifodalovchi birliklar maxsus leksik qatlamni tashkil qiladi. Ularni qiyosiy o‘rganish umumxalq leksikasi bilan sohaviy terminologiyaning munosabatini, terminlarning tuzilishi va nutqda qo‘llanishini aniqlashga yordam beradi. Inglizcha *atmosphere, weather, meteorology, condition, phenomenon, system va process birliklariga o‘zbek tilida atmosfera, ob-havo, meteorologiya, holat, hodisa, tizim va jarayon* kabi muqobillar mos keladi. Ingliz tilida weather komponenti condition, event, system, pattern, regime, disturbance, variability va evolution bilan birikib, turli terminlarni hosil qiladi [6].

O‘zbek tilida shu mazmunlar *ob-havo komponentli* birikmalar yoki izohli tarjima orqali ifodalanadi. W*eather pattern, unsettled weather va inclement weather* kabi birliklarning tarjimasi kontekstga bog‘liq. Shuning uchun qiyoslashda birliklarning faqat tarkibiy o‘xshashligini emas, ma’nosi va qo‘llanish sharoitini ham hisobga olish lozim.

Ingliz tilida harorat va termik hodisalar semantik guruhiga oid birliklar: *temperature, air temperature, surface temperature, maximum temperature, minimum temperature, average temperature, mean temperature, daily temperature, hourly temperature, temperature range, temperature variation, temperature change, temperature rise, temperature drop, temperature increase, temperature decrease, temperature anomaly, temperature inversion, thermic inversion, freezing temperature, freezing point, dew-point temperature, wet-bulb temperature, dry-bulb temperature, apparent temperature, heat index, wind chill, thermal comfort, heat stress, cold stress, overheating, cooling, warming, heating, chilling, extreme temperature, high temperature, low temperature, warm spell, cold spell, hot spell, frost free period, heat extreme, cold extreme, thermal anomaly, extreme threshold, temperature gradient, temperature profile, temperature distribution, temperature record, record high, record low, daytime temperature, nighttime temperature, morning temperature, afternoon temperature, evening temperature, overnight temperature* kabi so‘zlar kiradi [3]. O‘zbek tilida esa ushbu guruhga oid til birliklari: *issiq, sovuq, iliq, salqin, qaynoq, jazirama, muzdek, qizigan, haroratli, harorat, issiqlik, sovuqlik, ayoz, qahraton, jazirama, qiro, muz, xato, olov, alanga, cho‘g‘, kul, qaynash, erish, muzlash, bug‘lanish, kondensatsiya, termometr, termik ta’sir*

kabilar kiradi. Bu guruhdagi birikmalarning tuzilishi bir xil emas: ingliz tilida sifat yoki ot aniqlovchi asosiy otdan oldin kelishi mumkin (high *temperature*, *tempera*ture gradient); o‘zbek tilida ham sifat *aniqlovchi otdan oldin keladi (yuqori harorat), izofali birikmada esa harorat* so‘zi birinchi o‘rinda kelishi mumkin (harorat gradiyenti).

Masalan: temperature anomaly — harorat anomaliyasi;

temperature gradient — harorat gradiyenti;

extreme temperature — ekstremal harorat [5].

Demak, ushbu guruhga oid birliklar har ikki tilda ma’no jihatidan yaqin bo‘lsa-da, ularning leksik tarkibi va birikish xususiyatlarida farqlar mavjud.

Biroq ular o‘rtasida miqdoriy tafovut ham bor. Ya’ni ingliz tilida 54 ta birlik bo‘lsa o‘zbek tilida esa 42 ta birlikni tashkil qilib, tafovut 12 birlikni tashkil qiladi. Bu farqning asosiy sabablaridan biri ingliz tilida haroratning obyektiv fizik qiymati bilan uning inson tomonidan subyektiv sezilishi alohida birliklar bilan ifodalanishidadir. Masalan: cold, chilly, cool, crisp, nippy, raw freezing, frigid birliklari sovuqlikning turli daraja va xususiyatlarini bildiradi. O‘zbek tilida esa ularning ayrimlari: sovuq, salqin qattiq sovuq, ayozli muzdek kabi birliklar bilan keladi. Demak ingliz tilidagi ustunlikning bir qismi darajaviy va sinonimik differensiallashuv bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.

2. Jahon meteorologiya tashkiloti. METEOTERM: Xalqaro meteorologiya terminologiyasi ma’lumotlar bazasi. – URL: https://wmo.int/wmo-community/meteoterm

3. Jahon meteorologiya tashkiloti. Xalqaro meteorologik lug‘at. 2-nashr. WMO-No. 182. – Jeneva: Jahon meteorologiya tashkiloti, 1992.

4. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiyot tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018

5. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.

UDC 811.111’42:004.8

LEXICAL POLITENESS MARKERS IN ENGLISH-SPEAKING USERS’ PROMPTS TO CHATGPT: A PRELIMINARY ANALYSIS

Yusupova S. A., DSc, Fergana State University, Fergana
Bektemirov A., Master’s student, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilida so‘zlashuvchi foydalanuvchilarning ChatGPT ga yuborgan so‘rovlarida qo‘llaniladigan xushmuomalalikning leksik belgilari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi sun’iy intellekt bilan muloqotda insonning odatiy nutq odob-axloq formulalarini saqlab qolishi yoki o‘zgartirishini aniqlash. Material sifatida ChatGPT bilan muloqotning ommaviy nashr etilgan va muhokama qilingan misollari tanlangan. Tahlil natijasida please, thank you va sorry kabi asosiy leksik belgilarning qo‘llanish chastotasi va funksiyalari ko‘rib chiqiladi. Maqola sun’iy intellekt bilan muloqotda xushmuomalalikning lingvistik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan dastlabki kuzatish hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *xushmuomalalik, leksik belgilar, ChatGPT, sun’iy intellekt, nutq odobi, ingliz tili.*

Аннотация. *В статье рассматриваются лексические маркеры вежливости, используемые англоязычными пользователями в запросах к ChatGPT. Цель исследования выявить, сохраняет ли человек привычные формулы речевого этикета при общении с искусственным интеллектом или видоизменяет их. Материалом послужили публично доступные и обсуждаемые примеры диалогов с ChatGPT. В ходе анализа рассматриваются частотность и функции основных лексических маркеров: please, thank you, sorry. Статья представляет собой предварительное наблюдение, направленное на изучение лингвистических аспектов вежливости в человеко-машинной коммуникации.*

Ключевые слова: *вежливость, лексические маркеры, ChatGPT, искусственный интеллект, речевой этикет, английский язык.*

Abstract. *This article examines lexical politeness markers used by English-speaking users in their prompts to ChatGPT. The study aims to determine whether individuals retain conventional*

speech etiquette formulas when interacting with artificial intelligence or modify them. The material consists of publicly available and widely discussed examples of dialogues with ChatGPT. The analysis considers the frequency and functions of key lexical markers: please, thank you, and sorry. The article represents a preliminary observation aimed at studying the linguistic aspects of politeness in human-machine communication.

Keywords: *politeness, lexical markers, ChatGPT, artificial intelligence, speech etiquette, English language.*

Introduction. In contemporary linguistics, increasing attention is being paid to how language reflects cognitive processes and social relations in new communicative environments. One such environment is human interaction with artificial intelligence systems, particularly large language models. ChatGPT is not a human interlocutor, yet users worldwide engage with it conversationally: they ask questions, clarify, thank, and even apologize.

The question of whether politeness toward a machine is appropriate has been actively debated. In 2025, a user on X asked how much OpenAI spends on electricity processing "please" and "thank you," and the company's CEO replied that these costs were "tens of millions of dollars well spent". This exchange shows that politeness toward AI is perceived not as a technical necessity but as a social practice. The present article offers a preliminary analysis of which linguistic means individuals choose when addressing AI and whether these coincide with those used in human-to-human communication.

Literature review. The theoretical foundation of this work is Brown and Levinson's politeness theory, which distinguishes positive and negative politeness strategies aimed at mitigating threats to the interlocutor's "face." When applied to AI communication, this theory requires adaptation: a machine has no "face" in the human sense, yet users behave as if it does.

Research on politeness in human-machine communication remains limited. A recent corpus-based study of Arabic speakers' interactions with ChatGPT found that users employ culturally specific politeness strategies, including elaborate greetings and deference, even when addressing a non-human entity.

Survey data from the United Kingdom indicate that approximately three-quarters of adults routinely say "please" and "thank you" when using ChatGPT or similar applications, with younger users (aged 18 to 28) being the politest at 91%. These figures suggest that politeness toward AI is not an idiosyncratic behavior but a widespread practice.

For English specifically, however, detailed analyses of lexical markers in prompts to ChatGPT remain scarce; the present work partially fills this gap.

Research methodology. The material consists of 15 publicly available English-language prompts to ChatGPT drawn from news reports, Reddit discussions, and academic and journalistic publications. The sample is not representative and does not claim statistical significance; the aim is descriptive rather than quantitative.

The method is descriptive and contextual. The following markers were identified: please, thank you, thanks, sorry, if you don't mind, and could you. For each, its function was recorded: softening a request, expressing gratitude, or apologizing for clarification.

Analysis and results. In the selected examples, the most frequent marker was "please." It appears in 11 of the 15 examples. Typical contexts include:

At the beginning of a request: "Please write three Instagram captions for our Rome food tour".

In a softened imperative: "Could you please rewrite this so it sounds more professional?". The function of "please" in these examples is not so much the expression of genuine deference as a marker of imperative softening. The user is aware of issuing a command and adds a formula that, in human communication, signals: "I am not ordering; I am requesting."

The second most frequent marker was "thank you" (or "thanks"), appearing in 8 examples, predominantly after receiving a response: "Thank you, that was perfect"; "Thanks, that's exactly what I needed." In two cases users thanked ChatGPT even when the response was inaccurate: "Thanks, but

that's not quite right. Try again." This suggests that "thank you" maintains communicative contact rather than merely expressing gratitude.

Apologies ("sorry," "my apologies") occur less frequently in 3 examples. The typical context is a follow-up question or clarification: "Sorry, I wasn't clear. Here's what I meant…" In these cases, the apology serves to soften a repeated request, which in human communication might be perceived as insistent.

Markers such as "if you don't mind" and "could you" appear only once each; they belong to a more formal register and occur in requests the user perceived as "burdensome" for the AI: "If you don't mind, could you check that one more time?"

Overall, English-speaking users transfer familiar speech etiquette formulas into ChatGPT interactions selectively. "Please" and "thank you" dominate; more elaborate forms (if you don't mind, could you) are rare, which may reflect users' intuition that AI is not a full social subject before whom complex politeness must be constructed.

Discussion. These observations align with survey data indicating widespread but not universal politeness toward AI. They also suggest a functional shift: markers that in human communication signal social distance or gratitude serve primarily interactional maintenance in AI-directed prompts — softening commands and marking conversational boundaries.

The limitations are evident: the sample is small and non-representative, drawn from public illustrations rather than a systematic corpus. The findings should be regarded as hypotheses for further testing. Future research should collect a balanced corpus of English-language prompts, controlling for task type, user experience, and interaction context.

Conclusion. This preliminary analysis of publicly available examples of English-language prompts to ChatGPT shows that users retain basic lexical politeness markers primarily "please" and "thank you" when addressing artificial intelligence. However, these markers perform a functionally different role than in human communication: they serve mainly to soften imperative constructions and maintain communicative contact, rather than to express genuine social distance or sincere gratitude. These observations require verification on a larger corpus; nevertheless, they suggest that politeness toward AI reflects human habits and social norms rather than the machine itself.

REFERENCES:

1. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

2. Srinivasan A., Choi E. TyDiP: A Dataset for Politeness Classification in Nine Typologically Diverse Languages // Findings of the Association for Computational Linguistics: EMNLP 2022. – Abu Dhabi, 2022. – P. 5723–5738.

3. Abdelhady S., Pitychoutis K. M. A corpus-based analysis of politeness strategies in Arabic speakers' interactions with ChatGPT // Cogent Arts & Humanities. – 2026. – Vol. 13, No. 1. – DOI: 10.1080/23311983.2026.2691356.

4. Zhao H., Hawkins R. D. Comparing human and LLM politeness strategies in free production // Proceedings of the 2025 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing (EMNLP 2025). – Suzhou, 2025. – P. 16199–16227.

5. Germain T. Do you have to be polite to AI? // BBC Future. – 2026. – 24 February. – URL: https://www.bbc.com/future/article/20260224-the-best-way-to-talk-to-a-chatbot

6. The Mirror. Users speak politely to AI in belief they'll get better results, says new study. – 2025. – 14 November. – URL: https://www.mirror.co.uk/news/weird-news/millions-ai-users-unusual-habit-36252566

7. Reddit r/ChatGPTPro. Do You Say "Yes Please" and "Thank You" to ChatGPT? – 2025. – URL: https://www.reddit.com/r/ChatGPTPro/comments/1kpeiid/

UO'K 821.512.133-09

NEOFOLKLORIZMNING ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYACHILIGIDAGI NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

Sh.O.Zaripova, tayanch doktorant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada neofolklorizmning zamonaviy o'zbek hikoyachiligida namoyon bo'lish shakllari tahlil qilinadi. Folklor an'analari, obraz va motivlarning zamonaviy badiiy tafakkur doirasida qayta talqin etilishi, ularning hikoya poetikasidagi vazifalari yoritiladi. Xalq og'zaki*

ijodiga xos mifologik tasavvurlar, ramzlar, arxetipik obrazlar, maqol va matallar, xalqona iboralar hamda urf-odat va marosim unsurlarining zamonaviy hikoya matniga singdirilish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, an’anaviy folklor materialining yozuvchi badiiy niyatiga muvofiq o‘zgartirilishi, yangi mazmun va badiiy vazifa kasb etishi neofolklorizmning muhim xususiyati sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: *neofolklorizm, folklorizm, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi, folklor an’anasi, folklor motivi, mifologik tasavvur, arxetip, ramz, xalqona ibora, maqol va matal, urf-odat, marosim, badiiy talqin.*

Аннотация. *В статье рассматриваются формы проявления неофольклоризма в современной узбекской новеллистике. Анализируются переосмысление фольклорных традиций, образов и мотивов в контексте современного художественного мышления, а также их функции в поэтике рассказа. Особое внимание уделяется способам включения в художественный текст мифологических представлений, символов, архетипических образов, пословиц и поговорок, народных выражений, а также элементов обычаев и обрядов. Трансформация традиционного фольклорного материала в соответствии с авторским художественным замыслом, приобретение им нового содержания и художественных функций рассматриваются как важные особенности неофольклоризма.*

Ключевые слова: *неофольклоризм, фольклоризм, современная узбекская новеллистика, фольклорная традиция, фольклорный мотив, мифологические представления, архетип, символ, народные выражения, пословицы и поговорки, обычаи, обряды, художественная интерпретация.*

Abstract. *This article examines the forms of manifestation of neofolklorism in contemporary Uzbek short stories. It explores the reinterpretation of folklore traditions, images, and motifs within contemporary literary thought and their functions in the poetics of short stories. Particular attention is paid to the ways in which mythological beliefs, symbols, archetypal images, proverbs and sayings, folk expressions, as well as elements of customs and rituals are incorporated into contemporary literary texts. The transformation of traditional folklore material in accordance with the writer’s artistic intention and its acquisition of new meanings and literary functions are also considered important features of neofolklorism.*

Key words: *neofolklorism, folklorism, contemporary Uzbek short stories, folklore tradition, folklore motif, mythological beliefs, archetype, symbol, folk expressions, proverbs and sayings, customs, rituals, literary interpretation.*

Kirish. Folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi munosabat adabiy jarayonning muhim masalalaridan biridir. Xalq og‘zaki ijodida shakllangan syujet, motiv, obraz, ramz, maqol va matallar, urf-odat hamda marosimlar yozma adabiyot taraqqiyotining turli bosqichlarida ijodkorlar uchun badiiy manba vazifasini bajarib kelgan. O‘zbek folklorshunosligida ham xalq og‘zaki ijodining janriy xususiyatlari, poetikasi, obraz va motivlari, yozma adabiyot bilan aloqalari alohida tadqiq etilgan [1].

XX asr oxiri va XXI asr adabiyotida folklor materialiga munosabatning murakkablashishi kuzatiladi. Yozuvchi mif, afsona, rivoyat, arxetipik obraz yoki an’anaviy motivni aynan takrorlash bilan cheklanmay, uning mazmunini zamonaviy inson va jamiyat muammolari asosida qayta talqin qiladi. Bunday jarayonda folklor unsuri yangi semantik va poetik vazifa kasb etadi. Ushbu xususiyat neofolklorizm hodisasini folklorizmning boshqa ko‘rinishlaridan farqlash imkonini beradi.

Neofolklorizmda folklor materiali asarning tashqi bezagi sifatida emas, mazmunni shakllantiruvchi badiiy vositalardan biri sifatida qatnashadi. Qadimiy tasavvur zamonaviy inson ruhiyati bilan, an’anaviy motiv bugungi ijtimoiy muhit bilan, xalqona ramz esa muallifning individual badiiy qarashi bilan bog‘lanadi. Mazkur maqolaning maqsadi zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida neofolklorizmning namoyon bo‘lish shakllarini aniqlash, folklor motivlari, xalqona birliklar, mifologik tasavvurlar va marosimlarning zamonaviy badiiy matndagi vazifalarini tahlil qilishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Zamonaviy o‘zbek nasrida inson ruhiyatiga chuqurroq kirish, milliy xotira, qadriyatlar va zamonaviy hayot o‘rtasidagi munosabatlarni yoritishga

intilish folklorga munosabatda ham yangi tamoyillarni yuzaga chiqardi. O‘zbek folklorshunosligida xalq og‘zaki ijodining janriy tarkibi, poetik xususiyatlari, mifologik asoslari va marosimlar bilan bog‘liqligi keng o‘rganilgan [1]. Mazkur nazariy qarashlar yozma adabiyotdagi folklor birliklarining manbasi va an’anaviy mazmunini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida mifologik tafakkur va folklor an’analarining yangi badiiy shakllar bilan uyg‘unlashishi ham kuzatilmoqda [2]. Bu esa folklor materialining bugungi nasrdagi vazifalarini neofolklorizm nuqtayi nazaridan o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, badiiy matndagi har qanday folklor birligini neofolklorizm namunasi sifatida baholash mumkin emas. Maqol, matal, xalqona qiyos yoki urf-odatning mavjudligi avvalo folklorizm hodisasini ko‘rsatadi. Neofolkloristik xususiyat esa an’anaviy mazmunning qayta talqin qilinishi, yangi kontekst bilan bog‘lanishi va yangi badiiy vazifa kasb etishida namoyon bo‘ladi.

Tajriba qismi (tadqiqotni amalga oshirish). Tadqiqot zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida uchraydigan folklor birliklarini aniqlash va ularning badiiy matndagi vazifalarini o‘rganish asosida amalga oshirildi. Asosiy tahlil materiali sifatida Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalaridagi folklor unsurlaridan foydalanildi. Adib hikoyalaridagi maqol va matallar, xalqona qiyoslar, frazeologik birliklar, olqish va qarg‘ishlar, xalq e’tiqodlari, marosim va urf-odatlarga oid unsurlar kuzatildi.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, kontekstual hamda badiiy matn tahlili usullaridan foydalanildi. Dastlab hikoyalardagi folklorga aloqador birliklar ajratildi. Keyin ularning xalq nutqi va folklordagi an’anaviy mazmuni bilan hikoya kontekstidagi vazifasi o‘zaro qiyoslandi.

Neofolkloristik xususiyatni belgilashda folklor birligining yangi kontekst ta’sirida o‘zgarishi asosiy mezon sifatida olindi. Shu orqali an’anaviy folklorizm ko‘rinishlari bilan qayta ishlangan folklor materialini farqlashga harakat qilindi.

Olingan natijalar tahlili. Tadqiqot natijalari zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida folklor materialining turli darajalarda qayta ishlanishini ko‘rsatdi. Bu jarayon, birinchi navbatda, xalqona ibora, maqol va matallarning muayyan voqea hamda personaj ruhiy holatiga moslashtirilishida namoyon bo‘ladi.

Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarida xalqona iboralar personaj nutqining tabiiyligini ta’minlash bilan birga voqea va holatga qisqa, ammo aniq baho berishga xizmat qiladi [4]. Masalan, “Mol achchig‘i — jon achchig‘i” maqoli muayyan vaziyatda moddiy yo‘qotish bilan insonning ruhiy reaksiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni xalqona tarzda ifodalaydi [4]. Mazkur birlik matnga tayyor maqol sifatida kirgan bo‘lsa-da, uning konkret voqea bilan bog‘lanishi umumxalq ma’nosini kontekstual mazmun bilan to‘ldiradi. Adib hikoyalaridagi “shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlarmidi” mazmunidagi maqol ham voqea sababini xalq tajribasi asosida baholashga xizmat qiladi [4]. Bu o‘rinda folklor birligi qahramon tafakkurining o‘ziga xos shaklini ko‘rsatadi: personaj voqelikni abstrakt mulohaza orqali emas, avlodlardan o‘tib kelayotgan xalqona xulosa vositasida anglaydi.

Neofolkloristik xususiyat xalqona qiyoslarning individual mualliflik kontekstida yangilanishida yanada aniqroq ko‘rinadi. Abduqayum Yo‘ldosh nasrida “uyasi buzilgan chumoliday”, “suvga tushgan toshday izsiz”, “miyasi olib tashlangan qo‘y kabi garangsib” singari qiyoslar uchraydi [4]. Ularning asosida xalqona kuzatuv va kundalik turmush tajribasi mavjud. Biroq yozuvchi bu qiyoslarni konkret personajning holatiga bog‘lash orqali ularga psixologik vazifa yuklaydi.

Hikoyalarda xalqona e’tiqod va diniy-maishiy tasavvurlar ham badiiy vazifa bajaradi. “Xudo yorlaqab...”, “Iloyo...”, “Yo‘ling oydin bo‘lsin, bolam...” singari birliklar xalqning olqish, tilak va duo an’analari bilan bog‘liq [4]. Bunday birliklar personaj nutqida qo‘llanganda uning dunyoqarashi, ruhiy holati va muhitini ko‘rsatadi. Ayniqsa, tilak yoki duo muayyan dramatik vaziyat bilan yonma-yon kelganda uning emotsional mazmuni kuchayadi.

Neofolklorizmning yana bir ko‘rinishi urf-odat va marosimlarning zamonaviy ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘lanishida namoyon bo‘ladi. Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarida Navro‘z, to‘y, xudoyi, ota-onaning kenja o‘g‘il bilan yashashi singari xalq turmushiga oid hodisalar uchraydi [4]. Ular shunchaki etnografik ma’lumot vazifasini bajarmaydi. Marosim va odatlar orqali oiladagi munosabatlar, avlodlar qarashi, mahalla muhiti hamda personajlarning jamiyatdagi o‘rni ochiladi.

Masalan, “Navro‘z ayyomida oqsoqol o‘zining payg‘ambar yoshga to‘lganini ham qo‘shib kenjatoyning to‘yini o‘tkazib oldi” mazmunidagi tasvirda bir necha xalqona qatlam o‘zaro birlashadi [4]. Navro‘z, yosh bilan bog‘liq xalqona tasavvur va to‘y marosimi bir voqea doirasida beriladi. Natijada matn milliy turmush tasviridan tashqari personaj yashayotgan ijtimoiy-madaniy muhitni ham ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy hikoyadagi neofolklorizmni folklor birliklarining soni bilan belgilab bo‘lmaydi. Asarda ko‘plab maqol, matal va iboralar mavjud bo‘lishi mumkin, biroq ular faqat personaj nutqini xalqonalashtirsa, bunday holat an’anaviy folklorizm doirasida qoladi. Aksincha, bitta folklor motivi yoki xalqona tasavvur muallif tomonidan qayta ishlanib, asarning muhim mazmuniy unsuriga aylantirilishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida neofolklorizmning bir necha asosiy namoyon bo‘lish shakllarini ajratish mumkin.

Birinchisi, an’anaviy folklor birliklarining kontekstual qayta ma’nolanishi. Bunda maqol, matal yoki xalqona iboraning umumxalq ma’nosi saqlanadi, ammo konkret badiiy vaziyat unga qo‘shimcha mazmun yuklaydi.

Ikkinchisi, xalqona qiyos va obrazlarning psixologik vositaga aylanishi. Hayvonot, tabiat va maishiy turmush bilan bog‘liq xalqona kuzatuvlar personajning ruhiy holatini ifodalash uchun ishlatiladi.

Uchinchisi, e’tiqodiy tasavvurlarning qahramon dunyoqarashi bilan bog‘lanishi. Duo, qarg‘ish, irim, alomat va taqdirga oid qarashlar personajning voqelikni qanday qabul qilishini ko‘rsatadi.

To‘rtinchisi, urf-odat va marosimlarning yangi ijtimoiy-psixologik vazifa kasb etishi. Marosim asarda faqat milliy muhit yaratmaydi, balki qahramonlar o‘rtasidagi munosabat va qadriyatlar o‘zgarishini ham ifodalaydi.

Beshinchisi, folklor tafakkuri bilan individual muallif uslubining birlashishi. Yozuvchi xalq xotirasidagi tayyor birlikni o‘z badiiy tafakkuridan o‘tkazadi va natijada an’anaviy mazmun bilan individual badiiy mazmun bir matnda tutashadi.

Shunday qilib, neofolklorizm zamonaviy hikoyada folklorning oddiy takrorlanishi emas, balki uning yangi badiiy sharoitda faoliyat ko‘rsatishidir. Folklor unsuri o‘zining tarixiy va madaniy ildizini saqlagan holda zamonaviy inson, muhit va muammolar bilan bog‘lanadi.

Xulosa. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida folklor an’analari yangi badiiy sharoitda davom etmoqda. Folklor motivlari, xalqona iboralar, maqol va matallar, qiyoslar, e’tiqodiy tasavvurlar, urf-odat va marosimlar zamonaviy hikoya tarkibiga kirib, muallifning badiiy maqsadiga muvofiq turli vazifalarni bajaradi.

Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalari tahlili xalqona birliklarning zamonaviy nasrda bir necha yo‘nalishda faollashganini ko‘rsatadi. Maqol va matallar voqeaga baho berish vositasiga, xalqona qiyoslar psixologik tasvir unsuriga, duo va qarg‘ishlar personaj dunyoqarashini ko‘rsatuvchi birlikka, urf-odat va marosimlar esa ijtimoiy munosabatlarni yorituvchi badiiy vositaga aylangan. Demak, neofolklorizm zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida milliy folklor an’analarining mexanik takrori emas. U xalqning tarixiy-madaniy xotirasida saqlangan badiiy tajribaning zamonaviy adabiy tafakkur asosida qayta ishlanishi va yangi mazmun bilan boyitilishidir. Bu jarayon folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi aloqalar bugungi o‘zbek hikoyachiligida ham faol davom etayotganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1990. — 304 b.

2. Chulieva N. Time-space and artistic mythology in stories by Nazar Eshonqul // Turkology. — 2025. — № 1.

3. Samadova G. Nazar Eshonqul asarlarida folklor elementlari: “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi misolida // Adabiy meros. — 2026. — № 2 (20). — B. 163–166.

4. Yo‘ldosh A. Puankare: hikoyalar. — Toshkent: Akademnashr, 2022.

UO'K 82.09-312.4

ARTUR KONAN DOYL VA O'ZBEK DETEKTIV NASRINING SHAKLLANISHI HAMDA TARAQQIYOT XUSUSIYATLARI

Zokirova S. O., o'qituvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahon detektiv adabiyotining klassigi Artur Konan Doyl yaratgan an'analar va deduktiv metodning o'zbek detektiv nasri shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri tadqiq etilgan. Maqolada g'arb klassik andozalarining o'zbek yozuvchilari (H. Shayxov, T. Malik) ijodida milliy mentalitet hamda sotsial-psixologik voqealar kontekstida qayta ishlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqillik davri yangi o'zbek nasrida (N. Eshonqul) an'anaviy qoliplarning o'zgarishi va aks-detektiv (anti-detektiv) tamoyillarining yuzaga kelish xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *detektiv, deduktiv metod, o'zbek nasri, aks-detektiv, milliy kolorit, psixologizm.*

Аннотация. *В данной статье исследуется влияние традиций классического детектива Артура Конан Дойла и его дедуктивного метода на становление узбекской детективной прозы. Анализируется переосмысление западных классических стандартов в творчестве узбекских писателей (Х. Шайхов, Т. Малик) в контексте национального менталитета и социально-психологических связей. Также освещаются особенности трансформации традиционных клише и формирования принципов антидетектива в новой узбекской прозе периода независимости (Н. Эшонкул).*

Ключевые слова: *детектив, дедуктивный метод, узбекская проза, антидетектив, национальный колорит, психологизм.*

Abstract. *This article examines the influence of Arthur Conan Doyle's classic detective traditions and his deductive method on the formation of Uzbek detective prose. It analyzes the reinterpretation of Western classical standards in the works of Uzbek writers (H. Shaykhov, T. Malik) within the context of national mentality and social-psychological relations. Furthermore, the features of traditional cliché transformations and the emergence of anti-detective principles in the new Uzbek prose of the independence period (N. Eshonqul) are highlighted.*

Keywords: *detective, deductive method, Uzbek prose, Sherlock Holmes, Tohir Malik, anti-detective, national color, psychologism.*

Kirish (introduction)

Jahon adabiyoti tarixida ma'lum bir janrning tizimli ravishda shakllanishi va mukammallikka erishishi ko'p jihatdan ma'lum bir maktab asoschilarining nomi bilan bog'lanadi. Klassik detektiv janri haqida so'z ketganda, ingliz adibi Artur Konan Doyl yaratgan adabiy konsepsiya birinchi navbatda tilga olinadi. Uning mantiqiy tafakkur, ratsionalizm va ilmiy asoslangan tahlilga tayanuvchi Sherlok Xolms obrazi jahon madaniy makonida sarguzasht-detektiv yo'nalishining fundamental andozasiga aylandi [1]. Konan Doyl yaratgan sxema shunchaki jinoyatni fosh etish mexanizmi emas, balki inson intellektining yovuzlik ustidan qozongan g'alabasini ko'rsatuvchi falsafiy-estetik tizimdir.

O'zbek adabiyotshunosligida epik turlarning tabiati, xususan, roman va qissa janrlari falsafiy hamda ijtimoiy jihatdan chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, ommaviy madaniyat va intellektual nasr chorrahasida turuvchi detektiv nasrning o'ziga xos taraqqiyot qonuniyatlari hali ham mukammal tizimli tadqiqotga muhtoj [2:15]. Jahon va milliy adabiy aloqalar kontekstida Konan Doyl an'analarining o'zbek milliy zaminida interpretatsiya qilinishi, Sharqona didaktik tafakkur bilan sintezlashuvi hamda XXI asr o'zbek postmodernistik nasridagi o'zgarishlarini tadqiq etish mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili (literature review)

Detektiv janrining kelib chiqishi va struktural xususiyatlari xorijiy va respublika olimlari tomonidan turli aspektlarda o'rganilgan. Rus adabiyotshunosi N.N. Volskiy detektivni "dialektik fikrlash modeli" sifatida baholab, uning qat'iy mantiqiy qoliplarga tayanishini isbotlaydi. O'zbek adabiyotshunosligida esa detektiv va sarguzasht janri muammolari dastlab R. Rasulov, keyinchalik esa zamonaviy tadqiqotchi olimlar tomonidan Tohir Malik ijodi prizmasida qisman yoritilgan.

Shuningdek, tilshunos M. Shoymardanova ingliz va o‘zbek detektiv romanlarida personajlar nutqi tipologiyasini o‘rganib, g‘arb va sharq diskursining lingvopragmatik farqlarini ochib beradi. Biroq, Artur Konan Doyl yaratgan klassik deduktiv maktab bilan bevosita o‘zbek milliy detektivi (sotsial-didaktik detektiv) hamda uning mustaqillik davridagi anti-detektiv ko‘rinishlari o‘rtasidagi evolyutsion aloqalar adabiyotshunoslikda yaxlit planda tahlilga tortilmagan.

Metodologiya (methodology)

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, tipologik, shuningdek, strukturaviy-badiiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Artur Konan Doyl asarlaridagi syujet qurilishi (kompozitsion zanjir) va izquvar konsepsiyasi o‘zbek detektiv nasri namoyandalari (Hojiakbar Shayxov, Tohir Malik) hamda mustaqillik davri yangi o‘zbek nasri (Nazar Eshonqul) konseptual dunyoqarashlari bilan qiyosiy tahlil etildi. Badiiy matnlarning janriy tabiati va qahramonlar tizimi funksional jihatdan o‘rganildi.

Natijalar (results)

O‘tkazilgan qiyosiy-tipologik tahlillar natijasida aniqlandiki, o‘zbek detektiv nasri shakllanish jarayonida g‘arb klassik modellaridan, xususan, Konan Doyl andozalaridan sezilarli darajada ta’sirlangan bo‘lsa-da, o‘z taraqqiyoti davomida uchta muhim o‘ziga xos evolyutsion bosqichni bosib o‘tgan:

1. Ilmiy-fantastik sintez bosqichi (XX asr 60-70-yillari): Detektiv unsurlar sof holda emas, balki H. Shayxov asarlarida ilmiy bashoratlar va fantastik motivlar bilan birga kirib keldi. Bu davrda Konan Doylning deduktiv metodi laboratoriya sharoitidagi tahlillarga ko‘chdi.

2. Sotsial-psixologik va didaktik model (XX asr 80-90-yillari): Tohir Malik ijodi bilan o‘zbek detektivi o‘zining milliy qiyofasini topdi. Bu modelda jinoyat shunchaki mantiqiy jumboq emas, balki ma’naviy inqiroz oqibati sifatida talqin etildi.

3. Falsafiy aks-detektiv (anti-detektiv) hodisasi (XXI asr boshlari): Nazar Eshonqul nasrida an’anaviy Konan Doylcha syujet strukturasi (jinoyat → yechim) inkor etilib, postmodernistik "haqiqatning ko‘p qirraliligi" g‘oyasi ilgari surildi.

Tahlil va muhokama (discussion)

1. Konan Doyl detektivi va deduktiv metodning jahoniy andozasi. Artur Konan Doyl detektiv janrini intellektual o‘yin darajasiga ko‘tardi. Uning qahramoni Sherlok Xolms har qanday murakkab voqeani mayda, oddiy odam sezmaydigan detallar orqali zanjirsimon bog‘laydi. G‘arb klassik detektivining asosi — pozitivizm, ya’ni aql va ilmiy yondashuv yordamida har qanday sirni ochish mumkinligiga ishonchdir. U yerdagi izquvar — hissiyotlardan yiroq, matematik aniqlikda fikrlovchi subyektdir.

2.O‘zbek adabiyotida janrning kurtak otishi. O‘zbek adabiy muhitida klassik detektivga ehtiyoj XX asrning ikkinchi yarmida, jahon adabiyoti durdonalari o‘zbek tiliga faol o‘girila boshlagan davrda kuchaydi. Kitobxonlar Ziyouz.uz portali kutubxonasida mavjud bo‘lgan Konan Doylning "Baskervillar iti" va "To‘rtlar belgisi" kabi durdonalari orqali janr qonuniyatlarini o‘zlashtirdilar. Biroq, milliy nasrda bu andozani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish imkonsiz edi. O‘zbek xalqining badiiy tafakkuri sof texnik, sovuqqon mantiqiy o‘yinlardan ko‘ra, qahramonning ruhiy olami va axloqiy muammolariga ko‘proq moyil edi. Hojiakbar Shayxov o‘zining ilmiy-fantastik qissalarida jinoyat elementlarini kiritar ekan, ko‘proq insoniyat kelajagi va ilm-fan etikasini birinchi planga qo‘ydi.

3. Tohir Malik: Milliy detektiv maktabining yaralishi va Doyl an’analariga munosabat. O‘zbek detektiv nasrini milliy mentalitet poydevoriga qurgan yozuvchi, shubhasiz, Tohir Malikdir. Uning "Shaytanat", "Chorshaxar", "Murdalar gapirmaydi" asarlari o‘zbek adabiyotida jinoyat olami psixologiyasini ochib bergan monumental namunalardir.

Konan Doyl asarlarida izquvarning maqsadi — jinoyatchini topish va mantiqiy g‘alabaga erishish. Tohir Malikda esa izquvar (masalan, "Shaytanat"dagi tergovchi obrazlarida) shunchaki qonun himoyachisi emas, u eng avvalo, o‘zbek milliy qadriyatlari, imon va diyonat mezoni bilan fikrlovchi shaxsdir. Tohir Malik g‘arb detektivining quruq sxemasini sotsial fojia va diniy-ma’rifiy didaktika bilan to‘ldirdi. U jinoyatning qanday sodir bo‘lganidan ko‘ra, inson nega jinoyat ko‘chasiga kirdi, uni nima buzdi (nafs, muhit, ma’naviyatsizlik) degan savollarga javob izlaydi. Yozuvchi jinoyatchini mantiqiy jumboqning bo‘lagi emas, ruhini shayton egallagan fojiaviy qahramon sifatida tasvirlaydi.

4. Postmodernizm ta'siri: Klassik detektivdan anti-detektivga evolyutsiya. Mustaqillik davri o'zbek nasrida jahon adabiyotidagi X.L. Borxes, U. Eko va X. Kortasar an'analari ta'sirida klassik detektiv qoliplarini ichkaridan parchalash — anti-detektiv (aks-detektiv) yo'nalishi paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning o'zbek adabiyotidagi eng yorqin vakili Nazar Eshonqul hisoblanadi.

Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi va boshqa epik asarlarida Konan Doyl asos solgan mantiqiy izchillik ataylab inkor etiladi. Agar Konan Doylda har bir jinoyatning aniq moddiy yechimi bo'lsa, N. Eshonqul nasrida jinoyat va sir ontologik xarakterga ega — u inson borlig'ining ajralmas qismidir va uni oddiy aql yoki deduktiv metod bilan yechib bo'lmaydi.

Nazar Eshonqul uslubida klassik detektivning tergov qilish shakli saqlanadi, ammo tergov obyekti tashqi jinoyatchi emas, balki insonning o'z o'tmishi, gunohlari va ruhiy iztiroblaridir. Bu esa janrning o'zbek milliy zaminida yuksak falsafiy-intellektual darajaga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Xulosa (conclusion).

Xulosa qilib aytganda, Artur Konan Doyl rivojlantirgan va jahon adabiyoti andozasiga aylangan klassik detektiv janri o'zbek milliy tuprog'ida o'ziga xos evolyutsion transformatsiyani boshdan kechirdi. O'zbek yozuvchilari g'arbga xos bo'lgan sof ratsional va mexanik syujet sxemalarini shunchaki ko'chirmasdan, ularni Sharqona falsafiy dunyoqarash, milliy ma'naviyat, axloqiy mezonlar va teran psixologizm bilan boyitdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Konan Doyl A. Baskervillar iti. To'rtlar belgisi. – Toshkent: Sharq, 2013.
2. Malik T. Shaytanat (5 jildlik). – Toshkent: Sharq, 2006.
3. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. – Toshkent: Davr press, 2011.
4. Volskiy N.N. Detektiv kak model dialekticheskogo myshleniya. – Moskva: Sintez, 2006.
5. Rasulov R. Detektiv janr tabiati va taraqqiyoti // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2018. – № 3. – B. 24-29.

УДК 81'37:81'42:004.738.5

АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ОБРАЗ ЧЕЛОВЕКА В ЦИФРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ: ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ЦЕННОСТЕЙ И ДИСКУРСИВНЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ

Абдуллаева Р. Х., PhD, Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, Самарканд

Annotatsiya. *Maqolada an'anaviy til materiallari va zamonaviy raqamli muloqotda insonning aksiologik obrazini ifodalash usullari nazariy jihatdan qiyoslanadi. Qadriyat belgilarining davomiyligi, ularning diskursiv yangilanishi va raqobatini tekshirish uchun paremiologik hamda raqamli materiallarni yagona mezonlar asosida tahlil qilish tartibi taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *tilning olam manzarasi, inson obrazi, aksiologiya, raqamli diskurs, paremiologiya, qadriyat, nutqiy reprezentatsiya.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические основания сопоставления ценностного образа человека в традиционных языковых формах и современной цифровой коммуникации. Предложена схема анализа устойчивости, функционального обновления и конкуренции ценностных признаков с учётом различий между паремиологическими и медиадискурсивными источниками.*

Ключевые слова: *языковая картина мира, аксиологический образ человека, цифровой дискурс, паремиология, ценностная норма, самопрезентация, междискурсивное сопоставление.*

Abstract. *The article examines the theoretical foundations for comparing value-based representations of a person in traditional linguistic forms and contemporary digital communication. It proposes an analytical framework for studying the continuity, functional reinterpretation, and competition of evaluative features across paremiological and digital discourse materials.*

Keywords: *linguistic worldview, axiological image of a person, digital discourse, paremiology, value norms, self-presentation, cross-discourse comparison.*

Вопрос о том, каким должен быть человек, решается в культуре не только посредством философских и педагогических рассуждений. Представления о желательных и нежелательных

качествах закрепляются в повседневной речи, пословицах, устойчивых оценочных формулах, а сегодня также в публичных цифровых сообщениях. Для лингвистики существенно не само существование нравственных идеалов, а то, какие языковые средства позволяют их обнаружить, каким образом они получают оценочный знак и в каких ситуациях становятся нормативными.

Цель статьи - обосновать процедуру сопоставления традиционных и цифровых репрезентаций положительно оцениваемых качеств человека. Речь идёт о разработке исследовательской схемы, а не об отчёте по уже собранному количественному корпусу. Соответственно, предлагаемые наблюдения имеют статус аналитических гипотез, нуждающихся в эмпирической проверке.

В антропоцентрически ориентированном языкознании образ человека рассматривается через языковую категоризацию опыта, оценочные значения и дискурсивные практики. Для анализа значимы исследования Н.Д. Арутюновой о взаимодействии языка и человеческого мира, В.И. Карасика о языковой личности и дискурсе, а также В.Н. Телия о культурной интерпретации устойчивых выражений [3:96; 4:102–125; 5:45]. Эти работы позволяют поставить вопрос о том, как ценностный смысл связан с языковой формой, контекстом и коллективными представлениями.

Под аксиологическим образом человека в настоящей статье понимается аналитически реконструируемая совокупность положительно и отрицательно оцениваемых характеристик личности, их противопоставлений и типичных сценариев проявления. Такое определение не предполагает единого для всех носителей языка «идеала». Различные социальные группы и жанры могут по-разному ранжировать одни и те же качества. Например, сдержанность может интерпретироваться как проявление такта, тогда как в ситуации профессиональной самопрезентации высоко оценивается способность открыто заявить о собственных результатах.

Специфика цифровой коммуникации состоит не только в использовании технических платформ. Она связана с изменением темпа взаимодействия, состава участников, способов адресации и средств создания смысла. С.В. Первухина и М.П. Чуриков рассматривают цифровую коммуникацию в контексте современных лингвистических исследований [1:56]. Для аксиологического анализа принципиально, что в цифровой среде личностные качества могут быть представлены через сообщения, профессиональные профили, комментарии, публичные ответы и рассказы о результатах деятельности.

Особый исследовательский интерес вызывает взаимодействие текста с другими элементами публикации. С.Л. Кушнерук, характеризуя телеграм-дискурс, выделяет свойства цифровой организации общения, включая диалогичность, гипертекстуальность и мультимодальность [2:305]. Поэтому оценка человека может формироваться не только при помощи слов «надёжный» или «компетентный», но и через сочетание высказывания, иллюстрации, реакции аудитории и истории обсуждения.

При сопоставлении традиционного и цифрового материала целесообразно различать несколько типов смысловых отношений. Первый тип - преемственность: качество сохраняет положительный или отрицательный оценочный знак при смене жанра. К числу потенциально устойчивых характеристик относятся честность, ответственность, добросовестность, уважение к другому и надёжность. Их междискурсивная устойчивость, однако, должна подтверждаться материалом, а не предполагаться заранее.

Второй тип - функциональное обновление. Ценностная основа может оставаться узнаваемой, но изменяются обстоятельства её проявления. Например, ответственное отношение к делу в цифровой профессиональной коммуникации может выражаться через своевременное выполнение обязательств, прозрачное информирование о ходе работы и готовность исправлять ошибки. Эти формулы не обязательно обозначают новую ценность; они могут быть новыми сценариями реализации прежней нормы.

Третий тип - конкуренция оценочных ориентиров. В цифровой среде публичная заметность, самостоятельность и инициативность могут приобретать особую значимость, но

при этом не отменяют ценностей коллективного взаимодействия и умеренности. Возникают контексты, в которых качества не вытесняют друг друга, а образуют напряжённую систему требований. Аналитически важно установить, какие признаки оказываются предпочтительными в конкретной сфере общения и каким языковым способом выражается это предпочтение.

Для описания перехода между жанрами предлагается различать два аналитических уровня. Первый - ценностное ядро, то есть набор характеристик, положительная оценка которых воспроизводится в различных коммуникативных условиях. Второй - дискурсивный профиль: способы называния, демонстрации и аргументации этих характеристик в конкретной среде. Такое разграничение позволяет избежать подмены изменения языка изменением самой ценностной системы.

Первый этап исследования предполагает создание перечня ценностных категорий на основе традиционного языкового материала. Для каждой категории следует фиксировать положительный либо отрицательный полюс, типичную ситуацию, субъект оценки и предполагаемое последствие поступка. Пословицы здесь выступают источником культурно закреплённых оценочных сценариев, а не непосредственным свидетельством актуальных поведенческих установок.

На втором этапе формируется цифровой корпус. Необходимо определить временные рамки, жанры, платформы, язык публикаций, критерии включения и исключения текстов. Смешение профессиональных объявлений, личных сообщений и публичных дискуссий без жанровой разметки затрудняет интерпретацию: различия могут объясняться не изменением ценностей, а задачами коммуникации.

Третий этап - разметка языковых средств оценки. В неё входят лексические номинации качеств, предикаты поступков, конструкции долженствования, рекомендации, противопоставления, метафорические характеристики и способы аргументации. При наличии изображений и реакций целесообразно вводить отдельные поля для мультимодальных признаков, не смешивая их с собственно языковыми данными.

Четвёртый этап - сопоставление. Единицей анализа становится не буквальное совпадение пословицы с цифровым сообщением, а общая ценностная функция: какое поведение представлено желательным, какие последствия ему приписаны и какие альтернативы осуждаются. Результаты можно распределять по типам преемственности, функционального обновления, конкуренции и переоценки.

Русско-узбекское исследование ценностного образа человека требует сопоставимости не только тем, но и исследовательских процедур. Для обоих языков необходимо задавать одинаковые временные рамки, сопоставимые жанры, принципы отбора публикаций и критерии оценки. Иначе различия в результатах могут отражать не лингвокультурную специфику, а неодинаковый состав корпусов.

Исследование аксиологического образа человека в цифровой коммуникации требует отказа как от представления о неизменности традиционных норм, так и от недоказанного тезиса об их полном исчезновении. Более продуктивным является анализ того, какие качества сохраняют оценочный знак, какие получают новые формы проявления и какие вступают в конкуренцию в различных коммуникативных ситуациях.

Предложенное разграничение ценностного ядра и дискурсивного профиля помогает описывать эту динамику на сопоставимом уровне. Вместе с тем оно должно рассматриваться как проверяемая исследовательская схема. Достоверные выводы возможны лишь при наличии корпуса, прозрачных критериев разметки и анализа альтернативных интерпретаций. Для русского и узбекского языков такой подход открывает перспективу сопоставления не отвлечённых этнокультурных характеристик, а конкретных способов языкового выражения нормативных представлений о человеке.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Первухина С.В., Чуриков М.П. Цифровая коммуникация в лингвистических исследованиях // Russian Linguistic Bulletin. - 2021. - № 2 (26). – С. 47-58. DOI: 10.18454/RULB.2021.26.2.1.

2. Кушнерук С.Л. Телеграм-дискурс как формат цифровой коммуникации // Медиалингвистика. - 2024. - Т. 11. - № 3. - С. 300–324. DOI: 10.21638/spbu22.2024.302.
3. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - Волгоград: Перемена, 2002. – С. 92-100.
4. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. 2-е изд., испр. - М.: Языки русской культуры, 1999. – С.102-125.
5. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – С.40-49.

УДК 811.161.1'276.6:341

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ТЕРМИНОВ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ДОКУМЕНТАХ НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Айнахожаева Г. А., независимый исследователь, Кокандский государственный университет, Коканд; старший преподаватель, Университет дружбы народов имени Абая

Annotatsiya. *Maqola rus tilidagi xalqaro hujjatlar terminlarining lingvistik tasnifiga bag'ishlangan. Terminlar tuzilishi, kelib chiqishi, qo'llanish sohasi va baynalmilallik darajasi bo'yicha tasniflanadi. Huquqiy, diplomatik va siyosiy terminlar hamda ularning tarjimadagi ekvivalentligi muammolari yoritiladi. Tavsifiy, qiyosiy, kontekstual tahlil va yalpi tanlab olish usullaridan foydalaniladi.*

Kalit so'zlar: *terminlar tasnifi, xalqaro hujjatlar, huquqiy va diplomatik terminologiya, ekvivalentlik, terminologik variantlilik.*

Аннотация. *Статья посвящена классификации терминов международных документов на русском языке. Рассматриваются критерии классификации по структуре, происхождению, сфере употребления и степени интернациональности, особенности юридической, дипломатической и политической терминологии, а также проблемы переводческой эквивалентности и терминологической вариативности. Использованы описательный, сопоставительный и контекстуальный методы, а также метод сплошной выборки.*

Ключевые слова: *классификация терминов, международные документы, юридическая и дипломатическая терминология, эквивалентность, терминологическая вариативность.*

Abstract. *The article examines the linguistic classification of terms in Russian-language international documents by structure, origin, sphere of use and degree of internationality. It addresses legal, diplomatic and political terminology, translation equivalence and terminological variation. Descriptive, comparative and contextual analysis and continuous sampling are employed.*

Keywords: *term classification, international documents, legal and diplomatic terminology, equivalence, terminological variation.*

Международные документы представляют собой особый тип юридического и дипломатического дискурса, где точность терминов обеспечивает однозначность прав и обязательств сторон. Русский язык является одним из официальных языков ООН, русский текст Устава ООН является равно аутентичным наряду с китайским, французским, английским и испанским текстами согласно статье 111 Устава [6]. Наименования главных органов организации, закреплённые в Уставе, демонстрируют разнообразие терминологии, включающей заимствованные и исконные единицы [6].

Несмотря на практическую значимость, классификация терминов международных документов остаётся недостаточно разработанной. Терминоведение и терминологическая лексикография создают теоретическую основу её изучения [Гринев-Гриневич, 2008, с. 30]. Особого внимания требуют специфика юридической, дипломатической и политической лексики, а также терминологическая вариативность и переводческая эквивалентность в условиях многоязычия.

Объект исследования - термины международных документов на русском языке; предмет - их классификация по структуре, происхождению, сфере употребления и степени интернациональности. Цель работы - систематизировать подходы к классификации и

определить соответствующие критерии. Научная новизна заключается в комплексном рассмотрении терминов в рамках единой классификационной системы. Работа охватывает критерии классификации, особенности юридической и дипломатической терминологии и выводы исследования. Термин представляет собой лексическую единицу, обозначающую понятие специальной области знания или деятельности [5]. В международных документах выделяются юридические, дипломатические и политические термины. Например, «переговоры», «посредничество» и «арбитраж» обозначают способы мирного разрешения споров [6]. Их принадлежность к нескольким сферам свидетельствует об условности границ между классификационными группами.

По структуре термины подразделяются на однословные («Секретариат») и составные («Совет Безопасности», «Международный Суд») [6]. По происхождению различаются исконные единицы и заимствования, включая калькированные термины. Так, «Генеральная Ассамблея» содержит заимствованный компонент, тогда как «Совет по Опеке» образован из исконных русских компонентов [6]. Критерий интернациональности выделяет термины, имеющие близкие соответствия в других языках, например «арбитраж» [6]. С классификацией по структуре связаны семантический, морфологический и синтаксический способы образования терминов [2].

Перечисленные критерии взаимодополняют друг друга: один термин может одновременно характеризоваться по сфере употребления, структуре и происхождению. Поэтому многокритериальный подход обеспечивает более полное описание терминологии международных документов.



Рис. 1. Распределение терминов по основным принципам лингвистической классификации (в международных документах на русском языке)

Важной проблемой остаётся переводческая эквивалентность. Сопоставительное терминоведение служит основой гармонизации терминологий разных языков [2]. Метод обратимости перевода позволяет оценивать однозначность соответствий, однако терминологическая вариативность нередко затрудняет выбор эквивалента. Например, английскому *linguistics* соответствуют русские варианты «языкознание», «лингвистика» и «языковедение» [3]. Различия между синонимическими и региональными вариантами, как *maize* и *corn* для немецкого *Mais*, подтверждают необходимость закрепления предпочтительных соответствий в терминологических списках [3]. В международных документах такой выбор особенно важен, поскольку неточность формулировок может повлиять на толкование прав и обязательств.

Методологическую основу сопоставления составляют принципы системности и текстовости, предполагающие анализ терминов в рамках целостных терминосистем и контекста их реального употребления [2]. При этом семантические отношения - гипонимия, синонимия и полисемия - исследованы менее полно, чем формальные аспекты сопоставления [2], что определяет перспективы дальнейшего изучения терминологии международных документов. Таким образом, комплексная классификация по сфере употребления, структуре, происхождению, степени интернациональности и переводческой эквивалентности

способствует нормативному выбору терминов и единообразию русскоязычных международных документов.

Исследование позволило систематизировать подходы к классификации терминов международных документов. Установлено, что их анализ основывается на четырёх критериях: сфере употребления, структуре, происхождении и степени интернациональности. Комплексное применение этих критериев обеспечивает более точное описание юридической, дипломатической и политической терминологии. Особую проблему представляет переводческая эквивалентность: неоднозначность соответствий и терминологическая вариативность могут приводить к различному толкованию прав и обязательств. Поэтому выбор нормативных терминов должен учитывать их системные связи и контекст употребления. Важную методологическую основу составляют метод обратимости перевода и принципы системности и текстовости.

Результаты исследования применимы при переводе международных документов, составлении терминологических словарей и преподавании русского языка для специальных целей. Дальнейшие исследования предполагают изучение семантических отношений и количественный анализ терминов международных организаций. Таким образом, комплексная классификация терминов способствует точности и единообразию русскоязычных международных документов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Григорян А.А. Способы образования терминов группы «документоведение» // Русский и иностранные языки и методика их преподавания. 2009. № 4. С. 33–38 (6 с.).

2. Гринев С.В. Сопоставительное терминоведение: современное состояние//Вестник МГПУ. Серия «Филология. Теория языка. Языковое образование». С. 68–75 (8 с.).

3. Гринев-Гриневич С.В. Лексикография и терминоведение// Terminologija. 2008. Vol. 15. P. 30–41 (12 с.).

4. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Академия, 2008. 304 с.

5. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. 3-е изд. М.: ЛКИ, 2007. 256 с.

6. Устав Организации Объединённых Наций: подписан в Сан-Франциско 26 июня 1945 г. 137 с.

7. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. «Общая терминология: Вопросы теории», 4-е изд., М.: ЛКИ, 2007, 248 с.

8. Гринев-Гриневич С.В., Сорокина Э.А., Молчанова М.А. «Еще раз к вопросу об определении термина», Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика, 2022, т. 13, № 3, с. 710–729, DOI 10.22363/2313-2299-2022-13-3-710-729.

УЎК 811.512.133'38:2

ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ДИНИЙ УСЛУБИ

Амонтурдиева Ш. Р., филология фанлари доктори (DSc), Термиз давлат университети, Термиз

Аннотация. *Мақолада ўзбек тили диний услубининг лексик-семантик ва грамматик хусусиятлари, диний лексиканинг шаклланиши ҳамда унинг бошқа функционал услублар билан муносабати мисоллар асосида таҳлил қилинади. Диний нутқнинг ўзига хос ифода воситалари ҳам ёритилади.*

Калит сўзлар: *ўзбек тили, диний услуб, диний дискурс, диний лексика, исломий терминология, семантика, услубшунослик, нутқ маданияти.*

Аннотация. *В статье анализируются лексико-семантические и грамматические особенности религиозного стиля узбекского языка, формирование религиозной лексики и её связь с другими функциональными стилями. Также рассматриваются характерные средства выражения религиозной речи.*

Ключевые слова: *узбекский язык, религиозный стиль, религиозный дискурс, религиозная лексика, исламская терминология, семантика, стилистика, культура речи.*

Abstract. *This article examines the lexical-semantic and grammatical features of the religious style of the Uzbek language, the formation of religious vocabulary, and its relationship with other functional styles. It also explores the distinctive expressive features of religious discourse.*

Keywords: *Uzbek language, religious style, religious discourse, religious vocabulary, Islamic terminology, semantics, stylistics, speech culture.*

Тил халқнинг тарихи, маънавияти ва маданий қадриятларини ифодаловчи муҳим ижтимоий ҳодисадир. У нафақат мулоқот воситаси, балки инсонларнинг дунёқараши ва эътиқодини акс эттирувчи восита ҳам ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, диний матнлар ва нутқ шаклларини лингвистик жиҳатдан ўрганиш муҳим аҳамиятга эга.

Ўзбек тилининг тараққиётида ислом маданияти ва диний-маърифий мерос муҳим ўрин тутган. Қуръони карим маъноларининг таржималари, ҳадислар, тафсирлар ва диний-ахлоқий асарлар ўзбек тилининг луғавий таркиби бойишига таъсир кўрсатган. “Иймон”, “тақво”, “ибодат”, “тавба”, “садақа”, “ҳалол” каби сўзлар диний тушунчаларни ифодалаш билан бирга кундалик нутқда ҳам қўлланилади. Масалан, *Худога шукр, иншааллоҳ, насиб қилса* каби ифодалар миннатдорлик, умид ва тилак маъноларини билдиради.

Бугунги кунда кўплаб тилларда “диний услуб” тушунчаси тилга олинмоқда ва ушбу услуб амалдаги функционал услублар қаторидан жой олаяпти. Аввало диний услуб тушунчаси ва унинг хусусиятларига тўхталсак. Диний услуб — диний эътиқод, таълимот, ибодат ва маънавий-ахлоқий қадриятларни ифодалашга хизмат қилувчи тил воситалари ҳамда нутқий шакллар мажмуиси сифатида қаралади. Унинг ўзига хослиги матннинг мазмуни, жанри ва коммуникатив мақсади билан белгиланади. Диний дискурсга дуо, хутба, ваъз, диний маъруза, тафсир ва насиҳат каби жанрлар киради. Уларнинг вазифалари бир-биридан фарқ қилади. Масалан, “Аллоҳим, бизга сабр ва матонат ато эт” гапи дуо ва илтижо мазмунини билдирса, “Ота-онангизни ҳурмат қилинг” гапи насиҳат вазифасини бажаради. “Тақво инсоннинг диний-ахлоқий қарашларида муҳим ўрин тутади” гапи эса тушунтириш хусусиятига эга.

Диний услубнинг мустақил функционал услуб сифатидаги мақоми тилшуносликда алоҳида таҳлилни талаб қилади. Диний мавзудаги ҳар қандай матнни диний услубга киритиш тўғри эмас, чунки илмий мақола, бадиий асар ёки публицистик материалда ҳам диний атамалар ишлатилиши мумкин. Шунинг учун матннинг асосий мақсади ва жанри ҳисобга олиниши лозим. Диний услубнинг муҳим белгилари унинг луғавий таркибида намоён бўлади.

Ўзбек тилидаги диний лексиканинг шаклланишида араб тили муҳим манба ҳисобланади. Ислом маданияти таъсирида *“иймон”, “ибодат”, “тақво”, “тавба”, “садақа”, “ҳадис” ва “тафсир”* каби кўплаб сўзлар ўзбек тилида мустаҳкам ўрин эгаллаган.

Форс-тожик тиллари ҳам диний-маърифий лексика тараққиётига таъсир кўрсатган. “Намоз” ва “рўза” каби бирликлар бу жараённинг мисолларидир. Айни вақтда “Яратган”, “яхшилик”, “эзгулик” ва “насиҳат” каби сўзлар диний мазмунни ифодалашда фаол қўлланилади. Ўзлашма сўзлар ўзбек тилининг грамматик тизимига мослашиб, янги бирикмалар ҳосил қилади. Масалан, “дуо қилмоқ”, “тавбага келиш”, “иймон-эътиқод” ва “ҳалол меҳнат” каби бирикмаларда диний лексика ўзбек тилининг синтактик имкониятлари билан уйғунлашган. Диний лексиканинг яна бир хусусияти барқарор бирикмалар ҳосил қилишидир. “Дуо қилмоқ”, “иймон келтирмоқ”, “савобли иш”, “ҳалол ризқ” ва “Аллоҳнинг раҳмати” каби бирикмалар диний мазмунни қисқа ва тушунарли ифодалашга хизмат қилади.

Демак, диний услубнинг луғавий таркиби ўзлашма сўзлар ва ўзбек тилининг ички имкониятлари асосида шаклланган мураккаб тизимдир. Унинг ривожланишини ўрганишда сўзларнинг келиб чиқиши билан бирга, ҳозирги тилдаги маъноси ва қўлланиш доирасини ҳам ҳисобга олиш зарур.

Диний матнлар ўзбек тилининг умумий грамматик қоидалари асосида шаклланади. Бироқ айрим грамматик шакллар муайян коммуникатив вазифаларни бажаришда фаол иштирок этади. Буйруқ-истак майлидаги феъллар насиҳат ва даъват мазмунини ифодалайди. Масалан, “Ота-онангизни ҳурмат қилинг”, “Омонатга хиёнат қилманг”, “Муҳтожларга ёрдам беринг” каби гапларда тингловчи муайян ахлоқий хатти-ҳаракатга йўналтирилади. Бўлишли ва бўлишсиз шакллар ҳаракатни бажариш ёки ундан тийилиш мазмунини билдиради.

Шарт майлидаги феъллар фикрлар ўртасида мантиқий муносабат ўрнатади. “Инсон ўз хатосини англаса, уни тузатишга ҳаракат қилади” гапида шарт ва натижа муносабати

ифодаланган. “Ҳар бир инсон ўз ваъдасига вафо қилиши лозим” гапида эса “лозим” модал сўзи зарурат ва меъёрий муносабатни билдиради.

Диний матнларда дарак, сўроқ ва буйруқ-истак мазмунидаги гаплар ҳам муҳим ўрин тутади. “Инсоннинг яхши хулқи унинг муносабатларида намоён бўлади” гапи маълумот беради. “Бир-бирингизга меҳр-оқибатли бўлинг” гапи насиҳат вазифасини бажаради. “Яхшилик қилиш инсонлар ўртасидаги ишончни мустаҳкамламайдими?” гапи эса риторик сўроқ орқали фикрни таъкидлайди.

Такрор ва параллел қурилмалар ҳам нутқнинг таъсирчанлигини оширади. Масалан, “Сабрли бўлинг, адолатли бўлинг, меҳрибон бўлинг” гапида бир хил синтактик қурилманинг такрорланиши муҳим ахлоқий тушунчаларни таъкидлашга хизмат қилади. Дуо матнларида мурожаат ва илтижо мазмуни устувор бўлади: “Аллоҳим, оиламизга тинчлик, қалбларимизга хотиржамлик ато эт”. Бу гапда мурожаат, тилак ва илтижо бирлашган. Демак, диний матнларда грамматик воситаларнинг услубий вазифаси уларнинг контекстдаги қўлланиши билан белгиланади.

Диний нутқ ахборот бериш, тушунтириш, насиҳат қилиш, дуо ва тилак билдириш ҳамда маънавий қадриятларни узатиш каби вазифаларни бажаради. Масалан, “Закот муайян шартлар асосида адо этиладиган молиявий ибодатдир” гапида тушунтириш, “Бировнинг ҳаққини поймол қилманг” гапида насиҳат, “Аллоҳим, бизга сабр ато эт” гапида эса илтижо вазифаси устувор.

Диний услубнинг илмий услуб билан муносабатида матннинг мақсади муҳим аҳамиятга эга. *«“Тақво” тушунчасининг семантик хусусиятлари»* мавзусидаги мақола диний терминни ўрганса-да, илмий далиллаш ва таҳлилга асосланган учун илмий услубда ёзилади.

Диний ва публицистик услублар ҳам ўзаро таъсирга эга. Масалан, жамиятда меҳр-оқибат ва бағрикенгликнинг аҳамияти ҳақидаги оммавий мақолада диний қадриятлар публицистик мақсадда ёритилиши мумкин. Бадиий асарларда эса «Қаҳрамон оғир кунларда Яратгандан мадад сўради» каби жумлалар диний мазмун билан бирга образ яратиш вазифасини ҳам бажаради.

Кундалик мулоқотда “Худога шукр”, “Иншааллоҳ”, “Насиб қилса”, “Аллоҳ раҳмат қилсин” каби ифодалар қўлланилади. “Ишларингиз яхшими?” деган саволга “Худога шукр, яхши” деб жавоб бериш миннатдорликни, “Иншааллоҳ, учрашамиз” дейиш эса умид ва ниятни ифодалайди. Бу мисоллар диний лексиканинг умумхалқ нутқи билан узвий боғлиқлигини кўрсатади.

Шундай қилиб, диний услубнинг бошқа функционал услублар билан муносабати мураккабдир. Матнда диний атамаларнинг мавжудлиги уни автоматик равишда диний услубга айлантирмайди; асосий мезон матннинг коммуникатив мақсади ва жанридир.

Хулоса шуки, ўзбек тилининг диний услуби тил, дин ва маданият ўртасидаги ўзаро алоқаларни намоён этувчи муҳим лингвистик ҳодисадир. Унинг асосий хусусиятлари диний лексика, терминология, барқарор бирикмалар, грамматик шакллар ва прагматик вазифаларда кўринади.

Диний лексиканинг шаклланишида арабча ва форс-тожикча ўзлашмалар билан бирга ўзбек тилининг ички имкониятлари ҳам муҳим аҳамият касб этади. Диний услубни илмий ўрганиш терминологияни тизимлаштириш, диний матнларни тўғри талқин қилиш ва маърифий нутқ маданиятини ривожлантиришга хизмат қилади. Келгусида диний матнларнинг электрон корпусини яратиш ва уларни қиёсий таҳлил қилиш ушбу соҳанинг истиқболли йўналишларидан ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Амонтурдиева Ш. Р. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик тадқиқи: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2020. – 48 б.

2. Амонтурдиева Ш. Р. Ўзбек тилининг диний услуби: филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Термиз, 2025.

3. Амонтурдиева Ш. Р. Ёрдамчи сўзларнинг диний матнлардаги ифода услуби // International Conference on Linguistics, Literature and Translation. – 2024. – Т. 6. – Б. 27–29.

4. Rashidova, D. *The Features of Religious Text as the Type of Religious Discourse and Classification of Its Lexicon*. Foreign Languages in Uzbekistan, 2024. DOI: https://doi.org/10.36078/1709624269

5. *Linguistic Characteristics of Religious Texts, Its Similarities and Differences with Other Functional Style Texts*. Фарғона давлат университети илмий журнали, 2023. DOI: https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a125

6. Султонова Ш. М., Шералиева Ш. А. *On the Question of Studying Bible and Quranic Phraseology in Uzbek Linguistics*. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 2024. https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/920

7. Хамдамова О. *Lexical Layers of Hadith Texts and Their Lexical-Semantic Characteristics*. O'zMU xabarlari, 2024. https://journals.nuu.uz/index.php/actanuuz/article/view/1683

УДК 81'373.612.2:81'38

ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ИЗУЧЕНИЯ МЕТАФОРЫ И СРАВНЕНИЯ В ОТЕЧЕСТВЕННОЙ И ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Бахронова У. А., магистрант, Навоийский инновационный университет, Навои
Рахмонова М. Х., преподаватель, Навоийский государственный университет, Навои

Annotatsiya. *Maqolada mahalliy va xorijiy tilshunoslikda metafora va qiyoslash hodisalarining o'rganilish tarixi hamda ilmiy qarashlarning rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Mazkur til hodisalariga oid nazariy yondashuvlarning antik davr ritorikasidan zamonaviy lingvistik konsepsiyalargacha bo'lgan evolyutsiyasi tahlil qilingan. Aristotel, Sh. Balli, J. Serl, I. A. Richards, M. Blek, J. Lakoff, M. Jonson, A.A. Potebnya, V.V. Vinogradov va N.D. Arutyunovalarning metafora va qiyoslash haqidagi ilmiy qarashlariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada metaforaning qiyosiy, interaksionistik, konseptual va struktur-semantik nazariyalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda metafora va qiyoslashni kompleks yondashuv asosida o'rganishning ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *metafora, qiyoslash, metafora nazariyasi, tilshunoslik tarixi, kognitiv tilshunoslik, konseptual metafora, interaksionistik nazariya, semantika, stilistika, til obrazliligi.*

Аннотация. *В статье рассматривается историческое развитие научных представлений о метафоре и сравнении в отечественной и зарубежной лингвистике. Прослеживается эволюция подходов к изучению данных языковых явлений от античной риторики до современных лингвистических концепций. Особое внимание уделяется взглядам Аристотеля, Ш. Балли, Дж. Серля, И. А. Ричардса, М. Блэка, Дж. Лакоффа, М. Джонсона, А.А. Потебни, В.В. Виноградова и Н.Д. Арутюновой. Рассматриваются основные теории метафоры, включая сравнительную, интеракционистскую, концептуальную и структурно-семантическую. Обобщаются основные направления исследования метафоры и сравнения, а также раскрывается значение комплексного подхода к их изучению в современной лингвистике.*

Ключевые слова: *метафора, сравнение, теория метафоры, история лингвистики, когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, интеракционистская теория, семантика, стилистика, языковая образность.*

Abstract. *The article examines the historical development of scholarly approaches to metaphor and simile in domestic and international linguistics. It traces the evolution of theoretical perspectives on these linguistic phenomena from ancient rhetoric to contemporary linguistic concepts. Particular attention is paid to the contributions of Aristotle, Charles Bally, John Searle, I.I. A. Richards, Max Black, George Lakoff, Mark Johnson, A.A. Potebnya, V.V. Vinogradov, and N.D. Arutyunova. The article discusses the main theories of metaphor, including comparative, interactionist, conceptual, and structural-semantic approaches. It also summarizes the principal research directions in the study of metaphor and simile and highlights the importance of an integrated approach to their investigation in modern linguistics.*

Keywords: *metaphor, simile, metaphor theory, history of linguistics, cognitive linguistics, conceptual metaphor, interactionist theory, semantics, stylistics, linguistic imagery.*

Изучение метафоры и сравнения насчитывает более двух тысячелетий, на протяжении которых понимание этих феноменов претерпело существенную эволюцию — от

риторического «украшения» до признания их фундаментальными механизмами мышления и познания.

Первое классическое определение метафоры было дано Аристотелем в «Поэтике» и «Риторике». Он определил метафору как «перенесение слова с изменением значения из рода в вид, из вида в род, или из вида в вид, или по аналогии». Для Аристотеля метафора была прежде всего средством достижения ясности и точности выражения, а также способом «обучать через сходство». Он рассматривал метафору как «сжатое сравнение», тем самым установив между ними отношение генетического родства.

Античные философы — Квинтилиан, Цицерон, Деметрий, Теофраст — развили идеи Аристотеля, рассматривая метафору как перенос понятий по сходству и как дополнение для точности выражений. Скляревская, рассуждая об историческом развитии метафоры, указывала, что в античности, вслед за Аристотелем, Деметрий полагал, что «обиходная речь создала такие хорошие метафоры для некоторых понятий, что мы уже не нуждаемся для них в точных выражениях, такая метафора утвердилась в языке, заняв место буквального обозначения». «Платон, в свою очередь, пришел к убеждению, - продолжает ученый, - что «истинна не та изменчивая реальность, что открыта глазу, а другая - непоколебимая, невидимая, но предвосхищаемая в форме совершенства». Для этих незримых сущностей Платон нашел в обыденном языке слово «идея», то есть образ, создав тем самым одну из самых влиятельных метафор в истории философии».

После расцвета античной риторики наступает долгий период, который И.А. Ричардс охарактеризовал как время, когда «сравнение и метафора рассматривалась как нечто вроде удачной уловки, основанной на гибкости слов, как нечто уместное лишь в некоторых случаях и требующее особого искусства и осторожности. К данным языковым единицам относились как к украшению и безделушке, как к некоторому дополнительному механизму языка, но не как к его основной форме». Долгое время употребление метафор считалось даже недопустимым для языка науки из-за возможных неточностей, связанных с двусмысленностью.

Ситуация кардинально меняется в XX веке. Как отмечают исследователи, в этот период метафора и сравнение начинают переосмысливаться как неотъемлемые элементы речи, а научное познание рассматривается в новых измерениях. Способность данных языковых единиц создавать целостность, объединяя разнородный материал, постоянно привлекает к ним интерес различных авторов. Однако специальный анализ сущности природы сравнений и метафоры, их функций долгое время отсутствовал.

В зарубежной лингвистике XX века сложился целый спектр теоретических подходов к изучению сравнения и метафоры. Их можно классифицировать по различным основаниям: хронологическому, по соотнесенности с той или иной лингвистической сферой (синтаксические, семантические, прагматические, семиотические теории).

Сформулированная еще Аристотелем концепция метафоры как «свернутого», эллиптированного сравнения продолжала пользоваться авторитетом и в исследованиях XX века. Сходство метафоры и сравнения отмечается, например, в труде Ш. Балли «Французская стилистика». Однако в указанной работе метафора определяется не только как средство художественной выразительности, но как органическое свойство мышления, обусловленное неспособностью человеческого ума к абсолютной абстракции. Балли писал: «Мы уподобляем абстрактные понятия предметам чувственного мира, ибо для нас это единственный способ познать их и ознакомить с ними других. Таково происхождение метафоры; метафора – это не что иное, как сравнение, в котором разум под влиянием тенденции сближать абстрактное понятие и конкретный предмет сочетает их в одном слове».

Интеракционистская теория метафоры на несколько десятилетий (с 1930-х по 1960-е годы включительно) предопределила направление дальнейших научных исследований, которые либо рассматривали метафору с точки зрения ее организации (микроисследования), либо фокусировались на самой интеракции, исследуя метафору в более широком контексте и в ее связи с философией, культурой и эстетикой (макроисследования).

Наиболее радикальный переворот в изучении метафоры произошел с выходом книги Дж. Лакоффа и М. Джонсона «Metaphors We Live By» (1980). Как отмечает И.В. Новицкая, «наибольшую известность и распространение в России получила теория концептуальной метафоры (the conceptual metaphor theory [Lakoff, Johnson, 1980]), о чем свидетельствуют многочисленные исследования, выполненные в рамках данной методологии на разнообразном языковом материале. Именно эта теория определяет вектор развития отечественной метафорологии в настоящее время и получает уникальное переосмысление в трудах российских ученых».

Согласно этой теории, метафора является не просто языковым выражением, а основополагающим механизмом мышления. Мы не просто говорим метафорами — мы мыслим метафорами. Концептуальная метафора понимается как перенос когнитивных структур из одной области знания (области-источника) в другую (область-цели).

Ряд исследователей (И. А. Ричардс, М. Блэк, Э. Маккормак, Ф. Уилрайт) подчеркивают в метафоре ее свойство оказывать эмоциональное и эстетическое воздействие на воспринимающего. Такая концепция метафоры может быть описана как образно-эмотивная. К этому же направлению можно отнести сформулированную М. Бирдсли теорию аномалии и теорию конфликта, которые рассматривают метафору как результат логической ошибки, противоречия, возникающего в результате сдвига от основного значения слова к его метафорическому значению.

Русская традиция изучения метафоры и сравнения имеет глубокие корни. Исследования А.А. Потебни и его школы заложили фундамент психолингвистического подхода к тропам. Потебня рассматривал слово как «поэтическое произведение» и считал, что образность является внутренней формой слова. Как отмечается в работе Ж. Эльсберга (1927), точка зрения Потебни на сравнение долгое время была господствующей. Ее суть заключалась в том, что «сравнение есть способ объяснить (себе и другим) вновь познаваемое явление», причем «явление, объясняющее, что привлекаемое сравнение должно быть более известно и понятно, чем объясняемое». Эта теория вызвала серьезную критику со стороны представителей формальной школы, в частности В. Шкловского, который утверждал, что «целью образа является не приближение значения его к нашему пониманию, а создание особого восприятия предмета, создание «видения» его, а не «узнавания», т.-е. «остранение» определяемого».

Интересный материал для критики теории Потебни представляет анализ так называемых «перекидывающихся» сравнений в творчестве А. Блока, где понятия одного порядка часто меняются местами, являясь то определяющим, то определяемым. Например, у Блока: «хмельней золотого Аи / Были страшные ласки твои» и одновременно «золотого, как небо, Аи», а также перекрестное сравнение: «Здесь ресторан, как храмы светел, / И храм открыт, как ресторан». Как справедливо замечают исследователи, все используемые в сравнениях понятия должны были бы принадлежать к «более понятным» и «более известным», и в блоковских текстах они, становясь в свою очередь определяемым, нуждаются в пояснении другими образами.

Проблема метафоры активно разрабатывалась в рамках стилистики и поэтики. Значительный вклад в её разработку внесли труды В.В. Виноградова, который провел важное разграничение между метафорой и метаморфозой, отмечая: «В метафоре нет никакого оттенка мысли о превращении предмета. Наоборот, «двуплановость», сознание лишь словесного приравнивания одного предмета второму – резко отличному – неотъемлемая принадлежность метафоры».

Сегодня центр тяжести исследований сместился в когнитивную лингвистику и лингвокультурологию. Как отмечается в современных обзорах, «на современном этапе развития языковедческой науки метафора активно исследуется с лингвокультурологической, лингвокогнитивной, психолингвистической, этнолингвистической точек зрения».

Особого внимания заслуживает теория метафоры В.Н. Телия, которая, по сути, адаптировала и переосмыслила социально-психологический подход на материале русского языка. В.Н. Телия, говоря о так называемом «модусе метафоры», утверждает, что

«метафоризация начинается с допущения о подобии (или сходстве) формирующегося понятия о реалии и некоторого в чем-то сходного с ней «конкретного» образно-ассоциативного представления о другой реалии».

Параллельно развивалась и структурно-семантическая теория метафоры (Н.Д. Арутюнова, Ю.Д. Апресян). Н.Д. Арутюнова ввела важные для разграничения метафоры и сравнения критерии. Она отмечает, что метафора выражает «устойчивое подобие, не допускает времени и места. Отграничение местом или определенным эпизодом характерно для сравнения». Кроме того, она подчеркивает, что «сравнение доступно любому наблюдательному человеку, метафора – только мастеру».

На современном этапе развития лингвистики наблюдается стремление к интеграции различных подходов к изучению метафоры. Как отмечает А.В. Аксенова, «одной из важнейших задач современной зарубежной метафорологии является разработка теоретической концепции под общим названием «теория метафоры», в рамках которой затрагивается проблема определения самого термина «метафора» с точки зрения различных подходов (например, семантического, стилистического, психолингвистического, когнитивного), а также выявления динамических и статических характеристик метафорических единиц».

Все эти теории основываются на интеграции когнитивного, коммуникативно-прагматического и собственно лингвистического подходов и методов анализа. Обобщая мнения американских и европейских метафорологов, И.В. Новицкая приходит к выводу о необходимости «комплексного интегративного подхода к анализу метафорических единиц, включающего учет их лингвистических, когнитивных и коммуникативных характеристик.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Аристотель. Поэтика // Аристотель. Сочинения: в 4 т. Т. 4. — М.: Мысль, 1984.-С.85.
2. Скляревская Г.Н. Метафора в системе языка. С.-П.: Изд.-во Наука, 1993. -С.98.
3. Балли Ш. Французская стилистика. -М., 2010. -С.23.
4. Аксенова Н.В. Метафора как косвенный способ выражения оценки в языке // Научная перспектива. 2015. № 12. С. 86–90.
5. Новицкая И.В. Лингвистика XXI века на пути к интегративной теории метафоры // Сибирский филологический журнал. -2019. -№ 3. -С. 1-15.

УЎК 811.111'37:811.512.133'37

РЕФЕРЕНЦИЯ ВА ДЕЙКСИС ҲОДИСАЛАРИНИНГ ЎЗАРО МУНОСАБАТИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА)

Қудратов У. Б., ўқитувчи, Абдулла Орипов номидаги ижод мактаби, Қарши

Аннотация. *Мақолада референция ва дейксис ҳодисаларининг ўзаро муносабати инглиз ва ўзбек тиллари мисолида қиёсий-типологик аспектда тадқиқ этилган. Дейксис референциянинг нутқ вазияти параметрлари (сўзловчи, тингловчи, вақт, макон) билан белгиланадиган алоҳида тури сифатида талқин қилинган. Шахс, макон, замон, дискурс ва ижтимоий дейксис воситалари қиёсланиб, икки тилдаги изоморф ва алломорф белгилар аниқланган.*

Калит сўзлар: *референция, дейксис, референт, дейктик марказ, анафора, кўрсатиш олмоши, нутқ вазияти, прагматика, қиёсий тилшунослик.*

Аннотация. *В статье исследуется взаимосвязь явлений референции и дейксиса на материале английского и узбекского языков в сравнительно-типологическом аспекте. Дейксис рассматривается как особый вид референции, определяемый параметрами речевой ситуации (говорящий, слушающий, время, пространство). Проводится сопоставительный анализ средств личного, пространственного, временного, дискурсивного и социального дейксиса, выявляются изоморфные и алломорфные признаки в двух языках.*

Ключевые слова: *референция, дейксис, референт, дейктический центр, анафора, указательное местоимение, речевая ситуация, прагматика, сопоставительное языкознание.*

Abstract. *This article investigates the relationship between reference and deixis in English and Uzbek from a comparative-typological perspective. Deixis is interpreted as a specific type of*

reference determined by the parameters of the speech situation (speaker, listener, time, and space). The study provides a comparative analysis of personal, spatial, temporal, discourse, and social deixis, identifying isomorphic and allomorphic features in the two languages.

Keywords: *reference, deixis, referent, deictic center, anaphora, demonstrative pronoun, speech situation, pragmatics, comparative linguistics.*

Кириш. Замонавий тилшуносликда тил бирликларини фақат тизим аъзоси сифатида эмас, балки нутқ жараёнида воқеликка ишора қилиш воситаси сифатида ўрганиш устувор аҳамият касб этмоқда. Шу нуқтаи назардан референция ва дейксис мантиқий семантика, прагматика ва матн лингвистикаси туташган нуқтадаги марказий тушунчалардан ҳисобланади. Референция тил ифодасининг нутқда маълум объектга нисбат берилишини, дейксис эса бу нисбат беришнинг нутқ вазияти иштирокчиларига таянадиган усулини англатади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Референция назарияси дастлаб мантиқий-фалсафий тадқиқотларда шаклланган: Б. Рассел аниқ дескрипцияларни атоқли отлардан фарқлаган [8], П. Стросон референцияни иборанинг эмас, сўзловчининг амали деб билган [9], К. Доннеллан эса дескрипцияларнинг референциал ва атрибутив қўлланишини ажратган [4]. Дейксис назариясининг асоси К. Бюлернинг «мен – ҳозир – бу ерда» (*ich – jetzt – hier*) координаталар тизими ҳақидаги таълимотидир [3]. Д. Каплан дейктик ифодаларни бевосита референция воситалари сифатида таснифлаган [6], Дж. Лайонз дейксисни сўзловчининг вақт ва макондаги нуқтасига нисбатан аниқлаш сифатида тавсифлаган [7], Ч. Филлмор, С. Левинсон ва Дж. Юл унинг шахс, макон, замон, дискурс ва ижтимоий турларини ажратган [5; 10; 11]. Рус тилшунослигида Н.Д. Арутюнова ва Е.В. Падучева референция ва эгоцентрик ифодалар муносабатини тизимли ёритган [1; 2], ўзбек тилшунослигида Ш. Сафаров ва М.Ҳакимов дейксис масалаларига прагмалингвистик жиҳатдан тўхталган [12; 13]. Бироқ инглиз ва ўзбек тиллари материалида икки ҳодисанинг ўзаро муносабати махсус қиёсий тадқиқ объекти бўлмаган.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотда қиёсий-типологик, контекстуал ва трансформацион методлардан фойдаланилди. Қиёсий-типологик метод икки тилдаги дейктик воситалар тизимини солиштиришга, контекстуал таҳлил ифоданинг дейктик ёки анафорик қўлланишини фарқлашга, трансформацион метод эса ўзлаштирилган нутқда дейктик марказнинг силжишини кузатишга хизмат қилди. Материал сифатида инглиз ва ўзбек бадиий матнлари, сўзлашув нутқи намуналари ва таржималардан олинган мисоллар таҳлил қилинди; таҳлил Дж. Лайонз ва С. Левинсон таснифига таянади [7; 10].

Таҳлил ва натижалар

1. Референция тизимида дейксиснинг ўрни. Референтни аниқлаш усулига кўра уч тур референция фарқланади: дейктик – референт нутқ вазияти орқали аниқланади (*This is my brother* / *Бу – укам*); анафорик – референт матндаги антецедент орқали аниқланади (*John came in. He sat down* / *Анвар кирди. У ўтирди*); нодейктик – референт атоқли от ёки тавсифий ибора орқали бевосита дейктик кўрсатишсиз аниқланиши мумкин (*Tashkent is the capital of Uzbekistan* / *Тошкент – Ўзбекистон пойтахти*). Демак, дейксис референциянинг алоҳида тури бўлиб, улар тур ва жинс муносабатида туради.

2. Шахс дейксиси. Инглиз тилида шахс референцияси мустақил олмошлар (*I, you, we*) орқали ифодаланади ва стандарт дарак гапларда эганинг очиқ ифодаланиши одатда талаб этилади; буйруқ гаплар ва айрим эллиптик қурилмалар бундан мустасно. Ўзбек тилида эса шахс дейксиси кесимдаги шахс-сон ва отдаги эгалик қўшимчаларида ҳам реаллашади: *Келдим* гапида референт олмошсиз, фақат *-м* қўшимчаси орқали аниқланади (инг. *I came*); *китобим* (*my book*), *уйимиз* (*our house*) сўзшаклларида от дейктик қўшимча билан бирикиб, ягона референциал ифода ҳосил қилади. Бу агглютинатив тилда дейксиснинг морфологик сатҳга чуқур сингишини кўрсатади.

3. Макон дейксиси ва кўрсатиш олмошлари. Инглиз тилида кўрсатиш тизими икки даражали: *this* (сўзловчига яқин) – *that* (сўзловчидан узоқ), *here – there*. Ўзбек тилида эса уч

даражали: *бу* (сўзловчига яқин), *шу* (тингловчига яқин ёки иккаласига маълум), *у* (иккаласидан узоқ); *бу ерда – шу ерда – у ерда*. Шу боис *Take that book* гапи референтнинг жойлашувига қараб *Шу китобни ол* ёки *У китобни ол* тарзида ўгирилади. *Шу* олмоши анафорик вазифага ҳам ихтисослашган: *Кеча бир дўстимни учратдим. Шу одам менга ёрдам берди – Yesterday I met a friend. That man helped me.*

4. Замон дейксиси. Иккала тилда замон дейксиси лексик (*now, today, tomorrow* / *ҳозир, бугун, эртага*) ва грамматик воситалар орқали ифодаланади. Фарқ ўзлаштирилган нутқда кўринади: инглиз тилида *He said, "I will come tomorrow" → He said that he would come the next day* трансформациясида шахс, замон ва равиш янги дейктик марказга мослашади. Ўзбек тилида эса *деб* воситаси орқали асл дейктик марказ кўпинча сақланади: *У «Эртага келаман», деди* ёки *У эртаси келишини айтди*. Бу ўзбек тилида мажбурий замонлар мослиги (*sequence of tenses*) йўқлиги билан изоҳланади.

5. Дискурс дейксиси. Бунда референт нутқдан ташқаридаги объект эмас, матннинг ўз қисми бўлади: *in this chapter, the following example, as mentioned above* / *ушбу бобда, қуйидаги мисол, юқорида айтилганидек*. С. Левинсон таъкидлаганидек, анафора аввал тилга олинган референтга, дискурс дейксиси эса матн қисмининг ўзига ишора қилади [10]. Ўзбек илмий ва расмий матнларида *ушбу* олмоши айнан шу вазифага ихтисослашган.

6. Ижтимоий дейксис. Инглиз тилида *you* олмоши ҳурматга бетараф бўлиб, ҳурмат лексик (*Sir, Madam, Mr. Smith*) ва модал (*Could you…?*) воситалар орқали ифодаланади. Ўзбек тилида эса *сен – сиз* олмошлари ва ҳурмат кўплиги (*Дадам келдилар*) ижтимоий муносабатни грамматик даражада акс эттиради. Референт битта шахс бўлса-да, кўплик шакли прагматик вазифа бажаради, яъни сон ва референтлар сони орасидаги мослик бузилади.

7. Артикль ва таниш референтга ишора. Инглиз тилида *the* артикли тарихан *that* олмошидан келиб чиққан ва анафорик референцияни таъминлайди: *I bought a book. The book is interesting*. Ўзбек тилида артикль йўқ, аниқлик *-ни* қўшимчаси, сўз тартиби ва кўрсатиш олмошлари орқали ифодаланади: *Бир китоб олдим. Китоб қизиқарли экан*. Сўзлашувдаги *ҳалиги* сўзи эса умумий тажрибадан маълум референтга ишора қилади (*Ҳалиги одам келдими?*); инглиз тилида бу вазифани *that* бажаради: *Did that guy come?* Натижалар 1-жадвалда умумлаштирилди.

1-жадвал. Инглиз ва ўзбек тилларида дейктик референция воситалари

Дейксис тури	Инглиз тили	Ўзбек тили	Муносабат
Шахс	Мустақил олмошлар (I, you, he); стандарт дарак гапларда эга одатда очиқ ифодаланади	Олмошлар + шахс-сон ва эгалик қўшимчалари; олмош тушиб қолиши мумкин	Алломорф
Макон	this – that; here – there (2 даража)	бу – шу – у; бу ерда – шу ерда – у ерда (3 даража); ана, мана	Қисман изоморф
Замон	now, today, tomorrow; замонлар мослиги	ҳозир, бугун, эртага; замонлар мослиги йўқ	Қисман изоморф
Дискурс	this chapter, the following, above	ушбу, қуйидаги, юқоридаги	Изоморф
Ижтимоий	you + лексик ва модал воситалар	сен – сиз; ҳурмат кўплиги	Алломорф
Аниқлик / танишлилик	the, that	-ни, шу, ҳалиги	Алломорф

Хулоса

1. Дейксис референциянинг алоҳида тури бўлиб, унда референт нутқ вазияти параметрлари орқали аниқланади; анафора эса дейксиснинг матн майдонига кўчирилган шакли сифатида иккала ҳодисани боғлайди.

2. Инглиз тилида дейктик референция асосан лексик-синтактик воситалар (мустақил олмошлар, артикль, замонлар мослиги), ўзбек тилида эса кўпроқ морфологик воситалар (шахс-сон ва эгалик қўшимчалари, келишиклар) орқали реаллашади.

3. Ўзбек тилидаги уч даражали кўрсатиш тизими (*бу – шу – у*) инглиз тилидаги икки даражали тизимга (*this – that*) нисбатан макон ва анафорик референцияни нозикроқ фарқлайди.

4. Ижтимоий дейксис ўзбек тилида грамматиклашган (*сен – сиз*, ҳурмат кўплиги), инглиз тилида эса лексик ва модал воситалар орқали ифодаланади. Бу фарқларни ҳисобга олиш таржимада референциал аниқликни сақлаш ва инглиз тилини ўқитишда интерференциянинг олдини олишда муҳимдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл: Логико-семантические проблемы. – М.: Наука, 1976.–383 с.
2. Падучева Е.В. Высказывание и его соотнесенность с действительностью (референциальные аспекты семантики местоимений). – М.: Наука, 1985. – 272 с.
3. Bühler K. Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache. – Jena: Gustav Fischer, 1934. – 434 p.
4. Donnellan K. Reference and Definite Descriptions // The Philosophical Review. – 1966. – Vol. 75, No. 3. – P. 281–304.
5. Fillmore C.J. Lectures on Deixis. – Stanford: CSLI Publications, 1997. – 145 p.
6. Kaplan D. Demonstratives // Themes from Kaplan / Ed. by J. Almog, J. Perry, H. Wettstein. – New York: Oxford University Press, 1989. – P. 481–563.
7. Lyons J. Semantics. Vol. 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
8. Russell B. On Denoting // Mind. – 1905. – Vol. 14, No. 56. – P. 479–493.
9. Strawson P.F. On Referring // Mind. – 1950. – Vol. 59, No. 235. – P. 320–344.
10. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.
11. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138 p.
12. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 300 б.
13. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б.

УДК 81-13

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ МЕТАФОРИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ: ОТ КОГНИТИВНОЙ ТЕОРИИ К КОРПУСНОЙ ПРОЦЕДУРЕ

Мавланова Н., преподаватель, Азиатский технологический университет, Карши

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy tilshunoslikda metaforik konstruksiyalarni tadqiq etishning asosiy metodlari ko‘rib chiqiladi: an’anaviy semantik-stilistik yondashuv, konseptual metafora tahlili, MIP va MIPVU metaforani aniqlash protseduralari, korpus metodlari, diskursiv va tanqidiy tahlil, psixolingvistik eksperiment hamda metaforani avtomatik aniqlash usullari. Qiyosiy va tarjimashunoslik tadqiqotlarida qo‘llash mumkin bo‘lgan kompleks tahlil bosqichlari taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *metafora; metaforik konstruksiya; konseptual metafora; MIPVU; korpus tahlili; qiyosiy tadqiqot.*

Аннотация. *В статье рассматриваются основные методы исследования метафорических конструкций в современной лингвистике: традиционный семантико-стилистический подход, анализ концептуальной метафоры, процедуры идентификации метафор MIP и MIPVU, корпусные методы, дискурсивный и критический анализ, психолингвистический эксперимент, а также методы автоматического выявления метафор. Предлагаются этапы комплексного анализа, которые могут быть использованы в сравнительно-лингвистических и переводоведческих исследованиях.*

Ключевые слова: *метафора; метафорическая конструкция; концептуальная метафора; MIPVU; корпусный анализ; сопоставительное исследование.*

Abstract. *The article examines the main methods for studying metaphorical constructions in modern linguistics, including the traditional semantic-stylistic approach, conceptual metaphor analysis, the MIP and MIPVU metaphor identification procedures, corpus-based methods, discourse and critical analysis, psycholinguistic experiments, and automatic metaphor detection methods. The study proposes stages of a comprehensive analytical framework that can be applied in comparative linguistic and translation studies.*

Keywords: *metaphor; metaphorical construction; conceptual metaphor; MIPVU; corpus analysis; contrastive study.*

Введение. Метафора давно перестала восприниматься исключительно как украшение художественной речи. Начиная с работ И. А. Ричардса и М. Блэка, метафора рассматривается как способ взаимодействия двух понятийных областей [Richards 1936; Black 1962], а после

выхода книги Дж. Лакоффа и М. Джонсона «Метафоры, которыми мы живём» — как механизм мышления, проявляющийся в повседневном языке [Lakoff, Johnson 1980]. В отечественной лингвистике метафора изучалась как языковое явление, связанное с номинацией и оценкой [Арутюнова 1990; Телия 1988; Скляревская 1993], а позднее — как инструмент политического и медийного дискурса [Баранов, Караулов 1994; Чудинов 2001].

Цель статьи — систематизировать основные методы исследования метафорических конструкций, определить возможности и ограничения каждого из них и предложить последовательность этапов комплексного анализа.

Методология. В работе использованы методы аналитического обзора научной литературы, сравнительно-сопоставительный анализ методологических подходов по единым параметрам (единица анализа, материал, процедура, результат, ограничения), а также демонстрационный анализ языковых примеров по процедуре MIPVU.

Результаты и обсуждение.

Семантико-стилистический подход. Традиционно метафора изучается через сопоставление прямого и переносного значений слова и через описание её стилистических функций. Г. Н. Скляревская разработала типологию языковой метафоры и показала её место в лексической системе [Скляревская 1993], В. Н. Телия описала механизм метафоризации как взаимодействие сем исходного и нового значения [Телия 1988]. Основной инструмент здесь — компонентный (семный) анализ с опорой на толковые словари. *2. Анализ концептуальной метафоры.* Процедура анализа включает выделение языковых выражений, определение области-источника и области-цели и установление системы соответствий (проекций) между ними. Так, русские *тратить время, сэкономить час*, узбекские *vaqtni behuda sarflamoq, vaqt — oltin* и английские *to spend time, to save time* реализуют одну концептуальную метафору, хотя и с разной степенью лексикализации.

Процедуры идентификации MIP и MIPVU. Ответом на проблему субъективности стала процедура MIP (Metaphor Identification Procedure), предложенная группой Pragglejaz [Pragglejaz Group 2007], и её расширенная версия MIPVU, разработанная в Амстердамском свободном университете [Steen et al. 2010]. Процедура предписывает: прочитать весь текст; разбить его на лексические единицы; для каждой единицы установить контекстуальное значение; проверить, существует ли у неё более базовое (конкретное, телесное, исторически первичное) значение; если контекстуальное значение отличается от базового, но может быть понято через сравнение с ним, единица отмечается как метафорически употреблённая.

Корпусные методы. Корпусная лингвистика позволяет перейти от отдельных примеров к частотным закономерностям. А. Дейгнан показала, что метафорические употребления слов имеют свои типичные грамматические и сочетаемостные характеристики, отличные от прямых [Deignan 2005]. Для поиска используются конкордансы, анализ коллокаций и меры ассоциации. Й. Чартерис-Блэк сочетает корпусную процедуру с критическим анализом, вычисляя частотность и «резонанс» метафор в политических текстах [Charteris-Black 2004]. А. П. Чудинов описал метафорические модели российского политического дискурса (ВЛАСТЬ — ЭТО ВОЙНА, ГОСУДАРСТВО — ЭТО ДОМ и др.) через фреймы, слоты и прагматический потенциал [Чудинов 2001]. Л. Камерон разработала подход «дискурсивной динамики», в котором метафоры анализируются в развитии живого диалога и выделяются по признаку «носителя» метафоры (vehicle) [Cameron, Maslen 2010].

Обобщённое сопоставление рассмотренных методов приведено в таблице 1.

Таблица 1. Сопоставление методов исследования метафорических конструкций

Метод	Единица анализа	Основное преимущество	Основное ограничение
Семантико-стилистический	Слово, значение	Детальное описание семантики	Интуитивное выделение, малый объём материала
Концептуальный анализ	Концептуальная метафора	Высокая объяснительная сила	Риск произвольного постулирования моделей
MIP / MIPVU	Лексическая единица в тексте	Воспроизводимость, проверяемость	Трудоёмкость, зависимость от словаря

Метод	Единица анализа	Основное преимущество	Основное ограничение
Корпусный	Словоупотребление, паттерн	Количественная обоснованность	Необходимость ручной разметки
Дискурсивный	Метафора в тексте и диалоге	Учёт контекста и функций	Сложность количественной проверки
Экспериментальный	Реакция носителя языка	Данные о восприятии	Ограниченный набор стимулов
Компьютерный	Токен в большом массиве	Обработка больших данных	Зависимость от обучающей разметки

Анализ показывает, что методы не исключают, а дополняют друг друга. Заключение. Исследование метафорических конструкций прошло путь от описания стилистических фигур к изучению метафоры как когнитивного и дискурсивного феномена. Современная методология располагает широким набором инструментов: семантико-стилистическим и концептуальным анализом, формализованными процедурами идентификации MIP и MIPVU, корпусными, дискурсивными, экспериментальными и компьютерными методами. Предложенная последовательность этапов может быть использована в сопоставительных исследованиях русского, узбекского и английского языков, а также в переводоведении.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Арутюнова Н. Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры: сборник. – М.: Прогресс, 1990. – С. 5–32.
2. Баранов А. Н., Караулов Ю. Н. Словарь русских политических метафор. – М.: Помовский и партнёры, 1994. – 351 с.
3. Скляревская Г. Н. Метафора в системе языка. – СПб.: Наука, 1993. – 151 с.
4. Телия В. Н. Метафоризация и её роль в создании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. – С. 173–204.
5. Чудинов А. П. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры (1991–2000). – Екатеринбург: УрГПУ, 2001. – 238 с.
6. Black M. Models and Metaphors: Studies in Language and Philosophy. – Ithaca: Cornell University Press, 1962. – 267 p.
7. Cameron L., Maslen R. (eds.) Metaphor Analysis: Research Practice in Applied Linguistics, Social Sciences and the Humanities. – London: Equinox, 2010. – 288 p.
8. Charteris-Black J. Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2004. – 263 p.
9. Deignan A. Metaphor and Corpus Linguistics. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2005. – 236 p.
10. Gibbs R. W. The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 527 p.

УДК 811.161.1'342

ФОНОТАКТИЧЕСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ФИНАЛЬНЫХ КОНСОНАНТНЫХ КЛАСТЕРОВ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ

Н.П.Панжиев, кандидат филологических наук, доцент, Термезский государственный университет, Термез

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy rus adabiy tilidagi so'z oxiri konsonant klasterlarining fonotaktik tuzilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi izohli va grammatik lug'atlar asosida final klasterlarning aniqlashtirilgan inventarini belgilash, ularni komponentlar soni hamda shovqinli va sonor undoshlarning o'zaro munosabatiga ko'ra tasniflash, shuningdek, fonetik amalga oshish qonuniyatlarini tavsiflashdan iborat. Materialga ikki, uch va to'rt a'zoli undosh birikmalari bilan tugaydigan leksemalar va me'yoriy so'z shakllari, avvalo otlarning ko'plik qaratqich kelishigi shakllari kiritildi. Tahlil natijasida 156 ta struktur-fonetik model aniqlandi: 122 ta ikki a'zoli, 25 ta uch a'zoli va 9 ta to'rt a'zoli model. Ikki a'zoli tizimda 'sonor + shovqinli' turi eng faol bo'lsa-da, modellarning qariyb uchdan biri sonorlik tamoyiliga zid bo'lgan 'shovqinli + sonor' yakunini namoyon qiladi. Inventarning boyishida o'zlashmalar, so'z o'zgarishi va reduksiyalangan unlilarning tarixiy tushishi muhim rol o'ynaydi. Final klasterlarning talaffuzi jarangli undoshlarning pozitsion jarangsizlanishi, jarangsizlik bo'yicha regressiv assimilyatsiya, assimilyativ yumshoqlikning variantliligi va sonorlarning qisman jarangsizlanishi bilan belgilanadi.*

Kalit so'zlar: *rus tili, fonotaktika, final konsonant klaster, struktur-fonetik model, sonorlik, assimilyatsiya, so'z shakli.*

